Xalqaro amaliyotda bolalar jismoniy tarbiyasi tizimini modernizatsiyalashtirishning noan'anaviy asoslarini rivojlantirishni tadqiq etish dolzarbligi sport taraqqiyoti bajaradigan funksiyalar bilan uzviy bog'liq. Zero, bu funksiyalar orasida ma'naviy-axloqiy tarbiya funksiyasi yetakchi o'rin tutadi. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlar, o'tkazilayotgan tadbirlarning ba'zi joyda kutilganicha natija bermayotganligining sabablardan biri, ommaviy sport tadbirlarida noan'anaviy texnologiyalardan foydalanish metodikasining yetarli darajada shakllantirmagani bilan bog'liqdir. Dunyoning yetakchi ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida bolalarni jismoniy tarbiya vositasida tarbiyalashning metodologik va texnologik asoslarini takomillashtirish, jismoniy madaniyat va pedagogika integratsiyasining noan'anaviy mezon va darajalarini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Zero jismoniy madaniyat konsepsiyalarining metodologik tahlili, jismoniy madaniyatning pedagogik mohiyatini o'rganish natijalari, uning kichik yoshdagi bolalarning "gipodinmiya"ga qarshi faol harakat immunitetini mustahkamlab, noan'anaviy texnologiyalarning yangi modellarini yaratish va amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi. Noan'anaviy vositalar texnologiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari,

jumladan, IPEES, Physical Education and sport science (AQSh), Preschool training and Physical Culture (Buyuk Britaniya), Children's sports and health (Kanada), Physical Culture and tourism (Jabubiy Koreya), Children's Center (Singapur) larda olib borilmoqda[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Noan'anaviy pedagogik yondoshuvlarning xususiyatlari, mazmun, shakl va tarbiyaviy, sog'lomlashtirish imkoniyatlari oid tadqiqotlarni Z.Qodirova, F.Qodirova., X.Ibragimov, J.Eshnazarov, M.Ismoilova, D.Kenjayeveva, H.I.Nurmatov, Sh.Olimov, M.Mahmudov, K.Risqulova, M.Maxmudova, O.Musurmonova va boshqalar o'z asar va manbalarida qimmatli g'oyalari aks etgan.

Noan'anaviy pedagogik yondoshuvlar, jismoniy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish, ta'limda innovatsion pedagogik yondoshuvlar, individuallashtirish, uzluksizlik, kognitiv ta'lim texnologiyalari, kognitiv kompetentlikka doir tadqiqotlar, S.Nishonova, M.Abdujabbarova, S.Annamuratova, Ye.Balabekov, N.Qiyomov, M.Quronov, Q.Quronboyev, S.Yuldasheva, Z.Qosimova, G.Maxmutova, N.Shodiyev, Sh.Qurbonov, A.Hasanov kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan[2,5].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 4-7 yosh bolalarni jismoniy tarbiyalashning yangi, noan'anaviy shakllari, vositalari va usullarini izlash dolzarb hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Tajriba boshlanishidan oldin tajriba va nazorat guruhlari bolalari oldinga yegilish natijalari bundan mustasno, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari va harakat faolliklari natijalarida sezilarli farqlar mavjud yemas yedi. Tajriba o'tkazilgandan so'ng, har ikki guruhda ham jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarida bir tomonlama ishonchli o'zgarish kuzatildi. Shunday qilib, yuklama miqdorini asta-sekin oshirib borish tajriba guruhidagi bolalar organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatmadi. Noan'anaviy mashqlar mashg'ulotlarning tajriba guruhlarida qo'llanilgan vositalari va usullari ushbu yoshdagi bolalar organizmining imkoniyatlariga mos yedi (bu pedagogik kuzatuvlar va pulsometriya ma'lumotlari bilan ham tasdiqlangan).

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotining jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlari amaliyotida innovatsion quyidagi pedagogik texnologiyalar paydo bo'ldi: o'yin stretching, ritmoplastika fitbol, logoritmik gimnastika va boshq.

O'yin stretching. Barcha mashqlar mushaklarning kuchlanishi va bukilishiga asoslangan. Mashqlar musiqa ostida bajariladi. Har bir mashg'ulotda ajoyib sayohatlar shaklida yangi rolli o'yin o'tkaziladi. O'yin emotsional tarzda o'ynaladi, mashqlarni almashish va ertak tinglash almashtiriladi. O'yin syujeti mashqlar o'zgaruvchan bo'lishi uchun tashkil etilgan, bolaning butun tanasiga bir xil yuklama tushadi.

Ritmoplastika, "Ritmoplastika" pedagogik texnologiyasi harakatlar va ritmning uyg'un mozaikasi.

Ritmoplastika texnologiyasining o'ziga xos xususiyati bu ishda maxsus ishlab chiqilgan repertuardan - musiqiy va plastik kompozitsiyalardan foydalanish bo'lib, ularning har biri bolalar uchun tushunarli bo'lgan aniq o'ynoqi tasvirga ega. Har xil turdagi harakatlarni (har xil boshlang'ich pozitsiyalarda bajariladigan raqs, umumiy rivojlanish, taqlid va boshqalar) kombinatsiyasi pedagogik mahorat, kommunikativ raqs yoki o'yin texnologiyasi shaklida musiqiy va plastik tasvirni yaratishga yordam beradi.

Fitbol. Texnologiya katta to'plardan foydalanishga asoslangan. -Gimnastika to'plarida mashq qilishning shifobaxsh ta'sirining o'ziga xosligi umurtqa pog'onasidagi ta'sirning fiziologik mexanizmi va natijada butun tayanch-harakat tizimi va tananing avtonom tizimlarining ishi bilan belgilanadi. To'plar umumiy va maxsus korreksion vazifalarni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin.

To'plarda mashqlarni yuqori tezkorlikda bajarish -mushaklarning ohangini oshiradi, bola aqliy qobiliyatlarini stimullab, charchoqning yoqimsiz hislarini kamaytiradi. To'pning elastik xususiyatlari mushak-skelet tizimiga zarba yuklamasini kamaytiradi. Shuning uchun, turli xil tartiblarni tanlashda vazifani bajarish qulayligi bilan tananing ish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Kreativ gimnastika. "Kreativ gimnastika" atamasi tomonidan 4-7 yoshli bolalar uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining yangi tuzilishi va mazmunini ishlab chiqishda kiritilgan.

Bolalar bilan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari asosan o'yin shaklida, aqliy va tarbiyaviy faoliyatga yo'nalgan musiqadan foydalangan holda olib boriladi. Bundan tashqari, bolalarda ijodkorlik va tasavvurni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.


Gender xususiyat insonning asosiy xususiyatlaridan biridir. Shaxsni shakllantirishga individual yondashishning zamonaviy talablari bolaning jinsining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan amalga oshirilmaydi. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim amaliyotida insonning u yoki bu jinsga mansubligi belgilarini farqlash tendensiyasi kuchaymoqda.

Jismoniy qobiliyatning rivojlanishini samarali boshqarish uchun 4-7 yoshdagi bolalarda harakat faolligini oshirish va takomillashtirish, har bir bolada tashkiliy va mustaqil harakat faolligi darajasini aniqlash va shunga muvofiq noan'anaviy gimnastika vositalari hamda usullaridan foydalanish zarur.

Bolalarning harakat faolligini, vosita va amalga oshirish usullarini o'rganishda adabiyotlarni tahlil qilishni yakunlab, biz ikkita muhim jihatni qayd etdik:

bolaning harakatga bo'lgan ehtiyojini to'la-to'kis qondirishga, harakat faolligini rivojlanishiga yordam beradigan eng munosib faoliyatni yo'lga qo'yish; tashkiliy va mustaqil faoliyatda bolalarning harakat faolligini optimal tashkil etish usullari va vositalarini izlash.

Shuningdek, harakatchanligi turli xil bo'lgan bolalar quyidagicha tahlil qilindi:



1-rasm. MTT kun tartibida HF hajmi ko'rsatkichlarini me'yor bilan solishtirilishi (qadamlar soni)

Izoh: MTT-maktabgacha ta'lim tashkiloti; HF-harakat faolligi.

Shunday qilib, kichik guruh 4-7 yoshdagi bolalarning

HF darajasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, nazorat guruhida bolalarning ko'pchiligi (62%) o'rta darajaga ega, tajriba guruhining sinaluvchilari ko'rsatkichi esa, o'rta darajadan yuqori bo'lgan (68%); o'rta guruh 4-7 yoshdagi bolalarning HF darajasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, nazorat guruhida ko'pchilik bolalar (75%) o'rta HF darajasiga ega, tajriba guruhida bu ko'rsatkich 54%ni tashkil etdi; katta guruh 4-7 yoshdagi bolalarning HF darajasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, nazorat guruhidagi bolalarning ko'pchiligi (43%) Hfning past darajasiga ega, tajriba guruhida ko'pchilik (79%) harakat faolligi o'rta darajasiga ega bolalardir. MTTning kun tartibida jismoniy faollikning umumiy hajmini baholashda quyidagi ko'rsatkichlar qayd etildi.

Harakat faolligi sust 4-7 yoshdagi bolalarning mavjudligi, faol kun tartibini tashkil etish uchun noananaviy gimnastika vositalari va nazariy modelini qo'llash orqali yoshga nisbatan to'laqonli shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

1-jadval

Tajriba guruhining o'g'il va qiz bolalarida jismoniy qobiliyatlarini rivojlanishining tadqiqot boshidagi ko'rsatkichlari dinamikasi n=30 (6-7 yosh)

Jismoniy me'yorlar		6 yosh		7 yosh		
		$\bar{x} \pm \sigma$	V %	$\bar{x} \pm \sigma$	V %	
Egiluvchanlik	Yotgan holda ko'prik holatida turish, soniya	O*	4,96±0,64	12,90	5,03±0,65	12,92
		Q	4,58±0,59	12,88	4,67±0,55	12,21
	Tik turgan joydan egilish, sm.	O*	4,22±0,52	12,32	4,28±0,55	12,85
		Q	4,31±0,51	11,83	4,42±0,52	11,76
Mushak harakatchanligi	Burchak holda o'tirib, qo'llarni yon tomonlarga cho'zib (10 marta) harakatlanish, soniya	O*	4,33±0,58	13,39	3,52±0,46	13,07
		Q	4,48±0,57	12,72	3,62±0,48	13,56
Chaqqonlik	Oldinga 10 qadam 8 shaklida sakrab yurish, qo'llar belda, soniya	O*	4,36±0,45	10,32	3,33±0,36	10,81
		Q	4,29±0,55	12,82	3,27±0,44	13,46
	Gimnastika o'rindig'ida qo'llarga tayangan holda, qorin bilan sudralish, soniya 2 marta.	O*	4,24±0,63	14,86	4,14±0,61	14,73
		Q	4,90±0,57	11,63	4,99±0,61	12,22
	To'rt oyoqlab 10 metrga emaklash, (soniya).	O*	10,34±1,12	10,8	9,3±1,06	11,4
		Q	11,28±1,26	11,17	9,17±1,09	11,89
Harakat faolligi	Doira bo'ylab yugurish, 1 marta, soniya	O*	4,18±0,59	14,1	3,64±0,54	14,8
		Q	3,59±0,45	12,53	3,52±0,43	12,22

Izoh: o'-o'g'il; Q-qiz.

Qiz va o'g'il bolalarda jismoniy qobiliyatlarining rivojlanishiga oid ma'lumotlar qiyosiy tahliliga ko'ra, o'g'il bolalar yuqoriroq ko'rsatkichga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida barcha yoshdagi qizlarda egiluvchanlik qobiliyatining rivojlanishi yuqoriroq ko'rsatkichga ega ekanligi kuzatildi. Bu yesa jismoniy qobiliyatlarning yaxshiroq shakllanganligi hamda o'g'il bolalardan ko'ra qizlarda egiluvchanlik qobiliyatini rivojlanishining yuqoriroq darajasi bilan belgilanadi

Xulosa qilganda, 4-7 yosh bolalarning yosh, individual, va boshqa differensial xususiyatlarini hisobga olgan holda noan'anaviy mashqlar tizimiga asoslangan vositalarni MTT lari amaliyotida qo'llash, jismoniy tarbiya jarayonini moderinizatsiyalashga imkon beradi hamda mashqlar korreksiyaviy, reablitativ effekt berib, jismoniy faolligini oshirish dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, bolalarning muntazam jismoniy mashqlarga bo'lgan qiziqishi, irodaviy va tarbiyaviy jarayonlarini shakllantirishga asos bo'ladi. Tadqiqtdan so'ng matematik statistik tahlil qilinganda bolalar aerobika pedagogik texnologiyasidan foydalanish imkoniyati kengaytirilgan hamda statik rejimda umurtqa pog'onasi mushak qayishqoqligini rivojlantirishga qaratilgan spring elastika mikromashg'ulotlarini ishlab chiqish hisobiga mashg'ulotlarni o'z vaqtida tezkor tuzatuvchi korreksion pedagogika yo'nalishi takomillashtirilgan.

ADABIYOTLAR

- 1.G.X.Xolboyeva. SamDU ilmiy Axborotnomasi. Mechanisms for improving primary gymnastics in increasing the physical activity of children in preschool education. 2021-yil, 2-son. 2091-5446. B.130-136.
2. G.Xolboyeva. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, SamDU ilmiy Axborotnomasi.2020. 2-son. 2091-5446. B.102-108.
- 3.B.T.Xaydarov. G.X. Xolboyeva. SamDU ilmiy Axborotnomasi. Maktabgacha yoshdagi bolalar harakat faolligini oshirishda dastlabki gimnastika mashg'ulotlarini takomillashtirish mexanizmlari. 2020. 2019-yil, 6-son. 2091-5446. B.140-144.
- 4.J.Eshnazarov. Bolalar jismoniy sifatlarini rivojlantirish uslublari
- 5.Малинина Н.Н. Гимнастика и методика преподавания. Ташкент. 2001 й. 123 стр.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI BIRGALIKDAGI IJODIY FAOLIYATGA O‘RGATISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Hojiyeva Zulfiya O‘ktamovna
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti “Umumiy pedagogika” kafedrasida dots.ntl,
PhD

ОБУЧЕНИЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ СОВМЕСТНОЙ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Хожиева Зулфия Уктамовна,
PhD, доцент кафедры общей педагогики Университета Ташкентский Государственный Педагогический Университет имени Низами

PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR JOINT CREATIVE ACTIVITY AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Hojiyeva Zulfiya Uktamovna,
PhD, Associate Professor, Tashkent State University named after Nizami

Annotatsiya: Mazkur maqolada muallif bo‘lajak o‘qituvchilarni birgalikdagi ijodiy faoliyatga o‘rgatishning nazariy asoslari haqida fikr-mulohazalarini keltirgan. Ishda birgalikdagi ijodiy faoliyatga asoslangan hamkorlik birgalikda ijod qilish sharoitini vujudga keltirib, o‘qituvchi-talaba hamkorligining yuqori darajasi sifatida namoyon bo‘lishi, bunday ta’limiy vaziyatlar ta’lim oluvchilarning ijobiy sifatlarini o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi hamda mustaqil rivojlanishning ijodiy yo‘lini tanlashlariga sabab bo‘lishi haqida mulohazali fikrlar mavjud. Birgalikdagi ijodiy faoliyatga asoslangan hamkorlik faoliyatiga o‘rgatish pedagogik muammo sifatida ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: Ijodiy faoliyat, kreativ kompetensiya, talaba, pedagogika, birgalikdagi faoliyat, innovatsion yondashuv, baholash, kommunikativ, hamkorlik.

Аннотация: В данной статье автор привел свои размышления о теоретических основах обучения будущих педагогов совместной творческой деятельности. В работе содержатся рассуждения о том, что сотрудничество, основанное на совместной творческой деятельности, создает условия для совместного творчества и проявляется как высокий уровень сотрудничества учителя и ученика, что такие образовательные ситуации положительно влияют на усвоение учащимися положительных качеств и побуждают их выбирать творческий путь самостоятельного развития. Обучение совместной деятельности, основанной на совместной творческой деятельности, раскрывается как педагогическая проблема.

Ключевые слова: Творческая деятельность, креативная компетентность, студент, педагогика, совместная деятельность, инновационный подход, оценка, коммуникативность, сотрудничество.

Abstract: In this article, the author expressed his thoughts on the theoretical foundations of teaching future teachers of joint creative activity. The article presents arguments that cooperation based on joint creative activity creates conditions for joint creativity and manifests itself as a high level of cooperation between a teacher and a student, that such educational situations positively affect the assimilation of positive qualities by students and encourage them to choose a creative path of independent development. The teaching of joint activity based on joint creative activity is revealed as a pedagogical problem.

Key words: Creative activity, creative competence, student, pedagogy, joint activity, innovative approach, assessment, communication, cooperation.

So‘nggi yillardagi ta’lim tizimida yuz bergan asosiy o‘zgarishlar o‘quvchining o‘ziga xosligiga ijtimoiy qadriyat sifatida asosiy e’tiborni kuchaytirish bilan bog‘liq. Ta’lim jarayoniga uslubiy va nazariy yondashuvlar da yuqori sifatli o‘zgarishlar mavjud bo‘lib, unda birgalikdagi ijodiy faoliyat tendensiyasi aniq ko‘rsatilgan. Bu esa o‘z o‘rnida bo‘lajak o‘qituvchining individual va kasbiy shakllanishini, uning ma’naviy, ijodiy imkoniyatlarini maksimal darajada ro‘yobga chiqarishni ta’minlaydigan oliy o‘quv yurtida

o'qituvchilar tayyorlash tizimini tegishli ravishda modernizatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Jamiyatimiz rivojlanishining tezlashuvi har qanday o'zgarishlarga ijodiy yondashuvchi va bor muammolarni sifatli va noodatiy hal qilishga qodir mutaxassislarga ehtiyoj sezadi. Bu kabi mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kunda ta'lim tizimi oldida turgan eng asosiy muammolardan biri sanaladi. Ma'lumki, umumiy o'rta ta'limning vazifasi o'quvchilarni o'z iqtidorlari va ijodiy salohiyatlarini namoyon etishva rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish va barcha imkoniyatlarini ishga solishdan iborat. Shaxsni rivojlantirish maqsadini birinchi o'ringa qo'yilishi, o'quv predmetni bilimlar bilan boyitish va o'quvchilarni ushbu bilimlarni egallashlarini ta'minlash davlat hujjatlarida ham o'z aksini topgan. Jumladan, "Ta'lim to'g'risidagi qonun" da o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularga ta'lim berishni ijodiy faoliyatga qiziqishlari va mayllarini hisobga olgan holda, individuallashtirishga urg'u beriladi. Shu munosabat bilan o'quvchilarni ijodiy tajribasini shakllanishi va ortib borishiga yordam beruvchi faol bilish va yaratish faoliyatini tashkil etish masalasi yuzaga keldi. Chunki busiz uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida shaxsning o'z-o'zini nomoyon etishi samarali bo'lmaydi.

Ijodiy faoliyat – bu subyekt faoliyatining o'z mehnatiga (ishdan qoniqish, uni bajarish jarayonida yangilikka intilish, muammo yechimini topishda ijodiy motivatsiya) munosabati va masalani ijodiy hal etish (avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni hamda faoliyat usullarini yangi holatga mustaqil ko'chirish, muammoli, ma'lum obyektning yangi funksiyasini ko'ra bilish) jarayonidir. Ijodiy faoliyat jarayoni bu mustaqil o'quv-bilish faoliyatining eng yuqori darajada namoyon bo'lishi bo'lib, u o'zgaruvchan tavsifga ega bilim, ko'nikma va muayyan ijodiy faoliyat tajribasi hamda bilishning ijobiy motivlari sharoitida yuzaga kelishi hamda shu asosda o'quvchilarning ijodiy faoliyat tajribalarini egallashini ko'rsatdi. Bu esa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy bilish faolligini rivojlantirishni taqozo etadi. Ijodiy faoliyat mazmuni motivatsion-emotsional, kognitiv, irodaviy va faoliyatli-ijodiy komponentlarni o'zida aks ettiradi.

An'anaviy ta'lim nazariyasi va pedagogik amaliyot o'qituvchi faoliyati xususiyatlarini o'rganish, umumlashtirish asosida yaratilgan. Unda o'qituvchi ta'lim jarayonining subyektini, o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasi shu jarayonning predmeti sifatida qaraladi. Ta'limni shu yo'sinda tasavvur qilish, shu tasavvurlarga ko'ra uni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishning turli bosqichlarida o'quvchining maqomi -uning ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi ekanligi ma'lum darajada inkor etiladi.

Oliy ta'lim muassasalari asosiy ustuvor yo'nalishi-bu ma'naviy va axloqiy, insonparvarlik fazilatlarini ustunlik qiladigan kasbiy bilimdon, malakali, ijodiy rivojlanayotgan mutaxassisning shaxsini tayyorlash. Endi bo'lajak o'qituvchi uchun esa bu yetarli emas, balki bilim va qobiliyatlarning oddiy yig'indisiga ega bo'lish, uning o'zgarishga doimiy tayyorligi, ijodkorlikka tayyorligi zarur. Shuni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirish muammosi hali ham yetarlicha o'rganilmagan. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, pedagogik oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini tahlil qilish bu savol keng ma'noda ochilmagan degan xulosaga kelish imkonini beradi. Pedagogik oliy ta'lim muassasasida turli fanlar bo'yicha o'quv jarayonida talabalar tomonidan olingan ilmiy-nazariy bilimlar o'zaro yetarlicha bog'liq emas va o'qituvchining talabalar bilan kasbiy faoliyati jarayonida ijodiy o'zaro ta'siri to'g'risida tushuncha yetarli darajada ochib bermaydi. O'qituvchi pedagogik vazifalarni hal qilishda muammoni bo'lajak o'qituvchilar oldiga qo'yadi va u ular bilan hal qiladi, ularning oldida izlanish, ijodiy faoliyat standartini ko'rsatadi.

Bugungi kunda oliy o'quv yurti bo'lajak o'qituvchilarni o'qitish va o'qitishning yangi texnologiyalariga yo'naltirish muammosiga duch kelmoqda. Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim muassasasiga pedagogik jarayonni insonparvarlashtirish, tabaqalashtirish va individuallashtirish, aql-idrokning yuksalishi va ijodiy yo'naltirishning asosiy yo'nalishini kiritish zarur. Aynan talabaning identifikatori orqali o'quvchining shaxsini ko'rish mumkin, chunki ijodkorlik ijtimoiy qadriyatlar bo'yicha shaxsni tarbiyalash va o'qitishni o'z ichiga oladi.

O'quvchida sodir bo'ladigan shaxsiy sifatlar -shaxsiy sha'n, prinsipiiallik, o'zligini tanish, onglilik, mustaqillik, bilimdonlik, topqirlik, ijodkorlik ko'p jihatdan bolaning o'ziga, uning faolligiga ham bog'liq. Binobarin, didaktik hodisalar nuqul o'qituvchi faoliyati xususiyatlari zaminida emas, aksincha, ters (teskari) muammolar qo'yish yo'li bilan bola faoliyati xususiyatlari asosida ham bayon qilinmog'i lozim. Zero, ta'lim ikki subyekt faoliyatining o'zaro kirishuvidan shakllanadi. O'zaro ta'sir ta'limning zu'ur etish, yashash, amal qilish shaklidir.

O'quvchiga ta'limning o'qituvchi bilan teng huquqli subyekt sifatida qarash, didaktika sohasidagi ayrim g'oyalarni taftish etish, milliy ruh, an'analimizga mos kelmaydigan ba'zi g'oyalarni chegaralash imkoniyatini kengaytiradi. Masalan, hozirgi ta'lim nazariyasida subordinatsiya o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishning bosh talabi sanaladi. Agar o'quvchiga o'qituvchi bilan teng xuquqli subyekt shaklida qaraydigan bo'lsak, unda koordinatsiya o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish, boshqarish va nazorat etishning yetakchi talabi ekanligini e'tirof etishga to'g'ri keladi, o'quvchining o'qituvchi bilan hamkorlikda ta'limni qurishi, amalga oshirishi ham tan olinadi. Shuningdek, hozirgi ta'lim nazariyasiga

o‘rnashib qolgan g‘oyalardan biri ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishning umumiyligi to‘g‘risidagi fikrdir. Yoshlari teng, bilimlari, ishlash sur‘ati, mustaqillik darajasi, fikrlashi, tayyorgarligi har xil bo‘lgan o‘quvchilarga bir xil darslik, sur‘at, hatto bir xil qolipda dars o‘tish o‘zlashtirishning umumiyligi g‘oyasiga asoslangan. Aslida o‘zlashtirish individualdir. O‘qituvchi qanchalik mohir pedagog bo‘lmasin, bolalar ma‘lumot mazmunini o‘z ehtiyoj, qobiliyatlari darajasida o‘zlashtiradilar. Ana shularga ko‘ra, keyingi paytlarda ta‘limni gomogen jamoalarda tashkil etish tajribasiga moyillik oshib bormoqda.

Maktab sharoitida o‘quvchini ta‘lim jarayonining subyekti deb qarar ekanmiz, uning, ya‘ni shunday qarashning uch turini ajratamiz: yakka ta‘limda o‘quvchi individual subyekt rovida ishtirok etadi. Unda o‘qitish va o‘qish aksial - o‘qsimon aloqada bo‘lib, u bolalar ijodkorligini tarbiyalash uchun juda keng imkoniyatlarga ega. Genetik jihatdan yakka ta‘lim eng qadimiy bo‘lgani uchun unda bolaning faolligi subyektlarning eng tarixiy ko‘rinishidir(1); jamoa bo‘lib o‘qish faoliyatida kollektiv subyekt ajratiladi. Bu vaziyatda munosabat, aloqalar retial - to‘rsimon shaklda amal qiladi. To‘rni tashkil etgan iplarning bir-biri bilan bog‘langan uchlarini ko‘z oldimizga keltirsak, kollektiv subyektning faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishning o‘ta qiyinligi, murakkabligiga guvoh bo‘lamiz. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, jamoa ta‘limida individual ta‘limga nisbatan bolalar ijodkorligini tarbiyalash ham qiyin, ham imkoniyatlari oz; maktab ta‘limiga pedagogik texnologiya g‘oyasining kirib kelishi natijasi o‘laroq, differensial ta‘limga e‘tiyoj oshib bormoqda. Sinf jamoasini bolalarning ishlash sur‘ati, real bilish imkoniyatlariga ko‘ra kichik guruhlarga ajratish o‘quvchilar ijodkorligini tarbiyalash ishlarini ham ma‘lum darajada osonlashtiradi, bunday ishning imkoniyatlarini oshiradi. Bu yerda bolalar ijodkorligi guruh ishlari shaklini oladi, ammo kichik guruh a‘zolari o‘rtasidagi aloqa retial shaklda amal qiladi. Shunday qilib, hozirgi zamon ta‘limida aynan olingan bir o‘quvchi faoliyatining individual subyekt, kollektiv subyekt, kichik kollektiv subyekt ko‘rinishlari mavjud.

Yuqoridagilarga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilarni birgalikdagi ijodiy faoliyatni tashkil etishga o‘rgatish vaziyatga mos xarakterda bo‘lishi lozim. Bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilari taraqqiyotiga ham to‘g‘ri keladi. Negaki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida narsa-hodisalarni yaxlit tasavvur qilish layoqatlari rivojlangan. Analizga o‘rgatish maktabga kelgandan keyin boshlanadi. Boshlang‘ich ta‘limning tiplari ham nihoyatda ko‘p: verbal ta‘lim; individual ta‘lim; topshiriqli ta‘lim; muammoli ta‘lim; differensial ta‘lim va sh.k. Ularning elementlarini o‘zaro qo‘shib, ta‘limning binar, trinar ko‘rinishlarini shakllantirish mumkin. Bularning barchasida o‘quvchilarda ijodkorlikni tarbiyalash imkoniyatlari mavjud. Shunday bo‘lgach, o‘qish faoliyatining subyektlilik sifati ta‘lim tiplarining barchasi bilan ham daxldor.

O‘qishga ijodiy faoliyat subyekti sifatida qarash bolalar ijodkorligiga oid qator prinsiplarni ajratish imkoniyatini beradi. Zamonaviy jamiyat tomonidan o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar kasbiy pedagogik tayyorgarlikni yangi bosqichga olib chiqish ehtiyojini kun tartibiga qo‘yadi. Ijodkor o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyoj butun dunyoda dolzarb masaladir. Shunday qilib, jamiyat kasbiy muammolarni hal qilishning yangi usullarini topa oladigan talabalar shaxsining yehtiyojlariga javob bera oladigan, ijodiy g‘ayratli va nostandart yechimlar topa oladigan qobiliyatga ega ijodiy o‘qituvchiga muhtoj.

Rivojlangan ijodiy fikrlash zamonaviy dunyoda shaxsning muvaffaqiyati uchun tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kabi ko‘nikmalar zaruriy shartdir. Agar bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy faoliyatga qiziqishlari yetarlicha rivojlangan bo‘lsa, mazkur jarayon yanada samarali kechadi. Pedagogik faoliyatga nisbatan ijodiy munosabat, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash ehtiyoji, o‘z ijodiy quvvati, ta‘lim jarayonini loyihalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga intilish o‘zini o‘qituvchi sifatida namoyon eta olish imkoniyatini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy faoliyatga yo‘naltirish omili sifatida xizmat qilishi muqarrar.

Birgalikdagi ijodiy faoliyatga asoslangan hamkorlik birgalikda ijod qilish sharoitini vujudga keltirib, o‘qituvchi-talaba hamkorligining yuqori darajasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday ta‘limiy vaziyatlar ta‘lim oluvchilarning ijobiy sifatlarni o‘zlashtirishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi hamda mustaqil rivojlanishning ijodiy yo‘lini tanlashlariga sabab bo‘ladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy tayyorgarliklarini tashkil etishning asosiy sharti ularning ko‘p tomonlama yo‘nalishga ega bo‘lishini ta‘minlashdan iborat. Ushbu jarayonda ular shaxsiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni loyihalashtirish tajribasiga ega bo‘la oladilar.

Adabiyotlar:

1. Маъмуров. Б.Б. Бўлажак ўқитувчиларни шахсга йўналтирилган таълим жараёнини лойihalашга тайёрлашнинг дидактик хусусиятлари ва йўналишлари. Илмий мақола. Илмий хабарнома, АДУ, №1 2016 йил.-94 с.
2. Ходжиева З.У. (2016). Гуманизация дидактических отношений в современном образовании. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-, 201.
3. Джураев Р.Х., Толипов Ў.К., Шарипов Ш.С. Узлуксиз таълим тизимида ўқувчиларни касб-хунарга йўналтиришнинг илмий-педагогик асослари. – Т.: Фан, 2004. – 119 б.
4. Очилов М. Муаллим - қалб меъмори. Т.: Ўқитувчи, 2000.- 432 б.
5. Hojjeva, Z. U. (2014). The Role of «Mark» in Humanization of Didactic Relationships. In Young Scientist USA (pp. 33-36).

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI XALQARO DASTURLAR PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGMA VA EGRA ASOSIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

HUSENOVA AZIZA SHARIPOVNA

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Buxoro davlat universiteti

a.sh.husenova@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro baholash dastur talablari va ta'lim tizimiga joriy etish tamoyillari haqida so'z yuritish bilan birga, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGMA VA EGRA xalqaro baholash dasturlarining muhim belgilari xorijiy olimlar fikrlariga, ilmiy-tadqiqot ishlariga tayangan holda ochib berilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarni xalqaro baholash dasturlari sinovlariga tayyorlash uchun o'quv topshiriqlarini tayyorlash jarayonida e'tibor qaratishi lozim bo'lgan jihatlar yoritilgan

Kalit so'zlar: xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS TIMSS, TALIS EGMA VA EGRA, xorijiy tajribalar, ta'lim sifatini baholash milliy markazi, kasbiy kompetentlik, o'qish savodxonligi, tushunish darajasi, ta'lim tizimi, ko'nikma, topshiriq, tadqiqot, ijodiy fikrlash, axborot kommunikatsion texnologiyalar.

ORGANIZATIONAL-PEDAGOGICAL FEATURES OF IMPROVING THE READING LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON THE INTERNATIONAL PROGRAMS PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGMA AND EGRA

HUSENOVA AZIZA SHARIPOVNA

Doctor of Philosophy scientific degree (PhD) in Pedagogical sciences

Bukhara state university

a.sh.husenova@buxdu.uz

Abstract: In this article, while talking about the requirements of the international assessment program and the principles of introduction into the educational system, the important features of the international assessment programs PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGMA AND EGRA are based on the opinions of foreign scientists and scientific research works. revealed. Aspects that primary school teachers should pay attention to in the process of preparing educational tasks to prepare students for the tests of international assessment programs are highlighted.

Key words: international assessment programs, PISA, PIRLS TIMSS, TALIS EGMA AND EGRA, foreign experiences, National Center for Educational Quality Assessment, professional competence, reading literacy, level of understanding, educational system, skills, assignment, research, creative thinking, information and communication technologies.

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОГРАММ PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGMA И EGRA

ХУСЕНОВА АЗИЗА ШАРИПОВНА

доктор философии по педагогическим наукам (PhD),

Бухарский государственный университет,

a.sh.husenova@buxdu.uz

Аннотация: В данной статье, говоря о требованиях программы международной оценки и принципах внедрения в систему образования, важные особенности программ международной оценки PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, EGMA И EGRA основаны на мнениях зарубежных ученых и научно-исследовательских работ. Выделены аспекты, на которые следует обратить внимание учителям начальных классов в процессе подготовки учебных заданий по подготовке учащихся к тестам международных оценочных программ.

Ключевые слова: международные оценочные программы, PISA, PIRLS TIMSS, TALIS EGMA И EGRA, зарубежный опыт, Национальный центр оценки качества образования, профессиональная компетентность, грамотность чтения, уровень понимания, образовательная система, навыки, задание, исследование, творческое мышление, информация. и коммуникационные технологии.

Kirish qismi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi" tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston

Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lidan shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro me'zon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Jamiyat va hayotda sodir bo'layotgan yangilanishlar ta'lim tizimiga ham yangicha innovatsion yondashuvni, ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini yanada tezlashtirishga zamin yaratadi, natijada yangicha innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb masalalar qatoridan joy oldi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda xorij tajribalarni o'rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

PIRLS – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash;

TIMSS - 4- va 8-sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash;

TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish;

PISA — 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash.

EGRA - (The Early Grade Reading Assessment) baholash modelining maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq malakalarini rivojlantirish, nutqiy ko'nikma va malakalarini hamda o'qish savodxonligini oshirishdan iborat.

EGMA - (The Early Grade Mathematical Assessment) baholash modelining maqsadi 2-4 sinf o'quvchilarining og'zaki hisoblash malakalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, matematik savodxonligini oshirishdan iborat.

Bu loyihalar o'quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya bilan bog'liq barcha sohalar o'zaro hamkorlikda ish olib borishi zarur. Mustahkamlash maktab pedagogik jamoasi va o'quvchilar o'rtasidagi ijodiy muhit, ishni takomillashtirish uslubiy birlashmalarning ichki natijalarini pedagogik kengashda muhokama qilish, ta'minlash fan o'qituvchisining dars jarayoniga integratsiyalashuvi ham imijni oshirishga yordam beradi. Bu esa ta'lim jarayonini yangi sifat va natijaga mos bo'lishini ta'minlashi, shubhasiz.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalarini rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi?

Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi. Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

PISA - inglizchadan olingan qisqartma bo'lib, Program for international student assessment – o'quvchilarni baholash xalqaro dasturi degan ma'noni anglatadi. Ushbu dastur OECD tomonidan amalga oshiriladigan bo'lib, u dunyo bo'ylab 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholovchi xalqaro tadqiqotdir. Tadqiqot an'anaviy ravishda 3 yilda bir marotaba o'tkazilib, har bir davriylikda bittadan yo'nalishga ustuvorlik beriladi hamda bitta innovatsion yo'nalish kiritiladi. 2022 - yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan tadqiqotda innovatsion yo'nalish sifatida o'quvchilarning kreativ fikrlash kompetensiyalari ham baholanadi. Unda o'quvchilar maktabda egallagan bilimlarini qanchalik eslab qolganliklari emas,

balki olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishlari, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalari baholanadi.

PIRLS - ingliz tilidagi Progress in international reading and literacy study so'zlaridan olingan bo'lib, o'quvchilarning o'qib tushunish darajasini baholashga mo'ljallangan xalqaro tadqiqot dasturidir. Mazkur dastur IEA tomonidan har 5 yilda bir marotaba amalga oshirilib, unda PISA dan farqli ravishda boshlang'ich ta'limdagi 4-sinf o'quvchilarining badiiy tajriba orttirish, axborot olish va undan foydalanish ko'nikmalari baholanadi. Ushbu xalqaro dastur bolaning mustaqil inson sifatida rivojlanishida katta ahamiyat kasb etib, boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini xalqaro miqyosda baholaydi. PIRLS dasturida asosiy e'tibor 4-sinf o'quvchilariga qaratiladi, buning boisi, ushbu rivojlanish davrida o'quvchilar o'qish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lib, endi bu ko'nikmadan boshqa fanlarni o'rganishda foydalanayotgan bo'ladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro tadqiqotdir. Mamlakatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining xususiyatlarini aniqlash va baholashga qaratilgan turli darajadagi yutuqlarga olib keladigan turli xil ta'lim tizimlari bilan bog'liq bo'lgan dastur. Albatta, bunday tadqiqot ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar va ularning otaonalari uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar Xalqaro ta'lim assotsiatsiyasi tomonidan muvofiqlashtirilgan. PIRLS loyihasi 4-sinf o'quvchilarining o'qish qobiliyatining rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida tashkil etilgan. Xalqaro ekspertlarning fikricha, bugungi kunda maktab o'quvchilarining boshlang'ich maktabda keyingi ta'limdagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor qo'yilgan. PIRLS 2016 da ishtirok etib, xalqaro tadqiqot PIRLS-2016 XEA ensiklopediyasi eng yaxshi o'quv dasturlari va ishlab chiqish tajribasi bo'yicha noyob axborot materiallarini taqdim etdi. PIRLS tadqiqoti O'zbekistonda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ravon so'zlash darajasini xolisona baholash ta'limning ochiqligi va integratsiyasini ta'minlash maqsadida, shuningdek, O'zbekistonni dunyoning yetakchi ta'lim tizimlari xalqaro hamjamiyatga kiritishga tayyorgarlik ko'rilmogda.

TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, ta'lim muassasasining imkoniyatlari, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillari o'rganiladi.

TIMSS dasturi o'zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo'lib, 2019-yilga qadar har to'rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan, bu 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va ijtimoiy fanlar bo'yicha bilim sifati, darajasi, munosabati va qiziqishlarini aniqlaydi. U har 4 yilda bir marta o'tkaziladi. Ushbu tadqiqot ham PIRLS tadqiqoti singari maktab ma'muriyati va o'qituvchilari o'rtasida qo'shimcha so'rovlar o'tkazadi, fanga xalaqit beradigan asosiy omillarni aniqlab, ta'lim standartlarini taqqoslash imkonini beradi. TIMS 2015 so'roviga ko'ra, AQSH, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya va Buyuk Britaniya ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, bularda mamlakatlarda yuqori texnologiyalar, sanoatlashtirish muhim omil etib belgilangan. Guruhlar va sinflardagi talabalar soni esa 16 nafardan oshmaydi.

Hozirgi kunda o'quvchilarning o'qish (EGRA) va matematika (EGMA) bo'yicha qobiliyatlarni baholash tadqiqotlarini tizimga tatbiq etish boshlangan. Mazkur tadqiqotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini yaxshilash hamda ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu baholash tizimi dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlarida qo'llaniladi. Shuningdek, PISA, TIMSS, PIRLS kabi o'quvchilar bilimi darajasini baholash uchun xalqaro tadqiqotlar hamda dasturlar tayyorlash uchun yaxshi vosita hisoblanadi.

EGRA va EGMA tadqiqotlari boshlang'ich sinflarni o'qitishda tizimli bo'shliqlarni tashxislash va ularni hal etishning eng maqbul yechimlarini aniqlovchi, o'qish hamda savodxonlik ko'nikmalarini sinovchi ilmiy asoslangan modellar hisoblanadi. Bu tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan AQShning Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Mazkur loyiha 2019 yil 28 sentyabrda XTV va USAID o'rtasida 50 million dollarga imzolangan besh yillik rivojlanish maqsadlari to'g'risidagi bitimning birinchi tarkibiy qismidir AQShning O'zbekistondagi elchisi Deniyel Rozenblyumning ta'kidlashicha, EGRA va EGMA boshlang'ich sinf o'quvchilarning savodxonligi va matematika bo'yicha ko'nikmalarini baholovchi oddiy, arzon va kuchli vositadir. Bu vosita bolaning bilimi, o'qituvchining dars berishi yoki direktorning maktabni boshqaruv ko'nikmalarini tekshirmaydi. Shuningdek, jarayonda o'tish yoki yomon baho bo'lmaydi. Tibbiyot xodimlari bemorga muolaja belgilash, ko'rikdan

o'tkazishdan avval uni tekshiradi. EGRA va EGMA esa boshlang'ich sinflarda o'qish hamda matematika bo'yicha ko'nikmalariga baho beradi. Baholash natijalariga ko'ra yangi o'quv dasturlari, o'qitish uslubi va yondoshuvlar O'zbekiston yoshlarining yaxshi natija ko'rsatishi uchun moslashtiriladi. EGRA (The Early Grade Reading Assessment) baholash modelining maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq malakalarini rivojlantirish, nutqiy ko'nikma va malakalarini hamda o'qish savodxonligini oshirishdan iborat. EGMA (The Early Grade Mathematical Assessment) baholash modelining maqsadi 2-4 sinf o'quvchilarining og'zaki hisoblash malakalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, matematik savodxonligini oshirishdan iborat. Boshlang'ich sinflar davomida matematikadan olingan mustahkam poydevor kelajakdagi muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Shuningdek, matematika kelajakda ish joyidagi ko'nikmalar va bilimlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan fandır. EGMA bolalarning asosiy ko'nikmalarini rivojlantirayotganligini aniqlash imkonini beradi, boshqa matematik ko'nikmalar hosil qiladi va harakatlarni eng yaxshi tomonga yo'naltiradi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishda juda muhim. EGMA quyidagi: raqamni identifikatsiya qilish (raqamni aniqlash); kattalik haqida mulohaza yuritish (raqamlarni kamsitish); raqamlarni tan olish (yo'qolgan raqam); qo'shish va ayirish; birinchi va ikkinchi darajalar va so'z muammolarini o'z ichiga oladi. Mamlakatimiz buyuk kelajak sari intilib taraqqiy etgan mamlakatlar ataridan munosib o'rin egallab bormoqda. O'sib kelayotgan avlodning ta'lim tarbiyasini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, shuningdek o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga o'rgatish maqsadida turli dastur va texnologiyalardan foydalanish zamon talabiga aylanib qolmoqda.

TALIS - (ta'lim muassasalarida rahbarlar va o'qituvchilarning ta'lim va xalqaro xizmati) O'quv va ta'lim muhitini va ta'lim ish sharoitlarini tashkil etish. Ushbu tadqiqot birinchi marta 2008 yilda 24 kishi ishtirokida o'tkazilgan. Ikkinchi bosqich 2013-yilda o'tkazilgan va unda 3 ta davlat ishtirok etgan. 2018-yilda 46 davlat ishtirok etdi. TALIS tadqiqotning mohiyati o'qituvchilar bilan so'rov o'tkazishdan iborat. So'rovda asosan maktab boshqaruvi bo'yicha fikrlar maktab rahbarlari, direktorlar, o'qituvchining ish faoliyatini baholash, maktab muhiti va ularning ishidan qoniqish va ko'p madaniyatli muhitni baholash jarayoni ro'y beradi. O'qituvchilarning so'rovi shuni ko'rsatdiki, turli sohalar mavjud kasbiy rivojlanish, butun o'qituvchilik faoliyati, o'qitishni amalga oshirish o'qituvchining muayyan sinfdagi faoliyati va maktab bilan ijobiy munosabat jamiyatini tuzishga dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, TALIS yagona so'rovlar jamoasidir. O'quv muhitini tashkil etish va o'qituvchilarning ish jarayoni va ta'lim muassasasini baholash muhim vazifadir.

Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi. O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi. Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

Xulosa. O'zbekistonda ta'lim tizimiga xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o'quvchilarning bilim darajasini baholash va monitoring qilishning "Milliy dasturi"ni yaratish hozirgi kun talabiga mos keladi. Yana shuni aytish joizki, ushbu dastur zamon bilan ham nafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. O'qituvchilar o'zlarida xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o'quv topshiriqlarini tayyorlash ko'nikmasini hosil qilishlari uchun ko'proq o'z ustida ishlashlari, xalqaro tajribalarni o'rganishlari, xorijiy tillarni o'rganishlari, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalana olish malakasiga ega bo'lishlari, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganib, ularni inobatga olishlari, hamkasblari bilan ko'proq tajriba almashishlari lozim bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2009. OECD, 2009 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi // Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PF-5538-son Farmoni.

Adizov B. R., Khamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students // Ilmiy xabarnoma. – C. 69.

Hamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.

OLIV TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI KASBIY FAOLIYATINI TALABALARNING QONIQISHI KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH TEXNOLOGIYASI

Ibraimov Xolboy,

Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, professor.

Urakov Sherzod Raxmanovich,

SamDU Kattaqo'rg'on filiali direktori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ТЕХНОЛОГИЯ ОЦЕНКИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВУЗОВ НА ОСНОВЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ СТУДЕНТОВ

Ибраимов Холбой,

директор Научно-исследовательского института педагогических наук Узбекистана имени Кори Ниёзи, доктор педагогических наук, профессор.

Ураков Шерзод Рахманович,

директор Каттакурганского филиала СамГУ, доктор философских наук (PhD) педагогических наук

TECHNOLOGY FOR ASSESSMENT OF THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF PROFESSORS-TEACHERS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ON THE BASE OF INDICATORS OF STUDENTS' SATISFACTION

Ibraimov Kholboy,

Director of the Scientific Research Institute of Pedagogical Sciences of Uzbekistan named after Qori Niyoz, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.

Urakov Sherzod Rakhmanovich,

Director of SamSU Kattakorgan Branch, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

ANNOTASIYA. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlarini sifatini oshirish, xususan professor-o'qituvchilar faoliyatini takomillashtirishda faoliyatning eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) tizimini takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Shu asosda OTM professor-o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini talabalarning qoniqishi ko'rsatkichlari asosida baholash texnologiyasi taklif etilgan. Professor-o'qituvchilar kasbiy faoliyatini baholashning latent omillari va ularga oid ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: OTM ta'lim muhiti, talaba qoniqishi, ta'lim oluvchilar, OTM obro'si, pedagogik bilim va madaniyat, pedagogik mahorat, talabalarni qo'llab-quvvatlash, talabalar bilimni baholash

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируются пути повышения качества образовательных услуг в высших учебных заведениях, в частности совершенствование системы важнейших показателей эффективности (KPI) в совершенствовании деятельности профессорско-преподавательского состава. На этой основе предложена технология оценки профессиональной деятельности преподавателей вузов на основе показателей удовлетворенности студентов. Разработаны латентные факторы оценки профессиональной деятельности профессоров и преподавателей.

Ключевые слова: образовательная среда вуза, удовлетворенность студентов, учащиеся, репутация вуза, педагогические знания и культура, педагогические навыки, поддержка студентов, оценка знаний студентов.

ANNOTATION. This article analyzes ways to improve the quality of educational services in higher educational institutions, in particular, improving the system of critical performance indicators (KPI) in improving the activities of teaching staff. On this basis, a technology for assessing the professional activities of university teachers based on student satisfaction indicators is proposed. Latent factors for assessing the professional activities of professors and teachers have been developed.

Key words: educational environment of the university, student satisfaction, students, university reputation, pedagogical knowledge and culture, teaching skills, student support, assessment of student knowledge.

Bugungi kunda ta'lim sifati jamiyat taraqqiyotining, xususan aholining ijtimoiy farovonligi, mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik hamda inson kapitalining darajasini belgilovchi omilga aylanib bormoqda. Ayniqsa, inson kapitali darajasi oliy ta'limdagi ta'lim xizmatlari sifatining darajasiga, shuningdek ta'lim xizmatlari sifatini belgilovchi professor-o'qituvchilarning bilim saviyasi va madaniyati, pedagogik mahoratiga bog'liqdir. "Singapur mo'jizasini" yaratgan Li Kuan Yuning fikricha, davlatdagi "mo'jiza" larni qilgan insonlar o'qituvchilardir[1].

Professor-o'qituvchilar faoliyatini baholab borish har qandan oliy ta'lim muassasasi uchun ta'lim xizmatlari sifatini takomillashtirish yo'nalishlaridan biridir. Bunda esa ta'lim xizmatlarining bevosita iste'molchisi bo'lgan talabalar fikri, ularning qoniqish ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar ta'lim muhitidan qoniqishini monitoring qilib borish, ta'lim sifatini oshirish hamda professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishning muhim nuqtalarini aniqlash imkonini beradi.

Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida, xususan AQSh[2,3], Singapur[4], Angliya[5], Italiya[6] va Irlandiyada[7] professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini "talabalar qoniqishi" va "Talabalar OTMga sadoqati" mezonlari orqali baholash, ushbu mezonlarni ilmiy asoslash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, Z.Allam va M.Iacovidoularning tadqiqotlarida professor-o'qituvchilarning bilim saviyasi va madaniyati bilan ta'lim sifati va talabalar OTMdagi qoniqishi o'rtasidagi bog'liqlik borligini aniqlagan [8,9].

MDH olimlaridan I.A.Dagayeva, V.V.Baxotskiy, L.I.Strikunovalarning tadqiqotlarida talabalar ta'lim muhitidan qoniqishini tashxislash orqali OTM jozibadorligini oshirish yo'nalishlari o'rganilgan. Ularning fikricha talabalar qoniqishiga nafaqat OTMdagi ta'lim muhiti, o'qitish usullari, shuningdek, talaba shaxsiga munosabat, professor-o'qituvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar (ilmiy salohiyat, erishgan yutuqlari, tadqiqot yo'nalishlari) ham ta'sirga ega [10].

Mamlakatimizda professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash, eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari(KPI)ni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar OTMlar boshqaruvini takomillashtirish nuqtai nazaridan amalga oshirilmoqda. Xususan, tadqiqotlarda KPI tizimi bir xil standartlarga emasligi, OTMlar, hududlar, mamlakatlarning xususiyatlariga asoslangan holda amalga oshirish samaraliroq hisoblanishi qayd etilgan, shuningdek professor-o'qituvchilarni baholash jarayonlari amaliyotida qo'llanilayotgan yondashuvlar shaffof hisob-kitoblarga qurilmaganligi, texnologik jarayonlar yetarli asoslantirilmaganligi, ko'p hollarda axborotlar va bajarilgan ish natijalariga beriladigan baho subyektiv va tushunarsiz xususiyatga ega bo'lishi aniqlangan [askarov].

Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar kasbiy faoliyatini baholashda talaba qoniqishi darajasiga oid mezonlardan foydalanish KPI tizimida aniqlab bo'lmaydigan latent omillarni ro'yobga chiqarishga sharoit yaratadi. Xususan, amaldagi KPI tizimlarida professor-o'qituvchining bilimi va madaniyati, pedagogik mahorati, talabalar bilim darajasini baholashdagi munosabatlari, talabalar ta'lim olish ehtiyojlari va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi kabi muhim komponentlarni baholashga imkon bermaydi.

Shu o'rinda bugun mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi ayrim omillar va xususiyatlarni e'tirof etish maqsadga muvofiq.

OTMlarga qabul qilingan 1-kurslar bilan o'tkazilgan suhbatlarga ko'ra ularning ko'pchiligida asosiy maqsad oliy ta'lim muassasalariga kirish bo'lgan. Mazkur maqsadga erishish uchun umumta'lim maktablaridan ta'lim olish bilan birgalikda o'quv markazlari va xususiy repetitorlik kurslariga qatnagan. Kuzatishlarga ko'ra talabalikka qabul qilingandan (maqsadga erishgandan) so'ng ularda ma'lum muddat ta'lim olishga nisbatan relaksasiya jarayonlari yuz berishi, natijada propedevtik bosqich hisoblangan 1-kursda ta'lim natijalari yetarli darajada kuzatilmaydi.

Oliy ta'limda sifatni ta'minlash bo'yicha xorijiy OTMlarning tajribalari tahliliga ko'ra, ta'lim sifatini takomillashtirishning asosiy komponentlari e'tirof etilgan. Shu asosda biz ta'lim sifatini takomillashtirishning quyidagi komponentlarini keltiramiz:

1. Ta'lim oluvchilar. Ta'lim oluvchilarning ta'lim olish maqsadi va ehtiyoji ta'lim sifatini ta'minlashning eng muhim komponentidir.

2. OTMning obro'si. Ta'lim yo'nalishlari, bitiruvchilarga mehnat bozorining talabi darajasi, OTMning moddiy-texnik bazasi, joylashgan hududning infratuzilmasi yuqori bilim va tayyorgarlikka ega bo'lgan ta'lim oluvchilarni jalb qilish omili hisoblanadi.

3. OTMdagi ta'lim jarayoni. Dars beruvchi professor-o'qituvchilarning sifat tarkibi va ta'lim jarayonlarini tashkil etilishi, talabalar bilimni baholash usullari va yondashuvlari, OTM rahbariyatining ta'lim sifatini ta'minlashga nisbatan munosabati.

4. OTM ta'lim muhitidan talabalar qoniqishi. Talabalar ta'limdan qoniqishi OTMning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi omil bo'lib, bu bevosita professor-o'qituvchining bilim darajasi, madaniyatini hamda pedagogik mahoratini takomillashtirish vositasidir.

Demak, OTMlarning missiyasi va strategik rivojlanish yo'nalishlari talabalar ta'lim muhitidan qoniqishini ta'minlashga yo'naltirilgan komponentlarning tizimli aloqadorligi asoslanishi lozim.

Talabalar oliy ta'lim muassasasiga qabul qilinishi o'z kuch va qobiliyatiga ishonch, to'laqonli yorqin hayotga umid hissini uyg'otadi. Ma'lumki, oliy ta'lim muassasasida birinchi kursdagi ta'lim jarayoni eng murakkab hisoblanadi. Chunki talabalar o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimi jarayonidagi

tashkiliy jihatdan farq qiluvchi oliy ta'lim muassasasi ichki tartib-qoidalariga rioya qilishiga to'g'ri keladi. Bunda o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimidagi hamda oliy ta'lim tizimi talablari o'rtasidagi moslashuv jarayoni masalasi yuzaga keladi. Ayni paytda talabalarning ta'lim olishga ongli munosabatlarini ta'minlash samaradorligi zamonaviy moddiy-texnik vositalar bilan jihozlanganlikdan ko'ra, undagi mavjud qula pedagogik muhit, ta'lim jarayonining ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga asoslanganligi professor-o'qituvchilar va kursdoshlar bilan o'zaro munosabatlar kabi omillarga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimizdagi ilmiy tadqiqotlar tahlili talabalarning OTM ta'lim muhiti, shuningdek professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatidan qoniqishiga ta'sir qiluvchi:

talabalarda turli ta'lim dargohlaridan keyin oliy ta'limdagi yangi talablarga ijtimoiy moslashishning sustligi hamda talab qilinayotgan darajada o'qish uchun vaqtning yetishmasligi kabi omillar bilan bog'liqligini;

yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish jarayonidagi qiyinchiliklar, professor-o'qituvchilarning dars jarayonlarida zaruriy pedagogik bilim va mahoratga, ayniqsa pedagogik taktga ega emasligi, talabalarning bilim darajasini baholashda obyektiv yondashuvning yetarli emasligi, ta'lim mazmuni va auditoriyadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar talabalarning ehtiyojlariga yo'naltirilmaganligi, ya'ni talabalarning tashabbuslari va fikr mulohazalari inobatga olinmasligi kabi holatlarni ko'rsatish imkonini berdi.

Talabalarning aksariyati ta'lim muhitidan yetarlicha qoniqmasliklarini ko'rsatib, bu o'z navbatida o'rganilgan indikatorlar ta'sirida talabalarning ta'lim motivatsiyasining susayishi, o'z-o'zini baholashi, o'zini namoyon qilishi, o'qish jarayonida xavotirlanish, stressli holatlarining paydo bo'lishi ehtimolini oshirishi mumkin.

Biz tadqiqotimizda professor-o'qituvchilar faoliyatini baholashda talabalarning qoniqishi ko'rsatkichlari asosida baholash texnologiyasini ishlab chiqdik va tadqiqot obyekti sifatida belgilangan OTMlarda tajribasinovdan o'tkazdik.

Professor-o'qituvchilar kasbiy faoliyatini talabalarning qoniqish ko'rsatkichlari asosida baholashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Talabalarning asosiy ta'lim motivlarini va talabalarning qoniqishini belgilovchi indikatorlarni aniqlash;
2. Talabalarning ta'lim olishga nisbatan ongli munosabatlarini hamda auditoriyaga talabini shakllantirish orqali professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish;
3. Talabalarning qoniqish ko'rsatkichlarini tahlil qilish orqali ta'lim jarayonining kuchli va zaif tomonlarini hamda ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, shuningdek o'quv jarayonining zaif tomonlari hamda salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash;
4. OTMda professor-o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotimiz doirasida dastlab talabalarning OTMdagi ta'lim jarayoniga nisbatan fikrlari tahlil qilindi. So'rov o'tkazilgan talabalarning 13,2 foizi talabalar qo'yiladigan topshiriqlar hajmining yuqoriligini e'tirof etgan bo'lsa, 21,3% talabalar topshiriqlar hajmining yetarli emasligini ta'kidlagan, 9,3% talaba mustaqil ta'lim topshiriqlarining hajmi ko'pligini bildirishgan bo'lsa, 17,3% talaba mustaqil ta'lim topshiriqlarining hajmi va mazmunini yetarli deb hisoblashgan, 11,1% talaba ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning nomutanosibligini, shuningdek 16,6% talabalar topshiriqlarning berilishi semestr davomida notekis taqsimlanganligini e'tirof etishgan. Shuningdek, respondentlarning fikrini aks ettiruvchi quyidagi muhim tendensiyalar aniqlandi: amaliyotga yo'naltirilgan darslar sonining yetarli emasligi (31,6%), mutaxassislik uchun ahamiyati kam bo'lgan fanlar salmog'i yuqori (10,6%), yakuniy nazoratlarda ko'plab notanish va dasturdan tashqari savollar uchrashi (23,8%).

Professor-o'qituvchilar faoliyatini talabalar qoniqishi ko'rsatkichlari asosida baholashda biz dastlab ta'lim sifatini takomillashtirishning muhim komponenti hisoblangan ta'lim oluvchining ta'lim olish ehtiyojini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi talabalarning ta'lim muhitidan qoniqishini o'rganib chiqdik.

So'rovnomada quyidagi savollardan foydalanildi:

1. Siz o'zingiz ta'lim olayotgan muassasada professor-o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlardan qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz?
2. O'zingiz ta'lim olayotgan muassasada kursdoshlaringiz bilan o'zaro munosabatlardan qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz?
3. O'zingiz ta'lim olayotgan muassasada tashabbuslaringizga diqqatlilik, ularning e'tiborga olinishidan qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz?
4. Siz ta'lim olayotgan muassasada talabalarning o'z qadr-qimmatini saqlay bilish uchun (rektorat, fakultet, kafedralar rahbariyati va ustozlari tomonidan) mavjud ijtimoiy, pedagogik-psixologik muhitdan qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz?
5. Siz ta'lim olayotgan muassasangizdagi muhitning talabalar uchun qulaylik darajasidan qoniqishingizni qanday baholagan bo'lardingiz?
6. Siz ta'lim olayotgan muassasada talabalarning o'ziga nisbatan hurmatda bo'lish (dekanat va professor-

o'qituvchilar tomonidan) muhitdan qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz?

7. Siz ta'lim olayotgan muassasada talabalarning yordam olishga bo'lgan (rektorat, fakultet, kafedralar rahbariyati va ustozlar, kursdoshlar tomonidan) imkoniyatdan qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz?

8. Siz ta'lim olayotgan muassasada talabalarning ta'lim olish tashkiliy va metodik masalalarida o'z nuqtai nazarini bayon qilish imkoniyatdan qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz?


9. Siz ta'lim olayotgan muassasada talabalarning tashabbus, faollik ko'rsatish imkoniyatidan qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz?

10. Siz ta'lim olayotgan muassasada talabalarning shaxsiy muammo va qiyinchiliklarini hisobga olishidan qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz?

11. Siz ta'lim olayotgan muassasada talabalarning o'z qarorini tanlashga yordamlashish muhiti qoniqishingiz darajasini qanday baholagan bo'lardingiz?

Har bir savolga talabalarning quyidagi javoblari inobatga olindi: juda ham qoniqaman (o'z qarorini tanlashga yordamlashish imkoniyati to'liq mavjud); asosan qoniqaman (o'z qarorini tanlashga yordamlashish imkoniyati asosan mavjud); o'rtacha darajada qoniqaman (o'z qarorini tanlashga yordamlashish imkoniyati har doim bo'lmasada, ko'pchilik hollarda mavjud); qisman qoniqaman (o'z qarorini tanlashga yordamlashish qisman mavjud, lekin zarur paytda murojaat qilish qiyin bo'ladi); qoniqmayman (o'z qarorini tanlashga yordamlashish imkoniyati mavjud emas desa ham bo'ladi); umuman qoniqmayman (o'z qarorini tanlashga yordamlashish imkoniyati umuman mavjud emas).

Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filialida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi.



1-rasm. SamDU Kattaqo'rg'on filialida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari

Olingan natijalarga asosan, OTMda o'quv jarayonlarining tashkil etilishi, professor-o'qituvchilarning bilim saviyasi va madaniyati, pedagogik mahorati, talabalarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi hamda talabalar bilimini baholashga bo'lgan yondashuvlarining talabalar qoniqishiga ta'siri o'rganildi.

Jahon bankining "Akademik innovasiyalar fondi" (AIF2/13)ning "O'zbekiston Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchi faoliyatini baholash" granti doirasida Samarqand davlat universitetida professor-o'qituvchilarning dars jarayonidagi faoliyatini va talabalarning ushbu faoliyatdan qoniqishi va ularning OTMga bo'lgan sadoqati o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish va baholashning latent omillari aniqlangan (1-jadval) [11].

1-jadval.

Latent omillarning qisqacha tavsifi		
Omillar		
Ta'sir qiluvchi omillar	Professor o'qituvchilarning:	Bilim saviyasi va madaniyati
		Pedagogik mahorati
		Talabalarni qo'llab quvvatlashi
		Talabalar bilimini baholashi
Natijaviy omillar	Talabalar qoniqishi Talabalar OTMga bo'lgan sadoqati	

Professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini talabalar qoniqishi ko'rsatkichlari asosida baholash indikatorlari quyidagi jadvalda keltirildi:

2-jadval

Professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini talabalar qoniqishi ko'rsatkichlari asosida baholash indikatorlari (ta'sir ko'rsatuvchi omillar bo'yicha)

Latent omillar	Indikatorlar
PO' bilim saviyasi va madaniyati	PO'larning o'z mutaxassisligi bo'yicha bilim darajasi Mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi Talabalar bilim egallashiga individual yondoshuvi Bilimlarni uzviy va mantiqiy ketma-ketlikda berishi. Professor-o'qituvchilar ma'naviyati va madaniyati darajasi Darsni o'z vaqtida boshlashi va tugatishi
Professor-o'qituvchilarning pedagogik mahorati	Fanni tushuntirish mahorati Dars o'tish maromi (tezligi) Talabalar erkin fikr bildirishiga sharoit yaratishi va ruhlantirishi Darslarni interfaollik asosida tashkil etishi. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishi Mavzuni boshqa fanlar bilan bog'lab, amaliy misollar bilan tushuntirishi.
Talabalar bilimini baholashi	Talabalar bilimini baholash uslubini oldindan xabardor qilinishi Talabalar bilimini baholashda adolat mezonlariga rioya qilishi. Talabalar bilimini baholashda tanish-bilishchilik va ta'magirlik holatlariga yo'l qo'ymasligi. Talabalar bilimini baholash uslubini bilim olishga bo'lgan qiziqishni rag'batlantirishi.
Talabalar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi	Fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun to'g'ri yo'nalish berishi va qo'llab-quvvatlashi Zarurat tug'ilganda muloqot qilishga imkon berishi Fanni o'zlashtirish bilan bog'liq muammo yuzaga kelganda yetarli darajada ko'mak berishi Fanni o'zlashtirish uchun yetarli va sifatli o'quv materiallar taqdim etishi. Fanni o'zlashtirish mavzuga oid resurslarni doimiy ravishda taqdim etib borishi


Mazkur indikatorlar asosida Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali veb-saytida professor-o'qituvchilarning faoliyatini baholab borishga yo'naltirilgan elektron tizimi <http://samdukf.uz/> anonim-sorovnoma ishlab chiqildi.

Natijada talabalar tomonidan olib borilgan tezkor, bosqichma-bosqich va davriy baholash o'tkazib borildi.

Tajriba-sinov ishlarimizning keyingi bosqichida talabalar qoniqishi ta'lim muhitidan qoniqish ko'rsatkichlari

quyidagi natijalarga erishildi (2-rasm).

Талабаларнинг ОТМ таълим муҳитидан қониқиш кўрсаткичлари диаграммаси, %да



Natijalar tahliliga ko'ra, professor-o'qituvchilarkasbiy faoliyatini ta'lim iste'molchisi hisoblangan talabalarining qoniqishi asosida tezkor, bosqichma-bosqich va davriy baholab borilishi, talabalarining OTM ta'lim muhitidan qoniqishi ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir qilgan. Ya'ni dastlabki, o'tkazilgan so'rovnomada 52.8-66.3 % talabalar juda ham qoniqaman deb e'tirof etishgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda bu ko'rsatkich 63.3-73.1 %ga ko'tarilgan. Shuningdek, umuman qoniqmaslikni ko'rsatgan talabalar salmog'i 1.6% dan 0-0.3 % gacha kamaygan.

Xulosa qilib aytganda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish ta'lim oluvchilarning ehtiyojiga bog'liqligini e'tirof etgan holda, ularning ta'lim muhitidan qoniqishi ko'rsatkichlari muhim komponentlardan biri hisoblanadi. Talabalarining OTM ta'lim muhitidan qoniqishini, avvalo, OTMning reputatsiyasi, shuning bilan birgalikda professor-o'qituvchilarning bilim saviyasi va madaniyati, pedagogik mahorati, talabalarining bilim olishini qo'llab-quvvatlash, talabalar bilimini baholash yondashuvlari orqali ta'minlash mumkin.

Talabalarining ta'limdan qoniqishi esa OTMning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi omil bo'lib, jamiyat ijtimoiy buyurtmasini bajarishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Rahmatov M.A., Zaripov B.Z. Iste'dodli insonlar mamlakatning bebaho boyligidir. Li Kuan Yu hikmatlari. – T.: “Zamin Nashr”, 2019. – 6-bet.

Dehghan A., J. Dugger, D. Dobrzykowski, and A. Balazs, “The antecedents of student loyalty in online programs”, *Int. J. Educ. Manag.*, vol. 28, no. 1, pp. 15-35, 2014.

Hoverstad R., R.Sylvester, and K. E.Voss, “Key Factors Influencing Student Satisfaction Related to Recruitment and Retention”, no. november 2014. pp. 37-41, 2008.

Khoo H., Susie and S.T.Gregor, “Service quality and student/customer satisfaction in the private tertiary education sector in Singapore”. *Int. J.Educ. Manag.*, vol. 31, no. 4, pp. 430-444, 2017

Lesley L., S.Kalafatis “The idiosyncratic behavior of service quality, value, satisfaction, and intention to recommend in higher education: An empirical examination”. *Journal of Marketing Management* Vol. 27, Nos. 11-12, October, 2011.

Masserini L., M.Bini, and M.Pratesi, “Do Quality of Services and Institutional Image Impact Students' Satisfaction and Loyalty in Higher Education?”, *Soc. Indie. Res.*, vol. 146, no. 1-2, pp. 91-115, 2019

Chapman V., and A. Doris, “Modelling higher education financing reform for Ireland”. *Econ. Educ. Rev.*, vol. 71, pp. 109-119, 2019.

Allam Z., “Demystifying the Aspect of Quality in Higher Education: Insights From Saudi Arabia”. *SAGE Open*, vol. 10, no. 1, 2020.

Iacovidou M., P.Gibbs, and A.Zopiatis, “An exploratory use of the stakeholder approach to defining and measuring quality: The case of a cyprriot higher education institution”. *Qual. High. Educ.*, vol. 15, no. 2, pp. 147-165, 2009.

Dagayeva I. A., Baxotskiy V. V., Strikunova L. I. Diagnostika udovletvorennosti studentov obrazovatelnoy sredoy vuza v selyax povysheniya yego privlekatelnosti dlya abiturientov // *Vestnik Surgutskogo gosudarstvennogo universiteta*. 2022. № 2 (36). S. 42–50. DOI 10.34822/2312-3419-2022-2-42-50

Husenov S., Haydarov R., Xushvaqov X., Qodirov M., Boboyev N. Professor-o'qituvchilarning dars jarayonidagi faoliyatini baholash. *Monografiya*. – Samarqand: “FAN BULOG'I” nashriyoti, 2021. – 120 B.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MANTIQUIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH
USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN
PRIMARY GRADES

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ РАЗВИТИИ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Ibrohimova Mohichehra Furqat qizi

Buxoro davlat universiteti 1-bosqich doktoranti

Doctoral student of Bukhara State University, 1st stage

Докторант Бухарского государственного университета, 1 ступень

<https://orcid.org/0000-0003-0520-622X>

Annotatsiya. Bu maqolada boshlang'ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish va uning hozirgi zamon bilan chambarchas bog'liqligi haqida fikr yuritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish turli ko'rinishdagi raqamli topshiriqlar bilan ishlash, raqamli texnologiyalar, math (matematika), tezkor savol javob, online videorarlar, o'yinli topshiriqlar va shu kabilar haqida fikr yuritilgan. Boshlang'ich sinflarda mantiqiy tafakkurning rivojlanishi, bunda tafakkurning turlari, faoliyati hamda uni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar mohiyati hamda zamon talablariga javob beradigan texnologiyalarning chambarchas bog'liqligi asosida darslarni o'tish da ta'lim samaradorligini oshiradi. Hozirgi rivoj topib, tobora taraqqiylashib borayotgan zamonda o'qituvchilar va o'quvchilar uchun zerikarli bo'lgan bir xildagi darslardan voz kechib, yanchiga texnologilardan foydalanib, elektron vositalardan foydalanib dars faoliyatini olib borish o'quvchilarda fanga qiziqishni kuchaytiradi. Bu esa o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantiribgina qolmay, o'quvchilarda faollikni, bilimga chanqoqlik, tez fikrlash, hozirjavoblik kabi xislatlarni rivojlantiradi. Maktab davrida samarali ta'lim va tarbiya olgan o'quvchilar kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida, ilg'or fikrlovchi shaxs bo'lib yetishishida ham ta'limning zamonaviyligi va rivojining o'rni nihoyatda kattadir.

Annotation. This article discusses the use of digital technologies in the development of logical thinking in elementary grades and its close connection with the present time. The development of worldview and logical thinking of primary school students is thought about working with various types of digital tasks, digital technologies, math (mathematics), quick question and answer, online video games, game tasks and so on. The development of logical thinking in elementary grades, the types and activities of thinking, the essence of the tasks aimed at its development, and the close connection of technologies that meet the requirements of the time, increases the effectiveness of education. In today's developing and increasingly progressive era, abandoning the same lessons, which are boring for teachers and students, instead using technologists, conducting class activities using electronic tools increases students' interest in science. This not only forms a scientific worldview in students, but also develops such qualities as activity, thirst for knowledge, quick thinking, and responsiveness in students. The modernity and development of education plays an extremely important role in the development of the students who have received effective education and upbringing in the future to become advanced specialists and advanced thinkers.

Аннотация: . В данной статье рассматривается использование цифровых технологий в развитии логического мышления в младших классах и его тесная связь с современностью. Для развития мировоззрения и логического мышления учащихся начальных классов предусмотрена работа с различными видами цифровых задач, цифровыми технологиями, математикой (математикой), быстрыми вопросами и ответами, онлайн-видеоиграми, игровыми заданиями и так далее. Развитие логического мышления в начальных классах, видов и деятельности мышления, сущности задач, направленных на его развитие, а также тесная связь технологий, отвечающих требованиям времени, повышает эффективность образования. В современную развивающуюся и все более прогрессивную эпоху отказ от одних и тех же уроков, скучных для учителей и учеников, вместо использования технологов, проведение классной деятельности с использованием электронных средств повышает интерес учащихся к науке. Это не только формирует у учащихся научное мировоззрение, но и развивает у учащихся такие качества, как активность, жажда знаний, быстрота мышления, отзывчивость. Современность и развитие образования играет чрезвычайно важную роль в становлении студентов, получивших эффективное образование и воспитание, в будущем стать передовыми специалистами и передовыми мыслителями.

Kalit so'zlar. Mantiqiy tafakkur, raqamli texnologiya, mantiq, mantiqiylik, mantiqiy topshiriq, boshlang'ich ta'lim.

Keywords. Logical thinking, digital technology, logic, logicality, logical assignment, primary education.

Ключевые слова. Логическое мышление, цифровые технологии, логика, логичность, логическое задание, начальное образование.

Kirish. Kundan- kun sayqallashib, rivojlanib borayotgan zamonda yangiliklar, yangi texnologiyalar, za monaviy o'quv texnologiyalari ko'payib turli ko'rinishlarda namoyon bo'layapti. Yer yuzining deyarli barcha hududida kompyuter, telefon, noutbuk va shu kabi gadjetlar o'z o'rnini topib ulgurdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Aynan shunday zamonda maktab o'quvchilari, o'qituvchilari, oliygoh talabalari va hattoki uy bekalari-yu boshqa turli kasb egalari uchun ham bu buyumlar vaqt o'tkazish uchun o'z o'rnini topib ulgurdi. Kitoblar, darsliklar ham electron ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Aynan shu zamonda boshlang'ich sinf o'quvchilari ham vaqtlarini ko'p hollarda shu kabi buyumlar bilan o'tkazayotganlari hech kimga sir emas. Darslik, va o'quv topshiriqlarini ham shu ko'rinishdagi raqamli texnologiyalar asnosida jadallashtirsak, o'quvchilarni bilimsizlik botqog'idan qutqarib qolgan bo'lardik. Shu sababli ham har bir topshiriq va ma'lumotlarni o'quvchilarga qiziqarli ko'rinishda taqdim etsak, o'ylaymanki natijamiz yomon bo'lmaydi.

Ma'lumki raqamli texnologiyalar elektron hisoblash va ma'lumotlarni o'zgartirish bilan bog'liq barcha narsalarni o'z ichiga oladi: gadjetlar, elektron qurilmalar, texnologiyalar, dasturlar. Analog texnologiyalar bilan taqqoslaganda, raqamli texnologiyalar katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va uzatish uchun ko'proq mos keladi va yuqori tezlikda hisoblashni ta'minlaydi. Bunday holda, ma'lumot imkon qadar aniq, buzilmasdan uzatiladi. Asosiy kamchiliklar orasida yuqori energiya sarf bo'lishi va iqlimga salbiy ta'sir ko'rsatishini aytish mumkin

Metod. Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda o'quvchilar bo'sh vaqtlarini telefon va kompyuter o'yinlari bilan o'tkazayotgani hech kimga sir emas. Aynan shu davrda bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish va fikrlash tezligini oshirish muhim sanaladi. Shuning uchun ham darsliklardagi topshiriqlarni raqamlashtirish va elektronlashgan o'yinlar ko'rinishiga keltirib bolalarga taqdim etish kerak. Bunda o'quvchi darsdan keying vaqtlarda, o'yin vaqtida ham o'yin asnosida dars tayyorlaydi, bilimni va ilmiy dunyoqarashini oshirib boradi. Bolada fikrlash tezligi, hozirjavoblik, tezkorlik, ilmiy dunyoqarash, xotira va mantiqiy tafakkur rivojlanib boradi.

Mantiqiy topshiriqlar-bu o'quvchini mantiqiy fikrlashini o'stirishga qaratilgan jumboqlardir. Bu topshiriqlarni bajarish davomida o'quvchida tezkorlik, miya faoliyatining rivojlanishi, hozirjavoblik, mushkul vaziyatlardan tez chiqib ketish uchun zamin yaraladi. Mantiqiy topshiriqlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tuzilganda ularda quyidagi xususiyatlar bo'lishi kerak:

- mantiqiy topshiriq bola yoshiga mos bo'lishi;
- oddiydan murakkabga tamoyili asosida berib borilishi;
- topshiriqda aks etgan rasmlar bola yoshiga mos tanlanishi, unda tanlangan ranglar yorqin, bola e'tiborini o'ziga tortuvchi bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Mantiqiy topshiriqlar raqamlashtirilgan holda o'quvchiga yetkazish ham qulaydir. Mantiqiy topshiriqlarni bajarishda uni ilova ko'rinishida, o'yin ko'rinishida o'quvchiga yetkazish va har bir bosqichdan o'tganda o'quvchiga rag'bat ballar yig'ib borishi ham o'quvchining bu o'yinga qiziqishini yanada oshiradi. Telegram messenjeri orqali o'ynaladigan "Math" o'yini ko'rinishida mantiqiy topshiriqlar berish ham juda qiziqarli bo'ladi. Bunda o'quvchilar sinf jamoasining telegram guruhida bu o'yin o'ynaladi, o'quvchilar bu o'ynab boaradilar. Kim qanday ball yig'ayotgani ko'rinish boradi. Bu esa o'z o'rnida o'quvchida g'olib bo'lish, hammadan ko'p ball yig'ish, o'zini ko'rsatib qo'yish uchun istak hosil qiladi va o'yin davom etadi. O'yin davomida o'quvchida mantiqiy fikrlash tezlashadi, o'quvchining mazkur fanga qiziqishi ortadi. Ham o'yin faoliyati ham dars faoliyati birgalikda bajariladi.

Test topshiriqlari ham o'quvchilar bilimni mustahkamlab, uning mavzuni qanday o'zlashtirganini bilib olish uchun qulay topshiriq hisoblanadi. Test topshiriqlari asosan o'tilgan mavzular yuzasidan tuzilib o'quvchilar e'tiboriga havola qilinadi. Test topshiriqlarini ham raqamlashtirish, elektronlashtirish, maxsus dasturlarda test ishlash ko'nikmasini shakllantiribgina qolmay, o'quvchilar diqqatini o'ziga jalb qiladi. Bu borada telegram messenjeri orqali tuziladigan tezkor testlar ham yaxshi natija beradi. O'quvchi o'z bilimni tekshirib oladi va to'g'ri va notog'ri yechilgan test topshiriqlarini natijasini darhol bilib oladi. Bu esa o'quvchida bilimni chuqurlashtirish, vaqtdan unumli foydalanish uchun qulay hisoblanadi.

"Muammoli vaziyat"- bu pedagogik texnologiya bo'lib o'quvchilar mushkul vaziyatga tushib qolganda, bu vaziyatlardan tez va oson chiqib ketish uchun zamin tayyorlaydigan muhim texnologiyadir. Bu texnologiya ham raqamlashtirilsa, o'quvchilarga yaxshi yetib borishiga xizmat qiladi. Turli telefon o'yinlarida, uning zamirida yotgan ma'noga e'tibor berish kerak. Zo'ravonlik, urush, otishma ko'rinishidagi o'yinlar insonni buzg'unchilikka, fikrlashning buzilishiga, jahldorlik hamda shavqatsizlik hissini uyg'otadi. Shuning uchun ham bunday o'yinlardan voz kechib, uning o'rniga darsliklarning raqamlashtirilgan ko'rinishdagi, o'yin ko'rinishidagi topshiriqlarni yechishga sarflash, sinfda sog'lom raqobatni shakllantirish joizdir.

Mantiqiy fikrlashni o'stirishda misol va masalalar yechish ham yaxshi natija beradi. Matematik

topshiriqlar, masala va misollar bola xotirasini mustahkamlaydi, aqlini charxlaydi hamda fikrlash tezligini oshiradi. Matematik topshiriqlarda ham mantiqiylik mavjud bo'lib o'quvchining bilimini mustahkamlashga yordam beradi. Mantiqiy fikrlashni har qanday aqlni charxlashga qaratilgan, o'ylash va fikrlashni, xulosa chiqarishni talab qiladigan topshiriqlar rivojlantiradi. Masalan, ertak va hikoyalar o'qish, she'r yodlash, savollarga javob berish, til o'rganish va hokazo.

Muloaza va natijalar. Tafakkur insonning aqliy faoliyati mahsuli bo'libgina qolmay, aql-zakovati, ongli xatti harakatining yuksak shakli ham deb hisoblanadi. Tafakkur jarayonida insonda fikr- mulohaza, g'oya, faraz vujudga keladi va ular ongda fikrlar, xulosalar, hukmlar shaklida namoyon bo'ladi. Tafakkur sezgi, idrok, tasavvur orqali atrof- muhit bilan bog'lanadi. Tafakkurning o'z o'rnida ikki turi mavjud:

Aniq tafakkur. Aniq tafakkurni ikki ko'rinishi mavjud:

Kuzatish, sezish.

Olingan bilimlar asosida obyekt va modul orasidagi bog'lanishni anglash;

Abstrakt tafakkur. Analitik tafakkur ham o'z o'rnida ikki shaklda namoyon bo'ladi:

Analitik tafakkur.

Mantiqiy tafakkur.

Mantiqiy tafakkur insonning ongida, o'y- fikrlari mahsuli bo'lib, bu tafakkur shakli faqat uni o'stirib, rivojlanib borishni talab qiladi. Olimlarning takidlashlaricha inson miyasida 16 million neyronlar mavjud bo'lib, inson hayoti davomida uning bor yo'g'i 30 foizini ishlata ekan xolos. Bundan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, inson miyasining ochilmaga qirralari hali ko'p. uni rivojlantirish o'stirish esa aqliy faoliyat bilan ko'proq shug'ullanishni talab qiladi. Masalan, kitob o'qish, she'r yodlash, fikrlash, topishmoqqa javob topish, misol ishlash, muammoli vaziyatlarni yechish, masala ishlash va hokazo. Kichik maktab yoshida obrazli tafakkur yuqori o'rinda turishi va o'quvchilar xotirasida ma'lumotlarning saqlanishi ham aynan shu ko'rinishdagi ma'lumotlar bilan ishlashni talab qiladi. Oldingi davrda o'qituvchilardan ertakni o'qib berish, uning mazmunini tushuntirish, o'quvchilar bilan savol-javob qilish va ularning mantiqiy fikrlash jarayonini rivojlantirishga e'tibor berilardi. Ammo hozirda fan va texnika rivoji yuksalib, har bir sinf xonasi zamonaviy televizorlar, elektron qurilmalar, grafik organayzerlar, zamonaviy karnaylar kabi qurilmalar bilan jihozlandi. Bu esa ta'limning yanada rivojlanib, sifati va samaradorligi oshib borishi uchun xizmat qiladi. Bunday qurilmalardan darsda o'z o'rnida, foydali maqsadlarda foydalanish o'quvchilarda zamonaviy dunyoda –zamonaviy o'quvchi bo'lishga zamin yaratadi. O'quvchilarda elektron vositalardan, kompyuterlardan to'g'ri foydalanishni o'rganish uchun maktablarda 1-sinfdan boshlab informatika darslari qo'yilayotgani ham bejizga emas.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari atrof muhitni, ma'lum bir buyumni, voqea-hodisani kuzatadilar va ko'radilar. Masalan olma daraxtini, uning mevasini ko'rganda bu ularning tafakkurida aniq yaqqol namoyon bo'ladi. Mevani iste'mol qilganda esa, uning mazasi haqida fikrlar namoyon bo'ladi. Bu aniq tafakkurning yaqqol namunasidir. Boshlang'ich sinflarda raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi yaqin yillarda fanga kirib keldi. Zamonning jadallashib borishi, texnika asrining o'rnini raqamli texnologiyalar egallab borishi buning yaqqol isboti desak mubolag'a bo'lmaydi.

Dars va o'quv jarayonida bunday texnologiyalardan foydalanish ko'plab yutuqlarga sabab bo'ladi:

Vaqt tejiladi;

Topshiriqlar o'quvchilarga tayyor holda beriladi;

O'yin texnologiyalari orqali o'quvchi fanga tezroq qiziqib boradi;

Ta'lim samaradorligi o'sadi;

Individual ishlash imkoniyati ortadi

Gadjetlardan to'g'ri maqsadda foydalanishadi;

Bo'sh vaqlarini unumli o'tkazishadi va hokazo...

Elektron gadjetlardan, kompyuterlardan foydalanishning yutuqlari bilan bir paytda uning kamchiliklari ham bisyor. Masalan, o'quvchi me'yorida ortiq elektron vositalardan foydalansa ko'z nuriga shikast yetishi mumkin, shuning uchun ham buni oldini olish zarur. Maxsus nur qaytaruvchi ko'zoynaklardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda o'quvchilardan texnika xavfsizligi qoidalariga qattiq rioya qilish so'raladi. O'qituvchi maktabda, ota-onalar esa uyda farzandlarini gadjet va raqamli qurilmalardan to'g'ri maqsadda foydalanayotganini nazorat qilib borishlari muhim hisoblanadi.

Xulosa va tavsiyalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish muhim jarayon bo'lib, bu ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishga hamda, o'quvchini manan va ruhan yetuklik sari yetaklaydi. Buning uchun o'qituvchidan sabrlik, mahoratlik, qobiliyatlik, kommunikativlik, kreativlik, talabchanlik kabi sifatlar talab qilinadi. O'qituvchining bilimi qay darajad yuksak bo'lsa ham o'quvchilarni fanga, ilmga qiziqtirish zamonaviy dunyoda biroz qiyinroqdir. Chunki o'quvchilar bo'sh vaqtlarini kitob o'qish o'rniga gadjetlardan foydalanishga sarflaydilar. Shu o'rinda bizga eng muhim yordamchi sifatida raqamli texnologiyalar, o'yinli darslar, elektron va qiziqarli ko'rinishdagi mantiqiy topshiriqlar yordamga

keladi. Bunday topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarda o'yin orqali o'qishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Jonpulatovna S. M., Qizi I. M. F. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 8.
2. Ibrohimova M. BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARINI O'QITISHDA» DAY GAME» DAN FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 3. – №. 3. 3.
3. Ibrohimova M. F. IMPROVING INTEGRATION IN TEACHING ARITHMETIC PRACTICES IN PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА. – С. 31.
4. Jonpulatovna S. M., Qizi I. M. F. Improve Pupils' Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 5.
5. Ibrohimova M. Boshlang'ich matematika darslarida arifmetik amallarni qo'llashda talim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.
6. Ibrohimova M. Development of Logical Thinking in Elementary Mathematics Classes - International Journal of Trend in Scientific Research ..., 2022
7. M Ibrohimova .BOSHLANG'ICH SINFLARDA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK VA JADVAL KORINISHIDAGI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH .- ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2023
8. M Ibrohimova . Problems That Arise In the Classroom in the Educator and Their Optimal Solutions - ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2021
9. M Ibrohimova . Boshlang 'ich maktab matematikaşida arifmetika amaliyotini o 'rgatishda integratsiyani takomillashtirish- ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2021
10. M Ibrohimova . Improving integration in teaching arithmetic practices in primary school Mathematics. - Учённый XXI Века ISSN, 2020

THEORETICAL METHODOLOGICAL BASIS OF THE DEVELOPMENT OF THE SPIRITUAL WORLD VIEW IN YOUTH

Isakov Olim Odiljanovich

Namangan city «Hidaya», a teacher of the secondary special school of Islamic education

ANNOTATION. The worldview is a system of dialectical views and beliefs that determine the development of the content of nature, social society, thinking and personality activity. Within the framework of this system, beliefs formed on the basis of socio-ideological, philosophical, economic, natural-scientific, spiritual-moral, aesthetic, legal and environmental knowledge are manifested as the main structural elements.

Having a certain worldview sets the stage for the individual to have a sense of responsibility for the environment, social relations, labor activity and the production process, the decision-making of a certain attitude towards the subjects, as well as a full-fledged understanding of the social duties that the individual has on them and their fulfillment.

Key words: natural, social and humanitarian Sciences, social relations of various directions

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ДУХОВНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ У МОЛОДЕЖИ

Исаков Олим Одилжанович

г.Наманган «Хидая», учитель средней специальной школы исламского образования

АННОТАЦИЯ. Мироззрение – это система диалектических взглядов и убеждений, определяющих развитие природы, социального общества, мышления и содержания индивидуальной деятельности. Главными структурными элементами внутри этой системы выступают убеждения, сформированные на основе социально-идеологических, философских, экономических, естественно-научных, духовно-этических, эстетических, правовых и экологических знаний.

Наличие определенного мироззрения создает основу для чувства ответственности человека за окружающую среду, социальные отношения, труд и производственный процесс, определенного отношения к предметам, принятия решений, а также наличия полного взаимопонимания. Понимаются социальные обязанности человека и их выполнение.

Ключевые слова: социальное общество, социальные и гуманитарные науки, социальные отношения разных направлений, система взглядов.

YOSHLARDA MA'NAVIY DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

Isafov Olim Odiljanovich

Namangan shahar "Hidoya,, o'rta maxsus islom bilim yurti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA. Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur va shaxs faoliyati mazmunining rivojlanishini belgilovchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Bu tizim doirasida ijtimoiy-mafkuraviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar asosida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy elementlar sifatida namoyon bo'ladi. Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni uchun mas'uliyat hissi, sub'ektlarga nisbatan muayyan munosabat qaror qabul qilish, shuningdek, to'liq tushunchaga ega bo'lish uchun zamin yaratadi. Shaxsning ijtimoiy majburiyatlari va ularning bajarilishi lozimligi tushuniladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy jamiyat, ijtimoiy-gumanitar fanlar, turli yo'nalishdagi ijtimoiy munosabatlar, e'tiqodlar tizimi.

INTRODUCTION. The worldview in a person is formed as a result of the establishment of a consistent, systematic, continuous and purposefully organized education, its active participation in the process of social relations of various directions and content, as well as self-education. In the formation of the worldview of the younger generation, a significant place is occupied by the careful assimilation by them of the foundations of the natural, social and humanitarian Sciences, which are established to be taught in educational institutions.

The essence of the spiritual and moral image of a person, life approaches, values that are a priority for him and moral principles expresses the meaning of the worldview that he has. In turn, the richness of the worldview ensures an increasing stabilization of the individual's personal qualities and qualities. A worldview that expresses noble ideas in its content contributes to the enrichment of positive qualities that are manifested in the image of a person.

In its essence, the worldview is distinguished by a scientific (having a certain philosophical system) and a simple (not having a specific philosophical system) way of worldview. On the basis of a scientific worldview, there are ideas that have acquired stability as a result of a continuous, consistent thorough assimilation of the foundations of existing Sciences, active participation in the process of social relations.

MATERIALS AND METHODS

The formation of a person's worldview is considered a complex process with a long-term, dynamic nature.

The main signs and essence of mental education and scientific worldview. Mental education plays an important role in the formation of a person's worldview. Mental education is a pedagogical activity aimed at giving a person knowledge about the development of nature and society, the formation of his mental (cognitive) ability, thinking, on the basis of which a worldview is formed on an effective basis.

Today, in the Republic of Uzbekistan, special attention is paid to providing mental education to young people. In the content of the law of the Republic of Uzbekistan «on education» and the «National Training Program» adopted at the IX session of the Supreme Assembly of the Republic of Uzbekistan in 1997, it is emphasized that the education of highly qualified personnel meeting high spiritual and moral requirements is one of the priorities of the state policy. To grow up to be a highly qualified cadre that meets high spiritual and moral requirements means a thorough acquisition of existing scientific, as well as professional knowledge. Consequently, the acquisition of deep knowledge makes it possible to understand the essence of natural and social processes, to see and evaluate their positive and negative aspects. The development of psychological abilities (speech, attention, memory, thinking, creative imagination) and features (striving for a specific goal, curiosity, observability, independent thinking, creative thinking, reasoning one's own opinion, generalizing existing information, grouping, drawing logical conclusions, etc.) that help to assimilate knowledge. The development of knowledge acquisition as well as the emergence of need. Mental thinking occurs as a result of a long term as well as a tireless search. In its formation, scientific views and beliefs occupy a special place.

A scientific view (from the Greek «idea»- the sum of ideas, imagination, concepts) is a thought, an idea that is scientifically based, illuminating the essence of a particular phenomenon, process, which occurs when the existing system of scientific knowledge is thoroughly mastered by a person, comparing knowledge with each other, analyzing the essence of a subject, phenomenon or process. Teaching students to think creatively, the formation of inventive skills provides the basis for the conduct of scientific research by them and the promotion of certain scientific views. Effective organization of mental education ensures the emergence of scientific thinking in a person. Scientific thinking is considered a high form of human mental activity and refers to a scientific approach to social phenomena, processes. At the first stage, they are unstable and acquire the property of variability according to the circumstances. At the second stage, it becomes stable principles of spiritual and moral views. The existing demand is to organize a conscious movement in difficult, conflict situations to deviate from the ethical rules recognized by society, to act with reliance on volitional qualities. At the third stage, faith remains a priority spiritual and moral principle in all situations. When the scientific knowledge acquired by the reader is widely used in the process of life relationships, their true essence becomes a belief only when it is deeply felt and realized.

President Of The Republic Of Uzbekistan In I. A. Karimov's works, an important place is occupied by the views of young people on being educated, high-minded, with a special emphasis on the fact that their intellectual potential is a factor in ensuring the development of society, I believe, for Culture, a new generation will emerge that will give its life for enlightenment and make it the main goal of its life. We live for this generation. We are trying to instill these noble goals in the minds of people. When the generation we are waiting for sees this wealth as the greatest in the world and blesses its life, know that it is inevitable that humanity will reach bright days»²¹.

Eastern thinkers have given a special place in their works to the issues of cognition and human mental thought. In particular, Abu Nasr Forobiy assesses the role of science as a determining factor in human perception of being, in his understanding of the secrets of nature. According to the human body, brain, sensory organs are formed in the process of mental knowledge, spirituality, psyche, intellectual and moral qualities, character, religion, customs, education, when it exists at birth, influenced by the external world, social environment, in the process of the relationship it organizes with people.

According to Abu Nasr Forobiy, the human mind, thought, is the product of his spiritual rise. As a person assimilates knowledge, he is able to assimilate, create, scientifically substantiate information from the existence to the history of the creation of a living being.

Analysis and results

Continuing alloma's thoughts, Abu Rayhon Beruniy puts forward the following: «a person not only does not receive knowledge about the external quality and characteristics of things and phenomena, but also compares things and phenomena due to his thinking, intelligence, compares them with each other, determines the validity of his knowledge»²². The Thinker also says that the assimilation of knowledge by people leads to the creation of new knowledge: «there are many Sciences. They are timeless and increase when different thoughts and memories accompany them. The encouragement of men to the sciences, the respect of the sciences and the people of science, is a sign of that talent. (In particular) the respect of the ruling People for the people of science causes an increase in various sciences»²³.

Abu Ali ibn Sina in his works, while commenting on the concept of knowledge, makes a special note that the deep acquisition of knowledge is wisdom: «science is the study of things with the help of the human mind. Knowledge is said to perceive things, while that is. This is such that the human mind is something that he will have to achieve without making mistakes and getting out of the way. If the evidence is clear and the proofs are genuine, then it is said Wisdom.»²⁴.

The organization of Environmental Education organized in the family and society with the help of such forms as

conversation, Round Table, excursion, discussion, creative contests, meeting, socio-beneficial labor (Saturday, hashar, greenery) and methods such as conversation, observation, organization, promotion and punishment of practical activities ensures that environmental culture is decided in students.

Personal examples of subjects involved in Student Education, Educational Resources, non-fiction, media (including the Internet) materials and their ideas are considered important tools for the formation of ecological culture in students.

O'zbekiston ta'lim tizimida klasterlashtirish modelini tatbiq qilish esa so'nggi yillarda ko'zga tashlanmoqda, ayniqsa, U.N. Hodjamqulov [8], S.A. Toshtemirova [9], A. Boymurodov [10], Sh.I. Botirova [11], D. Qarshiyeva [12], G.N. Sharipova [13], N.M. Koshanova [14] va boshqa ko'plab o'zbek tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida pedagogik ta'lim klasteri asosida mintaqaviy ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, sifat samaradorligini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha innovatsion g'oyalar joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va ularning amaliy tatbig'i borasida samarali tajriba tahlillari bayon qilingan.

Natija va muhokama. Ta'lim sifati samaradorligini oshirish keng jamoatchilik bilan bog'liq jarayon bo'lib, bunda mavjud vakillik organlarining o'rni muhimdir, ular tomonidan sifatli ta'limni samarali ta'minlash rejalarini ishlab chiqish, oliy ta'lim muassasalarini jihozlar va kerakli axborot resurslari bilan ta'minlash, sifatli ta'limga to'sinlik qiluvchi omillarni hal etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish asosiy usullardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim sifati ta'limning maqsadi va strategiyasi bilan uzviy bog'liqdir, vaholanki, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari ta'limida aniq belgilangan maqsadning yo'qligi, uning noaniqligi va an'anaviy ta'lim strategiyasining saqlanib qolinganligi uning samaradorligini yanada pasayishiga olib kelmoqda.

Ta'lim jarayonining sifat samaradorligini oshirishga bir qator omillar ta'sir ko'rsatmoqda, jumladan: har bir talaba uchun uning qobiliyati va qiziqishini hisobga olgan holda ta'limni rivojlantirishning universal psixologik va pedagogik nazariyaning yo'qligi;

oliy ta'limning reproduktiv ta'lim texnologiyalari ommaviy amaliyotida fikrlashning samarali turlarini rivojlantirish emas, balki tayyor bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni saqlab qolinganligi; o'qituvchilarning iqtidorli bolalar bilan ishlash bo'yicha nazariy jihatdan yo'naltirilmaganligi, ular tomonidan bolalarning qobiliyatiga nisbatan kognitiv faolligi darajasiga yetarlicha baho berilmasligi;

ta'limning ijtimoiy motivatsiyasining pasayishi va umuman jamiyatning ma'naviy madaniyati [15:120].

Olib borilayotgan tadqiqot davomida ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi yuqorida aniqlangan omillar tahlili va uni hal qilish usullari taqdim etiladi.

Ta'lim tizimini zamonaviylashtirishda yangicha innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish jamiyatning pirovard maqsadlaridan biri bo'lib kelmoqda. Vaholanki, ta'lim tizimida bu kabi amaliyotlarni rivojlantirish murakkab iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy boshqaruvni tashkil etish bilan boshlanadi. Aynan bu jarayon ta'lim tizimini klasterlashtirishni talab qiladi. Shu o'rinda bugungi kunga kelib ta'limga nisbatan qo'llanilib kelinayotgan klaster terminining mohiyatiga to'htalib o'tsak, klaster bu - o'zaro bog'langan tashkilotlar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, tegishli tarmoqlardagi firmalar hamdaularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlarning jo'g'rofiy belgi bo'yicha birlashtirilgan guruhidir. Ta'limga nisbatan esa klaster modeli ta'lim-fan-ishlab chiqarish tizimida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashni shakllantirish vositasi [16:84], raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo'lgan soha (ta'lim, iqtisodiyot va b.)lar birlashishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmidir.

Ma'lumki, o'qituvchilar sifatli ta'lim berishda asosiy ishtirokchilar bo'lib, shu sababli birinchi navbatda, sifatli ta'limni ta'minlashda ularning bilimini oshirish, mehnat faoliyatlari davomida ularni rag'batlantirib borish va toifalarni oshirishga ko'maklashadigan malakalarni rivojlantirish muhimdir.

Ta'lim sifati muammosi shaxsning barkamollik sifati muammosi bilan hamda uning ijtimoiy taraqqiyotni jamiyat taraqqiyotining omili sifatida shakllantiruvchi ta'lim intellektini shakllantirishi bilan uzviy bog'liqdir. Ta'lim sifatini ta'minlanishida tanlov nazariyasi muhim sanalib, bu orqali talabarag'batlantiriladi, ya'ni talaba o'ziga xos bo'lgan sifatli mavjudlik va unga erishishga olib keladigan faoliyatni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. O'qituvchi talabaga o'qitish va o'rganish vaziyatlarida tasavvur qilishga yordam beradi. Tanlov nazariyasining yana bir muhim jihati ta'lim jarayonidagi qiyin vaziyatlarda ham talabalarni majburlamasdan ularni boshqarishning samarali usullari orqali yaxshi natijalarga erishiladi. Boshqacha qilib aytganda, tanlov nazariyasi orqali o'qituvchilar talabalarning ehtiyojiga qarab nimalarga ko'proq e'tibor qaratishni bilib olishi mumkin.

Shu bilan birga tanlov nazariyasining zaif tomonlari ham mavjud bo'lib, bu birinchi navbatda, o'qituvchining mas'uliyati va talabaning hatti-xarakati o'rtasidagi ziddiyatda o'z aksini topadi. O'qituvchi oliy ta'limda talabalarning ehtiyojlariga javob beradigan muhit yaratishga mas'uldir, lekin ba'zan talabalar o'z hatti-harakatlarini o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib tanlaydilar, ko'p hollarda bu tanlov ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etishi ham mumkin. Bunday holatlarni vujudga kelmasligi uchun o'qituvchi talabani tanlov nazariyasida nimalar muhimligi, o'zini-o'zi rivojlantirishga xizmat qiladigan tanlovlarni tanlash bo'yicha tavsiyalar berishi maqsadga muvofiqdir.

Aksariyat o'qituvchilarning ta'kidlashicha, ta'lim sifati bu o'zini-o'zi o'qitish va ta'limni oliy o'quv yurtlarida davom ettirib, qo'shimcha ta'lim olish uchun yetarli bo'ladigan bilimlar yig'indisidir, ta'lim sifati bu o'quv fanlari bo'yicha yuqori darajadagi bilim, oliy o'quv yurtlariga kirishda raqobatga bardosh beradigan bilimlarni hayotda qo'llash qobiliyatidir, shu bilimlarni qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdir.

Ta'lim sifatini belgilab beruvchi keyingi xususiyat sifatida intellektual rivojlanish, ta'lim va o'z-o'zini o'qitish motivatsiyasi, talabalarning ijodkorlik qobiliyati bilan belgilanishi muhimligini e'tirof etish mumkin. Ta'lim sifati intellektual rivojlanishning yuqori qobiliyatini o'z ichiga olishi, talabaning ijodiy salohiyati, olingan bilimlarni tahlil qilish, taqqoslash va uni qo'llash qobiliyatining muhimligi ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Yuqori intellektual qobiliyat mustaqil ijodiy faoliyat uchun muhim bo'lib, bu talabaning ta'lim sifati madaniyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega ekanligi bo'yicha fikrlar bayon etilgan.

Ta'lim sifatini ta'minlanishida o'quv jarayoning sifati muhimligi keyingi xususiyat sifatida baholanadi. Ta'lim sifatini ta'minlashda o'qituvchining professionalligi, zamonaviy texnologiyalar va o'quv jarayonini zamonaviy usullarda olib borish, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda o'qituvchining yetarli qobiliyatga ega ekanligi, tegishli ko'rsatma va tavsiyalar berish qobiliyatining mavjudligi, dars jarayonlarining olib borilishida o'qituvchining haqiqiy boshqaruvchilik mahorati muhimligi e'tirof etilgan.

Talabaning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi esa ta'lim sifatini ta'minlashdagi keyingi o'rinda belgilangan xususiyatlar sirasiga to'g'ri keladi. Natijalar tahliliga ko'ra, insonda doimiy yaxshi tomonga o'zgarish istagi, hayotda yuqori natijaga erishish uchun harakat qilish qobiliyati, insondagi mas'uliyat, mavjud tizimga moslashuvchanlik, o'z pozitsiyasini aql bilan boshqarish va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qobiliyati, talabaning shaxs sifatida o'zini-o'zi anglash qobiliyati kabi xususiyatlar ta'lim sifatini ta'minlashda muhim sanaladi.

Ta'lim sifatini ta'minlashga katta ahamiyat beradigan xususiyatlardan hisoblangan ta'limni insonparvarlashtirish, demokratlashtirishga ham katta e'tibor berish zarur. Bugungi kunda o'qituvchi talabani doimiy siquvda, majburiyatda ushlab turish, talablarni kuchaytirish orqali ta'lim sifatini oshirishi mumkin mazmunidagi harakatlar ta'limni zamonaviylashtirishga katta to'siq bo'lib kelmoqda.

Taklif va xulosalar. Har bir shaxs uchun sifatli hayotni ta'minlashda, kasbiy jihatdan o'zini-o'zi belgilaydigan, zarur vaziyatlarda hatto kasbini o'zgartirishga qodir bo'ladigan shaxsning ijtimoiy va kasbiy harakatchanligini ta'minlaydigan, jamiyatdagi yangi ijtimoiy o'rin va vazifalarni tez o'zlashtira oladigan raqobatbardosh shaxslarni shakllantirishdan iborat bo'lishi kerak. Buni amalga oshirish uchun oliy ta'limlarida sifatli ta'limni ta'minlashda quyidagi takliflarni taqdim qilamiz:

talabalarning individual, madaniy, va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'qitish va shaxsiyatni rivojlantirishni tarkibiy qismlarga ajratishni ta'minlaydigan yangi pedagogik texnologiyalarning bazaviy va mintaqaviy standartlari asosida ishlab chiqish;

shaxs manfaatlarining ustuvorligini ta'minlash, ta'limni

insonparvarlashtirish;

ta'lim shakllari xilma-xilligi va bilish asoslari va shakllari orqali demokratlashtirishni rivojlantirish;

ta'limning huquqiy asoslarini ta'minlash va hokazo.

Ta'lim beruvchilar rahbarligida dars jarayonlarida talabalarning mustaqil holda ijodiy faoliyat olib borishlariga sharoit yaratib berish ta'lim sifatini takomillashtirishning yana bir muhim samarali usullaridan biridir. Bu maqsadga erishish uchun, albatta talabalarning bilim faolligini yanada faollashtiradigan va ta'lim sifatini rivojlantiradigan muhit yaratish birinchi o'rindagi vazifa hisoblanadi. Yuqoridagilardan

kelib chiqib, har bir talabaniing imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olishni o'z ichiga oladigan ta'limni individuallashtirishni unutmash kerak.

Ta'lim sifatining eng muhim qiymati uning individuallashtirishi bo'lishi kerak. Ta'limni individuallashtirish – bu har bir talaba va o'qituvchining salohiyatini shakllantirish va ro'yobga chiqarish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratib, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchiga individual holatda yondashishdir.

Ta'lim mazmunida birinchi navbatda an'anaviy ta'limning quyi yo'nalishli xususiyatlarini tark etish zarur. Ta'lim mazmuni bo'yicha bilimlar uslubiy va madaniy holatda bo'lishi sifat samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda oliy ta'limning asosiy vazifalardan biri – ta'lim sifati muammosini hal qilishga imkon beradigan ta'lim muassasalari tashqi muhitining o'zgarishiga, jamiyatning ehtiyojlariga, ijtimoiy tartibga, qanchalik samarali va pedagogik jihatdan asoslangan uslub va texnologiyalar tanlanishiga munosib javob beradigan usul va vositalarni joriy qilgan va amaliyotlarda tatbiq etadigan yangicha innovatsion yondashuvlarni iste'molga kiritishdir.

Foydalanilgan adabiyotlarro'yxati.

Портер М.Э. Конкуренция. – М.: Вильямс, 2003. – С. 35.

Solvell O., Lindqvist G., Ketels C. The Cluster Initiative GreenBook, 2003. Электронный ресурс: <http://www.cluster-research.org>.

Шамова Т.И. Кластерный подход к развитию образовательных систем// Взаимо действия образовательных учреждений и институтов социума в обеспечении эффективности, доступности и качества образования регионаю Белгород, 2006.

Павлова Т.С. В образовательном кластере Москвы педагогов научат учить детей по новому / Т. С. Павлова // Учебно-методический кабинетю <http://ped-kopilka.ru/blogs/pavlova-tatjana/v-obrazovatelnom-klasterne-moskvy-pedagogov-nauchat-uchitdetei-po-novomu.html>.

Болотов В.А. Единый государственный экзамен как элемент становления системы независимой оценки качества образования в Российской Федерации / Вестник образования. - 2004.- №23. - С.15-25.

Жук А.И. Система педагогического образования Республики Беларусь: достижения, трудности, перспективы / А. И. Жук, А. В. Торхова // Адукацыя і выхаванне. – 2014.– №7 – С. 19 – 25.;

Мухамедов Ф. И., Хўжамкулов У. Н., Тоштемирова С. А., 2020, Педагогик таълим инновацион кластери, Тошкент, Университет, - Б. 13.

Ходжамкулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластерининг илмий-назарий асослари // педагогика фанлари докт.дисс. Тошкент. 2021. – 204.

Тоштемирова С.А.Кластерли ёндашув асосида таълим сифатини ошириш // педагогика фанлари бўйича фалс.докт.дисс. Тошкент. 2021. – 198

Боймуродов А.Х. Умумий ўрта таълим тизимида информатика ва ахборот технологиялари фанини ўқитишнинг инновацион кластер модели // педагогика фанлари бўйича фалс.докт.дисс. Тошкент. 2021. – 136.

Ботирова Ш.И. Адабий таълим кластеринг илмий-педагогик асослари // педагогика фанлари докт. дисс. Тошкент. 2021. – 226.

Қаршиева Д.Э. Кластер воситасида бўлажак ўқитувчиларда касбий компетенцияни шакллантиришнинг педагогик асослари (мактаб малакавий амалиёти мисолида) // педагогика фанлари бўйича фалс.докт.дисс. Тошкент. 2021. – 122.

Шарипова Г.Н. Педагогик таълим кластери шароитида талабаларда ўзини ўзи ривожлантириш компетенциясини шакллантириш // педагогика фанлари бўйича фалс.докт.дисс. Тошкент. 2021. – 146.

Кошанова Н.М. Умумтаълим мактабларида синф раҳбарлари фаолиятини ривожлантириш механизмлари (кластер ёндашуви асосида) // педагогика фанлари бўйича фалс.докт.дисс. Тошкент. 2021. – 202.

Ростовцева Л.Г. Доклад на педагогической конференции по теме “ Качество образования – предпосылки, сущность, оценка”// <https://urok.1sept.ru> .

Осечкина Л.И. Кластерный подход как условие повышения эффективности деятельности вуза / Л.И.Осечкина // Высшее образование в России. -2012. -№8-9. – С.75

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNING DOLZARB MASALALARI.

Jo'rayeva Mushtariy Muxaydinovna
KIUT Toshkent kimyo xalqaro universiteti
Namangan filiali pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada shaxsni har tomonlama mukammal va barkamol qilib shakllantirish vazifasi eng dolzarb masalalardan biri ekanligi, umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish bo'yicha pedagogik jarayonni tashkil etish yo'llari hamda imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa sog'lom bolalar bilan teng sharoitda o'qitilishi imkoniyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, individual yondashuv, aqliy rivojlanish darajasi, tahlil, umumlashtirish, ommalashtirish, zamonaviy texnologiya, shakl va usul, korreksion tarbiya, artikulyatsiya, tyutor, diqqat yetishmasligi, giperaktivlik sindromi, autizm, disleksiya.

Аннотация: В статье представлена информация о том, что задача всестороннего совершенного и гармоничного формирования личности является одной из самых актуальных, о путях организации педагогического процесса обучения детей с ограниченными возможностями здоровья в общеобразовательных школах, а также о возможности обучения детей с ограниченными возможностями здоровья наравне с другими здоровыми детьми.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, индивидуальный подход, уровень психического развития, анализ, обобщение, популяризация, современные технологии, форма и методика, коррекционное воспитание, артикуляция, тьюторство, дефицит внимания, синдром гиперактивности, аутизм, дислексия.

Annotation: The article provides information on the fact that the task of forming an individual in a comprehensive perfect and harmonious way is one of the most pressing issues, ways to organize a pedagogical process for teaching children with disabilities in secondary schools, and the possibility of teaching children with disabilities on an equal footing with other healthy children.

Keywords: inclusive education, individual approach, level of mental development, analysis, generalization, popularization, modern technology, form and method, correctional education, articulation, tyutor, Attention Deficit Hyperactivity syndrome, autism, dyslexia.

KIRISH. Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy mahorati va hamkorligi, avvalo, alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan har qanday holatlarni istisno etadigan, barcha uchun teng muomalani ta'minlaydigan, lekin maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun zarur sharoit yaratadigan mafkuraga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha uchun ta'lim olish huquqi kafolatlangan. Milliy qonunchiligimizda ham nogironligi bo'lgan shaxslar uchun salohiyatlarini yuzaga chiqarishda teng huquqlar belgilangan. Bugungi kunda nogironligi va rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar sifatli ta'lim olishlari va keyinchalik munosib ish topishlari uchun ularga haqiqiy inklyuziv sharoitlarni yaratish bo'yicha mamlakatimizda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Inklyuziv ta'limning muhim muammolaridan biri bo'lgan alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar guruhini aniqlab, ularga sifatli ta'lim shakllarida bilim berish va salohiyatini oshirishdan iboratdir. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlarga ega bo'lgan tamoyillari va yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan maktabning ta'lim faoliyatiga, yo'nalishlariga, hamda imkoniyatlarga (jismoniy, intellektual) mos kelishi maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunidanoq Respublika Hukumati yosh avlodning sog'lig'i, ta'lim hamda tarbiyasi masalalariga jiddiy ahamiyat berib kelmoqda. Ushbu ishlarning amaliy yechimi bevosita uzluksiz ta'lim tizimi bo'g'ini bo'lgan maktab bilan bog'liq. Ta'limimiz diqqat markazida erkin, ongli, o'z va dunyo mamlakatlari milliy va madaniy qadriyatlariga hurmatda bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalash turadi. Hozirgi kunda maxsus ta'lim tizimiga "anomal", "nuqsonli", "aqli zaif" kabi atamalar o'rniga "alohida e'tiborga muhtoj", "aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan", "rivojlanishida chetga chiqishlari mavjud" atamalari kirib keldi. Bu hol bunday bolalarning rehabilitatsiya, korreksiya, ijtimoiy hayotga moslashuvlari va integratsiyalashuv (uyg'unlashuv)lari masalalariga bo'lgan munosabatlarning o'zgarishiga olib keldi. Asta-sekinlik bilan dunyoga yuz tutgan ta'lim tizimida ham yangi yo'nalish ishlari boshlab yuborildi. Maxsus ta'lim tizimiga muqobil bo'lgan yangi yo'nalish maktablari – inklyuziv maktablari shakllana boshladi. 1996 yildan e'tiboran kirib kelgan va 2000 yildan e'tiboran xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda turli Loyihalar asosida tashkil etib kelinayotgan inklyuziv ta'lim muassasalari dastlab muvaffaqiyatlarga erishishiga qaramay, mazkur qo'llab-quvvatlashlar yakunlangach, maktablarda qator deqsinishlar yuzaga kelmoqda. Shu sababli ham inklyuziv

ta'limning me'yoriy-huquqiy va nazariy asoslarini puxta o'rganish va u orqali inklyuziv ta'limning samarali tizimiga o'tish xalq ta'limi tizimida dolzarb masala sanaladi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46- sessiyasidagi nutqida strategik yo'nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konventsiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi malumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga mlum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maxsus ta'lim aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi. Maxsus ta'lim o'qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o'qitilsa, inklyuziv ta'lim bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi. Inklyuziv ta'limning o'ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o'qituvchi bir - birlaridan o'rganishadi hamda muammolarni birgalikda hal etishadi. Bu ta'lim bir tomonlama bo'lmasligi kerak. Imkoniyati cheklangan bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ko'nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o'rganishni rag'batlantirishda oila ishtiroki muhim. Inklyuziv ta'lim jarayonida otaonalar bilan ishlash ham muhim. Takidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak. Mamlakatimiz ta'lim tizimida bu masalaga alohida e'tibor qaratiladi.

Ta'lim tizimini rivojlantirishning umumiy jihatlari o'quvchilar uchun teng shartsharoit yaratish bilan bog'liq jarayonlar orqali xarakterlanadi. Bu borada nafaqat ta'lim oluvchining moddiy turmush tarzi, balki uning jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratish zarur. Ayniqsa, ushbu yo'nalishda imkoniyati cheklangan shaxslarga o'quvni tashkil qilishda tegishli shartsharoit yaratish talab etiladi. Mazkur jarayon rivoji o'zida uzluksiz — maktabgacha ta'lim, umumta'lim, o'rta maxsus ta'lim va oliy ta'lim bilan bog'liq bosqichlarni qamrab olganligi sababli inklyuziv ta'limda tizimli algoritmi vujudga keltirish kerak. Har bir mamlakatda inklyuziv ta'lim tizimi o'sha yerda mavjud an'analar, urf-odat va hukmron qadriyatlar asosida shakllanadi. Shuningdek, turli xalqlarning mentaliteti hamda o'quv tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan qonunchilik jabhasi bu boradagi ustuvor yo'nalishni yo'lga qo'yishga samarali tasir ko'rsatadi. Shu manoda, mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligini taminlashga xizmat qilayotgan me'yoriy-huquqiy mexanizmning rolini alohida qayd etish o'rinlidir. Tizimning O'zbekistonda rivojlanishi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni takomillashtirish jarayoni bosqichli tizimga ega. Prezidentimizning "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2020—2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish kontsepsiyasi ushbu bosqichning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. 2020—2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish kontsepsiyasini 2020-2021 yillarda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l haritasi"da: — alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumiy o'rta va professional o'quv muassasalariga yuborishga imkon beruvchi tibbiy ko'rsatmalar ro'yxatini ishlab chiqish va tasdiqlash; — alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni erta aniqlash va qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish; — ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun kasbga o'qitish kurslarini tashkil etish va sertifikat berish tartibini ishlab chiqish; — oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida "Defektologiya" ta'lim yo'nalishi o'rniga "Maxsus pedagogika" ta'lim yo'nalishini kiritish; — alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar bilim oladigan o'quv muassasalarini maxsus adabiyotlar va metodik-qo'llanmalar bilan ta'minlash jarayonlari bilan bog'liq qator vazifalar belgilangan. Bular O'zbekistonda inklyuziv ta'limni takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarni mustahkamlashga yo'naltirilganligi bilan muhim, albatta. Ammo bu yo'nalishni rivojlantirishda ta'limning ijtimoiylashuvi bilan bog'liq jarayonlarga alohida e'tibor qaratmoq lozim. Shuni unutmaslik joizki, tegishli xorij tajribalariga muvofiq inklyuziv ta'limni tashkil etishda pedagogik jihatlar asosiy o'ringa ega. Xorij davlatlari tajribasi Yevropa mamlakatlari, AQSH va boshqa rivojlanayotgan davlatlarda ushbu soha taraqqiyoti ijtimoiy xarakter kasb etadi. Masalan, Germaniyada inklyuziv ta'lim sharoitidagi talabalarning ma'lum qismi aralash tarzda oddiy auditoriyalarda tahsil oladi. Biroq ularda individual o'quv jarayoni bilan bog'liq holatlar ham saqlangan bo'lib, o'qish paytida zarur tibbiy yordam olish va nuqsonlarni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Oliy ta'limda esa jami talabalarning o'rtacha 4-8 foizi nogironligi bo'lgan talabalaridir. Germaniya qonunchiligiga muvofiq nogironligi bo'lgan talabalar, kundalik hayot uchun zarur hisoblangan maxsus texnik va yordamchi vositalar bilan ta'minlanadi. Ularga doimiy tarzda davlat ijtimoiy xizmatlari orqali ijtimoiy va tibbiy yordam ko'rsatib boriladi. Nogironligi bo'lgan talabalar ota-onalarining daromadlari o'rtacha daromaddan yuqori bo'lsa, ular mazkur harajatlarning ma'lum qismini to'lashlari shart. O'qish jarayonida nogironligi bo'lgan talabalar yordamchi xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Jismoniy va boshqa nogironligi bo'lgan talabalar ko'pincha semestr ishlarini topshirish muddatini uzaytirish, yozma imtihonni og'zaki yoki aksiga almashtirish, shuningdek, imtihonni individual topshirish huquqiga ega. Ko'pgina Yevropa mamlakatlarida inklyuziv ta'lim Germaniya tizimiga o'xshash xususiyatlarga ega. Nogironligi bo'lganlarga ta'lim berish jarayoni ularning kelajakda mehnat faoliyatiga qo'shilishi, jamiyat

bilan erkin ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolishiga ijobiy tasir ko'rsatadi. Amerika Qo'shma Shtatlarida inklyuziv ta'lim uzoq vaqtdan beri odatiy o'quv tizimiga kiritilgan. U yerda ta'limning me'yoriyhuquqiy hujjatlari bolalarning barcha toifalari uchun majburiy qilib belgilangan. Shu munosabat bilan aqli zaif va eshitish nuqsonlari bo'lgan o'quvchilar uchun auditoriyalar yaratildi. Amerikalik olimlarning ilg'or psixologik va pedagogik kontsepsiyalari maxsus pedagogikada katta qatlamni tashkil etadi va inklyuziv ta'limning asosi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA Umumiy ta'lim dasturining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun nogiron o'quvchilarga maxsus sharoitlar yaratib berilishi kerak. Avvalo, biz mashg'ulotga yondashuvlarni individualizatsiya qilish, xususan, mashg'ulotni tashkil etish uchun shart-sharoitlarni tanlash, vazifalarni bajarish shaklini individuallashtirish va natijalarni taqdim etishning maqbul usullarini tanlash, natijalarni sifatli baholashga yondashish talab qilinadi. Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchilarni ishlashga tayyorlashning bilim to'siqlaridan biri bu hatti-harakatlarida passiv rivojlanish va tuzatishga qaratilgan ishlarini amalga oshirishga qaratilgan asoslar to'g'risidagi bilimlardir. Ushbu bilimlar orqali alohida ehtiyojga ega bolalarni o'qitish va tarbiyalashni tashkil qilishda pedagogik faoliyatning dolzarb vakolatlarini shakllantirishdir. Shu munosabat bilan o'qituvchining psixologik bilimlari va pedagogik vakolatlarini oshirishga qaratilgan maxsus treninglarni tashkil etish alohida muhim rol o'ynaydi.

MUHOKAMA Ushbu treninglarning vazifalariga pedagogik vakolatlarini motivatsiyali ravishda amalga oshirish kiradi. O'quv faoliyatining mazmuni quyidagilarga qaratilgan: o'qituvchilar inklyuziya falsafasini qabul qilishlari; bolani kuzatish, uning xulq-atvori va ta'limidagi o'zgarishlarni qayd etish malakalarini oshirish; pedagogik muammolarni hal qilishda bolaning ota-onasi bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish va bu o'zaro ta'sirni bola rivojlanishi uchun uning natijalarining maksimal samaradorligi bilan tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani maxsus sinflarga va integral sinflarga qo'yish (ko'chirish) ota-onalarning (qonuniy vakillarning) iltimosiga binoan amalga oshiriladi va ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan rasmiylashtirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Maxsus va yaxlit sinfda ta'lim (TPK) tomonidan tavsiya etilgan umumta'lim dasturlari va chuqur dinamik psixologik-pedagogik imtihon ma'lumotlari asosida sinf rahbarlari va Kengash a'zolari tomonidan birgalikda ishlab chiqilgan individual yo'naltirilgan o'quv rejalari va dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Nogiron bolani rivojlanishi uchun uni qayta ijtimoiylashtirish jarayonlariga qo'shilishi mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratish kerak. Bunday muhit o'quv jarayonining barcha ishtirokchilarini birlashtirishga, shuningdek, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishda psixologik yordam ko'rsatishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'limda ishlash uchun o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi. - o'qitishning moslashuvchan shakllariga, interfaol o'qitish uslublariga ega bo'lish; - bilish faoliyati mustaqilligini rag'batlantirish qobiliyati; - jamoada ishlash qobiliyati, alohida ehtiyojli bolalar ta'limi uchun psixologik-pedagogik yordamni yaratish uchun mutaxassislar bilan o'zaro aloqada bo'lish; Nogiron bolalarni psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash o'qituvchining har xil turdagi sog'lig'i bilan bog'liq muammolarga duch kelgan bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan birgalikdagi va individual faoliyatini tashkil etish qobiliyatini taxmin qiladi har bir bolaning tarixi to'g'risida dastlabki ma'lumotlarni to'plash ularni qobiliyati haqidagi bilimlarni oshirishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'lim o'qituvchisining kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan talablardan biri bu bolaning hissiy barqarorligini nazorat qilish talabidir. Inklyuziv ta'lim o'qituvchisi mentalitetining (Mentalitet-ijtimoiy yoki etnik guruhga, millatga, xalqqa, millatga xos bo'lgan aqliy, hissiy, madaniy xususiyatlar, qiymat yo'nalishlari) tarkibiy xususiyatlari bu munosabatdir: bolaning qadr-qimmatiga, uning qobiliyatlari va yutuqlaridan qat'iy nazar, har kimning tengdoshlari bilan muloqot qilish, qo'llab-quvvatlash va do'stlik qilish huquqidir. Barcha bolalarning hamkorlikdagi ta'limi ikki tomonlama ijobiy xislatlarga ega. Agar, ushbu jarayon orqali alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning o'z oilalari, mahalladoshlari bilan birga o'sib ulg'ayishlari taminlansa, sog'lom bolalarning rivojlanishlarida muammolari bo'lgan bolalarning imkoniyatlarini ko'rib, ular ham nuqsonli emas, balki o'zgacha rivojlanishga ega bo'lgan bolalar ekanliklarini anglashlari sodir bo'ladi. Shu sababli ham bunday ta'limning g'oyasi - «Inklyuziv maktablardan – inklyuziv jamiyat sari» shiori asosiga qurilgan. Barcha toifadagi bolalarni qamrab olgan holda umumiy ta'lim tizimida o'quvchilarni o'qitish va ularning tengligini ta'minlash orqali nogironligi bo'lgan bolalar kelajakda ijtimoiy hayotda o'z o'rnlarini topishlari mumkindir. Inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli targ'ib etish uchun ba'zi qoidalarga amal qilgan holda moslashuvchan muhitni yaratish juda muhim hisoblanadi. Aynan shu qoidalar sifatli ta'lim garovidir.

XULOSA Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'limda pedagogik jarayonning mazmun komponenti alohida ehtiyojli bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarkibning o'zgaruvchanligini ta'minlashdan iboratdir. Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish farzandlarni ma'suliyatini his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab yashnashiga salmoqli ulush qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib yetishishlariga kata umid bilan qaraladi. Ko'plab mamalatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham imkoniyati chaklangan bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktablar mavjud ularning

vazifasi esa ularni maxsus o'quv yurtlariga tayyorlash hamda ijtimoiy hayotga moslashuviga shart-sharoit yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF 6108-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi Qonuni». // – Toshkent, 2008.
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktyabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-son Qonuni.
5. Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya. Xalqaro YuNISEF tashkiloti. – Toshkent, 1992. – 48 b.
6. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.
7. Ахмедов, Б. А. (2021). Задачи обеспечения надежности кластерных систем в непрерывной образовательной среде. Eurasian Education Science and Innovation Journal, 1(22), 15-19.
8. Akhmedov, B. A., Shuhrat, K., (2020). Cluster methods of learning english using information technology. Scientific Progress, 1(2), 40-43.
9. R.SHomaxmudova «Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari»- Razzoqov O.J- Toshkent-2007 yil
10. Tadjieva. S.X., Xusanova X.T., Majidova D.A. Kam ta'minlangan ko'p farzandli oilalar bilan ijtimoiy ish: tajriba va amaliyot. – T.: Fan va texnologiya, 2014
11. Yusupov, M., Akhmedov, B. A., & Karpova, O. V. (2020). Numerical simulation of nonlinear vibrations of discrete mass with harmonic force perturbation. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 10 (4), 71-75.

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA ART-TERAPIYANING TA'SIRI

Jumayev Umedjon To'raqulovich

Buxoro davlat universiteti, Jismoniy madaniyat va pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim kafedrasii o'qituvchisii

Annotatsiya: Ushbu maqola, asosan, art-terapiyada badiiy vosita bo'lgan ultra yengil loyning xususiyatlarining autistik bolalarning idroki, diqqati, xotirasi, tasavvuri va tafakkuriga ta'sirini o'rganadi. Autizmli bolalar o'ta engil loydan yasalgan materiallarni bepul yaratish orqali ularning sezgilarini taktil va vizual tarzda rag'batlantiradilar. Materiallarni o'rganish ularning e'tiborini va kuzatish qobiliyatini rivojlantiradi va psixologik ma'noda eksperimental «men»ni yaratadi. , hissiy idrok rivojlanishini yaxshilaydi. tizim va uch o'lchovli fazo. Bu ma'lum darajada autistik bolalarning ijtimoiyligini yaxshilaydi.

Kalit so'zlar: Art terapiya, maktabgacha ta'lim, ijodkorlik, san'at, yaratish, salomatlik, zamonaviy, imkoniyat, psixologik diagnostika.

ВЛИЯНИЕ АРТ-ТЕРАПИИ НА РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.

Джумаев Умеджон Торакулович

Бухарский государственный университет Факультет физической культуры и педагогики, Преподаватель кафедры дошкольного образования

Аннотация: В данной статье в основном рассматривается влияние свойств сверхлегкой глины, которая является художественным инструментом в арт-терапии, на восприятие, внимание, память, воображение и мышление детей с аутизмом. Дети, страдающие аутизмом, стимулируют свои чувства тактильно и визуально, создавая от руки сверхлегкие глиняные материалы. Исследование материалов развивает их внимание и наблюдательность, а также создает экспериментальное «я» в психологическом смысле. , улучшает развитие эмоционального восприятия. система и трехмерное пространство. В определенной степени это улучшает коммуникабельность детей-аутистов.

Ключевые слова: Арт-терапия, дошкольное образование, творчество, искусство, творчество, здоровье, современность, возможности, психологический диагноз.

THE INFLUENCE OF ART THERAPY ON THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN PRESCHOOL CHILDREN.

Bukhara State University

Faculty of Physical Culture and Pedagogy Teacher at the Department of Preschool Education Umedjon Torakulovich Dzhumaev

Abstract: This article mainly examines the influence of the properties of ultra-light clay, which is an artistic tool in art therapy, on the perception, attention, memory, imagination and thinking of children with autism. Children with autism stimulate their senses tactilely and visually by freehand creating ultra-light clay materials. Exploring materials develops their attention and observation skills, and also creates an experimental self in the psychological sense. , improves the development of emotional perception. system and three-dimensional space. To a certain extent, this improves the communication skills of autistic children.

Key words: Art therapy, preschool education, creativity, art, creativity, health, modernity, opportunities, psychological diagnosis.

Kirish: Darhaqiqat, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonda Uchinchi Renessansga poydevor bo'ladi. Shu sababli hozirda mamlakatimizda uzluksiz ta'limni takomillashtirish, farzandlarimizni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashni tubdan yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim-tarbiyaning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimidagi o'zgarishlardan barchamiz yaxshi xabardormiz. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'ini ekanligi 1992-yilda Yunesko tomonidan tan olindi.

Asosiy qism: Art-terapiya nima ekanligini bilmagan odamlar ko'p bo'lishi mumkinmi? Art-terapiya, ya'ni badiiy psixoterapiya deb ham ataladi, psixoterapiya usullaridan biri. Keng ma'noda ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatdir. Uning shakllariga quyidagilar kiradi: raqs, musiqa, haykaltaroshlik, kulolchilik, imlo. Psixologik diagnostika va davolash tugallangan. stikerlar, she'riyat, rasm, tasviriy san'at va drama kabi ommaviy axborot vositalari orqali. Tor ma'noda rassomlik san'ati asosan vizual shaklga asoslanadi va terapiyada vosita bo'lib xizmat qiladi. Art-terapiya san'at ijodining boshidanoq bemorlar bilan o'zaro aloqada bo'ladi. San'at yaratish jarayoni va mijozning yaratilgan san'at asariga munosabati

shaxsiy rivojlanish, qobiliyatlar, shaxsiyat, qiziqishlar, ichki tashvishlar va ziddiyatlarni aks ettirishga imkon beruvchi xizmatlardir. Art-terapiyada ekspressiv art-terapiya badiiy ijod va ifoda orqali bir nechta san'at turlarining uyg'unligiga urg'u beradi. Chiziqli rasm, rangli rasm, haykaltaroshlik kabi tasviriy san'at turlari terapevtik ta'sirga ega bo'lib, bemorlarga qulay muhitda bo'lish va o'zini o'zgartirish imkonini beradi.

Har bir bola bebaho marvariddir va biz bolalarga tananing yashirin imkoniyatlarini bo'shatishga va ularning har birining mukammalligi va o'ziga xosligini saqlab qolishga yordam bera olamizmi, bu biz tarbiyachi pedagoglarga bog'liq.

Har bir insonning o'ziga xosligi shubhasizdir, lekin bolalarda o'ziga xosligini taqdim etish qobiliyati hali rivojlanmagan va ko'pincha uyatchanlik, aloqa yetishmasligi, bolalikdagi tajovuzkorlik, nizolar va tashvishlar bolaning ochilishiga to'sqinlik qiladi. Bu holat bolaning ichki tajribalaridan kelib chiqadi.

Xalqaro salomatlik assotsiatsiyasining ma'lumotlariga ko'ra, salomatlik - bu to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati. O'ylaymanki, salomatlikning asosiy mezon insonning o'zi va atrof-muhit bilan uyg'unligi, shuningdek, nafaqat boshqa odamlarning, balki o'zinikini ham tushunish qobiliyatidir, degan bayonotga hech kim qarshi chiqmaydi.

Agar zamonaviy jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarni tahlil qiladigan bo'lsak, aql va ilmiy bilimlarning ijtimoiy nufuzi keskin oshganini ko'ramiz. Bu bilan bog'liq bo'lgan ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari ota-onalarning buyurtmalarini bajarish, bolalarga ko'proq bilim berish, ularni o'qish, yozish va hisoblashni o'rgatish istagi hamisha ishning ustivor qismi bo'lib kelmoqda. Ammo intellektual rivojlanishga haddan tashqari qiziqish bolaga katta yuk bo'lishi bilan bog'liq va bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligi yomonlashishining sabablaridan biridir. Bundan tashqari, ko'pincha tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik e'tibor bolaning hissiy, ma'naviy va axloqiy mohiyatini ikkinchi darajali qadriyatga aylantiradi. Natijada, zamonaviy bolalar 10-15 yil oldingi tengdoshlariga qaraganda ancha ko'p narsani bilishadi, lekin hayratlanish va hamdardlik zaif va kasallarga yordam berishga intilish ehtimoli kamroq.

Art-terapiya va tengdoshlar bilan munosabatlarni yaxshilash

Art terapiya - san'at faoliyati orqali psixologik qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan odamlarning psixologiyasini tashxislash va davolash uchun san'atdan vosita sifatida foydalanadigan psixoterapiya sohasi. Art-terapiyaning kichik sohasi bo'lgan guruh art-terapiyasi guruhlarning o'zaro munosabatlarining roli asosida ishonchli va qabul qiluvchi muhitda individual munosabatlar va xatti-harakatlar, individual o'sish va rivojlanish, shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish qobiliyatlaridagi o'zgarishlarni rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladi. Art-terapiya usullari dinamik guruh maslahatining xususiyatlariga kiritildi. Hamdardlik va muloqot uchun tengdoshlar o'rtasidagi munosabatlarda yaxshi o'zaro ta'sirga erishish uchun o'zaro ta'sirning turli texnik jihatlari talab qilinadi va odamlar boshqalar bilan munosabatlarni qanday shakllantirishi va boshqalarning turli ehtiyojlariga qanday javob berishni o'rganish hamma narsadan muhimroqdir. Guruh terapiyasida chizmalar insonning ichki dunyosidagi his-tuyg'ularini erkin ochib beradi va ayni paytda til orqali duch keladigan hissiy inqirozlarga qarshi bufer bo'lib xizmat qiladi. Aksariyat maktabgacha yoshdagi bolalar tengdoshlari va kattalar bilan qanday muloqot qilishni bilishmaydi. Amaliyotda ushbu muammoga duch kelganda, biz tarbiyachilar sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy salomatligini yaxshilashga yordam beradigan yangi samarali usullar va usullarni izlash bilan bolaning hissiy sohasini rivojlantirish bilan bog'lab borishimiz lozim.

Sharq donoligiga ko'ra, «minglab so'z bilan ifoda eta olmaydigan narsani rasm ifodalaydi». V.S. Muxina va boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bolalar uchun rasm chizish - bu san'at emas, balki nutq. Har bir chiziq va har bir rangning o'ziga xos xususiyati, o'ziga xos kayfiyati bor, ularning yordami bilan bola ichidagi hamma narsani yetkazadi. Bularning barchasi art-terapiya bolaning hissiy sohasini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqligini va uni takomillashtirish turlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Chizish orqali Bola o'zini quvonch, o'zaro tushunish va muvaffaqiyatga to'la ertakda topadi, ushbu masalani o'rganish jarayonida biz art-terapiya usullaridan foydalanish bir vaqtning o'zida bir nechta muammolarni hal qilish imkonini berishini payqaymiz:

1. Emosional sohani barqarorlashtirish orqali bolaning ruhiy salomatligini mustahkamlash.
2. Irodani, his-tuyg'ularini va his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish.
3. Bolaning ichki salohiyati va ijodiy faoliyatini rivojlantirish.

Biz uzoq muddatli rejani ishlab chiqdim, uning mashg'ulotlarini badiiy terapevtik elementlar, ya'ni mashqlar, o'yinlar, ertaklar bilan to'ldiramiz, bu bizga psixologik qulaylik muhitini va hissiy-sensual munosabatni yaratishga imkon beradi. bola atrofidagi dunyoni yadachiroyliroq tasavvur qila boshlaydi bu esa art terapevtik metodning samara bera boshlaganligining yaqqol misoli bo'la oladi. Ushbu usul tasviriy san'an va chizishning o'z-o'zidan paydo bo'lishini ta'minlaydi va bolalarga badiiy material va texnikani tanlash erkinligini his qilish imkonini beradi.

Biz bolalarni g'ayrioddiy rasm chizish va applikasiya usullariga qiziqtirishga harakat qilamiz bu ijodkorlikning namoyon bo'lishini rag'batlantiradi, o'ziga ishonchni his qilish va muvaffaqiyatga erishish

uchun vaziyatni yaratish imkonini beradi. Biz bolalar bilan olib boradigan har bir mashg'ulotda badiiy terapevtik mashqlar, vazifalari va texnikalari mavjud. Masalan, ranglar bilan o'yinlar: biz bolaga yoqadigan ranglar bilan chizamiz; Biz yoqtirmaydigan ranglar bilan bo'yashamiz. Bolalar tasvirlamoqchi bo'lgan narsalarni, bu rangda nimani ko'rishlarini chizishadi. Chiziqlar bilan o'yinlar, shuningdek, bolaning ichki holatini ifodalash va kayfiyatini ko'rsatishga yordam beradi, o'z qarashlari va sodir bo'layotgan narsalarga munosabatini tushunishni rivojlantirishga yordam beradi.

Badiiy faoliyat uchun belgilar yoki ob'ektlarning kesilgan shakllaridan foydalangan holda, bolalarga ularni «jonlantirish» uchun to'liq erkinlik beriladi. Bundan tashqari, art-terapiya munosabatlarni o'rnatish usulidir. San'at vositalari orqali inson nafaqat o'zini namoyon qilishi, balki o'zi va boshqa odamlar haqida ham ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. Ijodkorlikda inson hayotda qo'llashi mumkin bo'lgan yangi tajribaga ega bo'lib, uning boshqa odamlar bilan muloqotini osonlashtiradi.

Mashg'ulotlardan tashqari, art-terapiya elementlari boshqa mashg'ulotlarda ham qo'llaniladi va har bir bola atrofdagi dunyoning rang-barangligi va voqealarini qanday zavq bilan va qanchalik boshqacha qabul qiladi. Bolaning ruhiyatida o'zgarishlar kuzatiladi qanday g'ayrioddiy imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Bu sehrli o'lka art-terapiya deb ataladi. U yerda bola o'zi bo'lishni o'rganadi, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunishni boshlaydi va hissiyotlarni aloqa vositasi sifatida ishlatadi. Ertaklarda yashovchi yaxshilik va yomonlikka adolatli munosabat, musiqaning jozibali va hayratlanarli ohanglari, shuningdek, buyuk rassomlar va bolalarning o'z asarlarining boy tasvirlari va ranglari qiyinchiliklarni yengishimizga yordam beradi. Har bir bolaning qalbiga maxsus kalitlarni topish muhim. Bolaning ichki dunyosini yorqin taassurotlar bilan to'ldirish, unga turli texnika va chizish usullarini o'zlashtirishga yordam berishdan iborat. Barcha bolalar chizishni yaxshi ko'radilar, o'zlarining kichik asarlarida ular atrofdagi dunyoga bo'lgan munosabatini bildiradilar va o'zlarining «men» ni ifodalash imkoniyatini beradilar.

Ko'pincha kundalik ongda ijodiy qobiliyatlar turli xil badiiy faoliyat turlari, chiroyli chizish, she'r yozish, musiqa yozish va hokazo qobiliyatlari bilan belgilanadi. Ijodiy qobiliyat tushunchasi «ijodkorlik», «ijodiy faoliyat» tushunchalari bilan chambarchas bog'liq. Ijodiy faoliyat deganda biz insonning badiiy faoliyatini tushunamiz, buning natijasida yangi narsa paydo bo'ladi - bu tashqi dunyodagi ob'ekt yoki dunyo haqida yangi bilimlarga olib keladigan tafakkur qurilishi yoki unga yangi munosabatni aks ettiruvchi tuyg'u. Ijodiy hayotga bo'lgan munosabat o'zgaruvchan sharoitlarga dosh berishga, taslim bo'lishga emas, balki ularga hukmronlik qilishga yordam beradi. Ijodkorlikni tarbiyalash bolaga noma'lum vaziyatlar va o'zgarishlarni bartaraf etish va ularni ongli ravishda yengish uchun zarur bo'lgan fazilatlar va qobiliyatlarni beradi. Ijodkor bola atrofdagi dunyo bilan doimiy aloqada bo'lib, unda faol ishtirok etadi. Ijodkorlik u yoki bu darajada har bir insonda mavjud, o'zining ko'p jihatlari – moslashuvchanligi, ochiqligi, tajribaga moyilligi, xushmuomalaligi, hazil-mutoyibasi bilan fan va san'atdagi, umuman, insoniy munosabatlardagi jarayonlarning umumiy jihati hisoblanadi. Ijodni shunday tarbiyalash kerakki, vaqt o'tishi bilan u hayotiy munosabatga aylanadi, bu bizga bir tomondan, tanish va yaqinda yangi narsalarni ko'rishga imkon beradi, ikkinchidan, yangi va noma'lumga duch kelishdan qo'rqmaslik. Psixologik-pedagogik adabiyotlarni o'rganishimiz shuni ko'rsatadiki, ijodiy rivojlanish vazifasi shaxsning umumiy tuzilishining tarkibiy qismlaridan biridir. Uning rivojlanishi umuman bolaning shaxsiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi davrida shaxsiyat rivojlanishining asoslari belgilangan tartibda qo'yiladi va o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirish uchun ijodiy qobiliyatlar shakllanadi, keyin ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim sharti zamonaviy uslub va usullarning o'ylangan kombinatsiyasi hisoblanadi. Art-terapiya turlarini batafsil ko'rib chiqsak, shuni aytishimiz mumkinki, «faoliyatning ijodiy tabiati bolaga o'zida yangi narsalarni kashf etishga, o'zini yaxshiroq tushunishga, boshqa odamlar va dunyo bilan munosabatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Har bir bolaning individual xususiyatlarini to'liq o'rganish uchun ushbu tadqiqotning barcha jihatlarini tadqiq qilish va o'rganish kerak. Shu munosabat bilan biz maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan turli mualliflarning usullarini ko'rib chiqdik.

Zamonaviy tarbiyachilar va psixologlar o'z faoliyatlari davomida quyidagi usul va usullardan foydalanishlarini mumkin bu esa quyidagilarni aniqlashga imkon berdi.

- 1) o'yin terapiyasi
- 2) izoterapiya
- 3) qum terapiyasi
- 5) modellashtirish

Adabiyotlarni tahlil qilish va tadqiqot muammosi bo'yicha tajribani umumlashtirish ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish usullaridan biri bu art terapiya ekanligini ko'rsatadi.

Art-terapiya o'zini namoyon qilish va o'zini o'zi bilish qobiliyatini rivojlantirish orqali shaxsning rivojlanishini uyg'unlashtirishdan iborat. U ruhiyatni bemalol davolaydi, sizni atrofingizdagi dunyo bilan tanishtiradi va atrofingizdagi dunyoni go'zal va mehmondo'st ko'rishga imkon beradi. Art-terapiya bolani

o‘z his-tuyg‘ularini va his-tuyg‘ularini modellashtirish, chizish va boshqalar orqali ifoda etishga taklif qiladi. Keling, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun amaliyotchilar tomonidan qo‘llaniladigan art-terapiya usullarini ko‘rib chiqaylik.

«O‘yin terapiyasi - bu samarasiz faoliyat turi bo‘lib, unda motiv uning natijasida emas, balki jarayonning o‘zida. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin asosiy faoliyatdir. O‘yinlarda bolalar kattalarning mehnat faoliyatiga taqlid qiladilar va turli ijtimoiy rollarni o‘z zimmlariga oladilar. Ushbu bosqichda allaqachon jins bo‘yicha farqlanish sodir bo‘ladi. Bolalarning individual va yosh xususiyatlari o‘yinlarda namoyon bo‘ladi»

«O‘yin terapiyasining asosiy maqsadi bolaga o‘z tajribasini u uchun eng maqbul tarzda - o‘yin orqali ifodalashga yordam berish, shuningdek, qiyin hayotiy vaziyatlarni hal qilishda ijodiy faollik ko‘rsatishdir. O‘yinlar har qanday bo‘sh vaqtda, yakka tartibda yoki bolalarning kichik guruhi bilan o‘ynashi mumkin, ammo ma‘lum qoidalarga rioya qilish kerak. Qoidalar bilan o‘yinlar, raqobatbardosh o‘yinlar, uzoq muddatli qo‘shma o‘yinlar (xotirani, aqlni, nutqni va reaksiyani rivojlantiradi). Dramatizatsiya o‘yinlari, obrazli rolli o‘yinlar, bolalarning konformistik xulq-atvorini bartaraf etishda ozod qiluvchi o‘yinlar («Zumrad va Qimmat» ertakiga asoslangan o‘yin Bu o‘yin tarbiyaviy xususiyatga ega, bolaning nutqini o‘rgatadi va ijodiy moyilliklarga foydali ta‘sir ko‘rsatadi).

Bolalarning ko‘rgazmali xatti-harakatlarini tuzatishda rolli o‘yin (“Oq terak ko‘k tera” o‘yini o‘yin davomida xotira, nutq, aql va fikrlash qanday rivojlanishini yaxshi ko‘rsatadi).

Musiqqa terapiyasi - musiqqa terapiyasi mashqlarining barcha elementlari ulardan nafaqat ritm darslarida bolalarning musiqiy va motorli qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida, balki aqliy jarayonlarni o‘yin o‘rgatish sifatida ham foydalanishga imkon beradi diqqat, xotira, iroda, ijodiy tasavvur va fantaziya, shuningdek, bolalar bog‘chasida pedagogik jarayonni tashkil etishning turli shakllarida dam olish, diqqatni o‘zgartirish yoki psixofizik ohangni oshirish va boshqalar.

Sharq mutafakkirlari jismonan yetuk, ma'naviy boy, barkamol shaxs tarbiyasiga qadimdan muhim vazifa sifatida qaraganlar. Barkamollik fazilatlaridan eng ulug'i tanning, ya'ni inson jismining komilligidadir deyiladi. Insonning matonati, diyonati, riyozati, qanoati, ilmi, sabri, intizomi, nafi, vijdoni, haqgo'yligi, nazari, ibрати, hayosi, idroki, zakovati, iqtisodi, itoati, haqshunosligi, kechirimliligi, vatanni sevishi kabi ijobiy hislatlariga (A.Avloniy, Turkiy Guliston yoxud axloq, Toshkent: O'qituvchi, 11-bet) faqat sog'lom jism, tanisihatlilik orqali erishiladi deb qaralgan [8].

Sharq yakkakurashining vazifasi shunda ijobiy hal etiladiki, yakkakurash shug'ullanuvchilari jismoniy va texnik-taktik usullarni mohiyatan anglab bajarsalar yoki ular Sharq yakkakurashi mashg'ulotlariga qiziqib, tashabbus ko'rsatib ijodiy yondashsalar, organizmda harakat malakalarining to'g'ri shakllanishi, funksional qobiliyatlarining o'sishi uchun texnik-taktik, falsafiy-pedagogik bilimlarni egallashlari darkor.

Bu borada, L.P.Matveev quyidagicha fikr bildirgan: "Jismoniy madaniyat jamiyat a'zolarining jismoniy kamolotga erishishini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun maxsus vositalar, shakl, metodlar va sharoitlarni yaratish hamda ulardan ratsional foydalanish bo'yicha erishgan yutuqlar majmuasidir.

Jismoniy madaniyat umumiy madaniyatning tarkibiy bir qismi, uning yuksalishi, jamiyat rivojlanishining asosidir” [5]. Demak, jismoniy madaniyat insonning barkamol shaxs tarbiyasi uchun sharoitlar yaratish, ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha natijaga erishilganlikning jamlanmasidan iboratdir.

1-jadval

Barkamol shaxs tarbiyasi tushunchasi

BARKAMOL SHAXS			
Jismoniy	Ruhiy	Estetik	Axloqiy
Jismonan kuchli, mushaklar rivojlangan, texnik-taktik jihatdan yetuk.	Qiyinchiliklarga bardoshli, sinchkov, tetik, o‘z fikriga ega, anglash, ichki ruhiy quvvatga ega.	Har bir qilayotgan ishini chiroyli bajaruvchi, tozalikka e‘tibor qaratuvchi, kiyinish va ovqatlanishda didli, xushmuomala.	Mehnatsevar, shirin so‘z, xushfel, halol, muloyim, e‘tiborli, vatanparvar, barchaga yordam, doim yordamga tayyor.

So‘ngi yillarda yurtimizda ham yoshlarda barkamol shaxs etib tarbiyalashga bo‘lgan etibor kuchayib bormoqda. “O‘sib kelayotgan yosh avlod har xil ta’sirlarga o‘ta beriluvchan bo‘ladi. Bu davrda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga zarur bo‘lgan ongli shaxsiy faoliyat mukammallashadi. Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, rivojlantirish, aholi salomatligini mustahkamlash va inson umrini uzaytirish, yuqumli va boshqa kasalliklar, zararli odatlarning oldini olish, jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish hamda mehnat qilish, o‘z vaqtida dam olish, shuningdek, gigienik ko‘nikmalarga rioya qilish kabilarga qaratilgan qator chora-tadbirlarni ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq qilish aholi turli guruhlarini, ayniqsa, o‘quvchi-yoshlar hayotida katta ahamiyatga ega” [2].

Shuning uchun, yoshlarda Sharq yakkakurashlari orqali barkamol shaxs tarbiyasini rivojlantirish, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratish fursati yetdi. Pedagogik jarayonda yoshlarga kelajakda yetuk sportchi bo‘lishlari uchun ongli tanlov vaziyatini yaratish imkoniyati beriladi. Bu bilan har tomonlama yetuk shaxs, barkamol inson bo‘lish uchun zarur bo‘lgan jismoniy, ruhiy, estetik va axloqiy salohiyat asosini yaratish uchun imkoniyat vujudga keladi.

Yakkakurash mashg‘ulotlar jarayonida aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi bir vaqtda amalga oshiriladi.

Jismoniy kamolot to‘liq salomatlik bilan tavsiflanib, kishining uzoq vaqt faol hayotiy va boshqa bir qancha ko‘rsatkichlar – har qanday tashqi muhit sharoitida jismoniy va aqliy ish qobiliyatini har tomonlama yuqori darajada namoyon etish, jismoniy va irodaviy sifatlarni, katta masshtabdagi harakat ko‘nikmalarini va tana shaklini garmonik rivojlantirishdan iborat.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot bosqichida Sharq yakkakurashlari sohasida Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindiki, bularning barchasi yurtimizda yoshlar jismoniy madaniyatini yuksaltirish tizimini yaratilishiga asos bo‘ldi. Mamlakatimizda barkamol shaxsni tarbiyalovchi tizim respublika aholisining barcha qatlamlarini jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishlarini ta‘minlash uchun alohida imkoniyatlar yaratildi [4].

Shunday islohotlarni yurtimizning barcha ta‘lim tizimi yoshlarida ham olib borish orqali barkamol shaxs tarbiyasini rivojlantirishning pedagogik tizimi yaratilmoqda. Ijtimoiy sog‘lomlashtirish tamoyillari asosida olib borilayotgan islohotlar yurtimizda ijtimoiy sog‘lom muhitni hamda barkamol insonlarni, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan. Shunday ekan, inson salomatligi davlat mulki hisoblanadi va siyosat darajasida ko‘riladi.

Hozirda bo‘lajak kadrlarning har tomonlama kamolotga erishishi ham jismonan, ham aqlan yuksak salohiyatga egaligi muhim rol o‘ynaydi. Ta‘limda jismoniy tarbiya va sportni uyg‘unlashtirish orqali yoshlarni jismoniy va aqliy salohiyatini oshirish, jahon standartlariga muvofiq mutaxassislarini yetishtirishni maqsad qilingan. Xususan, bugungi kunda mamlakatimizning barcha hududlarida, hatto eng olis tumanlarida ham zamonaviy va foydalanish uchun qulay sport infratuzilmasi barpo etilmoqda. So‘ngi yillarda mamlakatimizda

sport bilan doimiy shug'ullanadiganlar soni ikki barobar ko'paydi. Ushbu ko'rsatkichning natijasi ham mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport orqali yoshlarda barkamollik tarbiyasi ko'nikmalarini yuksaltirish yo'lidagi muhim o'zgarishlardan biridir.

Sharq yakkakurashlarining eng asosiy ta'limoti, kuchli, irodali, jismonan va ruhan tetik, qalban go'zal, vatanparvar, mehnatsevar, halol, ma'nan yetuk, tirishqoq, kuchsizlarga doimo yordamini ayamaydigan barkamol inson bo'lishga qaratilganligi bilan bir qatorda insonni falsafiy mushohada qilishga o'rgatadi. "Jangchi tog'dek mustahkam, viqorli, olovdek yondiruvchi, shamoldek tez, o'rmondek sokin, osmondek musaffo bo'lishi lozim" deyiladi Sharq yakkakurashlari ta'limotlarida.

Sharq yakkakurashi ustozlari faqat yetuk sportchi va yakkakurash ustalarini tayyorlamaydi, balki – bu ruhiy tarbiya, hayot qiyinchiliklarini yengib o'tishga o'rgatadilar. Bu esa yakkakurashlar keng qamrovli san'at turi sifatida ularning kelajakda barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishlarini kafolatlaydi. Agar, biror sababga ko'ra ushbu yakkakurash turlari bilan shug'ullanmay qo'ysalar ham, bu mashg'ulotlarda singdirilgan ruhiy, jismoniy, estetik va axloqiy tarbiya yoshlarga hayoti davomida turli muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kas etadi.

Deyarli barcha mamlakatlarning jang san'atlari bo'lib, bular, o'z navbatida, insonlarni dushmanlardan saqlanishda, vatanini himoya qilishlari uchun va sog'lom bo'lishlarida muhim zaruratga aylandi. Shu bilan birga ko'plab Sharq yakkakurashlari turlari paydo bo'ldi. Ammo, ko'pchilik yakkakurashlarning 100 dan ortiq turlari va yo'nalishlari mavjudligini bilmaydi. Bu Sharq yakkakurashlari turlari barcha mamlakatlarda bo'lib, o'sha millatga xos va mos ravishda yaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Ularning ruhiyati, madaniyati, yashash tarzi o'sha jang san'atlarida ham o'z aksini topgan.

Sharq yakkakurashlari turlari va tarixi, ta'limotlari bilan tanishtirish, so'ngra ushbu jang san'atlari bilan shug'ullanishlari maqsadga muvofiq va ahamiyatlidir. Jang san'atlarini falsafiy mushohada bilan o'rgatib boriladi. Zero, o'rganuvchi nafaqat jangchi, balki sog'lom fikrlovchi, barkamol insonga aylansin.

Sharq yakkakurashi (jang san'ati) – bu shunday yo'lki, inson butun umri mobaynida o'z tanasini jismoniy chiniqtirib, ruhini mustahkamlab, estetik va axloqiy tarbiyalanib, o'zidagi yangi qobiliyat va imkoniyat qirralarini ochishga intilishdir. Buni bilish uchun Sharq yakkakurashi ildizlarini chuqur o'zlashtirish darkor. Tayland, Xitoy, Yaponiya, Koreya kabi davlatlar Sharq yakkakurashi turlarining yaratilishida muhim o'rin egalladi.

2-jadval

Sharq yakkakurashi turlari

№	Davlat	Qanday yakkakurash turlari mavjud
1	Xitoy	Kungfu, Ushu, Djit kun do, Vinchun
2	Koreya	Taekvondo, Xapkido, Xvarangdo, Xedongkomdo, Subak, Muyo, Tekkyon, Tangsudo
3	Yaponiya	Aykido, Karatedo, Dzyudo, Kendo, Iyaydo, Dji-djitsu, Kempo, Boto dzyusu, Syoridzin kempo, Kyudo
4	Hindiston	Kalirapayatu, Silambam
5	Tayland	Muay tay
6	Indoneziya	Penchak silat
7	Braziliya	Kopiero
8	Isroil	Krav-maga
9	Qozog'iston	"Juduruktasu" kurashi
10	Turkmaniston	"Urda kochdi" qo'l jangi
11	O'zbekiston	So'fiy jang, O'zbek jang san'ati, Turon, Kurash, Belbog'li kurash

Deyarli barcha mamlakatlarning o'z yakkakurashlari mavjuddir. Sharq yakkakurashlari tarixi eramizdan avvalgi XV-XVII asrlarga borib taqaladi. Qurolli-quolsiz, qo'l va oyoq janglari qadimdan avloddan-avlodga o'tib sayqallanib kelayotganligini tarixiy hujjatlar ham tasdiqlaydi. Jumladan, Koreya, Xitoy va Yaponiyalik namoyandalarning asarlaridan topilgan rasmlarda yoritilgan qurolli, quolsiz jang tasvirlari ham fikrimizning yaqqol isbotidir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan jang san'atlari tarixini, ta'limotlarini va jang san'atlarini ko'plab olimlar o'rganganlar. Buning isbotini ajdodlar qoldirgan tarixiy, tasviriy, ilmiy-pedagogik asarlarda ko'rishimiz mumkin. Ko'plab jang san'ati ustalari ham bu ta'limotlar asosida shogirdlarini o'qitgan va shug'ullantirganlar. Bu jang san'atlari va ta'limotlari ustozdan-shogirdga, otadan-farzandga meros bo'lib kelgan va shu sababli bizning kunlarga yetib keldi. Albatta bizlardan keyingi avlodlarga ham bu meroslar yetib boradi. Bunda ustoz-murabbiylarga ulkan vazifalar yuklanadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, yer yuzida qancha millat bo'lsa barchasida o'zlarining milliy jang san'atlari mavjuddir. Bular o'sha millatga xos, o'z urf-odatlarini, iqlimi, ruhiyatidan, zaruratlaridan kelib chiqqan, hozirgacha saqlanib kelayotgan jang san'atlaridir. Ba'zilar dunyo bo'yicha tarqalgan va ommalashgan, ba'zilar yashirin, o'z oilasigagina meros bo'lib kelayotgandir. Jang san'atlari orqali o'z oilasini, yurtini himoya qilishgan. Eng avvalo, sog'lom bo'lishga intilishgan. Tana, ruhlarini chiniqtirganlar va bizning davrimizgacha yetib kelgan ushbu jang san'atlaridan nafaqat himoya, sog'lik uchun balki, kishilar kayfiyatini ko'tarish va shu yakkakurashga qiziqtirish uchun musobaqalar o'tkaziladigan sport turlariga aylanib ulgurgan. Sharq yakkakurashlari bilan hozirda ko'plab insonlar shug'ullanmoqdalar. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda tatbiq etmoqdalar va o'z yurtini dunyoga tanitmoqdalar.

Yurtimizda ham Sharq yakkakurashlari orqali barkamol shaxs tarbiyasiga katta e'tibor berilmoqda. Hozirda ko'plab Sharq yakkakurashlari maktablari, federatsiya va assotsiatsiya faoliyat ko'rsatmoqda. Ular esa, o'z navbatida, yurtimiz yoshlarini barkamol inson etib tarbiyalashga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Yangi O'zbekiston ham kadrlar tayyorlash tizimida o'ziga xos yo'lga ega mamlakat hisoblanadi. Aqliy va jismoniy yuksaklikka erishgan mutaxassislar tayyorlashda 2020 yil 7 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni [1] katta ahamiyatga ega. Qonun moddalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Qonunlarimizda barcha ta'lim massalarida ta'lim-tarbiya orqali yoshlarni o'z kuchlariga ishongan, kuchli bilimga ega bo'lgan, har tomonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash nazarda tutilgan qilib. Shu bilan birga, mamlakatda jismoniy madaniyat sohasini rivojlantirishning konseptual tizimi ishlab chiqildiki, bu jarayon amalda o'zining nechog'liq asosli ekanligini isbotlab kelmoqda. Yurtimiz yoshlarida barkamol inson sifatlarini yuksaltirish maqsadida joriy etilgan uch bosqichli sport musobaqalari tizimi – "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" musobaqalari o'quvchi va talaba-yoshlarni sog'lom turmush tarzi tamoyillari asosida tarbiyalash, ularning sportga qiziqishini, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini oshirish borasida beqiyos ahamiyat kasb etdi. Ushbu musobaqalar yosh yakkakurashchilarni saralab olish, ularni terma jamoalarga jalb qilish, ustoz-murabbiylarning malakalarini yanada oshirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ustoz-murabbiylar, hakamlar ushbu musobaqalarda qatnashish jarayonida o'zlarining sohaviy malakasini oshirib bormoqda. Shu sababdan, hech shubhasiz uch bosqichli sport musobaqalari tizimi kadrlar tayyorlash milliy dasturining amaliy ijrosi va yoshlarda barkamol shaxs ko'nikmalarini o'stirish jarayonining uzviy qismi ekanligini e'tirof etish mumkin [3]. Zotan, murabbiylar, hakamlar, sport ustalari va sportchilarning tajriba almashishi, innovatsiya ulashishlari ham jamiyatimizda barkamol shaxs tarbiyasini shakllantirishga doir an'analarning shakllanayotganligi bilan o'lchanadi. Bobomiz Ibn Sino inson hayotida jismoniy tarbiyaning nechog'lik katta ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida ham shunday deydi: "Jismoniy mashqlar bilan mo'tadil shug'ullanib borgan kishi davoga muhtoj bo'lmaydi". U badantarbiya turlari: yugurish, tez yurish, sakrash, kurash, qilichbozlik, otda yurish, yoydan o'q otish, tosh ko'tarish kabilar salomatlik uchun naqadar foydaliligi haqida ma'lumotlar beradi. Shuningdek, uning sog'liqni asrash uchun jismoniy mashqlar, tartibli uyqu va to'g'ri ovqatlanish amalga oshirilsa kifoya deb ta'kidlashi ham bejiz emas". Shunday ekan, tarixiy taraqqiyot natijasida shakllangan va asrlar osha sayqallanib kelgan milliy sport o'yinlari, jismoniy mashqlar va yakkakurashlar asosida yoshlarni tarbiyalash, barkamol shaxs tarbiyasiga erishgan millatni shakllantirishning muhim omilidir. Yurtimizdagi jadal islohotlar va o'zgarishlar davrida innovatsion yechimlarning asosi ma'rifat, ta'lim-tarbiya va sog'lom tafakkurga bog'liq ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Bu esa ta'lim-tarbiyani zamonaviy pedagogik tajribalar asosida tashkil etishni zaruratini ko'rsatmoqda.

XULOSALAR

Xulosa qilganda, yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishlarida Sharq yakkakurashlari orqali jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy tarbiyalash, salomatlikni mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda yangicha yondashuv asosida ta'lim berish zarurati paydo bo'lmoqda. Barkamol shaxs tarbiyasi boshqa tarbiya shakllari kabi insonni kompleks rivojlantiruvchi tizimning bir qismi hisoblanadi. Bolalar-

o'smirlar sport maktablari va Sharq yakkakurashlari o'quvchi-yoshlarida o'z sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qilishga o'rgatish, yakkakurashlar bilan shug'ullanish orqali ularda sog'lom turmush tarzini yaratish, qattiyat bilan ishlab, Sharq yakkakurash turlari bilan doimiy, mustaqil tarzda shug'ullanish malaka-ko'nikmalarini oshirib borish pedagogik jarayonning oliy maqsadidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ta'lim to'g'risidagi qonun // 2020 yil 7 avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3907-sonli Qarori / Xalq so'zi 2018 yil 15 avgust.
3. Connell R. Masculinity construction and sports in boy's education: a framework for thinking about the issue// Sport, Education and Society, 2008 – Pp.13, 131-145.
4. Mahkamdjanov K, Salamov R, Ikromov I, Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Respublika ilmiy anjuman materiallari –Toshkent, Iqtisod-moliya, 2008. – B.57-58.
5. Матвеев Л.П. Всесторонняя физическая подготовка как условие спортивной специализации: Автореферат, дис. – Москва, 2019. С. 47.
6. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B. 400.
7. Abdullaev A, Xonkeldiev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – T.: O'zDJTI nashriyot-matbaa. 2005. – B 5, 23, 54, 63.
8. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent. B. 11.

TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVYI-MA'RIFIY TADBIRLARNI UYUSHTIRISH ORQALI - TA'LIM-TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI

Komilova Fotima Maxmudovna, Andijon davlat universiteti,
Umumiy pedagogika kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni uyushtirish orqali keng ko'lamli ijtimoiy faoliyatni tashkil etishdek katta imkoniyatni o'zida mujassamlashtira olgan shaxsning ijtimoiy hayoti, shu jumladan, turli mavzularda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etishlari va ularda tashkilotchilik sifatlarining rivojlantira olish, har tomonlama shaxsiy namuna bo'la olish kabi xususiyatlarni o'zida singdirishi lozimligi haqida so'z boradi.

Kalitso'zlar: ijtimoiy faollik, intellektual salohiyat, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, maqsadga intiluvchanlik, shaxsiy qobiliyatlar, ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya, shaxsiy sifatlar, shaxslararo munosabatlar.

Аннотация. В данной статье в общественной жизни человека, который смог воплотить великую возможность организации масштабной общественной деятельности путем организации духовно-просветительских мероприятий в учебных заведениях, в том числе духовно-просветительских мероприятий, организованных на различные темы, говорится, что они должны активно участвовать и иметь возможность развивать организаторские качества и быть личным примером для подражания во всех аспектах.

Ключевые слова: общественная активность, интеллектуальный потенциал, инициатива, предприимчивость, целеустремленность, личностные способности, духовно-просветительские, воспитание и воспитание, личностные качества, межличностные отношения.

Annotation. In this article, in the social life of a person who was able to realize the great opportunity to organize large-scale social activities by organizing spiritual and educational events in educational institutions, including spiritual and educational events organized on various topics, it is said that they should actively participate and have the opportunity develop organizational skills and be a personal role model in all aspects.

Keywords: social activity, intellectual potential, initiative, enterprise, determination, personal abilities, spiritual and educational, education and training, personal qualities, interpersonal relationships.

O'zbekistonda ta'lim tizimidagi islohotlarning muhim jabhasi sifatida barkamol shaxs tarbiyasi masalalari o'rta qo'yildi, yoshlarni barkamol shaxs qilib shakllantirishning huquqiy asoslari ishlab chiqildi. Unda O'zbekiston Respublikasi davlat qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va ijtimoiy-siyosiy g'oyalari, Davlat dasturlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, me'yoriy va huquqiy xujjatlar ta'limdagi islohotlarning mazmuni va dolzarb vazifalarini belgilab berdi. [1,2,3].

Jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatdan fuqarolarning intellektual salohiyati, shijoati, yosh avlodning kamoloti hamda ularning ma'naviy-axloqiy sifatlariga egaliklari bilan bog'liq. O'sib kelayotgan avlodning jamiyat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishi, xalq manfaatini shaxsiy manfaatlari bilan uyg'unlashtirishga erishishi, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishdagi tashabbuskorligi, yuqori darajada faollik ko'rsata olishlari turli faoliyat yo'nalishlarida muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritish imkonini beradi. Shuningdek, ijtimoiy faollikni shakllantirishda, shaxsiy qobiliyatlarini to'laqonli namoyon etish, o'zlari mansub bo'lgan jamoalarning imkoniyatlarini muayyan maqsad atrofida birlashtirish borasidagi layoqatni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, keng ko'lamli ijtimoiy harakat ko'zlangan maqsad, faoliyat yo'nalishlari, keng aholi qatlamini qamrab olish ko'lami nuqtai nazaridan umumiylik, jamoaviylik xususiyatiga egadir. Bugungi kunda ta'lim muassasalari oldida ijtimoiy faol, jamiyat xayotining turli sohalarida o'z iqtidori va salohiyatini to'la namoyon eta oladigan yoshlarni tarbiyalash vazifasi turibdi. Chunki ta'lim muassasalari turli yoshdagi shaxslarni yagona jamoaga birlashtira olgan maskan sanaladi. Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni uyushtirish orqali keng ko'lamli ijtimoiy faoliyatni tashkil etishdek katta imkoniyatni o'zida mujassamlashtira olgan. Ularning ta'lim muassasalari ijtimoiy hayoti, shu jumladan, turli mavzularda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etishlari ularda tashkilotchilik sifatlarining shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

Shaxs ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi faoliyatga bevosita jalb etilib, o'zining jamiyatdagi o'rni qanday ekanligini tushunish, o'z zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy vazifalarni to'liq anglash, shuningdek, boshqa sub'yektlar bilan faol munosabatga kirisha olish qobiliyatiga ega bo'lsagina ijtimoiylashuv jarayoni yuz beradi. Shaxs ijtimoiylashuv jarayonining samaradorligini belgilovchi ko'rsatkich – uning ijtimoiy munosabatlar jarayoniga to'liq kirishishi, ijtimoiy faolligi va shaxs faoliyatining muayyan maqsadga yo'nalganligi sanaladi. Ijtimoiy faollik shaxsning ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ongli ishtiroki, ijtimoiy munosabatlar rivojiga ta'siri va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish imkoniyatlari darajasi bilan belgilanadi. Shu bilan birga ularda

intizomlilik, mustaqillik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, maqsadga intiluvchanlik kabi sifatlarini tarbiyalash kelgusida komil inson va malakali, yetuk mutaxassis bo'lib kamolga yetishlarini ta'minlaydi. Zero, kelgusida jamiyatning to'laqonli a'zosi va malakali mutaxassis sifatida ijtimoiy munosabatlar hamda kasbiy faoliyat jarayonida faol ishtirok etish, zimmadagi ijtimoiy burchlarni sidqidildan ado etishda shaxsning tashkilotchilik sifatlariga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish nafaqat psixologik-pedagogik, balki ijtimoiy muammo sifatida ham o'ziga xos dolzarblik kasb etadi. Bugungi kunda shaxsning kreativligini rivojlantirish bilan birgalikda ularning dunyoqarashlarini kengaytirish xamda ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash qay darajada ahamiyat kasb etayotgan bo'lsa, ularda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish ham shu qadar muhim vazifa hisoblanadi. Binobarin, talabalarda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish, mustaqil fikrlash qobiliyati hamda muloqotga tez kirishuvchan bo'lishlariga erishish ularning kelajakda demokratik jamiyatning faol a'zolari bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlovchi omillardan biri sanaladi..

Tashkilotchilik layoqatiga egalik shaxsning jamoa faoliyatini uyushtirish, ijtimoiy, shu jumladan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda tashkiliy masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish, tadbirlarni metodik jihatdan maqsadga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash hamda tadbirlar jarayonida har bir ishtirokchi tomonidan muayyan vazifalarning bajarilishiga rahbarlik qilish ehtiyojining mavjudligini ifodalaydi. Jamoa faoliyatini uyushtirishda tashkilotchi shaxs o'z zimmasiga muayyan majburiyatlarni olish, mas'uliyatni chuqur his etish, dadil harakatlanish, berilgan so'z (va'da)da qat'iy turish, har bir a'zoga nisbatan talabchan bo'lish, jarayon natijasi uchun javobgarlik hissini tuyish kabi sifatlarini o'zida namoyon eta olishi lozim.

Tashkilotchilik sifatleri o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Buning uchun ana shu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni tashkil etish taqozo etiladi. Pedagogik faoliyatni tashkil qilish jarayonida esa muayyan shartlarga amal qilingandagina ko'zlangan natijani qo'lga kiritish mumkin.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xos ko'rinishlaridagi asosiy belgilar temperamentda (javob ta'sirining muayyan vaqt va tezlikda namoyon bo'lishi, o'qituvchining o'ziga xos ish uslubi va xissiy barqarorlik); u yoki bu pedagogik vaziyatlarga munosabat xarakterida; metod tanlashda; tarbiya vositalarini ajrata olishida; pedagogik muammo, vaziyatni hal etilishi tizimida; o'quvchilar faoliyati va xatti-harakatlariga e'tibor berishda; xulqiy ko'rinishlarda; rag'batlantirish va jazolash usullarini qo'llashda; ob'yektga psixologik-pedagogik vositalarni yo'naltira olishida namoyon bo'ladi. Pedagog – ta'lim oluvchilar bilan ishlovchi, ularning dars va darsdan tashqaridagi faoliyatlarini va munosabatlarini boshqaruvchi sub'yekt hamdir. Shuning uchun har bir pedagog o'zida umumiy va o'ziga xos tashkilotchilik sifatlarini rivojlantirib bormog'i lozim.

Tashkilotchilikning umumiy sifatleri deganda, aqlning amaliy va chuqur mulohaza yurita olishi, faollik va tashabbuskorlik, qo'yilgan maqsadga erishishda tirishqoqlik, murakkab vaziyatlarda o'zini qo'lga ola bilish, uyushtira olish, kuzatuvchanlik, muomalaga kirishuvchanlik kabilar tushuniladi.

Tashkilotchilikning o'ziga xos sifatleri: ichki sezgirlik, xushyorlik, xissiy irodaviy ta'sir eta olish, tashkilotchilik faoliyatiga moyillikni o'z ichiga oladi. Pedagogik kasb va unga qo'yiladigan talablar o'zgarishsiz qoladi, deb bo'lmaydi balki, inson turli-tuman faoliyatlar ta'sirida shakllanib boradi. U ma'lum sifat va harakatlarni shunchaki tashuvchi, yetkazuvchi sub'yekt sifatidagina faoliyat ko'rsatib qolmasdan, balki, yaxlit shaxs sifatida intilishi, ma'naviy boyliklari, xissiyoti va ko'rsatmalari, yo'nalishlari bilan o'ziga xos tarzda faoliyat yurituvchi inson hamdir.

Shuning uchun ham har bir shaxs o'zini anglab yetishi, o'ziga xos xususiyatlarini, intilishlari, imkoniyatlari, kamchiliklari va uning sabablari, kasbiy faoliyatning o'ziga xos tomonlari va muvaffaqiyatga erishish shartlarini, o'zining ustun tomonlarini, mazkur faoliyatning samarali kechishini ta'minlovchi imkoniyatlar va turli yo'nalishlarda ko'zda tutilgan vazifalarni yaxshi bilishi kerak.

Har qanday kasbiy faoliyatni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri uning ma'naviyatidir. Kasbiy ma'naviyat nafaqat shaxsiy sifat tarzida, balki, kasbiy tavsiflashda ham muhim ko'rsatkich sifatida alohida baholanadi. Pedagogning ma'naviy dunyosi shunday shaxsiy sifatki, u insonni yuksak kasbiy mutaxassis egasi ekanligini ko'rsatadi. O'qituvchining ma'naviy yetukligi uning kasbiy faoliyatining asosiy mezonidir. Shuning uchun xam ta'lim muassasalarining mazmuni shaxs ma'naviy rivojlanishi asosida belgilanishi kerak. Talabalarining hayotini, umuminsoniy ma'naviyat asosida faoliyatlarini yo'lga qo'yish orqali, o'qituvchi ularda dunyo madaniyatini egallab borib ma'naviy boyliklarni o'zlashtirishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratadi. Bu, ayniqsa, bugungi kunda ta'limning yangi, texnologik jihatlari ochilib borayotgan bir paytda juda muhimdir. Dunyo bilan o'zaro bog'liqlikni tashkil etish uchun, uning bor go'zalligi bilan yaxlit ko'rsata olish, insonni hayotiy qiziqishlari orqali tasvirlab berishga alohida ahamiyat berish zarur. Lekin dunyo o'zgarib boryapti. U doimiy harakatda, bu esa shaxsni atrof-muhitni baholashda, munosabat bildirishda, idealini aniqlab olishda ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Demak, shaxsni dunyoda yuz berayotgan voqeya-hodisalarni tushunishiga, tezkor, oqilona, mustaqil,

ijodiy munosabatlarni bildirishiga tayyorlash o‘z-o‘zini va boshqalar faoliyatini boshqarishni bilishi va yo‘lga qo‘yishi muhimdir. Yangi avlod va uning rivojlanishi, ma‘naviy ijtimoiy hayotga moslashuvi, o‘zini va boshqalarning faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq muammolarni yuzaga kelishi va uning yechimini topishga doim tayyor turish bugungi kun o‘qituvchisi oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchidan yangi avlod uchun dunyoni his etish, ko‘rish va anglab yetishning yangi sharoitlarini izlab topish va yo‘lga qo‘yish, dunyoni yangitdan ko‘ra bilishi, tahlil etishi, baholay olishi zarur. Bu borada o‘qituvchi kasbiy faoliyatining samaradorligi, uning kasbiy layoqatida o‘z aksini topadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish jarayoni uzviylik, tizimlilik asosida olib borilishi hamda pedagogik shart-sharoitlar to‘lalgicha hisobga olinishi lozim. Ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida innovatsion yondashuvlar, o‘qitishning faol zamonaviy usullaridan keng foydalanish shaxsning faolligi yanada oshiradi. Shu bilan birgalikda ularda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish jarayonini yanada takomillashtirish, turli kechalar, bellashuvlar o‘tkazish kutilgan natijani beradi.

Adabiyotlar

«O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida» 2017 yil 7 fevrvldagi PF-4947-sonli farmoni.

O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni.- Toshkent: 2020 y., 23 sentyabr/<https://lex.uz/docs>.

“Yangi O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni

Almetov N.Sh. O‘quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish / O‘qituvchilar uchun qo‘ll. – Chimkent: Janubiy Qozog‘iston BMMOQTI, 1993. –90 b.

Анисимов О.С., Деркач А.Д. Основы общей и управленческой акмеологии. – М.: РАН, 1995. –308 с.

Zaripov K. Ta’lim muassasasida shaxslararo munosabatlarni tashkil qilishda rahbar shaxsi va uslubining o‘rni // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2004. -№ 5. – B. 42-48.

Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B., Matnazarova K. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik Nizomiy nomidagi TDPU Riziografida nashr qilindi. –Toshkent: 2014-yil.

Mavlonova R.A., Vohidova N.H., Raxmonqulova N.H. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik –T.: “Fan va texnologiyalar”, 2010-yil.

Munavvarov A.Q. Pedagogika. –T.: ŷqituvchi, 1994. –174 b.

M.X. Tўxtaxўjayeva Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. / Umumiy tahriri ostida. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. –378 b.

Мақтабгача ёшдаги болаларда экологик маданиятни ривожлантиришда замонавий ёндашувлар
Камилова Гулмира Алимовна
Бухоро давлат педагогика институти мақтабгача таълим кафедраси в/б профессори, п.ф.н.,

Аннотация: Мақтабгача таълим ташкилотларининг меъёрий ҳужжатларида тарбияланувчиларга паремик жанрлар воситасида экологик маданиятни ривожлантириш имкониятлари кўрсатиб ўтилган. Шу мақсадда мақтабгача таълим ташкилотлари дастурларига ўзгартиришлар киритилди. Бу ўзгаришлар тарбиячи-педагоглар олдида янги вазифаларни белгилаб берди.

Мақолада тарбияланувчиларга паремик жанрлар воситасида экологик маданиятни ривожлантиришдаги замонавий ёндашувлар ёритиб берилган.

Калит сўзлар: мақтабгача, экология, маданият, замонавий ёндашув, табиат, ўзгаришлар, кичик соҳа, фан, табиатшунослик.

Аннотация: В нормативных документах дошкольных образовательных организаций показаны возможности развития экологической культуры учащихся средствами паремических жанров. С этой целью внесены изменения в программы дошкольных образовательных организаций. Эти изменения ставят перед педагогами новые задачи.

Ключевые слова: дошкольное учреждение, экология, культура, современный подход, природа, изменения, малое поле, наука, естествознание.

Abstract: The regulatory documents of preschool educational organizations show the possibilities of developing the ecological culture of students by means of paremic genres. For this purpose, changes have been made to the programs of preschool educational organizations. These changes pose new challenges for teachers.

Key words: preschool institution, ecology, culture, modern approach, nature, change, small field, science, natural history.

Мақтабгача ёшдаги болалар эртак тинглаб, топишмоқ жавобини топишга қизиқар экан, атроф олам гўзаллигини ҳис қилиш, туғилиб ўсган юртини ардоқлаш, табиат неъматларини тежаш, уларни амалий фаолиятда қўллай олиш малакаларини эгаллай бошлайди. Шуларга асосланиб, бугунги кунда мақтабгача таълим тизими ривожлантирилаётган айни дамда таълим ва тарбияни замонавий ёндашув асосида ташкил қилишга эътибор қаратиляпти.

Шу мақсадда Мақтабгача таълим ташкилотлари дастурларига ўзгартиришлар киритилди. Бу ўзгаришлар тарбиячи-педагоглар олдида янги вазифаларни белгилаб берди.

“Ўзбекистон Республикасининг илк ва мақтабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган давлат талаблари” да мақтабгача ёшдаги болаларни мақтаб таълимига тайёрлашда 3-4 ёшли тарбияланувчиларда ривожланиш соҳасининг тадқиқий билиш ва самарали рефлексив фаолиятида қуйидаги талаблар қўйилган:

Табиатдаги айрим ўзгаришларни фарқлаши (қор, ёмғир, дўл, иссиқ, шамол ва ҳ.к.) баъзи ҳашаротлар ва қушларни билади ва номини айта олиши, болалар томонидан баъзи ҳайвонларни номини тўғри айта олиши, «Сюжет бўйича» қурилмалар яратиши, сув ва қум билан ўйнаши ва жонли объектларни кузатишлари талаб этилади.

Кичик соҳа ҳисобланмиш соғлом турмуш тарзи ва хавфсизлик бўлимида: витаминлар ва соғлом овқатланиш фойдаси тўғрисида болалар билимга эга бўлишлари, овқатдан олдин қўлларини ювиши, ҳожатхонадан сўнг ўз-ўзига хизмат кўрсата олиши талаб қилинган.

Тарбияланувчиларнинг 4-5 ёшида “Соғлом турмуш тарзи ва хавфсизлик” соҳасида сув истеъмол қилишнинг муҳимлигини тушуниб бориши ва мустақил равишда сув ичиш тартибига риоя қилиши талаб этилади. Хавфли бўлиши мумкин бўлган фаолият турларини болалар айта олиши лозимлиги кўрсатиб ўтилган. Шу билан биргаликда

5-6 ёшли болаларда тадқиқий билиш ва самарали рефлексив фаолият, табиат ҳодисаларининг турли омилларга боғлиқлигини тушуна олиши, табиатдаги ўзгаришлар сабабини тушунтириб бериши мумкинлиги (масалан, қорнинг эриши) Одамларнинг атрофдаги табиатга таъсирини тушуниши (экин экиш, ҳосил йиғиш) табиий материалдан расм бўйича турли буюмлар ясашни билиши, табиатнинг инсонлар ҳаётидаги аҳамиятини англашни тушуна бошлайдилар.

6-7 ёшда болалар кичик соҳасида: “Соғлом турмуш тарзи ва хавфсизлик” соҳасида табиат бурчаги ўсимликлар ва жонзодларни парваришлаши,

тадқиқотдаги ҳал қилиниши зарур бўлган муаммони ажратиб жойига қўйишни ўргана бошлайди. Атроф муҳитни яхшилашда иштирок этиш муҳимлигини тушунади (масалан, ахлатни тўплаш, уни саралаш, дарахтлар ва гуллар экиш, электр токи, сув ва қоғозни тежаш кабилар талаб қилинган.

Мактабгача таълим ташкилотининг мактабга тайёрлов гуруҳлари яъни 6-7 ёшли болаларни мактабга тайёрлаш харитасида атроф мухитга нисбатан эҳтиёткорона ва ғамхўр муносабатни намоеъ этишлари талаб қилинган.

Мактабгача таълим ташкилотларининг “Илм-фан ва табиат” ёки “Санъат” марказида паремик жанрлардаги табиат ҳақидаги топишмоқ, эртақ, мақол, афоризмлар билан таништириш ва уларнинг мазмунини англатиш муҳим вазифалардан бири бўлиб қолмоқда.

Стандарда турли гуруҳ тарбияланувчиларининг экологик маданиятини ривожлантиришнинг педагогик манбалари, давлат дастурлари, давлат талаблари турли фаолиятларда тавсифлаб берилган. Жумладан, мактабгача ёшдаги болаларда паремик жанрлар воситасида экологик маданиятни ривожлантириш аҳамиятига эга эканлиги кутилаётган натижалар-индикаторларда ҳам ўз аксини топган.

Такомиллаштирилган « Илк қадам » давлат ўқув дастурида Фан ва табиатшунослик асослари / экология машғулоти киритилди, шу билан биргаликда тажрибалар, ўйинлар, викториналар ҳафта мобайнида ташкил этилиши режалаштирилган. Шу мақсадда Фан ва табиатшунослик асослари/экология машғулотида тарбияланувчиларда экологик маданиятни шакллантириш мақсадга мувофиқлигини таъкидлаб ўтамиз.

« Илк қадам » давлат ўқув дастурида кўрсатилганидек, паремик жанрлардан фойдаланишдан мақсад-тарбияланувчиларда табиатга нисбатан меҳр меҳр уйғотиш, асраб-авайлаш қаторида, уларнинг экологик маданиятини оширишдан иборат.

Педагоглар фан ва табиатшунослик асослари / экология машғулоти самарадорлигини оширишга хизмат қилувчи кўпгина омилларга диққат қаратишлари жуда муҳимдир. Айниқса, машғулоти учун танлаб олинган паремик жанрлар мазмуни пухта ўрганиб чиқишлари, жанрни болаларга етказиб бериш усуллари татбиқ этишда амал қилиши лозим бўлган тавсиялар:

- паремик жанрларни яхши ўрганиб чиқиб, унинг мазмун ва моҳиятини англаш;
- паремик жанрларда экологик маданият тушунчасини таҳлил қилиш;
- паремик жанрлардаги табиат ва табиат ҳодисалари, ҳосил бўлиш сабабларига эътибор қаратиш; жанрларда тасвирланган ҳолатларни ўрганиб чиқиш;
- жанрларни фарқлашга ўргатиш;
- жанрлар асосида табиат ҳодисаларига оид саволлар тузиш;
- экология ва табиатнинг ўзаро боғлиқлигини тушунтириш;
- тарбияланувчиларнинг паремик жанрларга бўлган қизиқишларини ошириш;
- болаларда табиатга нисбатан муносабатни ўзгартириш;
- экологик маданиятни ривожлантиришга қаратилган эртақ, мақол, топишмоқ ва афоризмлардан фойдаланиш ва мантикий фикрлашга ўргатиш;
- болаларнинг табиатга оид паремик жанрларни билишларини мониторинг таҳлил қилиш;
- болаларни ижодий эртақ тузиш, топишмоқ тўқишга ўргатиш;
- паремик жанрлар асосидаги эртақларни сахналаштиришга ўргатиш;
- китоб бурчакларини янги эрта ва расмли китобчалар билан бойитиш;
- ота-оналар иштирокида болаларнинг “Табиат ва биз ” расмлар танловини ташкил этиш.

“ Илк қадам ” давлат дастурининг Фан ва табиатшунослик асослари /экология бўлимида алоҳида машғулоти киритилган. Бу борада болалар билан ташкил этиладиган машғулотида ўзбек ва жаҳон халқ эртақлари, адабий эртақлар, топишмоқлар, мақол ва афоризмларлардан ўринли ва унумли фойдаланиш тавсия этилади.

Мактабгача таълим ташкилотининг кичик гуруҳларида табиатда содир бўладиган табиат ҳодисалари ҳақида оддий билимлар берилса, катта гуруҳларда табиат ҳодисаларининг масалан, ёмғир ёғиши натижасида унинг буғланиб булут ҳосил бўлишини ва яна ёмғир ёғишини шу тарзда бир-бирига ўзаро боғлиқлигини тушунтириб ўтамиз.

Табиат бойлигимиз, уни асраб эҳтиёткорона муносабатда бўлишга, атрофни, уйимизни тоза сақлашга ва ўз ўрнида саломатлигимизни асраш борасида маълумотлар берилса мақсадга мувофиқ бўлади.

Мактабга тайёрлов гуруҳларда олиб борилиши лозим бўлган машғулоти мураккаблаштирилган ҳолда ташкил этилади. Фан ва табиатшунослик асослари /экологияга оид машғулотида об-ҳавога мос кийиниш, сувни тежаш ва исроф қилмаслик, гул, дарахтларни беҳуда узмаслик, қушларга озор бермаслик, экинларни пайхон қилмаслик, ҳайвонларга (мушук, ит, сигир, қўй, эчки, товуқ, хўроз...) меҳрибон бўлиш, озодаликка риоя қилиш, тўғри овқатланиш каби малакалар таркиб топтириб борилади.

Мактабгача таълим ташкилотларининг барча ёш гуруҳларида Фан ва табиатшунослик асослари /экологияга оид машғулотида айниқса, машғулоти бошланиши, асосий қисм, хулоса, мустаҳкамловчи қисми, қизиқарли, ижодкорлик, фаоллик асосий мезон бўлиши лозим. Бу тарбияланувчиларнинг

билим олишга, билишга бўлган қизиқишини оширади. Болаларнинг мантикий тафаккури, дунёқарашини кенгайтиришда, интеллектуал салоҳиятини оширишда муҳим вазифани бажаради.

Паремик жанрлар намуналаридан шундайларини танлаб олиш керакки, она-табиат, гўзал манзаралар, виқорли тоғлар, зилол сувлар, бепоён далалар, қалин ўрмонлар, кенг пахтазор, сап-сарик бўлиб етилган бугдойзорлар, кўм-кўк осмон, қорли далалар, қумуш қиш, зумрад баҳор тасвирланган эртақ, топишмоқ ва афоризмлар болаларни гўзал табиатга нисбатан хайрихоҳ бўлишга, уни асраб-авайлашга ва мурасасиз бўлишга олиб келади.

Шу боисдан “Илм фан ва табиат” марказида атроф-муҳит билан таништириш учун фойдаланиладиган жихозлар қўлланилади: турли фасллар манзараси, альбомлар, ҳайвонлар тасвири, болалар нутқи ва тасаввурини ривожлантирувчи ўйинлар билан бойитилади.

“Илк қадам” давлат дастурида намунавий иш режасида масалан, октябр ойида ўтказиладиган машғулотларда мавсумий ўзгаришлар, кўчманчи қушлар, сабзавот ва мевалар, табиат омборхонасидаги резавор мевалар билан таништириш мавзулари киритилган.

Намунавий ҳафталик иш режасида эса, “Илм фан ва табиат” марказида лой, тош ва қумнинг хусусиятлари (уй қуриш учун ишлатиладиган материаллар тўғрисида маълумот) «Оиламизнинг севимли хона гуллари» (экинларни экиш ва уларни ўстириш) «Қумда магнит» “Қум ва сув хусусиятлари” «Уй новвой хонаси» (олов хусусиятлари ва хавфсизлик қоидалари) лой, қум, тош, махсус идишлар, шарлар, магнит, магнитли доска, хона ўсимликлари, микроскоп каби жиҳозлар бўлиши лозим.

Болалар кичкинтойлигидан бошлаб алла, эртақ эшитиб улғаядилар, гарчанд у мантиқан тушунмаса-да, бола ювош, ақлли бўлиб улғаяди. Мактабгача таълим ташкилотларида бу жараён давом эттирилиши лозим.

Амалдаги дастурда олиб борилаётган таълим-тарбиявий ишларга ота-оналарни ҳам жалб қилиш, ҳамкорлик асосида машғулотларга ва тажрибаларга иштирок этишлари ҳам мақсадга мувофиқлиги эътироф этилади.

Мактабгача таълим ташкилотларидаги ўқитиш ва тарбиялаш жараёни ота-оналар ва тарбиячилардан катта матонат ва илмий маълумотларга асосланган замонавий ёндашувни талаб этади. Бола шахсига йўналтирилган таълим ва тарбия болаларда мустақил фикрлашни, атроф муҳитни чуқур англаш ва табиатга нисбатан меҳрли бўлишни тарбиялай бошлайди.

Тарбияланувчиларда табиатга қизиқиш уйғотиш учун мактабгача таълим ташкилотларида “Табиат ва биз” тажриба хонасини ташкил этиш ва паремик жанрлардан унумли фойдаланиш қуйидаги талаблар асосида амалга оширилади:

- тажриба хонаси сифатида мактабгача таълим ташкилотидаги бирор бир бўш хона ёки имкониётдан келиб чиқиб фойда махсус бурчакни ҳозирлаш мумкин;
- хонани табиат манзаралари тасвирланган расмлар билан безаш, аквариумда балиқчалар, тош, қум, сув, паремик жанрлардан намуналар, тажрибалар учун рангли бўёқлар ва керакли жиҳозлар, глобус, лупа, стол ва стуллар билан жиҳозлаш;
- хонага ёруғлик чап томондан тушиб туриши лозим;
- тажриба ўтказиладиган хона шинам ва кенг бўлиши лозим;
- тажриба учун ишлатиладиган жиҳозларнинг хавфсизлигига эътибор қаратиш;
- тажрибада бола соғлигига таъсир кўрсатувчи жиҳозлардан фойдаланмасликка риоя қилиш;
- тажрибадан олинган натижалар сақлаб қолинишига эътиборни қаратиш;
- тажрибалар ўтказишда болалар ёшини инобатга олиш.

Бу борада кичик мактабгача ёш гуруҳи тарбияланувчиларининг ҳатти-ҳаракатлари, билимга бўлган қизиқишлари, интеллектуал қобилиятлари анча юқорилаб кетгани маълум даражада эътиборга олиниши ва фаолиятларни ташкил этишда, паремик жанр воситалари мазмун ва меъёрларига тўлиқ амал қилиш талаб этилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

“Илк қадам” такомиллаштирилган Давлат ўқув дастури. Тошкент. 2022 йил

Ўзбекистон Республикасининг илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари. Тошкент. 2018 йил.

Г.А.Камилова. Халқ оғзаки ижоди-мактабгача ёшдаги болаларда экологик маданиятни шакллантириш воситаси сифатида. “Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar” jurnali. 150-153 бетлар.

Г.А.Камилова. Экологик тарбия ва экологик маданиятни паремик жанрлар воситасида шакллантириш. “Boshlangich ta'lim mazmunini takomillashtirish: O'quv dasturi-o'qituvchi baholash” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2023-yil 19-oktabr. Buxoro- 2023 y, 304-306 бетлар.

BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI FORTEPIANO CHALISHNI O'RGATISHNI PEDAGOGIK IMKONIYATLARI VA TARIXI

Majidova Shaxnoza Kamaridinovna

Turkiston yangi innovatsiyalar universitetining 1 – kurs magistranti

Annotatsiya: Maqola musiqa san'at haqida bo'lib, musiqaning kelib chiqish tarixi, uning inson ongiga ta'siri va inson hayotida qanchalar ahamiyatga ega ekanligi hamda ichki qalb kechinmalarini musiqa orqali yoritilishi bayon etilgan. Shuningdek, maqolada fortepiano haqida allomalarning fikrlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa, mafkura, musiqashunoslik, estetika, risola, iste'dod, uslub, meros, tafakkur, ijrochilik, sharq musiqasi.

Annotation: The article deals with the art of music, the history of the origin of music, its influence on human consciousness and its importance in human life, as well as the illumination of inner feelings through music. The article also mentions the opinions fortepiano of scholars about music. A person who reads this article will have knowledge about art and music.

Keywords: Music, ideology, musicology, musicology, aesthetics, treatise, talent, style, heritage, thinking, performance, oriental music

Hozirgi globallashuv davrida yangi O'zbekistonni barpo etish jamiyatimizning yangilanish jarayonida yangicha dunyoqarash madaniyatini shakllantirish, o'quvchilarni Vatanga sadoqat g'oyasini shakllantirish, milliy g'urur, ulug' ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan an'analarni davom ettirish, boy tarixiy merosimizni o'rganish va uni o'sib kelayotgan yoshlar ongiga singdirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Zero, yoshlarga zamon talablari asosida ta'lim-tarbiya berish, ularning ma'naviy-axloqiy qobiliyatini o'stirish, har tomonlama yetuk insonlar bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada musiqa san'ati alohida o'ringa ega bo'lgan san'at turlaridan biri hisoblanadi. Musiqa san'atining cholg'u ijrochilik yo'nalishi esa o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ajdodlarimiz asrlar davomida cholg'u ijrochiligining qudratiga tahsinlar o'qiganlar, o'z munosabatlarida, mehnat faoliyatlarida, hayotda undan bahramand bo'lganlar. Ezgu niyatlarini amalga oshirganlar. Endilikda musiqa cholg'ularining jozibali, husnkor ko'lami, uning mavqei yanada kengaydi, jamiyatda tutgan o'rni mustahkamlandi.

Bolalar musiqa va san'at maktablaridagi fortepiano sinfida o'quvchi yakka o'qitish shaklida musiqa savodining boshlang'ich bosqichini ado etibgina qolmay, balki, ilk bor hamkorlikda ijro etish ko'nikmasini ham o'zlashtiradi. Binobarin, yakka va hamkorlikda ijro etish ko'nikmasi orqali yosh pianinochi jo'rlik san'ati bilan yaqindan tanishishi mumkin. Zero, aksariyat pianinochilar yakkaxon ijrochilik bilan birga, jo'rlik san'ati orqali ham o'z san'atini ifoda eta oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konstepstiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 fevraldagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to'g'risidagi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 103-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Biz bolalar musiqa va san'at maktabi fortepiano chalishni o'rgatishni pedagogik imkoniyatlari o'rganmoqchi bo'lsak avalam bor bu musiqa asbobining kelib chiqish tarixini chuqur o'rganishimiz va uni yoshlarga o'rgatishni pedagogik imkoniyatlarining alohida rejasini ishlab chiqishumz zarur.

Fortepiano cholg'usining paydo bo'lishi tarixi.1711-yilda Italiyaning Podue shahrida klavisin ustasi Bartolomeo Kristofori yangi musiqa asbobini yaratdi. Bu asbobda ijrochi kuyni xohlaganicha past yoki baland (piano yoki forte) ovozda chalish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu musiqa asbobining nomi ham shundan kelib chiqqan holda Pianoforte, keyinchalik Fortepiano nomi bilan atalgan.

Fortepiano (ital. forte — kuchli va piano — kuchsiz, sekin) — royal va pianinolarning umumiy nomi. Boshqa manbalarda yozilishicha Fortepiano 18-asr boshida B. Kristofori (Italiya), J. Marius (Fransiya) va K.G. Shryoter (Germaniya) tomonidan ixtiro qilingan. Keyinchalik Fortepiano mexanizmi va shakli I. A. Shteyn, I. A. Shtreyxer (Avstriya), A. Bekers (London), S. Erar (Parij) va boshqa ustalar tomonidan takomillashtirilgan. Tovush klavishlarini bosish orqali kigiz qoplangan yog'och bolg'achalar bilan torlarga urish natijasida hosil qilinadi. Klavesin va klavikorddan dinamikasi o'zgaruvchanligi (mas, kuchli peggedan asta sekin piano darajasiga o'tish imkoniyatlari) bilan farq qiladi (nomi shundan). Fortepiano uchun ilk asarlarni I. Gaydn, V. A. Motsart, L. Betxoven va boshqalar ijod qilgan. Fortepiano o'zining keng ijroviy texnik hamda ifodaviy imkoniyatlari tufayli Yevropa ko'p ovozli musiqasida asosiy yakkanavoz va jo'rnavoz soz sifatida keng o'rin olgan.

XIX asrda 2 ta asosiy fortepiano:1-gorizontal royal (fransuzcha royal-qirol) 2-vertikal pianino (italyancha

pianino –kichkina pianino) mavjud bo'lgan. Royal har xil musiqa kechalar va konsertlar uchun mo'ljallangan musiqa asbobiga aylandi.

Fortepiano XVIII asrning oxirlarida kelib klavisin va klavikkordlarni deyarli butunlay amaliyotdan chiqardi. Fortepianoda xromatik tartibda tovush beruvchi to'qsondan ortiq tor bor. Torlar sadosi chapdan o'ngga qadar balandlashib, past va o'rta sado beruvchi torlar yo'g'on simlardan bo'lib, eng pastki sadolari bittadan, o'rta sadolarida ikkitadan, yuqori sadolari uchtdan bo'ladi. Kerakli klavishlar bosilishi bilan shunga xos bolg'achalar simga uriladi va sado beradi. Barmoqlar klavishdan ko'tarilishi bilan dempferlar tovush cho'zimini to'xtatadi. Pastdan chap pedalni oyoq bilan bosilsa sado kuchayadi. Fortepianoda yakka ovozlari ko'p ovoqli turli murakkab akkordlarni chalish imkoniyati bor. Hajmi yetti oktavani o'z ichiga oladi. Fortepianoda yakka, ansamblda va orkestrda foydalanish mumkin. Hozirgi kunda Fortepianoning ikki turi ya'ni Pianino va Fortepiano keng tarqalgan. Pianino bu Fortepiano so'zining qisqartirilganidir. Fortepianodan kichikroq bo'ladi.

Fortepiano (pianino) – monoxord sozlanuvchi ko'p torli va ko'p tovushli klavishli cholg'u. Ushbu shaxmat tuzilishida matematik tizimlidir. Ergologik jihatdan yog'och korpusli torlari esa po'lat va mis uyumidan yasaladi. Shu bilan bir qatorda torlari tuzulishi mayin va yo'g'on tor simlardan iborat bo'lib, klavishlari odatda yog'ochli va Fil suyagidan yasali kelingan bo'lib, hozirgilari esa plastmassa (elastik) sun'iy uyumdan yasaladi.

Torsimlarining tuzulishi va diapozoni:

- a) Fortepiano - diapozoni LYA- fa-lya subkontr oktavadan 5- oktava DO- gacha;
- b) Royal- diapozoni FA- subkontr oktavadan 5- oktava FA-SOL- gacha. Ushbu cholg'ular xromatik sozlanuvchidir.

Jahon cholg'usi "Fortepiano"- ning shaydosi Italiyalik Gersok Toskanskiyning katta o'g'li Ferdinando De Medichining uyida, katta tantanalar, kechalar va bazmlar Ferdinando tomonidan uyushtirilib kelingan. Italiyaning eng boy aristokrati hamma vaqt Florensiyaga qiziqib borgan. Bu yerda mehmonlarni doimo qiziqarli va antiqa yangiliklar kutib turgan. Goh paytlari yangi janr, pyessa va boshqa ijrolar ham mehmonlarni maftun etgan.

Gastrollarda esa eng yirik virtuoz ijrochilar qatnab, ular bir- birovi bilan ajoyib ijrolarida baxslashib turganlar. Ferdinantoning o'zi ham klavesin ijrochisi sifatida qatnab turgan. Ferdinando qayerda yashamasin hamma vaqt yangi va aniq sozga ega cholg'ularni kolleksiyasini yig'ib turgan. Uning klavesinlar kolleksiyasi Italiyadan tashqari davlatlarga ham ma'lum bo'lgan. Bu ushbu kolleksiyalarni avaylab asrovchisi va qo'riqchisi klavesin usta- sozgari Bartolomeo Kristofori bo'lgan. U Butun umri davomida yangicha klavesinlarni konstruksiyasi va rekonstruksiyasi bilan shug'ullanib kelganidek, kunlarning birida Ferdinantoning uyida yangicha antiqa cholg'u bilan uy egasini hayratga solmoqchi bo'ladi. O'sha paytda mehmonlar ushbu antiqa cholg'u yonida ja'm bo'lishadi, ammo cholg'uning usti matoli niqob bilan yopilgan bo'lgan. Biroq mehmonlar ushbu antiqa cholg'uni ko'rish uchun zavq bilan diqqat qaratishadi. Mehmonlar Kristoforiga qarab bu tinmas o'zini yangicha "g r a v e c h i m b a l o k o l p i a n o e f o r t e" - cholg'usini yangi turini yana kashf etibdi, - deyishadi. Yana- "aytishlaricha u allaqanday bolg'achalarni kashf etibdi va unga teri- charmni tortib, chimbalo niqobini o'rniga almashtirib qo'yibdi, o' ajabo, deya ayrim mehmonlar ma'qullashadi."

Xullas, fortepianoning yuzidagi (chexol)-niqobi olinadi. Hali konsert boshlanmasdan zaldagi mehmonlar qiziqqanlaridan jim-jit bo'lishib, bir- birovlariga qarab pichir- pichir tovushlar eshitiladi: - "qiziqarli- qiziqarli, lekin oddiy klavesinga odatlanganimizdek, asliy nusxasi yaxshi ediyov",- deyishadi.

- Mana qaranglar bu oddiy o'zimizni klavesin, uning tuzilishiga qaranglar...

- Yo'q, - deyishadi mehmonlar.- bu shunchaki navbatdagi eksperimentdir, boshqasi emas. Qanchalik usta-sozgarlar ushbu klavesin cholg'usidan ham yaxshiroq, takomillashgan cholg'ularni ixtiro qilib kelganlar, ammo mehnatlari zoye ketgan. Unga hecham hojat yo'q, shubxasiz klavesindan xech qaysi cholg'u o'tolmasligini ta'kidlaydilar. Ko'rsatma tugaganidan so'ng jamoa syurprizni unutib, yondagi zalga qarab yo'l olishadi. U yerda ularni yana bir ajoyibot kutmoqda edi. Xullas, shaxzoda Ferdinantoning mehmonlari ushbu yangilikni tan olmaganlaridan so'ng, Kristofori o'zi yaratgan antiqasini ustini yana niqob bilan yopib qo'yadi. Lekin klavishli cholg'uning haqiqatdan ham takomillashgan yangi turini hech kim tushunmaydi. Ammo, Kristofori o'ziga ishoch bilan shuni tushunadiki, "bolg'achali chimbalo" –ni katta kelajak kutmoqda, bunga faqat sabr-toqat va vaqt kerakligini anglab oladi.

1709- yilda, Bartolomeo Kristofori o'z xo'jayinining mehmonlariga bolg'achali fortepianoni namoyish etadi. U o'sha davrda ushbu cholg'uning yaratuvchisi bo'lgan edi. XVIII – asrda "bolg'achali - klavesinni"- ni yaratishda qayg'urib, tadqiqotlar olib borganlar birinchilar qatorida bo'lsalar ham, ammo yagona emas edilar. 1716 yilda Fransuz Marius tomonidan ushbu cholg'uning modeli konstruksiyadan qayta o'tadi. U ham bolg'achali fortepiano yaratishga kirishadi. Bir yil o'tar – o'tmas, nemis musiqachisi Shreter tomonidan ham Kristofori va Mariusga nisbat farqli - o'laroq bolg'achali fortepiano yaratiladi.

Musiqachilarni doimiy ravishda qiziqtirib borgan cholg'uni yanada takomillashishga erishadilar. Ammo, klavesin o'z o'rnini bermoqchi bo'lmaydi, sababi ushbu cholg'uning mexanikasi abadiy emas edi, uning tovushi ham quvvat bosimi orqali almashinib turishi bilan, tovush chiqarilishi juda tez va quruq edi.

Yangi cholg'u haqida berilgan birinchi taqrizlar, ushbu cholg'u sozgarlarini quvontira olmaydi. " XVIII – asrning mashhur musiqachilaridan biri Fortepiano cholg'usi Klavesin cholg'usiga nisbat yaxshi tovushga ega

emas. Bu kamerli cholg'u baland tovushli ijroga xos emasligini aytadi". Yana birida esa, "Fransuz tinglovchisi bunday degan, - baslari qattiq, karsimon va munglihamdir, biz Fransuzlarning qulog'imizga judayam aksilagandek tuyuladi", - deyilgan.

O'z davrining shahanshoxi buyuk nemis kompozitori Iogan Sebastyan Bax, ilk marotaba fortepianoning turlari bilan tanishib shu zahot kamchiliklari haqida o'z fikrini bildirib o'tgan. U "yuqori registrarga tovushining past va bo'shligini hamda ularda ijro etish qiyin ekanligini aytadi." Haqiqatda nam, klavesinning o'zga xos beriluvchanligi bilan taqqoslaganda fortepianoning klavishlariga ijro etish uchun katta quvvat sarf qilishga to'g'ri kelgan. Shu tariqa musiqachi va musiqashunoslarning izohlarida fortepianoda qanchalik kamchiliklar topilib tuzatilmasin, baribir klavesinning muloyim yengil va yuguruvchan chaqqon tovushiga bas kelmaydi degan xulosaga kelishadi.

Musiqachilar qisqa vaqt ichida endigina tug'ilgan "bolg'achali fortepiano" yoki goh "pianoforte"-deb tilga olingan cholg'uga yakuniy tugal va jiddiy xulosaga kelib "ushbu cholg'u hech qachon klavesinni buyuklikda keng erishgan imkoniyatlariga erisha olmaydi"- deyishadi. Lekin vaqt boshqacha xulosalashga olib keldi. Sebastyan Baxga fortepiano uchun asarlar yaratish xojati bo'lmagan. Ammo, uning kichik o'g'li – Iogan Kristian Bax, mashhur kompozitor va ajoyib klavir ijrochisi sifatida ushbu cholg'uni darxol baholaydi. Va u jamoa oldida o'zining birinchi yakka tartibli -solo konsertini fortepianoda namoyish etadi. Ko'p vaqt o'tmay uning "Fortepiano uchun" taqdim etilgan sonatalar darsligi paydo bo'ladi.

Fortepiano cholg'usining takomillashishidagi islohotlar. XVIII – asrning 60-70- yillarida vaqt taqozosi bilan Yevropaning ko'plab yetakchi va taniqli musiqiy cholg'ular yasovchi usta- sozgarlari tomonidan, fortepiano cholg'usini qaytadan takomillashtirish va kamchiliklarini tuzatib, butun rekonstruktiv - ergologiyasi bilan shug'llanishda islohotlar boshlab yuboriladi va hatto yillar o'tishi bilan avjiga chiqadi. Ushbu cholg'u haqida fikrlar ham o'zgarib boradi. Endi tanqidchilikka klavesin cholg'usi ro'yobga chiqadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, "qo'shiqchilik bandlariga uning karsimon va doimiylikdagi o'tkir tovushi", to'g'ri kelmaydi. Bu degan so'z, klavesin ijrosida sabrlik bilan chidab kelganligi ma'lum bo'ladi. Oradan 20- (ikki o'n yillik o'tgach) yil o'tgandan so'ng, "Buyuk musiqiy to'ntarishning" zamondoshlari guvohlik beradilarkim, "Klavesin faqat orkestr ijrochiligi uchun saqlanib kelingan edi, ammo, qiziqarli shundaki, ular yana nima uchun ushbu cholg'u qo'llanib kelishmoqda: tovushi juda ham o'tkir va zuddan bo'lsa, nafratlanuvchan tuyilsa". Shu tariqa, orkestr cholg'usiga klavesin keraksiz ekanligi asoslanadi.

Mamlakatimiz musiqa ta'limi tizimining afzalliklari, xususan, o'zbek fortepiano pedagogikasining yutuqlari hammaga ma'lum va shubhasizdir. Ammo bugungi kunda pianino ijrochiligining ahvoli shuni ko'rsatadiki, hali ham bir qancha hal etilmagan muammolar bor, ularni respublika musiqa jamoatchiligining birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan amalga oshirishni taqazo etadi.

Bolalar musiqa va san'at maktablaridagi ta'lim va tarbiya, zamon talablariga javob beradigan va amaliy faoliyatni boshlashdanoq, uning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan sifatlarga ega bo'lgan iqtidorli bolalarni yetishtirishi lozim. Hozirgi kunda bolalar musiqa va san'at maktablaridagi ta'lim jarayoni o'z vazifasi va jadalligiga ko'ra ancha murakkablashdi. Shuning uchun uning yo'nalishi, mazmuni va usuliyati masalalarini ilmiy asosda hal qilmay turib, jamiyatning doimiy ortib borayotgan talablariga mos iqtidorli bolalarni tayyorlash samaradorligini ta'minlash mumkin emas.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa sohasida bo'lajak iqtidorli mutaxassis tayyorlashning maqsadi, vazifalari va xususiyatlarini o'rganish talablarni o'qitish hamda tarbiyalashning mazmuni, tamoyillari va usullarini to'g'ri belgilashning eng muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Mirziyoev. Sh. 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konstepstiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.

Azimov H. Fortepiano darsligi. O'qituvchi.- T.: 1998 yil

Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. *Miasto Przyszłości*, 33, 167-176.

Djamalova. D. "Fortepiano" darsligi.-T. "Musiq" 2018 y.

Zakirova Sh. O'zbekiston kompozitorlarining fortepiano uchun asarlar. - T., «O'zbekiston». 2010.

Ражабов, Т. (2023). О 'zbek bolalar musiqiy o' yin folklorining mavzuviy tasnifi. *Общество и инновации*, 4(5/S), 340-345.

Muhammadjanova Z. Fortepiano chalishni o'rgatish uslubiyoti.-

Toshkent, 2006 yil

Ражабов, Т. И. (2022). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Народные Музыки И Песни. *Miasto Przyszłości*, 29, 363-367.

Rajabov, T. I. (2023). Distinctive Features of Folk Songs that Serve in the Spiritual and Moral Formation of Bukhara Pupils. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, 2(3), 59-68.

Tўxtasin, P. I. (2022). ЎЗБЕК ХАЛҚ КЎШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special issue), 64-71.

Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences* ISSN, 2795(546X),

OLYI TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING MA'NAVIY KOMPETENTLILIK DARAJASINI BELGILOVCHI OMILLAR

Mamajonov O'tkirbek Tajiddinovich
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchining ma'naviy kompetentlik darajasiga qo'yilgan talablar, rivojlangan davlatlarda bo'lajak o'qituvchining ma'naviy kompetentliini oshirishga doir olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, ma'naviy kompetentlik darajasini baholovchi omillar, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi kabi ko'nikmalarni egallashini ta'minlovchi aksiologik va deontologik yondashuvlar, pedagog olimlarning bu boradagi qarashlari va tavsiyalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ma'naviy kompetentlik, pedagogik deontologiya va aksiologiya, o'quv-tarbiya jarayoni, yuksak axloq, kasbiy kompetentlik, mas'uliyat, ijtimoiylashuv, qadriyat.

Аннотация. В статье рассматриваются требования к уровню духовной компетентности будущего учителя в процессе высшего образования, проводимые научные исследования по повышению духовной компетентности будущего учителя в развитых странах, факторы, оценивающие уровень духовной компетентности, аксиологические и деонтологические подходы, обеспечивающие приобретение выпускником высшего учебного заведения таких навыков, как вступление в личные, социальные, экономические и профессиональные отношения, закрепление своего места в обществе., педагогических ученых речь идет о его взглядах и рекомендациях по этому поводу.

Ключевые слова: духовная компетентность, педагогическая деонтология и аксиология, учебно-воспитательный процесс, высокая этика, профессиональная компетентность, ответственность, социализация, ценность.

Annotation. The article will talk about the requirements for the level of spiritual competence of the future teacher in the process of higher education, scientific research on increasing the spiritual competence of the future teacher in developed countries, factors assessing the level of spiritual competence, axiological and deontological approaches ensuring that a graduate of a higher educational institution enters into personal, social, economic and professional relations, acquires such

Keywords: spiritual competence, pedagogical deontology and Axiology, educational process, higher ethics, professional competence, responsibility, socialization, value.

Murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimini yangicha ko'rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo'llash orqali ta'lim samaradorligiga erishish davr talabidir.

Ta'lim muassasasi bitiruvchisi o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishini ta'minlashda asosan, pedagog kadrlar salohiyati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Demak, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg'unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy va ma'naviy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Globollashuv jarayonlarida dunyo oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilar faoliyatini rivojlantirish jarayonlarini ma'naviy-madaniy ta'lim-tarbiyani aksiologik hamda deontologik yondashuvlar uyg'unligida amalga oshirish, ularning shaxsiy va kasbiy kompetentlik darajasini xalqaro tajribalar integratsiyasi asosida tashkil muhimdir.

Oliy ta'lim jarayonlarida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-emotsional va ma'naviy-axloqiy malakalarni tarkib toptirish modellari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda media ta'lim vositasida talabalar ma'naviy kompetentligining rivojlanligini tashxis etishning interaktiv tizimini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buyuk Britaniya, Yaponiya, AQSH, Singapur, Fransiya, Turkiya, Xitoy kabi rivojlangan davlatlarda bo'lajak mutaxassislarda zamonaviy shaxsga xos fazilatlar majmuining ishlab chiqilganligini alohida e'tirof etish lozim. Shu munosabat bilan, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishning yaxlit tizimini yaratish, yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilishning tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqiy jihatlarini takomillashtirish, mazkur yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligini samarali yo'lga qo'yishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ularning ko'lamini va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hisini kuchaytirish, targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, mazkur sohaga doir ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini

oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish ustuvor vazifalar sifatida belgilab olingan. Bu esa, talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirishning umumkasbiy kompetensiyalar tizimidagi o'rni va rolini ochib berish

Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantiruvchi va rag'batlantiruvchi o'ziga xos pedagogik va psixologik shart-sharoitlar mavjud bo'lib, unda o'qituvchilarning shaxsiy xususiyatlari sanalgan, ma'naviy – axloqiy barkamollik, mas'uliyatlilik, hayotiy qadriyatlilik, ijtimoiy onglilik, o'zini o'zi nazorat qila olish, boshqaruv qobiliyati bilan bog'liq kompetentlilik kabi ijtimoiy-psixologik fenomenlar mujassamlashgan. Shuning uchun, mazkur tushunchalar mohiyatini tahlil etishdan oldin, bo'lajak o'qituvchilarning amaliy faoliyati uchun o'ta muhim sanalgan, kasbiy kompetentlik tushunchasining mazmun – mohiyatiga oydinlik kiritish muhimdir. Shu bilan birga, ushbu tushuncha bo'lajak o'qituvchining o'z sohasiga bo'lgan motivatsion harakatlari majmui bilan ham xarakterlanadi.

Bu borada oliy ta'limda o'qitiladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bo'lajak o'qituvchining shaxsiy va kasbiy kompetentligini rivojlantirishda hamda ma'naviy kompetentlik darajasini oshirib borishda fanning aksiologik imkoniyatlarini yoritib berish hamda muloqotning ijtimoiy-perseptiv uslubini faollashtirishga doir vaziyatlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bugungi kun o'qituvchisi nafaqat o'z fani bo'yicha kasbiy bilim va ko'nikmalarga yega bo'lishi, balki o'z o'quvchilarga qadriyatlarining tashuvchisi sifatida rasmiy pedagogik mavqega, ijodiy qobiliyatga yega, maktab o'quvchilarini izlash va umuminsoniy qadriyatlarga yo'naltira olish qobiliyatiga ham ega bo'lishlari kerak.

Oliy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar belgilangan o'quv reja va dastur mazmuni asosida zarur kasbiy bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarni egallashi, shu qatorda ularning ma'naviy kompetentli yetuk shaxs sifatida kamol topishlari, maktabda o'quvchilarning ma'naviy shakllanib borishi ustida ishlashga tayyor bo'lishlari kerak bo'ladi.

Bilamizki, ta'limning barcha sohalarida gumanistik tendensiyaning kengayishi munosabati bilan pedagogik ta'limning mazmuni, kasbiy va qadriyat sifatleri masalasi o'qituvchi va uning ma'naviyati, o'qituvchining shaxsiyati va birinchi navbatda uning ma'naviy kompetentligi, kasbiy faoliyatda faqat inson mavjudligining ma'naviy boshlanishini, uning rivojlanishini tushunish jarayonida muhimligi o'z isbotini topdi. Olimlarning bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy adabiyotlarini pedagogik va psixologik jihatdan o'rganib chiqib, tahlil qilganimizda ularning bu mavzuga oid xulosalari o'ziga xos hamda umumiy jihatlarga egaligining guvohi bo'ldik. Jumladan,

Rus falsafashunos olimi M.S. Kagan o'zining asarida XXI asr nafaqat ma'naviyatni tahlil qilishni yaxshi biladigan o'qituvchini talab qiladi, balki «ma'naviyat-bu shaxsning xususiyati» ekanligini ta'kidlaydi.

Adabiyotlarni o'rganish jarayonida rus olimlaridan M. V. Boguslavskiy, YE. V. Bondarevskaya, B. Z. Vulfov, G. P. Vyjletsov, V. I. Dodonov, V. P. Zinchenko, B. T. Lixachev, N. D. Nikandrov, Z. I. Ravkinlar o'z ilmiy tadqiqot va ta'limotlarida bo'lajak o'qituvchining ma'naviy kompetentligini uning talabalik davridan boshlab ma'naviyatini rivojlanishi intellektual va ijtimoiy yetuklikning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda olib borish zarurligini bunda pedagogik qadriyatlarni rivojlantirish, kasbiy faoliyati bo'yicha bo'lajak o'qituvchining ma'naviy salohiyatini ochib berish va rag'batlantirish jamiyat taraqqiyotining taqdiri kelajakka bog'liq oliy pedagogika maktabining dolzarb vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlashadi.

Taniqli rus olimi A.M. Novikov o'z izlanishlari asosida "...uzluksiz ta'lim jarayonida kasbiy ta'limning tizim tashkil qiluvchi mezoni sifatida bir butunlik, ya'ni elementlarning mexanik birlashuvi emas, balki barcha tizimni tashkil qiluvchilar va ta'lim jarayonlarining chuqur integratsiyasi asosida bo'lajak o'qituvchining ma'naviy kompetentlik darajasi yuzaga chiqadi...", deya bayon etgan.

A.V. Xutorskiy o'z ilmiy izlanishlarida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy yetuklik darajasini belgilovchi kompetensiyalarni quyidagicha tavsiflaydi:

1. Keng dunyoqarash asosida qadriyat va o'zini anglash kompetensiyasi - o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlaridagi o'z-o'zini anglash mexanizmini ta'minlab, uning dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalarning mohiyatini ko'ra oladi va tushunadi bunga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida o'z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa olishi bilan belgilanadi;

2. Umummadaniy milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish kompetensiyasi - bu mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish, oilasiga, urf-odatlariga hurmat, ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lish, ilm-fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta'sirini anglay olishi va o'quvchi ongiga singdira olish;

3. O'quv va bilish jarayonida o'qituvchining mustaqil bilish faoliyati kompetensiyasi – uning mantiqiy fikrlashi, o'quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko'nikmasini tahlil qila olishi;

4. Ma'lumotlarga ega bo'lish kompetensiyasi – uning pedagogik faoliyati, o'z faniga doir ma'lumotlarni uzviy va uzluksiz tarzda mukammal darajada egallash ko'nikmasi;

5. Muloqotchanlik kompetensiyasi – o'qituvchining til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo'lishi,

jamoada o'ziga xos o'rinda turishi;

6. Ijtimoiy kompetensiyasi – o'qituvchining foydali mehnat, oilaviy munosabatlar va mas'uliyat, jamiyat rivojidadagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lish;

7. O'z ustida ishlash kompetensiyasi – o'qituvchining jismoniy, ma'naviy, intellektual jihatdan o'z-o'zini rivojlantirish va o'z hissiyotlarini boshqara olishi kabilar.

Yuqoridagilar asosida shuni ta'kidlash joizki, ma'naviy rivojlangan o'qituvchi - bu yaratilgan dunyo qadriyatlarini tafakkuriga kiritib, o'ziga singdira olgan shaxs tarixiy jarayonda insoniyat ongi bilan rivojlanish, dunyoga shaxsan munosabatda bo'lgan muhim obyekt hisoblanadi. Aslida, ma'naviyatni rivojlantirish shaxsiyat va uning mentalitetini qurishning eng yuqori qadriyatlaridan chiqish sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. O'qituvchi uchun uning ruhiy dunyosi uning ma'naviy shakllanishining asosi bo'lib xizmat qiladi. Ma'naviy dunyo insonning dunyoga, undagi o'rni haqidagi qarashlari tizimida aks etadi va uning his-tuyg'ulari va faoliyatida namoyon bo'lishi ijodiy xarakterga ega.

Ma'lumki, zamonaviy jamiyatda ta'lim bu barcha muammolarini aks yettiruvchi ijtimoiy institut bo'lib, oliy ta'lim o'quv dasturlari fanlari orqali ushbu ko'nikma egalik jarayonlarini faollashtirish, unda chuqur axloqiy va ma'naviy qadriyatlar o'z aksini topishi asosiy talablardan biri hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchining yuksak axloqiy, mas'uliyatli, ijodiy, tashabbuskor, vakolatli fuqaro sifatida shakllantirish va rivojlantirishni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali ma'naviy-axloqiy yo'nalishdagi tarbiyaviy chora-tadbirlar shaxsni axloqiy rivojlantirish ta'limning asosiy vazifasidir.

A.N.Novikovning aytishicha, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetentlik xususiyatlari asosida ularning ma'naviy kompetentligini rivojlantirib borishda quyidagilar o'ziga xos jihatlar bilan tavsiflanadi:

1. Boshqalar bilan erkin, samarali va natijali muloqot qila olish ko'nikmalari;
2. Zamonaviy axborot texnologiyalari va media ta'limdan samarali foydalana olish malakalari;
3. Kasbiy va ijtimoiy sohaga oid ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish;
4. Iqtisodiy va sohaga oid yangiliklardan xabardorlik;
5. Ta'limga oid me'yoriy - huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati va ahamiyatlik darajasidan xabardorlik;
6. Kommunikativ kompetensiyaga egalik va xorijiy tillardan kamida bittasini mukammal bilish;
7. Atrofidagilarga ijobiy ta'sir eta olish va ularni o'zgartirishga nisbatan psixologik tayyorlik;
8. Insoniy fazilatlarini o'zida rivojlantirib bora olish hamda shaxsiy namuna bo'la olish kabilar.

Bundan tashqari, kasbiy faoliyatda ma'naviy kompetentlik mezonlari ixtiyoriy faoliyatning ikki jihatini qamrab olishi ta'kidlanadi.

Bo'lajak o'qituvchining ma'naviy kompetentligi uning kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim, mahorat, ko'nikmaga egaligida, uning pedagogik obro'-e'tibori, funksional, ya'ni kasbiy bilim va mahoratini amalda ro'yobga chiqara olishi. Intellektual, ya'ni tahliliy fikr yuritish va o'z vazifalarini bajarish uchun kompleks yondoshish qobiliyati, turli vaziyatlarga moslasha olib harakat qilish qobiliyati, ijtimoiy, kommunikativ va integrativ qobiliyatlarga egaligi, har qanday jamoada til topa olish qobiliyati kabilar bila uyg'unlashadi. Bunda uning madaniyatli;

umuminsoniy qadriyatlarga egalik; milliy madaniyatga ega bo'lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilishi, jamiyat va insonlarga, tabiatga ijobiy emotsional munosabat da bo'lish tajribasi kabi ko'nikmalarga egaligi samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Новиков В.В. Социальная психология и экономика: Избранные произведения в 11-ти томах: Т.П. Ярославль: Изд-во МАПН, ЯрГУ, 2005. – С.165.

2.Юсупов Ф.М. Педагог, ищущий новое: штрихи к портрету // Вопросы психологии. 1991. - № 1. - С. 36 - 42.

3.Мешков Н.И.Становление учебно-профессиональной мотивации студентов в процессе подготовки педагогических кадров в университете. Авто-реф. . дра психол. наук. СПб, 1993. – 31 с.

4.Борисов В.В.,Ягупец С.Ю.Проектно-технологическая компетентность как составляющая профессиональной компетентности будущего учителя технологий // Молодой ученый. — 2015. — №12. — С. 716-721.

5.Шарипова Ш. С. Профессиональная педагогическая компетентность учителя // Молодой ученый. — 2017. — №11. — С. 511-514.

CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA TALABALARNING KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Mamatov Dilshod, Buxoro davlat universiteti professori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada chizmachilik darsini o'qitishda o'quvchilarning bilim qobiliyatlarini takomillashtirishning zamonaviy usullari mavjud ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek chizmachilik va chizmageometriya fanlari bo'limi haqidagi ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: chizma, rasm dasturi, loyiha, dizayn, joylashishni aniqlash, yangilangan kognitiv, raqamli, avtopsixologik vakolatlar

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ РИСОВАНИЮ

Маматов Дилшод, профессор Бухарского государственного университета, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам.

Аннотация: В данной статье проанализированы современные методы совершенствования познавательных способностей учащихся при проведении урока черчение на основе имеющихся данных. Также представлена информация по разделу рисование и начертательной геометрии.

Ключевые слова: рисунок, программа рисования, проект, дизайн, позиционирование, обновленные когнитивные, цифровые, аутопсихологические компетенции

IMPROVEMENT OF COGNITIVE COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE TEACHING OF DRAWING SCIENCE

Mamatov Dilshod, professor of Bukhara State University, doctor of philosophy in Pedagogical Sciences (PhD).

Abstract: In the following article the modern methods of perfection of the cognitive competencies of the students in teaching the lesson of drawing are analyzed based on the available data. The article provides information about the Department of drawing and drafting Sciences.

Keywords: drawing, painting software, project, design, positioning, updated cognitive, digital, autopsychological competencies

KIRISH. Chizmachilik fani bo'lg'usi o'rta va oliy ta'lim muassasalarida shakllanayotgan texnik mutaxassislar uchun darslarda muhim va majburiy bo'lgan fan sohasidir. Hozirgi vaqtda juda ko'p turli xil chizish dasturlari mavjud, ular orasida professional (pullik) va soddalashtirilgan (bepul) dasturlarni ajratish mumkin. Siz uchun biz ulardan eng mashhur va ko'p funktsiyali haqida umumiy ma'lumot tayyorladik. Hozirgi kunda ularning vositasida nafaqat murakkab eskizlarni chizish, balki tayyor chizmani chop etish, kerak bo'lganda ko'rish va tuzatish, balki o'z loyihalarini yaratish mumkin. Chizmachilik proyeksiyasida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning ba'zi usullari haqida fikr yuritiladi

USULLARI. Graphite (umumiy dastur). Turli xil murakkablik va tafsilotlar darajasidagi ikki va uch o'lchovli chizmalar, organigramma va diagrammalarni yaratish uchun mo'ljallangan. Dasturda chizmalarni tez va aniq yaratish uchun bir nechta funktsiyalar va vositalar mavjud. Fazoda bog'lash tizimi, maxsus kutubxonalarini yaratish qobiliyati, moslashuvchan o'lchamlari va boshqalar mavjud. Ushbu dastur texnika yo'nalishidagi universitetlar talabalari, muhandislar va oddiy foydalanuvchilar uchun javob beradi. Bu sizga ko'p sahifali PDF hujjatlarini yaratishga imkon beradi va mashhur CAD formatidagi rasmlarni aniq import va eksport qilishni ta'minlaydi.

Ishlash printsiplari 2D va 3D komponentlardan chizilgan loyihani qurishdir. Bu bizga eng oddiy chizilgan va murakkab mexanizmlarni yaratishga imkon beradi. U uchta format bilan ishlaydi: DXF, DVG va DXF [1].

Oldingi dasturdan farqli o'laroq, AutoCAD G'arbiy Yevropada shakllangan ESCD tizimi bilan ishlamaydi, faqat xalqaro dasturni taklif qiladi. Bundan tashqari, uning kamchiliklariga to'liq xususiyatli versiyaning yuqori narxi kiradi.

Innovatsion platformaning eng muhim kontseptual pozitsiyasi o'quvchini davlat ta'lim standartiga kiritilgan umumiy va kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan va qo'shimcha ravishda yangilangan kognitiv, raqamli, avtopsixologik kompetensiyalarga ega bo'lgan shaxsni kasbiy shakllantirish jarayonini faollashtiruvchi faol ishtirokchi (subyekt) sifatida ishlatadi. Bularning barchasi maktablarda ishlab chiqilgan o'qituvchining innovatsion turdagi bo'lg'usi adaptiv modelida qayd etilgan.

Kognitiv kompetensiya umr davomida ta'lim olish (lifelong education) kontseptsiyasi nuqtai nazaridan tanqidiy, tizimli, strategik, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini, shuningdek, individual ta'lim trayektoriyalarini loyihalash ko'nikmalarini nazarda tutadi. Axborot-kommunikatsiya (raqamli) kompetensiyaga quyidagilar kiradi: ta'lim portallari, onlayn kurs platformalari bilan ishlash ko'nikmalari, onlayn guruhlarda loyihaviy muloqot ko'nikmalari, o'quvchilarning kognitiv uslublari va fikrlash turlarini hisobga olgan holda adaptiv elektron darsliklarni yaratish ko'nikmalari, o'quv o'yinlarini dasturlash ko'nikmalari, shuningdek, ta'lim uchun raqamli texnologiyalardan . o'z-o'zini rivojlantirishda foydalanish ko'nikmalari [2, 45].

Avtopsixologik (tartibga soluvchi) kompetensiya jismoniy va psixofiziologik resurslarni boshqarish ko'nikmalarini, hissiy va motivatsion-irodaviy o'zini o'zi boshqarish, kasbiy faoliyatda vaqt va stressni boshqarish ko'nikmalarini, shuningdek, axborot ishlarining psixogigienasi ko'nikmalarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi ("raqamli eskiz", "chizmachilik fani uchun kerakli ma'lumotlarning kiritilishi").

Art (badiiy) loyihalar mohiyatan universal hisoblanadi: ular badiiy mavzular bo'yicha yuqori texnologiyali darslar, talabalar o'rtasida o'quv faoliyati, shuningdek, shaharning o'rta maktab o'quvchilari o'rtasida maktabning kasbga yo'naltirish ishlarining shakli bo'lishi mumkin. Art loyihaning asosiy afzalligi shundaki, o'quvchilar uning faol sheriklari. Har bir san'at loyihasi tomoshabinlar orasida ishlab chiqish va amalga oshirish uchun uzoq vaqt talab etiladi. Quyida chizmachilik fanida talab etiladigan daslabki malaka talablari keltirilgan.

1. Chizma ishi uchun talabalarning ijodiy guruhini shakllantirish, rasm chizishda badiiy loyihaning mavzusi, maqsad va vazifalarini shakllantirish;

2. Axborot loyihasi ustida ishlash: mavzu bo'yicha ma'lumotlarni to'plash, tasniflash, tahlil qilish, qayta ishlash va umumlashtirish;

3. Art loyihasi mavzusidagi asosiy muammolarni aniqlash, tinglovchilar bilan muhokama qilish uchun muammoli masalalarni ishlab chiqish;

5. Badiiy loyiha tuzilmasini yaratish;

6. Chizma ishi uchun loyihalarini tanlash, qayta ishlash va tarkibini belgilash;

8. Badiiy loyihaning batafsil stsenariysini ishlab chiqish;

9. Badiiy loyihani elektron qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish: audio va video materiallarni tanlash, qayta ishlash va yaratish, taqdimotlar yaratish;

10. Kostyumlar va rekvizitlarni yaratish;

11. Chizmalarni darsda tarqatish va ularni o'rganish;

12. Chizmachilik kompozitsiyalari, miniatyuralar va boshqalarni tanlash va o'rganish;

13. Individual, tabaqalashtirilgan, guruhli va konsolidatsiyalangan badiiy loyiha mashqlari;

14. Badiiy loyiha uchun reklama yaratish (reklama plakatlari, bukletlar, kalendarlar);

15. O'quvchilar orasida badiiy loyihani amalga oshirish.

Ishning sanab o'tilgan bosqichlarining har biri o'quvchilarning kognitiv, raqamli va avtopsixologik kompetensiyalarni tashkil etuvchi ko'pchilik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi – kelajakdagi innovatsion turdagi o'qituvchining adaptiv modelining asosiy tarkibiy qismlari.

Chizmachilik loyihasi ustida ishlashning eng muhim bosqichi-bu "g'oyalarni yaratish" deb nomlanib, uning tuzilishi quriladigan asosiy muammolarni aniqlash, shuningdek, badiiy loyiha davomida tomoshabinlar bilan muhokama qilish uchun muammoli masalalarni ishlab chiqish (eng qiyin universal muammo odatda mini-munozara muammosiga aylanadi).

Chizma ishlarining ushbu bosqichi tanqidiy fikrlashni shakllantiradi – kognitiv kompetensiyaning eng muhim tarkibiy qismi. Tanqidiy fikrlash badiiy loyiha ustida ishlashning daslabki bosqichida, mavzu bo'yicha ma'lumotlarni to'plash, tasniflash, tahlil qilish, qayta ishlash va umumlashtirishda ham shakllanadi.

Chizma loyihalar ustida ishlashda o'quvchilarning kreativ, tizimli va strategik tafakkuri shakllanadi, bu ular uchun kognitiv kompetensiyaning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Badiiy loyiha-bu yangi bilimlarni taqdim etishning maxsus tizimi, yuqori axborot va hissiy to'yinganlik, boy semantik salohiyat va nisbiy aloqa erkinligiga ega bo'lgan o'ziga xos ta'lim va ta'lim muhitini shakllantirish. Tizimli va strategik fikrlash ko'nikmalari birinchi navbatda badiiy loyihaning tuzilishi va stsenariysini tuzishda rivojlanadi.

Kognitiv kompetensiyaning eng muhim tarkibiy qismi ijodiy fikrlashni shakllantirishdir. Badiiy dizayn har bir talabaning ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Badiiy loyihani yaratishda talabalar: manba matnlarini mo'ljallangan auditoriya uchun moslashtirishlari, badiiy loyiha uchun ssenariy tuzishlari mumkin.

Musavvirlik mahoratini namoyish etgan holda ma'lum bir minatyurani chizing, uni so'zda ta'riflang, aynan shu minatyurani kompyuter terxnologilarida ijro eting, kostyumlar va rekvizitlar yarating, AKT hamrohligini yarating, badiiy loyiha uchun reklama yarating, auditoriyani tashkil qiling (o'yinlar, kvestlar ishlab chiqing va o'tkazing), tomoshabinlar bilan muloqot qiling, dialog o'tkazing (mini- suhbatlar), ularning

nuqtai nazarini shakllantirish va bahslashish, mini-munozaralarni ishlab chiqish va o'tkazish va hokazo.

Chizmachilik darsining muhim shartlaridan biri dars davomida eng ijodkor talabalar o'qituvchi bilan hamkorlikda sketch, eskizlar va miniatyura va natryurmort uchun shablonlarni yaratish maqsadida ham ishtirok etishlari mumkin.

Kognitiv kompetentsiyaning yana bir komponenti-bu individual ta'lim traektoriyalarini loyihalash qobiliyatlari. Badiiy dizaynda talabalar 7-10 kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtirilgan, ularning har biri o'z badiiy loyihasi ustida ishlamoqda. Ish jarayonida har bir talaba "o'z xohishiga ko'ra" biznesni tanlashi mumkin, uning imkoniyatlari va qobiliyatlariga muvofiq har bir kishi umumiy ishga munosib hissa qo'shadi.

Katta sinflardagi chizmachilik darsi uchun loyihalar ustida ishlash jarayonida o'z-o'zini o'rganish va turli xil ishlarda o'zaro tayyorgarlik, o'zaro yordam, o'zaro yordam katta ahamiyatga ega. Ko'pgina o'quvchilar badiiy dizayndagi deyarli barcha zarur faoliyat turlarini o'zlashtiradilar.

Natijada talabalarning o'zlari guruhning har bir a'zosining badiiy loyihani yaratish va amalga oshirish bo'yicha jamoaviy ishlarga qo'shgan hissasini baholaydilar. Shunday qilib, badiiy dizayn talabalarning individual ta'lim traektoriyalarini, shu jumladan ushbu jarayonning o'zaro ta'sir, o'zaro yordam va aks ettirish kabi muhim bosqichlarini shakllantirish va amalga oshirishga imkon beradi.

Ushbu kompetensiya badiiy chizmalar ustida ishlash davomida shakllanadi. Bu badiiy dizaynning dastlabki bosqichida ham axborot loyihasini yaratishda (mavzu bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish, tasniflash, tahlil qilish, qayta ishlash va umumlashtirish), ham keyingi ishda - badiiy loyiha uchun AKT yordamini yaratishda (tizim) sodir bo'ladi. Talabalar tomonidan tez-tez suratga olinadigan va tahrir qilinadigan taqdimotlar va videolar ko'prik yordamida bo'ysunadi). Badiiy dizayn jarayonida AKTdan foydalanishning maqsadi xayoliy idrok orqali materialni chuqurroq idrok etishga erishish, uning hissiy ta'sirini kuchaytirish, "chizмага sho'ng'ishni" ni ta'minlashdir.

Dars birinchi navbatda texnik chizmalarni to'g'ri chizish usullari, shuningdek, chizma xo'jaligining barcha sohasini to'g'ri tashkil qilish haqidagi fan chizmachilik deyiladi degan ta'rif bilan boshlanadi.

Biz geometriya, proyeksiyon chizmachilik va qurilish chizmachilik bo'yicha o'quv chizmalarini bajarishda chizmachilikdagi innovatsion texnologiyalardan foydalanamiz.

Tomoshabinlar orasida chizmachilik loyihani amalga oshirishdan oldin talabalar auditoriyani jalb qilish va badiiy loyihaning eng faol tinglovchilari-ishtirokchilarini mukofotlash maqsadida reklama plakatlari, bukletlar, kalendarlar yaratadilar. Talabalarning loyihaviy muloqot qobiliyatlari onlayn jamoalarda ham rivojlanmoqda, chunki badiiy loyihalar ustida ishlash jarayoni nafaqat sinfda, balki ijodiy jamoa a'zolari va o'qituvchi o'rtasida doimiy muloqotni talab qiladi.

Ijodkorlik eng "muhim" faoliyatlardan biridir. Murakkab va uzoq muddatli loyiha faoliyati jarayonida o'zining jismoniy, psixofiziologik, kognitiv, hissiy, ixtiyoriy resurslarini (avtopsixologik kompetensiya) tartibga solish qobiliyati innovatsion turdagi bo'lajak o'qituvchini shakllantirishning muhim jihati hisoblanadi. Psixologiya asoslarini o'rganish davomida shaxs turlari va fikrlash uslublari, psixologik himoya mexanizmlari va nizolarda o'zini tutish strategiyalari to'g'risida olingan ma'lumotlar talabalarga badiiy loyihalarni tayyorlash va o'tkazish jarayonida ijobiy "o'z-o'zini imidjini" saqlashga yordam beradi.

O'quvchilarning jismoniy va psixofiziologik resurslarini boshqarish ko'nikmalarini oshirish uchun jamoani shakllantirish va ijodiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha treninglar o'tkaziladi. Hissiy va motivatsion-ixtiyoriy o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalari suhbatlar, rolli o'yinlar, chizmachilik loyihalarni tayyorlashning barcha bosqichlarini batafsil rejalashtirish orqali shakllanadi. Vaqt va badiiy kompozitsiyani boshqarish ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun ijtimoiy tarmoqlarda maxsus yaratilgan jamoalarda ("suhbatlar") tezkor hisobotlar tizimi qo'llaniladi, o'yinda "oqim faoliyati"ni qo'llab-quvvatlash mantiqqa erishadi (darajadagi yutuqlar mantig'i).

Avtotopsixologik (tartibga soluvchi) vakolat "raqamli chizmachilik"dan foydalanishni ham o'z ichiga oladi. Bu nafaqat darslar va mashg'ulotlar paytida gadgetlardan foydalanishni vaqtincha rad etish, balki talabalarning ishonchlilik va ilmiy ma'lumotlar nuqtai nazaridan tekshiriladigan Internet saytlarida tasdiqlangan ma'lumotlarni topish qobiliyatini shakllantirishdir. Umuman olganda, bo'lajak o'qituvchining avtopsixologik vakolatiga kiritilgan "kelajak ko'nikmalari" ustida ishlash talabaning o'zini o'zi bilishi va o'zini o'zi rivojlantirish jarayonlarini faollashtiradi.

Shunday qilib, umumta'lim maktabida badiiy dizayn innovatsion turdagi o'qituvchi shaxsini shakllantirishning samarali vositasidir. Chizma va chizma geometriyasi fanlarida grafik jarayonlarning yordamchi proektsiyasi, dizayn funktsiyalari va motivatsion-qiymat, amaliy-faoliyat, refleksiv-baholash komponentlari o'quv va kognitiv vazifalarning ijodiy yechimini topishga qaratilgan ijodiy faoliyatni maqbul qo'llab-quvvatlash mantig'iga ustuvor ahamiyat berish orqali aniqlanadi;

Yordamchi proektsion usullarni o'qitish orqali talabalarning ijodiy kompetentsiyasini rivojlantirish modeli individual xususiyatlarni maksimal darajada hisobga olish, ijodiy muhit barqarorligini ta'minlash, dialogik birgalikdagi faoliyatni tezlashtirish kabi uslubiy shartlarni qat'iy belgilaydigan texnologik tuzilmani

pedagogik loyihalash asosida takomillashtiriladi;

Chizmachilik va chizma geometriyasi fanlarida grafik jarayonlarning yordamchi proektsiyasi, dizayn funksiyalari va motivatsion-qiyamat, amaliy-faoliyat, reflektiv-baholash komponentlari o'quv va kognitiv vazifalarning ijodiy echimini topishga qaratilgan ijodiy faoliyatni maqbul qo'llab-quvvatlash mantig'iga ustuvor ahamiyat berish orqali aniqlanadi;

Yordamchi proyeksiya usullarini o'rgatish orqali talabalarning ijodiy kompetentsiyasini rivojlantirish modeli individual xususiyatlarni maksimal darajada hisobga olish, ijodiy muhit barqarorligini ta'minlash, dialogik birgalikdagi faoliyatni tezlashtirish kabi uslubiy shartlarni qat'iy belgilaydigan texnologik tuzilmaning pedagogik dizayni asosida takomillashtiriladi;

Chizmachilik va chizma geometriyasi fanlarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish metodologiyasi yordamchi proektsiyada zarur bo'ladigan elementlarni topishga qaratilgan evristik usullarning tashkiliy va texnik moyillik bilan qayta aloqa darajasini oshirish orqali yaxshilanadi (qurilish, proyeksiya, texnik-dizayn,) assotsiativ, intuitiv va mantiqiyga tayanib noma'lumni qidirishda asqotadi [3, 234].

Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmi talabning shaxsiy salohiyatini namoyon etishga qaratilgan subyekt-subyekt munosabatlari tizimining individual ta'lim traektoriyasi bilan reflektivlik holatini tizimli ravishda tuzatish bo'yicha kompozitsion-ijodiy faoliyatning ijobiy dinamikasini kengaytirish asosida takomillashtiriladi.

Muhokama. Fazoviy fikrlashni sifat jihatidan yangi darajada rivojlantirish muammosini zamonaviy kompyuter yordamida loyihalash tizimlari hal qilishi mumkin. Arxitektura va qurilish chizmalari san'at va grafika fakulteti talabalari tomonidan "chizmachilik va chizma geometriya asoslari" kursining oxirida o'rganilganligi sababli, ushbu kursning mantiqiy davomi, bizning fikrimizcha, ko'proq ko'rinishga ega bo'lgan grafik ma'lumotlarni namoyish qilishning kompyuter vositalarini o'rganishdir. dinamizm, turli xil tasvirlarni bajarishning yuqori tezligi, qulay va intuitiv grafik interfeysi.

A special influence on the formation of positive motivation is exerted by: the information saturation of the curriculum, its relationship with previously studied material, a clearly realized perspective of the educational work of future teachers, the use of the "success methodology", instilling in the student faith in their abilities and strength, the use of a rating system for assessing students' knowledge.

Chizmachilik darslarida ishlatiladigan zamonaviy dasturiy ta'minot.

Chizmachilik darslarida foydalanish uchun quyidagi dasturlardan foydalaniladi: Adobe Photoshop CC; MyPaint; DrawPlus; Clip Studio Paint; CorelDRAW; Affinity Designer; Autodesk Sketchbook; YouiDraw Drawing; MyBrushes Paint for Mac; Epic Pen; Flame Painter; ChemDoodle; Paintstorm Studio; MyPaint; Mischief; DrawPlus; Clip Studio Paint; Krita; MediBang Paint Pro; Procreate.

Ushbu keng spektrli dasturlardan tashqari, tor yo'naltirilgan dasturlar ham mavjud. Masalan, elektr zanjirlarini chizish uchun: DSSim-PC, sPlan, Circuit program, diagramma va mikrosxemalarni kompyuter yordamida loyihalash uchun — ExpressPCB.

Xulosa. Grafik faoliyatga ijobiy motivatsion munosabat tasviriy san'at ta'lim yo'nalishida dizaynga sezilarli turtki berishi mumkin. Shu bilan birga, chizmachilik fanida innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish motivatsiyasi o'quvchi yoshlarning butun o'quv jarayoniga ijobiy munosabati, barqaror ichki motivlar, belgilangan grafik vazifaga original yechim topishga bo'lgan ishtiyoq bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR

H.W. Janson. History of Art (Hardcover) by H.W. Janson. Princeton University press. 236 P.

E.H. Gombrich. The Story of Art. Englewood Cliffs. New York, 2012, P. 346.

Betty Edwards. The New Drawing on the Right Side of the Brain. Redhouse Publishing house. Auckland, P. 248.

Austin Kleon. Steal Like an Artist: 10 Things Nobody Told You About Being Creative.

5. Н.Ж.Ёдгоров. Аxborot-kommunikatsiya texnologiyalari chizmachilik ta'limida.<http://uz.infocom.uz/2010/01/15/axborot-kommunikatsiya-texnologiyalari-chizmachilik-talimida/>

6. Маматов Д.К., Собирова Ш.У Особенности организации самостоятельной работы студентов Педагогические науки

<http://wwenews.esrae.ru/pdf/2015/1/62.pdf>

7. Маматов Д.К. Организация самостоятельной работы студентов первая международная научно-методическая конференция междисциплинарные исследования в науке и образовании <http://man-ua.edukit.kiev.ua/Files/downloads/%D0%9F%D0%9D-%D0%A1%D0%B1%D0%A2-14-09-2012.pdf#page=183>

8. Маматов Д. К. Роль компьютерной графики в развитии космического воображения студентов //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99).

9. Маматов Д. К. Индивидуально-психологические детерминанты эффективной управленческой деятельности// Наука. Мысль: электронный периодический журнал. – 2016. – №. 9.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA TA'LIM

Mardanov Arslan Pardaevich,
Toshkent davlat texnika universiteti, O'zbekiston

Annotatsiya. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etmoqda. Axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Ilgari ta'lim dasturlari an'anaviy usuli ya'ni ma'ruzani yirik xajmli kitoblar va qollanmalar orqali amalga oshirilgan shaklida olib borilardi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining u qadar yuqori bo'lishini ta'minlamagan. Hozirda ta'lim sifatini ko'tarishda ta'limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, bulutli texnologiyalar, ta'limda raqamli texnologiya

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ОБРАЗОВАНИЕ

Марданов Арслан Пардаевич,
Ташкентский государственный технический университет, Узбекистан

Аннотация. Сегодня цифровые технологии стремительно развиваются и требуют идти в ногу со временем во всех сферах. Использование цифровых технологий в системе образования имеет большое значение в повышении качества образования и воспитании социально активной молодежи в современную эпоху, когда скорость получения и использования информации очень высока. Раньше образовательные программы проводились традиционным способом, то есть с использованием лекций по большим книгам и пособиям. Это, в свою очередь, не гарантировало столь высокого качества образования. В настоящее время процесс цифровизации образования начал улучшать качество образования.

Ключевые слова: цифровые технологии, облачные технологии, цифровые технологии в образовании.

DIGITAL TECHNOLOGY AND EDUCATION

Mardanov Arslan Pardaevich,
Tashkent State Technical University, Uzbekistan

Aabstract. Today, digital technologies are rapidly developing and require keeping up with the times in all areas. The use of digital technologies in the education system is of great importance in improving the quality of education and raising socially active youth in the modern era, when the speed of obtaining and using information is very high. Previously, educational programs were conducted in the traditional way, that is, using lectures on large books and manuals. This, in turn, did not guarantee such a high quality of education. Currently, the process of digitalization of education has begun to improve the quality of education.

Keywords: digital technologies, cloud technologies, digital technologies in education.

KIRISH. Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyani o'zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: bu – xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib. unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy ho'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni. masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin. [1]

ASOSIY QISM. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, zamonaviy mehnat bozorining o'zgaruvchan talablari munosabati bilan bugungi kunda ta'lim sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasi dolzarblashtirilmoqda. Zamonaviy ish beruvchilar kasbiy faoliyatda elektron texnologiyalardan foydalanishni yaxshi biladigan mutaxassislariga muhtoj. Raqamli texnologiyalar jamiyatning ajralmas qismi bo'lib,

mutaxassislarining malakasini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Raqamli texnologiyalar vaqtni tejaydi va bilimlarni baholash jarayonini soddalashtiradi. Raqamli texnologiya yordamida o'qituvchilar o'quvchilarning ishini tezroq tekshirib, baholaydilar, bu esa ularga o'qitishning boshqa jihatlariga e'tibor qaratish imkonini beradi. O'quv platformalarida javoblarni avtomatik tekshirish bilan testlar mavjud. Talaba o'ziga qulay vaqtda shunday test topshirishi, natijalarini bilib olishi va xatolarini saralashi mumkin. Ta'lim jarayonida fikr-mulohazalarning ahamiyati haqidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, darhol natijalar talabani diqqatini va qiziqishini ushlab turishga yordam beradi, bir necha kun davom etadigan tekshirish esa o'quvchining noto'g'ri javoblarni tekshirishga bo'lgan qiziqishini kamaytirishi mumkin.

Muammoni umumiy ma'noda bayon qilish va uning muhim ilmiy va amaliy muammolar bilan bog'lanishi.

Ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish kasbiy ta'limning yetakchi maqsadi bo'lib, bu talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lish yo'lida raqobatbardosh fazilatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu munosabat bilan o'qituvchining markaziy vazifasi o'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi. [2]

Keyingi raqamli ta'lim texnologiyasi talabalarga masofadan turib foydalanish uchun taqdim etiladigan onlayn kurslardir. [3] Ushbu texnologiyaning o'ziga xos xususiyati va afzalligi uning shaxsiyatga yo'naltirilganligidir. O'qitish talaba uchun qulay bo'lgan istalgan vaqtda amalga oshiriladi, bu sizga talaba uchun eng qulay shaklda turli yo'nalishlarda malakali ta'lim olish imkonini beradi.

Onlayn ta'lim sinxron va asinxron ta'lim kabi ikki shaklda amalga oshirilishi mumkin. Sinxron ta'lim o'qituvchi va talabani ma'lum bir vaqtda o'qitishni o'z ichiga oladi, asinxron ta'lim esa talabani unga qulay bo'lgan istalgan vaqtda o'qitishni anglatadi, ya'ni, o'qituvchi kursni ishlab chiqadi va uni Internet platformasiga joylashtiradi, talabalar esa taqdim etilgan material bilan tanishadilar va topshiriqlarni bajaradilar.

Bu texnologiyaning afzalligi shundaki, o'quvchilar o'zlarining individual imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'rganilayotgan materialni tushunish va yodlash uchun zarur bo'lgan vaqtni o'rganishga qancha vaqt ajratishi mumkin, shuningdek, mavzuni qayta ko'rib chiqish uchun istalgan vaqtda o'tgan materialga qaytishi mumkin. [4] Didaktik maqsadlarda raqamli texnologiya «o'yinlashtirish» qo'llaniladi, uning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quv materiali o'qituvchi tomonidan an'anaviy ma'ruzalarda eshittirilmaydi, balki talabalar tomonidan mustaqil ravishda olinadi. [5] Internet resurslaridan foydalangan holda rolli o'yinni tashkil qilish bilan muammoli vazifalar to'plamiga asoslangan raqamli veb-kvest texnologiyasidan foydalanish. [6] Veb-kvest - bu muammoni noaniq hal qilishni o'z ichiga olgan o'quv fanining turli muammolarini qamrab oluvchi o'quv jarayonini tashkil etishning innovatsion texnologiyasi. Bu texnologiya o'quvchilarning mustaqilligini, ijodiy qobiliyatlarini va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, o'quvchilarning ishtiyoqini oshirish va ta'lim yutuqlarini oshirish vazifasini qo'yadi. [7] Shunday qilib, bu texnologiya inklyuzivga asoslangan ta'lim, bunda o'quv jarayonining har bir sub'ekti shaxsiy texnik vositalardan, masalan, planshet, kompyuter, noutbuk, smartfon va boshqalardan foydalanish imkoniyatiga ega. [8-9] Ta'lim sohasidagi barcha raqamli texnologiyalar bir qator funksiyalarni bajaradi, ularning asosiylari ta'lim, boshqaruv va aloqadir. Ta'lim o'quv amaliyotlarini aniqlash, ishlab chiqish, tahlil qilish, efirga uzatish, talabalar va o'qituvchilarni masofadan o'qitish orqali elektron ta'limni tashkil qilishni o'z ichiga oladi. [10]

Interaktivlik o'quvchining ehtiyojlariga muvofiq tegishli ma'lumotlarni taqdim etishni o'z ichiga oladi. Interfaollik ma'lum darajada ma'lumotlar taqdimotini nazorat qilish imkonini beradi: talabalar dasturda ko'rsatilgan sozlamalarni individual ravishda o'zgartirishi, natijalarni o'rganishi, foydalanuvchining ma'lum bir istagi bo'yicha dastur so'roviga javob berishi, materialni taqdim etish tezligini va takrorlashlar soni. Ammo multimediyadan foydalanishda bir qator jihatlarni hisobga olish kerak. Multimediyada taqdim etilgan o'quv materiali tushunarli bo'lishi, zamonaviy ma'lumotlar va qulay vositalar yordamida taqdim etilishi kerak. Multimedia texnologiyalarining barcha imkoniyatlarini to'liq ochib berish va ulardan samarali foydalanish uchun talabalar malakali o'qituvchining yordamiga muhtoj bo'ladi. Darsliklardan foydalanishda bo'lgani kabi, multimediyadan foydalanganda ham o'qitish strategiyasini mazmun bilan boyitish mumkin, agar o'quv jarayonida o'qituvchi nafaqat ma'lumot berish, balki talabalarning o'quv jarayonini osonlashtirish, qo'llab-quvvatlash va boshqarish bilan shug'ullansa bu yanada samaraliroq bo'ladi. [11]

XULOSA

Raqamli texnologiyalar hozirgi maktab o'quvchilarini dastlab qiziqish uyg'otmagan yoki ular uchun juda qiyin bo'lib tuyulgan fanlarga jalb qilishi mumkin. Ushbu texnologiyalar o'qitishning yangi usullarini joriy etish va maktab o'quvchilarining afzalliklariga e'tibor qaratish imkonini beradi, bu esa orqada qolgan o'quvchilarni jalb qilishga yordam beradi va ularning ta'lim natijalarini yaxshilaydi. Moslashuvchan va interaktiv ta'lim materialni o'zlashtirishning eng yuqori darajasiga erishish imkonini beradi. [12] Shunday qilib, ta'lim yangi bosqichga ko'tarilmoqda, bu erda nafaqat dastur talablarini bajarish, balki o'quvchilarning qiziqishlari va individual qobiliyatlarini hisobga olish ham ustuvor vazifadir. Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va bilimlarni eng tuzilgan va tushunarli shaklda

олиш uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Afzalliklar orasida qog'ozbozlikni minimallashtirish, o'qitish va talabalarni o'rganishni soddalashtirish kiradi. Talabalar amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'limni bilimlarning ochiqligi bilan tavsiflangan sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi. [13]

Bundan tashqari, maktab o'quv jarayonida gadgetlardan foydalanish o'quvchilarda raqamli savodxonlikni rivojlantirishga yordam beradi - bu keyingi hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan XXI asrning asosiy kompetensiyalaridan biridir. [12]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

<https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-texnologiyalarining-ta-lim-sohasida-qo-llanilishi> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM SOHASIDA QO'LLANILISHI – тема научной статьи по наукам о Земле и смежным экологическим наукам читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка

Блинов В.И. Образовательный процесс в профессиональном образовании: учебное пособие для вузов / В. И. Блинов [и др.]; под общей редакцией В. И. Блинова. — Москва: Издательство Юрайт, 2018.

Муравьева Г.Е. Проектирование технологий обучения: Учеб. пособие для студентов и преподавателей пед. вузов, слушателей и преподавателей курсов повышения квалификации учителей / Г.Е. Муравьева. - Иваново, 2001. 123 с.

Борытко Н.М., Соловцова И.А., Байбаков А.М. Педагогические технологии: Учебник для студентов педагогических вузов / Н. М. Борытко, И. А. Соловцова, А. М. Байбаков. Под ред. Н. М. Борытко. — Волгоград: Изд-во ВГИПКРО, 2006. 59 с.

Ваганова О.И., Пирогова А.А., Прохорова М.П. Инновационные технологии в инклюзивном образовании//Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования. 2018. № 6 (32). С. 36-40.

Мальцева С.М., Ваганова О.И., Алешугина Е.А. Технология разработки электронного учебно-методического комплекса по дисциплине «Педагогические технологии» //Инновации в образовании. 2019. № 6. С. 103-109.

Ваганова О.И., Иляшенко Л.К., Белоусова Г.А. Современные технологии профориентационной деятельности в системе высшего образования //Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал). 2018. Т. 9. № 5-2. С. 45-48.

Макарова Е.Л., Пугач О.И. Особенности разработки и внедрения курсов образовательной области «математика» в системы дистанционного обучения // Самарский научный вестник. 2016. № 2 (15). С. 165-171.

Итинсон К.С. Массовые открытые онлайн курсы и их влияние на высшее образование // Карельский научный журнал. 2019. Т. 8. № 3 (28). С. 15-17.

Yarmolchuk T.M. Synchronous and asynchronous online tools, learning a foreign language in the process of professional training of specialists in information technology // Хуманитарни Балкански изследвания. 2018. № 1. С. 75-79.

ПРИМЕНЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ – тема научной статьи по наукам об образовании читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка <https://cyberleninka.ru/article/n/primenenie-tsifrovyyh-tehnologiy-v-obrazovanii>

Цифровые технологии в образовании: как современные инструменты помогают учителям – Институт образования – Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики» <https://ioe.hse.ru/digitalineducation>

Прохорова М.П., Бушуева В.В., Ваганова О.И. Практико-ориентированные технологии формирования профессиональных компетенций студентов вуза//Проблемы современного педагогического образования. 2017. № 56-8. С. 193-199.

ГРАФИК ТА'ЛИМ ЖАРAYONIDA BO'LAJAK MUHANDIS-QURUVCHILARNING DIZAYN FIKRLASHINI OSHIRISHDA GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Mardov Sanjar Xudoykulovich
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti(PhD)

Annotatsiya- oliy ta'lim maskanidagi grafik ta'lim jarayonida bo'lajak muhandis-quruvchilarning grafik madaniyatini, shuningdek, shaxsning ijodiy salohiyatini shakllantirishga qaratilgan. Bu jabhada ko'plab samarali ishlar, hususan qurilish chizmachiligi fanini o'qitishda ham zamonaviy grafik dasturlardan foydalanib ta'lim samaradorligiga erishilmoqda. Qurilish chizmachiligi fanining mvzularini yoritishda arxitektura sohasiga mo'ljallangan grafik dasturlar orasidan BIM dasturi ayniqsa ancha mukammal bo'lib mavzu mohiyatini yoritishda talabalarning ko'z o'ngida chizmalarning uch o'lchamli holatiga o'tish samarali usul hisoblanadi. Shu sababli ushbu fanning to'la mohiyatini yoritishda grafik dasturlarning amali ahamiyatiga ularning tavsiflari alohida o'rin oladi.

Kalit so'zlar – grafik ta'lim, qurilish chizmachiligi, grafik dasturlar, grafika, axborot-kommunikatsiya, dizayn fikrlash, fazoviy tasavvur, arxitektura, chizma, didaktika, muhandislik grafikasi.

МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГРАФИЧЕСКИХ ПРОГРАММ ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДИЗАЙНСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ-СТРОИТЕЛЕЙ В ПРОЦЕССЕ ГРАФИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Мардов Санжар Худойкулович
Ташкентский архитектурно-строительный университет (PhD)

Аннотация - в процессе графического образования по месту высшего образования направлено на формирование графической культуры будущих инженеров-строителей, а также творческого потенциала личности. На этом направлении имеется много эффективных работ, особенно при обучении строительному черчению, эффективность обучения достигается с использованием современных графических программ. Программа BIM особенно идеальна среди графических программ для области архитектуры при объяснении тем строительного чертежа и является эффективным способом изменения трехмерного состояния чертежей на глазах у студентов. По этой причине использование графических программ и их описаний занимают особое место в выяснении всей сущности этой науки.

Ключевые слова - графическое образование, строительный рисунок, графические программы, графика, информация и связь, дизайн-мышление, пространственное воображение, архитектура, черчение, дидактика, инженерная графика.

METHODOLOGY OF USING GRAPHIC PROGRAMS FOR IMPROVING DESIGN THINKING OF FUTURE ENGINEERS-BUILDERS IN THE PROCESS OF GRAPHIC EDUCATION

Mardov Sanjar Khudoykulovich
Tashkent University of Architecture and Construction (PhD)

Abstract - in the process of graphic education at a place of higher education, it is aimed at forming the graphic culture of future engineers-builders, as well as the creative potential of an individual. There are many effective works on this front, especially in the teaching of construction drawing, educational efficiency is achieved using modern graphic software. The BIM program is particularly perfect among the graphic programs for the field of architecture in explaining the topics of construction drawing, and it is an effective way to change the three-dimensional state of the drawings in front of the eyes of the students. For this reason, the use of graphic programs and their descriptions take a special place in elucidating the full essence of this science.

Key words - graphic education, construction drawing, graphic programs, graphics, information and communication, design thinking, spatial imagination, architecture, drawing, didactics, engineering graphics.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida «uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish» ustuvor vazifasi belgilangan. Mazkur vazifani amalga oshirishda arxitektura sohasidagi oliy ta'lim muassasalari bo'lajak muhandis-quruvchilarning loyihalash malakalarini rivojlantirishda ularning fazoviy tasavuri, ijodiy faolligi, sohaga oid amaliy masalalarni loyihalash ko'nikmalari asosiy omil bo'lib bu sifatlar grafik ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak muhandis-quruvchilar kompyuterdan keng foydalana olishi jamiyatda fan- texnika

taraqqiyotining jadallashishi va shu asosda ijtimoy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish uchun xizmat qiladi. «O‘qitishning zamonaviy shakllari va metodlarini, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish, oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-laboratoriya anjomlari va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, oliy ta’lim muassasalarining zamonaviy ilmiy laboratoriyalarini tashkil etish va rivojlantirish choralari ko‘rish asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy mobilligi va kreativligini namoyon eta olish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish lozimligini ifodalaydi.

Inson faoliyatining barcha sohalarini kompyuterlashtirish, ko‘p asrlik pedagogik texnologiyalarning o‘zgarishiga olib keldi. O‘qitishning yangi vositalari pedagogika fanining asosiy masalalarini qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi: jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida oliy ta’lim tizimida kimlar o‘qitilishi, ta’lim mazmuni qanday bo‘lishi, oliy ta’lim mutaxassis tayyorlash uchun asos sifatida qanday shakl va usullardan foydalanish kerak.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, muhandislik kompyuter grafikasi fanining mazmunini qayta ko‘rib chiqish, shu fanni o‘qitishdagi dolzarb muammolardan biri deb hisoblaymiz. Muhandislik kompyuter grafikasi fanining mazmunini qayta tuzishda bugungi kundagi ilm-fan va texnika sohalarining yutuqlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

O‘qitish tamoyillari muammolariga qaratilgan tadqiqotlar analizi, barcha fanlar uchun umumiy bo‘lgan didaktik tamoyillarni ajratib olish imkonini beradi. Barcha tadqiqotchilar didaktik tamoyillarning nomenklaturasiga kelganda bir xil to‘xtamga kelishadi. Ammo bu tamoyillarning mazmunini turlicha talqin qilishadi. Bunday tamoyillarga quyidagilar kiradi:

- ta’lim va tarbiya tamoyili;
- nazariyani amaliyot bilan bog‘liqlik tamoyili;
- ilmiylik tamoyili;
- tushunarliklik tamoyili;
- muvofiqlik va izchillik tamoyili;
- onglilik va ijodiy faoliyat tamoyili;
- ko‘rgazmalilik tamoyili;
- o‘quvnatijalarining mustahkamligi va bilish qobiliyatini rivojlantirish tamoyili;
- bilim oluvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish va ta’limning kollektivligi tamoyili;
- ta’limning ijobiy hissiyligi tamoyili;
- bo‘ljak-muhandis quruvchilarda dizayn fikrlashni rivojlantirishda grafik ta’lim jarayonini takomillashtirish tamoyili.

Agar ta’limning mazmun va protsessual taraflarini ikkiga ajratsak, unda an’anaviy didaktik tamoyillarni shartli ravishda shu ikki guruhga ajratish mumkin. Didaktik tamoyillarni bunday ko‘rinishda ajratishning shartlilikligi ularning o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro bog‘liqligi bilan tasniflanadi.

Misol sifatida ta’limning ta’lim, tarbiya va rivojlantirish jarayonlarini ajratishning shartlilikligini keltiramiz.

Ta’limning mazmun tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- ilmiylik tamoyili;
- tushunarliklik tamoyili;
- izchillik tamoyili;
- uzluksizlik tamoyili;
- uzviylik tamoyili;
- nazariyani amaliyot bilan bog‘liqlik tamoyili;
- davomiylik tamoyili. Mazmuni tanlash tamoyillari:

Ilmiylik tamoyili. M.D.Dammer ilmiylik tamoyilining mazmuni rivojlanishini ko‘rsatib berdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu tamoyilning mazmuni birinchi 1950 yilda M.N.Skatkin tomonidan sakkiz talab shaklida ko‘rsatilgan:

- talabalarga yetkaziladigan ma’lumotlarning ilmiy ishonchlilikligi;
- tasvirlanayotgan hodisalarning mohiyatini ochish;
- hodisalarni ularning o‘zaro bog‘liqligida ko‘rsatish;
- hodisalarni rivojlanish davaburivojlanishning keskin xususiyatini ko‘rsatish;
- bilim oluvchilarni hodisalarni to‘g‘ri dialektik-materialistik tushuntirib beruvchi eng muhim nazariyalar bilan tanishtirish;
- bilim oluvchilarda dunyoni bilish va inson aqlining kuchi haqida to‘g‘ri tasavvurlarni yaratish;
- talabalarda mutlaq va nisbiy haqiqat haqidagi to‘g‘ri fikrlarini yaratish;
- talabalarni ilmiy tadqiqot usullari bilan tanishtirish.

Biz Z.K.Meretukova va A.R.Chinazirovalarning fikriga qo‘shilamiz. Ular «ta’limda ilmiylik tamoyili ta’limning tarkibiy qismida «ilmiy plyuralizm» borligi faktini inobatga olishi kerak. Bitta ilmiy muammoga

turlicha yondashuv talabalarining fikrlash doirasini oshirishga, ularni haqiqatni qidirishga undaydi» deyilar.

G.M.Chernobelskaning qarashlarini sitatasining oxirgi so'zlaridan anglash mumkin: «Mazmunning ilmiyligiga talabalarga faqat tayyor bilimlarni berish bilan emas, balki ularni ilmiy izlanish metodlari bilan ham tanishtirish yo'li bilan erishiladi».

Tushunarlik tamoyili. O'qitishning eng muhim tamoyili tushunarlik tamoyilidir. Yangi materialni o'rganishda talabalar birinchidan axborot mazmuni, ikkinchidan, uni taqdim etish uslubi bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch keladilar. Birinchi turdagi qiyinchiliklar talabaning tezaurusi bilan bog'liq. Ya'ni talabaning olamni anglashi namoyon bo'ladigan o'zaro aloqador tasavvurlar tizimi bilan bog'liq. Bu kabi qiyinchiliklar tezaurusli axborot bar'eri nomini olgan. Barcha talabalarining tezauruslari turlicha bo'lib, bir talaba duch kelayotgan axborot bar'eriga ikkinchi talaba ham duch keladi degani emas.

Oliy ta'limda tushunarlik tamoyili O.V.Romanovanning ishlarida tadqiq etilgan. Yangi axborot muhitining o'quv jarayoniga ta'sirini tekshirar ekan, muallif ta'lim jarayoni «katta hajmdagi axborotni talabalar jahon axborot maydonidan va mustaqil qabul qilishini hisobga olishi kerak. Tamoyilning an'anaviy tuzilishi kengayib bormoqda. Talabalar oladigan va bilimga aylantiradigan ma'lumotlar shubhasiz ilmiy bo'lishi kerak, shuning uchun talabalar haqiqiy ilmiy bilimlarni psevd-ilmiy bilimlardan farqlay olishlari kerak», degan xulosaga keladi.

Nazariyani amaliyot bilan bog'liqlik tamoyili. «Ushbu tamoyil quyidagi qoidalarga asoslanadi: o'qitish amaliyotida talabalarining o'z ijtimoiy tajribasini hisobga olish kerak; o'quv jarayonini talabalar uchun (ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy) muhim muammolarni hal qilish uchun yo'naltirish; milliy iqtisodiyotda sanoat mehnati bilan o'qitishning yaqin aloqasi; ommaviy axborot vositalari, davriy materiallar».

Izchillik tamoyili. Ye.V.Eliseeva zamonaviy sharoitlarda mazmunni tanlashning yetakchi tamoyili izchillik tamoyili bo'lishi kerak deb hisoblaydi: «o'zaro bog'liq o'quv ma'lumotlarni pedagogik asoslangan tizim ko'rishini taminlaydi». Izchillik tamoyili, mazmunni ishlab chiquvchidan fanning mazmuniga shu fanning barcha konseptual tizimlariga kiritilgan va uning mohiyatini yorituvchi o'quv bilimlarni kiritishni talab qiladi.

Mazmunni tuzish tamoyillari:

Uzluksizlik tamoyili. I.P.Podlasiy «ta'lim jarayoni alohida qadamlardan iborat, agar u tanaffuslarsiz, uzluksizlikning buzilishsiz, boshqarib bo'lmaydigan vaziyatlarsiz davom etsa, ko'proq muvaffaqiyatga erishtiradi. Agar ko'nikmalarni muntazam mashqlantirib turmasa, ular yo'qolib boradi» deb yozadi.

Uzviylik tamoyili. Uzluksizlik va uzviylik tamoyillari tushunchalari L.V.Zagrekova va V.V.Nikolinalarning «Didaktika»sida yoritilgan: «Uzluksizlik va uzviylik tamoyillari o'quv materialining mazmunini tizimda ma'lum ketma-ketlikda va mantiqiy o'zaro bog'liqlikda berilishini talab qiladi. Bunda ma'lumotlar oldingisiga tayanadi va yangi ma'lumotni o'zlashtirishga tayyorlanadi.

Davomiylik tamoyili. Ta'lim mazmunini tuzish uchun ko'rib chiqilgan tamoyillar davomiylik tamoyili bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u mazmun tuzuvchilarni bo'limlararo va fanlararo munosabatlarni hisobga olishga yo'naltiradi. «Ta'lim muhitini to'ldirib yuborgan fanlararo bog'liqlikning haddan tashqari ko'pligi pedagogga bo'lgan talabni oshirib yubordi».

Arxitektura qurilish sohasidagi fanlarni o'qitishni zamon talablari darajasiga yetkazish uchun fan dasturida ko'rsatilgan mavzular bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va ularni multimedialli kompyuter texnologiyalari yordamida qayta ishlash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llanilishi pedagogik texnologiyalarni inkor etmagan holatda parallel olib borilishi maqsadga muvofiq. Zero, shunday yondashuv grafik materiallarni samarali o'zlashtirilishida kutilgan natijani beradi. Ayniqsa qurilish chizmachiligi fanini o'qitishda grafik dasturlardan foydalanish kutilgan natijaga olib boradigan yagona yo'l desak mubolag'a bo'lmaydi. Fanning nomini o'zi ham grafik dasturlar yordamida o'qitilishni talab etadi. Hozirgi kunga qadar qurilish chizmachiligini grafik dasturlar bilan uyg'un holda olib borilmaslikka asosiy sabablardan grafik dasturlarni biladigan o'qituvchilarning yetishmasligi va o'quv honalarining talab darajasida emasligi edi. Lekin hozirgi rivojlangan davrda grafik dasturlardan foydalanmay darslar tashkil etilishi zamonaviy ta'lim standartlariga mutlaqo to'g'ri kelmaydi.

«Qurilish chizmachiligi» fanini o'qitishda mavzularni bir-biriga bog'lanishi ularning uzviyligini ta'minlash, o'qitishning eng zamonaviy usul va vositalaridan foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. O'rganilayotgan fanning barcha mavzulari bir-biri uchun poydevor vazifasini o'taydi. Bu esa o'qituvchidan o'z ustida tinimsiz ishlashni talab etadi, sababi qurilish chizmachiligi o'zgarishlar bilan hamohang yuradi. Dastlab shu talablarga mos o'qituvchilarning tayyorgarligi ya'na bir muhim dolzarb muammo hisoblanadi.

«Qurilish chizmachiligi» fanini o'qitishda o'quv rejadan kelib chiqqan holda fan dasturi ishlab chiqishda mavzularga oid ma'lumotlarni umumlashtirish hamda ularni tahlil etish zarur.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining boy imkoniyatlaridan foydalanib qaytadan chizmalarni

chizish, ularga animatsiyalar berish, multimediali holatga keltirish lozim. Ayniqsa, multimediali ko‘rinishdagi chizmalar talabalarning diqqat-e’tiborini o‘ziga tortishi natijasida ularning fanga bo‘lgan munosabatlari o‘zgaradi. Bundan tashqari talabalarda shu chizma haqida to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish imkoniyati yaratiladi. Kompyuter grafikasiga tegishli bo‘lgan zamonaviy dasturiy vositalar ArchiCAD, AutoCAD, 3dMax va boshqa dasturlar fanni o‘qitishda o‘qituvchi uchun yordamchi bo‘lib xizmat qilsa, bilimlarni o‘zlashtirayotgan talabalar uchun fanning ma’no mazmunini tushunishga, fazoviy tasavvuri, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishiga, fanni o‘zlashtirish ko‘rsatkichini yaxshilashga olib keladi. To‘plangan ma’lumotlarni qayta ishlashda kompyuter grafikasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Kompyuter grafikasi murakkab sintetik resurslar qatoriga kiradi. U muhandisga innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishga yordam beruvchi zamonaviy qurilma va texnologik yechimlar bilan grafikani birlashishi natijasida paydo bo‘ldi va rivojlandi.

Uch o‘lchovli modellashtirish – bu konstruktorning g‘oyalarini kompyuter ekranida hayratlanarli darajada haqiqiy va ishonchli tasvirlarda mujassamlovchi olamga sayohatdir. Xuddi qo‘lingizni cho‘zsangiz, hozirgina tasavvuringizdagina mavjud bo‘lgan narsaga tega olasiz.

3D modellashtirish tizimlarida uch o‘lchamli model odatda monitor ekranida ixtiyoriy parallel proeksiya (aksonometriya) sifatida namoyon bo‘ladi. Standart ko‘rinishlar tegishli panelda aks ettiriladi va ortogonal va standart izometrik proeksiyalarni o‘z ichiga oladi. 3D modeldan ortogonal proeksiyalarni avtomatik ravishda yaratish uchun T-VIEW va T-DRAW buyruqlaridan foydalaniladi. Shu tariqa chizma geometriyaning bevosita, fazoviy jism (3D model) asosida uning tekislikdagi (monitor ekranidagi) geometrik tasvirini qurish vazifasi amalga oshiriladi.

Geometrik modellashtirishning tarkibiy tuzilishi quyidagi 4 ta komponentlarni o‘z ichiga oladi:

Asl nusxa yoki modellashtirish ob’ekti. Uch o‘lchamli fazoni modellashtirishda monitor ekranida ortogonal proeksiyalar, aksonometriya, perspektiva va sonli belgili proeksiyalar olinadi. Bundan tashqari, modellashtirish ob’ektlari har qanday boshqa zamonaviy ilm-fan uchun dolzarb va hali hal etilmagan muammo bo‘lgan ko‘p o‘lchovli va noxiziqli modellar bo‘lishi mumkin.

Model maydoni – bu tasvirlanayotgan modelning tashuvchisi. Odatda, bu monitor ekrani, ammo modelni tasvirlash uchun boshqa usullardan ham foydalanish mumkin.

Modellashtirish apparati 3D modellarni berilish usullarini aniqlaydi.

Ular:

- analitik;
- kinematik;
- konstruktiv;
- parametrli;
- aralash usullar.

Modellarkarkasli, sirtlivaqattiqholatdagimodellarga bo‘linadi.

Kompyuter grafik dasturlar yordamida yaratilgan 3D chizmaning video orqali namoyish etilishi uni talabalar ko‘z oldida real hayotdagidek ko‘rsatib beradi va talabalar uchun tushunarli bo‘lib, ularning fazoviy tasavvurlarini rivojlantiradi. Sababi talabalarda fazoviy tasavvur rivojlanishi fanni tushunishiga olib keladi. Zero, qurilish chizmachiligiga oid materiallarni o‘zlashtirishda fazoviy tasavvur muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun talaba fazoviy tasavvurga ega bo‘lsagina fan bo‘yicha topshiriqlarni bajara oladi.

BIM dasturlarida modellashtirish imkoniyatlari kengaytirib berilgan bo‘lib, unda bino modellarini yaratish qulaydir. Tasvirlar, ko‘rinishlar, qirqimlar, zinalar, tom yopmalar, uzellar, konstruksiyalar, smeta ishlari va shu kabi mavzularni yoritishda foydalanish talabalar fazoviy tasavvuri, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladi.

Fan o‘qituvchisi mavzularga oid loyiha ishlarini BIM dasturlarida yaratib, ularni dars jarayonida qo‘llashi mumkin. Yaratilgan modellarni BIM dasturlarining keng imkoniyatlaridan foydalanib turli tomonlaridan ko‘rish, qirqim berish, model rangini o‘zgartirish, avtomatik tarzda o‘lchamlarini qo‘yish va shu kabi ko‘plab imkoniyatlaridan unumli foydalanishi mumkin.

Eng asosiy talab o‘qituvchi kompyuter grafikasini bilishidir, ya’ni u berilayotgan materialning mazmuni va mohiyati, murakkablik darajasi, didaktik vazifalarlarga ko‘ra grafikaviy dasturlarni tanlab olishi lozim bo‘ladi.

Biz qurilish chizmachiligu fani bo‘yicha talaba:

- kompyuter grafikasining tarixini;
- kompyuter grafikasi bo‘limlarini;
- konstruktorlik grafikasi bo‘limini tashkil etuvchi tizimlar (CAD, CAM, CAE)ni;

CAD tizimida ishlovchi grafik dasturlar vaularning ishlash tamoyillarini;
elektron tasvirning formatlari;
chizma bajarish uchun qo'llaniladigan uskunalarning panellarini;
buyumning fazoviy holatini asosida uning chizmasini olish algoritmlarini bilishi kerak;
ikki va uch o'lchamli grafik yaratish uchun mo'ljallangan uskunalarning panelini tahlil qilish;
berilgan uch o'lchamli detalning ikki o'lchamli chizmasini chizish;
detalning ikki o'lchamli chizmasi asosida uning uch o'lchamli modelini qurish;
tekislikda va fazoda geometrik modellarni loyihalashning optimal algoritmlarini aniqlash;
tekislikda va fazoda murakkab chizma va shakllarni yaratish;
chizmani taxt qilish va chop etish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak;
murakkab shaklga ega buyumlarni analiz qilish;
chizmani qo'lda (chizma qurollari yordamida) va CAD dasturi yordamida bajarishni taqqoslash;
ikki va undan ortiq CAD dasturlarini o'zaro taqqoslash;
CAD dasturlarining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash;
yangi CAD dasturlarini mustaqil o'zlashtirish malakasiga ega bo'lishi kerak deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mardov, S. X. (2021, November). Modern Electronic Methods of Controlling Students' Knowledge in the Field of Construction Drawing. In « ONLINE-CONFERENCES» PLATFORM (pp. 18-26).
2. Xudoykulovich, M. S., & Saidaxatovna, R. F. (2021). Xasanboy o'g'li NA Evristic teaching technology and its practical application which in the teaching of draftsmanship. Middle European Scientific Bulletin, 12, 458-462.
3. Khudoykulovich, M. S. kizi, FZX. (2021). Content of the Science of Architecture Construction and Its Current Status of Teaching. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 1(7), 106-114.
4. Xudoykulovich, M. S., & Qizi, F. Z. H. (2021). Methods of using graphic programs in the field of construction drawing. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1297-1306.
5. Xudoykulovich, M. S. (2021, October). The status of teaching the subject « construction drawing» in higher education institutions. In Archive of Conferences (pp. 105-108).
6. Mardov, S. K., Khasanova, M. N., & Absalomov, E. (2022). Pedagogical and psychological basis of teaching architecture drawing in types of education. In Euro-Asia Conferences (pp. 32-35).

AXBOROT-TA'LIM MUHITIDA BAKALAVRIAT TALABALARI O'RTASIDA RAQAMLI MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Maxmudov Abrorjon Zakirovich
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada keltirib o'tilgan nazariy asoslarga tayanib, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari bakalavriat talabalarining raqamli madaniyatini shakllantirish uchun samarali strategiya va yondashuvlarni ishlab chiqishi mumkin. Ushbu asoslar axborot-ta'lim muhitida bakalavriat talabalari o'rtasida raqamli kompetensiyalarni, tanqidiy fikrlashni va mas'uliyatli raqamli fuqarolikni rivojlantirishga yordam beradigan tegishli o'qitish usullari, o'quv muhiti va baholash strategiyalarini tanlashga rahbarlik qilishni yoritadi.

Kalit soz'lar: talaba, ta'lim, asos, nazariy, amaliy, axborot-ta'lim muhiti, shakllantirish, raqamli madaniyat.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ КУЛЬТУРЫ СРЕДИ СТУДЕНТОВ В ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация: На основе теоретической базы, представленной в данной статье, преподаватели и образовательные учреждения могут разработать эффективные стратегии и подходы по формированию цифровой культуры студентов бакалавриата. Эти рамки освещают и направляют выбор подходящих методов обучения, среды обучения и стратегий оценки, которые способствуют развитию цифровых компетенций, критического мышления и ответственного цифрового гражданства среди студентов бакалавриата в средах информационного обучения.


Ключевые слова: студент, образование, основы, теоретическое, практическое, информационно-образовательная среда, формирование, цифровая культура.

THEORETICAL BASICS OF FORMING DIGITAL CULTURE AMONG UNDERGRADUATE STUDENTS IN THE INFORMATION-EDUCATION ENVIRONMENT

Abstract: Based on the theoretical framework presented in this article, teachers and educational institutions can develop effective strategies and approaches to form the digital culture of undergraduate students. These frameworks illuminate and guide the selection of appropriate teaching methods, learning environments, and assessment strategies that promote digital competencies, critical thinking, and responsible digital citizenship among undergraduate students in information-learning environments.

Key words: student, education, basis, theoretical, practical, information-educational environment, formation, digital culture.

Axborot-ta'lim muhitida bakalavriat talabalari o'rtasida raqamli madaniyatni shakllantirish bir qancha nazariy asoslarga asoslanadi. Ushbu asoslar raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga rahbarlik qiluvchi kontseptual asosni ta'minlaydi. Mana to'rtta asosiy nazariy asoslar[1]:



1-rasm. Axborot-ta'lim muhitida bakalavriat talabalari o'rtasida raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslar

1. **Konstruktivizm:** Konstruktivizm o'rganish faol jarayon bo'lib, unda o'quvchilar atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlari orqali bilim va ma'noni yaratadilar, deb ta'kidlaydi. Raqamli madaniyatni shakllantirish kontekstida konstruktivizm talabalarga yo'naltirilgan ta'lim tajribasining muhimligini ta'kidlaydi. Bu

talabalarni texnologiya bilan faol shug'ullanishga, tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga va raqamli tushunchalar va amaliyotlar haqidagi tushunchalarini shakllantirish uchun raqamli resurslarni o'rganishga undaydi[2].

2. Ijtimoiy-madaniy nazariya: Ijtimoiy-madaniy nazariya ta'lim va rivojlanishni shakllantirishda ijtimoiy o'zaro ta'sirlar va madaniy kontekstlarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Raqamli madaniyatni shakllantirish kontekstida ushbu nazariya raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishda tengdoshlar bilan hamkorlik, murabbiylik va o'quv yordamining rolini ta'kidlaydi. U madaniy xilma-xillikni aks ettiruvchi va raqamli identifikatsiyani rivojlantirishga yordam beruvchi qo'llab-quvvatlovchi va inklyuziv o'quv muhitini yaratish muhimligini tan oladi.

3. Media va axborot savodxonligi: Media va axborot savodxonligi asoslari raqamli landshaftda harakat qilish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun nazariy asos yaratadi. Ushbu ramkalar turli formatlarda ommaviy axborot vositalari va ma'lumotlarga kirish, baholash, tahlil qilish va yaratish qobiliyatini rivojlantiradi. Media va axborot savodxonligi nazariyalari talabalarni raqamli kontentni tanqidiy tekshirish, uning ijtimoiy-madaniy oqibatlarini tushunish va asoslangan qarorlar qabul qilishga o'rgatish muhimligini ta'kidlaydi.

4. Texnologik pedagogik kontent bilimlari (TPACK): TPACK tizimi texnologiya, pedagogika va mazmunli bilimlarning integratsiyasini o'rganadi. Raqamli texnologiyalar muayyan mavzuni o'qitish va o'rganishni qanday yaxshilashi mumkinligini tushunish muhimligini ta'kidlaydi. TPACK tizimi o'qituvchilarga ma'noli o'rganish tajribasini ishlab chiqishda yo'l-yo'riq ko'rsatadi, bunda raqamli vositalar intizomiy bilimlarni egallash va jalb qilishni qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli ravishda birlashtiriladi[3, 4].



2-rasm. Axborot-ta'lim muhitida bakalavriat talabalarining raqamli madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslarini amaliy qo'llash usullari

Axborot-ta'lim muhitida bakalavriat talabalarining raqamli madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslarini amaliy qo'llash usullari:

1. Loyihaga asoslangan ta'lim: Loyiha asosida o'qitishni amalga oshirish talabalarga nazariy bilimlarni real dunyo stsenariyalarida qo'llash imkonini beradi. Talabalar multimedia taqdimotlarini yaratish yoki mobil ilovalarni ishlab chiqish kabi raqamli loyihalar ustida hamkorlikda ishlaydi. Bu usul muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va raqamli savodxonlik ko'nikmalarini rag'batlantiradi.

Afzalliklari: amaliy raqamli ko'nikmalarni rivojlantiradi, ijodkorlik va hamkorlikni rivojlantiradi va amaliy o'rganish tajribasini targ'ib qiladi.

Kamchiliklari: katta vaqt va resurslarni talab qilishi mumkin, guruh loyihalarida individual hissalarni baholash qiyin, guruh ishida tengsiz ishtirok etish ehtimoli.

2. Sifga teskari yondashuv: teskari sinfda talabalar darsga kelishdan oldin videolar yoki onlayn modullar kabi raqamli o'quv materiallari bilan shug'ullanishadi. Keyin darsdagi vaqt faol o'quv faoliyati, muhokamalar va amaliy mashqlarga ajratiladi. Bu yondashuv talabaga yo'naltirilgan ta'limni rag'batlantiradi, tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi va o'z-o'zini boshqarishga yordam beradi.

Afzalliklari: Talabalarining faolligini rag'batlantiradi, individual o'rganish imkonini beradi, sinf muhokamalarida faol ishtirok etishni rag'batlantiradi.

Kamchiliklari: Uyda onlayn materiallarga kirish uchun ishonchli internet va raqamli vositalardan foydalanishni talab qiladi, darsdan oldingi ishlarni bajarish uchun talabalarining o'z-o'zini motivatsiyasi va

intizomiga tayanadi.

3. Gamifikatsiya: O'quv tajribalarida o'yin elementlarini qo'llash o'quvchilarning motivatsiyasi va faolligini oshirishi mumkin. Raqamli o'yinga asoslangan o'quv platformalari yoki o'quv o'yin simulyatsiyalari tushunchalarni mustahkamlash, muammolarni hal qilishni rag'batlantirish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ishlatilishi mumkin.

Afzalliklari: Talabalarning motivatsiyasi va faolligini oshiradi, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi, darhol fikr-mulohazalarni taqdim etadi.

Kamchiliklari: Tegishli o'yin resurslariga kirishni talab qiladi, o'yin elementlarini haqiqiy o'rganish maqsadlari bilan muvozanatlash qiyin bo'lishi mumkin.

4. Onlayn hamkorlikdagi loyihalar: Hamkorlikdagi onlayn loyihalar talabalarning umumiy raqamli platformada birgalikda ishlashi yoki vazifa yoki topshiriqni bajarish uchun hamkorlik vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu usul raqamli aloqa, jamoaviy ish va madaniyatlararo tushunishni rivojlantiradi.

Afzalliklari: Raqamli aloqa va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi, global istiqbollarni va ko'p madaniyatli tushunishni targ'ib qiladi, asenkron hamkorlikni ta'minlaydi.

Kamchiliklari: Cheklangan yuzma-yuz muloqot, jadvallarni muvofiqlashtirish va teng ishtirokni ta'minlashdagi qiyinchiliklar, hamkorlik platformalarida texnologiya muammolari uchun potentsial.

5. Raqamli fuqarolik ta'limi: Raqamli fuqarolik bo'yicha aniq ko'rsatmalarni o'z ichiga olish talabalarga raqamli dunyoda o'z huquq va majburiyatlarini tushunishga yordam beradi. Bu axloqiy xulq-atvorni o'rgatish, texnologiyadan mas'uliyatli foydalanish, onlayn xavfsizlik, maxfiylikni himoya qilish va onlayn ma'lumotni tanqidiy baholashni o'z ichiga oladi.

Afzalliklari: Talabalarga raqamli muhitda xavfsiz va mas'uliyat bilan harakat qilish imkoniyatini beradi, axloqiy qarorlar qabul qilishni targ'ib qiladi, ijobiy raqamli mavjudlik va raqamli identifikatsiyani rivojlantiradi.

Kamchiliklari: Raqamli fuqarolik tushunchalari bilan texnik ko'nikmalarni o'qitishni muvozanatlash, doimiy rivojlanayotgan raqamli landshaftlardan kelib chiqadigan muammolar va muammolarni hal qilish[5].

Ushbu usullar orqali olingan natijalarning afzalliklari va kamchiliklari:

Afzalliklari:

- Raqamli savodxonlik va ravonlik yaxshilandi.
- Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirdi.
- Talabalarning faolligi va motivatsiyasini oshirish.
- hamkorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish.
- Mas'uliyatli va axloqiy raqamli xulq-atvorni targ'ib qilish.
- nazariy bilimlarni real sharoitlarda amaliy qo'llash.

Kamchiliklari:

- Texnologiya bilan bog'liq to'siqlar va tengsizliklar uchun potentsial.
- Murakkab va dinamik raqamli ko'nikmalarni baholashdagi qiyinchiliklar.
- mavjud resurslar va infratuzilmaga bog'liqlik.
- Raqamli vositalar bilan talabalarning turli darajadagi tayyorgarligi va qulayligi.
- Raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish bilan tarkib chuqurligini muvozanatlashda qiyinchiliklar.

Xulosa:

Axborot-ta'lim muhitida bakalavr talabalarida raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslarini amaliy qo'llash raqamli kompetensiyalarni, tanqidiy fikrlashni va mas'uliyatli raqamli fuqarolikni rivojlantirishda ko'plab afzalliklarni taqdim etadi. Biroq, texnologiyadan foydalanishning tengsizligi, baholashning murakkabligi va talabalarning tayyorgarligidagi o'zgarishlar kabi muammolarni hisobga olish kerak. Ushbu usullarni puxta o'ylab qo'llash, taraqqiyotni kuzatish va muammolarni hal qilish orqali o'qituvchilar bakalavr talabalarining raqamli madaniyatini samarali shakllantirib, ularga raqamli asrda rivojlanish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Mamatov D.N, Bekchanova Sh.B, Sadiqova A.V, Xo'jaev A.A. LMS moodle tizimi va undan foydalanishni o'rganish. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Tashkent, 2020 y. 90 b

Bekchonova Shoira Bazarbaevna. Ilmiy va raqamli madaniyat asosida raqamli savodxonlikni oshirish. Zamonaviy taraqqiyotda ilm-fan va madaniyatning o'rni. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya 15-son. 20.03.2022 209-213 b. Pleshakov, V. A. (2012). Human cybersocialization: from Homo Sapiens to Homo Cyberus. Moscow

Bekchonova Shoira Bazarbaevna. Masofaviy ta'limning raqamli transformatsiyasi. «Raqamli pedagogika: holati va rivojlanish istiqbollari» mavzusidagi Xalqaro miqyosida ilmiy-amaliy anjuman (10-dekabr, 2021-yil) – T.: TDP, 2021. 54-57 b.

Usmonov B.Sh., Kodirov M.K. Ta'lim 4.0 - raqamli transformatsiya omillari. Ilmiy axborotnoma pedagogika. 2022-yil, 6-son. 99-105 b

Yunusovich, A. V., Ahmedov, F., Norboyev, K., & Zakirov, F. (2022). Analysis of Experimental Research Results Focused on Improving Student Psychological Health. International Journal of Modern Education & Computer Science, 14(2).

OLYI TA'LIM TIZIMIDA FUQAROLIK VA FAOL FUQAROLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN-MOHİYATI

Muratov Xabibulla Abduqodirovich
Qarshi davlat universitet o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarning fuqarolik faollik ko'nikmalarini shakllantirishda hamda ularning ilmiy salohiyatini oshirishda mavjud tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hamda pedagogik-psixologik muammolarni jahon va mahalliy tajribalardan kelib chiqib, bugungi holatini tahlil qilish orqali ilmiy-nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llashni takomillashtirish bo'yicha hulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

Калит сўзлар: Fuqaro, faol, ta'lim, pedagogik-psixologik, zamon, tizim, ijtimoiy, siyosiy .

СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЙ ГРАЖДАНСТВЕННОСТИ И АКТИВНОЙ ГРАЖДАНСТВЕННОСТИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Муратов Хабибулла Абдукадирович
Преподаватель Каршинского государственного университета

Аннотация: В данной научной статье в научно-теоретическом плане анализируются исторические, общественно-политические и педагогико-психологические проблемы формирования навыков гражданской активности студентов в системе высшего образования и развития их научного потенциала, на основе глобальный и местный опыт, разработаны выводы и предложения по совершенствованию практического применения данных.

Ключевые слова: Гражданин, активист, образование, педагогико-психологический, время, система, социальный, политический.

CONCEPTUAL CITIZENSHIP AND ACTIVE CITIZENSHIP IN THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION.

Muratov Khabibulla Abdukodirovich
Lecturer at Karshi State University, Kashkadarya, Uzbekistan

Abstract: This scientific article analyzes historical, socio-political and pedagogical-psychological problems of developing students' civic engagement skills in the higher education system and developing their scientific potential, based on global and local experience, and develops conclusions and proposals for improvement. practical application of data.

Keywords: Citizen, activist, education, pedagogical and psychological, time, system, social, political.

Fuqarolik, shaxsni o'zi istiqomat qiluvchi makonga taalluqligini anglatganligi sanalib, fuqarolik faolligi uni subyektivlik darajasini ifodalovchi sifatning ifodalanganligini ko'rsatadi. Bu sifatlar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bo'lgan munosabatni individuallashtirishning bir ko'rinishi tarzida mujassamlashib, ichki va tashqi motivlarning ta'siri asosida inson o'z taqdirining fundamental realligi tarzida ifodalaydi. Faol fuqaro bo'lish, bu guruh yoki jamoada, jamiyatda aniq g'oyaviy tamoyillar asosida o'zining harakatlarini boshqalarning hayot-faoliyatini farovonligini ta'minlashda "mas'ul" ekanligini ifodalashda namoyon bo'ladi. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida fuqarolik senzi tushunchasi ham kiritilganki, unga ko'ra saylanadigan va salovchi o'sha davlat fuqarosi bo'lishi belgilanadi [12;494]. Fuqarolik senzini, xavfsizlik pedagogikasi yoki inert fuqarolik tarzida idrok etish shart emas [16;32–46, 11–18]. Shu tariqa, fuqarolik mas'uliyati ta'minlanishi ko'rsatilgan. "Mas'ullik" shaxs sifatleri, xulq-atvor motivlari, dunyoqarash, huquqiy, ma'naviy va ijtimoiy himoyani amalga oshirishni ifoda etadi. Faol fuqarolik tushunchasini talqin etishda obyektiv xarakterdagi muammolar qatoriga:

Fuqaro, grajdanin, faol va aktiv kabi tushunchalarni genezisidagi tafovutlarning ma'naviy qamroviga e'tibor qaratmaslik;

faol fuqarolikni shakllantirishga OAVning konsepsiyaga ega emasligi;

faollik klassifikatsiyasi bo'yicha mezonlarning belgilanmaganligi;

faollik va daxldorlik, muammoni ko'rsatish va mas'uliyat orasidagi umumiy va ayri jihatlarning belgilanmaganligi;

ta'lim amaliyoti uchun faol fuqarolikni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarining ishlab chiqilmaganligini ko'rsatib o'tish mumkin.

Faol fuqarolikning ifodalanish darajalarini belgilash uchun, birinchi navbatdan uni temperamentning kategoriyasi hisoblanishini, ikkinchi navbatda, faollikni ifoda etishda motivlarning ta'sir darajasini belgilash lozim bo'ladi. Inson kamolotini ta'minlash nuqtai nazari asosida fuqarolik faolligini shakllantirish va rivojlantirishda (rivojlanishning davriy bosqichlari D.B.Elkonin va L.S.Vigotskiylarning tavsifi asosida bajarildi [1;6]) insonni

tug'ilgan paytidan to yetuklik davrigacha bo'lgan:

- tug'ilishdan to ikki yoshgacha bo'lgan rivojlanish davri;
- ikki yoshdan to olti yoshgacha bo'lgan rivojlanish davri;
- olti yoshdan o'n bir yoshgacha bo'lgan rivojlanish davri;
- o'n bir yoshdan to o'n to'qqiz yoshgacha bo'lgan rivojlanish davri;
- yigirma yoshdan to qirq yoshgacha bo'lgan rivojlanish davri;
- qirq yoshdan to oltmish yoshgacha bo'lgan rivojlanish davri;

oltmish yoshdan to yetmish besh va undan keyingi yoshgacha bo'lgan bo'lgan rivojlanish davri oraliq'idagi vaqt davomida tashqi va ichki omillarning (motivlarning) ta'siri asosida turli dinamik ko'rsatkichlarni fuqarolik faolligini shakllantirida ishtirok etuvchi kompetensiyalar tarzida ko'rib chiqish lozim bo'ladi.

“O'zbekiston yoshlari – 2030” konsepsiyasida ham vazifa sifatida yoshlar faolligini, shu jumladan, fuqarolik faolligini ta'minlash alohida o'rin tutib[2], ularni kompetentligi, ya'ni layoqatmandligini shakllantirish alohida ko'rsatib o'tilgan. Agarda, har qanday faollik turining birlamchi manbasi ehtiyoj va motivlar hisoblanishini nazarda tutsak. Ehtiyoj bu, insonni me'yoriy darajada hayot va faoliyat yuritishini ta'minlashda yetishmayotgan sharoit (predmet)larga oid paydo bo'lgan istaklarini A.Maslou uni beshta pog'onasini tavsiflab berganki [3;431], bizning tadqiqotimiz uchun xavfsizlikka, ijtimoiy aloqalarga, hurmatga sazovor bo'lish va dolzarblashtirish, ya'ni to'rtta ehtiyoj fuqarolik faolligini ifoda etishda ahamiyatli sanaladi. Bunda, inson ongida vujudga kelgan ehtiyojlarini qondirish uchun faoliyatga undovchi motiv individni jumbushga keltirishini inobatga olish lozim bo'ladi [4;392,9-13]. Agarda, Djoy Pol Gilfordning motivatsiyaviy omillar ro'yxatiga e'tibor qaratsak, “umumiy faollik” omili uchinchi pog'onadan joy olganligini kuzatish mumkin [5;734-b]. Agarda, Dj.P.Gilford ta'limoti bo'yicha, umumiy faollik inson uchun uchinchi pog'onada tursa, fuqarolik faollik boshqa faollik turidan madaniy-ijtimoiy mazmunga ega bo'lishini nazarda tutsak, yoshlarda fuqarolik faolligini shakllantirish uchun substansiyaviy asos mavjud. Inson, fuqarolik faolliqi tufayli oliy maqsadi va yuksak orzularini real dunyoda obyektivlashtirish uchun, ijtimoiy institutlar, madaniy institutlar, moliyaviy institutlar, siyosiy institutlar bilan aloqaga kirishadi. Fuqarolik faolliqi yaqqol ifodalangan subyekt esa, boshqalarning ham manfaatlarini himoya qilish uchun ongli harakatlarni amalga oshiradi.

Faollik, ijtimoiy va ilmiy bilim, huquqiy me'yorlar va majburiyatning mujassamlashuvi natijasida shaxsda ifodalanadi. Bu tarkiblarning sifati, ya'ni bilimlarni qay darajada o'zlashtirilganligi, ularning odatga aylantirilganligi esa, faollikni madaniy-ijtimoiy ahamiyatga egaligi bo'yicha namoyon etish darajasini belgilaydi. Yoshlarda faol fuqarolikni shakllantirishda, uni ijtimoiy-madaniy ahamiyatligiga alohida e'tibor qaratib:

- yorqin ifodalangan faollik;
- shunchaki ifodalangan faollik;
- ifodalanmagan (inert holatdagi) faollik kabilarga ajratish mumkin bo'ladi.

Faol fuqarolik, E.Frommning ta'biri bilan aytganda, subyekt tomonidan anglangan, ya'ni ichki va tashqi motivlarning ta'siri asosida maqsad shakllangan, harakatlar algoritmi belgilangan bo'lishi shart. Erkinlikka erishish haqida o'z munosabatini bildirib, E.Fromm tanlash, qaror chiqarish va qabul qilish erkinligi hamda ongli tarzda harakatlarni amalga oshirishni, erkinlikni ikki jihati deb hisoblaydi. Uningcha, anglash uchun:

- nima yaxshiyu, nima yomon?;
- vujudga kelgan vaziyatda maqsadga erishish uchun harakat turi;
- anglanmagan istaklar;
- vujudga kelgan vaziyatdagi real imkoniyatlar;
- qaror oqibatida vujudga keladigan holat;
- kutilayotgan salbiy natijalarga qaramasdan jarayonni to'liq anglanmaganligi.

Faol fuqarolik pozitsiyasini egallash va namoyon etishda, E.Fromm tomonidan ko'rsatib o'tilgan anglash uchun zarur sanalgan asosiy omillar ahamiyatli sanaladi. Chunki:

- a) yorqin ifodalangan faollikda, boshqalarning manfaat va farovon hayot-faoliyatini himoya qilish ifodalangan;
- b) shunchaki ifodalangan faollikda, subyekt so'zini dolzarblashtirib, boshqalar uchun ahamiyatli ekanligini ko'rsatish uchun harakatlarni amalga oshirgan;
- v) ifodalanmagan (inert holatdagi) faollikda esa, namoyon etish uchun turtki (motivlashtiruvchi omil) yetishmasligi, vaziyat vujudga kelmaganligini ko'rish mumkin.

Faollikni, jumladan, fuqarolik faolligini mazkur mezonlar asosida baholash, yoshlarning fuqarolik faollik darajasini individual tarzda oshirishni ta'minlab, didaktik vazifalarni tatbiq etish uchun imkon beradi. Didaktik vazifalar deganda, o'quv vositalarining tashqi ifodalanishini, ta'lim va tarbiya jarayonida ta'limiy masalalarni yechish uchun qo'llaniladigan majmuani tushunish lozim [8;32-36].

- Faol fuqarolikni shakllantirishda subyektiv murakkablik sifatida:
- shaxsiy tashabbusning yetishmaligi;

rivojlanishga intilmaslik;
 faol fuqarolikni interiorizatsiyasining murakkabligi;
 negativ ma'lumotlarga ega bo'lish;
 faol fuqarolik harakatini noto'g'ri talqin etilishi;
 faol fuqarolik harakatini ijtimoiy ma'qullanishini pastligi;
 yoshlar qadriyatlarining dominantligi shaxsiy hayot qadriyati bilan sintezlashgani va boshqalar.

Yoshlarni fuqarolik faolligini oshirishda, so'ngisining o'rni muhim sanaladi. A.A.Bloxina bu muammoni alohida o'rganib, yoshlar uchun sog'liq, baxt, oilaviy hayot tinchligi kabilar shaxsiy hayot qadriyatlarini sintezlashuvi tarzida ifodalanganligini aniqlagan [9;1-7-b]. Tadqiqotda qatnashganlarning asosiy qismi (60%) shu tarzda subyektiv munosabat bildirishgan. Ilmiy-pedagogik manbalarning tahlili hamda tadqiqotimizning vazifalaridan kelib chiqqan holda faol fuqarolikni shakllantirish modelini (1.2.1-jadval) taklif qilishdan oldin, ilmiy bilishda muhim o'rin tutgan model, modellashtirish va pedagogik model haqida to'xtalib o'tamiz. Model (fr. modèle ot lat. Modulus – me'yor, o'xshash, namuna), ya'ni pedagogik jarayon yoki vaziyatga doir muhim ma'lumotlarni ifodalovchi tizim[10;119]. Modellashtirish esa, pedagogik jarayoni yoki pedagogik vaziyatni chizmalı ko'rinishda aniq ifodalab berish jarayoni sanaladi [11;52]. Pedagogik faoliyatda, modellarni ishlab chiqish, asosan, quyidagi ipostas (yun. – joylashtirish, joy-joyiga qo'yish, belgilash) tarzida kechadi:

modelni ishlab chiqish;
 modelni takomillashtirish;

modelni tatbiq etish (amaliyotga joriy etish). Pedagogika fanida modellarni tayyorlashda bir qator talablar mavjud bo'lib, ingrent (o'zgarmaydigan, doimiy), modelning soddaligi (tatbiq etishda muammo tug'dirmasligi), adekvatligi (aynan mosligi) kabilar shular jumlasidandir. Tadqiqotimizda, pedagogik tadqiqotlar juda ko'p qo'llaniladigan strukturaviy-funksional model tarzidan foydalanib, modellashtirish jarayonini samarali kechishini ta'minlash uchun faol fuqarolikni shakllantirish muhim sanalgan konseptlarni (yun. conceptus-tushunchalarning mazmun-mohiyati) belgilash lozim:

- a) bazaviy tushunchalarni belgilash;
- b) bilim, qadriyatlar, sifat, harakat va pozitsiyani belgilash, ya'ni faol fuqarolikning asosiy tarkiblarini belgilash;
- v) didaktik jarayon va vositalarni ajratish;
- g) natija sifatida namoyon bo'ladigan – faol fuqarolik kompetensiyasining asosiy komponentlarini belgilash.

1.2.1-jadval.

Faol fuqarolikni shakllantirish modeli

Asosiy tushunchalar	Fuqarolik faolligining asosiy tarkiblari				
	bilim	qadriyatlar	sifat	harakat	pozitsiya
Fuqarolik faolligini shakllantirish vositalari					
Jarayon	Ta'lim-tarbiya jarayoni				
Didaktik vositalar	1. "Faol fuqarolikni shakllantirish" mualliflik dasturini o'quv jarayoniga tatbiq etish. 2. Fuqarolik faolligini ta'minlash sohasidagi hamkorlikdagi mualliflik ilmiy va loyihaviy ishlar. 3. Ta'lim jarayoniga faol fuqarolik qadriyatlari va xulq-atvor namunalarini shakllantiruvchi modullarni joriy etish.	1. Faol fuqarolik pozitsiyasining ahamiyatini targ'ib etish uchun majmuaviy ishlar. 2. Mavzuviy seminar-treninglarni tashkil etish. 3. Talabalar jamoasini fuqarolik faollikni ta'minlash kontekstida birlashtirish (ijodiy kechalar, davlat va jamoat arboblari bilan uchrashuvlar va b.). 4. Fuqarolik faollikni targ'ib etuvchi volonterlik harakatlarini tashkil etish. 5. Ibratli, namunali xulq-atvorni ijtimoiy-madaniy loyihalashtirish.			
Natija					
Faol fuqarolik kompetensiyalari					

Talaba-yoshlarda faol fuqarolik kompetensiyalarini belgilashda, ehtiyoj va motivlar ularni harakatga keltiruvchi asosiy kuch sanaladi. Ta'lim jarayoni va talaba-yoshlar faoliyatini kamol topishini ta'minlash

nuqtai nazari bilan boshqarishda, ehtiyoj va motiv ko'rstakichi boshqaruv usuli va resurlarni belgilash imkonini beradi. Ammo ta'lim muhitining xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'sib borishi, bu masalaga kompetensiyaviy munosabatda bo'lishni taqozo etadi [12;288]. Turli, destruktiv guruhlar ta'limiy manba va faoliyatni "qo'llash" kabi psevd (yunon. pseudos—(yolg'on)—o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi qismi bo'lib, ikkinchi qismning yolg'on, soxta ekanligini anglatadi) maqsadlari asosida separatizm, millatchilik, radikal namoyishlar kabi harakatlarni targ'ibot qilishlari kuzatiladi.

Faol fuqarolikning muhim komponenti hisoblanmish bilim, nafaqat maishiy bilim, balki hudud va mintaqaning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir, millat va uning madaniyatiga oid, milliy va umuminsoniy yoki kasbiy qadriyatlar hamda diniy va dunyoviy bilimlarni o'zlashtirishni taqozo etadi. Polshada bu masala xavfsizlik pedagogikasi doirasida o'rganib kelinayotganligini nazarda tutsak [13;11-18], bu o'z navbatida, "Faol fuqarolikni shakllantirish" mualliflik dasturini o'quv jarayoniga tatbiq etishni taqozo etadi (1-ilova). F.Nabiyev, O.Otamirzayev va G'.N.Pirnazarovlarning tadqiqot natijalarining xulosasi ham bu fikrimizga asos bo'la oladi [14;41-47]. Mazkur jarayon o'z navbatida, yoshlarimizga ta'lim berish amaliyotida faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda, ularda siyosiy, madaniy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik kabi kompetensiyalarni ham shakllantirishga e'tibor qaratishni taqozo etadi. Oliy ta'lim tizimida axborot yoki tayyor bilim beradigan ta'limiy manbalarni yaratishdan ko'ra, axborotni bilim shakliga keltirishga yo'naltirilgan manbalarni milliy manfaatlarini himoya qilish nazari asosida yaratish lozim bo'ladi. Shunda, yoshlarimiz fuqarolik mas'uliyati va jamiyat oldidagi burchining mazmunini anglay boshlaydi. Aynan anglash (ichki va tashqi dunyoda kechayotgan holat/jarayonlarni ko'ra bilish) jarayonida yoshlarda kechayotgan demokratik jarayonlarga nisbatan fuqarolik munosabati shakllanadiki, uni quyidagicha ko'rsatib o'tish mumkin: "Men – fuqaro – Dunyo manzarasi – Men yashaydigan mamlakat (Men-daxldorlik) – Ma'lumotlar oqimi (Men – axborot iste'molchisi) – Saralash jarayoni (Men – tahliliy faoiyat) – Aloqadorlikni belgilash (Men – strategiyani ta'minlovchi) – Baholash (Men – individual xulq egasi) – Harakat strategiyasini tanlash (Men – bunyodkor) = Faol fuqarolik munosabati (Jamiyat hayotini takomillashtirishga intilish)". Munosabat, ehtiyojlarning qondirilganlik darajasi va motivlarning ta'siri asosida shakllanadi. Bunda, A.Banduraning "O'z – o'zini samaradorligi" (self – efficacy) mexanizmi bo'yicha, subyekt o'z qobiliyatlari, iqtidori va e'tiqodiga tayanib, harakatni amalga oshiradi [15;3]. Bizning misolimizda, harakat – faol fuqarolikni ko'rsatishda ifodalanadi. A.Banduraning g'oyasiga ko'ra, "Men"ni ikkilamchilik tabiati – subyekt va obyekt tarzida xulqni namoyon etishda o'z aksini topadi. D.A.Leontyevning ko'rsatishicha, A.Banduraning ta'limotida inson xulqi nafaqat tashqi omillarning ta'siri asosida, balki individning o'zi tomonidan determinlashgan (belgilangan) tarzda ko'rinib [16;49-59], faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish mazkur ko'rsatma nazariy-metodologik ma'no kasb etadi.

Fuqarolik munosabati, bevosita faollikning mazmundorligini ta'minlaydiki, V.N.Myasishev munosabat shakllanishining ijtimoiy-psixologik jihatlarni o'rganib, qiziqish va havas ta'sirida o'ziga xos holat vujudga kelishini ko'rsatib o'tgan. Ya'ni, fuqarolik munosabatining tarkibida bu omillarning mavjudligi motivlarning shakllanishiga, vujudga kelgan talabni, anglangan ehtiyoj darajasiga chiqishi uchun ishtirok etadi. Shuning uchun Avstraliya ta'lim muassasalarida siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va madaniy axborot va bilimlar fuqarolikni shakllantirish uchun o'tiladi. Bu holat, ta'lim oluvchilarda jamiyat, inson, milliy manfaat, demokratik tizim, siyosiy institut tarzidagi murakkab aloqadorlikni ta'minlashda qatnashish madaniyatini shakllantiradi [17;516-539]. E.P.Strelnikova katta sinf o'quvchilarida fuqarolik pozitsiyasini o'rganib, ular tomonidan fuqarolik pozitsiyasini ifoda etish jamiyat va davlatga zid bo'lgan har qanday salbiy ko'rinishdagi ifodalarga qarshi turishda, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishda shaxsiy sifatlar ko'rinishida ifodalanishini ko'rsatib o'tgan. Bizningcha, salbiy ko'rinishlarga qarshi turish ko'proq g'oyaviylik va axborot-ruhiy tahdidlardan himoya tarzida namoyon bo'ladigan individual-psixologik himoya tarzi sanaladiki, muallif uni alohida inobatga olmagan. Faol fuqarolik pozitsiyali shaxs davlatga, huquqqa, jamiyatga, o'ziga va boshqalarga bo'lgan munosabatlar majmuasi sifatida integrativ ko'rinishdagi ongli harakatlarni namoyon etadiki, turli predmetlar doirasida olingan ma'lumotlar va o'zlashtirilgan bilimlarning "aralashma"si asosida vujudga kelgan holat deb D.V.Kirilov ko'rsatib o'tgan. Bunda, gumanitar fanlarni o'qitish davomida fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning pedagogik asoslarini empirik o'rganib, hattoki fuqarolik pozitsiyasini integrativ sifat ekanligini belgilab bergan. Integrativlik (ingl. integration – elementlarda ifodalanmagan xususiyatlarni tizimda kuzatilishi) esa, ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ongida fanlararo kesimida o'zlashtirilgan bilimlarni o'zaro aralashuvida ifodalanib, uning asosida ongli harakat ifodalanishida ko'rinadi.

Jamiyat hayotining farovonligini ta'minlashda tashabbus ko'rsata oladigan, o'z fuqarolik pozitsiyasini jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish nuqtai nazari bilan bayon etadigan yoshlarni tarbiyalashga ijtimoiy buyurtma ortib bormoqda. Bu murakkab ichki struktura, fuqarolik faollik komponentlarining funksional aloqadorligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, fuqarolik faollikni ifoda etmaganlarni pedagogik diagnostikasini amalga oshirib, aniqlangan muammolarni pedagogik korreksiya qilishni taqozo etadi.

Buning uchun birinchi bosqichda (diagnostika bosqichida) fuqarolik faollikning darajalarini aniqlab olish lozim bo'ladi. Agarda faollik samarasiz yoki og'ishli ko'rinishga ega bo'lsa, uning korreksiyasini amalga oshirish maqsadga muvofiqdirki, oliy ta'lim muassasasi psixologi bu vazifani bajara oladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida quyidagilar psixologik xizmatning asosiy vazifalari etib belgilangan:

ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini samarali va sifatli tashkil etish, shu jumladan, ish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari samaradorligini oshirish;

o'quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida to'g'ri kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashish;

turli yosh davrlarida o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olish;

o'quvchilar ta'lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;

iste'dodli va iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o'rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

axborot-psixologik xurujlarning xavfi, Internet jahon axborot tarmog'ining salbiy ta'siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan «ommaviy madaniyat»ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish;

pedagog xodimlar, o'quvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko'maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta'minlash [18].

Faollikning og'ishli ko'rinishlariga:

ijtimoiy ma'qullangan qarorlardan noroziligini ommaviy tarzda ko'rsatish;

kelishuvni inkor qilish;

ijtimoiy rollarni bajarmaslik;

radikal tarzda norozichilik;

haddan ortiq ijtimoiy rolga kirishib ketish;

o'zini "xaloskor" rolida identifikatsiya qilish va boshqalar [19;74-79].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Oliy ta'lim tizimida yoshlarning fuqarolik faolligini shakllantirishda bazaviy konseptlarni belgilash, ularni shakllantirish uchun didaktik usul va vositalarning maqbulligini inobatga olgan tarzda asoslash, fuqarolik faolligini shakllantirishni tarixiy-pedagogik masala sifatida bayon etish strukturaviy-funksional yondashishni taqozo etadi.

Fuqarolik faollikni ifodalashning tarkibiy qismlari, bevosita inson, jamiyat va davlatga doir bo'lgan bilim, ma'lumotlar hamda shaxsiy omilga bog'liqdir. Pedagogik jihatdan faol fuqarolikni shakllantirish uchun yoshlarga:

jamiyat va uning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy sohasiga (sferasiga) doir bilim;

jamiyat hayotini ta'minlashda siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy institutlarning funksional ishtirokiga doir ma'lumot;

ijtimoiy va siyosiy institutlar tomonidan yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini namoyon etish uchun motivatsion ta'sir ko'rsatish;

faol fuqarolikni egallashga qiziqish va istakni shakllantirish uchun ma'naviy-huquqiy me'yor didaktik asos va vositalarni manzilli belgilash talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent, 2023.

Mirziyoyev Sh.M O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (2022-yil 20-dekabr). – <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025–yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori

Aliboyev T.CH. Xorijiy tajriba-shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish omili // Xalq ta'limi, 2020. –№ 5. - 115-120 b.

Альбуханова-Славская К.А. Личность в процессе деятельности // Психология личности. – Самара: Бахрах, 1999. – Т. 2. - 48-50 с.

Бабанова И.А. Использование ТРИЗ-педагогика в образовательном процессе. – <http://www.metodolog.ru/01138/01138.html>

Васильева Ю.А., Леонтьев Д.А. Этогенический подход к изучению социальных отклонений // Иностранная психология. 1994. –Т.2. –№2(4). - 83-86 с.

Markova A.K. Talabalarda bilim olishga qiziqishni shakllantirish.-B.17. – http://www.koob.ru/age_psychology/ saytining elektron resursi

Maslou A. Motivatsiya va shaxsiyat. - M., 1954. http://www.koob.ru/age_psychology/ saytining elektron resursi

Komusova N.V. «Universitetda o'qish davrida kasb-hunar egallash motivatsiyasini rivojlantirish» - L., 1993 y.

Aseev V.G. Xulq-atvor va shaxsiyatni shakllantirish motivatsiyasi. - M., 1996 yil.

Aseev V.G. Motivatsiya va shaxsiyat muammosi // Shaxs psixologiyasining nazariy muammolari. - M., 1994. - B.122.

Atkinson J.V. Motivatsiyani rivojlantirish nazariyasi. - N., 1996 yil.

11-12 YOSHLI TENNISCHILARNI BO'LAJAK MUSOBAQALARGA TAYYORGARLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muzafarova Feruza Bahridinovna

BuxDU Sport faoliyati va pedagogika fakulteti dotsent, p.f.f.d. (PhD)

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada 11-12 yoshli tennischilarni bo'lajak musobaqalarga tayyorgarligini innovatsion yondashuv asosida amalga oshirish mexanizmlari to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan, shuningdek 3 bosqichda olib borilgan tajriba-sinov natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: mashg'ulot, tayyorgarlik, musobaqa, tajriba, innovatsion yondashuv, tadqiqot, tajriba-sinov, mexanizm.

ANNOTATION

This article presents information about the mechanisms of pre-tournament training of tennis players aged 11-12 based on an innovative approach, as well as the results of experiments carried out in 3 stages.

Key words: training, preparation, competition, experiment, innovative approach, research, experiment, mechanism.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены сведения о механизмах предтурнирной подготовки теннисистов 11-12 лет на основе инновационного подхода, а также результаты экспериментов, проведенных в 3 этапа.

Ключевые слова: тренировка, подготовка, соревнование, эксперимент, инновационный подход, исследование, эксперимент, механизм.

KIRISH

Mamlakatimizni 2017- 2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, aholi salomatligini mustahkamlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida: Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi amalga oshirishga oid davlat dasturi amalga tatbiq etildi.

Mazkur dasturning IV. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish yo'nalishining 67-68 maqsadlari Jismoniy tarbiya va sportning muhim masalalariga bag'ishlandi. Jumladan 67 – maqsad: Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish:

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish.

Respublika yoshlari o'rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish. O'zbekistonda sportning ommaviyligini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish. Yurtimizning chekka hududlari va qishloqlarida sog'lomlashtirish ishlarini yanada rivojlantirish. Barpo etiladigan har bir "Yashil hudud"da yugurish, velosipedda harakatlanish uchun "Salomatlik yo'laklari" hamda badminton, stritbol va vorkaut maydonchalarini tashkil etish.

Vazirlik, idora hamda tashkilotlar xodimlarini va aholini sport tadbirlariga jalb qilish, ular o'rtasida musobaqalar tashkil qilish. Milliy olimpiada sport o'yinlarini o'tkazish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish. Sport o'yinlari o'tkaziladigan sport obyektlari infratuzilmasini yaxshilash va zarur sport inventarlari bilan jihozlash.

Milliy olimpiada o'yinlarini yuqori darajada tashkil etish hamda g'olib va sovrindorlarni munosib rag'batlantirish.

Milliy olimpiada o'yinlariga tayyorgarlik ishlarining borishini ommaviy axborot vositalari orqali, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida keng yoritishini tashkil etish.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda uning filiallariga qabul ko'rsatkichlarini oshirish hisobiga faoliyat yuritayotgan oliy ma'lumotli trenerlarning amaldagi 54 foizlik ulushini 2022-yilda

62 foizga, 2026-yilda 85 foizga oshirish.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning filiallari bitiruvchilarini sport ta'limi muassasalariga jalb etish kabi muhim va dolzarb masalalarga e'tibor qaratish lozimligi alohida ta'kidlab o'tildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida tennischilarni tayyorlash jarayoni mavjud bo'lib, asosan ularning mashg'ulotdagi faoliyatiga katta e'tibor berilgan, ammo ularning o'quv-yig'in mashg'ulotlarida yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda uzoq muddatli strategik loyihalari tuzilmagan va amaliyotga tatbiq etilmagan. Tadqiqot uchun tanlangan metodlar yuqori malakali sportchilarni tayyorlashda qo'l keldi va o'z amaliy ifodasini ko'rsatdi. Tadqiqotda nazariy tahlil va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov va matematik-statistik hisoblash metodlaridan foydalanildi.

TAJRIBA BOSHIDA "ALPOMISH" VA "BARCHINOY" TEST SINOVLARI BO'YICHA OLINGAN NATIJALAR

№	Guruhlar	Sportchilar soni	60 m.ga yugurish	Arqonga sakrash (1 daq.)	Kross 1000 m.	Yugurib kelib uzunlikka sakrash	Yugurib kelib koptogini	Arqonga tirmashib chiqish	Turnikda tortilish (Erkak) va skameykadan
1	Tajriba	A (4 ta)	12,0-12,4	35-40	7,00-7-30	185-200	13-17	2-3 m	10-15
		E (2 ta)	11,3-11,6	30-40	7,15-7,30	200-230	20-23	3-4 m	3-4
2	Nazorat	A (4 ta)	12,1-12,4	35-45	7,20-7-40	195-210	15-19	2-3 m	12-15
		E (2 ta)	11,1-11,6	35-40	7,20-7,30	205-234	19-23	3-4 m	2-5

Test sinovlari, texnik-taktik ko'rsatkichlar aniqlangandan so'ng biz quyidagi jadval asosida strategik loyihani amalga oshirdik.

№	O'quv yili	Mashg'ulotlar soni (haftada)	Mashg'ulot davomiyligi (daqiqa)	Sportchilar soni (barchasi)	Jismoniy sifatlarni rivojlantirish	Texnik tayyorgarlik	Taktik tayyorgarlik	Dam olish	Musobaqalar soni
1	2020-2021	4	135	6	Har bir mashg'ulot-da	Har bir mashg'ulot-da	Har bir mashg'ulot-da	1 yilda 2 marta	1 yilda kamida 4 ta
2	2021-2022	4	135	6	Har bir mashg'ulot-da	Har birmashg'ulot-da	Har bir mashg'ulot-da	1 yilda 2 marta	1 yilda kamida 6 ta

TAJIRIBA YAKUNIDA “ALPOMISH” VA “BARCHINOY” TEST SINOVLARI BO‘YICHA OLINGAN NATIJALAR

№	Guruhlar	Sportchilar soni	60 m.ga yugurish	Arqonga sakrash (1 daq.)	Kross 1000 m.	Yugurib kelib uzunlikka sakrash	Yugurib kelib tennis koptogini uloqtirish	Arqonga tirmashib chiqish	Turnikda tortilish (Erkak) va skameykadan qo‘llarni bukib yozish (Ayol)
1	Tajriba	A (4 ta)	11,0-11,45	65-70	5,55-6-26	215-235	20-28	4-5 m	20-22
		E (2 ta)	10,40-11,6	50-55	6,00-6,15	240-270	38-40	6 m	8-12
2	Nazorat	A (4 ta)	11,5-12,0	55-60	6,35-6-46	205-225	18-23	3-4 m	12-17
		E (2 ta)	11,0-11,6	40-45	6,10-6,30	230-260	28-33	4-5 m	6-8

MUHOKAMA. Hozirgi kunda aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va yoshlarni sportga jalb qilish umumxalq harakatiga aylanib bormoqda. Xususan o‘zib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi to‘g‘risida gap borganda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati beqiyos. Aytish joizki sportimizning bugungi qiyofasini dunyo tan olmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yurtimizda bu sohadagi imkoniyatlar esa cheksiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yilning mart oyida besh ta muhim tashabbus ilgari surildi. Bu – yoshlarni madaniyat, san‘at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta‘minlash vazifalarini o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi tashabbus 2022 yil 25 –fevral holatiga ko‘ra, yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun tumanda jami 251 ta sport inshootida mashg‘ulotlar olib borilib, 8 756 nafardan ortiq yoshlar qamrab olingan.

Biz maqolamizda “11-12 yoshli tennischilarni musobaqa oldi tayyorgarligini innovatsion yondashuv asosida amalga oshirishning mexanizmlari” mavzusini yoritishga harakat qildik.

Tennisdayakkama-yakkayoki juftlik o‘yinlarining nisbatan kattamaydondakechishishug‘ullanuvchilardan o‘ta shakllangan jismoniy va funksional tayyorgarlik, ziyraklik, vaziyatni oldindan sezish va to‘g‘ri qaror qabul qilish, matonat va iroda hamda yuksak faollik talab qiladi. O‘yinning ikki anjom (raketka va to‘p) ishtirokida kechishi harakat va usullarni o‘zlashtirish muddatini uzaytiradi, mahoratni shakllanishi mashaqqatli kechadi. Shunga qaramay ushbu o‘yin o‘zining jozibali harakatlar mazmuni, kishini o‘ziga rom qiluvchi texnik-taktik usullari va kombinatsiyalari bilan millionlab kattayu-kichik yoshdagi ixlosmandlarni, hatto o‘ta band tadbirkorlar, olimlar va davlat arboblarni kort maydoniga chorlamoqda. Darhaqiqat, tennis o‘yini nafaqat yuksak jismoniy, ruhiy, funksional va texnik-taktik imkoniyatlarni “charxlash” hamda sog‘liqni mustahkamlash vositasidir, balki kortda ikki yoki to‘rt sportchining bir-biriga bo‘lgan o‘zaro falsafiy va intellektual munosabatidir.

Mamlakatimizda tennis bo‘yicha qabul qilinayotgan qarorlarda mamalakatimizda, ayniqsa ta‘lim muassasalarida tennisni ilmiy asosda rivojlantirish, mashg‘ulotlarda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligiga alohida urg‘u berilgan.

Ayniqsa tennisda yuqori natijalarga erishish maqsadida strategik loyihalarni tuzib, undan unumli foydalanishni talab etadi. Ushbu loyiha doirasida biz 11-12 yoshli tennischilar uchun 2 yillik strategik reja tuzib uni amalga oshiriga harakat qildik. Loyiha boshida 11 yoshli tennischilarning “Alpomish va barchinoy” test sinovlari asosida ularning jismoniy imkoniyatlari va tennis sport turida amalga oshiriladigan texnik,

taktik harakatlari va psixologik xususiyatlari aniqladik. Quyidagi jadvalda “Alpomish” va “Barchinoy” test sinovlari asosida olingan natijalarni taqdim etamiz.

Tennis bo‘yicha mashg‘ulotlarni haftada 4 marta 135 daqiqadan tashkil etdik. Tennisda yuqori natijaga erishish, har bir sportchiga individual yondashish uchun tajriba guruhida 6 ta sportchi bilan ishladik.

Zamonaviy tennis amaliyotida qayd etilayotgan ustuvor xususiyatlardan biri yuklamalar hajmi va shiddatining borgan sari o‘shib borayotganligi, uzoq muddat davom etadigan (aksariyat 3-5 soat) musobaqa uchrashuvlarida raqobat-ning kuchayishi bilan ifodalanadi. Yuksak jismoniy va ruhiy faollik bilan kechadigan bunday jarayonlarda tennischining organizmi ko‘pincha funksional imkoniyatlar chegarasida faoliyat ko‘rsatadi.

Jismoniy sifatlar: 2 kg.li to‘ldirma to‘p va rezina bilan maxsus kuch, harakatli o‘yinlar va maxsus mashqlar orqali tezlik-chaqqonlik, chidamlilik, maxsus kuch jismoniy sifati rivojlantirildi. 2 haftada bir marta har bir sportchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda 1 km.dan 4 km.gacha yugurtirishga muvaffaq bo‘lib, ularning o‘yin chidamliligi rivojlantirildi.

Texnik tayyorgarlik – bu ko‘p yillik va muntazam olib boriladigan pedago-gik jarayon bo‘lib uning pirovard natijasi yuksak texnik mahorat bilan ifodalanadi.

Demak, musobaqalarda foydali natijaga erishish ustuvor jihatdan texnik tayyorgarlikning pirovard natijasi – texnik mahorat bilan belgilanadi. Harakat malakasini mahorat bilan ijro etish va musobaqalarda g‘alaba qozonish – bu faqat yillik sport trenirovkasi evaziga namoyon bo‘lishi mumkin. Harakat malakalarini ijro etish texnikasi qanchalik takomillashgan bo‘lsa, musobaqada g‘alabaga erishish imkoniyati shunchalik yuqori bo‘ladi.

Yuqori malakali sportchini tayyorlaning eng asosiy talabi uning tennis sport turiga xos boshlang‘ich texnikani to‘g‘ri shakllantirish bo‘lib, asosiy urg‘u tennischilarning o‘ng tomondan, chap tomondan, kesma, to‘r yonidagi texnik harakatlarni, bir martada kamida 10 ta zarbani xatosiz bajarishiga erishdik (sportchilar takomillashgani sari zarbalar soni, tezligi, kuchi oshib bordi). To‘pni o‘yinga kiritish texnikasi ustida har bir mashg‘ulotda ishlendi. (Videodars ilova sifatida taqdim etiladi).

Taktik-strategik tayyorgarlik jismoniy, texnik, funksional va psixologik imkoniyatlarni o‘zida mujassam qilgan hamda mazkur imkoniyatlarning integral ifodasi bo‘lgan uzoq muddatli, muntazam va uzluksiz shakllantiruvchi pedagogik jarayon bo‘lib, o‘z oldiga yuksak taktik mahoratni o‘zlashtirish, musobaqalarda foydali natija ko‘rsatish va g‘alabaga erishishni yagona pirovard maqsad qilib qo‘yadi.

Tennis sport turi juda boy taktik harakatlar majmuidan iborat. Har bir mashg‘ulotda aylanma zarba, kesma zarba, keskin zarba, to‘r yonidagi zarbalarni qo‘llagan holda sportchilarga taktik usullar o‘rgatildi.

Dam olish: Sportchilarning funksional imkoniyatlarini yaxshilash, keyingi jarayonga samarali tayyorlash maqsadida aktiv va passiv dam olish muolajalari amalga oshirildi. 1 yilda ikki marta (qishda – 1 hafta, yozda – 2 hafta) sportchilarga javob berildi. Bu jarayonda ular passiv va faol dam olish turlaridan foydalanib, tog‘da, har xil turistik oromgohlarda, suzish havzalarida dam olishdi. Bundan tashqari sportchilarga 1 oyda 1 marta sauna va massaj muolajalari taklif etildi.

Ovqatlanish: Sportchilar tennis mashg‘ulotlari jarayonida juda ham ko‘p kuch va energiya sarflashini, ularning yoshi, jinsi va jismoniy tayyorgarligini inobatga olgan holda individual ovqatlanish ratsioni tuzildi. Asosan yuqori kaloriyali, foydali mahsulotlardan tuzilgan ovqatlanish ratsionini qo‘shimcha vitaminlar bilan boyitishga harakat qildik.

Tajriba yakunida biz qaytib “Alpomish” va “Barchinoy” test sinovlarini qabul qildik va yuqori natijaga erishganimizga ishonch hosil qildik. Bundan tashqari 6 nafar sportchidan 2 nafari Respublika ochiq birinchiligida 1-o‘rinni, 3 nafar sportchi esa sovrinli o‘rinlarni egallashdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” 2022.29.01 PF-60 son Qarori
2. Безверхов В.П. Библиотека тренера. Теннис., «TimesNew Roman», Т., 2011., - 374 с.
3. Всеволодов И.В. Базовая подготовка юных теннисистов / Научно-методическое пособие. Изд-во: Сов. спорт, 2010., - 120 с.
4. Golenko V.A., Skorodumova A.P., Tarpiщev Sh.A. Azbuka tennisa. M.: Tera-Sport, 1999. – 126 s.
5. Pulatov Sh.A. Yosh tennischilarda zarba berish aniqligini maxsus va noan‘naviy mashqlar yordamida shakllantirish samaradorligi. // Fan sportga, 2005, №4, B.3-7.

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHDA QORAQALPOQ XALQ QO'SHIQLARIDAN FOYDALANISHNING ETNOGENEZESI VA MADANIYATINING O'ZIGA XOSLIGI

Moyanov Bklasbay Jiyenbaevich

O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali.

«Xalq ijodiyoti» kafedrasida doqenti., Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)

Mazkur maqolada milliy o'zlikni anglashda Qoraqalpoq xalq qo'shiqlaridan foydalanishning etnogenezi va madaniyatining o'ziga xosligi, ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalaridan biri bu yuksak ma'naviyatli va madaniyatli shaxslarni shakllantirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek maqolada, har bir insonda u qaysi millatga mansubligidan qat'iy nazar o'z vatani, milliy madaniyati va qadriyatlarini tarixini bilishga bo'lgan ehtiyoji uning ichki dunyosi bilan bog'liq ekanligi, xalq qo'shiqlarining yoshlar ma'naviy dunyosini boyitishdagi roli to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: milliy o'zlikni anglash, qoraqalpoq xalq qo'shiqlari, etnogenezi, ma'naviyat, madaniyat, milliy madaniyat, urf-odat, qadriyat, musiqiy bilim, an'analar, cholg'u ijrochiligi, hofizlik san'ati.

ЭТНОГЕНЕЗ И КУЛЬТУРНАЯ СПЕЦИФИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КАРАКАЛПАКСКИХ НАРОДНЫХ ПЕСЕН В ПОНИМАНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

Моянов БКласбай Жиенбаевич

Нукусский филиал Государственного института искусства и культуры Узбекистана. Доцент кафедры «Народное искусство»/ Доктор философии по педагогическим наукам (Doctor of Philosophy)

В данной статье с научно-теоретической точки освещаются этногенез и культурное своеобразие использования каракалпакских народных песен в реализации национальной идентичности, одной из основных задач системы образования, которой является формирование высокодуховных и культурных личностей. зрения. Также в статье обсуждалась потребность каждого человека знать историю своей Родины, национальную культуру и ценности, независимо от его национальности, связана с его внутренним миром, ролью народных песен в обогащении духовного мира молодежи.

Ключевые слова: осознание национальной идентичности, каракалпакские народные песни, этногенез, духовность, культура, национальная культура, традиция, ценность, музыкальные знания, традиции, игра на музыкальных инструментах, искусство.

ETHNOGENESIS AND CULTURAL SPECIFICITY OF USE OF KARAKALPAK FOLK SONGS IN UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY

Moyanov Ilasbay Jienbaevich

Nukus branch of the State Institute of Art and Culture of Uzbekistan.

Associate Professor of the Department of Folk Art / Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (Doctor of Philosophy)

This article, from a scientific and theoretical point of view, highlights the ethnogenesis and cultural originality of the use of Karakalpak folk songs in the realization of national identity, one of the main tasks of the education system, which is the formation of highly spiritual and cultural individuals. vision. The article also discussed the need of every person to know the history of his homeland, national culture and values, regardless of his nationality, connected with his inner world, the role of folk songs in enriching the spiritual world of youth.

Key words: awareness of national identity, Karakalpak folk songs, ethnogenesis, spirituality, culture, national culture, tradition, value, musical knowledge, traditions, playing musical instruments, art.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 fevral 2022 yildagi PQ-112-sonli "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarorida "2022/2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash" masalalariga alohida urg'u berib o'tilgan. [1]

Shu nuqtai nazardan qaraganda zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalaridan biri bu yuksak ma'naviyatli va madaniyatli shaxslarni shakllantirishdir. Ushbu vazifaning dolzarbligi Qoraqalpoq xalqining hayot tarzini badiiy va estetik qadriyatlarni, musiqiy pedagogikasidan foydalanish etnogenezi va madaniyatining o'ziga xosligi qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq. Madaniyatli yosh avlodni jamiyat hayoti davomida to'plangan badiiy qadriyatlarga murojaat qilmasdan amalga oshirib shakllantirib bo'lmaydi. Tarixiylik tamoyiliga ko'ra aytishimiz mumkinki, u yoki bu millatning asrlar davomida yaratgan qadriyatlari

bo'lib, unda millatga xos belgilar, fazilatlar, tuyg'ular, yaratilgan moddiy va ma'naviy an'analar asosiy o'rinni egallaydi. Bu qadriyatlar biror millat vakillari uchun milliy o'zlikni anglashda umumiy hisoblanadi.

Alohida qayd etib o'tish joizki, milliy o'zlikni anglashda millat (etnik guruh), etnik guruh kabi tushunchalarning mazmun mohiyatiga e'tibor qaratish, shuningdek har bir insonda u qaysi millatga mansubligidan qat'iy nazar o'z vatani, milliy madaniyati va qadriyatlari tarixini bilishga bo'lgan ehtiyoji uning ichki dunyosi bilan bog'liq bo'lib o'zlikni anglash jarayonida amalga oshadi. [6]

Milliy qadriyatlar jamiyatning rivojlanishi jarayonida o'zidagi va o'zga millatlardagi eng yaxshi belgilarni uyg'ulashtira borib, umuminsoniy qadriyatlar bilan bir butunlikni tashkil etadi. Ayni paytda milliy qadriyatlar dunyodagi xalqlar qatorida mazkur millatning mavjudligini, o'ziga xosligini namoyon etadiki, bundan har bir millat kishisida o'ziga xos faxr tuyg'usi vujudga keladi. Har bir millat o'z qadriyatlarini yillar, asrlar davomida yangi-yangi qirralar bilan boyitib boradi. Millat bor ekan, milliy qadriyatlar shakllanib, rivojlanib boradi va umuminsoniy qadriyatlar tarkibiga qo'shiladi.

Shu o'rinda musiqiy qadriyatlarning pedagogik vosita ekanligini ham alohida ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Cholg'u ijrochiligi, hofizlik san'atini namoyish etish ham yosh avlodni tarbiyalashning o'ziga xos ma'naviy quroli bo'lib, uning pedagogik jihatlariga – ta'lim va tarbiyadagi ahamiyatiga alohida e'tiborni qaratish muhimdir.

Tarix fanidagi mavjud ilmiy metodologik ishlanmaga ko'ra etnogenez deb ilgaridan mavjud bo'lgan bir necha etnik komponentlar asosida yangi etnos (elat)ning vujudga kelishiga aytiladi. Etnogenez (etno... va ... genez) xalqning kelib chiqishi ma'nosini anglatadi. «Etnogenez» tushunchasi fanga ilk marotaba 20-asrning 20-y. larida N. Ya. Marr tomonidan kiritilgan. [8]

Har bir xalqning tarixi uning etnogenezi va etnik tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Etnogenez etnik tarixning ma'lum bosqichlarida vujudga kelib ma'lum bir etnosning elat, xalq bo'lib shakllanishiga qadar bo'lgan davrda davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayondir. Odatda, biror bir xalqning etnogenezini, uning etnik qatlamlari tarkibini aniqlamay turib, u xalq haqida, u tarkib topgan hudud va uning davlatchiligi haqida biror ilmiy tasavvur yaratish mumkin emas. [9]

Alohida e'tirof etib o'tish lozimki, qo'shiqlar qoraqalpoq xalqining musiqiy san'atida keng rivojlangan mashhur janrlardan biri hisoblanadi. Xalq o'zining siyosiy hayot tarzi bilan ma'naviy kayfiyatini: udumi, ongi va psixologiyasini o'ziga singdirgan tarixiy voqealarga boy qo'shiqlarda aks ettirgan. Qo'shiq odamlarda halol mehnat, chin do'stlik, mustahkam muhabbat va qahramonlik hislarini o'zida mujassamlashtirib, estetik zavq bag'ishlaydi. Ular yalpi xalqning tushunchasiga, o'ylariga mos bo'lib, odamlar qo'shiq, kuylari orqali o'zlarining quvonchi, qayg'u-alamlari, orzu-istaklarini izhor etib kelgan. Chunki, so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan nozik uylarni kuy orqali berish ancha engil va ta'sirli chiqishi barchaga ma'lum. Shu sababli, xalq qo'shiqlari o'zi yaratgan xalqning hayot tarzi bilan qaynab, pishib, xalq tarixi bilan birga rivojlanib keldi.

Qoraqalpoq xalq qo'shiqlari oktyabr inqilobigacha O'rta Osiyoning boshqa xalqlaridagidek nota yozuvi bo'lmaganligi tufayli avloddan avlodga, otadan bolaga deganidek, ustozdan shogirdga o'tish yo'li bilan zamonimizga etib keldi. Qo'shiqchilar va xalq ijodiyoti vakillari yordamida asrlar davomida xalqning xotirasida saqlanib kelayotgan musiqiy boylik yoshlarimizni musiqiy tarafdin madaniyatli qilib tarbiyalashda bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. [10]

Qoraqalpoq xalqi o'zining og'zaki ijodiga, xususan, qo'shiqlarning alvon turlariga juda boydir. Ular xalqning asrlar davomida ioragida saqlanib kelayotgan o'ylari, iorak tuyg'usi va kayfiyatini bildirish barobarida chuqur tarixiy manbalarga ega.

Xalq o'zining ichki tuyg'ularini nafaqat kuy orqali, balki kuy bilan matnning birikmasi bo'lgan qo'shiq orqali ham har tomonlama etkazib bera oldi. Mehnatkash xalq o'zining qo'shiq ijodiyotida turmush voqeligini real bayon qilgan. Elning qiyinchilikga uchrab, ko'p marotaba ko'chib-qo'nishiga qaramasdan, o'zining qo'shiq ijodiyotini qadrlab asray bildi. U har qanday qiyin sharoitta ham xalqning ma'naviy boyligi sifatida xizmat qildi. Shu sababli xalq o'zining san'atini nafaqat ko'ngil ko'tarish uchun, balki ozodlik, mustaqillik, halol mehnat va yaxshi hayot uchun kechgan kurashlarda keskir qurol sifatida ham foydalandi.

Qoraqalpog'istonda san'at turlarining rivojlanishi o'zining qadim tarixiga ega. Qoraqalpog'iston noyob va boy madaniy merosga ega. Bu uning qadimiy arxeologik va me'moriy yodgorliklari, o'ziga xos xalq og'zaki ijodi, ijro san'ati, urf-odatlar va milliy hunarmandchilik faoliyatida aks etadi. Qoraqalpog'iston hududida ko'plab arxeologik va me'moriy yodgorliklar bo'lib, ular asosan mudofaa binolari va aholi turar joylari bo'ylab qad rostlagan bir necha ajoyib qal'alar misolida o'z aksini topadi. Ularning eng qadimiysi miloddan avvalgi IV asrga (Qadimgi Xorazmning Ahamoniylar imperiyasi tarkibidan chiqishi davri) borib taqaladi. Miloddan avvalgi I asrning boshlarida Qadimiy Xorazm, Kushon imperiyasiga qadar yetib borgan madaniyatning ta'siri ostida qoldi. Buning eng yorqin misolida, ajoyib Tuproq-qal'a shahri va qal'asining qurilishini ko'rish mumkin. Bu davrga kelib, qurilishning yangicha shakllari, shu jumladan, aholi punktlari ichidagi shakli biroq kichikroq qal'alar paydo bo'ldi. [9]

Qadimgi Xorazm shuningdek, zardushtiylikning vatani hisoblanadi. Bunga, saqlanib qolgan ko'plab arxeologik yodgorliklar: dahmalar, olovga sig'inadigan ibodatxonalari, ossuariylardan iborat (mayyitlar suyaklari) qabristonlari va boshqalar dalolat beradi. VIII asrda Islom dini kirib kelishi bilan nafaqat ushbu hududdagi aholining turmush tarzi va dini, balki shaharning arxitekturasi ham katta o'zgarishlarga uchradi. Ilk pishgan g'isht paydo bo'ldi va undan ajoyib me'moriy bezaklar va epigrafik yozuvlar bilan bezatilgan serhasham maqbaralar, masjidlar va gumbazli xonaqohlar qurildi. Orolbo'yi mintaqasi, minglab yillar davomida madaniyatlarning chorrahasida bo'lgan. Ushbu mintaqadan Ustyurt platosi orqali Yevropa, Kavkaz, Old Osiyo, Markaziy Osiyo va Xitoy xalqlari orasida madaniy va iqtisodiy aloqalarni rivojlanishida katta hissa qo'shgan Buyuk Ipak yo'li o'tgan. Buyuk Ipak yo'lining asosiy yo'nalishlaridan biri Don daryosining pastki oqimida joylashgan katta qadimiy Tanais shahridan o'tgan. Keyinchalik u janubiy rus tepaliklari, Quyi Povoljye, Orolbo'yini kesib o'tib, Janubiy Qozog'iston orqali Oltoy va Sharqiy Turkistonga chiqqan va Buyuk Ipak yo'lining asosiy katta yo'li bilan birlashgan degan farazlar mavjud. Shimoliy Orolbo'yidan Xorazm orqali o'tgan ushbu yo'lining yo'nalishlaridan biri So'g'diyona va yanada janubroqqacha borgan. Shunday qilib, Buyuk Ipak yo'li tarixi bilan bog'liq bir necha ming tarixiy va me'moriy yodgorliklar, Farg'ona vodiysidan Orol dengizi sohiligacha bo'lgan hududda joylashgan. Qoraqalpoqlarning o'ziga xosligi, ularning xalq og'zaki ijodi, raqs va musiqa madaniyati va marosimlarida aks etgan bo'lib, bugungi kunda ular, xalqning ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning eng keng ommalashgan turlariga, jiraular (xalq oqinlari) va baxshilar (qo'shiqchimashshoqlar) va eposlar (Alpomish va Qirq qiz va boshqalar) kiradi. Qoraqalpog'iston ana'nalari hunarmandchilikda ham yaxshi namoyon bo'lgan. Qoraqalpoq qadimiy hunarmandchilik namunalaridagi sodda naqsh va shakllar, ularning Qadimiy va O'rta asr Markaziy Osiyo ko'chmanchilari san'ati bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Qoraqalpoqlarning qadimiy hunarmandchiligi, ularning qadimiy turar joylari (yurtalar), zarur uy-ro'zg'or buyumlari va mavjud materiallari (yung, teri, suyak, yog'och, paxtalar) asnosida rivojlangan. XX asrning boshlarida yurtalarni bezatish uchun ayollar, bezakli matlar, rangbarang kigizlar tayyorlashgan, naqshli polos va sholchalar to'qishgan shuningdek, qiyqimlar to'qimachiligi bilan shug'ullanishgan. Barcha voyaga yetgan ayollar kashtachilik hunarini egallashgan. Erkaklar esa murakkabroq hunar turlari bo'lmish, yurtalar va musiqiy asboblarni tayyorlash, yog'och o'ymakorligi, zargarlik buyumlari, terini qayta ishlash va boshqalar bilan mashg'ul bo'lishgan.

O'zbeklarning Afandisi kabi qoraqalpoqlarning qiziqchisi O'mirbek laqqisi bor. O'mirbek laqqi o'z og'zaki latifalarida ayrim shaxslar va jamiyatdagi kamchiliklar ustidan kuluvchi xalq qahramoni sifatida gavalangan. U adolatsiz amaldorlar, qozilar, so'zi bilan ishi mos kelmaydigan ruhoniylar kirdikorlarini fosh qilib, mardlik, to'g'rilik, haqiqat, adolatni kuylagan. U o'z latifalarini yengil mutoyiba, achchiq hajv bilan ixcham ifodalab, tinglovchilarni xursand qilgan. Qoraqalpoqlarning qahramonlik dostonlari qadimdan ma'lum. Ulardan "Qirqqiz", "Alpomish", "Qo'blan", "Mastposhsho", «Edigey» dostonlarida qoraqalpoqlarning voqealarga boy tarixi kuylanadi. Masalan, «Edigey» dostonida Amir Temur, To'xtamish faoliyati bilan bog'liq voqealar bayon etilsa, «Qirqqiz» da qoraqalpoq xalqining XVIII asrda jung'or qalmoqlariga qarshi ozodlik kurashi, Xorazm xalqining Eron shohi Nodirshohga qarshi kurashi o'z badiiy ifodasini topgan. Qoraqalpoqlarning xalq qo'shiqlarida el-yurt yo'l boshchilari, qahramonlari Maman botir, Esangeldi mahram, Oydo'stbiy, Ernazarbiylar ulug'lanadi. Qozoq ma'rifatparvar olimi Cho'qon Valixonovning: «Qoraqalpoqlar sahrodagi birinchi shoir ham qo'shiqchilardir, shundan keyin qirg'izlar va turkmanlar», degan so'zlari bejiz aytilmagan. Qoraqalpoq adabiyotida XVII-XVIII asrlardagi tarixiy voqealarni badiiy shaklda aks ettirgan «Qirqqiz» dostoni alohida o'rin tutadi. Bu asar qoraqalpoq xalq qahramonlik eposidir. Bu doston atoqli xalq baxshisi (jirovi) Qurbonboy baxshi Tojiboy o'g'lidan 1939- 1940-yillarda yozib olingan. Asar erksevarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Asarning bosh qahramoni Guloyim o'zining qirq nafar dugonasi va o'z sevgilisi Arslon bilan birga Eron shohi Nodirshoh hamda jung'or xoni Surtoyshi hujumidan yurtini himoya qilishga o'tlanadi. Guloyim Xorazmni ozod qilib, u yerda qoraqalpoq, turkman, o'zbek Qoraqalpoqlarning o'ziga xosligi, ularning xalq og'zaki ijodi, raqs va musiqa madaniyati va marosimlarida aks etgan bo'lib, bugungi kunda ular, xalqning ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning eng keng ommalashgan turlariga, jiraular (xalq oqinlari) va baxshilar (qo'shiqchimashshoqlar) va eposlar (Alpomish va Qirq qiz va boshqalar) kiradi. Qoraqalpog'iston ana'nalari hunarmandchilikda ham yaxshi namoyon bo'lgan.

Qoraqalpoq qadimiy hunarmandchilik namunalaridagi sodda naqsh va shakllar, ularning Qadimiy va O'rta asr Markaziy Osiyo ko'chmanchilari san'ati bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Qoraqalpoqlarning qadimiy hunarmandchiligi, ularning qadimiy turar joylari (yurtalar), zarur uy-ro'zg'or buyumlari va mavjud materiallari (yung, teri, suyak, yog'och, paxtalar) asnosida rivojlangan. XX asrning boshlarida yurtalarni bezatish uchun ayollar, bezakli matlar, rangbarang kigizlar tayyorlashgan, naqshli polos va sholchalar to'qishgan shuningdek, qiyqimlar to'qimachiligi bilan shug'ullanishgan. Barcha voyaga yetgan ayollar kashtachilik hunarini egallashgan. [9]

Qoraqalpoq musiqa madaniyati milliy og'zaki ijodda gavdalanadi. Milliy musiqiy madaniyat musiqani tashuvchi va saqlab qoluvchi ijodkorlar - qo'shiqchi, baxshi, qo'shiqchi dutor cholg'usi jo'rligida qo'shiq va dostonlarni ijro etuvchi)lar, hikoyachi jьrau, qahramonlik hikoyalarni bayon qiluvchi qissaxonlar tomonidan namoyish qilinadi. Ular orasida G'aribniyaz, Eshbay, Aqimbet, Musa, Sueu, Shernazar, Arzy, Juman, Esjan, Japaq Orinbay. [8]

Xulosa qilib aytganda milliy o'zlikni anglashda Qoraqalpoq xalq qo'shiqlaridan foydalanishning etnogenezi va madaniyatining mazmunini belgilashda Sharq mutafakkirlari merosi, pandnomalari, adabiyot va san'at namunalari, tarixiy, ilmiy, diniy qadriyat, an'ana va urf-odatlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 fevral 2022 yildagi PQ-112-sonli "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori. <https://lex.uz/docs>
2. Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: "Ma'naviyat", 2007. – 240 b.
3. Qoraboyev U. Madaniy tadbirlar. (Madaniy hordiq nazariyasi va amaliyoti fani bo'yicha o'quv qo'llanma). - T.: Toshkent kartografiya fabrikasi, 2003. - 320 b.
4. Mustafayev Sh.N. Oliy ta'lim modernizatsiyasining artpedagogik asoslarini rivojlantirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Samarqand – 2023
5. Ro'ziyeva D.N. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslari: Ped. fan. dokt. ...diss. – T., 2007. – 254 b.
6. Saparova G.A. Qoraqalpoq xalqi ma'naviy-diniy madaniyati rivojiga milliy o'zlikni anglashning ta'siri. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2019
7. Ochilidiyev A. Milliy fazilatlarimiz. Vatanparvarlik. –T.: Milliy g'oya va mafkura ilmiy amaliy markazi, 2008. – 20
8. [file:///C:/Users/99891/Downloads/1998-Article%20Text-5039-1-10-20220424%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/99891/Downloads/1998-Article%20Text-5039-1-10-20220424%20(1).pdf)
9. Oriental Art and Culture – Scientific-methodical journal (dsmi-qf.uz)
10. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/etnogenez-uz/>

YOSH FUTBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIK DAVRINI MODELLASHTISH

Mo'minov Feruzjon Ilxomovich

Buxoro Davlat Pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat fakulteti

Jismoniy tarbiya va sport kafedrasida o'qituvchisi

Narzullayev Sayfullo Sadullayevich

Jismoniy tarbiya va sport kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada yosh futbolchilar bilan olib boriladigan sport tayyorgarlik jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish, ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida qurilmaviy, modulli rejalashtirishning zamonaviy yondashuvlari ko'rsatib o'tilgan. Mashg'ulot jarayonlarini tashkil etish bosqichlarga bo'lib tayyorlov jarayonlarini tashkil etish, yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik modulli orqali yillik siklni rejalashtirish va shunga asosan jismoniy sifatlarni takomillashtirib borish jarayoni davom etish ko'zda tutilgan. Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik modulli rejalashtirish jarayoni yosh futbolchilar yoshiga qarab jismoniy sifatlarni rivojlantirish, texnik va taktik harakatlarga o'rgatishni to'g'ri yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

Tayanch so'zlar: sport tayyorgarlik, mashg'ulot jarayoni, mashg'ulot jarayoni bosqichlari, umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik.

MODELING THE PERIOD OF PHYSICAL FITNESS OF YOUNG PLAYERS

Muminov Feruzjon Ilxomovich

Bukhara State Pedagogical Institute

Faculty of Physical Culture

Teacher of the Department of physical education and sports

Narzullaev Sayfullo Sadullaevich

Teacher of the Department of physical education and sports

Annotation: The article shows modern approaches to the planning and management of sports preparatory processes carried out with young players, structural, modular planning at many years of preparatory stages. The organization of training processes is provided for the organization of preparatory processes in stages, the planning of the annual cycle through the physical training module of young players and, accordingly, the process of evolutionizing physical qualities. The modular planning process of physical fitness of young players is intended to develop physical qualities depending on the age of young players, to correctly establish training in technical and tactical actions.

Keywords: Sports preparation, training process, functional training, physical training, training process stages, cycle device of training processes, round of training, competition period, transition period.

МОДЕЛИРОВАНИЕ ПЕРИОДА ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ

Муминов Ферузжон Ильхомович

Бухарский государственный педагогический институт

Факультет физической культуры

преподаватель кафедры физической культуры и спорта

Нарзуллаев Сайфулло Садуллаевич

Преподаватель кафедры физической культуры и спорта

Аннотация: В статье показаны современные подходы к планированию и управлению процессами спортивной подготовки с юными игроками, устройству, модульному планированию на этапах многолетней подготовки. Организация тренировочных процессов предусматривает поэтапную организацию подготовительных процессов, планирование годового цикла по модулю физической подготовки юных футболистов и, соответственно, продолжение процесса совершенствования физических качеств. Физическая подготовка юных футболистов модульный процесс планирования предусматривает развитие физических качеств юных футболистов в соответствии с их возрастом, правильную организацию обучения технико-тактическим действиям.

Ключевые слова: Спортивная подготовка, тренировочный процесс, этапы тренировочного процесса, общая физическая подготовка, специальная физическая подготовка, быстрота, сила, выносливость.

Maqolaning dolzarbligi va zaruriyati: Bugungi kunda dunyoda iste'dodli yoshlarni saralash, sport turlariga yo'naltirish jarayoni zamonaviy sport oldida turgan ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Sport sohasidagi yetakchi olim va mutaxassislar iste'dodli yosh futbolchilarning jismoniy rivojlanishi,

jismoniy tayyorgarligi va harakat qobiliyati samaradorligining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda mashg'ulot o'tkazish lozimligini ta'kidlaydi. Sportga jismoniy tayyorgarligiga layoqatli yosh sportchilarni tayyorlashga asoslangan uslublari, ularning kelajakdagi yutuqlarini hamda sportdagi istiqbolini bashorat qilish ko'p yillik tayyorgarlik tizimlari ajralmas qismiga aylanmoqda. Oqilona foydalangan holda sportga yo'naltirish tizimi, jismoniy sifatlari va tabiatan iqtidorlarni izlab topish rivojlangan davlatlar futbolining asosiy ko'rsatkichlaridan biriga aylanib bormoqda.

Jahonda yetuk mutaxassislar tomonidan futbol sport turida malaka mezonlari va yo'nalishlariga qaratilgan sportchilarni jismoniy tayyorgarligi, amplyasi bo'yicha yo'naltirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Futbol sport turida aksariyat tadqiqotchilar tomonidan sportchining genetikasi va jismoniy ish qobiliyati hamda, o'yinchilar joylashuvidan kelib chiqib, o'yinchining mavjud holati o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik ko'rsatkichlarini aniqlashga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Yosh futbolchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish mazmunining yetarli darajada ishlab chiqilishiga qaramay, futbol sport turida boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga jismoniy sifatlarni rivojlantirish va loyihalashtirish masalalari yuzasidan ko'plab hal etilmagan muammolar mavjudligicha qolmoqda. Yosh futbolchilarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi va harakat qobiliyatlarini obyektiv baholashga qaratilgan yangi test me'yorlarini ishlab chiqish, pedagogik, tibbiy-biologik va sosiologik uslublardan foydalangan holda kompleks tadqiqotlar asosida iqtidorli yosh futbolchilarni boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish metodikasini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda o'sib kelayotgan yosh avlodga futbol sport turi bilan shug'ullanishga juda katta e'tibor qaratilgan bo'lib ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Futbolga iqtidorli bolalarni jismoniy tayyorgarligi bo'yicha keng qamrovli, ilmiy-uslubiy ishlar to'laligicha o'rganilmaganligi, bundan tashqari futbolga bolalarni jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini baholash, ushbu ko'rsatkichlar yuzasidan doimiy monitoring ko'rsatkichlarining qayta tahlil etilmasligi futbolga xos qobiliyatlarni aniqlovchi ishonchli, informativ testlarni aniqlash va pedagogik loyihalashtirish ishlab chiqib amaliyotga joriy qilish talabini qo'yimoqda. Shuningdek, yosh futbolchilarning individual imkoniyatlarini boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida asosiy vosita sifatida ularni bosqichma-bosqich jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari qanday darajada ekanligini aniqlash, iqtidorli futbolchilar bilan shug'ullanish uchun samarali loyihalashtirish asosida mashg'ulotlarni tashkil etishning asosiy bosqichlari bo'yicha ilmiy va amaliy tajribalarga asoslangan tadqiqot ishlarini amalga oshirish davr talabi bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 4 dekabrda PF-5887-son "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 fevraldagi 118-son "2019-2023 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy Yoshlar siyosati va sport konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ilmiy-metodik ishlanmalarni yaratish kabi muhim vazifalarga ustuvor etib belgilangan [1,2,3,4,5,6].

Maqolaning maqsadi. pedagogik loyihalashtirish asosida yosh futbolchilarning tayyorgarlik davrida jismoniy tayyorgarlik mashg'ulot modelini yaratish.

Materiallar va uslublari. Sport nazariyasi va amaliyotida ko'p yillik mashg'ulot jarayoni bir nechta bosqichlarda tashkil topgan bo'lib, ular ma'lum darajali bog'liqlik va ketma-ketlikka ega:

- dastlabki sport tayyorgarligi;
- dastlabki ixtisoslashuv;
- chuqurlashtirilgan tayyorgarlik;
- sport takomillashtirish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: V.S.Fomin (1985), G.L.Drandrov, V.A.Salnikov (1986), M.M.Shestakov (1995) olimlarning nazariy tahlillariga ko'ra, zamonaviy o'quv-mashg'ulot jarayonlarini modellashtirish hodisasi, ko'p yillik sport tayyorgarlik tizimini takomillashtirishning metodologik asosi hisoblanadi. Bu ma'noda, organizmni sport tayyorgarlik faoliyatiga adaptatsiyasi jarayonini individual modellashtirish eng istiqbolli hisoblanadi.

Tajribalarda olingan ma'lumotlar, mashg'ulot yuklamalarini hajmi va shiddatini rejalashtirishdagi standart yondashuv futbolchilarning mashg'ulot jarayonini optimallashtirishga ko'maklashmasligi to'g'risida dalolat beradi. Buning uchun, murabbiy har bir sportchi to'g'risida zamonaviy axborot bilan ta'minlash zarur. Ushbu jihatdan, o'quv-mashg'ulot ta'sirlarini tizimli-pedagogik loyihalashtirish - futbolchilar jismoniy tayyorgarligini oshirish jarayonini boshqarishni ta'minlay oladigan va real shart-sharoitlarga moslashuvchan instrument hisoblanadi.

Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik modeli. Biz, ushbu tamoyilni yosh futbolchilarni dastlabki

ixtisoslashuv bosqichida jismoniy tayyorgarlik jarayonini tizimli-pedagogik loyiha modeli amalda qo'llanildi. Sport tayyorgarlikning mikro va mezasikllarda tashkil etiladigan o'quv-mashg'ulot jarayonlarining pedagogik loyiha modeli, ikki bosqichli bir qator ketma-ket amallarni nazarda tutuvchi texnologik qurilmadan iborat:

Birinchi bosqich:

Tayyorgarlik bosqichi doirasida mezosikl, bir kunlik o'quv-mashg'ulotlaridan tashkil topgan mikrosikllarda yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik strukturasi yetakchi komponentlarni belgilash.

Jismoniy tayyorgarlikning ustuvor tomonlari bo'yicha aniqlangan maqsadli ko'rsatmalarni futbolchilar yoshiga va jismoniy sifatlar rivojlanishining sensitiv bosqichlariga mos ravishda korreksiya qilish.

Maqsadli ko'rsatmani futbolchilarning o'yin amplitudasiga mos ravishda korreksiya qilish.

Ikkinchi bosqich:

Dastlabki ixtisoslashuv bosqichida tayyorgarlik, musobaqa va o'tish davrlari vazifalarni belgilash.

Tortuvchi, tayanch, nazoratli va tayyorgarlik, yo'naltiruvchi mikrosikllarni aniqlash va shakllantirish.

Mikrosikllarni jismoniy tayyorgarlik strukturasi ustuvor maqsadlariga yo'naltirilgan o'quv-mashg'ulotlaridan shakllantirish.

Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik metodikasini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik loyiha modelining qurilmaviy birligi sifatida, tayyorgarlik davrining o'quv-mashg'ulotlari tarkibi quyidagicha belgilandi:

Bir kunlik o'quv-mashg'ulotlari, yoki ish kuni, kuniga bitta yoki ikkita mashg'ulot.

Mikrosikl, haftalik o'quv-mashg'ulot kunlari - oraliq vazifalarni hal qilishga yo'naltirilgan davomiyligi 3-7 kun.

Mezosikl - davomiyligi 2-4 hafta (2-4 ta mikrosikl) bo'lgan, dastlabki ixtisoslashuv bosqichining ma'lum bir tayyorgarlik, musobaqa va o'tish davrlari oldida turgan vazifalarni xal qiluvchi mashg'ulot jarayonini bir qismi [13].

Sport tayyorgarlik jarayonlarining qurilmaviy tayanch birligi sifatida, biz, xilma xil jismoniy tayyorgarlik mashqlardan ma'lum bir vazifaga mos tarzda shakllantiriladigan bir kunlik o'quv-mashg'ulotlari (mashg'ulot kuni) belgilandi. Bu, asosiy mashqlar bankini mavjudligini nazarda tutadi.

Mashqlar bankini va ma'lum yo'nalganlikka ega bo'lgan, uni tarkibiy qismi bo'lgan vositalari majmuasini shakllantirish paytida adabiyotlarda keltirilgan materiallardan keng foydalanildi [14; 15;].

Tayyorgarlik davrida o'quv-mashg'ulotlar vazifasi sifatida, jismoniy va funksional tayyorgarlik jarayonlari, hamda qayta tiklanish mikrosikllari ta'sirlarini tadqiq qilish rejalashtirildi.

Shuni aytish joizki, mazkur texnologiya ko'p yillik mashg'ulotning deyarli barcha bosqichlarida va mashg'ulotning yillik siklini har xil davrlarida qo'llanilishi mumkin. Ushbu vaziyatda o'zgaruvchi holatlar quyidagilar bo'ladi:

Yosh futbolchilarni jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish modeli

YOSH FUTBOLCHILAR JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING LOYIHAVIY MODEL

<p><i>Ustivorligi har xil bo'lgan mashg'ulot yo'nalishlari</i></p> <ol style="list-style-type: none"> Umumiy (aerobli) chidamlilikni rivojlantirish (UCh) Kuchni rivojlantirish (K) Tezkor-kuchlanish sifatlarni rivojlantirish (TK) Maxsus (tezkor) chidamlilikni rivojlantirish (MTCh) Tezlik va tezkorlik imkoniyatlarini rivojlantirish (TTI) Jismoniy sifatlarni majmuaviy rivojlantirish (JSM) Nazorat o'yinlari (NO) Jismoniy tayyorgarlikni testlash (JTT) 	<p><i>Bir kunlik o'quv-trenirovka mashg'ulotlarining metodik qurilmasi (Umumiy (aerob) chidamlilikni rivojlantirish misolida)</i></p> <ol style="list-style-type: none"> Bir kunlik o'quv-trenirovka mashg'ulot qisqartmalari va raqamlari Mashg'ulot vositalari Mashg'ulot yuklamasining hajmi Mashg'ulot yuklamasi ta'sirida organizmning funksional ko'rsatkichlari diapazoni YuQCh (zarba/min) 	<p><i>Turli ustivorlikka ega haftalik mashg'ulotlarning ta'sir yo'nalishlari</i></p> <ol style="list-style-type: none"> Tayyorgarlik davrining umumiy tayyorgarlik etapida umumiy (aerob) chidamlilikni rivojlantirish haftaligi (UTE-UCh) Tayyorgarlik davrining umumiy tayyorgarlik etapida kuch tayyorgarligini rivojlantirish haftaligi (UTE-K) Tayyorgarlik davrining umumiy tayyorgarlik etapida jismoniy sifatlarni majmuaviy rivojlantirish haftaligi (UTE-JSM) Tayyorgarlik davrining maxsus-tayyorgarlik etapida tezkor chidamlilikni rivojlantirish haftaligi (MTE-MTCh) Tayyorgarlik davrining maxsus-tayyorgarlik etapida tezkor-kuch imkoniyatlarini rivojlantirish haftaligi (MTE-TK) Tayyorgarlik davrining maxsus-tayyorgarlik etapida jismoniy sifatlarni majmuaviy rivojlantirish haftaligi (MTE-JSM)
--	--	--

<p>Tayyorgarlik davrining umumiy tayyorgarlik etapida ustuvor yo'nalishli haftalik mashg'ulotlarning ta'sir imkoniyatlari (UTE-UCh)</p> <ol style="list-style-type: none"> Yurak-tomir va nafas tizimlarining funksional imkoniyatlarini oshirish, aerob imkoniyatlarni oshirish, umumiy chidamlilikni rivojlantirish (UCh-1) Aerob mahsuldorlikni oshirish, umumiy chidamlilikni rivojlantirish, kuch imkoniyatlarni oshirish (UCh-2) Umumiy chidamlilikni rivojlantirish, kuch imkoniyatlarni oshirish (UCh-3) Jismoniy sifatlarni majmuaviy rivojlantirish. <i>Nazorat o'yini (NO)</i> 	<p>Tayyorgarlik davrining umumiy tayyorgarlik etapida ustuvor yo'nalishli haftalik mashg'ulotlarning ta'sir imkoniyatlari (UTE-K)</p> <ol style="list-style-type: none"> Aerob mahsuldorlikni oshirish, umumiy chidamlilikni rivojlantirish, kuch imkoniyatlarni oshirish (OV-3) Kuch imkoniyatlarni oshirish, tezkor-kuch sifatlarni oshirish (TK-1) Jismoniy sifatlarni majmuaviy rivojlantirish. <i>Nazorat o'yini (KI)</i> 	<p>Tayyorgarlik davrining umumiy tayyorgarlik etapida ustuvor yo'nalishli haftalik mashg'ulotlarning ta'sir imkoniyatlari (UTE-JSM)</p> <ol style="list-style-type: none"> Jismoniy sifatlarni majmuaviy rivojlantirish (JSM-2) Umumiy chidamlilikni rivojlantirish, kuch imkoniyatlarni oshirish (JSM-3) Kuch imkoniyatlarni oshirish, tezkor-kuchlanish sifatlarni oshirish. Jismoniy tayyorgarlikni testlash (JSM-1, JTT-1) Jismoniy sifatlarni majmuaviy rivojlantirish. <i>Nazorat o'yini (NO)</i>
--	--	--

Tayyorgarlik davrining maxsus tayyorgarlik etapida o'yin amplusiga muvofiq ustuvor yo'nalishli mashg'ulotlarning ta'sir imkoniyatlari (MTE-MTCh), (UTE-TK), (UTE-JSM)

<p>Tayyorgarlik davrining umumiy tayyorgarlik etapida mezatsikl mashg'ulotlarining ta'sir imkoniyatlari bo'yicha metodik qurilma</p> <ol style="list-style-type: none"> Organizmning funksional imkoniyatlarini oshirish, umumiy chidamlilikni rivojlantirish (UTE-UCh, 2 hafta) Organizmning funksional imkoniyatlarini oshirish, umumiy chidamlilikni rivojlantirish, kuch imkoniyatlarini oshirish (UTE-K, 2 hafta) Asosiy jismoniy sifatlarni va xususiyatlarni majmuaviy rivojlantirish (UTE-JSM, 2 hafta) 	<p>Tayyorgarlik davrining maxsus tayyorgarlik etapida mezatsikl mashg'ulotlarining ta'sir imkoniyatlari bo'yicha metodik qurilma</p> <ol style="list-style-type: none"> Asosiy jismoniy sifatlarni va xususiyatlarni majmuaviy rivojlantirish (MTE-JSM, 1 hafta) Tezkor-kuch tayyorgarlikni oshirish va tezkorlikni rivojlantirish (MTE-TK, 2 hafta) Maxsus (tezkor) chidamlilikni va tezkorlikni rivojlantirish (MTE-JSM, 2 hafta) Asosiy jismoniy sifatlarni va xususiyatlarni majmuaviy rivojlantirish (MTE-JSM, 1 hafta)
---	---

Natija:Pedagogik loyihalash asosida takomillashtirilgan jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari metodikasi

Biz, taklif qilingan loyiha texnologiyasini dastlabki ixtisoslashuv guruhining yosh futbolchilari bilan tayyorgarlik davrining bir kunlik o'quv-mashg'ulotlar turkumini tuzish misolida amalga oshirdik.

Bunda, biz, 12-13 yoshli yosh futbolchilarni ixtisoslashuvi bosqichidagi maqsadli ko'rsatma futbolchilar uchun eng muhim bo'lgan harakat sifatlarni ustivor takomillashtirish bilan har tomonlama umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikdan tashkil topgan va yakuniy maqsadi – jismoniy tayyorgarlikning mustahkam

po'ydevorini yaratish hisoblanadi [14].

Yosh futbolchilarning dastlabki ixtisoslashuv bosqichidagi maqsadga erishish, yillik (makro)sikl qurilmasining turli davrlari (tayyorgarlik, musobaqa va o'tish)da, ketma-ket va parallel holda xal qilinadigan bir qator sport tayyorgarlik vazifalarini yechish orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumki, tayyorgarlik davrining ikkita: umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik bosqichlariga ajratish qabul qilingan bo'lib, ularning oldida ma'lum darajadagi vazifalar turadi [14; 15;]. Tayyorgarlik davrining umumiy tayyorgarlik bosqichida quyidagi asosiy vazifalar hal qilinadi:

1. Organizmning funksional imkoniyatlarini, avvalam bor, aerob va anaerob mahsuldorlikni, yurak-tomir va nafas tizimlarining mahsuldorligini, mushaklar kuchini va chidamliligini oshirish.

2. Asosiy jismoniy sifatlar va xususiyatlarni – chidamlilikni, kuchni, epchillikni, egiluvchanlikni majmuaviy rivojlantirish.

Maxsus tayyorgarlik bosqichida asosiy vazifalar sifatida quyidagi masalalar hal qilinadi:

1. Tezkor-kuch tayyorgarlikni oshirish.

2. Maxsus (tezkor) chidamlilikni rivojlantirish.

3. Tezkorlikni, uning barcha namoyon bo'lishlarida rivojlantirish.

Tayyorgarlik davrining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik bosqichlari oldidagi maqsadli ko'rsatmadan va sport tayyorgarlik bosqichida hal qilinadigan konkret vazifalardan kelib chiqqan holda, mashg'ulot ta'sirlari (mashqlar) banki shakllantiriladi.

O'quv-mashg'ulotlarni tuzish paytida, ma'lum bir harakat sifatini yoki energiya bilan ta'minlash mexanizmini rivojlantirish paytida mashqlarning ketma-ketligi va uyg'unligini belgilaydigan mashg'ulot yuklamalarini ijobiy uyg'unlashtirish vazifalari majburiy tartibda hisobga olingan [15].

Xulosa. Dastlabki ixtisoslashuv guruhining tayyorgarlik bosqichida o'quv-mashg'ulot ta'sirlarini tizimli-pedagogik loyihalash – yosh futbolchilar jismoniy tayyorgarligini ta'minlay oladigan va real shart-sharoitlarga moslashuvchan instrument sifatida, mikro va mezosikllar tarkibida tashkil etiladigan o'quv-mashg'ulot jarayonlarining pedagogik loyiha modelini bir qator ketma-ket amallarni nazarda tutuvchi texnologik qurilma asosida shakllantirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 –son Farmoni // "Xalq

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori 2017 yil iyun, PQ-3031-son).

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2020 yil, 30 oktyabr, PF-6099-son, <https://lex.uz/docs/5077667>.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, 03.11.2022 yildagi PQ-414-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida farmoni, 04.12.2019 yildagi pf-5887-son. <https://lex.uz/docs/4631208>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 16 iyundagi PQ-5148 son "Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. Lex.uz

7. Биткин В.М. Методические приёмы применения восстановительных средств в подготовке высококвалифицированных футболистов. автореф. дис... канд. пед. наук. Смоленск, 1999. - 24 с.

8. Вишнякова С.В., Солопов И.Н., Замов Б.М. Совершенствование функциональных возможностей спортсменов на начальных этапах подготовки в художественной гимнастике. - Волгоград, 1998.-56с.

9. Голомазов С., Шинкаренко И. Футбол: Тренировка специальной работоспособности футболистов. - М., 1994. - 88 с.

10. Дубровский С.В. Методика совершенствования физической подготовленности юных футболистов посредством направленных воздействий на дыхательную систему: Автореф. дис. ... канд. пед. наук.- Волгоград, 2000.- 22 с.

11. Курбанов З.А. Организация учебно-тренировочного процесса футболистов в условиях Узбекистана. Ташкент., 2000., 103с.

12. Кучкин С.Н. Резервы дыхательной системы и аэробная производительность организма: Автореф. дис. ... докт. мед. наук. - Казань, 1986. -48 с.

13. Радчик И.Ю., Преображенский И.Н., Овчаренко Л.Н. О технологии мониторинга процесса подготовки футболистов в годичном тренировочном цикле // Научные труды ВНИИФК 1999 года.- М., 2000.- С. 204-210.

14. Сучилин А.А., Козловский В.И., Парамонов В.Н., Шамардин А.И. Возрастная динамика психомоторики и ее учет при подготовке юных футболистов // Вопросы оптимизации учебно-тренировочного процесса юных футболистов. - Волгоград, 1988.-С. 3-11.

15. Шамардин А.А., Чёмов В.В., Шамардин А.И., Солопов И.Н. Применение эргогенических средств в подготовке спортсменов. Саратов: Научная книга, 2008.- 209 с.

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING DARS DAN TASHQARI IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Nurullayev Abduhamid Ro‘zimboyevich

Buxoro Davlat Pedagogika instituti “Jismoniy tarbiya va sport” kafedrasida dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Аннотация: Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining darsdan tashqari ijodiy faoliyatini sinfdan tashqari ishlar tizimida o‘quvchilarni sport bilan shug‘ullanishi, jismoniy tarbiya va sportning turlari bo‘yicha qobiliyatlarini rivojlantirish tuzulmasi haqida fikr-mulohazalar bildirildi

Калит so‘zlar: o‘qituvchi, jismoniy tarbiya, dars, faoliyat, sinf, mashq, mashg‘ulot.

ОРГАНИЗАЦИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИЯ ВНЕ КЛАССА

Нуруллаев Абдухамид Рузимбоевич

Доцент кафедры Физическое воспитание и спорт Бухарский государственный педагогический институт кандидат педагогических наук

Аннотация: Высказаны мнения о творческой деятельности учителей физкультуры вне уроков в системе внеклассной работы, участия учащихся в спортивных состязаниях, структуре развития их способностей в занятиях физической культурой и спортом.

Ключевые слова: учитель, физическое воспитание, урок, деятельность, занятие, упражнение, тренировка.

ORGANIZING CREATIVE ACTIVITY OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS OUTSIDE THE CLASSROOM

Nurullayev Abduhamid Rozimboyevich

«Physical education and sports» department associate professor, p.f.f.d. (PhD)

Annotation: Opinions were expressed about the creative activities of physical education teachers outside the classroom in the system of extracurricular activities, students' participation in sports, and the structure of developing their abilities in physical education and sports.

Key words: teacher, physical education, lesson, activity, class, exercise, training.

Jismoniy tarbiya darsidan tashqari ishning muhim yo‘nalishi o‘quvchilarning sog‘lig‘ini yaxshilash uchun tabiatning tabiiy kuchlaridan (quyosh, havo va suv) foydalanish hisoblanadi. Shu maqsadda maktablarda tabiat qo‘yniga sayohatlar, sayrlar tashkil etiladi. Odatda ular bolalarga ma‘lum bilim va yurish qoidalari haqida ma‘lumot berish bilan birga keladi. Piyoda sayohatda bolalar dastlabki turistik ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar (mo‘ljal olish, dam olish joyini tashkil qilish, ovqat pishirish va boshqalar). Bolalar tabiat haqidagi bilimlarini kengaytiradigan va qiziqarli odamlarning hikoyalarini eshitishlari mumkin bo‘lgan joylarga sayr va sayohatlarni rejalashtirish yaxshiroqdir. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining darsdan tashqari ijodiy faoliyatini sinfdan tashqari ishlar tizimida o‘quvchilarni sport bilan shug‘ullanishi, jismoniy tarbiya va sportning turlari bo‘yicha qobiliyatlarini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Bu muammo gimnastika, sport o‘yinlari, yengil atletika va boshqalar bo‘yicha sport seksiyalari ishini tashkil etish orqali hal qilinadi. Sinfdan tashqari ishning muhim yo‘nalishi maktabda sport tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazishdir. Bularga sport bayramlari, maktab sport kunlarini tashkil etish, musobaqalar, quvnoqstartlar, “salomatlik kunlari”, “Salomatlik haftalıkları”, krosslar va boshqalar kiradi. Umumiy pedagogik nuqtai nazardan jismoniy tarbiya fanidan sinfdan tashqari ishlarda bir qancha yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu yo‘nalishlardan biri o‘quvchilarning sanitariya-gigiyena tarbiyasini kengaytirish va chuqurlashtirish hamda tegishli ko‘nikmalarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Sanitariya-gigiyena ta‘limi mavzulari, shuningdek, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, xususan, sportchilar bilan uchrashuvlar tashkil etish, ommaviy jismoniy tarbiya harakatini rivojlantirish, sport hayotidagi eng muhim voqealar haqida suhbatlar, va ma‘ruzalar o‘tkazish masalalarini o‘z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya va sportning inson faoliyatini yaxshilashga, uning axloqiy va estetik rivojlanishiga ta‘siri haqida.

Jismoniy tarbiya - bu bolalar uchun jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarining maqsadli, aniq tashkil etilgan va tizimli amalga oshirilgan tizimi. U yosh avlodni jismoniy tarbiya, sport, harbiy-amaliy faoliyatning turli shakllariga qamrab oladi, uning aql-zakovati, his-tuyg‘ulari, irodasi va axloqi bilan birlikda bolaning tanasini uyg‘un rivojlantiradi. Jismoniy tarbiyaning maqsadi har bir bolaning tanasini aqliy, mehnat, hissiy, axloqiy va estetik tarbiya bilan yaqin, uzviy birlikda uyg‘un rivojlantirishdir. Umumta‘lim maktabining I-XI sinf o‘quvchilari uchun kompleks jismoniy tarbiya dasturida asosiy maqsaddan kelib chiqadigan asosiy

vazifalar quyidagilardan iborat: salomatlikni mustahkamlash, chiniqtirish, ish faoliyatini oshirish; yuksak axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, tizimli jismoniy mashqlar qilish zarurati; jismoniy tarbiya va sog'liqni saqlashga bo'lgan ehtiyojni tushunish; jismoniy rivojlanish istagi; mehnatga va Vatanni himoya qilishga tayyorlik; gigiena, tibbiyot, jismoniy tarbiya, sport va harbiy-amaliy faoliyat sohalarida minimal bilimlarni egallash; harakat qobiliyatlari va ularni qiyin vaziyatlarda qo'llash; fazilatlarini rivojlantirish. Jismoniy tarbiyaning vazifasi ham inson tanasining go'zalligiga ega bo'lgan bolalarni, ayniqsa, gimnastika va atletika mashqlari jarayonida, o'yin va raqobat sharoitida estetik rivojlanishidir. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari o'smirlar o'rtasida balog'at yoshidagi qiyinchiliklarni yengishga, maktab o'quvchilari o'rtasida hushyorlik uchun kurashga, giyohvand moddalar, zaharli moddalar va tamaki chekishga qarshi kurashda yordam beradi. Umumta'lim maktabining 1-11-sinf o'quvchilari uchun jismoniy tarbiya kompleks dasturi jismoniy tarbiya va sportning sinfdan tashqari shakllarini o'z ichiga oladi. U maktabdagi ommaviy sport seksiyalari, jismoniy tarbiya to'garaklari va jismoniy tarbiya to'garaklaridagi mashg'ulotlar mazmunini belgilaydi. Jismoniy madaniyat insonning turmush tarzining bir qismi - uning jismoniy va ma'naviy kuchini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar va sport mashg'ulotlari tizimi. U organizmning jismoniy va aqliy imkoniyatlari haqidagi ilmiy ma'lumotlarga, ularning namoyon bo'lishi va rivojlanishiga yordam beradigan maxsus moddiy-texnik bazaga asoslanadi. Jismoniy madaniyat umumiy madaniyatning bir qismi sifatida barcha tabiiy muhim kuchlarni va insonning axloqiy ruhini uyg'un rivojlantirishga qaratilgan. Shaxsni har tomonlama takomillashtirish tizimida u to'laqonli hayotiy faoliyat uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi: faol mehnat, normal oilaviy hayot, uyushtirilgan dam olish va to'liq ijodiy o'zini namoyon qilish. Jismoniy tarbiyaning ommaviy xarakteri va universalligi bolalar bog'chasida maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi uchun majburiy dasturlar bilan ta'minlanadi; umumta'lim va kasb-hunar maktablarining barcha sinflarida o'quvchilar uchun jismoniy tarbiyaning kompleks dasturi; oliy o'quv yurtlari, sport jamiyatlari, klublar va sog'lomlashtirish seksiyalarida jismoniy tarbiya; sport maktablari, seksiyalar, to'garaklar dasturlari, uyda va ishda tizimli mashqlar. Jismoniy tarbiyaning turli milliy shakllaridan keng foydalaniladi. Har bir madaniyatli shaxs yoshligidanoq o'zining jismonan sog'lom bo'lishi haqida qayg'urishi, gigiyena va tibbiy yordam sohasida bilimga ega bo'lishi, sog'lom turmush tarzini olib borishi zarur. Jismoniy tarbiya hayotdagi ayrim qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Bola tabiatan harakat orqali tananing tabiiy ehtiyojlarini qondiradigan faol mavjudot bo'lib, jismoniy harakatsizlik, harakatsizlik, passiv tafakkur va psixologik ortiqcha yuk sharoitida o'zini zamonaviy maktab va oilada topadi. Organizmda semizlik, patologik nevropsik va yurak-qon tomir o'zgarishlar. Bu qarama-qarshilikni bartaraf etishga yetarlicha e'tibor bermaslik oqibati turli kasalliklar, asabiy buzilishlar, yurak xurujlari, jismoniy zaiflik, ma'naviy loqaydlik, mehnatni istamaslik, mehnatga layoqatsizlik, intensiv ijtimoiy va oilaviy hayotdir. Yana bir sub'yektiv ravishda yaratilgan va kuchaygan qarama-qarshilik jismoniy tarbiyaning normal maqsadi - sog'likka erishish, dam olish, muloqot qilish va faoliyatga bo'lgan ehtiyojni qondirish, bir tomondan, ba'zi o'qituvchilar va ota-onalarning jismoniy tarbiyadan foydalanish istagi o'rtasida yuzaga keladi. Qarama-qarshiliklar va ularning salbiy oqibatlari bolalarni umumiy jismoniy tarbiya tizimiga kiritish, jismoniy tarbiyalashning barcha mexanizmlari va rag'batlantirish usullarini qo'llash orqali bartaraf etiladi. Jismoniy tarbiyaning asosiy mexanizmlari quyidagilardan iborat: jismoniy tarbiya va sport faoliyati, bu faoliyat jarayonidagi munosabatlar tizimi va uning asosida vujudga keladigan ruhiy aloqa. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari tufayli mushaklar kuchayadi, asab va qon tomir tizimlari mustahkamlanadi, organizmning kasalliklarga chidamliligi oshadi, jismoniy qobiliyatlari sayqallanadi, ma'naviy-ruhiy barqarorlik darajasi oshadi. Unda chidamlilik, matonat, o'z-o'zini engish va o'z-o'zini tarbiyalash, matonat va mehnatsevarlik kabi xarakterli xususiyatlar namoyon bo'ladi. Munosabatlar tizimi jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini to'g'ri yo'lga qo'yish natijasida axloqiy fazilatlarini tarbiyalaydi: jamoaviy, fidoyilik va o'zaro yordam, vazminlik, g'alabada hayo, mag'lubiyatda qadr – qimmat o'zaro mehr-oqibat. Muloqot boshqa shaxsga, o'rtoqlarning tajribasini o'zlashtirishga bo'lgan ma'naviy ehtiyojni qondiradi, jamoatchilik fikrini shakllantiradi va bolalarni bo'sh vaqtdan foydali foydalanishda birlashtiradi. Bolalar bilan jismoniy tarbiya va sport ishlarida faoliyat, munosabatlar va muloqot pedagogik jihatdan rag'batlantiriladi. Bola faoliyatining asosiy motivatsiyasi - jismoniy kuchni rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, demokratik jamiyatning foydali va faol a'zosi bo'lish, olingan jismoniy tarbiya va sport ko'nikmalari tufayli odamlarga yordam berish istagi. Bu rag'batlantirishlar bolalarning faollik, harakatchanlik va faollikka bo'lgan tabiiy istagi bilan uyg'unlashadi, bu jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy ahamiyatga ega shakllarida eng yaxshi amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining bolalarni jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga undashda ularning natijasi kuch va quvvatning ko'tarilishi, jismoniy zavqlanish hissi bo'lishi ham muhimdir. Bolalarda asta-sekin estetik tuyg'u, inson tanasining go'zalligidan bahramand bo'lish va go'zallik yaratish qobiliyati rivojlanadi. Tashqi to'siqlar va o'zlarining zaif tomonlari ustidan g'alaba qozonish quvonchini boshdan kechirish maktab o'quvchilarida ishlash va kurashish istagini beradi. Mag'lubiyatning achchiqligi

muvaffaqiyatga erishish va o'zini o'zi va jamoatchilik fikrida o'rnatishga borgan sari ko'proq urinishlarni rag'batlantiradi. Bolalarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi ham sog'lom intilish, do'stlari orasida mashhur bo'lish istagi bilan rag'batlantiriladi. Jismoniy tarbiya fanidan sinfdan tashqari ishlar jismoniy tarbiya bo'yicha sinfdan tashqari ishlarda, asosan, darsdagi kabi vazifalar qo'yiladi: salomatlikni mustahkamlash, tanani chiniqtirish, o'quvchilarning har tomonlama jismoniy rivojlanishi, jismoniy tarbiya o'quv dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish, shuningdek, bolalarda ma'lum tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish uchun boshlang'ich va o'rta maktablarda jismoniy tarbiya jamoalari, boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya to'garaklari tuziladi. Jismoniy tarbiya jamoasiga rahbarlik qilish jamoa kengashi va jismoniy tarbiya o'qituvchisiga, to'garakni boshqarish esa boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan biriga yuklangan. Bundan tashqari, har bir sinfda jismoniy tarbiya tashkilotchilari saylanadi. Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish mashg'ulotlari dars soatlarida va uzaytirilgan kunlarda, shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlar shaklida amalga oshirilishi mumkin. Birinchisi, to'g'ridan-to'g'ri jismoniy tarbiya darsini, mashg'ulotlar paytida jismoniy tarbiya daqiqalarini, katta tanaffus paytida jismoniy mashqlar va ochiq o'yinlarni, maktabdan keyingi mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi.

Xulosa o'rniida shaxsning jismoniy rivojlanishi to'liq aqliy mehnat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Jismonan sog'lom odam unumli ishda yaxshiroq ishlashi, og'ir yuklarni yengib o'tishi va kamroq charchashi mumkin. Jismoniy tarbiya jismoniy rivojlanishni amalga oshirish bilan bir qatorda o'quvchilarda jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishni uyg'otish, jismoniy rivojlanish va salomatlikni mustahkamlashning psixofiziologik asoslarini chuqur tushunishga, shuningdek, aqliy, axloqiy va estetik rivojlanish. Shu ma'noda jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'quvchilarning jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan ehtiyojini kuchaytirishga, ularning psixofiziologik asoslarini tushunishga, jismoniy kuch va salomatlikni rivojlantirishga, shuningdek, sanitariya va sog'lomlashtirishni rivojlantirishga qaratilgan faol jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish faoliyatini tashkil etishning ko'p qirrali jarayoni sifatida ishlaydi. Umuman olganda, shuni ta'kidlash kerakki, o'quv faoliyatining o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi va tarbiyasiga ta'siri ushbu muammoni hal qilishga yordam beradigan barcha xilma-xil vositalar va usullardan samarali foydalanishga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zimnyaya I.A. Asosiy kompetensiyalar ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning samarali maqsadli asosi sifatida / I.A. Zimnyaya. M., 2004-381 b.
2. Kuxarev I.V. Professional mukammallik yo'lida/ kitob o'qituvchi uchun. M: Ta'lim 2001-159 b. (O'qituvchining mahorati: g'oyalar, maslahatlar, takliflar)
- 3.Верхошанский Ю.В. Программирование и организация тренировочного процесса. – М.: «Атлант», 2014. –С. 156.
- 4.Колтановский А.П. Подготовка квалифицированных спортсменов. – Красноярск: ИФС, 2013. –С. 76.
- 5.Машарипов Й. Спорт психологияси. – Самарканд: СамДУ нашр-матбаа маркази, 2013. -98-б.
- 6.Маҳкамжонов К.М. Тайёрлов синфларида жисмоний тарбия дарслари. – Т.: «Ўқитувчи», 2011. -94-б.
- 7.Насриддинов Ф.Н., Шатерников Э.К. Инсон омилини шакллантиришда жисмоний тарбия ва спорт. – Т.: «Ўқитувчи», 2003. -102-б.

YOSH FUTBOLCHILARNI MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIGI MUAMMO VA YECHIMLAR

Nigmanov Bori Botirovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, jismoniy tarbiya va sport kafedrasida dotsenti.

Annotatsiya: Ushbu maqola yosh sportchilarning musobaqadan oldingi tayyorgarligida duch keladigan qiyinchiliklarni o'rganadi va ushbu muammolarni hal qilish uchun amaliy echimlarni taqdim etadi. Adabiyotlarni o'rganish, mavjud usullarni tahlil qilish, tadqiqot natijalarini taqdim etish va munozaralarda qatnashish orqali biz murabbiylar, ota-onalar va sportchilar yosh futbolchilar uchun musobaqadan oldingi bosqichni qanday optimallashtirishlari mumkinligini tushunishni kuchaytirishni maqsad qilganmiz.

Kalit so'zlar: musobaqaga tayyorgarlik, yosh futbolchilar, yosh sportchilar, qiyinchiliklar, echimlar, sport ko'rsatkichlari, murabbiylik, sport psixologiyasi.

ПРЕДСОРЕВНОВАТЕЛЬНАЯ ПОДГОТОВКА ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Нигманов Бори Ботырович

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низоми, доцент кафедры физического воспитания и спорта.

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы, с которыми сталкиваются юные спортсмены в ходе предсоревновательной подготовки, и предлагаются практические решения этих проблем. Изучая литературу, анализируя существующие методы, представляя результаты исследований и участвуя в дискуссиях, мы стремимся улучшить понимание того, как тренеры, родители и спортсмены могут оптимизировать предсоревновательный этап для юных футболистов.

Ключевые слова: подготовка к соревнованиям, юные футболисты, юные спортсмены, трудности, пути решения, спортивная результативность, тренерская работа, спортивная психология.

PRE-COMPETITION PREPARATION OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS PROBLEMS AND SOLUTIONS

Nigmanov Bori Botyrovich

Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi, associate professor of physical education and sports department.

Abstract: This article examines the challenges faced by young athletes in their pre-competition training and provides practical solutions to these challenges. By reviewing the literature, analyzing existing methods, presenting research findings, and participating in discussions, we aim to increase understanding of how coaches, parents, and athletes can optimize the pre-competition phase for young soccer players.

Key words: competition preparation, young football players, young athletes, difficulties, solutions, sports performance, coaching, sports psychology.

KIRISH. Musobaqadan oldingi tayyorgarlik yosh sportchilarni rivojlantirishning muhim bosqichidir, chunki bu ularning ishlashi va sportdagi umumiy tajribasi uchun zamin yaratadi. Ushbu maqola ushbu tayyorgarlik davrida yosh futbolchilar duch keladigan umumiy muammolarni ko'rib chiqadi va ularning salohiyatini oshirishga yordam beradigan echimlarni taqdim etadi.

Yosh futbolchilar duch keladigan qiyinchiliklar:

- Jismoniy tayyorgarlik va konditsionerlik muammolari
- Psixologik stress va ishlash tashvishi
- To'g'ri ovqatlanish va hidratsiyaning etishmasligi
- Vaqtni boshqarish va akademik bosim
- Overtraining va burnout xavfi
- Murabbiylik va qo'llab-quvvatlashning etarli emasligi

USULLARI

Sport murabbiyligi va sport fanida qo'llaniladigan turli usullar tahlili bilan bir qatorda yosh sportchilarning musobaqadan oldingi tayyorgarligi bo'yicha mavjud adabiyotlarni har tomonlama ko'rib chiqildi[2]. Bundan tashqari, fikrini jamlash uchun murabbiylar, ota-onalar va sportchilar bilan so'rovlar va intervyular o'tkazildi.

NATIJALAR

Yosh sportchilar uchun musobaqadan oldingi tayyorgarlik ularning sportda rivojlanishining qiyin, ammo hal qiluvchi jihati bo'lishi mumkin. Yosh futbolchilarni musobaqaga tayyorlashda turli muammolar va

echimlarni hisobga olish kerak:

Jismoniy tayyorgarlik: yosh sportchilar optimal jismoniy holatda bo'lmashligi mumkin, bu esa musobaqa paytida jarohat olish xavfiga olib keladi.

- Yechim: kuch, chidamlilik va moslashuvchanlik mashqlarini o'z ichiga olgan har tomonlama rivojlangan fitnes dasturini ishlab chiqing. Yosh sportchilarning asta-sekin fitnes darajasini oshirishiga ishonch hosil qiling va to'g'ri isinish va salqinlash orqali jarohatlarning oldini olishga e'tibor qarating[1].

Aqliy tayyorgarlik: yosh futbolchilar ishlash tashvishi, ishonchsizlik va diqqatni jamlash muammolari bilan kurashishlari mumkin.

- Yechim: yosh sportchilarga aqliy chidamlilik va ishonchni mustahkamlashga yordam berish uchun vizualizatsiya, yengillik texnikasi va maqsadlarni belgilashni o'z ichiga oladigan aqliy qobiliyatlarni mashq qilishni amalga oshiring.

Malakani rivojlantirish: malakaning etarli darajada rivojlanmaganligi yomon ishlash va umidsizlikka olib kelishi mumkin.

- Yechim: doimiy murabbiylik va amaliyot imkoniyatlarini taqdim eting. Asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishga va asta-sekin yanada ilg'or texnikaga o'tishga e'tibor qarating. Shaxsiy murabbiylik ayniqsa foydali bo'lishi mumkin.

Overtraining: yosh sportchilarni juda qattiq charchash, shikastlanish va ishlashning pasayishiga olib kelishi mumkin.

- Yechim: to'g'ri davriylashtirish va tiklash strategiyalarini amalga oshirish. Haddan tashqari mashg'ulot va charchoqni oldini olish uchun yosh futbolchilarni muntazam tanaffus qilishga undang.

Oziqlanish: yosh sportchilar to'g'ri ovqatlanish va hidratsiya muhimligini bilmasliklari mumkin.

- Yechim: yosh sportchilar va ularning oilalariga muvozanatli ovqatlanish va yaxshi hidratlanishning ahamiyati haqida ma'lumot bering. Ovqatlanish rejalarini tuzish uchun sport ovqatlanish mutaxassisi bilan ishlashni o'ylab ko'ring.

Hayotiy muammolarini kamaytirish: maktab, ijtimoiy hayot va sportni muvozanatlash yosh sportchilar uchun qiyin bo'lishi mumkin.

- Yechim: vaqtni to'g'ri boshqarish imkonini beruvchi Real jadval tuzing. Majburiyatni oldini olish uchun murabbiylar, ota-onalar va sportchilar o'rtasida ochiq muloqotni rag'batlantiring[3].

Noto'g'ri tiklanish: qayta tiklash ko'pincha e'tibordan chetda qoladi, ammo bu yosh futbolchilarning umumiy ishlashi va jarohatlarning oldini olish uchun juda muhimdir.

- Yechim: yosh sportchilarga dam olish, uxlash va cho'zish va ko'pikni aylantirish kabi tiklanish usullarining ahamiyatini o'rgating.

Ota-onalar va murabbiylarning bosimi: ota-onalar va murabbiylarning umidlari va bosimi yosh sportchilar uchun juda og'ir bo'lishi mumkin.

- Yechim: sog'lom va qo'llab-quvvatlovchi muhitni targ'ib qiling. Maqsad va umidlar bo'yicha hamma bir sahifada bo'lishini ta'minlash uchun ota-onalar, murabbiylar va sportchilar o'rtasida ochiq muloqotni rag'batlantiring.

Raqobat tajribasining etishmasligi: tajribasizlik asabiylashtirish va musobaqalar paytida noto'g'ri qaror qabul qilishga olib kelishi mumkin.

- Yechim: yosh sportchilarga o'rtoqlik uchrashuvlari, janglar yoki quyi stavkalar orqali musobaqa tajribasini to'plash imkoniyatlarini taqdim eting.

Jarohatlarni boshqarish: jarohatlar bilan shug'ullanish yosh sportchilar uchun qiyin va noto'g'ri muomala uzoq muddatli muammolarga olib kelishi mumkin[4].

- Yechim: shikastlanishni aniq boshqarish va oldini olish dasturini ishlab chiqing, shu jumladan muntazam tekshiruvlar va kerak bo'lganda jismoniy terapiya. Sportchilarni har qanday og'riq yoki noqulaylik haqida gapirishga undang.

Umuman olganda, yosh futbolchilar uchun musobaqa oldidan muvaffaqiyatli tayyorgarlikning kaliti sport bilan shug'ullanish bilan bog'liq xavflarni minimallashtirish bilan birga jismoniy va aqliy rivojlanishga qaratilgan muvozanatli va qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratishdir. Yosh sportchilarning farovonligini birinchi o'ringa qo'yish va ularning sportga bo'lgan muhabbatini tarbiyalash juda muhimdir.

MUHOKAMA

Natijalar musobaqadan oldingi tayyorgarlikka yaxlit yondashuvning muhimligini ta'kidlaydi. Jismoniy tayyorgarlik va sportga xos tayyorgarlik juda muhim bo'lsa-da, yosh futbolchilarning ruhiy va hissiy farovonligini e'tiborsiz qoldirmaslik kerak. Murabbiylar, ota-onalar va sportchilar o'rtasidagi hamkorlik muammolarni hal qilishda va muvaffaqiyatga erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

XULOSA

Yosh futbolchilar uchun musobaqadan oldingi tayyorgarlik ko'p qirrali jarayon bo'lib, jismoniy,

psixologik, ovqatlanish va logistika jihatlariga e'tibor berishni talab qiladi. Ushbu bosqichda yosh sportchilar duch keladigan muammolarni aniqlash va hal qilish ularning sport ko'rsatkichlarini va umumiy farovonligini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

O'qitish va akademik majburiyatlarga muvozanatli yondashuvni rag'batlantirish.

Etarli yordam ko'rsatish uchun murabbiylar, ota-onalar va sportchilar o'rtasidagi muloqotni rivojlantirish[6].

Sport psixologiyasi, ovqatlanish va kuch mashqlarini musobaqaga tayyorgarlik jarayoniga qo'shing.

Haddan tashqari mashq qilish va charchashning oldini olish uchun sportchilarning farovonligini kuzatib boring.

Xulosa qilib aytganda, yosh futbolchilarning musobaqadan oldingi tayyorgarligini optimallashtirish murabbiylar, ota-onalar va sportchilarning o'zlaridan birgalikda harakat qilishni talab qiladi. Muammolarni hal qilish va ushbu maqolada keltirilgan echimlarni amalga oshirish orqali biz yosh sportchilarga o'z salohiyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga va sport safarlaridan zavq olishga yordam bera olamiz.

Adabiyotlar.

1. Artiqov A.A. Malakali futbolchilarda texnik usullarning maqsadli aniqligini takomillashtirish metodikasi. Toshkent 2018.

2. А.К. Беляков Особенности подготовки юных футболистов Методическое пособие — М.:ФГБУ «Федеральный центр подготовки спортивного резерва», 2012. — 80 с.

3. Нуримов З.Р. Основание эффективных средств совершенствования групповых тактических действий квалифицированных футболистов. Т. 2004г

4. Акрамов Р.А. Игровые и тренировочные нагрузки в футболе. Учебное пособие. Ташкент Изд-во.Абу-Али-Ибн-Сино. – 2000 г. – с. 135.

5. Лунегов Э.А. Техническая подготовка юных футболистов 10-12 лет Екатеринбург 2019.

6. Антипов, А.В. Эффективность методики развития скоростно-силовых способностей и выносливости у юных футболистов 12-14 лет в процессе годичного тренировочного цикла [Текст]/ А.В. Антипов // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. – 2014. – №4. – С.37-39.

7. Голомазов С.В. Футбол [Текст] / С.В. Голомазов - М.: Спорт Академ Пресс, 216 - 281 с

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARDA IJTIMOY-HUQUQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI

Nishonova Munira Yakubjonovna

University of business and science universiyeti pedagogika-psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini sifat bosqichini yanada rivojlanishining hozirgi bosqichida oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari uchun malaka talablari kredit-modul tizimiga o'tib keskin o'zgardi. Ta'lim jarayonining natijasi bilim, ko'nikma va malakalarni majmuasiga ega bo'lgan kasbiy faoliyat sub'yektining rivojlanishidir. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari ma'lum darajadagi huquqiy malakaga ega bo'lgan bitiruvchini tayyorlash zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zi: ta'lim, kasbiy faoliyat, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy kompetensiya, kasbiy xulq-atvor, kognitiv (kognitiv), xulq-atvor, kommunikativ.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье в дальнейшем развитии качества системы высшего образования в Узбекистане высокие квалификационные требования к выпускнику программы высшего образования были изменены на систему кредит-модель. Результатом образовательного процесса является освоение комплекса профессиональной деятельности с совокупностью знаний, навыков и компетенций. Государственный образовательный реестр высшего образования повышает вероятность нахождения выпускника с определенным уровнем юридической квалификации.

Ключевое слово: образование, социальная активность, физическая культура, физическое сознание, физическая компетентность, физическое поведение, когнитивное (познавательное), поведение, коммуникативное.

CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF SOCIO-LEGAL COMPETENCE IN STUDENTS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Annotation: In this article, in the further development of the quality of the higher education system in Uzbekistan, the high qualification requirements for a graduate of a higher education program were changed to the credit-model system. The result of the educational process is the development of a complex of professional activities with a set of knowledge, skills and competencies. The public higher education register increases the likelihood of finding a graduate with a certain level of legal qualification.

Keywords: education, socio, professional activity, physical culture, physical consciousness, physical competence, physical behavior, cognitive (cognitive), behavior, communicative.

KIRISH. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini sifat bosqichini yanada rivojlanishining hozirgi bosqichida oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari uchun malaka talablari kredit-modul tizimiga o'tib keskin o'zgardi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.09.2021 yildagi 606-son qaroriga muvofiq, oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvga e'tibor qaratilmoqda. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish O'zbekiston oliy ta'lim tizimini yagona xorij ta'lim makoniga integratsiya qilish tendensiyasi va tajribasi bilan bog'liq holda olib borish yo'lga qo'yildi. Ta'lim jarayonining natijasi bilim, ko'nikma va malakalar majmuasiga ega bo'lgan kasbiy faoliyat sub'yektining rivojlanishidir. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari ma'lum darajadagi huquqiy malakaga ega bo'lgan bitiruvchini tayyorlash zarurligini ko'rsatadi. Ya'ni, "hozirgi vaqtda jahon ta'lim sohasida yuksak ijtimoiy-huquqiy malaka va huquqiy madaniyat darajasi bilan ajralib turadigan yangi shaxs—"qonunni anglaydigan fuqaro" shakllanmoqda". Shu munosabat bilan ta'lim muassasalari bitiruvchilari o'z mutaxassisliklari bo'yicha ko'nikma va amaliyotga ega bo'lgan, o'z faoliyatining huquqiy normalari haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Binobarin, G.A. Firsovning fikricha, zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi, uning fikricha, talabalar; birinchidan, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan, ko'nikma, amaliyot, o'z imkoniyati va mas'uliyatini anglab yetishlari, o'z huquq va majburiyatlarini bilishlari;

ikkinchidan, kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan huquqiy bilimlarni olish va amaldagi qonunlar, huquqiy normalarni mustaqil tushunish, ularni mohirona anglash va kasbiy faoliyatda qo'llash imkonini beradigan ko'nikmalarni egallash maqsadida [1].

Shaxsning kasbiy faoliyat sub'yekti sifatida rivojlanishini o'rganishga akmeologik yondashuv ilmiy

asosga ega bo'lgan kacb orqali shaxsning o'zini maksimal o'z huquqiy bilimini oshirishga yo'naltirilganligi shaxsning huquqiy kompetensiyasini akmeologik yondashuv asosida ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu esa, huquqiy ta'limda axloqiy, madaniy, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fuqaro o'z bilimini rivojlantirish jarayoniga faol ta'sirko'rsatish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimida huquqiy kompetensiyani rivojlantirishda ijtimoiy-kasbiy va xulq-atvorni huquqiy normalar, qoidalarga muvofiq tartibga solish imkonini beradigan fazilatlar va shaxsiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Huquqiy kompetensiya shaxsning huquqiy rivojlanishining tabiati va darajasini aks ettiradi, uning o'zagini faol ijodiy huquqni qo'llash faoliyatida shakllanadigan va ijtimoiy huquqiy madaniyatning qadriyat-syemantik asosi sifatida faoliyat yurituvchi huquqiy ongni tashkil etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Talabalarning huquqiy kompetensiyasining muhim xususiyatlarini tushunish uchun Yu.L. Ivlev shaxsning huquqiy ongining psixologik determinantlariga nisbatan olib qarash mumkin; huquqiy ongning asosiy psixologik belgilarini quyidagicha tahlil qiladi:

1) shaxsning qonyn ustuvorligiga rioya qilishga va jamiyat qonunlariga rioya qilishga qaratilgan qadriyat yo'nalishlari;

2) o'z burchni anglagan shaxsning axloqini shakllantirish;

3) mas'uliyatli munosabat va hissiy fon bilan ifodalanadigan hissiyva huquqiy determinantlar;

4) huquqsohasidagi bilim darajasi va ko'nimasini rivojlantirish. Shunday qilib, shaxsning huquqiy kompetensiyasini rivojlantirish mohiyatini tushunish nafaqat davlat institutlari va fuqarolar bilan o'zaro munosabatlarsohasidagi bilim va ko'nikmalarda, shuningdek, kasbiymuloqot va xulq-atvoriga ega bo'lgan ob'yektiv tashqi uslublarhayotda qonuniy xulq-atvorni amalga oshirish uchun huquqiy ta'lim asosini tashkil etuvchi shaxsning shaxsiy fazilatlarida namoyon bo'ladi.

Akmeologik nuqtai nazardan, oliy ta'lim tizimida talabalarning huquqiy kompetensiyasini rivojlanishi talabning ta'limda sub'yektiv qarashini kengaytirish, uning kasbiyva axloqiy boyitish yo'nalishida ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Talaba shaxsining huquqiy kompetensiyasining prosessual rivojlanishi, ta'lim muassasasida kasbiy huquqiy tayyorgarligi, o'quv jarayoni sub'yektlarining ta'lim faoliyatini me'yoriy tartibga solish, o'z-o'zini huquqiy madaniyatini yukaltirishning kompetensiyasi ko'rib chiqilishi kerak.

Oliy ta'lim tizimida talabalarning huquqiy kompetensiyasini rivojlanishi huquqiy kompetensiyasining rivojlanishi va yning huquqiy ijtimoiylashuvi jarayonida shakllantiradigan omillar quyidagilardir:

A) huquqiy ta'limni egallaganligi;

B) huquqiy ongni rivojlantirish;

Huquqiy kognitiv komponent bu qonun haqidagi ma'lum miqdordagi bilimlarni o'z ichiga oladi va talaba huquqiy ongining intellektual va kognitiv determinantlarini aniqlash imkonini beradi.

Emosional komponent;

1) huquqqa nisbatan hissiy munosabat yo'nalishida,

2) ikkinchidan, huquqqa nisbatan his-tuyg'ularning intensivligida namoyon bo'ladi.

Huquqiy baholash komponenti jamiyatda huquqqa oid ijtimoiy-kasbiy munosabatlarni tartibga solishda huquqiy tizimning rolini bajaradi. Huquqiy kompetensiya – faoliyatni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan kasbiy, ijtimoiy, psixologik, siyosiy, huquqiy va boshqa xususiyatlarni o'zida mujjam etgan keng qamrovli tarkibga ega. Huquqiy kompetensiya bu jamiyatda ijtimoiy boshqaruv shakli va talabalarning akmeologik madaniyati strukturasi tarkibiy qismi axloqiy-huquqiy taraqqiyotning eng yuqori bosqichi hamda shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi natijasida ma'lum darajadagi huquqiy ta'limiy rivojlanishining kasbiy kompetensiyaga asoslangan kasbiy madaniyatining ijtimoiy me'yoriy komponentining huquqiy asoslarini o'zlashtirishning oliy ta'lim tizimiga joriy etish.

Talabalarning huquqiy kompetensiyasiga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlartahlili oliy ta'lim tizimida talabalarning huquqiy kompetensiyasini rivojlanishi tushunchasini aks ettiruvchi kompleks integrativ xarakteristikasi sifatida izohlash imkonini beradi.

Bu talabada ijtimoiy va huquqiy tajribani ongli ravishda idrok etish, o'z ijtimoiy va kasbiy xulq-atvorini amaldagi huquqiy me'yorlarga muvofiq shakllantirishga tayyorligi va qobiliyati, o'z hayotiga axloqiy va huquqiy baho berish qobiliyati deb izohlash mumkin.

Shaxsning huquqiy kompetensiyasining ifodasi – bu kasbiy mahoratni rivojlantirishning akmeologik faoliyatining professionalligi, shaxsning kasbiyligi, faoliyat va xatti-harakatlarning me'yoriyligi, samarali o'zini o'zi kontsyepsiyasi faoliyatning kasbiy mahorati faoliyat tarkibidagi huquqiy, psixologik va akmeologik kompetensiyaning psixosinteziga asoslangan yuqori kasbiy kompetensiyani aks ettiradi [2].

Oliy ta'lim tizimida talabalarning huquqiy kompetensiyasini rivojlantirish va kasbiy mahorati jihatidan muhim fazilatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, huquqni oliy ta'lim tizimida izchil rivojlanishiga qaratilgan qonunchilik talablarining, huquqning motivasion sohaning va qiymat yo'nalishlarining yetarli dapjasini aks ettiradi. Faoliyat va xulq-atvor normalari hayotning huquqiy tartibga soluvchici rolini

o'ynaydi. Samarali o'zini o'zi konsepsiyasi axloqiy va huquqiy ta'lim me'yorlarni, rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirish dasturlarini shakllantirishga, ijtimoiy va kasbiy munosabatlarning boshqa sub'yektlari bilan huquqiy munosabatlar tizimini qurishga imkon beradi.

Talabalarining huquqiy kompetensiyasini shakllantirish samaradorligini oshirishda jamiyat ma'naviy madaniyati rivojlanishida huquqiy kompetensiyasining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- 1) kognitiv (kognitiv);
- 2) xulq-atvor;
- 3) aksettiruvchi;
- 4) kommunikativ;
- 5) motivasion kabilarni o'z ichiga oladi.

Kognitiv komponent jamiyatdagi huquqiy munosabatlar sohasidagi bilimlarning optimal o'ziga xos hajmini, intellektual va huquqiy rivojlanish darajasini belgilaydi.

Xulq-atvorkomponenti turli ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarda qonuniy noqonuniy xatti-harakatlar bilan tavsiflanadi.

Refleksiv komponent axloqiy va huquqiy me'yorlarga muvofiq ijtimoiy va kasbiy xatti-harakatlarning tizimli prognozini, o'z harakatlarini o'z-o'zini baholash va o'zini o'zi tavsiflash tizimi orqali ijtimoiy va kasbiy vaziyatni aniqlash, tahlil qilish va o'zaro bog'lash qobiliyatini aksettiradi. O'z «men»i va hozirgi huquqiy munosabatlar tizimi.

Huquqiy kompetensiyaning kommunikativ tarkibiy qismi o'z fikrlarini aniq ifoda etishga, ishonitirishga, bahs, dalillar tizimini tahlil qilish va hukm chiqarishni o'z ichiga oladi.

XULOSA. Motivasion tarkibiy qism shaxsning huquqiy yo'nalishi, huquqiy va kolatlarini rivojlantirish va shu asosda o'z vazifalarini bajarish va huquq va erkinliklarni amalga oshirishda mustaqil mas'uliyatli qarorlar qabul qilishni rivojlantirish istagi bilan tavsiflanadi.

Huquqiy kompetensiya tegishli kompetensiyalarni egallashdagi o'zgarishlarni aks ettiruvchidynamik xususiyatdir. Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasasida kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy qismi bo'lgan huquqiy kompetensiyalar odatda quyidagilarga qaratilgan:

- 1) huquqiyvoqelikda qo'llash jarayoni haqida tizimlashtirilgan bilimlarning zarurdapajasini ta'minlash;
- 2) huquqiy manfaatlarni, huquqiy madaniyatni, huquqiy tafakkur va ongni, huquqiy tuyg'ularni, kognitiv va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish;
- 3) ilmiy huquqiy dunyo qarashni va ulap bilan bog'liq bo'lgan boshqa sifatlarni –axloqiy, estetikani shakllantirish;

4) huquqiy o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatlarini shakllantirish, huquqiy bilimlarni oshirish zarurati va ko'nikmalari kabilarni o'z ichiga oladi. “Huquqiy kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini farqlagan holda shuni ta'kidlash kerakki, huquq sohasidagi asosiy kompetensiyalar ta'limning dinamik ijtimoiy-kasbiy sharoitlarida shaxsning huquqiy rivojlanishining mohiyatini ochib beradi. Talabaning yuqori darajadagi huquqiy kompetensiyasini ta'minlash, bu nafaqat uning qonunga bo'ysunuvchi xulq-atvorida, shaxsning huquqni amalga oshirish sohasidagi faol talabaning ijodiy harakatlarining qobiliyati huquqiy tartibga solish sohasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Фирсов Г.А. Формирование правовой культуры в учреждениях профессионального образования: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. М., 2006
- 2.Кархалев И.В. Акмеологические особенности развития правовой компетентности сотрудников наркоконтроля: автореф. дис. ... канд. психол. наук. М., 2007.
- 3 .Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. –Toshkent: T.2. O'zR IIV Akademiyasi. 1998. –B.181-182.
4. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish davr talabi /Uslubiy qo'llanma. Farg'ona. 2007. 64 b.
- 5.Sharipov A. Yoshlarning huquqiy madaniyati //Huquq -Pravo. 1998. No4. B-B. 16-19.
6. Ahmadshoeva M., Najimov M. Huquq nima? –T.:TDYUI, 2003. -35 10. Бердиева Х. Б., Бердиева Н. У. Проблемы развития социокультурной компетентности у школьников начальных классов //Евразийское Научное Объединение. - 2019. - №. 12-5. - С. 408-410.
7. Бердиева Х. Б. Развитие социокультурной компетентности у будущих учителей начальных классов //Педагогическое образование и наука. - 2020. - №. 1. - С. 128-131.

Musiqqa madaniyati ta'limida tinglash faoliyatining ahamiyati va tutgan o'rni
Nurillayeva Mavluda Supxonovna
Turkiston yangi innovatsiyalar universitetining 1 – kurs magistranti

Annotatsiya: Maqola musiqqa san'at haqida bo'lib, musiqaning kelib chiqish tarixi, uning inson ongiga ta'siri va inson hayotida qanchalar ahamiyatga ega ekanligi hamda ichki qalb kechinmalarini musiqqa orqali yoritilishi bayon etilgan. Shuningdek, maqolada musiqqa haqida allomalarning fikrlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Musiqqa, mafkura, musiqashunoslik, estetika, risola, iste'dod, uslub, meros, tafakkur, ijrochilik, sharq musiqasi.

Annotation: The article deals with the art of music, the history of the origin of music, its influence on human consciousness and its importance in human life, as well as the illumination of inner feelings through music. The article also mentions the opinions of scholars about music. A person who reads this article will have knowledge about art and music.

Keywords: Music, ideology, musicology, musicology, aesthetics, treatise, talent, style, heritage, thinking, performance, oriental music

Jamiyatning zamonaviy taraqqiyoti, inson hayoti hamda faoliyatining turli sohalarida jahon tizimlarining globallashuvi va integratsiyalashuvi, O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tilishi munosabati bilan tobora yuqori talablar qo'yimoqda. Ayniqsa, hozirgi vaqtda, ta'lim va uning sifati xalqaro tajribalarga mos bo'lishi, har bir fan doirasida bajarilgan ishlar zamon talablardan kelib chiqib bajarilishi alohida e'tirof etilmoqda.

Musiqqa ta'limi tizimida bu maqsadga erishishda boshlang'ich ta'lim jarayonida musiqqa madaniyati fanini yangi innovatsiyalar orqali tashkil etilishi kerak. Chunki O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosati milliylik xarakteriga egaligi bilan ajralib turadi. Insoniylik tamoyili asosida tashkil etiladigan boshlang'ich ta'limda musiqqa madaniyati dars jarayoni o'quvchilar erkin hamda dunyoqarashini rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni hamda 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoniga muvofiq ijtimoiy soha, jumladan, ta'lim va ilm-fan sohalarini takomillashtirish borasida qator vazifalar belgilangan. O'zbekiston Respublikasida joriy etilgan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda Milliy dastur qabul qilingandan so'ng mamlakatimiz ta'lim tizimida, xususan, musiqqa ta'limi tizimida keng qamrovli ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limdan boshlab o'zbek musiqasi va uning mahalliy ijrochilik uslublari asosida yoshlarda musiqqa madaniyatining asoslarini tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mustaqillikka erishganimizdan buyon o'tgan qisq muddatda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan barcha tarixiy, madaniy, adabiy, san'at yodgorliklari va xalq og'zaki ijodini chuqur o'rganish, tahlil qilish, ulardagi umumbashariy va milliy g'oyalarning zamonga xizmat qildirgan holda o'zbekona, sharqona tafakkurni, g'ururni shakllantirish va kamolga yetkazish doimiy e'tiborda bo'ldi. Go'zal urf-odatlarini tiklash uchun uning uzoq asrlar davomida shakllangan boy xalq og'zaki ijodiga, mahalliy ijrochilik uslublari, ezgulik, mehr-muhabbat bilan yo'g'rilgan bayramlariga diqqat e'tibor qaratish zarurligini mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq uqtirib kelindi.

Istiqlolning dastlabki kunlaridan boshlab jamiyatimizning barcha sohalarida, jumladan musiqqa ta'limi va tarbiyasida ham keskin o'zgarishlar sari yuz tutildi. Bu o'zgarishlarni asosiy yunalishi kelajagimiz vorislari bo'lmish yosh avlodni milliy-ma'naviy ruhda tarbiyalash, ularda xalqimizning tarixi, tili madaniyati milliy qadryatlariga hurmat muhabbat shu orqali milliy g'urur iftixor his-tuyg'ularini tarkib toptirishdan iborat qilib belgilandi. Har bir xalq o'zining milliy va zamonaviy musiqqa san'ati bilan bir vaqtda, ular asoslangan g'arbona musiqqa ijodiyotini shakllantirdilar. Buni, dastlabki bosqichlarini taqlidiy munosabatiga ham shubha yo'q. Lekin zamon va makon, mafkura va siyosat, qolaversa, zamonaviy ijodiy munosabatlar yangi yo'nalishlarni vujudga kelishini ta'minlaydi.

Musiqqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqqa inson ruhiyatining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Musiqadan turli ozuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni his eta oladigan, o'z kasbiga, ona Vatanga mehr qo'ygan bo'lishi kerak. Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqqa madaniyatini tarbiyalash, musiqqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi. Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun musiqqa o'qituvchisining oldiga qo'yilgan vazifalari quyidagilardir:

1. Bolalarda musiqqa san'atiga bo'lgan qiziqish va muhabbatni oshirish.
2. Musiqiy faoliyatlar jarayoni badiiy ijodkorlik va his-tuygularni rivojlantirish.

3. Asarlarning badiiy-g_oyaviy mazmuni vositasida o`quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash.

4. Musiqa darslarida kasb-hunar va mehnatga nisbatan o`quvchilarda ishtiyoq uyg`otish kabi ishlarni amalga oshirish kerak.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish musiqa mashg`ulotlarini olib boruvchi mutaxassisning professional va axloqiy qiyofasiga bog`liq. Har qanday san`atkor ham maktabda musiqa darslarni olib borolmaydi. Buning uchun, musiqa mutaxasis o`z kasbiga va bolalarga mehr qo`ygan yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo`lgan shaxs bolmogi lozim. U pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, etika va estetika nazariyasi, musiqa nazariyasining amaliy sohalaridan, musiqa o`qitish metodikasi fanlaridan chuqur bilimga ega bo`lmogi kerak. Musiqa o`qituvchisi musiqa san`atining nazariy va amaliy sohalaridan yetarli darajada bilim, ko`nikma va tajribaga ega bo`lishi lozim. Ya`ni u ham cholg`uchi, xonanda, xor dirijyori, jurnavozchi, musiqa nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida ish ko`rmogi lozim. Musiqa o`qituvchisining ijodkorligi shundaki, u mashg`ulotlarni olib borish uchun senariy muallifi, uning ijrochisi va rejissyori sifatida ish tutadi.

Ma`lumki, musiqiy faoliyat musiqa tinglash, qo`shiq aytish, musiqiy ritmik harakat, bolalar cholg`u asboblarda chalishni o`rganish kabi turlarga bo`linadi. Har bir faoliyat turi bolaning musiqiy didini rivojlantirishga yordam berib, ma`lum malakani shakllantiradi.

Bolalarda kichik musiqiy asarni tinglash ko`nikmasini pado qilish. Marsh, qo`shiq va raqs janrlari haqida ilk tasavvur paydo qilish va ularni farqlash. Musiqani mazmunan tushunishga o`rgatish: Bolalarning musiqa tinglashga bo`lgan ishtiyoqlarini qo`llab quvatlash va rivojlantirish. Tinglangan asarining mazmuni va karakterini ajrata olish, bu haqida suhbat qurish va o`z ta`surotlari bilan o`rtoqlashishga o`rgatish. Kuy tovush va ohanglardan tuzilishi haqida tasavurga ega bo`lish. Bolalarni musiqiy asarning 2 va 3 qisimli shakli bilan tanishtirish, qismlar o`zgarishini farqlashga o`rgatish, fortepiano, g`ijjak, chang, qonun kabi cholg`ular bilan tanishtirish, ular ijrosidagi kuylardan bahramand qilish. Bolalarda musiqa tinglashga ishtiyoqni qo`llab quvvatlash va rivojlantirishda davom etish. Musiqa asarining kayfiyati, karakterini mustaqil farqlash, ta`surotlari haqida hikoya qilishga o`rgatish. Vokal va cholg`u asarlaridan bahramand qilish va bu janrlar haqida tushuncha hosil qilish, ularni farqlashga o`rgatish. Marsh, qo`shiq va raqs haqidagi bilimlarini kengaytirish. O`zbek xalq kuylari bilan tanishtirib borish. Doira va nog`ora sadolaridan bahramand qilish, qayroq, taxta qarsak bilan tanishtirish; Bolalarda musiqa tinglash faoliyatida musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyatda bolalar musiqa tinglab, uni bevosita idrok eta boshlaydilar. Bu esa ularning musiqiy tafakkurlarini shakllantiradi, shuningdek, ularda musiqiy dunyoqarash ham shakllanib boradi. Tinglangan musiqiy asar haqida mulohaza yurita boshlaydilar.

Insonda musiqa tinglash madaniyati yoshlikdan rivojlana boshlaydi. Bola, musiqa madaniyati darslarining barcha faoliyatlari jarayonida, musiqani tinglab, uni idrok etadi. Ammo musiqa darslarining musiqa tinglash qismi oldida, o`ziga xos jiddiy vazifalar turadi. Avvalo, shuni eslatish lozimki, insonda kuylash imkoniyatlariga ko`ra, tinglash imkoniyatlari ancha keng bo`ladi. Masalan: milliy cholg`u asboblari ansambli, orkestr, xor, yakka cholg`u, cholg`u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab idrok etish mumkin. Shuning uchun ham musiqa tinglash jarayonida tarbiyalanuvchilarning badiiy idroki yaxshi rivojlanib boradi. Musiqa madaniyati mashg`ulotlarida musiqa tinglash uchun quyidagi talablarga ko`ra asarlarni tanlash tavsiya etiladi:

1. Tarbiyalanuvchilarning idrokiga mos xalq, mumtoz va zamonaviy musiqiy asarlarni tinglash.

2. Tarbiyalanuvchilarning musiqani idrok etish va musiqiy asarda tasvir etilgan badiiylikni his qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.

3. Musiqa haqida boshlang`ich ma`lumotlar berish, tinglangan asarlar nomlarini eslash, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarining farqini bilish hamda tinglangan asarga ma`lum darajada baho bera olish.

4. Musiqiy asarlarni ishtiyoq bilan tinglash va eslash, olgan ta`surotlar haqida o`ylash va fikr bildirish.

5. Musiqa tinglashda turg`un diqqat-e`tiborni va tinglash madaniyatini, boshlang`ich elementlarni shakllantirish.

6. Musiqiy didni shakllantirishga oid qiziqarli, mazmunli asarlarni tinglash.

Darsning har bir faoliyat turida doirachalar, shaqildoqlar, uchburchak, metallafondan foydalanish shuningdek, o`quvchilar musiqa asboblarda chalish, kuy va qo`shiqlarga mos raqs elementlarini bajarish, musiqa asboblarni chalinishini qo`l harakati bilan imitatsiya qilish, qo`shiqlarga ritmik jo`r bo`lib chapak chalish, asarlarga dirijyorlik qilishidan keng foydalanish darsni yanada qiziqarli hamda jozibali bo`lishini ta`minlaydi. Boshlang`ich sinflarda dars faoliyatlari 5 ta turdan iborat. Shunga ko`ra musiqa darsining quyidagi faoliyat turlari asosida tuzulishini unutmazlik kerak : 1. Xor bo`lib kuylash ; 2. Musiqa savodi ; 3. Musiqa tinglash; 4. Musiqaga mos ritmik harakatlarni bajarish; 5. O`quvchilar cholg`u asboblarda jo`r bo`lish; O`rta sinflarda musiqa darsi 3 ta asosiy faoliyatlardan: 1. Xor bo`lib kuylash ; 2. Musiqa savodi ; 3.

Musiqaning tinglashdan iborat ko'rishlarida tuziladi.

O'quvchilarning musiqiy ta'asurotini boyitish, tasavvurini kengaytirish, tinglash qobiliyatini o'stirish va musiqiy didni tarbiyalashda darsning musiqaning tinglash faoliyati katta rol o'ynaydi. Darsning bu faoliyat turida o'quvchilar musiqaning o'qituvchisi ijrosida, MP3 yozuvlarda yozilgan eng nodir musiqaning asarlarining namunali ijrosini tinglaydilar. Xor, orkestr, ansambl va yakkanaovozlar ijrosida turli janrdagi klassik asarlar bilan tanishadilar va san'atning katta dargohiga ilk bor qadam tashlaydilar. Musiqaning san'at sifatida tasvirlash qudratini, tabiat, hayot go'zalligini voqelik va hatti-harakatlardagi qaytarilmas, ko'z ilg'amas qirralarini musiqiy ohangdagi rang-barang bo'yoqlarda idrok etadilar, chuqurroq his qiladilar. Kuylar o'quvchilarning xotirasida chuqur o'rnatilgan qolishi uchun kuy ohanglarini o'quvchilar bilan kuylab ko'rish tavsiya etiladi.

Ayniqsa, maktab darslida berilgan asarlar musiqaning asbobi ijrosida tinglanib, so'ng uni kuylab ko'rish orqali qayta mustahkamlanadi. Shuni esdan chiqarimaslik kerakki, asarlarni yaxshi esda qoldirish uchun kamida 2-3 marta tinglash, har gal tinglash jarayonida kuyning yangi-yangi dinamik qirralari, mazmun-mohiyati bilan o'quvchilarni tanishtirib borish lozim. Kuylarni tinglash bilan o'quvchilar musiqaning turli janrlari, ya'ni marsh, qo'shiq va raqs haqida batafsil tushunchaga ega bo'ladilar. Darsning har uch asosiy faoliyat turi alohida-alohida ajralib qolmasligi, aksincha ular bir-biri bilan uzviy bog'liq holda darsning mazmuni bir butun bo'lishini ta'minlashi lozim.

O'quvchilarning ijrochilik mahoratini takomillashtirish va ularning o'zaro uyg'un kuylashini mustahkamlash uchun ba'zan ularni sinf sahnasiga chiqarib kuylatish samara beradi. Qo'shiq to'liq o'rganib bo'lingach, haftada yoki chorak oxirida o'quvchilar "Sinf konserti"ni beradilar. Sahnaga chiqish, sinfdoshlari orasida o'z o'rnini topib turish, kuylaganda bir-birlarini eshitib his qilish kabi sahna madaniyatiga qat'iy amal qila borish o'quvchilarning o'zaro munosabatlariga va xulqiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Sahnada" kuylash o'quvchilarning qo'shiqni qay darajada o'rganib olganligini aniqlash, asarning ayrim jumllarini mustahkamlab olish va qo'shiqni tantanali sharoitda namoyish qilish imkoniyatini beradi. «Sinf konserti» o'quvchilar uchun cheksiz quvonch baxsh etuvchi mashg'ulotga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Sh.Mirziyoev.2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni

V. Boltayev, J. A. Xodjayev Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqaning tarbiyasi (darslik) Samarqand 2021

Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. *Miasto Przyszłości*, 33, 167-176.

Jo'rabek Yarashev, Dilnavoz Murotova Musiqaning o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma) "Durdona" nashriyoti Buxoro – 2021

Раджабов, Т. И. (2019). Описание вековых ценностей в песне "тутовое дерево-балх" и его место в воспитании учащейся молодежи. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 70-71).

Ражабов, Д. З., & Ражабов, Т. И. (2018). Формирование и развитие узбекской народной лирики. In Международная образовательная деятельность как фактор развития и сотрудничества высших учебных заведений в современном поликультурном мире (pp. 207-212).

Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. *Miasto Przyszłości*, 33, 167-176.

Ражабов, Т. И. (2021). Ўқувчи-ёшларга ўзбек миллий музыка фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. *Science and Education*, 2(11), 1094-1103.

Тўхтасин, Р. И. (2022). ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special issue), 64-71.

Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences* ISSN, 2795(546X),

Ражабов, Т. (2023). O'zbek bolalar musiqiy o'yin folklorining mavzuviy tasnifi. *Общество и инновации*, 4(5/S), 340-345.

Ражабов, Т. И. (2022). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Народные Музыка И Песни. *Miasto Przyszłości*, 29, 363-367.

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi kitobidagi ilmiy-ommabop matn va maqolalarning janriy xususiyati hamda ifoda usullari

Nusratova Hamida Cho'liboyevna,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

Нусратова Хамида Чулибоевна,

Ташкентский международный университет Кимё доцент, филологические науки доктор философии PhD

Nusratova Khamida Chuliboyevna,

Tashkent International University Kimyo Associate Professor, Philological Sciences PhD

Аннотация. Мақолада boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi kitoblaridagi ilmiy-ommabop matn va maqolalar haqida nazariy ma'lumot, ilmiy mushohadalar bayon qilinadi, ham o'quvchida badiiy-estetik zavq uyg'otishi o'z mohiyat e'tibori bilan o'quvchi ta'lim-tarbiyasiga xizmat qilishi haqida ma'lumot berilgan.

Аннотации. В статье излагаются теоретические сведения и научные наблюдения по поводу научных и популярных текстов и статей в учебниках по грамотности чтения в начальной школе, а также приводятся сведения о том, что привитие художественного и эстетического удовольствия ученику служит его воспитанию.

Annotations. The article presents theoretical information and scientific observations regarding scientific and popular texts and articles in textbooks on reading literacy in elementary school, and also provides information that instilling artistic and aesthetic pleasure in a student serves his education.

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida 2030-yilga borib PISA o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish bo'yicha vazifalar belgilangan. Fan, texnika va innovatsion texnologiyalarni rivojlanishi natijasida, o'quv-tarbiya jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan) foydalanib, yani innovatsion yondashuv asosida ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va yuzaga kelgan iqtisodiy ehtiyojlar mamlakatdagi ko'p sonli aholining ona tili bo'lgan o'zbek tilini davlat tili sifatida o'rganishni shart qilib qo'ydi, bu esa ko'p millatli jamiyat sharoitida katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Tildan foydalanish - bu ijtimoiy faoliyatning muayyan turi sohasida kishilarning o'zaro muloqotidir. Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi - bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarini mujassamlagan yoshlarga bog'liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, Vatan taqdiri uchun sidqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalariga olib chiqish avvalo o'qituvchi va tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharafli va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi. Kishilar nutq yordamida muayyan vaqtda nimalar yuz berayotganini xabar qilibgina qolmay, balki asrlar davomida insoniyat to'plagan bilimlarni, urf-odatlarini, qadriyatlarini avloddan - avlodga etkazib beradilar. Insonlar tildan fikr bayon qilish quroli sifatida foydalanadilar. Albatta, inson o'z fikrini bayon qilishidan avval, nima haqida so'zlashni o'ylab oladi.

Boshlang'ich ta'limga uzoq yillar davomida, asosan, o'quvchilarda o'qish, yozish, hisoblash va hokazolarga oid elementar ma'lumot berishga va atrof olam haqidagi tasavvurlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan ta'lim sifatida qaralib kelingan. Endilikda ta'limning ushbu bosqichi oldiga o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vazifasini alohida belgilab qo'ydi. Bola ongining rivojlanishida boshlang'ich ta'lim eng muhim vosita hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchida eng avvalo, o'qish o'rganish istagi va ko'nikmasi hosil bo'lishi lozim. Buning uchun o'qituvchi o'quvchini qiziqishlari va intilishlarini hisobga olgan holda unga yangidan yangi ma'lumotlarni taqdim etishi taqozo etiladi. O'zbekistonimizning taraqqiyot yo'li faqatgina ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlardangina emas, balki jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga bog'liq edi. Shunga ko'ra yurtboshimiz bu borada ma'naviyatni shakllantirishda ta'limning ustuvorligiga e'tibor berdi va O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish uchun sharoit yaratish zarurligini alohida ta'kidlab o'tdi. Zotan, mamlakatimizning istiqbol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Yosh avlodni milliy va umumbashariy, ularni xalqimizning boy ma'naviy merosini o'rganishga

rag'batlantirish, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari singdirish asosida ularning o'z qobiliyatlarini namoyish etishga yo'llash kabilar ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlarning asosini tashkil etadi.

Ta'bir joiz bo'lsa, ana shu mustaqil fikrlash mohiyati boshlang'ich sinflardayoq o'quvchilarga singdirilishi istiqbol davri maktab darsliklarining yangi avlodiga xos asosiy xususiyatdir. Shu ma'noda, o'qish savodxonligi va ona tili umumiy boshlang'ich ta'limning asosiy fanlar sirasiga kiradi. Bunda o'quvchi o'z fikrini bayon qilish uchun o'qish darsini, uni yozma shaklda ifoda etish uchun ona tilini bilishi shart. O'qish va ona tili darslari o'quvchini fikrlash darajasining o'sishida, bilim va ko'nikmani shakllantirishda, ilmiy tushunchalarini, nutqiy malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'limda ona tilining vazifasi bolaning nutqiy ko'nikmalarni me'yor asosida shakllantirishdan iboratdir. Buning uchun bolada fikrni ifodalash malakasini oshirish, lug'aviy birliklar zahirasini ko'paytirib borish, so'zlarni o'zaro biriktirish, gap tuzishga o'rgatish va shu bilan birga, o'z fikrini yozma shaklda to'g'ri yozishga o'rgatishdan iborat bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi kitoblari esa o'z mohiyat e'tibori bilan o'quvchi ta'lim-tarbiyasiga xizmat qiladi. Jumladan, ilmiy-ommabop matn va maqolalar orqali ham nazariy ma'lumot, ilmiy mushohadalar bayon qilinadi, ham o'quvchida badiiy-estetik zavq uyg'otadi. Bunday matnlardagi fikr bolaga tez ta'sir qiladi; muhim voqealar, hayotiy dalillar, yetuk tarixiy shaxslar to'g'risidagi fikrlar, rivoyat va hikmatlar yosh avlod tafakkurini shakllantirishga asos bo'ladi. Shu sababli O'rta Osiyo mutafakkirlaridan Forobiy, Abu Ali ibn Sinolar ham inson tarbiyasiga ta'sir etadigan omillar ahamiyatiga e'tibor berib kelganlar. Forobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: "Munosib inson bo'lish uchun odamda ikki imkoniyat– ta'lim va tarbiya imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir..." – deydi. Umuman, tarbiya ko'rinishlari, shakllari haqida turgli davrlarda jahonning barcha buyuk pedagoglari o'z munosabatlarini bildirishgan. Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning (1592—1670) maktab tizimi va bolalarni o'qitishga oid ayrim fikrlari bugungi pedagogikamiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Olim maktablarning to'rt xilini, chunonchi, "Ona maktabi har bir oilada; ona tili xalq maktabi har bir jamoada, har bir qishloqda va aholi yashaydigan har bir joyda; gimnaziya har bir shaharda, akademiya esa har bir davlatda yoki kattaroq har bir viloyatda bo'lishi zarur", – deydi.

Komenskiy maktablarning to'rt turini yilning to'rt fasliga o'xshatgan. «Ona maktabi» xushbo'y o'simliklarning g'uncha va gullariga burkangan ajoyib bahorni eslatadi. «Ona tili» maktabi ayrim ertangi mevalar pishgan va yetilgan yozga o'xshaydi. Gimnaziya dalalar, bog' va terakzorlardagi mo'l hosilni yig'ib, uni aql xazinasiga joylayotgan yoz faslini eslatadi. Nihoyat, akademiya yig'ilgan hosilni umr bo'yi sarflashni mo'ljallab taqsimlayotgan qishdir.

Ayniqsa, Komenskiy ta'lim tizimidagi siyosiy va iqtisodiy ahvol haqida bolalar uyda va shaharda har kuni ularning ko'z oldida sodir bo'layotgan hodisalarni tushunish uchun zarur bo'ladigan darajada bilishlari lozim, degan qarashlari bugungi darsliklar, jumladan, boshlang'ich sinf o'qish kitobidagi ilmiy-ommabop maqola va matnlar maqsadiga hamohangligidan dalolat beradi. Yoki, kosmografiya asoslarini, osmonning yumaloq shaklda ekanligini, yerning sharsimonligini, yerning atrofini okean o'rab turganligini, dengiz va daryolarning egri-to'g'riligini, kattaroq qit'alarni, Ovrupoda joylashgan asosiy davlatlarni bilishlari, o'quvchilar, ayniqsa, o'z vatanlaridagi shaharlar, tog'lar, daryolar va boshqa barcha diqqatga sazovor narsalarni bilib, o'rganib chiqishlari zarur. Bu ham aynan ilmiy matnlarda o'z ifodasini topishi va bugungi kunda alohida fanlardan tashqari, o'qish kitoblarida ham ommabop shaklga moslab berilishi ayon. Buyuk pedagog Ovrupo qit'asi haqida gapirarkan, bu bilan o'z Vatani hududini har bir o'quvchi yaxshi bilishi lozimligi anglashiladi. Demakki, O'zbekiston va unga chegaradosh, yoki uning viloyatlari haqidagi ilmiy-ommabop matnlarning boshlang'ich sinf o'qish kitoblarida berilishi ta'lim tizimida muhim rol o'ynashi an'anaviydir. Barcha narsalar bolalarning yosh xususiyatiga mos bo'lishi lozim. Shuni nazarda tutish lozimki, bola tabiati quvnoqlik, hazilkashlik, sho'xlikka moyil bo'lib, jiddiylik va rahmsizlikni xush ko'rmaydi. Zotan, turmushda qachondir zarur bo'ladigan jiddiy narsalarni o'rganishi, shunda ham oson va mamnuniyat bilan o'rganishi uchun foydali narsalarni qiziqarli shaklda bayon etish, shu yo'l bilan bola aqlini biz istagan tomonga qaratish lozim.

Iogann Genrix Pestolotsining buyuk kashfiyotlaridan biri Shvetsariyada dastlabki xalq maktablarini tashkil etishidir. Xalq maktabining maqsadi: bolalarga keyinchalik ular eslaridan chiqarib yuboradigan ma'lum darajada muayyan bilimlar berish emas, balki maktab, o'z tevaraklaridagi tabiatga va ijtimoiy munosabatlarga ongli qarashni ularda tabiiy suratda vujudga keltirish va ularni mustaqil ravishda oqilona hayot kechirish va ishlashga qobiliyatli kishilar qilib yetishtirish edi.

Bunday ta'lim tizimidagi e'tirofli jihat ta'kidlab ko'rsatilgan munosabatlardir. Ya'ni, bolalarga yoshlikdan ijtimoiy dunyoqarashni shakllantirish, mustaqil mushohada yuritish ko'nikmasini shakllantirish hamma zamonlarda muhimlik kasb efgani anglashiladi. Qolaversa, istiqbol davri o'qish kitoblarining o'ziga xosligi aynan shunday ruhning ustivorligi, aniqrog'i, ilmiy-ommabop matn va maqolalar salmog'ining ortayotgani bilan diqqatni tortadi. Tolstoy o'zining didaktika to'g'risidagi fikrlarini bayon qilishda boshlang'ich ta'lim

kitoblari qanday bo‘lishi haqida ko‘rsatmalar beradi. Kitobga kiritilgan materiallar bolalarni qiziqtiradigan va ularning tushunishi uchun qulay bo‘lishi, sodda til bilan yozilishi, ko‘p so‘zli bo‘lmasligi kerakligini uqtiradi.

Tolstoy o‘zining didaktik qarashlari va darslik kitoblarga qo‘ygan talablariga asoslanib 1872- yilda nashr etilgan «O‘qish kitobi»ni tuzadi. Keyinchalik bu kitob ikki marta qayta ishlanib, 1875-yilda «Yangi o‘qish kitobi» nomi bilan nashr etiladi. Yuksak badiiylik, ifodalilik, qisqalik va soddalik, materialning bolalarga tushunarligi va jozibaligi Tolstoy tuzgan kitoblarning muhim belgilaridan edi. Aytish mumkinki, bunday talablar istiqlol davri o‘qish kitoblarining ham mazmun maqsadini belgilaydi. Darsliklardagi folklor namunalari, adabiy-badiiy ijod namunalari hamda ilmiy-ommabop matn va maqolalar ilmiy dunyoqarash, tafakkur va salohiyatini shakllantirishdir. O‘quvchini shaxs sifatida kamol toptirish omillargi rang-barang. Har bir o‘quv predmeti o‘z mazmuniga muvofiq ravishda o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishga ma‘lum hissa qo‘shadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi darslari orqali bu ish amalga oshiriladi.

O‘qish kitoblaridagi ilmiy-ommabop matn va maqolalar o‘quvchida tafakkur hosil qilishning asosiy ifodasi hisoblanadi. Ilmiy ommabop matn va maqolalar haqida fikr yuritganda, avvalo, ularning ma‘no mohiyatiga teranroq nazar tashlash lozim.

Ilmiy-ommabop maqolalarni o‘qitishdan asosiy maqsad ham shu ma‘noda bolalarga tabiat, kishilar mehnati va ijtimoiy hayoti haqida muayyan bilim berish, bolalarni kitob bilan mustaqil ishlashga va undan aniq bilim olishga o‘rgatishdan iborat. Tarixiy mavzudagi maqolalarni unga mos rasmlar bilan bog‘lab o‘qitish kishilar ilgari baxtli hayot uchun, o‘z hayotlarini yaxshilash uchun, ota-bobolarimiz dushmandan Vatanni saqlash uchun qanday kurashganliklarini tushunib yetishga yordam beradi; bolalar mehnat hayotning asosi ekanini, kishilar hayoti mehnat tufayli rivojlanib, farovonlashib borishini bilib oladilar.

Maqola arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, nutq, kichik asar ma‘nolarini bildiradi. Shuningdek, to‘plam, jurnal, gazeta va shu kabilar uchun yozilgan yoki ularda bosilgan, hajmi uncha katta bo‘lmagan ilmiy yoki publitsistik asardir. Publitsistika esa lotincha “publikus” so‘zidan olingan bo‘lib, “ijtimoiy” ma‘nosini bildiradi hamda adabiyotning alohida turini tashkil etadi. U yozilish uslubiga ko‘ra ilmiy va badiiy ijod namunalaridan farqlanadi. Fanga aloqador asarlar ilmiy uslubda, badiiy ijod namunalari badiiy uslubda yaratilgani kabi publitsistik asarlarning ham o‘z uslub mavjud. Publitsistik asarlar, avvalo, faqat publitsistikagagina xos ijtimoiy ruhdaligi bilan ajralib turadi. Fanning asosiy predmetini ilmiy nazariya, adabiyotnikini insonshunoslik tashkil qilsa, publitsistikaning asosiy predmetini ijtimoiy-siyosiy hayot, moddiy turmushdagi dolzarb muammolar tashkil etadi. Tasvir predmetining o‘zgachaligi, voqelikni ifodalash yo‘nalishi va uslubining boshqachaligi jihatidan ham publitsistika ijod sohasining mustaqil turi hisoblanadi. Bundan tashqari, publitsistik asarlar ma‘lum ijtimoiy-siyosiy, moddiy voqelikni baholash maqsadida yaratilishi bilan ham o‘ziga xoslik kasb etadi. Ularda o‘quvchiga murojaat etish, ijtimoiy voqelikda faol ishtirok etishga chaqiriq ruhi etakchilik qiladi. Zero, publitsistik asarlar o‘quvchida hayot, mavjud ijtimoiy sharoit, tarixiy davr to‘g‘risida tushuncha tasavvur hosil etishga xizmat qiladi. Publitsistika ijtimoiy hayot yangiliklari, muammolarini tez va haqiqiy aks ettirish, tarixiy dalillarni umumlashtirish, baholash imkoniyatiga egaligi tufayli o‘zgachalik kasb etadi. Maqola publitsistikaning alohida janri sifatida o‘ziga xos ko‘rinishlariga ega. U mavzusiga ko‘ra ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ommabop yoxud, adabiy-tanqidiy bo‘lishi mumkin. Va ularning har biri yana ichki bo‘linish hamda xususiyatlarga egadir. Maqolada ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinib, nazariy va ommaviy jihatdan umumlashtiriladi, davlat siyosati, iqtisodiyot, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar, ilg‘or ish tajribalari ommalashtiriladi. nazariy maqola va targ‘ibot maqolaning asosiy vazifasi mustaqillik, milliy g‘oya, istiqlol mafkurasining asoslari va prinsiplarini; ilmiy maqolaning vazifasi fan, madaniyat, texnika yutuqlarini tushuntirish, ommalashtirish, o‘quvchining g‘oyaviy, ilmiy saviyasini oshirishdan iborat. Shu mantiqdan qaralsa, ilmiy-ommabop maqolalarning mohiyati oydinlashadi. Chunki ilmiy-ommabop adabiyot-xalq ommasini fan va texnika masalalari, yutuqlari hamda fan arboblari tarjimai hollari bilan tanishtirish uchun mo‘ljallangan nashrlar (kitob, risola, jurnal va b.) hisoblanadi. Bu nashrlar ilmiy masalaning mohiyatini to‘la saqlagan holda uni keng omma uchun tushunarli uslubda bayon etadi, o‘quvchining g‘oyaviy-ilmiy saviyasini o‘stirishga, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Shunga o‘xshash ilmiy-ommabop kinoda barcha ilm jabhalari—fan, texnika muvaffaqiyatlari targ‘ib qilinadi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning turli jihatlarini aks ettiradi. Bunda tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari xulosalab ko‘rsatiladi, murakkab ilmiy muammolarni ommaga tushunarli qilib yetkazadi. Shu mantiqdan qaralsa, boshlang‘ich sinf o‘qish kitoblaridagi ilmiy-ommabop maqolalar o‘quvchilarning bilishi zarur hisoblangan ilmiy manbalar, tarixiy shaxslar faoliyati, ularning buyuk kashfiyotlari, yoxud, ko‘pgina sohalarda erishilgan fan va texnika yutuqlari o‘quvchilar tushunchasiga moslab bayon qilinadi. Demak, ilmiy-ommabop maqola—ilmiy kashfiyotlar, ma‘lumotlarni ommaga tushunarli qilib yetkazilishi hamda maqola janri uslubida bayon qilinishidir.

Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi kitoblaridagi ilmiy – ommabop maqolalar har bir sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatiga qarab turli mavzu va ko‘rinishda aks

etadi. Bunday maqolalar nazariy ma'lumotlar, aniq ilmiy manbalar asosida o'quvchilarga moslab hikoya qilinadi, tarixiy shaxs yoxud, voqelik haqida, ijtimoiy hayotdagi muhim hodisalar to'g'risida mushohada yuritiladi, mulohazaga to'yinadi, ibratomuz, ma'rifiy saboq vazifasini o'taydi.

Matn esa nutqiy hodisa bo'lib, u ikki va undan ortiq gapning mazmunan birikishidir. Masalan, "Bahor. Daraxtlar gulladi." Shaklidagi uchtagina so'zning mazmunan birikishidan tortib, butun boshli badiiy romanlar, yirik trilogiyalar ham matn sanaladi. Har bir matn ma'lum bir narsa, voqea-hodisani tasvirlaydi, u haqda xabar beradi, so'zlovchining munosabatini ifodalaydi. Matn o'z tuzilishiga ko'ra gap, murakkab sintaktik butunlik, xat boshi (abzats), bo'lim, qism, bob va paragraflardan tashkil topishi mumkin. O'quvchilalar tomonidan yaratilgan matnlar esa asosan gap, abzats va qismdan iborat bo'ladi. Bu birliklar, albatta, matn hosil qilishda ishtirok etadi va uni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Boshlang'ich sinf ta'limida matnning tasvir, rivoya va muhokama kabi bayon usullaridan ko'proq foydalanadi. Aslida esa matn (arabcha-yelka) nutqning yozuvdagi ifodasini bildiradi. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat, bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismiga nisbatan ushbu tushuncha qo'llanadi. Shunday ekan, avvalo, boshlang'ich sinf o'qish kitoblarida nashr etilgan barcha turdagi ijod namunalari, adabiy-badiiy asarlar matn deb yuritilishi mumkinmi, degan fikr ham paydo bo'ladi. Ularning janri, uslubiga qarab tafovutlash mumkin bo'ladi. Aytaylik, uslubiga ko'ra– badiiy, ilmiy, publitsistik matn; janriga ko'ra hikoya, qissa, ertak matni kabi. Biroq, shunisi diqqatga sazovorki, boshlang'ich sinf o'qish kitoblarining istiqbol yillarida nashr etilayotgan yangi avlodi adabiy, janriy istilohlarga e'tibor qaratmoqda. Ya'ni, har bir sinf o'qish kitobida matnlar va janrlarni ta'kidlab ko'rsatish an'anaga aylanmoqda. Masalan, 2-sinf o'qish kitobida shunday qoida namunasi berilgan: "Maqol nima?"–maqollar xalq o'g'zaki ijodiga kiradi. Odamlar hayotda ko'rgan-kechirganlari asosida maqollarni yaratadilar. Maqollar kichik hajmda bo'lib, pand-nasihat mazmunini ifodalaydi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, matn istilohi boshlang'ich sinf o'qish kitoblaridagi ilmiy-ommabop ijod namunalariga nisbatan keng qo'llanmoqda. Shu sababli ifoda usuliga ko'ra ularning quyidagi ko'rinishlari qayd etilgan;

1. Publitsistik matn ko'proq matbuotga xos bo'lib, u xabar, maqola, taqriz, intervyu, reportaj kabilarda namoyon bo'ladi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarni publitsistik matnlar yaratishga o'rgatish uchun avvalo ularning bu usulning til xususiyatlari ustida ishlashiga to'g'ri keladi. Publitsistik matnning tili pishiq, aniq, ifodali, ravon, ixcham, jonli bo'lib, u nutqning jangovarligi, ta'sirchanligi, o'qimishlilik va ommabopligini ta'minlaydi.

2. Ilmiy-ommabop matnlarda esa ayrim murakkab tushunchalarga aniqlik kiritiladi va ular ko'pchilikning tushunishiga moslashtirilgan holda beriladi. Unda tasvir unsurlaridan ham foydalaniladi.

3. Rasmiy matnlar ona tili o'qitish jarayonida ancha salmoqli o'rin egallaydi. O'quvchilar hukumat qarorlari, buyruqlar, shartnomalar, rasmiy e'lonlar, ayniqsa, rasmiy ish qog'ozlari; ariza, tarjimai hol, ishonch qog'oz, tilxat, telegramma, ma'lumotnoma, tavsifnoma, qaror, hisobot, xat, e'lon kabilar bilan ish ko'rish jarayonida nutqning bu ko'rinishini egallab boradilar.

Anglashiladiki, matn tushunchasi bu o'rinda boshlang'ich sinf darsliklaridagi ifodasiga nisbatan tasnif qilingan. Demak, tushunchaning ikki xil ma'nosi mavjud: keng ma'noda umuman, har qanday ko'rinishdagi, hajmdagi nutqning, adabiy-badiiy asarning yozma ifodasi matn sanalsa, tor ma'noda, boshlang'ich sinf darsliklarida nashr etilgan ilmiy-ommabop usulda, mavzuda yozilgan muallifi aniq va aniq bo'lmagan nutqiy birliklar yoxud, ijod namunalaridir.

Xulosa qilish mumkinki, ilmiy-ommabop maqolaning o'zi ham avvalo, matn hisoblanadi. Ammo, u janr sifatida maqoladir. Shu bilan birga, 1- sinf o'qish savodxonligi kitobida ilmiy-ommabop mavzudagi 10-15 misrali matnlar berilgan. Ularni ilmiy-ommabop maqola deyishdan ko'ra matn deb aytish ma'qul. Negaki, bunday matnlarda maqolaga xos mushohada, mulohaza yetakchi emas. Ta'kidlash joizki, ilmiy-ommabop maqolalarni o'rganishda pedagogik texnologiyaning barcha interfaol usullaridan keng foydalanish mumkin. Faqat bunda ijtimoiy real voqelik, ijtimoiy hayotdagi hozirjavoblik hissi ustunligiga ko'ra, ma'lumotlar yangilanib, almashtirib borilishini e'tibordan soqit qilmaslik zarur.

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNI O'ZINI-O'ZITARBIYALASH

Oqbo'taev Jamshid Yo'ldoshevich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Mazkur maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalashda o'z-o'zini kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'ziga hisob berish, o'z faoliyati natijalarini tahlil etish, atrof-dagilarni o'ziga munosabatini o'rganish, o'z ichki ehtiyojlarini jilovlay olishi masalalari atroficha tahlil qilingan. Shuningdek maqolada o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlari, e'tiqodlari, mayllari, irodasi, intilishlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tiqodi, inson huquqlarini hurmat qilish va tan olish, vatanga sadoqat va uning ravnaqi uchun sidqidildan xizmat qilish ruhiyatini namoyon etishlarida kompetensiyaviy yondashuv zarurligi e'tirof etib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, o'smir, o'quvchi, pedagog, o'qituvchi, ta'lim, tarbiya, milliy, umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy rivojlanish, ijtimoiy-pedagogik zaruriyat, intellektual, jismoniy, axloqiy, xuquqiy.

САМООБРАЗОВАНИЕ УЧЕНИКОВ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА

Акботаев Джамшид Юлдошевич

Преподаватель кафедры «Педагогика и психологии» Узбекского государственного университета мировых языков

В данной статье на основе компетентного подхода, самонаблюдения, самоконтроля, ответственности за себя, результатов своей деятельности рассматриваются в процессе самообразования студентов анализ, изучение отношения окружающих людей к себе. , подробно анализируются вопросы умения контролировать свои внутренние потребности. Также в статье необходима необходимость грамотного подхода в проявлении у студентов личных интересов, убеждений, склонностей, воли, стремлений, веры в национальные и общечеловеческие ценности, уважения и признания прав человека, верности Родине и дух искреннего служения его развитию был отвергнут.

Ключевые слова: компетентный подход, подросток, студент, педагог, учитель, образование, воспитание, национальные, общечеловеческие ценности, духовное развитие, социально-педагогическая необходимость, интеллектуальная, физическая, моральная, правовая.

SELF-EDUCATION OF STUDENTS BASED ON A COMPETENT APPROACH

Akbotayev Jamshid Yuldoshevich

Lecturer at the Department of Pedagogy and Psychology, Uzbek State University of World Languages

In this article, on the basis of a competency-based approach, self-observation, self-control, responsibility for oneself, the results of one's activities, analysis and study of the attitude of surrounding people towards oneself are considered in the process of students' self-education. , the issues of the ability to control one's internal needs are analyzed in detail. The article also requires the need for a competent approach in demonstrating students' personal interests, beliefs, inclinations, will, aspirations, faith in national and universal values, respect and recognition of human rights, loyalty to the Motherland and the spirit of sincere service to its development was rejected.

Key words: competence-based approach, teenager, student, educator, teacher, education, upbringing, national, universal values, spiritual development, social and pedagogical necessity, intellectual, physical, moral, legal.

Zamonaviy talablarni hisobga olgan holda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalash mexanizmlarni takomillashtirish ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga tayanib [2] o'quvchilarni ma'naviy rivojlanish darajasi, o'z-o'zini anglashi hamda maqsadlari, qiziqishlari va intilishlarini jamiyat manfaatlariga moslashtira olishi alohida ahamiyatga ega. O'smir yoshidagi o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni ijtimoiy-pedagogik xarakterga ega bo'lgan faoliyatdir. Uning mazmunini jamiyat a'zolari tomonidan tan olingan axloqiy, huquqiy me'yorlar belgilaydi.

Shuning uchun davr talabidan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya jarayonida yangicha, mustaqil fikrlovchi, imyon e'tiqodi, mafkuraviy immuniteti mustahkam, milliy tafakkur va dunyoqarashga ega bo'lgan barkamol avlodni shakllantirish uchun jamiyatda qabul qilingan axloqiy, xuquqiy me'yorlar o'smirlar ongida singrilishi maksadga muvofiq. Chunki aynan, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi o'zini nazariy, intellektual, jismoniy, axloqiy, xuquqiy bir so'z bilan aytganda kompetensiyaviy jihatdan takomillashtirish boradi.

Bilamizki, har bir shaxsning jamiyat maqsad va manfaatlariga mos keluvchi intilishlari uning ma'naviy

dunyosi, nuqtai nazarlari va shu asosda shakllangan ideali orqali tartibga solinadi. O'smirlarda roksak axloqiy ideallarni shakllantirish bugungi kunda ma'naviy ehtiyojga aylandi. Chunki bugungi modernizatsiya sharoitida ayrim o'quvchi-yoshlarda roksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini etarli rivojlanmaganligi ko'zga tashlanmoqda. [2]

Ijtimoiy-axloqiy faol, hayot talablari asosida o'z ehtiyoji uchun erkin qaror qabul qila oladigan yoshlarni tarbiyalash zarurati o'quvchilarda o'zini-o'zi tarbiyalash darajasini tarkib toptirish ehtiyojini vujudga keltirdi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilar ongining rivojlanishi, o'zligini anglashi, umumiy ijtimoiy va axloqiy qoidalarni o'zlashtirishning ichki ehtiyojga aylanishiga olib keladi. O'quvchi faoliyatini nazorat qilish va demokratik tarzda baholash, uning insoniy sha'ni, shaxsiy g'ururi asosida odob-ahloq normalarini tartibga solish vositalari va metodlarini tanlash ijtimoiy-pedagogik zaruriyatga aylanmoqda.

Klasterli yondashuv asosida ta'lim tashkilotlarining hamkorliklik faoliyatidagi pedagogik ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va unig samaradorligini oshirish bo'yicha aniq maqsad va vazifalarini belgilash, faoliyat ko'rsatish strategiyasini oldindan ko'ra bilish uchun, uning qanday tamoyillarga asoslanishi haqida aniq yo'nalishlari belgilab olinadi. Mamlakatimizda ta'lim siyosatining tamoyillaridan va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda klasterli yondashuv asosida ta'lim tashkilotlarining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishda pedagogik ta'limning quyidagi tamoyillar taklif etiladi:

tabiiy aloqadorlik – klasterli yondashuv asosida sub'ektlar o'rtasidagi hamkorlik, aloqadorlik masalasining tabiiyligi, ya'ni bog'liqlik masalasining hududiy, sohaviy yoki vazifaviy jihatdan ob'ektivligi;

uzviylik va uzluksizlik – klasterli yondashuv asosida sub'ektlarning o'zaro hamkorlikda zanjir hosil qilishi, zanjirni hosil qiluvchi har bir bo'g'in o'zining aniq vazifalariga ega ekanligi, uzluksizlik zanjirida bo'shliqlarga yo'l qo'yilmasligidir;

izchillik – klasterli yondashuv asosida sub’ektlarning vertikal yagona chiziqda joylashuvi, bunda quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga qarab bosqichma bosqich harakatlanish tendensiyasiga amal qilinishidir;

vorisiylik – klasterli yondashuvning avlodlar almashinuvidagi roli, tyutorlik faoliyati, pedagogik ta’limni klasterli yondashuvlashtirish natijasida sub’ektlarning malakali va salohiyatli pedagog kadrlarga bo’lgan ehtiyojining (ayniqsa, umumiy o’rta ta’lim muassasalari bilan Oliy ta’lim muassasalari o’rtasidagi hamkorlik) muntazam qondirilishiga erishishdir;

zamonaviylik – klasterli yondashuv asosida sohaga oid zamonaviy ilm-fan yutuqlarini tizimga joriy qilish, ilg’or xorijiy tajribalarni o’zlashtirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanishdir;

yo’naltirilganlik – klasterli yondashuv doirasida amalga oshirilayotgan har bir faoliyat turining aniq maqsadga yo’naltirilganligi, kutilayotgan natijalarni oldindan chamalash va baholash imkoniyatining mavjudligidir.

maqsadning umumiyliigi – klasterli yondashuv asosida sub’ektlarning xususiy maqsadlaridan tashqari global aspektidagi yagona maqsad atrofida birlashuvidir;

manfaatlarning xususiyligi - klasteri yondashuv asosida pedagogik ta’lim modelida har bir sub’ektining huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan manfaatdor bo’lishidir;

o’zaro nazorat – klasterli yondashuv modeli doirasida birlashgan ta’lim sub’ektlarining o’zaro yagona tizimni hosil qilishi va bu tizimning nuqsonsiz ishlashidan har bir sub’ektning manfaatdor ekanligi, ma’lum sub’ektda yo’l qo’yilgan xato yoki kamchilik boshqa sub’ektlarning faoliyat samaradorligiga ta’sir ko’rsatishi, sub’ektlar faoliyatini o’zaro baholash tizimining yo’lga qo’yilishidir.

Klasterli yondashuv asosida ta’lim tashkilotida tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya mazmuni va sohaning o’ziga xos spesifikasidan kelib chiqib, quyidagi yo’nalishlarda tashkil qilinishi maqsadga muvofiq:

ta’lim-tarbiyani motivlashtirish yo’nalishi;

ta’lim-tarbiya vositalari yo’nalishi;

ta’lim va fan-texnika yo’nalishi;

ta’lim va ishlab chiqarish yo’nalishi;

ta’lim-tarbiyani innovatsion boshqarish yo’nalishi;

ta’lim-tariyaning ijtimoiy ehtiyojlar yo’nalishi;

ta’lim-tariyaning xurmat qozonishga bo’lgan ehtiyojlar yo’nalishi;

ta’lim-tariyaning o’z qobiliyatini namoyon etishga bo’lgan ehtiyojlar yo’nalishi;

ta’lim-tariyaning jarayonida shaxsga yo’naltirilgan ta’lim yo’nalishi.

Ushbu tasniflarda ta’lim tashkilotida olib boriladigan ta’lim-tarbiya sohasi faoliyati to’laqonli qamrab olingan bo’lib, har bir yo’nalish o’z ichida tarmoqlanadi. Bu yo’nalish va tarmoqlar mazmuni ta’lim turlari o’rtasidagi ta’limiy, ilmiy, uslubiy, ta’lim vositalari va boshqaruv bilan bog’liq hamkorlikning barcha shakli, xususiyati, usuli va texnologiyalarini o’zida jamlaydi.

O’zbekiston sharoitida ta’lim tashkilotida olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayonini klasterli yondashuvning strategik yo’nalishlari sifatida quyidagilarni tavsiya qilamiz:

Umumiy o’rta ta’lim maktabi va maktabdan tashqari ta’lim, o’rta maxsus, professional ta’limi muassasalari uchun pedagogik oliy ta’lim muassasalari tasarrufidagi ta’lim yo’nalishlari bo’yicha pedagog kadrlar tayyorlash, shuningdek, pedagog kadrlar va soha mutaxassislarining ilmiy-metodik bazalarini shakllantirishni muvofiqlashtirish va o’quv-metodik rahbarlikni amalga oshirish.

Pedagogika sohasidagi talab va ilg’or xorijiy tajriba, o’quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni hisobga olgan holda ta’lim tashkilotlarida davlat ta’lim standartlari, o’quv reja va dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirishni amalga oshirish.

3. Pedagogik oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim yo’nalishlari bo’yicha joylardagi pedagogika sohasidagi ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy izlanishlar olib borishni muvofiqlashtirish.

4. Pedagogik oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim yo’nalishlari bo’yicha umumta’lim maktablarining ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish, jumladan, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlash asosida pedagogika sohasini rivojlantirishning strategik vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim tashkilotlari rahbar xodimlari va mutaxassislari malakasini sifatli oshirish hamda qayta

tayyorlash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan yo'naltirilgan indikatorlarga asoslangan modellardan foydalangan holda amalga oshiri-lishini ta'minlash.

5. Pedagogik oliy ta'lim muassasalari tasarrufidagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha uzluksiz pedagogik ta'limning informatsion ta'minotini takomillashtirish va pedagog kasbining nufuzini oshirish hamda pedagog-innovatorlarni qo'llab-quvvatlash.

6. Ta'lim tashkilotida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi mavjud huquqiy-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish;

7. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterli yondashuvning platformasini ishlab chiqish.

Klasterli yondashuv asosida ta'lim tashkilotlarining hamkorlik faoliyatini bir tizimga mujassamlatirish natijasida quydagi maqsadlarga ega bo'linadi:

1. Tizim indikatorlarining har biri alohida vazifani bajarsada, ammo ular muhimlik darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Klasterli yondashuv tarkibidagi elementlar esa teng huquqli komponentlardan tashkil topadi.

2. Tizim tarkibidagi indikatorlardan birining ishlamasligi butun tizimni nuqsonli ishlashiga yoki ishlamasligiga sabab bo'ladi. Klasterli yondashuv tarkibidagi elementlardan birining ishlamasligi samaradorlikni pasaytirishi mumkin, ammo qolgan elementlarning faoliyatini to'xtatib qo'ymaydi.

3. Tizimni mexanik aloqadorlik asosida ham tashkil qilish mumkin, ammo klasterli yondashuv tarkibidagi indikatorlar ongli, tabiiy va maqsadli aloqadorlikka ega bo'lishi kerak.

4. Tizimni tashkil qiluvchi indikatorlarda har doim ham xususiy manfaatdorlik talab qilinmaydi, ammo klasterli yondashuvda xususiy manfaatdorliksiz indikatorlari yetarli darajada ishlamaydi.

5. Tizimda yagona maqsad mavjud va har bir indikator o'sha maqsadga bo'ysundirilgan bo'ladi. Klasterli yondashuvda esa yagona maqsaddan (umumiy maqsaddan) tashqari har bir indikatorning xususiy maqsadi ham bo'ladi. Xususiy maqsadlar umumiy maqsaddan kam ahamiyatga ega emas.

6. Tizim alohida qismlardan iborat butunlik, klasterli yondashuv esa alohida butunliklardan iborat butunlikdir. Klasterli yondashuv asosida ta'lim tashkilotlarining hamkorlikdagi ta'lim-tarbiya jarayoni faoliyatini shakllantirish uchun bir qator muhim shartlar talab etiladi.

Bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan olimlarni fikr mulohazalari hamda ayrim ta'lim tashkilotlarida ushbu yo'nalishda faoliyat olib borayotgan rahbarlarni ta'lim-tarbiya jarayonini o'rganishimiz natijalari bo'yicha quyidagilarni taklif qilamiz:

hududning raqobatbardosh ustunliklaridan foydalangan holda ta'lim tashkilotlari va o'quv yurtlari o'rtasida o'zaro klasterli yondashuv asosida hamkorlik faoliyatni yo'lga qo'yish;

butun tizimning uzoq muddatli rivojlantirish innovatsiyalari va boshqa strategiyasini belgilovchi yetakchilarni aniqlash;

ichki va tashqi raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan ta'lim tashkiloti xodimlarining malakasi, mahorati va kompetentlik darajasini oshirish imkonini beradigan ilmiy tashkilotlarni belgilash;

ishonch va ijodkorlik muhitini yaratish;

klasterli yondashuvni tashkil etishda bitta hududdagi ta'lim muassasalarining umumiy maqsaddan kelib chiquvchi xususiy manfaatdorlikni hisobga olish;

klasterli yondashuv asosida tashkil etiladigan hamkorlik faoliyatni rivojlantirish va takomillashtirishda eng asosiy masalalarning nazariy asoslarini belgilab olish va muammolarning ilmiy yechimini topish;

individual tajribalarni ijobiy natijalarini o'rganish va tahlil etish hamda amaliy jarayonlarni ommalashtirish;

ta'lim-tarbiya jarayonida jamoatchilikning keng ishtirok etishini ta'minlash. Ularning taklif mulohazalarini o'rganib borish va ijobiy takliflarni amaliyotga tatbiq etish;

klasterli yondashuv usulida amalga oshirilayotgan ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorlik darajasini amaliy jihatdan baholab borish;

klasterli yondashuv usulida o'qitishning mavjud muammolarini tatqiq etish va maqbul yechimlar topish;

bo'lajak pedagogik kadrlarni tayyorlashda klasterli yondashuv asoslarining nazariy-amaliy yo'nalishlarini tanishtirib o'rgatib borish bilan chuqur tanishtirish;

klasterli yondashuv usuli vositasida o'quvchilarning fanlar bo'yicha egallagan bilimlari bilan bir qatorda o'qituvchilarning mahorati, kompetentligi, kompetensiyasi va shaxsiy sifatlarini baholab borish.

Klasterli yondashuv asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish asosida talaba(o'quvchi)larni ijodiylikka, samarali kasbiy mahorat oshirishga xizmat qilishi kerak. Uning

antagonistik, noantagonistik (koperativ) va boshqa bir qator yo‘nalishlari mavjud. Keyingi paytlarda muhim ahamiyat kasb etayotgan klasterli yondashuv asosida o‘qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishdan biri boshqariladigan ob‘ektning faoliyatiga zamonaviy kreativ yondashish va mazmun mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi va o‘rganadi.

Pedagogik ta‘lim klasterli yondashuvni, aslida, ta‘lim xizmatlari bozoridagi raqobatga qarshi turishga nisbatan kuchlarning birlashishi ma‘nosida tushunish ham to‘g‘ri bo‘ladi. Pedagogik ta‘lim jarayonini tashkil etishda klasterli yondashuvining ta‘lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta‘minlash uchun bir qator talablarni sifatli qondirishni o‘z zimmasiga oladi.

Bular quyidagilardan iborat:

ta‘lim turlari va tashkilotlari o‘rtasidagi o‘zaro raqobat va ayni paytda bir-birini qo‘llab-quvvatlashga asoslangan hamkorlik talablari;

hududning ijtimoiy-iqtisodiy o‘ziga xosligidan kelib chiquvchi zamonaviy pedagog ta‘lim tadqiqiga qo‘yiladigan talablar;

oqilona pedagogik vorisiylikni ta‘minlashga qaratilgan rejali va maqsadli siyosat olib borishga qo‘yiladigan talablar;

hududning malakali pedagogik kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini to‘laqonli qondirishga qaratilgan talablar; zamonaviy pedagogik ta‘lim vositalariga qo‘yiladigan talablar;

pedagogik ta‘limni innovatsion boshqarishga qo‘yiladigan talablar.

Pedagogik ta‘lim jarayonini innovatsion klasterli yondashuv tizimning ob‘ekti va sub‘ekti hisoblangan raqobatbardosh o‘qituvchi va tarbiyachi shaxsini tarbiyalash asosiy maqsad ekan, hozirgi sharoitda o‘qituvchi va tarbiyachining an‘anaviy faoliyati ta‘lim jarayoni, uning tarkibiy jihatlarini loyihalashtirish va tashkil etish, madaniy, ma‘rifiy hamda boshqaruv faoliyati bilan birgalikda olib borsagina kutilgan samaraga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Турдикулов Е.О., Джураев Р.Х. ва бошқалар. Интеграциялашган таълим назарияси ва амалиёти. – Т.: Сано-стандарт, 2009. – 176 б.

2. Ходжамқулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластерининг илмий-назарий асослари. Пед. фан. док. (ДСс) дисс. автореф. - Чирчиқ, 2020. - 60

3. Кластерные политики и кластерные инициативы: теория, методология, практика. (Коллективная монография). Минобразования и науки РФ, Минэкономразвития РФ, Правительство Пензенской области. Пенза-2013.

4. Осечкина Л.И. Кластерный подход как условие повышения эффективности деятельности вуза. // Высшее образование в России, 2012, №8-9. -С. 73-76.

5. Пулатов Ш.П. Таълим менежменти ёхуд таълим муассасаларини илмий-методик бошқаришга инновацион ёндашув, Т... “Yosh kuch”, 2022. 736 б.

ADABIY TA'LIMDA UY VAZIFALARI BILAN ISHLASHDA PRAGMATIK YONDASHUVDAN FOYDALANISH

Polvanova Nargiza Abdumuratovna, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich ta'limning adabiyot o'qitish metodikasidagi asosiy muammolardan biri bo'lgan uy vazifalari ustida ishlash metodikasini takomillashtirish masalasi tadqiq etiladi. Xususan, uy vazifalari berish, darsliklarda uy vazifasini tashkil etish, bu borada o'quvchining yosh xususiyati, psixofiziologiyasini inobatga olish, uy vazifalarini o'quvchi qobiliyati, o'zlashtirish imkoniyatini hisobga olgan holada darajalab berish haqida fikr yuritiladi. Mumtoz adabiyot namunalari o'qitishda, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini o'qitishda qanday topshiriqlar berish muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: uy vazifasi, topshiriqlar, mumtoz matnlar, yosh xususiyati, darajalanish, vazifalar tasnifi, bilim, ko'nikma, malaka

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРАГМАТИЧНОГО ПОДХОДА К РАБОТЕ С ДОМАШНИМ ЗАДАНИЕМ В ЛИТЕРАТУРНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Полванова Наргиза Абдумуратовна,

преподаватель Узбекского государственного института искусств и культуры

Аннотация: В статье рассматривается вопрос совершенствования методики работы над домашним заданием, что является одной из основных проблем в методике преподавания литературы. В частности, речь идет о предоставлении домашних заданий, организации домашних заданий в учебниках, учете возрастных особенностей ученика, его психофизиологии, ранжировании домашних заданий с учетом способностей ученика, его способности к освоению. Обсуждалось, какие задания давать при обучении образцам классической литературы, особенно при обучении творчеству Алишера Навои.

Ключевые слова: домашнее задание, задания, классические тексты, возрастная характеристика, ранг, классификация заданий, знания, умения, навыки

USING A PRAGMATIC APPROACH TO HOMEWORK IN LITERARY EDUCATION

Polvanova Nargiza Abdumuratovna,

lecturer at the Uzbek State Institute of Arts and Culture

Abstract: The article discusses the issue of improving the methodology of work on homework, which is one of the main problems in the methodology of teaching literature. In particular, we are talking about the provision of homework, the organization of homework in textbooks, taking into account the age characteristics of the student, his psychophysiology, ranking homework taking into account the student's abilities, his ability to master. It was discussed what tasks to give when teaching samples of classical literature, especially when teaching the work of Alisher Navoi.

Keywords: homework, assignments, classical texts, age characteristics, rank, classification of tasks, knowledge, skills, skills

Ta'lim har bir mamlakat taraqqiyotida, jamiyatning moddiy-ma'naviy yuksalishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Keyingi yillarda Respublikamiz ta'lim tizimida sezilari o'zgarishlar, islohotlar yuz bermoqda. Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi, bog'chalardan boshlab bolalarni til bilish, savod chiqarish, ijodiy yondashishga o'rgatish ishlari yo'lga qo'yildi. Shunga qaramasdan, shu kungacha hech kim boshlang'ich sinflarda va undan keyingi bosqichlarda o'qitilayotgan o'quvchilarga qaysi sinfda nimani o'qitish maqsadga muvofiqligini ilmiy nuqtayi nazardan to'la asoslab bergan emas [1;13-b.].

Q.Husanboyeva uy vazifalari borsidagi muammolarga qiyidagicha munosabat bildiradi: "O'quvchi ma'naviy kamolotining asosi bo'lgan tafakkur va faoliyatdagi mustaqilligining darajasi uy vazifalarini bajarishda ham namoyon bo'ladi. Uy vazifalari bajarilishidagi eng muhim shart unda dars va darslikdagi haqiqatlarning takrorlanmaslik kerakligidir. Aks holda, o'quv materialini ko'r-ko'rona eslab qolish holati yuz beradi. Uy vazifalari o'quvchining sinfdagi faoliyatidan shunisi bilan farq qiladiki, unda barcha topshiriqlar o'quvchining o'zi tomonidan mustaqil ravishda bajariladi. Ta'limning bu turidan darsda shakllangan mustaqil fikrlash faoliyatini yana-da mustahkamlash va rivojlantirish uchun foydalanish juda muhim. Afsuski, ta'lim amaliyotida o'quvchilarning uy vazifalarini pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etish bilan yetarli darajada shug'ullanilmaydi. Har darsda o'quvchilarga uy vazifalari topshiriladi, lekin ularni qanday bajarish mumkinligi nisbatan kengroq o'rgatilmaydi"[4:240-b.].

Darhaqiqat, umumiy o'rta ta'lim tizimida uyga vazifa berishning amaldagi va pragmatik shakllarini taqqoslash mumkin:

T/r	Amaldagi uy vazifalari	Pragmatik uy vazifalar
1.	She'ni yod olib keling.	Hikoyani o'qib uyda yoki ijtimoiy tarmoqdagi do'stlar bilan muhokama qiling.
2.	Rasmga qarab matn tuzib keeling.	Asardagi eng muhim fikrlarni ajratib yozib keling.
3.	Matn tuzib keling.	Asar va yozuvchi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlang.
4.	Savol va topshiriqlarga javob yozib keling.	Ijodkorning hayoti va ijodiga eng muhim 5 ta fikr yozib keling.
5.	Ertakni o'qib keling.	Sinfdoshlaringizga asar mazmunini ochuvchi 5 ta murakkab savol tuzib keling.
6.	Audioni tinglang.	Nasriy asardan o'zingizga yoqqan ibratli parchani yod oling va ifodali aytib berishga tayyorlaning.

Aslida uy vazifalari bunday maqsadsiz berilmasligi lozim, har bir yuga beriladigan topshiriq oldindan o'ylangan, oson baholash imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

Metodikaga doir manbalarda ta'lim mazmuni tushunchasi har xil talqin etiladi. Xususan, nufuzli pedagog oliy ta'lim mazmuni deganda o'rganish uchun tanlangan va o'quvchilarning o'zlashtirishlariga mo'ljallangan, metodik jihatdan puxta ishlangan muayyan ijtimoiy tajribaning bir qismini tushunadi [2; 17-b.].

Pedagogika fanlari doktori Q.Husanboyeva esa ta'lim mazmuniga o'qituvchini ham kiritadi [3; 37-b.].

Darhaqiqat, o'qituvchi ta'lim tizimida muhim o'rin tutib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'ladi, lekin yondashuv biroz o'zgargan: ilgari o'qituvchi darsning subyekti edi, endi bu o'rinni u o'quvchilarga bo'shatib bermoqda va bu ayni paytda nihoyatda to'g'ri yo'ldir.

Darsning markazida o'quvchi turishining hayotiy zarurati tufayli o'qituvchi o'z o'quvchilariga fanga doir kompetensiyalarni namoyon qilish uchun imkoniyat yaratib berishi kerak, shunda o'quvchi faollashadi, aks holda o'qituvchining harakatlariga bog'lanib qolishi mumkin. Bugungi o'qituvchi yaxshi tashkilotchi bo'lsa yetarli, hatto u juda katta hajmdagi bilimga ega bo'lishi shart emas. Bugungi o'quvchi uchun ma'lumotlar bazasi muammo emas, unga bilimni qanday egallashni o'rgatish, yo'naltirish, muammo qo'yish, yechimini topishga undash kabi tashkiliy jarayonlar bilan ta'sir ko'rsatish kerak.

Adabiyot o'qituvchisining asosiy vazifasi ham yuqorida ta'kidlangan mezonlardan kelib chiqib, adabiyot darsini qiziqarli tashkil qilishi kerak, o'quv materialini to'g'ri taqsimlashi kerak. Bu – hozirgi kunning eng dolzarb masalasidir. Darsni samarali tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari har tomonlama o'rganilgan. O'zbek pedagogikasida hali alohida tadqiqot sifatida o'rganilmagan muhim masalalar qatorida o'quvchining shakllanishida, fanning amaliy ahamiyatini oshirishda hal qiluvchi hisoblangan uy vazifalari muammosi o'z yechimini kutib yotibdi. Uy vazifalari kerakmi? Kerak bo'lsa, o'quvchiga qaysi sinfda qancha uy ishi berish maqsadga muvofiq? U qanday shaklda bo'ladi? – kabi zalvorli savollar O'zbekiston ta'lim tizimi doirasida o'zing aniq javobiga ega emas.

Mazkur savollar dunyo pedagoglari tomonidan atroflicha o'rganilgan. Bizga tanish bo'lgan Rossiya ta'lim tizimida o'quvchiga beriladigan uy vazifalari uning yoshi, psixofiziologiyasiga mos tarzda ishlab chiqilgan.

Jahon tajribasida ayrim pedagoglar o'quvchiga uyga vazifa bermaslikning tarafdori. Ayrimlar esa, kam

miqdorda berish kerak deb hisoblaydi, ba'zilar o'quvchiga zavq beradigan, ishtiyoqini oshiradigan vazifalar berish kerakligini ta'kidlaydi. Jumladan, milliy maktablarimizning adabiyot darslarida o'qituvchilar o'tilgan mavzu bo'yicha qaysi va qancha o'quv materialini uyga vazifa sifatida berish kerakligini aniq bilmaydi.

Hamma o'zi bilganicha uy vazifalarini beradi, keyin uni o'quvchidan talab qilaveradi. Buning ustiga hamma o'quvchiga bir xil uy vazifasi beriladi, garchi o'quvchilar qobiliyati biri ikkinchisini takrorlamasligi ma'lum bo'lsa ham. Keyingi darsda shu berilgan bir xil topshiriqni hammadan bir xilda so'rab, bir xil mezonda baholanadi. Jahon tajribasida sinfdagi o'quvchilarning har biriga 315 o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, imkoniyatiga qarab vazifalar taqsimot qilinadi. Keyingi darsda uy ishlari so'ralganda ham qoniqarsiz baholar soni oshib ketmaydi, chunki avvalgi darsda o'quvchining intellektual imkoniyati yetadigan topshiriqlar berilgan bo'ladi. Natijada o'quvchida qiziqish susaymaydi, topshiriqni bajara olgandan so'ng aksincha, unda yana ishtiyoq paydo bo'ladi, bu esa ta'limda nihoyatda muhim hisoblanadi.

Sinfdagi jarayonda topshiriqlar imkoniyatga ko'ra aynan taqsimlanishiga hojat bo'lmasligi mumkin, zero, darsda o'qituvchi zarur o'rinlarda yordam bera oladi. Uyga vazifa berilganda o'quvchining ota-onasi unga yordam qila olmasligi mumkin, shu sababli ham uy vazifalari o'quvchilarning har biriga imkoniyati doirasida berilishi lozim.

Amaldagi adabiyot darslarida o'qituvchilar o'quv materiallari bilan ishlashda chalkashlikka yo'l qo'yishmoqda. Ijodkor yozgan asari uchun o'quv dasturiga kiritilgan, dars jarayonida uning asari o'rganilishi kerak, yozuvchi yoki shoirning tarjimai holiga doir ma'lumotlar sinfda emas, aksincha, uyga vazifa sifatida berilsa, hamma o'quvchi bajara oladi. Asar matni bilan bir o'zi ishlay olmasligi mumkin, ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalari bo'lsa.

O'qituvchilari o'quvchiga uyda bajarish uchun nisbatan yengil, qiziqarli va qobilyatiga mos topshiriq berishi lozim. Asar matni ustida ishlash bir muncha qiyinchilik tug'diradi shuning uchun o'qituvchilar ham, kirish imtihonlari uchun test tuzadigan ekspertlar ham ko'proq tarjimai holga doir ma'lumotlar bilan chegaralanib qolmoqda.

Muayyan bolalar shoiri hayoti va ijodi umumta'lim maktablarining deyarli hamma sinflarida o'qitiladi. O'qituvchilar sinfda ko'pincha shoirning biografik ma'lumotlari bilan o'ralashib qolmoqda. Uyga berilayotgan vazifalar esa, asosan, asar mazmuniga aloqador bo'layotgani kuzatishlar davomida ma'lum bo'lib qoldi. Uy vazifalari uchun shakllantirilgan topshiriqlar umumiy xarakterdaligi o'quvchi uni talab darajasida bajara olmasligiga olib kelmoqda.

Bolalar shoiri ijodi bo'yicha uy vazifalari quyidagicha berilsa, o'quvchilarda shoir asarlariga, shaxsiyatiga nisbatan qiziqishi, ishtiyoqi yanada ortadi:

1. Ijodkor haqida qiziqarli ma'lumotlar topib keling. Ko'proq topib kelgan o'quvchining bali yuqori bo'ladi.
2. Shoir haqida haqida qiziqarli, muhim ma'lumotlar topib keling.
3. She'rini ifodali o'qish va yod aytishga tayyorlanib keling. Kim ifodali va bexato yodlab aytib bersa, bali yuqori bo'ladi.
4. Kim she'r yozib ko'rgan?
5. O'zingiz sevgan ertak qahramoniga maktub yozib keling. Kim ta'sirli va ishonarli yozib kelsa, uning bali yuqori bo'ladi, kabi.

Xullas, boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarga beriladigan uy vazifalari ixtiyoriy, duch kelgan emas, maqsadli, rejali va puxta o'ylangan bo'lishi lozim. Berilayotgan uy vazifalari o'quvchining intellektual imkoniyatlarini inobatga olgan holda darajalangan holatda tayyorlanishi, asar matni sinfda tahlil qilinib, ijodkor tarjimai holiga doir ma'lumotlar o'quvchiga uy vazifasi siftda berilishi, berilgan topshiriq o'quvchini zeriktirmasligi, aksincha, uni izlanishga undaydigan, zavq bag'ishlaydigan, ishtiyoqini oshiradigan bo'lishi kerak. Barcha fanlarda ham mazkur masala bilan bog'liq muammolar borligi aniq, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda. Uy vazifalarini samarali tashkil etish o'qituvchigagina bog'liq. Kelajakda uy vazifalari bo'yicha sinflar va fanlar kesimida metodik tavsiyalar, topshiriqlar to'plamlari yaratish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarlarni tushunishni o'rgatuvchi, mutolaaga qiziqtiruvchi uyga vazifalar tizimini yaratish byungungi kunning eng muhim vazifalaridan.

Foydalanilgan adabiyotlar

Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори // И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси 9- сессиясида сўзлаган нутқи, 1997 йил 29 август. –Т.: Маърифат – мададкор, 2002. – 62 б. 2.

Лернер Я. Дидактические основы методов обучения Текст / И.Я.Лернер. – М. : Педагогика, 1981. – 186 с.

Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: пед. фан. докт. дисс. автореф. –Т.: ТДПУ, 2006. – 262 б.

Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. –Toshkent, 2018. 240-b

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOG KADRLARINI KASBIY KREATIVLIGINI BAHOLASH BOSQICHLARI

Pozilova Shahnoza Xaydaraliyeva

Professional ta'limni rivojlantirish instituti doktoranti (DSc)

Annotatsiya. Maqolada differensial yondashuv asosida professional ta'lim o'qituvchilarini kasbiy kreativligini baholash yo'llari berilgan. Shuningdek, ta'lim differensiatsiyasi tushunchasining pedagogik tarafdin tahlillari keltirilgan. O'qituvchilarning amaliy mashg'ulotlarda modul mazmuniga, tinglovchilar faoliyatiga va olinadigan yakuniy natijaga ko'ra tahlilining keltirilishi maqola mavzusining dolzarbligini ifodalaydi. Kasbiy kreativlikni baholashda bir qator olimlarning kreativlik qobiliyatini aniqlovchi so'rovnomalar bilan bir qatorda muallif tomonidan ishlab chiqilgan test namunasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: differensiatsiya, kasbiy kreativlik, professional ta'lim o'qituvchilari, differensial yondashuv, amaliy mashg'ulot

ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ УЧРЕЖДЕНИЯ ЭТАПЫ ОЦЕНКИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ТВОРЧЕСТВА ПРЕПОДАВАТЕЛЬСКИХ КАДРОВ

Позилова Шахноза Хайдаралиевна

Докторант Института развития профессионального образования (DSc)

Аннотация. В статье представлены способы оценки профессионального креативности педагогов профессионального образования на основе дифференцированного подхода. Также представлен анализ понятия образовательной дифференциации с педагогической точки зрения. Актуальность темы статьи выражается анализом деятельности преподавателей на практике по содержанию модуля, активности слушателей и конечному результату. При оценке профессионального креативности представлена разработанная автором тестовая выборка, а также опросники, определяющие креативность ряда ученых.

Ключевые слова: дифференциация, профессиональное креативность, педагоги профессионального образования, дифференцированный подход, практическая занятость

PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS ASSESSMENT STAGES OF PROFESSIONAL CREATIVITY OF TEACHING STAFF

Pozilova Shahnoza Khaidaraliyeva

Doctoral student of the Institute of Professional Education Development (DSc)

Annotation. The article presents ways to assess the professional creativity of vocational education teachers based on a differentiated approach. An analysis of the concept of educational differentiation from a pedagogical point of view is also presented. The relevance of the topic of the article is expressed by an analysis of the activities of teachers in practice in terms of the content of the module, the activity of students and the final result. When assessing professional creativity, a test sample developed by the author is presented, as well as questionnaires that determine the creativity of a number of scientists.

Keywords: differentiation, professional creativity, vocational education teachers, differentiated approach, practical exercise

Kirish. Ta'limda differensiatsiya "ta'lim barcha uchun" (lifelong learning) [1] va inklyuziv ta'limda [2] dolzarb bo'lgan keng qamrovli tushunchadir. Mazkur qarashlar bir necha marotaba muhokamadan o'tkazilgan. Jumladan, Dakardagi jahon ta'lim forumi [3], Jenevadagi 48-YuNESKO xalqaro konferensiyasi va nihoyat jahon ta'limiga bag'ishlangan Incheon Deklaratsiyasi. Ta'lim -2030 Incheon Deklaratsiyasi [4] nafaqat inyulyuziv ta'limga, balki barcha uchun "lifelong learning" (Umr mobaynida ta'lim olish) maqsadini ilgari surgan.

Ta'limda differensiatsiya – bu turli ma'noga ega bo'lgan muhokamaga boy tushunchalardan

hisoblanadi. Mazkur tushunchani ta'lim bilan bir qatorda boshqa sohalarida ham qo'llashimiz mumkin. Skandinaviyalik olimlar Bondi [5] va Grahamning [6] ta'kidlashicha differentsiatsiya o'z hoida guruhlash, kuzatish, oqimlash va tahlil qilish kabi faoliyat turlarini bajaradi.

Skandinaviyada "maktab barcha uchun" shiori ostida ta'lim muassasalari ishga tushirilganda differentsiatsiyaga yetarlicha e'tibor berilmagan, aksincha, uni pedagogik differentsiatsiyaga yo'naltirilgan [7]. Pedagogik differentsiatsiya Norvegiya, Shvesiya va Daniya davlatlarida umumiy tushuncha sifatida qo'llanilib, o'qitishning differensial shakli bo'lib qabul qilingan [8], [9], [10], [11].

Pedagogik differentsiatsiya auditoriyada ta'limni turli shaklda olib borish, ta'lim oluvchilarni bilim, ko'nikma va malakasiga qarab saralash hamda turli xil topshiriqlar, quiz, test kabilardan foydalnib baholash imkoniyatini beruvchi ta'lim turidir.

Pedagogik differentsiatsiya - bu Skandinaviya atamasi tabaqalashtirilgan ta'lim va an'anaviy ravishda «tabaqalashtirilgan holda har bir ta'lim oluvchining o'sishini maksimal darajada oshirishga intiladigan, uning turli xil ta'lim usullari, qiziqishlari va ko'rsatmalarga javob berishning turli usullari borligini o'rgatadigan ta'lim vositasi sifatida qaraladi».

Tomlinsonning so'zlariga ko'ra, differensial ta'lim – bu faol va shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, turli yo'sinda fan mazmunini o'zlashtirish, g'oyalar yaratish va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqishga qaratilgan [12], [13].

O'zbekiston olimalaridan S.A.Movlonova differensiyal yondashuvni uch tomonlama tahlil qiladi, ya'ni:

Psixologik: talabalarning barcha mumkin bo'lgan individual hususiyatlarini hisobga olgan holda va tegishli guruhlar tuzish;

Pedagogik: talabalarning qobiliyatlariga javob beradigan ta'lim tizimi;

Psixologik: o'quv materialini mazmunini farqlash [14].

Hozirgi kunda o'quv jarayonida differensial yondashuvning qo'llanilishi ta'lim oluvchilarning har tomonlama kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotimiz jarayonida malaka oshirish kurslarida tahsil olayotgan professional ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kreativligini asosida guruhlariga bo'lish hamda ularni baholashda differensial yondashuvni tanladik. Bunda biz o'qituvchilarning amaliy mashg'ulotlarda modul mazmuniga, tinglovchilar faoliyatiga va olinadigan yakuniy natijaga ko'ra quyidagi tahlilni keltiramiz: (1.-jadval)

O'qituvchi tomonidan taqdim etiladigan kontent mazmuniga ko'ra	Tinglovchilarning faoliyat turiga ko'ra	Yakuniy natijani (kreativ g'oya) taqdim etilishiga ko'ra
<ul style="list-style-type: none"> ✓ Berilgan muammoni pedagogik, psixologik, texnik va falsafiy jihatdan o'rganish; ✓ Muammoning dolzarbligini aniqlovchi manbalar bilan tanishish, tahlil qilish; ✓ Tinglovchilarning kasbiy kreativlik darajasiga ko'ra sinflash; ✓ Tinglovchilarning kasbiy kreativlik qobiliyatiga ko'ra individual yoki juftlikda ishlash fikrini qo'llab-quvvatlash; ✓ Har bir tinglovchining o'zi olib boradigan fani yoki yangi kiritadigan fani yuzasidan tuzilmaviy yondashuvni qo'llash 	<ul style="list-style-type: none"> ✓ Berilgan topshiriqni turi, mukammalligiga qarab bosqichli amalga oshirish; ✓ Mustaqil o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini rivojlantirish; ✓ Guruhli hamkorlik va o'qitish usullari asosida differensial guruhlashni amalga oshirish; ✓ G'oyalarni prototiplashtirishda infografika platformalari hamda muammoli-evristik ta'lim metoodlaridan, ya'ni grafik organayzerlardan foydalanish 	<ul style="list-style-type: none"> ✓ Kasbiy kreativlikka ko'ra yaratilgan g'oyalarni baholashda turli kreativ ta'lim metod va texnologiyalaridan foydalanish, ya'ni: <ul style="list-style-type: none"> - Guruhli yoki individual tarzda interaktiv taqdimotlar yaratish; - Flipchart lar yordamida g'oyalarni prototiplashtirish; - Storyboarding texnologiyasi asosida berilgan muammoni tizimlashtirish; - Workshoplarni yaratish va unda ishlash

Yuqorida keltirilgan tahlillarga ko‘ra differensial yondashuv tinglovchilarga malaka oshirish jarayonidagi tabaqalashtirilgan o‘qitish uslubiyotini nazarda tutadi, ya’ni, fan mazmuniga qiziqish, yangiliklarni o‘zlashtirish va pedagogik amaliyotga qo‘llash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Ko‘p bosqichli ta’lim – bu o‘quv jarayonini tashkillashtirishning pedagogik texnologiyasi hisoblanadi. Bunda o‘quv materialini ta’lim oluvchilar turli darajada o‘zlashtirganlari uchun differensial yondashuv asosida guruhlariga ajratiladilar [15].

Tadqiqotimiz jarayonida biz tinglovchilarni kasbiy kreativligini aniqlashda ularni uchga ya’ni, past, o‘rta va yuqori tabaqalashtirilgan guruhlariga ajratdik hamda topshiriqlarni tinglovchilarning kreativ qobiliyatiga, kasbiy kreativligi, pedagogik faoliyatning kreativ xarakteriga, pedagogik faoliyatning kreativ mahsuloti (kreativ g‘oyalar) ko‘ra taqsimladik. Bunda biz bir qator olimlarning kreativlik qobiliyatini aniqlovchi testlari va so‘rovnomalardan foydalandik. Jumladan,


Mezonlari	Diagnostik metod, test va anketa-so‘rovnoma turlari
<i>Kreativ qobiliyatni aniqlashda</i>	<ul style="list-style-type: none"> - N.V.Vishnikovaning “Kreativlik” testi - Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi
<i>Kasbiy kreativligini aniqlashda</i>	<ul style="list-style-type: none"> - M.M.Kashapovning “Pedagogning kreativ kompetensiyasi” so‘rovnomasi; - M.M.Kashapovning “Pedagogning rivojlanishiga ta’sir etadigan rag‘batlantiruvchi omillar” so‘rovnomasi” - L.D.Morozovaning “O‘qituvchilarning loyiha metodlarida ishlash darajasini aniqlash”, “O‘qituvchining pedagogik loyihalashga qiziqishi va motivatsiyasi”, “Pedagogik loyihalash ko‘nikmasini baholashning individual xaritasi” anketa-so‘rovnomasi
<i>Pedagogik faoliyatning kreativ xarakterini aniqlashda</i>	<ul style="list-style-type: none"> - O.F.Potemkina va Ye.V.Potemkinalarning “Sizning kreativ potensiyalingiz qanday?” so‘rovnomasi; - <u>M.M.Kashapova, T.G.Kiseleva, T.V. Ogorodovalarning</u> “Kasbiy faoliyatda kreativlik” anketa-so‘rovnomasi
<i>Pedagogik faoliyatning kreativ mahsulotini ishlab chiqish ko‘nikmasini aniqlashda</i>	<ul style="list-style-type: none"> - Ishlab chiqilgan innovatsion-metodik loyihaning sifatini baholash. Baholash jadvali I.A.Kolesnikova tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan

Tinglovchilarning kreativlik qobiliyatini aniqlashning boshlang‘ich test-so‘rovnoma savollarini ishlab chiqdik. Test-so‘rovnoma natijasiga ko‘ra malaka oshirishda tahsil olayotgan professional ta’lim muassasasi o‘qituvchilari differensial yondashuv asosida guruhlariga ajratiladi.

Test – so‘rovnomaning namunaviy ko‘rinishi:

№	Test – so‘rovnoma savollari	Past	O‘rta	Yuqori
	Kreativlik nima? A. Yangi g‘oyalarni yaratish B. Novatsion faoliyat turi S. Ijodiy fikrlash	V - 1	S - 2	A - 3
	Kasbiy kreativlik izohi berilgan qatorni ko‘rsating? A. Sohaviy muammolarni bashoratlash yoki original yechimini topish V. Sohaviy muammolarni guruhli tarzda yechish S. Sohaviy muammolarni kreativ metod va vositalar asosida yechimini topish	A - 1	S - 2	V - 3
	Kasbiy kreativligingizni rivojlantirishning optimal usulini ko‘rsating? A. Rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish asosida stajirovka kurslarida qatnashish V. Respublika miqyosidagi kasbiy professionallikni rivojlantiruvchi master-klass yoki seminar – treninglarda ishtirok etish S. Mustaqil ravishda internet resurslaridan foydalangan holda	A - 1	S - 2	V - 3
	Professional ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini olib borishda kreativ muhitni tanlagan bo‘larmidingiz? A. Ha V. Auditoriya salohiyatidan kelib chiqib S. Men yetarli ko‘nikmaga ega emasman	S - 1	V - 2	A - 3
	Kreativ ta’lim texnologiyalari berilgan javobni belgilang? A. Baliq skeleti V. Dizayn-fikrlash S. SCAMPER	A - 1	V - 3	S - 3
	Kasbiy muammolarni yechishda o‘zingizning qaysi shaxsiy qobiliyatlaringizni qadrlaysiz? A. Tezkor fikrlash V. Hamkorlikda ishlash S. Optimist	V - 1	S - 2	A - 3
	Kasbiy kreativlik faoliyatiga ko‘ra quyidagi qaysi turdagi faoliyatni ko‘rasiz? A. Infografik V. AKT kreativlik S. Metodik kreativlik	V - 1	S - 2	A - 3
	Kasbiy kreativlikni pedagogik faoliyatga zaruriyati bormi?	Mening fikrimcha		
	Pedagogik faoliyatingizda infografik platformalardan aynan qaysi turlaridan foydalanasiz? (masalan, canva.com)	Men pedagogik faoliyatimda bir qator infografik dasturlardan foydalanaman. Masalan.....		
d.	Siz o‘quvchilaringizni kreativ qobiliyatini rivojlantiruvchi qanday mavzudagi seminar, master-klass yoki ochiq darslarni o‘tkazishni istar edingiz?	Meni ta’lim yo‘nalishibo‘lgan o‘quvchilarni o‘qitganim uchun,, (“Men kreativman” namuna) kabi seminarlarni tashkil qilaman		
	Past daraja	10 - 18 ball		
	O‘rta daraja	19 - 24 ball		
	Yuqori daraja	25 - 30 ball		

Test –so‘rovnoma natijasida professional ta‘lim o‘qituvchilarining birlamchi kreativ qobiliyatlari aniqlanada hamda ular quyidagi differensial yondashuv asosida guruhlariga ajratiladi (1.- rasm)



1.-rasm. Differensial yondashuv asosida o‘qituvchilarni guruhlariga ajratish tuzilmasi

Bundan kelib chiqqan holda professional ta‘lim muassasasi o‘qituvchilarini kasbiy kreativligini aniqlaymiz. Bu qadamda biz M.M.Kashapov va L.D.Morozovalarning anketa-so‘rovnomalari mazmunidan kelib chiqib, tadqiqotimiz jarayonida aniqlangan muammolar asosida biz tomondan ishlab chiqilgan so‘rovnomadani foydalandik. Mazkur qadamda mashg‘ulotlar davomida yuzaga keladigan pedagogik muammolarni kasbiy kreativlik yordamida tezkor yechimini topishga e‘tiborimizni qaratdik va quyidagi muammoli vaziyatlarni o‘qituvchilarga taqdim etdik.

1-muammoli topshiriq	O‘qituvchi yangi mavzu mohiyatini tushuntirish jarayonida. Auditoriyada o‘quvchilar orasida nosog‘lom kulgi yuzaga keldi. O‘qituvchining keyingi harakatini bashoratlang va fikringizni izohlang.
2-muammoli topshiriq	Mashg‘ulot o‘rtasida o‘quvchilardan biri o‘rnidan turib eshikni yopib chiqib ketdi. O‘qituvchining keyingi harakatini bashoratlang va fikringizni izohlang.
3-muammoli topshiriq	Ma‘lum bir sabablarga ko‘ra o‘qituvchi kelmagan hamkasbining darsini o‘tishga sinfga kirdi. Lekin yangi mavzu mohiyati o‘qituvchiga notanish. O‘qituvchining keyingi harakatini bashoratlang va fikringizni izohlang.
.....	

Xulosa. Bu kabi topshiriqlarni yechishda o‘qituvchilardan innovatsion-metodik loyihani yaratish va loyiha asosida muammolarga yechim topish hamda ishlab chiqilgan g‘oyalarni prototipini guruhli yoki individual tarzda yoritib berishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

UNESCO. (1990). World declaration on education for all. Retrieved <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000127583>

UNESCO. (2008). Inclusive education: The way of the future. Retrieved http://www.ibe.unesco.org/fileadmin/user_upload/Policy_Dialogue/48th_ICE/General_Presentation-48CIE-English.pdf

UNESCO. (2000). The Dakar framework for action. Education for all: Meeting our collective commitments. Retrieved <https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/1681Dakar%20Framework%20for%20Action.pdf>

UNESCO. (2015). Education 2030. Incheon Declaration. Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. Retrieved: http://uis.unesco.org/sites/default/files/documents/education-2030-incheon-framework-for-action-implementation-of-sdg4-2016-en_2.pdf

Bondi, R. S., Dahnke, C., & Zusho, A. (2019). How does changing “One-Size-Fits-All” to differentiated

instruction affect teaching? *Review of Research in Education*, 43 (1), 336–362. <https://doi.org/10.3102/0091732X18821130>

Graham, L. J., De Bruin, K., Lassig, C., & Spandagou, I. (2021). A scoping review of 20 years of research on differentiation: Investigating conceptualisation, characteristics, and methods used. *Review of Education*, 9(1), 161–198. <https://doi.org/10.1002/rev3.3238>

Blossing, U., Imsen, G., & Moos, L. (2014). The Nordic education model. 'A School for All' encounters neo-liberal policy (Vol. 1). Policy implications of research in education. Springer.

Dale, E. L., & Wærness, J. I. (2003). Differensiering og tilpassing i grunnskolen: Rom for alle - blikk for den enkelte [Differentiation and adaptation in primary and secondary education and training: Room for all with an eye on the individual]. Cappelen akademisk forlag.

Persson, B. (2010). Individualisering i svensk skola [Individualisation in the Swedish school system]. In N. Egelund (Ed.), *Undervisningsdifferentiering – Status og fremblik* [Teaching differentiation – Status and prospects]. Dafolo 115–128.

Skaalvik, E. M., & Fossen, I. (1995). Tilpassing og differensiering: Idealer og realiteter i norsk grunnskole. In [Adaptation and differentiation: Ideals and reality in Norwegian primary education]. Tapir.

The Danish Evaluation Institute. (2011). *Undervisnings-differentiering som bærende pædagogisk princip* [Teaching differentiation as a leading pedagogical principle]. Retrieved <https://www.eva.dk/eva/projekter/2010/undervisningsdifferentiering-i-folkeskolen/projektpro dukter/undervisningsdifferentiering-som-baerende-paedagogisk-princip>

Ravitch, D. (2007). *Edspeak: A glossary of education terms, phrases, buzzwords, and jargon*. Association for Supervision and Curriculum Development.

Tomlinson, C. A., Brighton, C., Hertberg, H., Callahan, C. M., Moon, T. R., Brimijoin, K., . . . Reynolds, T. (2003). Differentiating instruction in response to student readiness, interest, and learning profile in academically diverse classrooms: A review of literature. *Journal for the Education of the Gifted*, 27(2/3), 119–145. <https://doi.org/10.1177/016235320302700203>

Movlonova S.A. Azotli yuqori molekulyar birikmalar bo'limini o'qitishda differensial yondashuv asosida pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi. //Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy axborotlari 2021 yil, 1-son. B-71-75

Зверева, Н. А. Разноуровневое и дифференцированное обучение как фактор повышения эффективности образовательного процесса в СПО / Н. А. Зверева. — Текст : непосредственный // Педагогическое мастерство : материалы VIII Междунар. науч. конф. (г. Москва, июнь 2016 г.). — Москва : Буки-Веди, 2016. — С. 35-37. — URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/191>

KONSEPTUAL YONDASHUV – O‘QITUVCHINING INNOVATSION KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna (PhD)

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Fakultetlararo pedagogika kafedrası o‘qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida innovatsion kompetensiyani rivojlantirishning mazmuni uning nazariy, amaliy va shaxsiy tashkil etuvchilardan iborat tayyorgarligini maqsadli yo‘naltirish, uzluksiz takomillashtirib borish, innovatsion jarayonlarning qonuniyatlari, xususiyatlari, yangiliklarga ochiqlikka asoslanishi kerakligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim tizimini rivojlantirish strategiyasi, innovatsiyalar, “Samarqand tajribasi”, “mobil metodik guruhlar”, Kasbiy-innovatsion faoliyat, innovatsion kompetensiya.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА

Пулатова Мухабат Эгамбердиевна(PhD)

Самаркандский государственный университет имени Ш. Рашидова Преподаватель кафедры межфакультетской педагогики

Анотация: В данной статье определено, что содержание развития инновационной компетентности учителей начальной школы должно основываться на целенаправленной направленности, постоянном совершенствовании и открытости к новым инновациям.

Ключевые слова: Стратегия развития системы образования, инновации, «Самаркандский опыт», «мобильные методические группы», Профессионально-инновационная деятельность, инновационная компетентность.

CONCEPTUAL APPROACH AS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE COMPETENCE OF A TEACHER

Pulatova Mukhabat Ehamberdiyevna (PhD)

Samarkand State University named after Sh. Rashidov Lecturer at the Department of Interfaculty Pedagogy

Summary: This article determines that the content of the development of innovative competence of primary school teachers should be based on purposeful orientation, continuous improvement and openness to new innovations.

Basic words: Strategy development of system education, innovation, «Samarkand experience», «mobilnye methodicheskie groups», Professional-innovative workability, innovative competence.

Ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish uning barcha yo‘nalishlarini qamrab olgan hozirgi vaqtda uning eng muhim tarkibiy qismi hisoblangan o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bosqichi ham o‘z ahamiyatiga ko‘ra muhim bo‘g‘in sifatida e‘tirof etilmoqda. Ta‘lim sohasidagi islohotlar mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, globallashtirish, barcha tarmoqlarni axborotlashtirish, jarayonga innovatsion texnologiyalarni jadal joriy qilish, o‘qitish tizimining uzluksiz va uzviy bo‘lishini, tom ma‘noda o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish jarayoniga ham bevosita taalluqlidir.

Ta‘lim tizimini rivojlantirish strategiyasini tanlashning ijtimoiy-madaniy vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga bog‘liqligi A.G.Asmolov tomonidan asoslangan [9;21-39-b.]. Mazkur holatda ta‘lim siyosatining muammolariga munosib javob topishga urinishlar uzluksiz ta‘lim uchun innovatsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qiladi.

Ma‘lumki, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik maqsadlaridan biri mavjud muammolarni hal qilish orqali inson kapitalini uzoq muddatli yuksaltirishdir. Bunda yuqori malakali mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj ta‘lim tizimini takomillashtirish, bitiruvchilarga o‘z imkoniyatlarini namoyon qilish, nostandart echimlar taklif eta oladigan darajada tafakkur qilishga qodirlikni ta‘minlaydigan muhit yaratish asosida qondirilishi mumkin bo‘ladi.

Demak, strategik maqsad davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga yo‘naltirilgan ta‘lim sifatini oshirishdan iborat ekan, unga erishish uchun shu sohada faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirish uchun ham etarlicha sharoit hozirlash vazifasi dolzarblashadi.

Ta‘lim jarayoni ishtirokchilarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maktab o‘qituvchilariga ilmiy-metodik yordam berish, eng saralarini aniqlash, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish, innovatsiyalarga ochiq va faoliyatiga jadal tatbiq qilayotgan pedagoglarni rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, variativ

dasturlarni taklif qilish kabi harakatlar asosida ta'lim mazmunini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash kabilarni qamrab oladi. Bu jarayon maktablarda ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchining ijtimoiy mavqei, obro'sini ko'tarish, ta'lim tashkilotlarining o'quv va moddiy-texnik bazasini yaxshilash bilan birgalikda olib borilishi zarur.

Keyingi paytlarda o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga yo'naltirilgan ko'plab tadbirlar ularning faoliyati sifatini oshirish, xususan, innovatsion salohiyatni shakllantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buning uchun, tegishli huquqiy-me'yoriy baza yaratilib jarayonda nafaqat malaka oshirish ta'limi muassasalari, balki oliy ta'lim tashkilotlari va xususiy sektorning ishtirokiga ruxsat berilishini tub burilish sifatida baholash mumkin. Shu o'rinda aytish mumkinki, oliy ta'lim tashkilotlari iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, undagi ta'lim natijalari inson kapitalini ishlab chiqish va rivojlantirishning asosiy bo'g'inidir. Shuning uchun keyingi islohotlar oliy ta'lim tashkilotlarining umumta'lim maktab o'qituvchilari malakasini oshirish jarayoniga jadal kirib kelayotganligini, yangicha yondashuvlar taklif etayotganligini ko'rsatmoqda.

Jumladan, Samarqand davlat universiteti, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti tomonidan tashkillashtirilgan hamda "Samarqand tajribasi" sifatida e'tirof etilayotgan matematika, kimyo, biologiya, fizika, informatika, ona tili va adabiyoti, tarix fanlaridan xalq ta'limi tizimidagi umumta'lim muassasalari o'qituvchilari bilimini yaxshilash hamda yangicha o'qitish uslublarini tushuntirish bo'yicha "mobil metodik guruhlar" faoliyatini innovatsion yondashuv tarzida keltirish mumkin.

O'qituvchilarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan mazkur ilmiy-metodik maydonchanning maqsadi pedagog xodimlarning individual ta'lim trayektoriyasini tuzish, mustaqil ta'limini rag'batlantirish, o'zaro tajriba almashish muhitini yaratish, ilg'or yondashuvlarni tezkor singdirishdan iborat ekanligi unga innovatsion amaliyot sifatida qarash mumkinligini bildiradi. "Mobil metodik guruhlar"ga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

umumta'lim muassasalari o'qituvchilarini o'z ustida ishlash, mutaxassislik fani bo'yicha muntazam ravishda zamonaviy bilimlarga ega bo'lish, ularning kasbiy mahoratini oshirishga ko'maklashish;

maktablarda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning bilimini diagnostikadan o'tkazish;

diagnostika natijasidan kelib chiqib, bo'shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish;

"mobil metodik guruhlar" trener-o'qituvchilari tomonidan har oyda kamida ikki marotaba tinglovchilarning bilimlarini diagnostikadan o'tkazish hamda natijasiga ko'ra metodik yordam ko'rsatish;

ilg'or metodikalar va innovatsiyalarga o'rgatish orqali o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirib borish;

o'qituvchilarning metod kunlarida o'quvlarni samarali tashkil qilish;

elektron, onlayn platformalar, ijtimoiy tarmoqlar orqali guruhdagi tinglovchilar bilan muntazam ravishda o'quvlarni olib borish.

Lekin, statistik tahlillarning ko'rsatishicha, o'qituvchilarning malakasi talab darajasidan pastligicha qolmoqda. Respublikamiz xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan 506618 nafar o'qituvchilarning 440656 nafarini (86,7%) oliy ma'lumotli, 28662 nafari (5,6%) tugallanmagan oliy ma'lumotli, 37700 nafarini (7,4%) o'rta maxsus ma'lumotlilar tashkil qilmoqda. Ahamiyat qaratiladigan jihatlaridan yana biri shundaki, o'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilarning salmoqli qismi boshlang'ich sinf o'qituvchilari ulushiga to'g'ri keladi. Shuningdek, respublika bo'yicha umumta'lim maktablari o'qituvchilarining sifat tarkibi (oliy va birinchi toifalilar) 22,5% ekanligi, oliy toifali o'qituvchilar ulushi esa bor-yo'g'i 8,5%ni tashkil qilishi ham hali amalga oshirilishi zarur bo'lgan islohotlarning qamrovi nihoyatda keng bo'lishi lozimligini belgilaydi.

Mamlakatimizda malaka oshirish, umumta'lim tashkilotlaridagi o'quv faoliyati samaradorligini oshirish va o'z-o'zini o'qitishga qaratilgan metodik faoliyat tashkil etilgan. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimi mehnat bozoridagi o'zgarishlarga tezkor javob bera boshladi. Ta'lim mazmuni asosan buyurtmachilar, pedagoglar tomonidan belgilanmoqda. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida onlayn ta'lim platformalaridan foydalangan holda, taqdim etilayotgan modulli o'quv dasturlari o'qituvchilarning innovatsiyalarga tayyorgarligini shakllantirishga yordam bermoqda.

Bizning fikrimizcha, uzoq muddatli istiqbolda respublikada ta'lim tizimining ishlashi va rivojlanishi tashqi va ichki sharoitlar bilan belgilanadi. Tashqi sharoitlar orasida bilimga asoslangan iqtisodiyotga o'tish ta'lim uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, bu mehnat bozorida bilim va kompetensiyaga talabning oshishiga olib keladi hamda uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini shakllantirish orqali inson kapitali sifatini yaxshilashni talab qiladi.

Ta'limni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadigan asosiy ichki sharoit – bu ta'lim sohasidagi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishdir. Maktab ta'limi maqsadlariga muvofiq, kasb-hunar, shu jumladan, pedagogik, ta'lim sohasidagi rivojlanishning asosiy yo'nalishi: aholiga sifatli oliy ma'lumot olish imkoniyatini ta'minlaydi.

Keyingi yo'nalish – bu global Internet ta'lim resurslaridan foydalanishni ta'minlash, onlayn, masofaviy

o'qitish dasturlari, yangi avlod raqamli va elektron o'qitish vositalarini tizimga keng joriy etishdan iborat.

Mazkur sharoitlarni ta'minlash uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini boshqarishni samarali tashkil etish;
ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, sifatini oshirish, axborot va telekommunikatsiya tizimlaridan samarali foydalangan holda uzluksiz kasbiy rivojlanish muhitini yaratish;

xalq ta'limi tizimi muammolari bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot ishlarini ko'paytirish va ularning natijalarini, sohaga tatbig'ini nazoratga olish;

pedagoglar uchun ish joyidan to'g'ridan-to'g'ri Internet tarmog'iga ulanish imkoniyatlarini ta'minlash;

o'quv-uslubiy majmualarda innovatsion yondashuvlarni tatbiq qilish, elektron ta'lim resurslarining variativligiga erishish.

Shuningdek, keltirilgan sharoitlar pedagoglarni, jumladan, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy standartlarga mos keladigan, keng dunyoqarashga ega bo'lgan, ta'lim natijalari sifati uchun yuqori ijtimoiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladigan, o'quvchilarning ta'lim yo'nalishlarini mos tarzda boshqaradigan, ularning shaxsiy va kasbiy o'sishiga yordam beradigan tashkiliy-iqtisodiy va tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

O'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish haqida to'xtalganda, uni ta'lim tizimining ishlab chiqishi mumkin bo'lgan mahsuloti, deb bilamiz. Innovatsion kompetensiyali o'qituvchining resurs sifatidagi funksiyasi yangiliklar salohiyatini to'plash manbai bo'lib xizmat qilishi, insonga xos bo'lgan qobiliyatlar taraqqiyotining namoyishi, istiqbolli muammolar echimini aniqlash, istiqbolni rejalashtirishni ifodalaydi. Shu narsa ravshanki, ta'lim sohasi, o'z vazifasiga ko'ra, jamiyat innovatsion rivojlanishining real va potensial subyektlarini shakllantirishni ta'minlay oladi. Demak, ta'lim tizimida innovatsion kompetensiyali o'qituvchilar etarli miqdorda bo'lishi uchun uni ishlab chiqarish kerak.

Ishlab chiqarish resurslarni tayyor mahsulotga aylantirish jarayonini anglatar ekan, innovatsion kompetensiyali o'qituvchi salohiyatini ta'limning ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchilik darajasidan istiqbolni shakllantiradigan, o'zgartirishlar kiritadigan manbai nuqati nazaridan ko'rib chiqamiz.

Ta'lim kadrlar bilan ishlash uchun qanday imkoniyatlarga ega, uni shakllantirishning qanday usullari ishlab chiqilgan va hali nimalar yaratilishi kerak? Bu savollarga javob topishning ahamiyati juda katta, chunki ta'limning sifati yosh avlodning qobiliyatlari va subektivligini rivojlantirish imkonini beradi.

Ma'lumki, umumta'lim maktabining o'quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etish o'qituvchidan nazariy, amaliy va shaxsiy tayyorgarlikni talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchilarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Ta'lim tizimiga qo'yilgan strategik va taktik vazifalarni hal qilish sifati ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy darajasiga bog'liq. Shu sababli o'qituvchilar innovatsion salohiyatini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish va o'qituvchilarning uzluksiz ta'limga jalb qilinishini ta'minlash ta'lim muassasalari uchun ham, ta'limni boshqaruv organlari darajasida ham dolzarb vazifadir. O'qituvchilar innovatsion salohiyatining mohiyatini aniqlash va uni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarini ishlab chiqish uchun uslubiy asos faoliyatning me'yoriy tuzilishi hisoblanadi. Bu jarayonda "...tezkor texnologik o'zgarishlar davrida ehtiyojlar dinamikasi, talabni individuallashtirish va uni qondirish imkoniyatlarining oshishini anglatuvchi uzluksiz ta'limning tubdan yangi tizimini shakllantirish kechiktirib bo'lmaydigan, echimini kutayotgan masaladir. Bundan tashqari, bunday ta'limning asosiy xususiyati nafaqat bilim va texnologiyalarni uzatish, balki ijodiy hamda ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish, qayta tayyorlashdan iborat bo'ladi" [11].

Yuqorida keltirilgan an'analar va muammolar o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish strategiyasini aniqlash yo'nalishini belgilaydi. Shu sababli, vazifa o'quv mazmunini ehtiyojlar asosida shakllantirish, pedagog xodimlarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha xizmatlarni variativlash orqali uzluksiz ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish innovatsionsini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonida pedagog xodimlarning malaka oshirish tizimini samarali tashkil etish, jumladan, malaka oshirish muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun yuqori malakali professor-o'qituvchilarni jalb qilish, malaka oshirish kurslarida esa tinglovchilarning salohiyatini inobatga olish uning maqsadlaridan biri etib belgilangan [3]. Shubhasiz, o'qituvchilar malakasini oshirish tizimini yuqori malakali professor-o'qituvchilarsiz sifatli amalga oshirib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi o'ziga xos an'analar, istiqbollar va innovatsion rivojlanish tendensiyalariga ega. U o'zining tuzilishiga, yangilanish va global ta'lim sohasining yaxlitligi integratsiyasiga ega. Shu bilan birga, o'qituvchilarning malakasini oshirishga bilvosita va bevosita aloqador holda, uzluksiz ta'lim tizimida ham qator muammolar mavjud:

1. Pedagogik ta'lim ko'lamini kengaytirish va pedagogik oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining nafaqat ta'lim sohasida, balki turli xil gumanitar texnologiyalardan foydalanishni talab qiladigan boshqa

sohalarda ishlashga yo'naltirilishi. Ijtimoiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, kam ixtisoslashgan o'qituvchilar o'z mutaxassisliklari bo'yicha ishlaydilar. Boshqa tomondan, maktabda pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan kishilar ham ishlashmoqda.

2. Umumta'lim maktabining haqiqiy ehtiyojlari va o'qituvchilar tayyorlash sifati o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish. Bu, avvalo, maktab ta'limi mazmunini yangilash, o'quv jarayonini uslubiy va moddiy-texnik ta'minotiga aloqadordir. Bunday sharoitda davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq kompetensiyaviy yondashuv asosida katta o'zgarishlar talab qilinadi.

3. Uzlüksiz ta'lim, umr bo'yi o'qitish tamoyilining, malaka va kompetensiyaga qo'yiladigan talablarning o'sib borayotgan ahamiyatini hisobga olish.

4. O'qituvchilarni uzlüksiz kasbiy rivojlantirish tizimiga yangi talablarni tatbiq etish. Unda uzlüksiz kasbiy rivojlantirish uchun sharoit yaratish ko'proq amaliy yo'naltirilganligida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, bugungi kunda uzlüksiz ta'lim tizimining tendensiyalari saqlab turilgani holda, o'qituvchiga individual maqsadli yordam ko'rsatishga qaratilgan chora-tadbirlar mexanizmi yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

Ta'limni rivojlantirish bilan bog'liq zamonaviy va istiqbolga qaratilgan muammolarni hal etishda o'qituvchining vazifasi ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsion yondashuvlarni tatbiq qilishdan iborat bo'ladi. Buning uchun ta'lim subyektlari bilan o'zaro munosabatda bo'lish, metodik xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalarni kuchaytirish, amaliy va metodik maydonchalarni tashkil etish kerak. Bu o'rinda oliy va malaka oshirish ta'limi muassasalari jarayonlarning tashabbuskori va ishlab chiqaruvchisi bo'lishi zarur. Ushbu funktsiya xalq ta'limi sohasiga doir ilmiy izlanishlarning amaliyotga tatbiqini ta'minlash, aniq tashabbuslar, o'qituvchilarning sifat tarkibini yaxshilash, ularni kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish orqali ta'minlanadi.

Shu tariqa, ta'limni modernizatsiyalash jarayonlari uning barcha bosqichlarini birlashtirishga qaratilgan tizimni yaratishni, shuningdek, uzlüksiz ta'lim innovatsion mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirishni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi fikrlar asosida o'qituvchilarni uzlüksiz kasbiy rivojlantirish tizimiga oid quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

o'qituvchilarni uzlüksiz kasbiy rivojlantirish innovatsion xarakter kasb etishi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, bitiruvchilar ko'nikmasiga qo'yiladigan talablarga mos bo'lishi, aniq ehtiyojlarga asoslanishi;

uzlüksiz kasbiy rivojlantirish dasturlari yangicha yondashuvlar, innovatsiyalar, g'oyalar, ilg'or texnologiyalar, ta'limni isloh qilish muammolari nuqtai nazaridan joriylanishi;

kasbiy rivojlantirish uzlüksiz va innovatsion faoliyat orqali amalga oshirilishi;

o'qituvchini uzlüksiz kasbiy rivojlantirish tizimi mazmun jihatidan amaliyot va undan keyingi faoliyati bilan bog'liq bo'lishi;

o'qituvchilarda innovatsion kompetensiyani rivojlantirish ta'lim maqsadlariga muvofiq bajarilishi;

o'qituvchilarni uzlüksiz kasbiy rivojlantirishning nazariy va konseptual asoslarini ishlab chiqish kerak.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion kompetensiyani rivojlantirish jarayonlari monitoringining quyidagi turlaridan foydalanish o'rinli, deb hisobladik:

- o'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligini ta'minlashda yuzaga keladigan muammolar va qiyinchiliklarni aniqlashga yo'naltirilgan innovatsion kompetensiyasini shakllantirish;

- o'qituvchining innovatsion kompetensiyasini shakllantirishni boshqarish jihatidan muhim muammolarni aniqlash;

- uzlüksiz kasbiy rivojlantirish tizimida o'qituvchining innovatsion qobiliyatini shakllantirish natijasida yuzaga keladigan ta'sirlar samaradorligini kuzatish va baholashni ta'minlash.

Monitoringdan maqsad quyidagi asosiy natijalarga erishish hisoblanadi:

- o'qituvchilarning innovatsiyalarga tayyorgarligini ta'minlash samaradorligini aniqlash;

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni shakllantirish.

Kvalimetriya asosida olib borilgan ilmiy ishlar tahlili "mezonlar" tushunchasini o'rganish ob'ektining sifat tavsifi tarzida o'qituvchining innovatsion kompetensiyasini rivojlanganligini aniqlash imkonini berdi.

Olimlar tomonidan innovatsiyalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish, ta'lim tizimi natijalarini, shuningdek, butun tizimni va uning alohida elementlarini sifat jihatidan tavsiflash bo'yicha bir qator ishlar qilingan. Kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorlash samaradorligi mezonlari va ko'rsatkichlari R.X.Jo'rayev [10], O'.Q.Tolipov [16], N.A.Muslimov [13], M.T.Jumaniyozova [11] va boshqalarning ishlarida ko'rib chiqilgan.

Ko'pchilik olimlar tomonidan innovatsiyaning asosiy mezon sifatida yangilik ko'rsatiladi. Bu esa har bir o'qituvchi faoliyatiga kiritilayotgan yangilikning mohiyati, uning darajasini aniqlashi va tushinishi juda muhimligini ko'rsatadi. Innovatsiyalar tajribada keng va ijodiy qo'llansa, uni pedagogik yangiliklarni

baholash mezoni sifatida ko‘rib chiqish mumkin, agar u ma‘lum xususiyatlari yoki murakkabligi tufayli tor, cheklangan doirada qolsa, bu holda pedagogik innovatsiyalar haqida gapira olmaymiz.

Sohaga oid nazariy manbalar, olib borilgan kuzatishlar va o‘rganishlar natijasida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik omillarini rasmda keltirilgan tuzilmadagi kabi belgilanishi maqsadga muvofiq, deb hisobladik (1-rasm).

Belgilangan pedagogik omillarning ta‘minlanishi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining gnostik, prognostik, kommunikativ, tashkiliy, moslashuvchanlik, tahliliy, reflektiv ko‘nikmalaridan iborat pedagogik mahoratini takomillashtiradi. Buning uchun muayyan faoliyat jarayoni zarur bo‘lib, uning mavjudligi o‘qituvchida innovatsion kompetensiyani rivojlantirishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuningdek, innovatsion kompetensiya pedagogik yangiliklarni yaratish, asoslash va amaliyotga kiritish uchun ahamiyatli bo‘lgan motivlar, bilim, ko‘nikma, malaka, o‘z-o‘zini baholash, shaxsiy-kasbiy fazilatlariga egaligi bilan belgilanadi.

O‘qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishga nazariy tayyorgarligi pedagogik innovatsiyalar asoslarini bilish, nostandart fikrlash tarzida namoyon bo‘ladigan ko‘nikmalarini ifodalaydi. Uning asosiy tashkil etuvchilari konstruktiv va gnostik harakatlardir. Faoliyatning ikkala turi ham o‘qituvchida analitik, prognostik, proeksion, aks ettirish ko‘nikmalarini shakllantirishni talab qiladi [8; 79-82-b.].

O‘qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishga doir fundamental bilimlarga egaligi

O‘qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishni rejalashtirish va amalga oshirish uchun tayyorligi

O‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish mazmunida innovatsion kompetensiyani rivojlantirishga doir tarkibning mavjudligi

O‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish monitoringining yo‘lga qo‘yilganligi

1-rasm. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik omillari

O‘qituvchining amaliy tayyorgarligi esa uning innovatsion faoliyatga imkon beradigan ko‘nikmalarida ko‘rinadi. Bunday qism tarkibiga tashkiliy va kommunikativ ko‘nikmalar kiradi. Shaxsiy tayyorgarlik uning motivlari, refleksiya, moslashuvchanligi, maqsad qo‘yishi va amalga oshirishda sobitligini bildiradi. Yuqoridagi fikrlar asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishga tayyorgarlik mezonlari va darajalarini shakllantirdik (1-jadval).

Jadvaldan shunday xulosaga kelish mumkinki, yuqori daraja boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishga to‘liq tayyorgarligini, yaxshi daraja tayyorgarlikning yuqariga emasligini, lekin jarayonni boshqara olishi mumkinligini, o‘rta daraja to‘liq bo‘lmagan tayyorgarlik, aniq harakatlar lozimligini, past darajada esa o‘z ustida jiddiy ishlash, uzoq muddatli mustaqil o‘qish zarurligini bildiradi.

1-jadval.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishga tayyorgarlik darajalari va tarkibiy qismlari

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishga tayyorgarlik darajalari va tarkibiy qismlari			
Darajalar	Tarkibiy qismlar		
	Nazariy	Amaliy	Shaxsiy
Past	O'quv jarayonini tashkil etishga doir o'quv texnikasi, dasturlari, mavjud innovatsion texnologiyalarni biladi.	Darslarni tashkil etishda innovatsion usullar va o'quv vositalaridan foydalanadi. Muloqot amaliyotiga ega.	Innovatsion faoliyatda ishtirok etishdan bosh tortish holati uchrab turadi, bunda motivatsiya hamkasblari bilan munosabatlardagi keskinliklarning oldini olishga yordam beradi. Ijodkor, o'zicha epizodik ta'lim bera oladi.
O'rta	O'quv jarayonini tashkil etishga doir turli darajadagi innovatsion dasturlar va o'qitish usullarini biladi.	Darsda o'qitishning innovatsion usullaridan foydalanadi. Kishilar bilan sifatli aloqani tashkil qilishga qodir.	Yangiliklarni qabul qilishga qiziqadi. Innovatsion faoliyatda ishtirok etishni istaydi. Yutuqlari uchun rag'bat kutadi. Ijodga ishtiyoqi baland.
Yaxshi	O'quv jarayonini tashkil etishga doir turli darajadagi innovatsion dasturlar va o'qitish usullarini biladi. Amaliyotga tatbiq etish yo'llaridan xabardor.	Rivojlantirish va amalga oshirish. Innovatsion dasturni o'rganish, tashkil etish, ifodalash va o'rtacha boshqarishga qodir.	Innovatsiyaga ta'lim tizimini rivojlantirish mexanizmi sifatida qaraydi.
Yuqori	O'quv jarayonini tashkil etishga doir o'qitishning innovatsion texnologiyasini biladi va ularning qo'llanilishi samarali ekanini tushunadi. Amalga tatbiq etish yo'llaridan xabardor.	Ulardan birini amalga oshiradi. Jamoasi bilan turli xil ijro vazifalari(rollari)-ni bajaradi. Shu jumladan, o'yin uskunalarini qo'llay oladi.	Innovatsiyani shaxsiy-kasbiy hayotining bo'lagi, deb qabul qiladi. Innovatsion faoliyatda qatnashish motivatsiyasi o'zining ijodiy rivojlanish potensialini belgilaydi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishga tayyorgarlik darajalari va tarkibiy qismlari

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishga tayyorgarlik darajalari va tarkibiy qismlari

Darajalar Tarkibiy qismlar

Nazariy Amaliy Shaxsiy

Past O'quv jarayonini tashkil etishga doir o'quv texnikasi, dasturlari, mavjud innovatsion texnologiyalarni biladi. Darslarni tashkil etishda innovatsion usullar va o'quv vositalaridan foydalanadi. Muloqot amaliyotiga ega. Innovatsion faoliyatda ishtirok etishdan bosh tortish holati uchrab turadi, bunda motivatsiya hamkasblari bilan munosabatlardagi keskinliklarning oldini olishga yordam beradi. Ijodkor, o'zicha epizodik ta'lim bera oladi.

O'rta O'quv jarayonini tashkil etishga doir turli darajadagi innovatsion dasturlar va o'qitish usullarini

biladi. Darsda o'qitishning innovatsion usullaridan foydalanadi. Kishilar bilan sifatli aloqani tashkil qilishga qodir. Yangiliklarni qabul qilishga qiziqadi. Innovatsion faoliyatda ishtirok etishni istaydi. Yutuqlari uchun rag'bat kutadi. Ijodga ishtiyoqi baland.

Yaxshi O'quv jarayonini tashkil etishga doir turli darajadagi innovatsion dasturlar va o'qitish usullarini biladi. Amaliyotga tatbiq etish yo'llaridan xabardor. Rivojlantirish va amalga oshirish. Innovatsion dasturni o'rganish, tashkil etish, ifodalash va o'rtacha boshqarishga qodir. Innovatsiyaga ta'lim tizimini rivojlantirish mexanizmi sifatida qaraydi.

Yuqori O'quv jarayonini tashkil etishga doir o'qitishning innovatsion texnologiyasini biladi va ularning qo'llanilishi samarali ekanini tushunadi. Amalga tatbiq etish yo'llaridan xabardor. Ulardan birini amalga oshiradi. Jamoasi bilan turli xil ijro vazifalari (rollari)-ni bajaradi. Shu jumladan, o'yin uskunalarini qo'llay oladi. Innovatsiyani shaxsiy-kasbiy hayotining bo'lagi, deb qabul qiladi. Innovatsion faoliyatda qatnashish motivatsiyasi o'zining ijodiy rivojlanish potensialini belgilaydi.

O'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan, past va o'rta darajali tayyorgarlikda ularda innovatsion kompetensiyani rivojlantirish uchun muayyan sharoitlar yaratish, ilmiy-metodik qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish talab etiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisida innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishga tayyorgarlikka nisbatan past yoki o'rta daraja kuzatilsa, ularga ilmiy-metodik yordam ko'rsatish, qo'llab-quvvatlash va samaradorlikka yo'naltirilgan sharoit yaratish zarur bo'ladi. Yaxshi va yuqori darajali tayyorgarlikda o'qituvchilarni raqobatbardosh saqlab turish, o'zlarini namoyon qilishlariga imkon berish va tajribalarini ommalashtirishga e'tibor qaratish kerak. O'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishga tayyorgarligini muhokama qilishda shuni ta'kidlash kerakki, shaxsning etakchi fazilatlarini qatorida kompetensiya bilan bir qatorda, innovatsion faoliyat ham muhimdir, bu intellektual tashabbus darajasida, ijodiy faoliyatning ortib borayotgan dinamikasida namoyon bo'ladi. Chunki, uning shaxsiy sifatleri rivojlanishi uchun asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. – QHMMB, 03/20/630/1101-son, 24.07.2020.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – QHMMB, 03/20/637/1313-son, 24.09.2020.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish innovatsionsini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5712-son Farmoni. – QHMMB, 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish innovatsionsini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5712-son Farmoni. – QHMMB, 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni. – QHMMB, 06/22/60/0082-son, 29.01.2022.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi "2022–2026 yillarga xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF–134-son Farmoni. – QHMMB, 06/22/134/0407-son, 11.05.2022.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–289-son Qarori. – QHMMB, 07/22/289/0562-son, 22.06.2022.

Адольф В.А., Ильина Н.Ф. Инновационная деятельность педагога в процессе его профессионального становления: монография. Красноярск, 2007. 204 с.

Асмолов А.Г. Стратегия социокультурной модернизации образования: на пути к преодолению кризиса идентичности и построению гражданского общества // Психолого-педагогический поиск. 2010. № 2 (14). 21-39.

Джураев Р.Х. Интегративно-модульная технология непрерывной профессиональной подготовки специалиста / Узлуксиз таълим. – 2018. - № 4. – Б. 50-56.

Ильина Н.Ф. Становление инновационной компетентности педагога: вопросы теории и практики / монография. – Красноярск, 2014. – 204 с.

Jumaniyozova M.T. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari (tarix fani o'qituvchilari misolida): ped. fan. nom... diss. – Toshkent, 2007. – 176 b.

Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirish. – T.: Fan, 2004. – 130 b.

Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – T., 2015. – 69 b.

O'roqov Sh. Bo'lajak kollej o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik kompetentlikni shakllantirishning ilmiy-metodik jihatlari. // SamDU ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. - Samarqand: - 2015. - 4-son. – B.132-135.

Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish texnologiyasi: ped. fan. dok... diss. – Toshkent, 2004. – 269 b.

TALABALARDA YARIM ADDITIV FUNKSIONALLARGA OID TUSHUNCHALARINI SMART TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Qurbanov Hamidjon Xujaniyozovich

TAQU, "Raqamli texnologiyalari" kafedrasida katta o'qituvchisi

<https://orcid.org/0000-0001-9294-8787>

Annotatsiya: Axborot texnologiyalari asri talablari va kompyuter texnologiyalarining jadal rivoji natijasida ta'lim tizimiga SMART texnologiyalar tushunchasi kirib keldi. O'qitishning mazkur texnologiyasi zamirida elektron ta'lim (e-learning) tajribasi va yutuqlari yotadi. Mazkur maqolada yarim additiv funkcionallarga oid tushunchalarni o'rganishda SMART texnologiyalarning o'rni va ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Maqolaga universitetlarda yarim additiv funkcionallarga oid tushunchalarni o'qitishda SMART texnologiyalarning ahamiyati asos qilib olingan.

Kalit so'zlar: smart – ta'lim, elektron ta'lim, smart texnologiya, yarim additiv funkcionallar.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ ПОНЯТИЙ, ОТНОСЯЩИЕСЯ К ПОЛУАДДИТИВНЫМ ФУНКЦИОНАЛАМ, SMART ТЕХНОЛОГИЯМИ

Курбанов Хамиджон Хужаниязович

ТАСУ, старший преподаватель кафедры цифровые технологии

Аннотация: в результате требований века информационных технологий и бурного развития компьютерных технологий в систему образования вошло понятие «SMART-технологии». Данная технология обучения основана на опыте и достижениях электронного образования (e-learning). В данной статье анализируется роль SMART-технологий и влияющих факторов при изучении понятий, связанных с полуаддитивными функционалами. Статья основана на важности технологий SMART при преподавании понятий полуаддитивных функционалов в университетах.

Ключевые слова: smart образование, электронное обучение, smart технологии, полуаддитивным функционалам.

METHODOLOGY OF FORMATIONS OF CONCEPTIONS AT STUDENTS RELATED TO THE SEMI-ADDITIVE FUNCTIONALS BY THE SMART TECHNOLOGIES

Kurbanov Khamidjon Xujaniyozovich

TUACE, senior lecturer of the department of digital technologies

Annotatsiya: As a result of the requirements of the information technology age and the rapid development of computer technologies, the concept of "SMART technologies" has entered the education system. This learning technology is based on the experience and achievements of electronic education (e-learning). This article analyzes the role of SMART technologies and influencing factors in the study of concepts related to semi-additive functionals. The article is based on the importance of SMART technologies in teaching the concepts of semi-additive functionals in universities.

Keywords: smart education, e-learning, smart technologies, semi-additive functionalities.

Kirish: Kompyuter imkoniyatlarining juda tez rivojlanishi barcha sohalarda AKTdan keng foydalanilishiga olib kelmoqda. Jumladan, ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-2021-yillarda O'zbekiston respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5544 sonli Farmonida O'quv-tarbiya jarayoniga yangi ta'lim dasturlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va SMART- texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini yanada yaxshilash (elektron modullar tashkil etish va masofaviy o'qitishni joriy etish) vazifalari belgilab berilgan.

Tahlil va natijalar:

Matematika fani o'qituvchisi tayyorlash xususida SMART texnologiyasini ko'radigan bo'lsak, kimdir kelajakda matematika fani o'qituvchisi bo'lib ishlashi uchun yarim additiv funkcionallarga oid tushunchalarni o'rganishga xohish paydo bo'ladi. Uning uchun maqsadni quyidagicha qo'yish mumkin:

S – Matematika fani o'qituvchisi o'zining maqsadini – talabalarda yarim additiv funkcionallarga oid bilimlarni egallash uchun kerak bo'ladigan topologik fazo, metrik fazo, kompaktili fazo, Hausdorff fazosi, algebra, Banach algebrasi, uzluksiz funksiya, algebraik operatsiyalar, nuqtali operatsiyalar, sup-norma, o'zgaruvchi funksiya, funkcionallar kabi barcha bilimlarni o'rganishni aniq ifodalaydi.

M - Matematika fani haqidagi bilimlarni qanday o'lchash kerak? O'qish muddati, egallayotgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini doimiy ravishda o'lchab borish mumkin.

A - Bunday maqsadga erishish mumkinmi? Ha. Salohiyatli chet el va respublika professor o'qituvchilarni jalb etish, o'quv jarayonini zarur jihoz va texnik vositalar bilan ta'minlash zarur.

R - Ushbu masalani hal etishdan foyda bormi? Ha. Respublika ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlarga javob

bera oladigan matematika o'qituvchilari zarur. Bajaruvchilar maqsadga erisha oladilar.

T - Mashg'ulotlarni qo'yib yubormasligi uchun odam aniq vaqt chegaralarini qo'yishi mumkin, masalan 2 yil. Yarim additiv funksionallarga oid zarur bilim va malakalarga ega bo'lish uchun shu vaqt yetarli.

Yarim additiv funksionallarga oid bilimlarni egallashda Smart ta'limning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni olish mumkin.

1. Ta'lim muammolarini hal qilish uchun ta'lim dasturida tegishli ma'lumotlardan foydalanish. Ta'limda axborot oqimining tezligi va hajmlari hamda har qanday kasbiy faoliyatda jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Yarim additiv funksionallarga oid amaliy mashg'ulotlarni o'tishga, haqiqiy vaqt sharoitida ishlashga tayyorlash uchun namunalar va modellardan foydalanmasdan mavjud o'quv materiallarini haqiqiy vaqtda uzatilayotgan topologik fazo, metrik fazo, kompaktli fazo, Hausdorff fazosi, algebra, Banax algebrasi, uzluksiz funksiya, algebraik operatsiyalar, nuqtali operatsiyalar, sup-norma, o'zgarma funksiya, funksionallar kabi materiallar bilan to'ldirish lozim.

2. Talabalarning o'zini - o'zi anglash, yarim additiv funksionallarga oid ilmiy tadqiqot, loyihalash ishlarini tashkil etishda foydalanish. Ushbu tamoyil kasbiy masalalarni yechish uchun ijodiy izlanishga, mustaqil axborot va tadqiqot faoliyatiga tayyor bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga asos bo'ladi.

3. Taqsimlangan o'quv muhitida o'quv jarayonini amalga oshirish. O'quv muhitini universitet hududi yoki masofali o'qitish tizimi chegaralari bilan cheklanmaydi. O'quv jarayoni uzluksiz bo'lishi kerak, jumladan, yarim additiv funksionallarga oid bilimlaridan foydalanib, kasbiy muhitda o'qitishni o'ziga olishi kerak.

4. Talabalarning kasbiy jamoa bilan o'zaro aloqasi. Kasbiy muhit nafaqat mutaxassislarni tayyorlash uchun mijozlar, balki o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Axborot kommunikatsion texnologiyalar talabalarga ilmiy jamoalar ishida ishtirok etish bo'yicha yangi imkoniyatlar yaratib beradi va mutaxassislar tomonidan muammolarni hal etishni kuzatishga imkoniyatlar beradi.

5. Ta'lim egiluvchan traektoriyalari, ta'limni yakka lashtirish. Ta'lim tizimiga ishlayotgan fuqarolarni jalb etish, kasbiy faoliyat turlarini tez-tez almashish, texnologiyalarni jadal rivojlanishi hisobiga ta'lim sohasi sezilarli darajada kengaymoqda. Universitetlarga kelayotgan talabalar, odatda o'zlarining ta'limdagi ehtiyojlarini yaxshi anglab yetib ifodalay oladilar.

6. Oliy ta'lim muassasasining vazifasi - talabani ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos holda ta'lim xizmatlarini ta'minlashdan iboratdir.

Talabalarning yarim additiv funksionallarga oid qisqacha materiallarni ko'rib tahlil qilib chiqamiz.

Birinchidan elementlari orasida masofa tushunchasi kiritilgan to'plamlarni (metrik fazolar, chiziqli, normalangan fazolar), ikkinchidan fazolarni sonlar o'qiga akslantirishlar (funksionallar) ning va fazoni fazoga akslantirishlar (operatorlar) ning xossalari o'rganishdan iborat.

Kelgusida uzluksiz funksional uzluksiz funksiyalarga xos bo'lgan ko'pgina xossalarga ega, operatorlar esa funksiya tushunchasining eng zamonaviy, eng umumiy umumlashmasi ekanligini ko'ramiz.

Funksional analiz matematikaning alohida bo'limi sifatida XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlarida shakllana boshladi. Funksional analizga doir dastlabki ilmiy ishlar italyan matematigi Volterra, fransuz matematigi Puankare va nemis matematigi Gilbertga taalluqlidir. Metrik fazo tushunchasi fanga fransuz matematigi Freshe tomonidan XX asr boshlarida kiritilgan, normalangan fazo tushunchasi 1922 yilda polyak matematigi Banax va unga bog'liq bo'lmagan holda amerikalik matematik Viner tomonidan kiritilgan.

Funksional analizning eng muhim, dolzarb yo'nalishlaridan biri operatorlar algebralari nazariyasi va uning tatbiqlari, Banax algebralari sohasining asosiy qismini tashkil qilib, Respublikamizda keng rivojlantirilmoqda.

Toshkent funksional maktabi vakillarining ko'plab ilmiy tadqiqotlari, oxirgi 20-30 yil davomida ushbu yo'nalishga aloqador bo'lib, aytish mumkinki ko'plab, chuqur va muhim natijalar olindi.

Banax algebralari nazariyasi bakalavrlar tayyorlash dasturiga kiritilmagan mavzu bo'lib, magistrlar uchun esa tanishtiruv, umumiy tushunchalarni berish sifatida ozgina berilgan xolos.

Shu sababli ushbu darslikda Banax algebralari bilan yaxshiroq tanishish va tanishtirish, hamda undagi ba'zi yechilmagan masalalarga e'tibor berish nazarda tutilgan.

Ma'lumki, Banax algebralarining paydo bo'lishida operatorlar algebrasi asosiy rol o'ynagan.

Odatda, X chiziqli fazoni Y chiziqli fazoga aks ettiruvchi barcha chiziqli operatorlar to'plamini $L(X, Y)$ orqali belgilanadi va u chiziqli fazo bo'ladi.

Agar qaralayotgan fazolar normalangan fazolardan iborat bo'lsa, u holda uzluksiz operatorlar fazosi haqida fikr yuritish mumkin.

Ikki uzluksiz operatorning yig'indisi va uzluksiz operatorning songa ko'paytmasi uzluksiz operator bo'lishi chiziqli amallarning uzluksiz ekanligidan bevosita kelib chiqadi.

Agar $X=Y$ bo'lsa, $L(X, Y)$ o'rniga $L(X)$ yozamiz. $L(X)$ chiziqli fazoda ko'paytma sifatida operatorlarning kompozitsiyasi, $T \square S$ olinadi va $L(X)$ algebraga aylanadi. Bu algebrani chiziqli operatorlar algebrasi deyiladi.

Operator algebralarining eng muhimlari C^* -algebralar, fon Neyman algebralaridir. Ulardan yanada kengroq tushunchalar yordamida aniqlanadigan, o'z-o'ziga qo'shma operatorlar fazosi va Yordan Banax algebralari (JB-algebralar) hozirgi zamon kvant mexanikasi masalalarining matematik modelini yaratishda, ularga matematik talqin berishda asosiy

vazifalarni bajarishi asoslangan (Bu sohadagi batafsil ma'lumotlarni [3], [4], [5] adabiyotlardan olishingiz mumkin).

Bu yo'nalishdagi rivojlanish yarim maydonlar nazariyasi [6] yaratilganidan so'ng kuchayib ketdi.

Kvant mexanikasida fizik sistemaning tasodifiy miqdorlarini biror N , Gilbert fazosida aniqlangan o'z-o'ziga qo'shma operator yordamida tasvirlash mumkinligi operatorlar algebrasiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirib yubordi [7]. Ma'lum bir aksiomalar sistemasini qanoatlantiruvchi, haqiqiy algebra – yordan algebralari yuqoridagi mulohazalar asosida paydo bo'ldi. Bu algebralarda norma, tartib tushunchalarini kiritib Banach algebralari tadqiq qilina boshlandi.

O'zbekistonda funksional analizning rivojlanishi, uning g'oyalari keng targ'ib qilgan va funksional analiz bo'yicha o'z maktabiga ega bo'lgan akademik T.A.Sarimsoqov nomi bilan bog'liq.

X topologik fazo bo'lib, Y uning biror qism fazosi bo'lsin. Ochiq to'plamlarning $\{G_\alpha : \alpha \in A\}$ sistemasi uchun $Y \subset \bigcup_{\alpha \in A} G_\alpha$ bo'lsa, u holda bu sistema Y to'plamning *ochiq qoplama* deb ataladi.

Agar ochiq qoplama chekli elementlardan iborat bo'lsa, u holda u *chekli ochiq qoplama* deyiladi.

Agar topologik fazoning ixtiyoriy ochiq qoplamasidan chekli qism qoplama ajratib olish mumkin bo'lsa, u holda bu topologik fazo *kompaktli* deyiladi.

T_2 aksiomasi (ajratishning ikkinchi yoki xausdorf aksiomasi): X topologik fazoning ixtiyoriy ikkita har xil x va y nuqtalari o'zaro kesishmaydigan O_x va O_y atroflarga ega.

T_2 aksiomasini qanoatlantiruvchi kompaktli topologik fazoni *kompakt* deb ataymiz.

M to'plamning qism to'plamlaridan iborat $\{A\}$ sistemadan xohlagancha olingan chekli sondagi to'plamlarning kesishmasi bo'sh bo'lmasa, u holda $\{A\}$ sistema *markazlashgan* deb ataladi.

Agar X topologik fazoning har bir cheksiz qism to'plami kamida bir limit nuqtaga ega bo'lsa, u holda bu fazo sanoqli-kompaktli deyiladi [8].

E to'plam quyidagi shartlarni qanoatlantirsa, u holda E *chiziqli topologik fazo* deyiladi:

- E chiziqli fazo;
- E topologik fazo;
- E da qo'shish va songa ko'paytirish amallari uzluksiz.

Qo'shish va songa ko'paytirish amallarining uzluksizligi quyidagini anglatadi:

1) agar $z_0 = x_0 + y_0$ bo'lsa, u holda z_0 nuqtaning ixtiyoriy U atrofl uchun x_0 va y_0 nuqtalarning mos ravishda V va W atroflari topilib, ixtiyoriy $x \in V$; $y \in W$ nuqtalar uchun $x + y \in U$ sharti bajariladi;

2) agar $y_0 = \lambda_0 x_0$ bo'lsa, u holda y_0 nuqtaning ixtiyoriy U atrofl uchun x_0 nuqtaning V atrofl va $\varepsilon > 0$ soni topilib, ixtiyoriy $x \in V$ va $|\lambda - \lambda_0| < \varepsilon$ lar uchun $\lambda x \in U$ sharti bajariladi.

Ta'rif. Agar X metrik fazoda ixtiyoriy fundamental ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo'lsa, u holda X *to'la metrik fazo* deyiladi.

Agar X va Y chiziqli fazolar bo'lsa, u holda $A : X \rightarrow Y$ akslantirishga *operator* deyiladi. Agar bu operatorning aniqlanish sohasiga tegishli ixtiyoriy x, y elementlar va ixtiyoriy α, β sonlari uchun

$$A(\alpha x + \beta y) = \alpha A(x) + \beta A(y)$$

tengligi o'rinli bo'lsa, u holda A *chiziqli operator* deb ataladi. A operatorning aniqlanish va qiymatlar sohaslarini mos ravishda $D(A)$ va $R(A)$ ko'rinishlarda belgilaymiz.

X va Y normalangan fazolar, $A : X \rightarrow Y$ chiziqli operator bo'lsin. Agar ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ soni uchun shunday $\delta > 0$ soni topilib, $\|x_1 - x_2\| < \delta$ tengsizligini qanoatlantiruvchi barcha $x_1, x_2 \in D(A)$ elementlar uchun $\|Ax_1 - Ax_2\| < \varepsilon$ tengsizligi o'rinli bo'lsa, u holda A operatori *uzluksiz* deyiladi.

Agar $A : X \rightarrow Y$ chiziqli operatori X fazosining har bir chegaralangan to‘plamini Y fazosining chegaralangan to‘plamiga akslantirsa, u holda A chegaralangan operator deb ataladi.

X va Y normalangan fazolar va $A : X \rightarrow Y$ chiziqli operator bo‘lsin. Agar shunday $C > 0$ soni topilib, barcha $x \in D(A)$ elementlar uchun $\|Ax\| \leq C \|x\|$ tengsizligi bajarilsa, u holda A operatori chegaralangan bo‘ladi. Bu tengsizlikni qanoatlantiruvchi sonlar to‘plamining quyi chegarasi A operatorning normasi deb ataladi, ya’ni

$$\|A\| = \inf \{C > 0 : \forall x \in D(A), \|Ax\| \leq C \|x\|\}.$$

Bizga E chiziqli topologik fazosi berilgan bo‘lsin. Agar har bir $x \in E$ elementga biror $f(x)$ (haqiqiy yoki kompleks) son mos qo‘yilgan bo‘lsa, u holda E fazosida funksional aniqlangan deyiladi. Bu funksional uchun

$$f(x + y) = f(x) + f(y), \quad x, y \in E \text{ (additivlik)}$$

va

$$f(\alpha x) = \alpha f(x), \quad (x \in E; \alpha \in \mathbb{R} \text{ yoki } \alpha \in \mathbb{C}) \text{ (birjinslilik)}$$

tengliklari o‘rinli bo‘lsa, u holda u chiziqli funksional deb ataladi.

E fazosiga tegishli x_0 nuqta olinganda, xohlagan $\varepsilon > 0$ soni uchun x_0 nuqtaning shunday U atrofi mavjud bo‘lib, bu atrofdan olingan barcha x nuqtalar uchun

$$|f(x) - f(x_0)| < \varepsilon$$

tengsizligi o‘rinli bo‘lsa, u holda f funksional x_0 nuqtada uzluksiz deyiladi.

Agar f funksional E fazosining har bir nuqtasida uzluksiz bo‘lsa, u holda u E fazosida uzluksiz deyiladi.

Agar shunday o‘zgarma soni mavjud bo‘lib, barcha $x \in E$ elementlar uchun

$$|f(x)| \leq C \|x\|$$

tengsizligi o‘rinli bo‘lsa, u holda f funksional E fazosida chegaralangan deyiladi.

Normalangan fazoda funksionalning normasi uchun quyidagi tengliklar o‘rinli:

$$\|f\| = \sup_{x \neq 0} \frac{|f(x)|}{\|x\|} = \sup_{\|x\| \leq 1} |f(x)| = \sup_{\|x\|=1} |f(x)|$$

Ta’rif. Biror L to‘plamning ixtiyoriy ikki x va y elementi uchun qo‘shish amali berilgan bo‘lib, unga nisbatan L kommutativ gruppasi hosil qilsin, ya’ni

$$1. \quad x + y = y + x;$$

$$2. \quad x + (y + z) = (x + y) + z;$$

3. L ning barcha elementlari uchun $x + \theta = x$ shartni qanoatlantiruvchi va nol deb ataluvchi θ element mavjud.

4. L da har qanday x element uchun $x + (-x) = \theta$ shartni qanoatlantiruvchi va $(-x)$ element mavjud.

Bu elementni x ga qarama-qarshi element deyiladi.

Bulardan tashqari, har qanday $\alpha \in \mathbb{R}$ son va $x \in L$ element uchun ularning ko‘paytmasi deb ataladigan $\alpha x \in L$ element aniqlangan bo‘lib, quyidagilar o‘rinli:

$$5. \quad \alpha(\beta x) = (\alpha\beta)x;$$

$$6. \quad 1 \cdot x = x;$$

X topologik fazo bo'lib, Y uning biror qism fazosi bo'lsin. Ochiq to'plamlarning $\{G_\alpha : \alpha \in A\}$ sistemasi uchun $Y \subset \bigcup_{\alpha \in A} G_\alpha$ bo'lsa, u holda bu sistema Y to'plamning *ochiq qoplama* deb ataladi.

Agar ochiq qoplama chekli elementlardan iborat bo'lsa, u holda u *chekli ochiq qoplama* deyiladi.

Agar topologik fazoning ixtiyoriy ochiq qoplamasidan chekli qism qoplama ajratib olish mumkin bo'lsa, u holda bu topologik fazo *kompaktli* deyiladi.

T_2 aksiomasi (ajratishning ikkinchi yoki xausdorf aksiomasi): X topologik fazoning ixtiyoriy ikkita har xil x va y nuqtalari o'zaro kesishmaydigan O_x va O_y atroflarga ega.

T_2 aksiomasini qanoatlantiruvchi kompaktli topologik fazoni *kompakt* deb ataymiz.

M to'plamning qism to'plamlaridan iborat $\{A\}$ sistemadan xohlagancha olingan chekli sondagi to'plamlarning kesishmasi bo'sh bo'lmasa, u holda $\{A\}$ sistema *markazlashgan* deb ataladi.

Agar X topologik fazoning har bir cheksiz qism to'plami kamida bir limit nuqtaga ega bo'lsa, u holda bu fazo sanoqli-kompaktli deyiladi [8].

E to'plam quyidagi shartlarni qanoatlantirsa, u holda E *chiziqli topologik fazo* deyiladi:

- a) E chiziqli fazo;
- b) E topologik fazo;
- c) E da qo'shish va songa ko'paytirish amallari uzluksiz.

Qo'shish va songa ko'paytirish amallarining uzluksizligi quyidagini anglatadi:

1) agar $z_0 = x_0 + y_0$ bo'lsa, u holda z_0 nuqtaning ixtiyoriy U atrofl uchun x_0 va y_0 nuqtalarning mos ravishda V va W atroflari topilib, ixtiyoriy $x \in V$; $y \in W$ nuqtalar uchun $x + y \in U$ sharti bajariladi;

2) agar $y_0 = \lambda_0 x_0$ bo'lsa, u holda y_0 nuqtaning ixtiyoriy U atrofl uchun x_0 nuqtaning V atrofl va $\varepsilon > 0$ soni topilib, ixtiyoriy $x \in V$ va $|\lambda - \lambda_0| < \varepsilon$ lar uchun $\lambda x \in U$ sharti bajariladi.

Ta'rif. Agar X metrik fazoda ixtiyoriy fundamental ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo'lsa, u holda X *to'la metrik fazo* deyiladi.

Agar X va Y chiziqli fazolar bo'lsa, u holda $A : X \rightarrow Y$ akslantirishga *operator* deyiladi. Agar bu operatorning aniqlanish sohasiga tegishli ixtiyoriy x, y elementlar va ixtiyoriy α, β sonlari uchun

$$A(\alpha x + \beta y) = \alpha A(x) + \beta A(y)$$

tengligi o'rinli bo'lsa, u holda A *chiziqli operator* deb ataladi. A operatorning aniqlanish va qiymatlar sohaslarini mos ravishda $D(A)$ va $R(A)$ ko'rinishlarda belgilaymiz.

X va Y normalangan fazolar, $A : X \rightarrow Y$ chiziqli operator bo'lsin. Agar ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ soni uchun shunday $\delta > 0$ soni topilib, $\|x_1 - x_2\| < \delta$ tengsizligini qanoatlantiruvchi barcha $x_1, x_2 \in D(A)$ elementlar uchun $\|Ax_1 - Ax_2\| < \varepsilon$ tengsizligi o'rinli bo'lsa, u holda A operatori *uzluksiz* deyiladi.

Xulosa sifatida yarim additiv funksionallarga oid bilimlarni egallash uchun kerak bo'ladigan topologik fazo, metrik fazo, kompaktli fazo, Hausdorff fazosi, algebra, Banach algebrasi, uzluksiz funksiya, algebraik operatsiyalar, nuqtali operatsiyalar, sup-norma, o'zgarmas funksiya, funksionallar kabi barcha bilimlarni o'rganish talabalarda keyinchalik ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga zamin bo'lib xizmat qiladi. Bu bilimlarni egallashda Smart – texnologiyalardan foydalanish talabalarning mustaqil ishlarini sifatli va samarali tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'uxati

Тихомиров В.П., Днепровская Н.В. Смарт-образование как основная парадигма развития информационного общества.

Makhmudova D.M. Electronic educational resources as a new component of a traditional educational process // Academia Open Vol 1 No 1 (2019): June Education <https://press.umsida.ac.id/index.php/acopen/article/view/12/15>.

3. Диксмье Ж. С* - алгебры и их представления. М. Наука. 1974.

4. Аюпов Ш.А. Классификация и представление упорядоченных йордановых алгебр. Ташкент. Фан. 1986.

5. Саримсоқов Т.А. Полуполя и теория вероятностей. Ташкент. Фан.1978.

6. Эмх Ж. Алгебраические методы статистической механики и квантовой теории поля. М. Мир. 1976.

7. Макаров И.П. Дополнительные главы математического анализа. М., Просвещение, 1968.-308 с.

8. Аюпов Sh.A., Berdiqulov M.A., Turg'unbayev R.M. Funksional analiz O'quv qo'llanma. Toshkent. 2007.

9. Аюпов Sh.A., Ibragimov M.M., Kudaybergenov K.K. Funksional analizdan misol va masalalar. O'quv qo'llanma. NUKUS "BILIM" 2009.

PEDAGOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

Qurbonov G'ulomjon G'afurovich,

Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Mazkur ishda oliy ta'lim muassasalarining Matematika va informatika ta'lim yo'nalishi talabalariga dars mashg'ulotlarini dasturiy vositalar asosida tashkil etish masalasi yoritilgan. Talabalarni faollashtiruvchi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi kabi didaktik funksiyalar tahlil qilingan. Dasturiy vositalar asosida test tizimi funksiyalarni amalga oshirgan holda mahoratni shakllantirishga yo'naltirilgan modullardan foydalanish bo'yicha mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: iSpring, dastur, iSpring Free dasturi, SCORM, iSpring Suite, QuizMaker, elektron nazorat testlari, iSpring DialogTrainer, LMS, iSpring-server, virtual.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ

Курбанов Гуломжон Гафурович,

Доцент кафедры точных наук Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: В данной работе освещен вопрос организации уроков на основе программных средств для студентов образовательных направлений математики и информатики высших учебных заведений. Проанализированы такие дидактические функции, как активизация учащихся и развитие их способности к самостоятельному мышлению. На основе программных средств сформулированы соображения по использованию модулей, направленных на формирование навыка при реализации функций тестовой системы.

Ключевые слова: iSpring, программа, бесплатное программное обеспечение iSpring, SCORM, iSpring Suite, QuizMaker, тесты электронного управления, iSpring DialogTrainer, LMS, iSpring server, Virtual.

METHODOLOGY OF TEACHING STUDENTS MAJORING PEDAGOGY BASED ON SOFTWARE TOOLS

Kurbonov Gulomjon Gafurovich,

Bukhara State Pedagogical Institute Associate Professor of the Department of Exact Sciences

Annotations: This work addresses the problem of using software tools to organize math and informatics classes for students in higher education. Analysis is done on didactic functions that pique students' interest and help them grow as independent thinkers. The test system implements functions and provides comments on the use of skill-formation modules based on the software tools.

Key words: iSpring, program, iSpring Free program, SCORM, iSpring Suite, QuizMaker, electronic control tests, iSpring DialogTrainer, LMS, iSpring-server, virtual.

Kirish. Respublikamizda elektron axborot ta'lim resurslarini yaratishda keng ishlatilib kelinayotgan dasturiy ta'minotlardan biri Ispring dasturi hisoblanadi. Odatda, taqdimotni o'tkazishga tayyorlanish jarayonida aksariyat hollarda Microsoft PowerPoint dasturiy ta'minotidan foydalaniladi. Ammo bunday taqdimotlar faqat mazkur mahsulot formatidagina bo'lishi mumkin (ppt, pptx). Hozirgi vaqtda internet texnologiyalarining rivojlanishi va o'z navbatida, masofali ta'lim turining paydo bo'lishi natijasida taqdimot fayllarini internet brauzerining o'zida onlayn ravishda to'g'ridan - to'g'ri ko'rish uchun flash (swf) formatida yoki HTML 5 texnologiyasi asosida yaratilgan fayl bo'lishi kerak. Hozirga kelib, PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan flash - rolik shakllantirish imkoniyatini beruvchi dasturlar yaratilgan. Ta'lim tizimida dasturiy vositalardan foydalanish va o'quv jarayonida interfaol texnologiyalarni tatbiq etish, bugungi kun yoshlaridan yuqori malakali kadr bo'lib yetishish uchun intellektual salohiyatli, ilm - fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash talab etadi. Bugungi kunda ilm - fanning tezkor taraqqiy etishida raqamli texnologiyalarining keng joriy etilishi, turli fan yo'nalishlarida bilimlarning jadal yangilab borishi, ta'lim oluvchilarning mustaqil ravishda muntazam bilim olish vazifasini talab etmoqda [1].

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” asosida oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talaba yoshlarining bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularni dasturiy vositalarlar, hamda ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida qurollantirish alohida ta'kidlab o'tilgan. Bu esa dars jarayonini, xususan talabalarning darsdan tashqari

ishlarni dasturiy vositalarlari asosida tashkil etish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

Asosiy qism. Dasturiy ta'limni rivijlantirishda nimalarga e'tibor qaratish lozimligi, talabalarning dasturiy ta'lim va texnologiyalardan foydalanishning hozirgi kundagi holati o'rganilib so'rovnomaga o'tkazilganda, qatnashchilarning 72,1 foizi smartfon qurilmasini tanlaganligi, dasturiy ta'lim haqidagi ma'lumotga ega qatnashchilar 81,2 foizni, raqamli texnologiyalardan ta'limda foydalanish kerakligini 82,7 foiz qatnashchilar, dasturiy ta'limning zarurati so'roviga 91,8 foiz qatnashchilar "zarur" degan tanlovlarni amalga oshirganligi sababli ushbu tadqiqot ishi amalga oshirildi. Dasturiy ta'limning samaradorligi yana shundan iboratki, uning qatnashchilari yaxlit tizimli bilimga ega bo'ladi va mustaqil - ijodiy fikrlash qobiliyatlari oshiriladi. Shuning uchun ham dasturiy ta'lim, rivojlaniruvchi o'qitishning yuqori samarali usullaridan biri bo'lib hisoblanadi. Talabalarning darsdan tashqari mustaqil ishlarini tashkil etishda ham o'qituvchilarning tashabbuskorligi, mahorati muhim hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida ham iqtisodiy-ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, shu jumladan, ta'lim sohasiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish eng ustuvor vazifa qilib belgilangan. Ushbu ustuvor vazifalarni amalga oshirishda talabalarning bo'sh vaqtlarda ularning darsdan tashqari mustaqil ishlarini masofadan tashkil etish, individual faollikni, tashabbuskorlikni, intellektual salohiyatlarini oshirib, uni namoyish etishda juda katta yordam beradi.


Oliy ta'lim muassasalarining "Matematika va informatika" ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan mutaxassislik fanlarini dasturiy ta'lim vositalari orqali ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda talabalarning bo'sh vaqtlarini unumli va sarmazmun o'tkazish, fanga nisbatan bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirish hamda dunyoqarashni to'g'ri shakllantirishda va tarbiyaviy axloqiy kamol topishida zamin yaratadi.

O'tkazilgan tadqiqotlardan shuni kuzatish mumkinki, talabalarning dasturiy vositalarga bo'lgan qiziqishini oshirish bugungi kunda pedagog kadrlar tayyorlash tizimining dolzarb muammolaridan biri sifatida o'rganilmoqda.

Mustaqil ekspertlarning fikriga ko'ra, bugungi kunda mazkur iSpring Free, iSpring PRO va iSpring Presenter mahsulot tezligi, bir formatdan boshqa formatga konvertatsiyalash sifati va opsiyalar soniga ko'ra eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. iSpring nafaqat flash - taqdimotlarni yaratishga, balki ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan rolklar tayyorlashda, xususan, ularga turli shakldagi so'rovlar, elektron testlarni ham kiritgan holda o'zaro interaktiv bog'lanish imkoniyatini ham beradi.

iSpring quyidagi imkoniyatlari mavjud:
 taqdimot fayllarini bir necha (exe, swf, html) formatlarda konvertatsiyalash imkoniyati;
 taqdimot kontentiga tashqi resurslarni (audio, video yoki flash fayllarni) kiritish imkoniyati;
 taqdimot kontentini muhofaza qilish: parol yordamida ko'ra olish, taqdimotga "himoya belgi"si qo'yish, taqdimotni faqat ruxsat etilgan domenlardagina "aylantirilishi";
 video qo'shish va uni animatsiyalar bilan sinxronlashtirish;
 elektron test(nazorat)larini yaratish va natijalarini elektron pochtaga yoki masofaviy o'qitish tizimiga (LMS) uzatib berish imkoniyatini beradigan interaktiv matnlar yaratish uchun vosita o'rnatilgan (Quiz tugmachasi);

masofaviy o'qitish tizimida foydalanish uchun SCORMGAICC — mos keluvchi kurslarini yaratish;
 taqdimot dastur darajasida aylantirish uchun ActionScript API;
 videotasvirni yozish va uni taqdimot bilan sinxronlashtirish;



YouTube'ga joylashtirilgan roliklarni taqdimot tarkibiga kiritish imkoniyati.

EAT resurslari ichida kiruvchi ma'lumotnomalar va lug'atlarni yaratish uchun iSpring Kinetics dasturini keltirish mumkin. iSpring Kineticsning quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

biror-bir fan bo'yicha elektron ko'rinishdagi qulay bo'lgan glossariy, ma'lumotnoma yoki lug'at yaratish; vaqt shkalasini yaratish;

3 o'lchovli kitob yaratish;

FAQ yaratish mumkin [2].

EAT resurslari ichida kiruvchi elektron nazorat turlarini yaratish uchun iSpring QuizMaker dasturini keltirish mumkin.

iSpring QuizMaker quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

tarmoqlangan testlar yaratish imkoniyati (adaptatsiyalash tirilgan testlarni yaratish) imkoniyati;

ikki, uch, to'rt yoki besh javobli yopiq test topshiriqlari, ulardan biri to'g'ri, ikkitasi haqiqatga yaqinroq turidagi topshiriqlari;

bir necha to'g'ri javobli yopiq test topshiriqlari;

ochiq test topshiriqlari;

o'xshashlikni aniqlashga yo'naltirilgan topshiriqlar;

to'g'ri ketma - ketlikni aniqlashga mo'ljallangan topshiriqlarni yaratish imkoniyati.

Zamonaviy, raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlashda o'quvchi - talabalar bilimini nazorat qilish, sinash va baholashning ahamiyati katta. Agar uni yaxshi yo'lga qo'yilmasa, turli - tuman metodlarni qo'llashimiz, qiziqarli dars o'tish uchun turli topshiriqlar tayyorlashimizdan qat'iy nazar, kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi, chunki inson ongida har doim o'z mehnat faoliyatini baholovchi psixologik jarayon ro'y berib turadi. O'z ishini natijasi baholanmasa yoki baholanishidan, taqdirlanishidan ko'ngli to'lmasa faolligi susayadi, oxir oqibat "hafsalasi pir" bo'lishi mumkin. O'quvchi - talabalar bilimini, muntazam tekshirish va baholash ularni predmetni chuqur o'rganish va nazorat usullarini takkomillashtirish vazifasini yuklaydi [3].

Ta'lim sohasidagi bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlarni nazorat qilishning test tizimi quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi: diagnostik, ta'lim beruvchi, tashqil qiluvchi, tarbiyalovchi va boshqaruvchi. Diagnostik funktsiya test nazoratining o'zini mohiyatidan iborat: o'quv darsining darajasida qanday bo'lsa, o'quv fanining ancha umumiy darajalarida va talabaning barcha professional tayyorgarligida ham shunday tayyorgarlikning yutuqlari va tuzilishlarini aniqlashdan iborat.

Ta'lim beruvchi funktsiya test yoki etalonli javoblar jarayonida aytib turishni ko'rsatish, bilish sohaslarini namoyon qilish, probel (bo'shliqlar)ni topishdan kelib chiqadi. Sinov darslari ta'sirida bilimlarni mukammallashtirish qo'shimchalar, aniqliklar va to'g'rilashlar yo'li bilan kechadi.

Tarbiyalovchi funktsiya talabaning o'quv asoslarini oshirish bilan, bilish faoliyatining natijalariga javobgarlikni shakllantirish bilan, o'quv jarayonini o'zini-o'zi tashkil qilish bilan bog'liq. Nazoratning tarbiyalovchi va rag'batlantiruvchi harakati agar uning natijalari oshkora bo'lsa, oshadi. Umuman, shaxs uchun o'quv yutuqlarini nazorati kamchiliklarni ham, afzalliklarni ham ko'rishga yordam beradi. Testlashning boshqaruvchi funktsiyasi testlash natijalari bilan tug'ilgan va o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga o'qishning qo'llaniladigan metodika va texnologiyalarini mukammallashtirishga qaratilgan o'quvchining, o'qituvchining va ta'lim muassasalari ma'muriy boshqarmasi harakatlari bilan bog'liq. An'anaviy og'zaki imtihon bilan solishtirganda imtihon testi nafaqat baholashning eng ob'ektiv usuli bo'lib qolmay, balki psixologik tomondan eng asrab - avaylovchidir: xavotirlik darajasi kam, e'tibor darajasi yuqori, organizmning fiziologik xarakteristikasi eng qulaydir.

Bunda og'zaki imtihonning shunday "nozik farqi", ya'ni imtihon oluvchining haddan ziyod qattiqqo'lligi yoki, aksincha, haddan ziyod ko'ngilchanligi aniq talabaga nisbatan imtihon oluvchining emotsional tarzda qo'yadigan bahoga ta'siri yo'qotiladi. Yaxshi tayyorlangan guruhga baholarni beixtiyor pasaytirish effekti tenglashtiriladi, qachonki, imtihon oluvchi uning unga xos baholarni taqsimlash shkalasini ishlab chiqishga intiladi. Imtihon testida talabalar unifikatsiyalashining darajasi yuqori, baholashning yagona kriteriya va normalari ishlab chiqiladi, talabalarning va o'qituvchilarning vaqti tejaladi. Imtihondagi omadsizlik o'qituvchi shaxsi bilan bog'lanmaydi.

O'quv jarayonidagi zamonaviy testlash kvalimetrik o'lchovlar nazariyasi va injenerlik pedagogikasiga asoslanadi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi (OTM) o'quv jarayonida ishlatiladigan testlar o'z vazifasiga ko'ra quyidagi ikki guruhga bo'linadi:

- malakaviy (normativ yunaltirilgan);
- attestatsiyali (kriteriyali yunaltirilgan).

Birinchi turi eng ko'p tarqalgandir. Uning uchun muayyan tartib maqsadlari yoki tanlash uchun individual natijani boshqa o'quvchilar va o'rta gurux natijalari bilan solishtirish xarakterlidir. Agar talaba OTMga shunday testlash natijalari bo'yicha kirgan bo'lsa, unda talabalik hayoti boshlanishi mumkin ("o'tish

ball” idan oshiq ballar yig‘indisini to‘plagan holda). Malakaviy testlashning tez - tez takrorlanib turadigan maqsadi muayyan tartib - o‘zlashtirish: “a’lochilar”, “to‘rtchilar”, “uchchilar”, “o‘zlashtira olmaydiganlar” kategoriyasi bo‘yicha o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lishdir.

Ma’lumki, ta’lim jarayonini bunday baholash, faqat talabani o‘zlashtirish darajasini belgilash bilan chegaralanib qolmay, o‘qish jarayonini rag‘batlantirishda muhim pedagogik vosita va ijobiy motiv uyg‘otish bilan talaba shaxsiga kuchli ta’sir etadi. Shu xilda talabani ob’ektiv baholash asosida unda adekvat ravishda o‘z - o‘zini baholash imkoni tug‘iladi va o‘z muvaffaqiyatlariga tanqidiy munosabat shakllanish qayd etiladi. Ta’limda ochiq kodli dasturiy ta’minotlar, veb-saytlarning sifati ta’lim jarayonida axborot fazasining rivojlanishiga ta’sir etuvchi eng muhim jihatlardan sanaladi.

Bilimlarni nazorat qilishni amalga oshirish uchun test asosida nazorat qilishga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

validiligi (funksiya va mazmuni jihatidan adekvatligi);

aniqligi (hamma uchun tushunariligi);

soddaligi;

bir xil ma’noni anglatishi (javoblariga ko‘ra baholash);

ishonchliligi.

Bunda testning validligini aniqlashda uning mazmuniy va funksional validligini farqlay bilish lozim.

Testning aniqligi bo‘yicha talablarning bajarilishi, talaba tomonidan topshiriqlardan nimani bajarilishi lozimligini to‘g‘ri tushunishdan tashqari, haqiqiy javobdan tashqi to‘g‘ri javoblarni ham hisobga olmasligi lozimligini uqtiradi.

Testning soddaligi, har bir test bir xil qiyinlik darajasidagi birgina topshiriqdan tashkil topishi lozimligini, boshqacha aytganda, qiyinlik darajasi turlicha bo‘lgan bir necha yoki majmuaviy topshiriqlardan tashkil topmasliklarini uqtiradi.

Test yordamidagi nazoratning ishonchliligi esa ma’lum talaba test topshirig‘i bo‘yicha qayta-qayta nazorat qilinganida ham uning natijalari bir xil mazmunga ega bo‘lishi ta’minlanishi bilan tushuntiriladi.

Garchi kompyuter yordamidagi nazoratning testlashtirilgan bu tizimini joriy etishda test topshiriqlarini yaratishning yuqoridagi beshta talabga javob berishi zarurligi topshiriqlardan ma’lum bo‘lsada, biroq kompyuter vositasida, test topshiriqlari yordamida talabalarni baholashni o‘ziga yarasha yana bir qancha muammolari mavjud. Bundan ko‘rinishicha, ta’limning kompyuter ishtirokidagi, ochiq kodli dasturiy ta’minotlar yordamida nazoratning samarali bo‘lishi, aksariyat hollarda, tekshiruvchi bilan dastur ishlab chiqqan muallifning hamkorligiga bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, tajriba guruhlarida qo‘llanilgan ochiq kodli dasturlarda bilimlarni adaptiv nazorat qiluvchi testlardan foydalanish sinov metodikasi samarador bo‘lib, o‘tkazilgan tajriba-sinov tahlillari uni respublikamiz miqyosida ommalashtirish mumkinligiga asos bo‘la oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-4699-сонли Қарори (Манба: <https://lex.uz/docs/4800657>).
2. Игнатова Н.Ю. Образование в цифровую эпоху: монография. Нижний Тагил, 2017. 128 с.
3. Бегимқулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти.: Пед.фан.докт. ... дисс. автореф. - Т.: 2007. – 37 б.

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHI KOMPETENSIYASINING AHAMIYATI

Rabbimva Farida To'qsanboyevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti Biologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'yimoqda. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tayyorlash nuqtai nazaridan kompetensiya – uzluksiz ta'lim tizimida biologiya fanlarini o'qitish jarayonini samarali tashkil uchun zarur bo'lgan va aniq belgilab berilgan kasbiy tayyorgarlikka qo'yiladigan ijtimoiy talablardan ham o'zib ketishidir. Tadqiqot natijasida bo'lajak biologiya o'qituvchisining kompetentligi shaxsiy va kasbiy zaruriy sifatlar asosida biologik ta'limni tashkil etishga doir vazifalarni hal etishda faoliyat sohasiga doir bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanish qobiliyati va tayyorgarligini o'zida aks ettiradi.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, kognitiv va motivatsion komponent, tayanch kompetentlik, fanlararo kompetentlik, umumkasbiy, biologiya sohasiga oid kompetentlik.

ЗНАЧЕНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Раббимова Фариди Токсанбойевна

Джизакский государственный педагогический университет Доцент кафедры биологии и методики ее преподавания

Аннотация: Современное общество требует от системы образования воспитания высококвалифицированных, амбициозных, конкурентоспособных, предприимчивых, духовно и физически здоровых людей. Компетентность с точки зрения подготовки будущих учителей биологии должна превосходить социальные требования к четко определенной профессиональной подготовке, необходимой для эффективной организации процесса преподавания биологических наук в системе непрерывного образования. В результате исследования компетентность будущего учителя биологии отражает способность и готовность использовать знания, умения и навыки сферы деятельности при решении задач, связанных с организацией биологического образования, на основе личностных и профессионально необходимых качеств.

Ключевые слова: Компетенция, когнитивно-мотивационный компонент, базовая компетентность, междисциплинарная компетентность, общепрофессиональная, компетентность в области биологии.

THE IMPORTANCE OF TEACHER COMPETENCE IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

Rabbimva Farida Toksanboyevna

Jizzakh State Pedagogical University Associate Professor of the Department of Biology and Methods of Its Teaching

Annotation: Modern society requires the education system to educate highly qualified, aspiring, competitive, enterprising, spiritually and physically healthy individuals. Competence from the point of view of training of future biology teachers is necessary for the effective organization of the teaching process of biological sciences in the continuing education system and surpasses the social requirements for clearly defined professional training. As a result of the research, the competence of the future biology teacher reflects the ability and readiness to use the knowledge, skills and qualifications of the field of activity in solving tasks related to the organization of biological education based on personal and professional necessary qualities.

Key words: Competence, cognitive and motivational component, basic competence, interdisciplinary competence, general professional, competence in the field of biology.

KIRISH. O'zbekistonda ta'lim tizimini o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasining milliy g'oyalari, talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni o'tmish qoldiqlaridan tozalash va rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga ko'tarish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta'lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir.

Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan.

Yuqorida bayon etilgan yuksak, biroq, sharafli vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagogik xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab qiladi.

Pedagogik mahorat – o'qituvchi ijodkorligining oliy namunasi bo'lib, u yillar davomida shakllanadi.

Uning yuksak mahoratni egallashi g'oyat murakkab jarayon bo'lib, pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan ko'pgina fazilatlar bilan birga uning pedagogik mahoratni egallashi katta ahamiyatga ega. Yuqori pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchigina o'z kasbiga layoqatli, iste'dodli bo'lishi mumkin.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi yuqori pedagogik mahorat va keng dunyoqarashga ega bo'lishi kerak. Shundagina oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat egasi bo'lishi mumkin. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchi o'z fanini chuqur bilishi, unga turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo'lishi, o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otishi, o'quvchilarning bilim, kamolot darajasi va ruhiyatini hisobga olishi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini tasavvur eta olishi lozim. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchining o'rniga qo'ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo'lgan narsalarni o'quvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo'lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini alohida o'ylab chiqadi hamda rejalashtiradi.

O'qituvchi o'quvchining, ichki dunyosiga kira olishi, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilishi bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvlar olib borishi kerak. Bunday o'qituvchi o'quvchining ruhiyatiga ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham tez fahmlab oladi.

O'qituvchida nutq o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati hisoblanadi. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir.

O'qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan yorqin, ifodali, his-hayajonli bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim.

O'qituvchi obro'si – o'quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' qozona olishdir. Obro' faqat shu asosdagina emas, balki o'qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi va hokazolar asosida ham qozoniladi. Bu qobiliyat o'qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir yig'indisiga, chunonchi uning irodaviy sifatlariga Shuningdek, o'quvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish mas'uliyatini his etishga, o'zining haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni o'quvchilarga etkaza olish kabilarga ham bog'liq.

O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan xislatlar, ya'ni yuksak pedagogik mahorat unda birdaniga shakllanmaydi. U o'z ustida tinmay ishlash, izlanish va ko'nikmalar asosida rivojlanadi.

O'qituvchining yuqori kasbiy mahoratni egallashi bevosita uzluksiz ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimida asosiy o'rin egallagan malaka oshirish o'quvchi faoliyatini tahlil qilish va unga istiqbol yo'nalishlar berishga imkon beradi.

Hozirgi davr o'qituvchidan o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiya talablarini to'g'ri tushunish, tashabbuskorlik, o'z fani bo'yicha yangiliklardan xabardor bo'lishi va darslariga joriy eta olishni talab etadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni vujudga keltirish, do'stona muhitni yaratish muammosining muvaffaqiyatli hal etilishi, fan o'qituvchilari va maktab rahbariyatining egallagan bilim, ko'nikma malakalari va shaxsiy insoniy fazilatlarini egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi avvalo:

- Yumshoq ko'ngilli, ochiq chehrali, shirin so'zli, bolalarni qanday bo'lsa shundayligicha yaxshi ko'rishi;
- Mehr-muhabbat, qalb g'urini o'quvchilarga bab-baravar bo'lib berishi, sinfda do'stona muhitni yaratish va o'quvchilarning o'quv motivlarini rivojlantiruvchi kuch-rag'batlantirish metodlari ekanligini anglash;
- O'quvchilarning taqdiri, baxti va kelajagi uchun mas'ul ekanligini chuqur his etish, ularning nafsoniyati va qadr-qimmatini e'zozlash;

- Har qanday pedagogik vaziyatda o'quvchilarga qo'pollik qilmaslik, haqorat qilish va baqirish, taqdid va qo'rqitishdan o'zini tiyishi zarur;

- O'quvchilarni tushuna olishi, ularning his-tuyg'ularini qadrlash, tashvishlari, iztiroblarini engishiga yordam berishi, yoshlik va psixologik rivojlanishda o'ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini bilish.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim tizimining odil va demokratiyalashtirilishi o'quv jarayoniga o'zgacha talab va o'zgacha pedagogik munosabatlarni kashf etadi. Bu jarayon mazmun mohiyatdan avvalgidan tubdan farqlanadi.

Bu esa ta'lim sohasida o'quvchi, o'qituvchi, oila, mahalla hamkorlikda bir maqsad sari, ya'ni, DTS talablarini o'zlashtirish va undagi me'yorlardan yuqoriroq natijalarga erishishni taqozo etadi.

DTS talablarini bajarishning asosiy omillaridan biri ta'lim jarayoniga samarali natijaga ega yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etishidir.

Ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, mustaqil fikr yurita oladigan ijtimoiy faol yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi yoshlarga zamon talablariga javob beruvchi bilimlarni berish uchun avvalo o'zi ana shunday bilimlar bilan qurollangan bo'lishi kerak. Zero, tizimdagi yutuqlarning asosi maktablarda tashkil etiladigan dars jarayonining sifati bilan belgilanadi. O'quv soatlarida o'quvchilarga etarli bilim berish hayotiy ko'nikmalarini oshirish va malakalarini shakllantirish o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq.

O'quvchining mustaqil fikrini bayon etish, o'z yo'nalishini tanlashi va buning asosi bo'lgan qarashlarini isbotlashi, o'rni kelganda himoya qilishni o'rgatilsa, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirib borishga erishishi orqali ta'lim mazmunining natijasi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ta'limni isloh qilishda o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar kundan-kunga oshib bormoqda. Pedagogika fani oldida turgan muammolarning biri ham, aynan, o'qituvchi va pedagog mehnat sharoiti muammosi hisoblanadi. O'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni bilimli va axloq-odoblilik qilib voyaga etkazish vazifasi yotadi.

Shu munosabat bilan bugungi kunda o'qituvchi shaxsiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- o'z fanini chuqur bilishi va uning metodikasini etarli darajada o'zlashtirish;
- keng ilmiy dunyoqarashli va teran e'tiqod sohibi bo'lishi;
- ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatni chuqur tushunishi;
- ijtimoiy va fuqarolik burchini chuqur anglashi;
- ijtimoiy-siyosiy faol bo'lishi;
- o'z kasbi va bolalarni sevishi;
- ruhiy pedagogik ziyrak bo'lishi va yangilikka intilishi;
- o'z xalqi tarixi, milliy qadriyatlari va urf-odatlarini chuqur o'rganishi va ularni targ'ibot qilishi;
- pedagogik kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, talabchanlik, qat'iylik, vazminlik, haqqoniylik, o'zini tuta bilish kabi xislatlar sohibi bo'lishi;
- o'z kasbiga to'la layoqatli va pedagogik takt (odob) egasi bo'lmog'i lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetentligini takomillashtirishning ma'naviy-axloqiy, ekologik, valeologik asoslari, tarixiy tafakkur bilan aloqadorligi B.Adizov, Sh.Mardonov, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, D.Ro'zieva, R.Safarova, B.Xodjaev, F.Yuzlikaev, Sh.Shodmonova, Sh.Sharipov, D.Sharipova, N.Egamberdieva, M.Quronovlar tomonidan tadqiq etilgan. Ta'lim oluvchilarda badiiy-estetik kompetentlikni takomillashtirishning psixologik va akmeologik xususiyatlari E.Goziev, M.Davletshin, A.Derkach, A.Leontev, D.Muxamedova, S.Safaevalar tomonidan o'rganilgan.

Badiiy-estetik ta'limning ijtimoiy, falsafiy jihatlari B.Ziyomammedov, S.Mamashokirov, Yu.Sh. Shodimetovlar; ekologiya va atrofmuhit muhofazasi masalalari N.Isakulova, Yu.Maxmudov, Sh.Otaboev, A.S.To'xtaevlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Bo'lajak o'qituvchilarda badiiy-estetik kompetentlikni takomillashtirish yuzasidan xorijlik olimlardan L.Botcheva, J.Shih, L.Huffman, Mijung Kim, C.Diong, M.Unland, B.Kleinerlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, pedagogik konsilium, modellashtirish, so'rovnoma, test, matematik-statistik tahlil kabi tadqiqot va tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Kompetensiyaning turlarini tasnif etishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, J.Tolipovanning ta'kidlashicha, kompetensiya – biologiya fani bo'yicha talabalarning egallagan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni echishda foydalanib, amaliyotda qo'lay olishidir [4].

N.A.Muslimov va M.B.Ura-zovalar kasbiy ta'lim nuqtai nazaridan kompetensiyalarni quyidagi turlarga ajratadi:

maxsus kompetensiya – etarli yuqori darajada o'z kasbiy faoliyatini egallash, keyingi kasbiy rivojlanishini loyiha-lashtira olish;

ijtimoiy kompetensiya – birgalikdagi kasbiy faoliyat, hamkorlikni egallash, o'z mehnati natijalariga ijtimoiy javobgarlik;

shaxsiy kompetensiya – shaxsiy mustaqil aks etish va mustaqil rivojlanish usullari, shaxsning kasbiy defor-matsiyalarga qarshi turish vositalarini egallashi;

individual kompetensiya – kasb doirasida individual-likni mustaqil qo'llash va rivojlantirish usullarini egallash, kasbiy-shaxsiy o'sish, mustaqil tashkil qilish va mustaqil rehabilitatsiya qilishga tayyorlik;

asosiy kompetensiyalar – moslashish va mahsuldor faoliyat uchun zarur bo'lgan shaxsning madaniyatlararo va sohalararo bilim, qobiliyat va ko'nikmalari [3].

O.Hayitov va N.Umarovalar klaster yondashuvi asosida kompetensiyalarni quyidagicha guruhlashni taklif etishadi:

axborotlar bilan ishlashga doir kompetensiyalar: axborotlarni to'plash va tahlil etish, qarorlar qabul

qilish; axborotlarni qayta o'zgartirish;

muvaffaqiyatga erishishga doir kompetensiyalar: reja-lashtirish, faoliyatni tashkillashtirish, natijalarni tah-lillash;

insonlar bilan ishlashga doir kompetensiyalar: munosa-batlarni boshqarish, komandada ishlash, atrof-dagilarga ta'sir ko'rsatish;

o'z-o'zini takomillashtirishga doir kompetensiyalar: o'z-o'zini tekshirish, kasbiy o'sish, innovatsion mobillik [4].

E.S.Zair-Bek metodik kompetensiyalarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatgan:

maqsadli kompetensiya. Maqsadning aniqlanishi va maqsadning qo'yilishi muammosi butun pedagogik faoliyatning tizimni hosil qiluvchi tarkibiy qism bo'lib hisoblanadi, maqsadlarni to'g'ri qo'yish qobiliyati pedagog mehnati natijalari bog'liq;

mazmunli kompetensiya: umumta'lim tayyorgarlikning har bir bosqichida ko'zda tutilgan hajmda texnologik ta'limning mazmuni; ko'rsatilgan mazmun hajmi doirasida o'quvchilarning minimal zaruriy tayyorgarligiga bo'lgan talablar; o'qitish yillari bo'yicha o'quv yuklamaning belgilash mumkin bo'lgan maksimal hajmi;

monitoringli kompetensiya. Ta'lim sifatini baholash ta'lim jarayoni natijalarining aniqlanishini ko'zda tutadi. Shu bilan bir vaqtda sifat – bu nafaqat ta'lim samaradorligi mos kelishi kerak bo'lgan me'yoriy daraja, balki natijani ta'minlovchi mazmun, shart-sharoit va jarayondir [3].

M.B.Urazova loyihaviy faoliyat nuqtai nazaridan kompetensiyalarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi:

refleksiv kompetensiya: o'z-o'ziga baho berish, o'z shaxsi va faoliyatining yutuqlari va kamchiliklariga bo'lgan o'ziga xos talabchanlik, o'z ijodiy yutuqlari va omadsizliklari sababini tushuna olish;

kognitiv kompetensiya: mustaqil ravishda yangi bilim va qobiliyatlarni egallay olish, mustaqil rivojlanish g'oyalarini qo'llash;

axboriy kompetensiya: kerakli axborotning olinishi, qayta ishlanishi va ishlatilishiga doir maxsus qobiliyat-larning egallanishi;

kommunikativ kompetensiya yuqori darajadagi muloqotga erishishga yordam beradigan usullar;

ijtimoiy kompetensiya: voqelikning ijtimoiy ahamiya-tini anglash, javobgarlikni o'z zimmasiga olish qobiliyati, shaxsiy qiziqishlarning jamiyat ehtiyojlari bilan bog'liq-ligining namoyon bo'lishi [4].

I.A.Zimnyaya uch guruh kompetensiyalar tizimini taklif etgan:

sub'ektiv – sog'liqni saqlash; qadriyatli-mazmunli orientatsiya; fuqarolik; qadriyatli-mazmunli; o'z-o'zini takomillashtirish; o'z-o'zini boshqarish; o'z-o'zini rivojlantirish; refleksiyaga qodirlik; bilimlarini tizimlashtirishga yo'naltirilgan integratsion kompetensiyalar;

ijtimoiy – jamiyat a'zolari, jamoa, oila, do'stlar, hamkorar bilan tolerant munosabatda bo'lish, hurmat qilish; og'zaki, yozma, dialogik, monologik nutq, an'ana, marosim, odob-axloqqa rioya qilish;

faoliyatga doir – bilishga doir vazifalarni o'z oldiga qo'yish va hal etish; o'yinli, mehnat, tadqiqotchilikka doir; axborot texnologiyalarni qo'llashga doir [3].

B.X.Xodjaev tomonidan esa, "umumta'limiy kompetensiya" tushunchasi iste'molga kiritilgan bo'lib, olim umumta'lim fanlarini o'qitishga doir sakkizta tayanch kompetensiyani aniqlashtirgan: motivatsion-kognitiv; informatsion; kommunikativ; g'oyaviy-mafkuraviy; fuqarolikka doir; ma'naviy-axloqiy, aksiologik, akmeologik, estetik [4].

Mazkur umumta'limiy kompetensiyalar biologiya ta'limi uchun ham xos bo'lib, sakkizinchi tayanch kompetensiyani badiiy-estetik kompetensiya sifatida tadqiq etish g'oyat muhim degan xulosaga kelindi.

Kompetensiyalarni tasnif etishga doir bunday xilma-xillik kasbiy tayyorgarlik nuqtai nazaridan masalaning mohiyatini chuqurroq tadqiq etishni taqozo etdi. Aynan kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan J.Tolipova, A.Verbitskiy va O.Larionovalar tomonidan ilgari surilgan kompetensiyalarni tasnif etishda ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarni hisobga olish lozim, degan fikrga tayanish lozim deganda xulosaga kelindi: ob'ektiv shart-sharoitlar bilan bog'liqlikda kompetensiyalarni bo'lajak biologiya o'qituvchisining ta'limga oid qonunchilik normalarida ifodalangan huquq va burchlari, mas'uliyati sifatida; sub'ektiv shart-sharoitlar bilan bog'liqlikda dunyoga, o'z-o'ziga, boshqa kishilarga nisbatan ma'suliyati, kasbiy motivlari, kasbiy sifatleri, psixofiziologik o'ziga xosliklari tarzida tushunish maqsadga muvofiq [5].

Biroq A.Verbitskiy va O.Larionovalar tomonidan kompetentlik va kompetensiyalarni aniq bilim, ko'nikma va malakalar tizimiga kiritib bo'lmaydi [2], degan fikriga qo'shilish mushkul. Chunki bilim, ko'nikma va malakalar taktik; kompetentlik, kompetensiyalar va metakasbiy sifatlar strategik kasbiy ta'lim birliklarini o'zida aks ettiradi.

B.X.Xodjaev o'rinli ta'kidlab o'tganidek, pedagogik hamjamiyatda kompetensiya va kompetentlik, ulardan qaysi biri tanyach (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarini aniqlash jarayoni jadallik bilan bormoqda, mazkur tushunchalarni aniqlash-tirish bo'yicha qizg'in munozaralar

davom etmoqda.

Kompetent yondashuv ta'lim oluvchidan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash esa, ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi [3].

Olimning fikridan kelib chiqqan holda va tadqiqot natijalari asosida kompetensiyalar nafaqat o'z ichiga bilim, ko'nikma va malakalarni, shuningdek, bo'lajak biologiya o'qituvchisining kasbiy faoliyati bilan bog'liq zaruriy vaziyatlar, qadriyatli-motivatsion komponentlar, qobiliyatlarni ham qaram oladi, degan xulosaga kelindi.

XULOSALAR. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tayyorlash nuqtai nazaridan kompetensiya – uzluksiz ta'lim tizimida biologiya fanlarini o'qitish jarayonini samarali tashkil uchun zarur bo'lgan va aniq belgilab berilgan kasbiy tayyorgarlikka qo'yiladigan ijtimoiy talablar (me'yorlar)dan ham o'zib ketishidir.

Tahlillar asosida tadqiqot ob'ekti bilan bog'liqlikda “kompetensiya” va “kompetentlik”ning quyidagi ta'rifi shakllantirildi: kompetensiya – mehnat bozori sharoitidagi o'zgarishlarga va innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni o'zida ifoda etadigan biologik fanlarni o'qitishga doir kasbiy vazifalarni hal etishga qobiliyatlikdir; kompetentlik – tayanch, fanlararo, umumkasbiy va aniq biologiya fan sohasiga doir kompetensiyalarni egallaganlikdir. Biologiya fani o'qituvchisi ham nafaqat tayanch, fanlararo va umumkasbiy, bilki xususiy kompetensiyalar tizimini egallashi talab etiladi. Biologiya o'qituvchisida tarkib toptirilishi lozim bo'lgan asosiy kompetensiyalardan biri – badiiy-estetik kompetentlikdir.

Pedagogika sohasi bo'yicha Davlat ta'lim standarti va biologiya o'qitish metodikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablarini tahlil etish umumiy o'rta ta'limi o'quvchilari uchun kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilgan bir sharoitda kompetent yondashuv talablarining aniq ifodalanmaganligi bilan tavsiflanadi. Chunki pedagogika sohasi Davlat ta'lim standarti va malaka talablarida ham tayanch, fanlararo va xususiy kompetensiyalar aniq belgilab berilmagan.

Tadqiqot natijasida bo'lajak biologiya o'qituvchisining kompetentligi shaxsiy va kasbiy zaruriy sifatlar asosida biologik ta'limni tashkil etishga doir vazifalarni hal etishda faoliyat sohasiga doir bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanish qobiliyati va tayyorgarligini o'zida aks ettiradi, degan xulosaga kelindi.

Qiyosiy tahlil asosida bo'lajak biologiya o'qituvchilarida kompetentlikni rivojlantirishning tarkibiy tuzilmasida uch – motivatsion, kognitiv va faoliyatga doir komponentlar asosiy o'rin egallashi aniqlandi.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida kompetentlikni rivojlantirish biologik ta'limning asosiy maqsadini aks ettirib, barqaror rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning biologik tabiatini to'liq anglash va amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida bo'lajak biologiya o'qituvchilarida kompetentlikni rivojlantirishga doir tadqiqot ishlari va amaliy faoliyatni tahlil etish asosida bo'lajak biologiya o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish tizimini yaratish shart-sharoitlarini takomillashtirishda zamonaviy yondashuv va maxsus tamoyillarga tayanish; mazkur tizim ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadni o'zida aks ettirishi; bo'lajak biologiya o'qituvchilarida muhim kasbiy sifat – innovatsion fikrlash va badiiy-estetik kompetentlikni tarkib toptirishga alohida e'tibor qaratish zarur, degan xulosaga kelindi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shaxmurova G., Raxmatov U., Xo'janazarov O., Tog'ayeva G. “Biologiya fanini o'qitish metodikasi” moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta'lim xodimlarini kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish xududiy markazi, Toshkent, 2017.
2. Mutalipova M., Imomov M. Ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.:TDPU, 2017
3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015
4. Alyaminov X. O'quvchilarga badiiy-estetik ta'lim berishda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish: Ped.fan. nom.diss....avtoref. –Toshkeni: TDPU, 2007. -23 b.
5. Mardonov SH.Q., Rabbimova F.T. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini o'quvchilarga tabiatni idrok qilishga o'rgatishga tayyorlash. O'zMU xabarlar, № 3/2. –Toshkent, 2015, 83-86 b.
6. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tabiyasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1996. -97 b.
7. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. – Toshkent: Fan, 1993. -112 b.
8. Rabbimova F.T. O'quvchilarni jonojon tabiat estetikasini bilishga o'rgatish. J. Xalq ta'limi. -№4.- Toshkent, 2011. – b.136-138.
9. Rabbimova F.T. Podgotovka budushch uchiteley biologii k poznaniyu uchashchimisya estetiki rodnoy prirody.// Aktualnye problemy sovremennoy nauki. Informatsionnyy analiticheskiy jurnal. –Moskva, 2012. -№3. –s. 75-77.
10. Rabbimova F.T. O'zbekiston Hayvonot olami fanidan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar: Laboratoriya ishlanmasi. –Jizzax, 2013. -68 b.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING OILA BILAN HAMKORLIK ISHLARINI INNOVASION YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH YO'LLARI

Rahimova Moxinora Xoshimjanovna
Andijon davlat pedagogika
instituti, o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan hamkorlik ishlarini tashkil etish masalalari, bunda tarbiyachi va ota-onalar o'rtasida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari va muloqot turlari, ota-onalar yig'ilishlarini tashkil etishga qo'yilgan taablar, tarbiyachi faoliyati, umumiy ota-onalar yig'ilishlarini o'tkazish tartibi, ularning natijadorligini ta'minlash yo'llari haqida ma'lumotlar va metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: hamkorlik, o'zaro muloqot, munosabat, ota-ona, seminar, konferensiya, teatrlashtirilgan tomoshalar, fotoko'rgazlamalar, ota-onalar yig'ilishi

Аннотация. В данной статье даны сведения и методические рекомендации по вопросам организации работы дошкольной образовательной организации по сотрудничеству с семьей, включая виды учебно-воспитательных процессов и диалога, осуществляемого между воспитателем и родителями, таабс, которые ставятся на организацию родительских собраний, деятельность воспитателя, порядок проведения общих родительских собраний, пути обеспечения их результативности.

Ключевые слова: сотрудничество, взаимодействие, отношения, воспитание детей, семинар, конференция, театральные представления, фотовыставки, родительское собрание

Annotation. This article provides information and methodological recommendations on the issues of organizing cooperation of the preschool organization with the family, on educational processes and types of communication carried out between the educator and parents, on the activities of the educator, the procedure for conducting general parent meetings, ways to ensure their effectiveness.

Keywords: cooperation, interaction, attitude, parent, workshop, conference, theatrical performances, photo exhibition, parent meeting

Farzand - oilaning quvonchi, ota – onaning tayanchi, jamiyatning hayotbaxsh kuchi. Hayotning birinchi yilidan boshlab bola shaxsini shakllantirish, ya'ni uning tarbiyasi bilan shug'ullanish oilaning asosiy vazifasidir. Oila jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini bo'lib, unda yangi inson vujudga keladi, bu kichik ijtimoiy guruh bola uchun dastlabki hayot maktabidir. Ota – onalar bolaning birinchi tarbiyachisi va o'qituvchisidirlar.

Bolani barkamol shaxs sifatida shakllantirish, uning ma'nan va aqlan yetuk bo'lib yetishishiga, davlat va jamiyatimizning ravnaqiga munosib hissa qo'shishiga erishning eng muhim shartlaridan biri ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini olib borishdir. Ushbu hamkorlikdagi ishlar samarali bo'lishi va bolaning har tomonlama rivojlanishiga haqiqatan ham hissa qo'shishi uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari oilalar o'rtasida o'zaro munosabatlarni mustahkam o'rnatishlari zarur.

Ota-onalar bilan hamkorlik qilish uzoq davom etadigan mashaqqatli mehnat hisoblanib, bu jarayon quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

- umumiy va guruh ota-onalar yig'ilishlari;
- ota-onalar ishtirokidagi mashg'ulotlar;
- fotoko'rgazmalarni birgalikda yaratish;
- ochiq eshik kunlari;
- seminarlar;
- birgalikdagi ekskursiyalar;
- teatrlashgan tomoshalar;
- konferensiyalar;
- telegram;

Tarbiyachining oila bilan ishlashning turli shakllaridan foydalanishi ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ishonchini uyg'otishga imkon beradi.

Umumiy va guruh ota-onalar yig'ilishlari.

Guruhli ota-onalar yig'ilishi – bu tarbiyachilar va ota-onalar jamoasi bilan hamkorlikning ta'sirchan shakli, ularning bolalarni tarbiyalashdagi vazifalari, mazmuni va metodlari bilan tashkiliy tanishishlari shaklidir.

Ota-onalar bilan hamkorlikning eng samarali shakllaridan bo'lib ota-onalarning istak-xohishlarini

inobatga olish bilan turli xil mavzularda tashkil etiladigan mavzuli ota-onalar yig'ilishi sanalishi mumkin. Masalan, "Mehr va e'tibor bola parvarishida muhim omil", bu yerda bolalarni tarbiyalashda onaning tutgan o'rni, onalar tabiiy tarbiyachi ekanligi, bolalarning o'z onalariga yozgan tavsiyanomalarini eshitish va tahlil qilish mavzular yoritiladi.

Natijadorligi:

Ota-onalar bolalarni parvarish qilishda, bolalarni tarbiyalashda, farzandlari bilan munosabatlaridagi o'z tajribasini boyitadilar

"Bolalarimizga kitob o'qish, ertak so'zlash va she'r yodlashni o'rgatamiz" mavzusidagi yig'ilishda bolalarni har tomonlama barkamol, zukko bo'lib shakllanishlarida badiiy kitoblarning tutgan o'rni, bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishda kitobning ahamiyati haqida tavsiyalar berish mumkin.

Ota-onalar majlisida pedagoglar ota-onalarga turli savollar bilan murojaat qilishlari mumkin:

Bolaga necha yoshdan boshlab kitob o'qib berish kerak?

Bolada kitobga bo'lgan qiziqishni qanday o'yg'otish kerak?

Kitob o'qishni qanday tashkil qilish lozim?

Tinglash bolada zavq o'yg'otishi uchun nima qilish kerak?

Qanday qilib faol kitobxonni tarbiyalash lozim?

Bolaga necha marta o'qib berish kerak?

Necha yoshgacha bolaga kitob o'qib berish kerak?

Pedagog ota-onalarni savol-javobda faol qatnashishlariga undab javoblarni to'ldiradi.

Shunday qilib, tashkil etilgan mavzuli yig'ilishda ota-onalar bolalarning nutqini rivojlantirishda badiiy adabiyot zaruratiga ishonch hosil qiladilar; ota-onalar bolaga kitob o'qib berishda tanlangan kitoblarning bolaning yoshi, qiziqishlari, dunyoqarashi, shuningdek, hissiyotlariga mos bo'lishi kerakligi, bolalarni ota-onalari bilan birgalikda badiiy asarni sahnalashtirish va rollarga bo'linib ijro etish mavzulari yoritiladi.

Natijadorligi:

Ota-onalar bolalar kitobi - bu bola uchun shunchaki ermak emas, u atrof-olam haqidagi ma'lumot manbai, uning intellektual, hissiy va ma'naviy madaniyatini shakllantirish vositasi bo'lib hizmat qilishini, kitob o'qish bolada charchoq yoki zerikish holatini yuzaga keltirmasligi kerakligini tushunadilar. Farzandlarini badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlari va ishtiyoqini rivojlantirishga harakat qiladilar, bolalar bilan ertakni sahnalashtirishda qatnashadilar, rahbarlik qiladilar.

Adabiy asarni sahnalashtirishda ishtirok yetish istagini shakllanadi. Adabiy asar lavhalarini sahnalashtirishda qatnashadilar. Ertak eshitish, uni tahlil qilish orqali bolalarda botirlik, kamtarlik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar tarbiyalanadi.

"Bolalar va sog'lom turmush tarzi", "Kun tartibining bola rivojlanishidagi o'rni" davra stollari atrofidagi munozaralar jarayonida ota-onalar bilan birgalikda bolalarning sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish uchun albatta, kun tartibiga rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish, sport bilan shug'ullanish, shaxsiy gigena qoidalariga rioya qilish zarur sog'lom turmush tarziga jalb etilishi masalalari muhokama qilinadi.

Natijadorligi:

Ota-onalar bolalar hayotida kun tartibining ahamiyati, uning eng muhim tarkibiy qismlari ovqatlanish, jismoniy faollik, uyqu, toza havoda sayr, o'yinning ahamiyati, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish turli kasalliklarni yuqishiga yo'l qo'ymaslik, har kuni ichki kiyimlarini almashtirish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, birgalikda sport mashqlarini bajarishni odatiy kun tartibiga aylantiradilar.

Qo'llanilgan metodikalar:

Tushuntirish metodi. Pedagoglar ota-onalar maslisida oddiy va tushunarli tildan foydalanishlari lozim. Pyedagoglar boshqa mutaxassislar singari ba'zan boshqa odamlar tushunmaydigan atamalar va so'zlashuv uslublaridan foydalanishlari mumkin. Bizning maqsadimiz oilalarni o'z bilimlarimiz notiqlik mahoratimiz bilan hayratda qoldirish emas, balki ular uchun tushunarli va oddiy holatda muloqotga kirishishdir.

Savol-javob metodi. Pedagoglar ota-onalar majlisida ochiq savollardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

Uyda ota-onalar bolalariga "Oltin tarvuz" o'zbek xalq ertagini o'qib bersalar bolalariga quyidagi savollarni berishlari mumkin:

1. Senga ertakdagi qaysi qahramon yoqdi? Nega?

2. Seningcha, kambag'al dehqon laylakka rahmi kelganidan qanotini davoladimi yoki mukofot olish uchunmi? (To'g'ri aytayapsan, dehqonning laylakka rahmi keldi va chin dildan unga yordam berdi. Laylak menga mukofot beradi, degan gap uning xayoliga ham kelmadi. Ko'rdingmi bolajonim, yaxshilik yerda qolmaydi).

3. Laylak dehqonning yaxshiligi uchun qanday mukofotladi?

4. Boy-chi, laylakning oyog'ini sindirganida, unga rahmi keldimi yoki xursand bo'ldimi? (To'g'ri aytding, boy laylakning oyog'ini sindirganidan achinmadi, unga rahmi kelmadi, aksincha, laylak menga mukofot beradi, zo'r ish qildim, deb xursand bo'ldi.)

5. Nega boyning tarvuzidan tilla emas qovoqarilar chiqibdi?

Pedagoglar ota-onalarga ertak yuzasidan quyidagi topshiriqlarni berishlari mumkin:

Topshiriqlar:

1. Bola bilan yaxshilik haqida suhbatlashing, qanday yaxshi ishlar qilganini so‘rang, uning qalbida ezgulik, rahm-shavqatli bo‘lish kabi insoniy fazilatlarga nisbatan mehr uyg‘otishga xarakat qiling.

2. Bola bilan birgalikda katta-kichik tarvuzlar rasmini tomosha qiling, eng katta va eng kichik tarvuzni topishni, qo‘l xarakatlari orqali tarvuzning katta va kichikligini ko‘rsatishni ayting.

Z. Ertakdagi oltin tarvuzlar (katta, kichik shaklda) rasmini chizishni, bo‘yashni taklif qiling.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining oila bilan hamkorlik ishlarini innovasion yondashuvlar asosida tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari bugungi kun tarbiyachisida kuchli bilim, mahorat va kasbiy kompetentlik talab qiladi. Yuqorida tavsiya etilgan metodikalarni ta’lim-tarbiya jarayonidagi innovatsion yondashuvlar asosida tadbiiq etish maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ularni mustaqil va tanqidiy fikrlashga, hamkorlikda ishlashga, bilimlarini oshirib borishlariga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Komarova, O.A. Razvitiye u pedagogov DOO navikov lichnostno oriyentirovannogo vzaimodeystviya [Tekst] /O.A.Komarova, Ye.V.Kovalskaya //Spravochnik starshego vospitatelya. – 2012. – № 11. – S. 36–39.

Maksimova, N.V. Organizatsiya “Maminoy shkolы” /N.V.Maksimova // Upravleniye DOU. – 2012. – № 6. – S. 88–99.

Serbina, T.Yu. Povysheniye pedagogicheskoy kompetentnosti roditeley v voprosax fizicheskogo vospitaniya detey rannego vozrasta /T.Yu. Serbina //Doshkolnaya pedagogika. – 2011. – № 10. – S. 60–61.

BO'LAJAK KIMYO O'QITUVCHILARINING AXBOROT-METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Rajabov Xudayor Madrimovich,
Urganch davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini tayyorlashda axborot-metodik kompetentsiyaning o'rni keyingi yillarda katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu kompetentsiya o'qituvchining turli pedagogik usullarni qo'llagan holda axborotni samarali to'plash, boshqarish va o'quvchilarga yetkaza olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ushbu maqola kimyo ta'limi kontekstida axborot-metodik kompetentsiyaning ahamiyatini o'rganadi va o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari ushbu muhim mahorat to'plamini qanday oshirishi mumkinligi haqida tushuncha beradi. Unda kimyo o'qituvchilarida tanqidiy fikrlash, moslashuvchanlik va texnologik bilimlarni rivojlantirish muhimligi ta'kidlanadi va ularning axborot-metodik kompetentsiyasini rivojlantirish bo'yicha turli strategiya va yondashuvlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar; Axborot-metodik kompetentlik, Kimyo ta'limi, O'qituvchilarni tayyorlash, Pedagogik mahorat, Texnologik malaka, Tanqidiy fikrlash, Moslashuvchanlik Fan ta'limi, O'qituvchi kompetensiyasi, Texnologiya integratsiyasi, O'qituvchilar malakasini oshirish, Ta'lim texnologiyasi, O'quv dasturlarini loyihalash.

DEVELOPMENT OF INFORMATION-METHODICAL COMPETENCE OF FUTURE CHEMISTRY TEACHERS

Rajabov Khudayor Madrimovich-associate professor of Urganch state university

Abstract: The role of information-methodical competence in the preparation of future chemistry teachers has gained prominence in recent years. This competence encompasses a teacher's ability to effectively gather, manage, and convey information to students while employing a variety of pedagogical methods. This article explores the significance of information-methodical competence in the context of chemistry education and offers insights into how teacher preparation programs can enhance this essential skill set. It highlights the importance of fostering critical thinking, adaptability, and technological proficiency in chemistry teachers, and discusses various strategies and approaches to develop their information-methodical competence.

Key words; Information-Methodical Competence, Chemistry Education, Teacher Preparation, Pedagogical Skills, Technological Proficiency, Critical Thinking, Adaptability Science Education, Teacher Competency, Technology Integration, Teacher Training, Educational Technology, Curriculum Design

РАЗВИТИЕ ИНФОРМАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ХИМИИ

Ражабов Худаёр Мадримович-доцент Урганчского государственного давлат университета

Аннотация: В последние годы возросла роль информационно-методической компетентности в подготовке будущих учителей химии. Эта компетентность включает в себя способность учителя эффективно собирать, управлять и передавать информацию учащимся, используя при этом различные педагогические методы. В этой статье исследуется значение информационно-методической компетентности в контексте химического образования и предлагается понимание того, как программы подготовки учителей могут улучшить этот важный набор навыков. В нем подчеркивается важность развития критического мышления, адаптивности и технологических навыков учителей химии, а также обсуждаются различные стратегии и подходы к развитию их информационно-методической компетентности.

Ключевые слова; Информационно-методическая компетентность, химическое образование, подготовка учителей, педагогические навыки, технологическая компетентность, критическое мышление, адаптивность научного образования, компетентность учителей, интеграция технологий, подготовка учителей, образовательные технологии, разработка учебных программ

Kirish: Kimyo - bu tabiiy dunyoni tushunishimizda muhim rol o'ynaydigan fundamental fan. Bu tibbiyot va materialshunoslikdan tortib ekologik barqarorlik va energiya ishlab chiqarishgacha bo'lgan turli sohalardagi yutuqlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kimyo fanidan samarali ta'lim olishning zamirida malakali va bilimdon kimyo o'qituvchilarining o'rni yotadi. Bu o'qituvchilar oldiga nafaqat fan tamoyillarini o'rgatish, balki o'quvchilarda ilmiy qiziqish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini uyg'otish va tarbiyalash

vazifasi ham qo'yilgan.

Another interesting place located on the outskirts of the Kyzylkum desert is the Sarmyhsay tract. This is a gorge with a mountain stream on the southern slope of the Karatau mountain system, 30-40 km northeast of the city of Navoi (formerly Kermin). Sarmyhsay is famous for its monuments of ancient human activity, concentrated on an area of approximately 20 km². Attractions include quarries, mines, ancient settlements, burial mounds, crypts and rock art (about 4,000 rock art fragments in total). Since ancient times, this area, where local residents performed their rituals, has been sacred.

Transport accessibility of the country

Uzbekistan Airways plane

Most trips to Uzbekistan begin with entry into the capital of the country, Tashkent.

The city has a modern “Islam Karimov International Airport”, where the state-owned Uzbek company “Uzbekistan Airways” is based. The airport accepts aircraft from Aeroflot, UTair, S7 Airlines, Lufthansa, Rossiya, Asiana Airlines, Arkia Israel Airlines, Turkish Airlines, Korean Air, Air Astana and others.

The city also has a local airport, two train stations and numerous bus stations.

A number of airports in Uzbekistan have international status (Andijan, Bukhara, Navoi, Samarkand, Urgench, Fergana, Namangan, Termez, Karshi, Nukus)

Hotels

Many new luxury hotels have been built in the country, including national hotel chains and B&B types. Most of them are private.

In total, there are 1046 accommodation facilities in the Republic of Uzbekistan (hotels, boarding houses, guest houses, hostels for visitors, etc.). 28% of hotels have a category (star rating) - from one star to five, most of these hotels are located in Tashkent (58%). One- and two-star hotels are located only in the regions of the republic, and five-star hotels are located only in Tashkent. More than half of private hotels are located in Tashkent (54%). The number of rooms in the Republic of Uzbekistan is more than 22.7 thousand rooms, or 47 thousand places.

List of used literatures:

Чек-лист: о чем рассказал председатель Госкомтуризма (ru-UZ), Spot – Бизнес, технологии и инновации в Узбекистане (17 января 2018). Архивировано 4 февраля 2018 года. Дата обращения: 3 февраля 2018.

Государственный комитет Республики Узбекистан по развитию туризма. Количество иностранных туристов за 2018 г. (недоступная ссылка)

Uzbekistan. travel.state.gov. Дата обращения: 11 января 2018. Архивировано 11 января 2018 года.

ГУП «Международный аэропорт Ташкент» имени Ислама Каримова | Национальная авиакомпания «Узбекистон хаво йуллари». www.uzairways.com. Дата обращения: 13 января 2018. Архивировано 10 июля 2017 года.

Аэропорты Узбекистана | Национальная авиакомпания «Узбекистон хаво йуллари». www.uzairways.com. Дата обращения: 13 января 2018. Архивировано 3 июля 2017 года.

Министерство иностранных дел Республики Узбекистан — Виза Республики Узбекистан. mfa.uz.



Дата обращения: 20 марта 2019. Архивировано 8 октября 2020 года.

Электронные визы в Узбекистан вводятся с 15 июля (ru-UZ), Газета.uz (4 июля 2018). Архивировано 4 июля 2018 года. Дата обращения: 4 июля 2018.

ПП-3423-сон 04.12.2017 й. О внесении изменений и дополнения в Тариф консульских сборов Республики Узбекистан. lex.uz. Дата обращения: 7 декабря 2017. Архивировано 7 декабря 2017 года.

[<https://e-visa.gov.uz/> OFFICIAL ELECTRONIC VISA PORTAL OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN]. Дата обращения: 29 декабря 2019. Архивировано 8 апреля 2019 года.

Реестр туристических организаций, имеющих лицензию и сертификат. Государственный комитет Республики Узбекистан по развитию туризма. Дата обращения: 21 августа 2019. Архивировано 21 августа 2019 года.

XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BAHOLASH TIZIMLARI

Raximov Oktabr Dustqobilovich

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti professori

Xidirova Dildora Zayniddinovna

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ta'lim sifati va samaradiligining mazmuni va uni baholash mezonlari, rivojlangan xorijiy davlatlar oliy ta'lim tizimida ta'lim sifati baholash tizimi ta'limni baholash tizimining tasnifi keltirilib, o'z-o'zini boshqarishga asoslangan oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati baholash prinsiplari bayon etilgan. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ta'lim sifati baholash eng dolzarb va muhim hayotiy masala ekanligini asoslanib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar: globallashtirish, jamiyat, intellektual, ta'lim sifati, baholash mezonlari, akkreditatsiya, institutsional, davlat, jamiyat, nazorat.

СИСТЕМЫ ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ЗАРУБЕЖНЫХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Рахимов Октябрь Дуstkobilovich

профессор Каршинского инженерно-экономического института

Хидирова Дилдора Зайниддиновна

старший преподаватель кафедры «Охрана труда и техника безопасности» Каршинского инженерно-экономического института

Аннотация. В статье анализируется содержание качества и эффективности образования и критерии его оценки, система оценки качества образования в системе высшего образования развитых зарубежных стран. Дана классификация системы оценки высшего образования и описаны принципы внешней оценки качества образования в высших учебных заведениях на основе самоуправления. Исходя из того, что обеспечение качества образования в системе высшего образования Узбекистана является наиболее актуальным и важным жизненным вопросом, разработаны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: глобализация, общество, интеллектуальное, качество образования, критерии оценки, аккредитация, институциональный, государство, общество, контроль.

EVALUATION SYSTEMS OF THE EDUCATION QUALITY IN FOREIGN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Rakhimov Oktyabr Dustkobilovich

Professor of the Karshi Engineering Economic institute

Khidirova Dildora Zayniddinovna

Senior lecturer of the «Labor protection and technical safety» department of the Karshi engineering-economics institute

Abstract. The article analyzes the content of the quality and effectiveness of education and the criteria for its assessment, the system for assessing the quality of education in the higher education system of developed foreign countries. A classification of the higher education assessment system is given and the principles of external assessment of the quality of education in higher educational institutions on the basis of self-government are described. Based on the fact that ensuring the quality of education in the higher education system of Uzbekistan is the most pressing and important vital issue, proposals and recommendations have been developed.

Key words: globalization, society, intellectual, quality of education, evaluation criteria, accreditation, institutional. state, society, control.

KIRISH

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab butun dunyo bo'ylab «Sifat inqilobi» yuzaga keldi. Dunyoning yetakchi ishlab chiqarish korxonalarida asosiy e'tiborni son va miqdorga emas, balki mahsulot sifatiga qarata boshlashdi. Sifat raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'la boshladi [1].

Sifat - umumiy tushuncha sifatida insonlarning ehtiyojlari va talablarini qondirish bilan asoslanuvchi mahsulot, material, ish turi, mehnat, xizmatlar va shu kabilarning xususiyatlari hamda xususiy belgilarining majmui bo'lib, ularni qo'yilgan talablar va o'z vazifalariga to'liq mos kelishi bilan baholanadi. Bunday moslik asosan standartlar, shartnomalar, kelishuvlar, iste'molchilarning talablaridan iborat [2].

Ta'lim sifati – ijtimoiy kategoriya hisoblanib, jamiyatda ta'lim jarayonining holati va natijasini hamda shaxsning kasbiy, maishiy va fuqarolik kompetentligini shakllanishi va rivojlanishini jamiyat talabi va ehtiyojiga mos kelishini aniqlaydi. Ta'lim sifati ta'lim muassasasining o'quv-tarbiyaviy faoliyatini turli qirralarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar majmui orqali baholanadi. Ushbu ko'rsatkichlarga ta'lim oluvchilar kompetentligining rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim mazmuni, o'qitish shakli va uslublari, material-texnik baza, xodimlar tarkibi kiradi [2].

Ta'lim sifati -inson hayot-faoliyati sifatini oshirish va aniq maqsadga erishishda foydalanish uchun zarur bo'ladigan, aniq sharoitlarda talab etilib olingan bilimlar majmuidir.

Oliy ta'limda ta'lim sifati - ta'lim modelining kontekstual ko'rsatkichlari, institutsional maqsad va vazifalari hamda ta'lim tizimining aniq standartlari, ta'lim muassasalari, o'quv dasturlari va fanlari bilan bog'liq bo'lgan ko'p qirrali, ko'p darajali dinamik tushunchadir.

Ta'lim sifatiga baho berishda ta'lim samaradorligi tushunchasini ham e'tiborga olish talab etiladi. Sifat – olingan natijaning maqsadga nisbati (yoki teskarisi), samaradorlik- olingan natijaning xarajatlarga nisbati bilan baholanadi.

Ta'lim sifati va ta'lim samaradorligi jamiyatda hayot sifatini ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat umumiy va kasbiy ta'limga qanchalik ko'p mablag' sarflasa va natijasi eng yuqori xalqaro standartlarga javob bersa, hayot sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Ta'lim samaradorligini belgilashda eng optimal xarajatlar hisobida yuqori ta'lim sifatiga erishish talab etiladi [3].

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot jarayonida ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik tajriba-sinov va farsayt metodlaridan foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMALAR

Har bir davlatda ta'lim dasturlari, material resurslar bazasi, kadrlar salohiyati hamda boshqarish tizimiga bog'liq holda jamiyat, shaxs va davlat talablari asosida o'ziga xos ta'lim sifatini kafolatlash tizimi yaratilgan. Oliy ta'lim sifatini boshqarish tizimida ta'lim sifatini baholash uslublari muhim rol o'ynaydi. OTM faoliyatini baholashning tarixan shakllangan va o'z-o'zini ichki baholashga asoslangan "Angliya modeli" va oliy o'quv yurtining jamiyat va davlat oldidagi majburiyatlaridan kelib chiqib tashqi baholashga asoslangan "Fransiya modeli" hamda ularning turli kombinatsiyalaridan iborat bo'lgan turli baholash modellari amalda qo'llaniladi [4,5].

Jahon tajribasida oliy ta'limni baholash tizimini ikki turga bo'lish mumkin:

1. Oliy ta'lim muassasalari rivojlanishini muvofiqlashtiruvchi davlat boshqaruvining vakolatli organi mavjud bo'lgan mamlakatlardagi oliy ta'limni baholash tizimi. Bu hollarda baholash tizimi hukumat tomonidan moliyalashtiriluvchi davlat organlarining ustuvorligiga asoslanadi. Bunda o'z-o'zini baholashga e'tibor pastroq bo'lib, asosiy urg'u davlat organlari yoki jamoat tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan samarali tashqi baholashga qaratilgan bo'ladi. Bunday baholash tizimlari ko'pincha hukumat nazorati, litsenziyalash, davlat akkreditatsiyasi, turli oliy ta'lim muassasalarini solishtirish, moliyaviy resurslarni taqsimlash va universitetlarga ta'sir o'tkazish bilan bog'liq. Oliy ta'limning davlat boshqaruvi organlari mavjud bo'lgan mamlakatlar qatoriga Yevropaning Germaniya, Fransiya, shuningdek, yevropacha oliy ta'lim an'analari qabul qilgan MDH mamlakatlari kiradi.

2. Oliy ta'limni davlat boshqaruvi organlari mavjud bo'lmagan mamlakatlardagi oliy ta'limni baholash tizimi. Bu hollarda universitetlar faoliyatini yaxshilashga, ichki tahlilga asoslangan oliy ta'lim muassasalarida o'z-o'zini baholash, yoki kasbiy, yoki jamoatchilik baholashi ustivorlik qiladi. Oliy ta'lim bo'yicha o'z-o'zini muvofiqlashtirish mamlakatlari qatoriga, birinchi navbatda, Amerika Qo'shma Shtatlari, shuningdek, amerikacha oliy ta'lim an'analari qabul qilgan mamlakatlar kiradi (Filippin, Tayvan) [3].

Ayrim mamlakatlarda oliy ta'limni baholashning yuqorida qayd qilingan usullari birgalikda qo'llaniladi (Shvesiya, Norvegiya, Finlyandiya, Buyuk Britaniya, Chexiya, Sloveniya va boshqalar). Bunday baholash tizimi Umumjahon sifatni boshqarish (Total Quality Menegement, TQM) prinsiplari va standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilotning (International Organization for Standardization, ISO) sifat menejmenti tizimi talablariga asoslanadi.

O'z-o'zini boshqarishga asoslangan OTMda ta'lim sifatini tashqi baholash prinsiplari quyidagilardan tashkil topgan:

- universitet faoliyati va ta'lim dasturlarini asosiy maqsad va vazifalarga mos kelish darajasini muntazam tekshirib borish;

- faoliyatni ekspert baholash va universitetning rivojlanishini rejalashtirish uchun mas'ul shaxs yoki tarkibning mavjudligi;

- o'z-o'zini tekshirish jarayonini amalga oshirish uchun keng va samarali axborot tizimining mavjudligi;

- o'z-o'zini baholashni muntazam amalga oshirilishi (xizmatlar sohasini, boshqaruv tizimini, ta'lim dasturlarini va b.) hamda universitetning o'z-o'zini baholash natijalarini tekshirish uchun tashqi ekspert baholash;

- tashqi ekspert baholash natijalari asosida o'z vaqtida boshqaruv

- tuzilmasi va uslubini, ta'lim dasturlarini takomillashtirish, material va moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash, rag'batlantirish va jazolash tizimini amaliyotga joriy etish.

Quyida ayrim rivojlangan davlatlar oliy ta'lim muassasasi faoliyatini baholash uslubiyotlarini keltirib o'tamiz [2,4,5]:

Buyuk Britaniya.

Buyuk Britaniyada universitetlar faoliyati va ularning ta'lim dasturlari sifatini baholashning davlat tashkilotlarining bosh roli ta'minlangan ko'p pog'onali akkreditatsiyalash tizimi Quality Assurance Agency (QAA) yo'lga qo'yilgan. Bir qancha OTM OAA mezonlari asosida, kelishilgan holda ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari sifatini baholashadi. Masalan, 1992 yilda The Open University (Ochiq Universitet) ta'lim muassasalarini, jumladan Buyuk Britaniyaning chet ellardagi ta'lim muassasalari faoliyatini akkreditatsiyalash hamda validatsiyalash (ratifikatsiyalash, tasdiqlash) bo'yicha o'zining The Open University Validation Services (OUVS) strukturasi tashkil etgan.

Ta'lim muassasalari faoliyatini akkreditatsiyalash bo'yicha OUVS talablari quyidagilardan iborat:

- barcha talablarga mos ta'lim muhitini yaratilganlik holati;
- ta'lim dasturlarini amalga oshirishda mustaqillik;
- akademik faollikni samarali tashkil etilishi;
- ta'lim sifatini kafolatlashning samarali tizimini mavjudligi;
- intellektual mulk (ilmiy salohiyat) darajasi;
- tashqi tavsiyalar uchun ochiqlik;
- moliyaviy xavfsizlik.

The Open University Validation Services (OUVS) quyidagi yo'nalishlar bo'yicha baholashlarni amalga oshiradi:

- tashhislash: ta'lim dasturlarini amalga oshirishga tayyorligi va imkoniyatlari, o'qitishda yuzaga keladigan muammolarni aniqlaydi (intevyu, testlar va b.);

- shakllantiruvchi: ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatidagi teskari aloqa elementlari (topshiriqlar, referatlar, ish daftarlari, seminarlar va b.)ni o'rganadi;

- yakuniy: o'quv jarayoni natijasining yutuqlari va kamchiliklarini aniqlaydi (og'zaki yoki yozma imtihonlar, loyihalar taqdimoti).

OUVSning baholash prinsiplari asosan quyidagilardan iborat:

- baholash ochiq, haqqoniy, asoslangan va ishonchli bo'lishi lozim;
- o'quv jarayoni natijalari bo'yicha baholash aniq manzilli bo'lishi kerak;
- baholash mezonlari barcha uchun tushunarli bo'lishi, akademik baholar imkon boricha jamoaviy faoliyat bo'yicha bo'lishi lozim;
- natijalar muntazam qayta baholashga taqdim etiladi.

The Open University Validation Services (OUVS) tomonidan o'tkaziladigan akkreditatsiya maqsadi quyidagi masalalar bo'yicha faoliyat natijasini tasdiqlashga yo'naltirilgan bo'ladi:

- ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi o'quv yurtining resurslarini o'rnatilgan talablarga mos kelishi (o'qituvchilar tarkibi, axborot imkoniyatlari, moliyaviy ahvoli);

- ichki tizim tartibi ta'lim standarti sifatini kafolatlashga mos bo'lishi;

- talabalar huquqini ta'minlanishi.

OUVS ning asosiy mezonlari quyidagi xarakterli xususiyatlarga ega:

- soniy ko'rsatkichlarni yo'qligi;
- o'qituvchilarni o'qitadigan faniga mos keluvchi sohalar bo'yicha akademik (pedagogik) va tadqiqot (ilmiy) faolligini rag'batlantirish;

- ta'lim sifatini kafolatlovchi tizimga talablar, tashqi va ichki baholovchilar, shuningdek ishlab chiqarish ekspertlari tomonidan talabalarning akademik faolligi va natijalarining tizimli monitoringini yuritish.

Avstraliya

Avstraliya muhandislik instituti va Avstraliya muhandislik fakultetlari dekanlari Kengashi tomonidan 1996 yilda ishlab chiqilgan ta'lim dasturlarini Akkreditatsiyalashga yangicha yondoshuvda, asosan sifatni kafolatlash tizimining ichki mexanizmiga katta e'tibor qaratilgan. Muhandislik o'quv dasturlarini akkreditatsiyalashning yangi mezonlari o'quv jarayoniga emas, uning natijalariga asoslangan. Akkreditatsiyalash tartibi ichki baholash va sifat kafolati bilan bir qatorda ishlab chiqarish korxonalarining tashqi baholari hamda tavsiyalarini o'z ichiga olgan. Umuman, akkreditatsiyalash jarayoni zamonaviy ishlab chiqarish talablarini hisobga olgan holda muhandislik dasturlari innovatsiyasini ta'minlash hamda rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Akkreditatsiyalashning asosiy mezonlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- universitetga qabul qilinadigan talabalarning dastlabki tayyorgarlik sifati;
- professor-o'qituvchilar va talabalarga talab;
- kasbiy (malakaviy) amaliyot
- bitiruvchilarga talab.

Ushbu mezonlarning asosiy xususiyatlari quyidagilar bilan izohlanadi:

- o'quv rejalarini shakllantirishda universitetlarning o'zlariga ko'proq erkinlik berilishi;
- mutaxassislar tayyorlash sifatiga asosiy e'tibor qaratilishi;
- ta'lim dasturlari sifatini oshirib borish maqsadida ularni muntazam takomillashtirib borilishi;
- ta'lim standartlarida innovatsiyalarni rag'batlantirib borilishi.

Germaniya

Germaniyada 1998 yilda ta'lim vazirlari anjumanida bakalavrlar va magistrlar tayyorlash dasturini baholovchi Akkreditatsiya Kengashi tuzilgan. Ushbu Kengash akkreditatsiya agentliklari uchun minimal standartlar va mezonlarni ishlab chiqdi. Germaniya muhandislar Assotsiatsiyasi 1999 yili muhandislik va kompyuter sohasi bo'yicha Akkreditatsiyalash Agentligiga asos soldi. Germaniyadagi birinchi akkreditatsiyalash tashkiloti Quyi Saksoniya yeridagi Markaziy Agentlik Central Agency of Evaluation of Lower Saxony's Institutions of Higher Education (ZEvA) hisoblanadi. Hozirgi kunda texnika, informatika, tabiiy va matematika sohalarida ta'lim dasturlarini akkreditatsiyalovchi Accreditation Agency for Study Programs in Engineering, Informatics, Natural Sciences and Mathematics (ASIIN) agentliklari faoliyat yuritmoqda.

AQSh. AQShda ta'lim sifatini akkreditatsiyalash ta'lim sifatini nazorat qilish tizimi bo'lib, ta'limni rivojlanishiga manfaatdor barcha tomonlar manfaatlarini hisobga olishga asoslangan. U o'zida davlat va jamoatchilik nazoratlarini mujassamlashtirgan.

Akkreditatsiyalashning asosiy maqsadlari:

ta'lim samaradorligini baholash prinsiplari va mezonlarini ishlab chiqish asosida oliy ta'lim taraqqiyoti va rivojlanishini ta'minlash;

ta'lim muassasalari rivojlanishini rag'batlantirish, uzluksiz o'z-o'zini tekshirish va reja asosida ta'lim dasturlarini takomillashtirish;

o'quv yurti yoki aniq yo'nalishdagi ta'lim dasturi to'g'ri shakllantirilgan maqsadga va unga erishish sharoitlariga egaligi to'g'risida jamiyatni kafolatlashi;

OTM va ta'lim dasturlarini shakllanishi hamda rivojlanishiga yordam berishi;

o'quv yurtlarining ta'lim faoliyatiga aralashish va ularning akademik erkinligini kamsitilishidan himoyalashi;

AQShda ta'lim muassasalari faoliyatini akkreditatsiyalash jarayonini o'quv yurtining akademik erkinliklarini ta'minlash huquqlari hamda uning davlat va jamiyat oldidagi javobgarligi muvozanatini saqlashga qaratilgan jamoaviy o'z-o'zini moslashtirish tizimi deb qarash mumkin.

AQShda 2 xil, institutsional va ixtisoslashtirilgan akkreditatsiyalash tizimi mavjud.

Ixtisoslashgan (professional) baholashda alohida ta'lim dasturi va mutaxassisliklarni tayyorlash maqsadi va unga erishish sharoitlari akkreditatsiyadan o'tkaziladi.

Agar ta'lim muassasasi faoliyati to'liq baholansa institutsional akkreditatsiya deb hisoblanadi.

Institutsional akkreditatsiyalash standartlari (ko'rsatkichlari) universitetlarning o'z vazifasiga mos samarali faoliyatini baholashning asosiy mazmunini tashkil etadi. AQShda ta'lim muassasalari faoliyatini baholashda dastlab soniy ko'rsatkichlardan (professor-o'qituvchilar soni, kutubxona resurslari, laboratoriyalarning o'quv-texnik ta'minoti darajasi, moliyaviy ta'minoti va b.) foydalanilgan. Natijada XX asrning birinchi o'n yilidagi AQShda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga solishga erishilgan. Keyinchalik, standartlar oliy ta'lim muassasalari ma'muriyati tomonidan qattiq tanqid ostiga olinib, bunday soniy baholashlar natijasi ta'limni standartlashtirishga olib kelishi ko'rsatilgan. OTMlarini regional akkreditatsiyalash agentliklari soniy baholash (institutsional akkreditatsiya)dan voz kechishib, "Standart" atamasi esa "mezonlar" atamasi bilan almashtirilgan va bu bilan ta'lim muassasasi faoliyatini ekspert baholash (maxsus yo'lga qo'yilgan).

AQShdagi 6 ta regional akkreditatsiyalash agentliklarining har biri o'zlarining mezonlarini ishlab chiqishgan, har bir mezon asoslanib universitetlar e'tiboriga yetkazilgan. Ushbu mezonlarga umumiy qilib quyidagilarni kiritish mumkin:

universitetning bir butunligi;

maqsadi, rejalashtirishi va samaradorlik;

boshqaruv va ma'muriyat tizimi;

ta'lim dasturlari;

professor-o'qituvchilar va xizmat qiluvchi xodimlar tarkibi;

kutubxona fondi, kompyuter bazalari va axborotlarning boshqa manbalari;

talabalarga xizmat ko'rsatish va ta'lim olish uchun boshqa sharoitlarning yaratilganligi;

material resurslar, binolar va qurilmalar;

moliyalashtirish;

Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash quyidagilarni tasdiqlab, asoslaydi:

ta'lim muassasasining aniq, asoslangan maqsadga egaligi;

maqsadga erishishdagi resurslar yetarli va asoslanganligi;

kelajakda maqsadga erishish istiqbollari ishlab chiqilganligi.

Hozirgi vaqtda ixtisoslashtirilgan akkreditatsiyalashdan oldin, universitet institutsional akkreditatsiyalashdan o'tishi talab etiladi.

Ixtisoslashgan akkreditatsiyalashda asosiy e'tibor o'quv jarayoni mazmuniga qaratiladi:

fundamental bilimlar darajasi;

maxsus fanlar bo'yicha bilim darajasi;

amaliy ko'nikmalari;

loyihalash malakalari;
kompyuterdan foydalanish darajasi.

Institutsional akkreditatsiyalash jarayonidagi ayrim kamchiliklar, boshqa sohalardagi yutuqlar hisobiga to'ldirilishi mumkin, lekin ixtisoslashgan akkreditatsiya ta'lim dasturining qanchalik talabga javob berishini baholaydi. Ta'lim dasturlari akkreditatsiyasi (ixtisoslashgan), qachonki OTM boshqa barcha mezonlarga javob bersagina amalga oshiriladi.

Ixtisoslashgan akkreditatsiyalash asosan quyidagilarga asoslanadi:

akkreditatsiyalash agentligi ekspert komissiya yordamida akkreditatsiya natijalari bo'yicha qaror qabul qilish mezonlari va tartibini aniqlaydi;

o'quv yurti faoliyati va ta'lim dasturi o'z-o'zini tekshirish va baholash asosida o'rganiladi;

ekspert guruhi o'z-o'zini tekshirish va baholash materiallarini tahlil qilib, xulosa tayyorlaydi va agentlik hamda OTMga taqdim etadi;

OTM ekspertlar xulosasiga o'z munosabatini bildiradi;

agentlik komissiyasi o'z-o'zini tekshirish va baholash ma'lumotlari, ekspert xulosasi va xulosa bo'yicha OTM javobi asosida mazkur o'quv yurti akkreditatsiyasini tasdiqlash yoki inkor etish bo'yicha qaror chiqaradi.

Ixtisoslashgan akkreditatsiyalashning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

abituriyentlarga oliy o'quv yurtini tanlashda yordam berish;

davlat organlariga mazkur OTM ni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qaror chiqarishda yordam berish;

xususiy korxonalar va tashkilotlar tomonidan o'z mablag'larini mazkur OTMga sarflash to'g'risida xulosa chiqarishlarida yordamlashish.

AQShda texnika va texnologiya sohasidagi ta'lim dasturlarini akkreditatsiyalovchi taniqli tashkilot Accreditation Board for Engineering and Technology (ABET) hisoblanadi. Ushbu tashkilot 28 ta professional muhandislik va texnik jamiyatlar federatsiyasidan iborat. AVET 1500 dan ortiq muhandislik va 700 ga yaqin texnologik OTM ta'lim dasturlarini akkreditatsiyalashdan o'tkazgan. Hozirgi kunda Germaniya, Gollandiya, Turkiya, Singapur, Meksika va boshqa davlatlarning 70 yaqin OTMlarining ta'lim dasturlari AVET tomonidan amerika analogiga mosligi tan olingan.

Texnika va texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash sifatiga AVET tomonidan qo'yilgan asosiy mezonlar quyidagilardan iborat:

zamonaviy ilmiy-texnik, ijtimoiy va siyosiy muammolarni bilishi va tushunishi;

tabiiy-ilmiy, matematik va muhandislik bilimlardan amaliyotda foydalana olish qobiliyati;

o'rgangan uslublari va ortdirgan malakalarini muhandislik amaliyotida qo'llay olishi;

muhandislik muammolarini shakllantirish va hal etish qobiliyatlari;

belgilangan vazifalarga mos holda jarayonlar yoki tizimlarni loyihalash qobiliyatlari;

tajribalarni rejalashtirish va o'tkazish, ma'lumotlarni qayd etish hamda izohlash, asoslash qobiliyatlari;

fanlararo mavzularda jamoada ishlash qobiliyati;

jamoada samarali o'zaro ta'sir etish qobiliyati;

kasbiy va axloqiy javobgarligi;

chuqur va keng bilim, muhandislik yechimlarining ijtimoiy oqibatlarini yetarli darajada tushunishi;

muntazam o'z ustida ishlash va doimiy o'qish zarurligini tushuna bilishi.

Janubiy Koreya.

Koreyada 359 ta oliy o'quv yurtlari mavjud bo'lib ularda 3,3 mln.ga yaqin talabalar tahsil olishadi. Ushbu oliy o'quv yurtlarining 222 tasi to'rt yillik kollejlardir, 180 tasi xususiy talim muassasalaridir. Jami mavjud oliy o'quv yurtlarining 85 foizi xususiy talim muassasalaridir. Universitetlarda 78%, kasbiy maktablarda 96% talabalar xususiy talim muassasalarida o'qishadi. Universitetlarning umumiy xarajatlarini 23% davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Boshqa rivojlangan davlatlar qatori Koreyada ham oliy talim ikki bosqichda (bakalavriat va magistratura) olib boriladi.

Bakalavriat talim dasturlari 4 yilga mo'ljallangan bo'lib, kamida 130 kredit birligidan iborat. O'quv dasturining birinchi ikki yili umumkasbiy o'quv fanlaridan, oxirgi ikki yili esa mutaxassislik fanlaridan iborat. Semestr 16 haftadan iborat. Bakalavrlar asosan universitetlarda va 4 yillik o'quv dasturi asosidagi kollejlarda tayyorlanadi.

Magistratura ikki yillik o'quv dasturini o'z ichiga oladi va 24 kredit birligidan iborat. Magistraturaga bakalavriatni tugatganlar suhbat, imtihon va tanlov asosida qabul qilinadi.

Doktorlik dasturlari Talim Vazirligi tomonidan nazorat qilinadi va kamida 36 kredit birligiga ega ikki yil to'liq ish kuni hisobida faoliyat yuritiladi. Bakalavrlar uchun esa 60 kredit birligiga ega bo'lib, 4 yillik ilmiy – tadqiqot faoliyatdan iboratdir. Doktorantlardan kamida 2 ta chet tilini erkin bilishlari talab etiladi.

Koreya oliy talim tizimida sifatni nazorat qilish va akkreditatsiyalash talim, fan va texnologiyalar Vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek vazirlik talim muassasalari va fakultetlar tashkil etishga ruxsat beradi hamda qabul kvotalarini belgilaydi.

Universitetlar doirasida institutsional akkreditatsiyalashni Universitet talimi bo'yicha Koreya Kengashi (KSIE) amalga oshiradi. Hozirgi kungacha ushbu kengash (KSIE) tomonidan 201 ta universitet akkreditatsiyalangan.

XULOSA

Chet el oliy o'quv yurtlari va umuman xalqaro ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyasi tahlili asosida hozirgi davrda ta'lim sifatini ta'minlash eng dolzarb va muhim hayotiy masala ekanligini ta'kidlab, quyidagi xulosalarni keltiramiz:

Ta'lim ijtimoiy hayotning muhim sohasi hisoblanadi. Aynan ta'lim jamiyatning intellektual, madaniy va ma'naviy darajasini shakllantiradi.

Hozirgi kunda har qanday davlatning kuchi-qudrati, rivojlanish darajasi, undagi ijtimoiy-siyosiy muhit ushbu davlatning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Intellektual salohiyatning o'sishi esa asosan ta'lim sifati bilan baholanadi.

Globalashuv davrida yuzaga kelayotgan ekologik, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muammolar hamda inqirozlar va ularning yechimlari ta'lim sifatiga bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi.

Har qanday davlat ta'lim sohasi sifatiga qanchalik ko'p e'tibor qaratsa, qanchalik ko'p mablag' sarflasa va natijasi eng yuqori xalqaro standartlarga javob bersa, ushbu davlatda hayot sifati shunchalik yuqori bo'ladi.

Ta'lim sifatini oshirish chegara bilmas sohadir. Shu sababli hozirgi kunda ta'lim sifatining o'sish dinamikasini to'g'ri baholash, uning mezonlarini aniq belgilash va kelajak ta'lim sifati ko'rsatkichlarini Forsayt texnologiyasidan foydalangan holda bashorat qilish [6], rejalashtirish o'ta muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri ta'lim jarayoniga zamonaviy raqamli va innovatsion pedagogik texnologiyalarni [7] keng joriy etishdan iboratdir. Lekin, raqamli texnologiyalarning keng foydalanish uning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy oqibatlarini ham aniqlash ustida forsayt tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi [8].

Ta'lim sifatini oshishi va dunyoda yagona ta'lim tizimi hamda maydonini shakllanishi o'zaro uzviy bog'liq jarayonlardir.

Ta'lim sifati muammosi tugallangan yechimga ega emas soha hisoblanadi. Davlat va jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida ta'lim tizimining o'ziga xos yangi shart-sharoitlar va talablari yuzaga keladi, ta'lim sifati mezonlari o'zgaradi va bu masalani hal etish uchun tizimli tadqiqotlar olib borish talab etiladi.

Ta'lim sifati davlat va jamiyatning ijtimoiy –iqtisodiy o'sish, rivojlanish darajasiga bog'liq holda o'zgaruvchan bo'lganligi sababli, uni aniqlash hamda kelajak ko'rsatkichlarini oldindan baholashning yagona, mukammal uslubiyoti ishlab chiqilmagan.

ADABIYOTLAR

1. Дуткабилевич Р.О., Октябровна Р.Д. Качество образования в эпоху глобализации //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 36-39.
2. Raximov O.D., Murodov M.O., Ruziev X.J. Ta'lim sifati va innovatsion texnologiyalar. Toshkent, «Fan va texnologiyalar» nashriyoti. 2016. -208b.
3. Raximov O.D. Ta'lim sifati-hayot sifati. TATU Qarshi filiali, 2015. -94b.
4. Daminov A., Zakirova M., Nazarov B.. Oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash masalalari. DTM.
5. Raximov O. D., Eshmuxamedov L. M. Chet el oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini baholash //international sonference on learning and teaching. – 2022. – T. 1. – №. 6. – S. 68-76.
6. Rakhimov O.D., Berdiyev Sh.J., Rakhmatov M.I., Nikboev A.T. Foresight In The Higher Education Sector of Uzbekistan: Problems and Ways of Development. //Psychology and Education Journal .2021. 58 (3), P.957-968. DOI: 10.17762/pae.v58i3.30294.
7. O.D.Raximov va b. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar./T.: «Fan va texnlogiya» nashriyoti, 2013y., 170b.
8. Rakhimov, O., Ehsev, S., Latipov, S., Rakhimov, J. (2022). Positive and Negative Aspects of Digitalization of Higher Education in Uzbekistan. AIP Conference Proceedings, 2432, art. no. 030067. <http://scitation.aip.org/content/aip/proceeding/aipcp>. ISBN:978-073544345-7
doi: 10.1063/5.0089690

Polifoniya tovushlari va uni idrok etishning o'ziga xos xususiyatlari
Raxmonova Vazira Raxmonovna
Turkiston yangi innovatsiyalar universitetining 1 – kurs magistranti

Annotatsiya: Maqola musiqa san'at haqida bo'lib, musiqaning kelib chiqish tarixi, uning inson ongiga ta'siri va inson hayotida qanchalar ahamiyatga ega ekanligi hamda ichki qalb kechinmalarini musiqa orqali yoritilishi bayon etilgan. Shuningdek, maqolada musiqa haqida allomalarning fikrlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa, mafkura, musiqashunoslik, estetika, risola, iste'dod, uslub, meros, tafakkur, ijrochilik, sharq musiqasi.

Annotation: The article deals with the art of music, the history of the origin of music, its influence on human consciousness and its importance in human life, as well as the illumination of inner feelings through music. The article also mentions the opinions of scholars about music. A person who reads this article will have knowledge about art and music.

Keywords: Music, ideology, musicology, musicology, aesthetics, treatise, talent, style, heritage, thinking, performance, oriental music

Jamiyatning zamonaviy taraqqiyoti, inson hayoti hamda faoliyatining turli sohalarida jahon tizimlarining globallashuvi va integratsiyalashuvi, O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tilishi kasb sifatiga tobora yuqori talablar qo'ymoqda. Ayniqsa, bugungi kunga kelib, ta'lim va uning sifati xalqaro tajribalarga mos bo'lishi, har bir fan doirasida bajarilgan ishlar zamon talablardan kelib chiqib bajarilishi alohida e'tirof etiladi.

Bu maqsadga erish uchun boshlang'ich ta'lim jarayoni, birinchi navbatda, gumanizm tamoyimli asosida tashkil etilishi kerak. Chunki O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosati milliylik xarakteriga egaligi bilan ajralib turadi. Insoniylik tamoyili asosida tashkil etiladigan boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchilar erkin rivojlanishini ta'minlashi kerak.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda Milliy dastur qabul qilingandan so'ng mamlakatimiz ta'lim tizimida, xususan, boshlang'ich ta'limda keng qamrovli ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Ta'lim jarayonida o'qitiladigan har bir o'quv predmeti bugungi kun yoshlarini har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalashga o'z hissasini qo'shadi. Ayniqsa, ona tili darslari yetuk, o'z qarashiga ega shaxslarni tayyorlash uchun asosiy dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Bu fan o'quvchilarning o'z boyligini oshirishga, so'zlardan unumli foydalanishga, erkin va mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Qayd etilgan muammolarni tadqiq qilish qator shart-sharoitlarga bog'liq. Avvalo, ta'limda o'quvchilarning maqomini yangilash, ularni ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantirishga ehtiyoj tug'iladi. Qolaversa, ta'limni bolalarning o'quv-biluv faoliyatiga, binobarin, tafakkuriga mo'ljallab tashkil etish tamoyillari, usullari, vositalarini asoslashga, o'quvchilarning o'quv-biluv imkoniyatlarini keng yoritish zaruriyati dolzarb bo'lib qoladi.

Ayniqsa, bugungi fan va texnikaning rivojlanishi, bolalarning yoshligidagi intellektual qobiliyatlari, tafakkurining o'sishi ta'lim-tarbiyada yangi texnologiyalarni tatbiq etilishini taqozo etadi. Shunday bir davrda boshlang'ich sinf o'quvchilariga boshqa fanlar qatorida, ona tilini o'qitishda sintaksis bo'limi bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Polifoniya (lotincha: polyphonia poli... va fon) — ovoz (kuy)larning ifodaviy-badiiy o'zaro tengligiga asoslangan ko'p ovozlilik turi. Aksi — gomofoniya. Turli xalqlar musika merosida va kompozitorlar ijodida asosan 3 ta Polifoniya turi ajratiladi: kuy va unga jo'r bo'luvchi variantlarning baravar sadolanishiga asoslangan yordamchi ovoqli Polifoniya; ovozdan ovozga o'tadigan bitta kuy (mavzu)ga asoslangan imitatsiyali Polifoniya; bir necha mustaqil kuy bir vaqtning o'zida sadolanishiga asoslangan kontrastmavzuli Polifoniya Yevropa kup ovoqli musikasida 9-asrdan ma'lum (organum, diskant, diafoniya, kontrapunkt). Tarixiy rivojida kat'iy (15—16-asrlar, yetuk misollari Niderland maktabi vakillari, Palestrina va boshqa ijodida) va erkin (17-asrdan, I.S. Bax, G. F. Gendel va boshqalar) Polifoniya davrlari ajratiladi. 20-asrda I. Stravinskiy, D. Shostakovich, Polifoniya Xindemit, O. Messian, B. Britten, V. Lyutoslavskiy va boshqa ijodida shaklan va usluban boyidi.

Polifoniya tushunchasi (ombor sifatida) uyg'unlik tushunchasi (pitch tuzilishi) bilan o'zaro bog'liq emas, shuning uchun, masalan, polifonik uyg'unlik haqida gapirish adolatli. Alohida ovozlarning barcha funksional (musiqiy-semantik, musiqiy-mantiqiy) mustaqilligi bilan ular doimo vertikal ravishda tekislanadi. Polifonik asarda (masalan, Perotin organumida, Machault motetida, Gesualdoning madrigalida) quloq musiqaning tarqalishida o'zini namoyon qiladigan konsonans va dissonans, akkord va (eski polifoniyada) konkordlarni va ularning aloqalarini ajratib turadi. vaqt o'tishi bilan, u yoki bu fretning mantig'iga bo'ysunib. Har qanday polifonik asar ohang tuzilishining yaxlitligi, musiqiy garmoniya belgisiga ega.

Polifoniya quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Subvokal polifoniya, unda asosiy ohang bilan birga uning aks sadolar, ya'ni biroz boshqacha variantlar (bu heterofoniya tushunchasiga to'g'ri keladi). Rus xalq qo'shig'i uchun odatiy.

2. Taqlid polifoniya, unda asosiy mavzu avval bir ovozda, keyin esa, ehtimol, o'zgarishlar bilan, boshqa ovozlarda paydo bo'ladi (bir nechta asosiy mavzular bo'lishi mumkin). Mavzu o'zgarmasdan takrorlanadigan shaklga kanon deyiladi. Ohangning ovozdan ovozga o'zgarib turadigan shakllarining cho'qqisi fuga hisoblanadi.

3. Kontrastli mavzu polifoniya (yoki polimelodiya), unda turli xil ohanglar bir vaqtning o'zida yangraydi. Birinchi marta 19-asrda paydo bo'lgan].

4. Yashirin polifoniya- asar teksturasida tematik intonatsiyalarni yashirish. J. S. Baxning kichik polifonik sikllaridan boshlab, erkin uslubdagi polifoniyaga taalluqlidir.

5. Baxni yangi usulda bajarish istagi, agar u stilistik jihatdan to'g'ri ranglarni izlashda ifodalangan bo'lsa, faqat mamnuniyat bilan qabul qilinishi mumkin. Baxning klavier kompozitsiyalarining tabiati shundaki, intellektning faol ishtirokisiz ularni ifodali ijro etish mumkin emas. Ular musiqiy tafakkurni rivojlantirish, o'quvchining tashabbuskorligi va mustaqilligini tarbiyalash uchun ajralmas material bo'lishi mumkin, bundan tashqari, ular boshqa musiqa uslublarini tushunishning kaliti bo'lishi mumkin.

6. Bolalar musiqa maktabida o'qishning dastlabki yillari o'quvchiga shunday chuqur ta'sir ko'rsatadiki, bu davr haqli ravishda bo'lajak pianinoning shakllanishidagi hal qiluvchi va eng muhim bosqich hisoblanadi. Bu yerda musiqaga, jumladan, polifonik musiqaga qiziqish va muhabbat tarbiyalanadi.

7. Bola uchun musiqa olamidagi eng yaxshi yo'naltiruvchi ip bu qo'shiq: birinchi sinf o'quvchisi tanish qo'shiqlarni bajonidil kuylaydi, o'qituvchi ijro etgan asarlarni qiziqish bilan tinglaydi. Pianino uchun eng oson monofonik aranjirovkadagi bolalar va xalq qo'shiqlarining ohanglari o'z mazmuni bo'yicha yangi boshlanuvchilar uchun eng tushunarli o'quv materialidir. Qo'shiqlar sodda, ammo mazmunli, yorqin intonatsion ekspressivlik bilan ajralib turadigan, aniq belgilangan avj nuqtasi bilan tanlanishi kerak. Keyin asta-sekin sof cholg'u kuylari jalb qilinadi. Shunday qilib, birinchi qadamlardan o'quvchining diqqat-e'tibori boshidan ifodali kuylaydigan kuyga qaratiladi, so'ngra xuddi shunday ifodali tarzda pianinoda "qo'shiq aytish"ni o'rganadi.

Monofonik qo'shiq-taronalarning ohangdor ijrosi keyinchalik bir xil ohanglardan ikkitasining yengil polifonik parchalarda qo'shilishiga ko'chiriladi. Ushbu o'tishning tabiiyligi kelajakda polifoniyaga qiziqishni saqlab qolish kafolati hisoblanadi. Yangi boshlanuvchilar uchun polifonik repertuar o'z mazmuniga ko'ra bolalarga yaqin va tushunarli, past ovozli omborning xalq qo'shiqlarining engil polifonik aranjirovkalaridan iborat. Bunday asarlarda etakchi ovoz, qoida tariqasida, yuqori, pastki (pastki ohang) esa faqat asosiy ohangni to'ldiradi, «ranglaydi». Bunga misol tariqasida "Oh, sen, qish-qish", "Tog'da, tog'da" spektaklini keltirish mumkin. Bu yerda siz talabalarni polifoniya ustida ishlashning zarur texnikasi bilan tanishtirishingiz mumkin (talaba bir ovozni ijro etadi, o'qituvchi - boshqa, bir ovoz kuylanadi, ikkinchisi pianinoda ijro etiladi). Ansamblda o'qituvchi bilan ikkala qismni ham navbatma-navbat ijro etar ekan, o'quvchi ularning har birining mustaqil hayotini aniq his qilibgina qolmay, balki ikkala ovozning bir vaqtda uyg'unlashuvida butun asarni to'liq eshitadi.

Baxni yangi usulda bajarish istagi, agar u stilistik jihatdan to'g'ri ranglarni izlashda ifodalangan bo'lsa, faqat mamnuniyat bilan qabul qilinishi mumkin. Baxning klavier kompozitsiyalarining tabiati shundaki, intellektning faol ishtirokisiz ularni ifodali ijro etish mumkin emas. Ular musiqiy tafakkurni rivojlantirish, o'quvchining tashabbuskorligi va mustaqilligini tarbiyalash uchun ajralmas material bo'lishi mumkin, bundan tashqari, ular boshqa musiqa uslublarini tushunishning kaliti bo'lishi mumkin.

Bolalar musiqa maktabida o'qishning dastlabki yillari o'quvchiga shunday chuqur ta'sir ko'rsatadiki, bu davr haqli ravishda bo'lajak pianinoning shakllanishidagi hal qiluvchi va eng muhim bosqich hisoblanadi. Bu yerda musiqaga, jumladan, polifonik musiqaga qiziqish va muhabbat tarbiyalanadi.

Bola uchun musiqa olamidagi eng yaxshi yo'naltiruvchi ip bu qo'shiq: birinchi sinf o'quvchisi tanish qo'shiqlarni bajonidil kuylaydi, o'qituvchi ijro etgan asarlarni qiziqish bilan tinglaydi. Pianino uchun eng oson monofonik aranjirovkadagi bolalar va xalq qo'shiqlarining ohanglari o'z mazmuni bo'yicha yangi boshlanuvchilar uchun eng tushunarli o'quv materialidir. Qo'shiqlar sodda, ammo mazmunli, yorqin intonatsion ekspressivlik bilan ajralib turadigan, aniq belgilangan avj nuqtasi bilan tanlanishi kerak. Keyin asta-sekin sof cholg'u kuylari jalb qilinadi. Shunday qilib, birinchi qadamlardan o'quvchining diqqat-e'tibori boshidan ifodali kuylaydigan kuyga qaratiladi, so'ngra xuddi shunday ifodali tarzda pianinoda "qo'shiq aytish"ni o'rganadi. Monofonik qo'shiq-taronalarning ohangdor ijrosi keyinchalik bir xil ohanglardan ikkitasining yengil polifonik parchalarda qo'shilishiga ko'chiriladi. Ushbu o'tishning tabiiyligi kelajakda polifoniyaga qiziqishni saqlab qolish kafolati hisoblanadi. Yangi boshlanuvchilar uchun polifonik repertuar o'z mazmuniga ko'ra bolalarga yaqin va tushunarli, past ovozli omborning xalq qo'shiqlarining engil polifonik aranjirovkalaridan iborat. Bunday asarlarda etakchi ovoz, qoida tariqasida, yuqori, pastki

(pastki ohang) esa faqat asosiy ohangni to'ldiradi, «ranglaydi». Bunga misol tariqasida “Oh, sen, qish-qish”, “Tog'da, tog'da” spektaklini keltirish mumkin. Bu yerda siz talabalarni polifoniya ustida ishlashning zarur texnikasi bilan tanishtirishingiz mumkin (talaba bir ovozni ijro etadi, o'qituvchi - boshqa, bir ovoz kuylanadi, ikkinchisi pianinoda ijro etiladi). Ansamblda o'qituvchi bilan ikkala qismni ham navbatma-navbat ijro etar ekan, o'quvchi ularning har birining mustaqil hayotini aniq his qilibgina qolmay, balki ikkala ovoznining bir vaqtda uyg'unlashuvida butun asarni to'liq eshitadi.

Xullas, pedagogik texnologiya – ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim jarayoni, vositalari shakl va metodlari majmui. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab, o'quvchilarni kuchi imkoniyatlari, fanni o'zlashtirish darajasi fanni spesifik tuzilishi xususiyatiga moslab shakli va hajmini o'zgartirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor. O'qituvchining ta'lim jarayoni texnologik metodlar asosida tashkil etishi ko'p jihatdan uning o'ziga bog'liqligi, bilimi ularni har birini tashkiliy tuzilishi xususiyatlarini yaxshi bilishi ta'lim samaradorligi ta'minlashning muhim kafolati bo'ladi. O'qituvchining pedagogik texnologiyalarini qo'llashida ularni mazmunli va samarali tashkil etishga oid bilimlardan yaxshi habardor bo'lishi qo'llanilgan texnologiyalarni dars samaradorligiga ijobiy ta'siri va natijalarni tahlil qilish baholay olish, tegiushli xulosalar chiqara olishi, o'z faoliyatiga tanqidiy munosabatda bo'lishi, o'zgarar nazari bilan baholash o'z bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lash o'quvchilarni darsda faol ishtirokini ta'minlay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ilg'or, interfaol texnologiyalardan barcha fan o'qituvchilari, shu jumladan musiqa o'qituvchilari yaxshi habardor bo'lishlari zarur. Chunki, ta'lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari fan taraqqiyoti natijasida kengayib bormoqda. Shu jarayonda o'qitishning shakl va usullari ha takomillashib bormoqda. Natijada inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari ya'ni ta'lim tizimida ta'lim va tarbiyadan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Shuni nazarda tutish kerakki, pedagogik texnologiya – bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, shaxsning oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tizim sifatida qarab, uni tashkil qiluvchilar, ya'ni o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini va ta'lim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Mirziyoev. Sh. 2019 yil 29 apreldagi “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konseptiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-son Farmoni.

Azimov H. Fortepiano darsligi. O'qituvchi. - T.: 1998 yil

Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. *Miasto Przyszłości*, 33, 167-176.

Djamalova. D. “Fortepiano” darsligi. - T. “Musiqqa” 2018 y.

Zakirova Sh. O'zbekiston kompozitorlarining fortepiano uchun asarlar. - T., «O'zbekiston». 2010.

Ражабов, Т. (2023). O'zbek bolalar musiqiy o'yin folklorining mavzuviy tasnifi. *Общество и инновации*, 4(5/S), 340-345.

Muhammadjanova Z. Fortepiano chalishni o'rgatish uslubiyoti. -

Toshkent, 2006 yil

Ражабов, Т. И. (2022). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Народные Музыка И Песни. *Miasto Przyszłości*, 29, 363-367.

Rajabov, T. I. (2023). Distinctive Features of Folk Songs that Serve in the Spiritual and Moral Formation of Bukhara Pupils. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, 2(3), 59-68.

Тўхтасин, Р. И. (2022). ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special issue), 64-71.

Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN*, 2795(546X),

Rahimov Q. Garmoniya bo'yicha mashq va masalalar to'plami. «Aloqachi», 2005.

Сами Азиз угли. Гармония. Т., «Узбекистан», 2002.

Янов - Яновская Н С. Узбекская симфоническая музыка -Т., 1979

VETERINARIYA SOHASIDA MALAKALI MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH JARAYONIDA INTERFAOL USULLARNI QO‘LLASH AMALIYOTI

Ro‘ziqulov Rahmatullo Fayzulloyevich – SamDVMChBU, o‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i, v.b.professor,

Narziyeva Nargiza Norkuziyevna – SamDVMChBU, Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedراس mudiri, dotsent.

ПРАКТИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ ВЕТЕРИНАРНОЙ ОБЛАСТИ

Рузикулов Рахматулло Файзуллоевич - СамДВМЧБУ, заведующий учебно-методическим отделом, и.о. профессора,

Нарзиева Наргиза Норкузиевна - СамДВМЧБУ, заведующая кафедрой социально-гуманитарных наук, физической культуры и спорта, доцент

PRACTICE OF USING INTERACTIVE METHODS IN THE PROCESS OF TRAINING QUALIFIED VETERINARY SPECIALISTS

Annotatsiya. Ushbu maqolada veterinariya sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonida interfaol usullarni qo‘llash amaliyoti, ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishda interfaol usullarning o‘rni, veterinariya fanlari bo‘yicha ma‘ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishda hamda mustaqil ta‘limni tashkil etishda interfaol usullardan unumli foydalanish, interfaol usullarning mazmun-mohiyati, “Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim”, “Baliq skeleti”, “Blis-o‘yin texnologiyasi”, “Klaster” kabi grafik organayzerlarning qo‘llash amaliyoti, interfaol ta‘limning umumiy tavsifi va uning didaktik imkoniyatlari atroficha yoritilgan.

Аннотация. В данной статье рассмотрена практика использования интерактивных методов в процессе подготовки квалифицированных специалистов в области ветеринарии, роль интерактивных методов в повышении качества и эффективности обучения, проведения лекционных занятий, практических и лабораторных занятий по ветеринарным наукам, самостоятельного образования. эффективное использование интерактивных методов в организации лим, суть интерактивных методов: «Я знаю. Я хочу знать. Я научился», «Рыбий скелет», «Блисс-игровая технология», графические органайзеры «Кластер», подробно раскрыто общее описание интерактивного образования и его дидактических возможностей.

Annotation. This article discusses the practice of using interactive methods in the process of training qualified specialists in the field of veterinary medicine, the role of interactive methods in improving the quality and efficiency of training, conducting lectures, practical and laboratory classes in veterinary sciences, and self-education. effective use of interactive methods in the organization of lim, the essence of interactive methods: “I know. I want to know. I learned”, “Fish Skeleton”, “Bliss-game technology”, graphic organizers “Cluster”, a general description of interactive education and its didactic capabilities is disclosed in detail.

Kalit so‘zlar: veterinariya ta‘limi, interfaol ta‘lim, grafik organayzerlar, pedagogik texnologiyalar, interfaol usul, baliq skeleti, klaster, blis-o‘yin texnologiyasi, mutaxassis, didaktik imkoniyatlar.

Ключевые слова: ветеринарное образование, интерактивное образование, графические органайзеры, педагогические технологии, интерактивный метод, скелет рыбы, кластер, технология блис-игры, специалист, дидактические возможности.

Key words: veterinary education, interactive education, graphic organizers, pedagogical technologies, interactive method, fish skeleton, cluster, bliss game technology, specialist, didactic opportunities.

Kirish. Respublikamizda ta‘lim sifati va samaradorligini yanada oshirish maqsadida, 2020 yil 23 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun veterinariya ta‘limida ham ijroga qaratilib, veterinariya ta‘limini yuqori bosqichlarga ko‘tarish masalalari jadal rivojlantirilmoqda.

Ushbu fikrlarimizning mantiqiy davomi sifatida bugungi kunda mamlakatimizda veterinariya va chorvachilikka yo'naltirilgan ta'lim muassasalarida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" 2022 yil 31 martdagi PQ-187-son qarori asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti qayta tashkil etildi.

To achieve this, countries must take appropriate steps to give people with disability access, in the same way others have access, to things, places, transport, information and services that are open to the public. This requires that countries take appropriate measures to remove any obstacles and barriers that people with disability face in having access to these things. Countries should ensure that people with disability have equal access to buildings, roads, transport and public facilities like schools, housing, hospitals, clinics and workplaces, and also ensure that people with disability have equal access to information, communications and other services, including electronic services like the internet and emergency services, public services such as education and healthcare, public institutions such as the justice system and courts and other public activities such as voting and advocacy. Countries are also to take appropriate steps to set standards and guidelines for access to facilities and services that are open to the public, to make sure that private businesses that provide facilities or services to the public take into account access for people with disability, and to

provide training for people involved with access for people with disability.

Equal protection and equal benefit of the law

Similarly, article 12 commits countries to ensuring that people with disability can exercise legal capacity in all aspects of their life and receive appropriate support to do this if required.

Live, take part and be included in the community

“To ensure that people with disability have the same right as others to live, take part and be included in the community, article 19 of the CRPD requires countries to take appropriate steps to ensure that people with disability have the opportunity to choose where they live and who they live with, have access to in-home, residential and other community support services to help them be included in the community and prevent them from being isolated, and to ensure that they have equal access to community services and facilities that are available to the public.”[3;93]

Habilitation and rehabilitation

Countries are also to encourage ongoing training for staff working in habilitation (meaning the process of helping people with disability develop skills and fully take part in the community) and rehabilitation services and the use of assistive devices and technologies designed for people with disability in the context of habilitation and rehabilitation.

Women and children with disability

Countries are to take measures to ensure the full and equal enjoyment by women them of all rights and freedoms and to ensure the full development, advancement and empowerment of women. Countries are required to ensure that, in all actions concerning children with disability, the best interests of the child are a primary consideration, and to ensure that children with disability have the right to express their views freely on all matters affecting them, and to give their views due weight in accordance with their age and maturity.

Declaration on the Rights of Indigenous Peoples

The Declaration on the Rights of Indigenous Peoples contains provisions relevant to the rights of Indigenous people with disability. The Declaration does not create legally binding obligations, but informs the way governments engage with and protect the rights of Indigenous people.

Can the rights of people with disability be limited?

Appropriate measures

Some of the obligations in the CRPD require countries to take ‘appropriate’ measures, suggesting a degree of discretion in implementing the obligation. However, references to appropriate measures should not be understood as allowing limitations to the obligations. Rather, they allow countries the discretion to decide what form the measures should take. For instance, appropriate measures might involve the implementation of the obligation in legislation, but a measure falling short of legislation might be an appropriate measure, provided that the alternative measure faithfully implements the obligation.

As stated above, the obligation to provide ‘reasonable accommodation’ to allow people with disability to enjoy their rights on an equal basis with others does not extend to measures that impose disproportionate or undue burden.

Progressive realisation

In relation to economic, social and cultural rights, the CRPD provides in that ‘each State Party undertakes to take measures to the maximum of its available resources and, where needed, within the framework of international cooperation, with a view to achieving progressively the full realisation of (economic, social and cultural) rights’.

This formulation is drawn from that in the International Covenant on Economic Social and Cultural Rights (ICESCR), and allows countries to take into account available resources in determining how an obligation is to be implemented. Similarly, the reference to progressive realisation (also drawn from ICESCR) recognises the economic consequences for countries in implementing economic, social and cultural rights, and that these consequences will differ from country to country.

Which domestic laws relate to the rights of people with disability?

The Disability Discrimination Act is intended to eliminate, as far as possible, discrimination against people on the grounds of disability in a number of areas, including work, accommodation, education, access to premises and the provision of goods, facilities, services, the disposal of land, and the administration of Commonwealth laws and programs. The Act is also intended to ensure, as far as practicable, that people with disability have the same rights to equality before the law as the rest of the community.

Under the Disability Discrimination Act, the Attorney-General may make Disability Standards to specify rights and responsibilities about equal access and opportunity for people with disability, in more detail and with more certainty than the Act itself provides. The standards give more information about what needs to be done to ensure people with disability are not discriminated against. Standards may be made in relation

to matters such as work, accommodation, education, access to premises and the provision of goods and services. Standards have been made under the Act in relation to:

access to premises, which provide minimum national standards for accessibility requirements to ensure dignified access to, and use of, buildings for people with disability
 transport, which establish minimum accessibility requirements to be met by providers and operators of public transport conveyances, infrastructure and premises
 education, which set out the right to comparable access, services and facilities, and the right to participate in education and training without discrimination for students with disabilities.

There is also legislation in each state and territory which prohibits discrimination on the basis of disability.

The Disability Services Act is intended to assist people with disability to receive services necessary to enable them to work towards full participation as members of the community, to promote services provided to people with disability that assist them to integrate in the community and to assist people with disability to achieve positive outcomes, such as increased independence and employment opportunities.

Many of the provisions in the CRPD are drawn from other human rights instruments, notably civil and political rights from the ICCPR and economic, social and cultural rights from ICESCR. The content of these rights in those instruments would be relevant in interpreting their content under CRPD.

In the development and implementation of legislation and policies to implement the present Convention, and in other decision-making processes concerning issues relating to persons with disabilities, States Parties shall closely consult with and actively involve persons with disabilities, including children with disabilities, through their representative organizations.

States Parties recognize that all persons are equal before and under the law and are entitled without any discrimination to the equal protection and equal benefit of the law.

States Parties shall prohibit all discrimination on the basis of disability and guarantee to persons with disabilities equal and effective legal protection against discrimination on all grounds.

In order to promote equality and eliminate discrimination, States Parties shall take all appropriate steps to ensure that reasonable accommodation is provided.

Specific measures which are necessary to accelerate or achieve de facto equality of persons with disabilities shall not be considered discrimination under the terms of the present Convention.

To enable persons with disabilities to live independently and participate fully in all aspects of life, States Parties shall take appropriate measures to ensure to persons with disabilities access, on an equal basis with others, to the physical environment, to transportation, to information and communications, including information and communications technologies and systems, and to other facilities and services open or provided to the public, both in urban and in rural areas.

States Parties to this Convention recognize the equal right of all persons with disabilities to live in the community, with choices equal to others, and shall take effective and appropriate measures to facilitate full enjoyment by persons with disabilities of this right and their full inclusion and participation in the community.

States Parties shall take effective and appropriate measures, including through peer support, to enable persons with disabilities to attain and maintain maximum independence, full physical, mental, social and vocational ability, and full inclusion and participation in all aspects of life.

States Parties, in accordance with their system of organization, shall designate one or more focal points within government for matters relating to the implementation of the present Convention, and shall give due consideration to the establishment or designation of a coordination mechanism within government to facilitate related action in different sectors and at different levels.

States Parties shall, in accordance with their legal and administrative systems, maintain, strengthen, designate or establish within the State Party, a framework, including one or more independent mechanisms, as appropriate, to promote, protect and monitor implementation of the present Convention. When designating or establishing such a mechanism, States Parties shall take into account the principles relating to the status and functioning of national institutions for protection and promotion of human rights.

Civil society, in particular persons with disabilities and their representative organizations, shall be involved and participate fully in the monitoring process.

1. States Parties recognize the right of persons with disabilities to education. With a view to realizing this right without discrimination and on the basis of equal opportunity, States Parties shall ensure an inclusive education system at all levels and lifelong learning directed to:

a. The full development of human potential and sense of dignity and self-worth, and the strengthening of respect for human rights, fundamental freedoms and human diversity;

b. The development by persons with disabilities of their personality, talents and creativity, as well as their mental and physical abilities, to their fullest potential;

- c. Enabling persons with disabilities to participate effectively in a free society.
2. In realizing this right, States Parties shall ensure that:
 - a) Persons with disabilities are not excluded from the general education system on the basis of disability, and that children with disabilities are not excluded from free and compulsory primary education, or from secondary education, on the basis of disability;
 - b) Persons with disabilities can access an inclusive, quality and free primary education and secondary education on an equal basis with others in the communities in which they live;
 - c) Reasonable accommodation of the individual's requirements is provided;
 - d) Persons with disabilities receive the support required, within the general education system, to facilitate their effective education;
 - e) Effective individualized support measures are provided in environments that maximize academic and social development, consistent with the goal of full inclusion.
3. States Parties shall enable persons with disabilities to learn life and social development skills to facilitate their full and equal participation in education and as members of the community. To this end, States Parties shall take appropriate measures, including:
 - a) Facilitating the learning of Braille, alternative script, augmentative and alternative modes, means and formats of communication and orientation and mobility skills, and facilitating peer support and mentoring;
 - b) Facilitating the learning of sign language and the promotion of the linguistic identity of the deaf community;
 - c) Ensuring that the education of persons, and in particular children, who are blind, deaf or deafblind, is delivered in the most appropriate languages and modes and means of communication for the individual, and in environments which maximize academic and social development.
4. In order to help ensure the realization of this right, States Parties shall take appropriate measures to employ teachers, including teachers with disabilities, who are qualified in sign language and/or Braille, and to train professionals and staff who work at all levels of education. Such training shall incorporate disability awareness and the use of appropriate augmentative and alternative modes, means and formats of communication, educational techniques and materials to support persons with disabilities.
5. States Parties shall ensure that persons with disabilities are able to access general tertiary education, vocational training, adult education and lifelong learning without discrimination and on an equal basis with others. To this end, States Parties shall ensure that reasonable accommodation is provided to persons with disabilities.

Literature

Баринава, Е. Б. Теория и практика инклюзивного обучения в образовательных организациях : учебное пособие для вузов / Е. Б. Баринава. — Москва : Издательство Юрайт, 2023. — 97 с. — (Высшее образование). — ISBN 978-5-534-13878-8. — Текст : электронный // Образовательная платформа Юрайт [сайт]. — URL: <https://urait.ru/bcode/519666>.

Вишнякова, Ю. А. Социальный маркетинг. Инклюзивные формы : учебное пособие для вузов / Ю. А. Вишнякова. — Москва : Издательство Юрайт, 2023. — 140 с. — (Высшее образование). — ISBN 978-5-534-12509-2. — Текст : электронный // Образовательная платформа Юрайт [сайт]. — URL: <https://urait.ru/bcode/518902>

Richard Villa. The inclusive education. 2019.-108 pp.

АДАБИЙ ТАЪЛИМДА ЎҚУВ ТОПШИРИҚЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАСИ

Расулова Гулбаҳор Керимбаевна,

Тошкент Амалий фанлар университети доценти

Аннотация: мақолада адабий таълимни ривожлантириш масаласи, хусусан, ўқув топшириқларини такомиллаштириш, адабиёт ўқитишда савол ва топшириқлари мазмунини таҳлилий ўрганиш, асар моҳиятини очиб берувчи ўқув топшириқлар ишлаб чиқишнинг илмий-методик асосларини яратиш, ўқувчилар билимини баҳолаш мезонларини кўриб чиқиш бўйича муҳим тавсиялар, хулосалар баён қилинган.

Калит сўзлар: адабий таълим, таълим мазмуни, асар моҳияти, бадиий асар таҳлили, ўқув топшириқлари, савол, топшириқ, уй вазифаси, билим, кўникма ва малакалар

Адабиёт ўқитиш методикасида кейинги йилларда бир қатор инновацион ёндашув, педагогик технологиялар қўлланиб келинади. Аммо бу борада ҳали жиддий ўзгариш кўзга ташланмайди, яъни ўқувчилар бадиий асарлар мазмунига тўла кира олгани йўқ. Ҳатто айрим ўқитувчилар ҳам ўзи ўқитаётган бадиий асар моҳияти, ёзувчининг асарни ёзишдан мақсади нима эканлиги билмайди. Адабий таълимдаги муҳим муаммолар қаторида ўқув топшириқларини такомиллаштириш масаласи ҳам туради. Бу борада педагогик нуқтаи назарда мамлакатимиз олимлари илмий изланишлар олиб борган, бироқ методик жиҳатлари ҳали тўла ишланмаган. Шу ўринда, Х.Суюнов нинг адабиёт ўқитишда савол ва топшириқлар устида ишлашга ўргатиш усулларига доир тадқиқоти адабий таълимда муҳим аҳамиятга эга эканлигини таъкидлаш жоиз, аммо мазкур тадқиқотга ҳам сал кам йигирма йил бўляпти. Замонавий талаблар асосида адабиёт ўқитиш методикасини такомиллаштириш, прагматик ўқув топшириқлар тизимини ишлаб чиқиш зарурати мавжуд.

Педагог олим Э. Давронов ўз мақоласида психологик ва дидактика нуқтаи-назаридан “топшириқ” тушунчасининг моҳияти очиб берган, она тили ва адабиёт дарсларига нисбатан машқ ва топшириқнинг вазифалари ҳақида ҳам қисман тўхталган. Олим топшириққа ҳам мақсад, ҳам восита сифатида қарайди. Дидактик назарияда “топшириқ”, “тарбиявий топшириқ”, “интеллектуал”, “муаммо” атамалари билан, “машқ” “муस्ताқил иш” атамалари билан бирга қўлланилади. А.Н.Леонтиев топшириқ тушунчасини куйидагича тушунади: “Топшириқ – муайян шартларга асосланиб қўйилган мақсаддир”. У топшириқнинг ўзига хос хусусиятларини таърифлаш учун “эҳтиёж”, “мотив” ва “фаолият” атамаларидан фойдаланади. Й.А.Пономарев топшириқлар назариясида бир қатор тоифаларни яратди, хусусан, ўқув вазиятида субъект ва объектнинг ўзаро таъсирини, билимларни ўзлаштириш, уларни такомиллаштириш бўйича субъектнинг фаолиятини аниқлайди. О.Розиқов эса ўқув топшириқларини илмий-педагогик тадқиқотда ўқув материали билан боғлиқлиги нуқтаи назаридан таҳлил қилган. Унинг фикрига кўра, “ўқув топшириғи ўқув мақсадларига боғлиқ бўлган ўқув материалининг ўзгартирилган шаклидир”.

Шу ўринда ўқитиш эҳтиёжлари асосида куйидаги хусусиятлар таъкидланади: 1) қуриш (структуралаш) имконияти; 2) структурани қуриш ва қайта кўриб чиқиш; 3) ўқув материали шаклининг мавжудлиги; 4) ўқув жараёни босқичларининг мутаносиблиги; 5) бир вазифани бошқаларга алмаштириш имконияти; 6) очиқ тизим; 7) бир-бирини тўлдириш; 8) билимларни ўрганиш ва такомиллаштириш усуллари талабларга мослиги; 9) ўқитиш ва ўрганишга бўлган эҳтиёжларни қондириш учун шароит яратиш. Олим яна “Топшириқлар инсоният томонидан тўпланган тажрибани акс эттиради ва шу билан бирга моддий ва маънавий кадрларни янгилаш ва уларни янада бойитиш воситасига айланади”, деб таъкидлайди.

Шу ўринда методист-олим Ғ.Ҳамроевнинг ўқув топшириқларини вазифа ва мазмуни жиҳатидан фарқлаш ва таснифлаш назарияси ҳақида алоҳида тўхталиш лозим. Мазкур тадқиқот она тили таълимида ўқув топшириқлари ишлаб чиқишга доир бўлса-да бугун тобора интеграциялашиб бораётган таълим тизимида куйи синфлардан бошлаб она тили ва адабиёт фанларини қўшиб ўқитиш амалиёти кечаётган бир пайтда мазкур тадқиқот адабиёт ўқитиш методикаси учун ҳам аҳамиятлидир.

“Адабиёт чин маъноси ила ўлган, сўнган, ўчган ярадор кўнгилга руҳ бермак учун фақат вужудимизга эмас, қонларимизга қадар сингишган қора балчиқларни тозалайдирғон, ўткур юрак кирларини ювадурғон тоза маърифат суви, хиралашган ойналаримизни ёруғ ва равшан қиладурғон, чанг ва тупроқлар тўлган кўларимизни артиб тозалайдурғон булоқ суви”. Мазкур сифатлаш ва ўхшатишлар фақат адабиётга хос образли ифодалаш хусусиятларига ҳам тааллуқлидир. Адабиёт тимсоллар воситасида қачонлардир бўлиб ўтган ва содир бўлажак воқеа-ҳодисаларга бадиий тус бериш, ҳаётнинг инъикосини турфа ранг ва чизгиларда жонлантиришга хизмат қилади. Шу орқали ҳиссий таъсир кўрсатиш ва билим бериш имкониятларини ўзида мужассам этади.

Адабиётни маданиятнинг асосий соҳаларидан бири сифатида баҳолаш экан методист олим С. До-

лимов бунда асосий жиҳат халқнинг тарихий тараққиёти, ўзига хослигини бадиий образларда ифодалаш хусусияти эканлигини қайд этади: “Адабиёт биринчи навбатда одамларни ва уларнинг ҳаётини тасвирлайди, бу тасвир эса тарихий ҳақиқат ва тарихий воқеалар билан узвий боғланади”. Демак, тарбияланувчиларда адабий билимларни шакллантириш жараёни орқали инсон, унинг мураккаб ички дунёси ва руҳиятини чуқурроқ тадқиқ этиш, атроф-оламни билишларига кенг йўл очилади.

Адабиёт ўқитиш методикасига ҳам савол ва топшириқлар билан бирга машқ ўқув тоашириғини ҳам киритиш яхши самара беради.

Шу ўринда “машқ” ва “топшириқ” атамаларини моҳиятан фарқлаш масаласида методист М. Саидовнинг ёндашувига ҳам эътибор қаратиш лозим. Олим ўқув материаллари сирасида ўқув топшириқларини уч турга бўлиб, уларни ўзаро фарқлайди ва, кўпинча, ўқитувчилар ўз иш фаолиятлари давомида “машқ”, “топшириқ” ва “масала” тушунчаларини қориштириб юборишларини таъкидлайди. Олим педагогика фанлари доктори А. Ғуломовнинг “машқ ҳам ўқув топшириғининг бир шакли, ҳам ўқитишнинг муайян бир усули,” деган фикрига қўшилади ва топшириқ машқнинг бир бўлаги, у, асосан, машқнинг шартда ўз ифодасини топишини, топшириқ машққа қараганда торроқ тушунчани ифодалашини эътироф этади.

Маълумки, тил дарсликларига, асосан, “машқ”, “савол” ва “топшириқ” атамалари табиий ва аниқ фанларда масала атамаси қўлланилади. Уларнинг барчаси ўқув топшириқлари сирасига кирувчи иш тури бўлиб, мазкур атама айрим тадқиқотларда ўқув-билув топшириқлари деб ҳам талқин қилинади.

Юқорида таъкидлаганимиз каби тил таълимнинг асосий мақсад вазифаси ўқув топшириқларининг мазмун-моҳияти ва вазифавий фарқланишидан келиб чиқади. Шу боис тадқиқот ишимизда “машқ”, “савол”, “топшириқ” атамалари мазмуни ва қўлланиши жиҳатидан алоҳида тўхталиб ўтишни маъқул топдик. Бизнингча, бу ўринда энг кенг қамровлиси “топшириқ” бўлиб, дарслик ва қўлланмаларда у савол ва машқни ўз ичига олади.

Миллий қадриятлар, жумладан, асар мазмунини мукамал билмасдан муваффақиятга эришиб бўлмайди. Шунинг учун ҳам адабиёт ўқитиш методикасида нимани, қандай ўқитиш масаласи антик даврдан то бугунги кунга қадар муаммо бўлиб келган. Бу табиий ҳол, албатта, тараққиёт методикага боғлиқ бўлганлиги боис, замон ўз талабини қўяди, методика мазкур буюртмани бажаради. Шунинг учун ҳам нимани қандай ўқитиш масаласи доимий долзарбликка эгадир. Бу борада ўқув топшириқлари масаласининг “Адабиёт” дарсликлари мазмунида берилиши, уларда ўқув топшириқларининг вазифа жиҳатидан фарқланиши, ўқув топшириқларига муносабат таҳлилий ўрганилиши мақсадга мувофиқдир.

Амалдаги адабиёт таълимида фаннинг асосий ўқув материали – назарий маълумотлар, бадиий асар, муаллиф ва унинг ижоди ҳақида маълумот ва уларни ўзлаштириш ҳамда мустаҳкамлаш учун берилган ўқув топшириқлар ҳисобланади. Аслида бу эскича ёндашув бўлиб, бугунги замонавий таълим – матн устида ишлашга асосланиши керак.

Адабиёт ўқитишда тарбиянинг негизи бўлмиш ўзликни англаш масаласи борлиги ҳам шунчаки тасодифий эмас. Методист С. Матчонов аждодларимиз асрлар давомида интилиб келган маънавий етукликни ўзликни англаш жараёни билан ёнма-ён кўрар экан, бу борада адабий таълимнинг ўрнини мустаҳкамлайди. Ўз-ўзини англаш бошқаларни англашга, шу орқали дунёни ва унинг сир-синоаталарини тушунишга йўл очишини қайд этади. Профессор К. Йўлдошевнинг қарашларида ҳам юқоридagi фикрларга ҳамоҳанглик кузатилади. Олим айнан адабиётгина ҳар қандай одам учун ўзини таниш воситаси эканлиги, ўзини таниш эса, ўзгани тушунишдан бошланиши, ўзгани тушуниш машқи бадиий асарлардаги қаҳрамонларни ҳис этишдан ибтидо олишига эътиборини қаратади.

“Инсон ёшлигидан ўзлигини билса, – дейди профессор А. Чориев, – аввало, ўз қудратини ишга солади ва қолаверса, ташқи ғаразли таъсирлардан сақланишга тайёрланади. Аммо бугунги кунда инсоншунослик фанлари ва санъат, жумладан, адабиёт ўртасидаги ана шу ўзаро таъсир етарли эмас. Бадиий адабиёт, адабиётшуносликда ҳам инсонпарварлик йўналишидан кўра адабий танқид устун туради. Зеро, педагогика билан бадиий адабиётдаги умумийлик банди ҳам инсоншуносликдир”. Дарҳақиқат, бадиий адабиётнинг тасвир объектида, асосан, инсонга хос мураккаб ички кечинмалар етакчи ўринда тургани боис унда ҳис-туйғуларга таъсир кўрсатиш имконияти катта. Шу жиҳатдан шахс камолоти масаласи, асосан, бадиий адабиёт ва уни ўқитиш билан боғлиқ фанлар мазмунида ўз ифодасини топиши бежиз эмас.

Н. Убайдуллаев тўғри таъкидлаганидек, амалдаги дарсликларда берилган материаллар бир тусда, рақам ва саналардан иборат тарзда берилиши натижасида ўқувчиларни қизиқтирмайди, ижодкорлар шахсияти ҳаётини қилиб берилмагани сабаб болалар уларга ўртак бўладиган сиймолар сифатида қарай олмайди.

Ўқувчини юқори савияда тайёрлаш назарий билимларни ўзлаштириш, бадиий асарни таҳлил ва талқин қилиш амалиётида улар билан ишлаш кўникмаларини шакллантириш, муаллиф ва бадиий

асарни тушуниш қобилиятини ўз ичига олиши керак. Бу борада профессор Қ.Йўлдошев ўринли қайд этганидек, “Эндиликда адабиёт назарияси бўйича бериладиган билимлар ҳам ўқувчилар тафаккурини синаш ва уни қийнаш воситаси эмас, балки бадиий асарни ўқиш ва таҳлил этишга қўмак берадиган маълумотлар тарзида қараладиган бўлди”.

Ўқув жараёнини фанлараро алоқадорликдан фойдаланиб ташкил этишда тадқиқотчи Г.Карлибаева томонидан учта муҳим босқич алоҳида ажратиб кўрсатилади. Шартли равишда ёдга солувчи деб номланувчи илк босқичда ўқувчиларга табиий-илмий фанлардан олган билимларини қўллаш ўргатилади. Бу, асосан, бошланғич таълимда хусусий ва турдош фанларга оид тушунчаларни ўзлаштириш билан боғлиқ ҳолда кечса, кейинчалик таянч синфларда ҳам анча юқори даражадаги билимларни қўллашга замин яратади. Дастлабки босқичда тушунтириш орқали ўқувчилардан турдош фанга доир билимларни ёдга тушириш талаб этилса, навбатдагисида билимларни бошқасига ўткази олиш ва мустақил қўллашга эътибор қаратилади. Шунинг учун иккинчи босқичга билимларни қўллаш босқичи сифатида қаралади. Мақсадга боғлиқ ҳолда умумлаштирувчи – учинчи босқич бевосита оламнинг яхлитлигини тасаввур этишга доир тушунча, далил, қонун ва назарияларни қўллаш, турли фанлардан ўзлаштирилган ҳодисаларни тушунтиришда диалектиканинг асосий қонунларидан фойдаланишни ўргатиш мақсадига қаратилган.

Бизнингча, бу жиҳатлар ўқитувчилар ишини тартибга солиш, тизимлаштириш, ўқувчиларнинг турли фанлардан олган билимларини қўллаш ва қийинлаш қўникмасини баҳолашга замин яратади.

Адабий таълим вазифаси ўқувчининг бадиий асар ғоявий мазмунини тушуниши ва ўзлаштиришига эришиш билан чегараланмайди, балки шу орқали уларни мустақил ва образли фикрлайдиган, маънавий жиҳатдан баркамол кишилар қилиб тарбиялашни ҳам назарда тутилади. Чунки маданиятли бўлишнинг битта муҳим воситаси бор – ўқиш. Унинг ўрнини ҳеч нарса боса олмайди. Ўқиб ўрганмасдан туриб ахлоқий-эстетик камолот ҳақида сўз бўлиши мумкин эмас. Аслида ҳар қандай асар устида ишлаш, уни ўрганиш асосида ўша асарнинг ғоявий мазмуни билан ўқувчи маънавий-руҳий эҳтиёжи ўртасида ички боғлиқлик ва мутаносиблик туради.

Фойдаланилган адабиётлар:

Суёнов Х. Адабиёт дарсларида ўқувчиларни савол ва топшириқлар устида ишлашга ўргатиш усуллари. Пед. фан. ном. дисс.-я. –Т., 2005. –125 б.

Давронов, И. Э. Некоторые аспекты интерпретации понятий «задание» и «упражнение» / И. Э. Давронов. Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2012. – № 8 (43). – С. 323–326.

Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: Педагогика, 1972. – 576 с.

Розысков О.Р. Теоретические основы оптимального применения системы учебных задач в обучении школьников (на материалах гуманитарных предметов). Автореферат дисс...док. пед. наук. – Тбилиси, – 1986. – 50 с

Ўша жойда.

Розиков О.Р. ва бошқалар. Дидактика. – Т.: Фан, 1997. – 256 б.

Hamroyev G'. Ona tilidan o'quv topshiriqlari tuzish metodikasi –Toshkent. Donishman ziyosi, 2021. 157 b.

Чўлпон. Адабиёт надир? – Тошкент: Чўлпон нашриёти, 1994. – 37-б.

Долимов С., Убайдуллаев Х., Аҳмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – 225-б.

Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: пед. фан. ном-ди дисс. автореф.ТДПУ. –Тошкент, 2000. – 25 б.

Қўчқорова, Мухитдинова

Хамроев Ф. Она тили ўқитишнинг самарали усуллари. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. –Т.: Баёз. 2018. 18-б.

Матжон С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 27-б.

Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг асослари / Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, ToshDO‘TAU, 2018. – В. 36.

Чориев А., Чориев И. Педагогиканинг методологик асоси ва илмий тадқиқот методлари. – Тошкент: Nishon noshir, 2016. – 45-б.

Убайдуллаев Н.Х. Ўқув таҳлилида автобиографик битиклардан фойдаланиш. Пед. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... автореф. – Жиззах, 2022. – 23-б.

Йўлдошев Қ.Б. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 77-б.

Карлибаева Г. Ўқитувчи – таълимни фанлараро алоқадорликда ташкил этишнинг етакчиси сифатида // Халқ таълими. – Тошкент, 2010. – № 2. – Б. 46-47.

“BOSHLANG‘ICH SINFLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANINI O‘QITISHDA SMART-AUDITORIYADAN FOYDALANIB O‘QUV MASHG‘ULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Rashidov Anvarjon Sharipovich

Buxoro davlat pedagogika instituti “Aniq fanlar” kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Mazkur ishda ta'lim tizimida Smart-auditoriyadan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirish haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'quv mashg'ulotlari jarayonida talabalarni bilimlarini baholashning zamonaviy uslublarini joriy qilish, shu jumladan raqamli o'quv vositalari va masofaviy ta'lim shaklini keng qo'llash, shuningdek, ta'lim jarayonini umumiy kasb mahoratini shakllantirishga yo'naltirilgan fanlararo modullardan foydalangan holda tashkil etilgan.

Kalit so'zlar: AKT, e-learning tizimi, Smart ta'lim, Smart doska, Smart-minbar

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЗАНЯТИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ SMART AUDITOR В ОБУЧЕНИИ «ИНФОРМАЦИОННЫМИ ТЕХНОЛОГИИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ»

Анваржон Шарипович Рашидов

доцент Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: В данной работе представлена информация о том, как повысить эффективность обучения в системе образования с помощью Smart-аудиторий. Внедрение современных методов оценки знаний обучающихся в образовательный процесс, в том числе широкое использование цифровых средств обучения и дистанционного обучения, а также междисциплинарных модулей, направленных на формирование общепрофессиональных навыков в образовательном процессе, установленных с использованием.

Ключевые слова: ИКТ, система электронного обучения, Smart Education, Smart Board, платформа Smart

INCREASING THE EFFECTIVENESS OF EDUCATIONAL CLASSES USING SMART AUDIENCE IN TEACHING “INFORMATION TECHNOLOGY IN PRIMARY CLASSES”

Anvarjon Sharipovich Rashidov

Associate professor of Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation: This paper provides information on how to increase the effectiveness of training in the education system using Smart Classrooms. Introduction of modern methods of assessing students' knowledge in the educational process, including the widespread use of digital teaching aids and distance learning, as well as interdisciplinary modules aimed at the formation of general professional skills in the educational process established using.

Keywords: ICT, e-learning system, Smart Education, Smart Board, Smart platform

XXI asrda axborot davrining kirib kelishi haqida so'z borganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), ularni real o'quv jarayoniga qo'llash, zamonaviy axborot infrastrukturasini yaratish, mutlaq yangi multimedia o'quv dasturlarini yaratish va ta'limga tatbiq etish bosqichlari asta-sekin nihoyasiga yetib bormoqda.

Yosh avlodni o'qitish jarayonida tabiiy bir savol paydo bo'ladi: oliy ta'lim muassasalarida talabalarni orttirilgan bilim va tajribalarni qanday baholash mumkin, keyingi qo'yiladigan qadam qanday bo'lmog'i kerak?!

Masalan, Oliy ta'lim muassasalarida an'anaviy o'quv jarayonlarining AKT qo'llash bilan bog'liq muammolari, jumladan: dunyo internet tarmoqlarida tobora taraqqiy etib borayotgan turli ko'rinishdagi noformal ta'lim birlashmalari, «real» ta'lim maskanlarini «virtual» lari bilan almashinuvi, masofaviy ta'lim va boshqalar [1-3].

Keyingi yillarda AKT rivojlanishining zamonaviy bosqichida nafaqat klassik ta'lim texnologiyalari, balki elektron ta'lim (e-learning) ham qanoatlantira olmaydigan ehtiyojlar kuzatiladi. Ayni vaqtda e-learning tizimidan Smart (ingl. — aqlli, mushohadali, harakatchan) e-learning hamda Smart Education (aqlli ta'lim) ga o'tish jarayoni bormoqda. Bu konsepsiya ta'lim sohasining barcha jarayonlarini, shuningdek, bu jarayonda qo'llaniluvchi barcha usul va texnologiyalarni kompleks modernizatsiyasini mujassamlashtiradi. Smart konsepsiyasi ta'lim kesimida o'zi bilan birga, «aqlli doska», «aqlli ekran», ixtiyoriy nuqtadan Internetga chiqish kabi texnologiyalarni shakllantiradi. Ushbu texnologiyalarning har biri kontentni ishlab chiqish jarayonini yangidan qurish, yetkazib berish va aktualashtirish imkonini beradi. Natijada ta'lim olishni

nafaqat sinfda, balki uyda, ish joyida, jamoat joylarida, dam olish joylarida ham amalga oshirish mumkin bo'ladi. Bunda ta'lim jarayonini baholovchi aso'siy element sifatida faol ta'lim beruvchi kontent maydonga chiqadi. Uning asosida vaqt va fazo tushunchalari to'sig'idan holi qiluvchi yagona repozitor yaratiladi.

Shunday qilib, smart ta'lim konsepsiyasi — mavjud manbalarga tez mosla-shuvchanlik, multimedaning maksimal xilma-xilligi, tinglovchi-ning saviyasi va talabi darajasiga tezkorlikda moslashuvchanlikdan iborat [4-9]. Kompetentlikning uzluksiz rivojlanishi, bilimlarni doimiy o'sishi va yangilanib borishi zamonaviy ta'lim tizimidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Sababi bilimni rivojlantirish uchun endi inson kapitalining ta'siri kamlik qila boshlaydi. Bu kabi masalalarni hal qilishda nafaqat ta'lim muhitining o'zini, balki ta'lim tizimining tarkibi, instrumentlari, usullari tubdan o'zgartirilishi shart. Analitik kompetensiyalar, kompleks muammolarni yechish mahorati, yangi g'oyalarni rivojlantiruvchi — innovatsion xususiyatlar, o'zaro kommunikatsiya madaniyati kabi bilimlarni takomillashtirish zarur. Chunki an'anaviy ta'lim parametrlari asosida bilim berish insonlarni Smart — jamiyat uchun tayyorlamaydi. O'z navbatida, Smart — texnologiyasiz, innovatsion faoliyat yuritib bo'lmaydi. Agar ta'lim shu yo'nalishda ortda qolsa, u tormozlanib, qotib qoladi [4-9].

Oliy ta'lim muassasalarda hozirgi kunda, o'quv darslarida, multimedia vositalaridan foydalangan holda, Microsoft Power Point yoki Macromedia Flash dasturiy paketlarida tayyorlangan taqdimotlarni qo'llash odatiy holga aylanib bormoqda, biroq shu bilan birga, ta'lim sohasiga shunday interfaol texnologiyalar kirib kelmoqdaki, ular slayd-shou turkumidagi taqdimotlarni siqib chiqarmoqda. Axborotlarni talabalarga yangi interfaol uskunalari (interfaol doska — Smart Boards, interaktiv displey — Sympodium) yordamida uzatish, ma'ruzachiga dars jarayonining o'zida taqdimotlar yaratish imkonini beradi. Interfaol Smart Boards taxtalariga maxsus markerlar yordamida yozish, o'quv materiallarini namoyish etish, ekrandagi tasvir ustidan yozma sharh-lar berish mumkin. Shu bilan birga, interfaol Smart Board taxtasiga yozilgan ma'lumotlarni magnit tashuvchilarda saqlanib qolib, ularni bosib chiqarish, darsga kelmagan talabaning elektron pochtasiga yuborish amalga oshiriladi. Ma'ruza davomida Smart Board taxtasida yaratilgan o'quv materialini esa, o'rnatilgan videokoderga yozib olib, ko'p marta qayta qo'llanishi mumkin.

Rivojlanib borayotgan bugungi kunda interfaol smart taxtalar imkoniyatlaridan maksimal foydalanish uchun maxsus dasturiy ta'minotlar (Smart Notebook, Bridgit, Synhron Eyes) ishlab chiqilgan. Mazkur dasturiy ta'minotlar har birining o'z imkoniyatlari mavjud. Masalan, Smart Notebook matnlar va obyektlar bilan ishlaydi, axborotlarni saqlaydi, yozma harflarni bosma harflarga aylantiradi. Bridgit dasturi taqdimotlarni tez va osonlik bilan butun dunyoning turli nuqtalaridagi hamkorlarga tarqatadi, o'z hujjatlariga taqrizlar oladi. Buni amalga oshirish uchun o'qituvchi chiqishidagi muhim pozitsiyalarini umumiy «ishchi stol»da ajratib ko'satishi bilan shu onning o'zidayoq, dastur real vaqtda, barcha konferensiya ishtirokchilari oynasida paydo bo'ladi. Synhron Eyes (sinxron ko'z) dasturiy paket yordamida o'qituvchi barcha talabalarni kuzatib turishi, talabalar ishchi monitorlarini ekranga chiqarishi, blokirovka qilishi, interfaol taxta yordamida o'quv materiallarini, darsliklarni, testlarni yuborishi va jarayonni nazorat qilishi mumkin.

Shunday qilib, zamonaviy Smart ta'limning o'z oldiga qo'ygan ikkita asosiy maqsadi mavjud bo'lib, ular:

1. Talabalarda bilim olish uchun zarur bo'lgan barqaror motivatsiyani yaratish.
2. Ijodiy yechimlar yordamida bilim o'zlash-tirish-ning yangi shakli va instrumentlarini izlab topishdan iborat.

Buxoro davlat pedagogika institutining 60110500-Boshlang'ich ta'lim ta'lim yo'nalishi talabalariga "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" fanidan "Boshlang'ich ta'lim sohasida elektron jadvaldan foydalanish texnologiyalari" mavzusiga to'xtalib o'tamiz. Mavzuning ma'ruzasini talabalar uchun taqdim etiladi. Mavzuni mustahkamlash qismida esa misollardan namunalar keltirilgan slaydlarni ko'rsatilgan holda, talabalar ko'nikmasini shakllantiriladi.

1-mashq. Guruhni o'tgan jarayonda beshta fandan 100 ballik tizimda baholaganda ularning o'zlashtirish ko'rsatkichini tahlil qiluvchi jadval yaratish.

Bajarish: Ushbu topshiriqni bajarish algoritmi quyidagicha:

- B ustunga sinf talabalarining familiyasi va ismi kiritiladi;
 - C ustunga Ona tili-o'qish savodxonligi fanidan olgan ballari kiritiladi;
 - D ustunga Matematika va uni o'qitish metodikasi fanidan olgan ballari kiritiladi;
 - E ustunga Inklyuziv ta'lim fanidan olgan ballari kiritiladi;
 - F ustunga Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi fanidan olgan ballari kiritiladi;
 - G ustunga Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi fanidan olgan ballari kiritiladi;
 - H ustunga olgan ballarning yig'indisi hisoblanadi;
 - I3 va I17 kataklarga quyidagi formula kiritiladi:
=ЕСЛИ(C17<60;>>qoniqarsiz»;ЕСЛИ(C17<60;>>qoniqarli»;ЕСЛИ(C17<70;>> yaxshi»;»a'lo»)))
- t/rFanlar

t/r	Fanlar							
	Ism-sharifi	Ona tili-o'qish savodxonligi	Matematika va uni o'qitish metodikasi	Inklyuziv ta'lim	Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi	Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi	Jami	Tahil
1	Boboyeva G	90	86	90	90	90	446	a'lo
2	Choriyeva G	90	90	92	92	88	452	a'lo
3	Doniyorova D	60	65	66	65	60	316	qoniqarli
4	G'afforova G	75	84	82	72	74	387	yaxshi
5	Hayitova I	65	66	65	72	70	338	qoniqarli
6	O'tkirova S	92	90	90	92	94	458	a'lo
7	Ramazonova Sh	60	55	40	40	50	245	qoniqarsiz
8	Shoyimova L	60	60	65	65	63	313	qoniqarli
9	To'rayeva N	60	50	44	60	40	254	qoniqarsiz
10	Yunusova G	75	80	80	86	82	403	yaxshi

Undan so'ng Smart–minbar yordamida mavzu yuzasidan tayyorlangan savol va topshiriqlar talabalar hukmiga havola qilinadi.

- Excel dasturning diagrammalar haqida nima bilasiz ?
- C ustunda talabalarning familiyasi, ismi, otasining ismi berilgan. D ustunda talabalarning tug'ilgan yili berilgan. Ularni E ustunga birlashtiring.
- Excel dasturning «Диаграммы» yordamchisi haqida nima bilasiz?
- Savdo marketida sotuvchilarga quyidagicha shart qo'yilgan:
 - sotuvchi eng kam ish haqining 5 barobari miqdorida savdo qilsa 5% ustamaga ega bo'ladi;
 - sotuvchi eng kam ish haqining 10 barobari miqdorida savdo qilsa 7,5% ustamaga ega bo'ladi;
 - sotuvchi eng kam ish haqining 20 barobari miqdorida qilsa 10% ustamaga ega bo'ladi;
 - sotuvchi eng kam ish haqining 20 barobaridan ortiq savdo qilsa 12% ustama ega bo'ladi.

Ushbu topshiriqni mantiqiy hisoblash jadvalini hosil qiling?

- Excel dasturning «Сервис» menyusi haqida nima bilasiz ?

Dars yakunida mavzu yuzasidan savol javobda faol qatnashgan talabalar rag'batlantiriladi.

Interfaol taxtalar bilan ishlash jarayonida barcha ishtirok-chilarning diqqati konsentratsiyalanadi va ular o'quv materiallarini juda tez o'zlashtirishni boshlaydilar. Buning natijasida har bir ishtirokchining o'zlashtirish ko'rsatkichi oshib boradi. Yangi ta'lim texnologiyasini ta'limga joriy etilishi o'zi bilan birga, ta'lim sxemasini reproduktiv shakldan kreativ shaklga o'tishini ta'minlaydi.

Umuman olganda Smart ta'lim — bu ta'lim muassasalari hamda professor-o'qituvchilar tarkibining umumiy standartlar, kelishuvlar va texnologiyalar asosida yagona internet tarmog'i orqali ta'limni amalga oshiruvchi birlashmasidir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tsak, ta'lim tizimida AKTni qo'llash, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samara beradi. Shunig uchun bu boradagi nazariy, uslubiy va boshqa jihatlarni davr talablari asosida takomillashtirilishi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarga mo'ljallangan ko'nikmaga asoslangan yondashuvni rivojlantirishga, o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, bu ularga ta'lim maskanlarida malakali, professional shaxsga aylanish imkonini beradi. Kelajakdagi orzularimiz esa, AKT imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda, ta'lim

berish sifatini yanada takomillashtirishdan iborat. Axborotlashgan jamiyatni rivojlantirish bosqichlarida oliy ta'lim muassasalarining eng asosiy vazifalaridan biri talabalarni zamonaviy taraqqiyot g'oyalaridan umumli va maqsadli foydalanish madaniyatini shakllantirishdan iborat.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- N.Muslimov, D.Sayfurov, M.Usmonboeva va A.To'raevlar. Web-texnologiya asosida elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish. – T., 2015
- A. A. Abduqodirov va boshqalar. Axborot texnologiyalari. - T., 2002.
- A. A. Abduqodirov, A. X. Pardaev. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti.- T.: Fan, 2009.
4. T.H.Rasulov, A.Sh.Rashidov. The usage of foreign experience in effective organization of teaching activities in Mathematics. International journal of scientific & technology research. 9 (2020), № 4, pp. 3068-3071.
5. A.Sh.Rashidov. Development of creative and working with information competences of students in mathematics. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8:3 (2020), Part II, pp. 10-15.
6. T.H.Rasulov, Z.D.Rasulova. Organizing educational activities based on interactive methods on mathematics subject. Journal of Global Research in Mathematical Archives, (2019), № 10, pp. 43-45
7. X.P.Расулов, А.Ш.Рашидов. Организация практического занятия на основе инновационных технологий на уроках математики. Наука, техника и образование 2020. № 8 (72). с.29-32
8. А.Ш.Рашидов. Масофавий таълим моделлари ва уларни такомиллаштириш истиқболларини эксперт баҳолаш усули орқали аниқлаш // Педагогик маҳорат– Бухоро, 2020. - №2. – 163-171 б.
9. А.Ш.Рашидов. Замонавий таълим ва инновацион технологиялар соҳасидаги илғор тажрибалар // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2020 - №10. – 83-86 б.

МАХАЛЛАЛАРДА ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ АСОСИДА АҲОЛИ ТУРМУШ ТАРЗИНИНГ ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛАШТИРИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ

Рашидов Хуршид Каримович

Навоий давлат кончилиқ ва технологиялар университети “Ижтимоий-гуманитар ва жисмоний тарбия” кафедраси доценти в.б., (PhD)

Аннотация. Ушбу мақолада жисмоний тарбиянинг муҳим вазифалари, маҳаллаларда жисмоний тарбия маданиятини шакллантириш асосида аҳоли турмуш тарзининг иқтисодий барқарорлаштиришнинг ўрни ва аҳамияти таҳлил қилинган ва асосланган. Шунингдек, маҳаллаларда истиқомат қилувчи 100 та оила мисолида жисмоний тарбиянинг оила иқтисодий барқарорлигига таъсири тўғрисида ижтимоий сўровномалар ташкил қилиниб натижалари таҳлил қилинган ва хулосалар келтирилган.

Аннотация. В данной статье анализируется и обосновывается роль и значение экономической стабилизации образа жизни населения исходя из важных задач физического воспитания, формирования культуры физического воспитания в махаллах. Также на примере 100 семей, проживающих по соседству, были проанализированы результаты социальных опросов о влиянии физического воспитания на экономическую стабильность семьи и сделаны выводы.

Annotation. This article analyzes and substantiates the role and importance of economic stabilization of the lifestyle of the population based on the important tasks of physical education, the formation of a culture of physical education in makhallas. Also, using the example of 100 families living in the neighborhood, the results of social surveys on the impact of physical education on the economic stability of the family were analyzed and conclusions were drawn.

Калит сўзлар. Жисмоний тарбия, жисмоний маданият, маҳалла, оила тарбияси, оилавий муносабатлар, валеологик тарбия, жисмоний ва ақлий фаолият.

Ключевые слова. Физическое воспитание, физическая культура, махалля, семейное воспитание, семейные отношения, валеологическое воспитание, физическая и умственная активность.

Keywords. Physical education, physical culture, makhallya, family education, family relations, valeological education, physical and mental activity.

Кириш. Ўзбекистон демократик жамиятида халқнинг маориф соҳасидаги талаби ва давлатнинг маориф соҳасидаги сийёсати ўртасида ҳеч қандай зиддият йўқ. Уларнинг ҳар иккаласи ҳам бир мақсадни назарда тутди ва шу мақсадни амалга ошириш жараёнида такомиллашади. Жисмоний тарбия ҳақида гапиришдан олдин, “Педагогика” фанига бир оз тўхталиб ўтсак. Ўзбекистонда ёш авлодни комил инсон қилиб тарбиялаш, маълумотли қилиш, ўқитишнинг прогрессив педагогика меросидан танқидий ва ижобий фойдаланади. Педагогика “педагогос”-грекча “бола” ва “етаклаш” маъносини англатади. Яъни, қадимги Юнонистонда кулдорнинг фарзандини мактабга олиб бориш ва олиб келиш, ҳамда унга кўз-қулоқ бўлиб туриш вазифаси юклатилган кишиларни шундай деб аташган. Кейинчалик эса, умуман бола тарбияси билан шуғулланувчи кишиларни педагог, педаном, педпатрит, профессор, магистр ва бакалавр деб айтиш расм бўлиб қолди.

Умуминсоний тарбиянинг таркибий қисмлари ва улар ўртасидаги боғланиш инсоний тарбиянинг умумий жараёни ёки жисмоний-ахлоқий тарбияни, политехник, меҳнат, касб танлаш, маънавий-ахлоқий, эстетик, ҳуқуқий, байналминал, иқтисодий, миллий ифтихор ҳамда экологик тарбияларини ўз ичига олади. Тарбиянинг бу ҳамма таркибий қисмлари шахсни бир мақсадни кўзлаб таркиб топтиришдан иборат жонли жараёнда ўзаро боғланган бўлиб, бир-бирига чамбарчас қўшилиб кетади.

Ақлий тарбия. Ақлий тарбия умуминсоний тарбиянинг таркибий қисми бўлиб, кишилиқ жамиятида тарбия соҳасида етакчидир. Ақлий тарбиянинг мазмуни ёш авлодда илмий дунёқарашни таркиб топтириш, юксак онглик хислатини тарбиялаш ва мустаҳкамлаш, фан асосларидан хабардор қилиш, абстракт тафаккур ва нутқ қобилиятларини ўстиришдан иборатдир.

Политехник таълим-тарбия. Политехник таълим ҳам комил инсон тарбиясининг асосий ва таркибий қисмидир. Политехник таълим янги жамият кишилари қобилиятларини тарақий эттириш билан бирга ақлий меҳнат билан жисмоний меҳнат ўртасидаги муҳим тафовутларни аста - секин йўқотиш учун хизмат қилади.

Маънавий-ахлоқий тарбия. Ўқувчиларни маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш ҳам комил инсон тарбиясининг таркибий қисми бўлиб, маънавий теранлик, ақлий покликни ўз-ўзига, бошқаларга, ишлаб чиқаришга, жамиятга нисбатан бўлган муносабатларида намоён бўладиган хулқ-атвор нормасидир.

Эстетик тарбия. Эстетик тарбия умуминсоний тарбиянинг таркибий қисмларидан бўлиб, у гўзалликни хис қилиш ва гўзалликни тушуниб етишни тарбиялашдир. Бу эса ўқувчиларни буюмлар оламида ва инсоний муносабатларда гўзалликни хис этиш, тушуниш, гўзалликлар яратиш соҳасидаги фаолиятини янада кенг қўллашни ташкил этишдан иборатдир.

Жисмоний тарбия. Умуминсоний тарбиянинг асосий таркибий қисмларидан яна бири- жисмоний тарбия

бўлиб, у Ўзбекистон ёшларини жисмоний жиҳатдан нормал ўстиришни ўз олдига мақсад қилиб қўяди. Жисмоний тарбия- бола ва ўсмир организмнинг нормал ўсиши ва ривожланиши ҳақида, уларнинг соғлиги тўғрисида ғамхўрлик қилишдир. Жисмоний тарбиянинг вазифаси қуйидагилардан иборатдир;

болалар соғлигини доимо кузатиб туриш, назорат қилиш, ҳар бир боланинг жисмоний ривожланишини таъминлаш;

болалар толиқишининг олдини олиш, ўқувчиларнинг иш қобилиятларини оширишга ёрдам берувчи шароит яратиш;

ўқувчиларга шахсий ва ижтимоий гигиена малакаларини сингдириш;

муайян ёш учун белгиланган нормаларга мувофиқ ўқувчи - ёшларни меҳнатга ва она

ватан мудофаасига тайёрлашни таъминлаш;

ритм туйғусини, характерларининг ифодали бўлишини ривожлантириш ва уларга эстетик баҳо бериш туйғусини ўстириш;

гимнастика ва спортга оид назарий билимлардан хабардор қилиш, ҳамда гимнастика ва спорт билан доимо мустақил шуғулланиш малакаларини шакллантириш;


ёшларни спортнинг турли соҳаларини чуқур эгаллаб шахар, туман, вилоят ва дунё миқёсидаги мусобақаларда иштирок этиб, ғолибликни қўлга киритиб, жаҳон халқлари олдида мустақил Республикамиз байроғини баланд кўтаришга даъват этиш ва ҳоказо.

Бизнинг мустақил демократик республикамызда амалга оширилаётган педагогика фани ёш авлодни комил инсон қилиб тарбиялашнинг умумий қонуниятлари, ўқитишнинг моҳияти, ҳамда унинг принципларини ўрганадиган фандир. Демак, Педагогиканинг асосий бир қисми бу жисмоний маданият ёки жисмоний тарбия ҳисобланади. Бола етаклаш уйдан яъни оиладан бошланишини назарда тутсак, оиладан жисмоний тарбия ва унинг маданияти шакллана борида.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Мавзу юзасидан бир қанча адабиётлар таҳлил қилинди ва ўрганилди. Дастлаб, Ўзбекистон республикаси “Таълим тўғрисидаги” қонуни ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” ўрганилди ва уларда оила ва ундаги тарбиянинг аҳамиятли жиҳатлари таҳлил қилинди. Бундан ташқари А.К. Мунавваровнинг “Педагогика” дарслиги ўрганилди ва ундаги илмий жиҳатларга юқори эътибор қаратилди. О.Мусурманова ва Г.Д. Баубекованинг “Ўзбек халқ педагогикаси” номли китобида ўзбек менталитетига хос бўлган педагогик назария мавжудлиги таҳлил қилинди ва ўрганилди.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқотимиз давомида педагогик ва морфологик кузатув, аналитик ва қиёсий таҳлил усулларида фойдаланилди. Таҳлиллар давомида Навоий вилояти Навоий шаҳридаги “Мустақиллик” маҳалласига қарашли 100 нафар хонадон аъзоларининг жисмоний тарбияга ва соғлом турмуш тарзига бўлган қизиқишлари шу кузатувлар давомида ошди. Демак, тадқиқотимиз оз бўлсада ўз самарасини бера бошлаганидан хулоса яасак бўлади.

Таҳлил ва натижалар. Оила бюджети харажатларида соғломлаштириш харажатлари ёки бугунги кунда дори-дармон учун сарф қиладиган харажатларимиз оила дарамadiniнг таъсирли улушини эгаллаши барчага сир эмас. Шунинг учун ҳам тадқиқотларимиз давомида бу жараёнга алоҳида урғу қаратдик. Навоий вилояти Навоий шаҳар Мустақиллик маҳалласига қарашли 100 та (25 та ёш оилалари, 25 та ўрта ёшли, 25 та набиралари, 25 та эваралари) хонадонда амалий жараённи синаб кўрдик ва бу қуйидагича таҳлил қилинди.




Бу таҳлилни қилишимиздан мақсад, таҳлил ўтказадиган 100 та хонадонда ёш тоифалари орасидаги тафовудни аниқлаш ва шунга мос равишда таҳлил жараёнини олиб боришдан иборатдир.

Таҳлилдаги 100 та хонадон бюджетидан бир ойда соғлиқни тиклаш учун кетадиган харажатлар

куйидагича:

- дори-дармон учун харажатлар;
- тиббий хизмат харажатлари;
- дам олиш харажатлари (санотория, курорт, саёҳат);
- маданий дам олиш харажатлари (кино, концерт, театр)



Агар оилаларда соғлиқни тиклаш учун жисмоний тарбия орқали тиклаш жараёнини амалга оширган тақдирда оила бюджети харажатларини кескин камайтирган бўламиз.

Жисмоний тарбияни ривожлантириш орқали тарбия топган бола ўз оиласи боқувчисига айланган вақтда шубҳасиз соғлиқ учун маблағни дори-дармонга эмас, аксинча олдиндан жисмоний тарбияга йўналтиради. Таҳлилларимиз жараёнида амин бўлдики, бир ойда 100 та хонадонда ўртача 500 минг сўмдан 50 млн сўм маблағ дори-дармон учун сарфланар экан. Бу кўрсаткични 100 та хонадондаги 620 нафар инсон истиқомат қилишини ҳисобга олган ҳолда бўлсак, ҳар бир кишига 80 минг сўмдан ортиқроқ маблағ тўғри келади. Агар ҳар бир оила бир ойда 50 минг сўм сарфлаб, бирор бир ўзи ёқтирган спорт тури билан шуғулланса ёки умуман маблағ сарфламасдан доимий бадантарбия ишлари билан шуғулланганда бу оила бюджетини бойитишга хизмат қилган бўларди. Бунинг учун эса оилада жисмоний тарбия маданиятини шакллантиришимиз лозимдир.

Хулоса ва таклифлар

Марказий Осиё давлатларида, жумладан Ўзбекистонда ҳам кўп болалиқдан 3-4 тага, кейин 1-2 тага ўтиш йил сайин кўпаймоқда. Педагогик жиҳатдан яқка болалиқ тарбияни қийинлаштиради. Оиладаги яқка фарзанд катталарнинг “жонли ўйинчоқлари”, севги ва ғурурлари, эркатойлари бўлиб воёга етади. Бу қандай салбий оқибатларга олиб келишини таҳлил қилайлик:

Биринчидан, ижтимоий ва руҳий нуқтаи назардан боласизлик ёки кам

болалиқ оила мустаҳкамлигини таъминламайди. Республикамиздаги оилавий ажралишларнинг аксарияти ё боласи йўқ ёки кам болали оилаларга тўғри келади.

Иккинчидан, тиббиёт борасидаги тадқиқотлар ва антрополог олимларнинг кўрсатишича ҳаёт қийинчиликларини бартараф эта оладиган болалар деб оиладаги иккинчи ёки учинчи бола белгиланган. Яқка бола билан чегараланиш келажакда деффектли одамларнинг кўпайишига олиб келади. Демак, педагогик, руҳшунослик ва тиббиёт фанлари тавсиясига кўра оилада 3-4 нафар фарзанд бўлиши маъқул ҳисобланади.

А. С. Макаренко таъкидлаганидек “Қатъий айтиш мумкинки, ёлғиз ўғил ёки қиз тарбиялаш бир нечта болани тарбиялашга қараганда анча қийин иш. Ҳатто, агар моддий жиҳатдан бир мунча қийналган тақдирда ҳам ёлғиз бола билан кифояланиб қолиш ярамайди”.

Агар оилада ўзаро ҳамкорлик, ўзаро ёрдам, бир-бирига ишонч ҳолати мавжуд экан, бундай оилада ростгўй, самимий, меҳрибон, ўртоқларига доимо ёрдам беришга тайёр бўлган инсон камол топади. Ўзида одобли кишига хос фазилатларни мужассамлантирган кишиларнинг оилаларида доимо ҳузур-ҳаловат ва самимий ҳурмат қарор топади.

Оилада фарзандни қониқарсиз тарбияланишининг, жисмонан ва ақлан етук шахс камолга етмаслигининг асосий сабаблари хусусида куйидагиларни таъкидлаш бугунги куннинг долзарб муаммосидир:

Кўпчилик меҳнаткаш оилаларнинг иқтисодий савиясининг пастлиги. Яъни ота-оналар ўзларининг асосий вақтларини тирикчилик учун зарур бўлган воситаларни ишлаб топишга сарфлайди.

Паст маданиятли ижтимоий ҳаёт, яъни иккиюзламачилик, ижтимоий танглик, эртанги кунга ишонсизликнинг салбий кескинликка олиб келиши.

Оилада фақат аёлга бола тарбиясининг юкланиши.

Ажрашишларнинг кўпайиши.

Авлодлар ўртасидаги муаммоларни авж олиши (мерос талашиш).

Оила ва мактаб ўртасидаги муносабатларнинг узилиши.

Жисмоний тарбияга оилавий эътибор қаратмаслик.

Бу жараёнларга теран фикр юритиб, юқори эътибор қаратган оилада соғлом фикрли ва жисмонан баркамол авлод тарбияланади ва камолга етади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

Рашидов Х.К. Оилаларда маънавий-ахлоқий муҳитни жисмоний тарбия орқали мустаҳкамлаш ва соғломлаштириш механизмларини такомиллаштириш. (Монография). – Навоий. “Навоий”, 2023. - 145 бет.

Рашидов Х.К. Жисмоний чиниқтирувчи машқлар ёрдамида оилаларда маънавий-ахлоқий муҳитни барқарорлаштириш “Узлуксиз таълим” Илмий-услубий журнал. Тошкент 2021. 82-85 бет.

Рашидов Х.К., Уринов Ш.Р., Рашидов М.К. “Physical education – a way to reduce family budget expenditures”// ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. ISSN 2776-0960. Volume 2, Issue , May 2021.

Рашидов Х.К., Уринов Ш.Р. “The Importance of Sport Games in Creating a Healthy Environment in the Family”// Indonesian Journal of Public Policy Review. Vol 18 (2022): April, 10.21070/ijppr.v18i0.1167 Environmental Policy.

Рашидов Х.К. “Physical education - a way to reduce family budget costs”// Materialien von XVII International wissenschaftliche und praktische Konferenz Spitzenforschung -2020, Volume 13.30. April - 7. Mai 2020. pp. 70-73.

Рашидов Х.К., Уринов Ш.Р. “Оилада соғлом муҳитни яратишда спорт билан шуғулланишнинг аҳамияти”// Фан, та’лим, маданият ва инновация [Жилд: 01 Нашр: 01 (2022)]

Ибрагимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. Педагогика. Дарлик.-Т.: “Фан ва технологиялар”, 2007. -288 б.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING KASBIY POTENSIALINI RIVOJLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI

Raxmonova Mehrixon Xoshimovna

Farg'ona viloyati Pedagoglarni yangi metodikalariga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola umumiy va kasbiy bilimlarni oshirish, yangi raqobatbardosh g'oyalarni ilgari surish, shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy potensialini rivojlantirishga qaratilgan shart-sharoitlar haqida.

Kalit so'zlar: innovatsion, integratsiya, intellektual, kreativlik, potensial, kognitiv, operatsion, akseologik, reflektiv.

REQUIREMENTS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL POTENTIAL OF PRIMARY CLASS TEACHERS

Rakhmonova Mehrikhon Khoshimovna

Fergana region Teachers of new methods teacher at national training center

This article deals with conditions aimed at increasing general and professional knowledge, promoting new competitive ideas, and developing the professional potential of primary school teachers.

Key words: innovative, integration, intellectual, creative, potential, cognitive, operational, axiological, reflective.

ТРЕБОВАНИЯ К РАЗВИТИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Рахмонова Мехрихон Хошимовна

Ферганская область. Преподаватель национального учебного центра обучение педагогов новым методикам

Аннотация. В данной статье речь идет об условиях, направленных на повышение общих и профессиональных знаний, продвижение новых конкурентоспособных идей, развитие профессионального потенциала учителя начальных классов.

Ключевые слова: инновационный, интеграционный, интеллектуальный, креативный, потенциальный, когнитивный, операционный, аксиологический, рефлексивный.

Jamiyatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish yolidagi islohotlarining asl maqsadi, o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyatimiz uchun munosib – bilimli, yuksak intellektual salohiyatga ega, ma'naviy jihatdan barkamol insonlar qilib voyaga yetkazishdir. Bu albatta har tomonlama salohiyatli, boy tajribaga ega, zamon talablari asosida faoliyat yurituvchi o'qituvchilar zimmasiga yuklanadi. Shu bois ham bugungi kunda, pedagoglarning ijtimoiy yetukligi, faolligini oshirish hal qiluvchi dolzarb strategik masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ta'lim jarayonini rivojlantirish va o'quv tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi, o'qitish usullarining samarali turlaridan foydalanish, ta'lim jarayonining sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limning samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining shaxsiy sifatleri va pedagogik mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi ko'p jihatdan o'quvchi uchun o'rnakdir. O'tgan asrning 70-yillari oxirlarida A.M.Arseneva, K.N.Volkov, M.N.Skatkin va O'zbekistonlik pedagog olimlardan J.Yo'ldoshev, N.Saidahmedov, U.Nishonov, M.Jumaniyozova, M.Ochilovlar ta'lim muassasalarida sifatli ta'lim beish o'qituvchining ta'lim jarayoniga yangiliklarni kiritishga tayyorgarlik darajasi bilan bog'liqligini asoslab berdilar. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, mustaqil fikrlovchi, ijodkor, vatanparvar shaxsni shakllantirishning asosiy muhim omillaridan biri – boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy potensialga egaligidir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z kasbining mutaxassisi sifatida takomillashib borishi quyidagi komponentlarda namoyon bo'ladi: aniq maqsad, o'zining ishchanlik faolligini oshirish, izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o'zlashtirib faoliyatiga joriy etish, ilg'or texnologiyalar, metod hamda vositalardan habardor bo'lishi, faoliyatiga fan texnikaning yangiliklarini samarali tadbiiq etish, kasbiy malakalarni takomillashtirish, ko'nikma salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, ularni bartaraf etish choralari izlash yo'lida olib boriladigan amaliy harakati uning o'z ustida ishlashi va kasbiy potensialini takomillashtirishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

O'qituvchining pedagogik potentsiali deganda -umumiy ma'noda potensial (lotincha potesial –

umumlashtirilgan qobiliyat, imkoniyat, kuch) vositalar, zaxiralar, mavjud va safarbar etilishi mumkin bo'lgan manbalar sifatida qaraladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik jarayonni to'g'ri boshqara olishi uchun chuqur bilim va kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, zamonaviy o'qituvchining imidji ham uning kasbiy muvaffaqiyatlarini belgilaydi. Shu o'rinda Makarenkoning "Bolalarni bizning gap so'zlarimiz emas, balki xatti-harakatlarimiz tarbiyalaydi", degan so'zlarini keltirish mumkin.[6]. O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahorat qirralarini namoyon eta olishi, komil insonni tarbiyalashga, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahoratning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, bugun yuz berayotgan tub o'zgarishlar zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llashning innovasion yondashuvlari motivatsion, kognitiv, operatsion, akseologik, refleksiv va o'z-o'zini baholash, o'qituvchiga o'zini-o'zi rivojlantirish va zamon ta'lim talablariga javob berishda yanada ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Shu bilan birga o'quvchi shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsion texnologiyalarga asoslanilganligi, o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirish, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish asosiy prinsiplari etib belgilandi. [1]

Shuningdek, o'qituvchi o'quvchi shaxsini etuk barkamol inson etib tarbiyalashda, quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishi zarur.

Kommunikativ kompetensiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi — mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish.

Modomiki shunday ekan, yuqori intellektual salohiyat, yuqori kasbiy malakaga ega bo'lmagan boshlang'ich sinf o'qituvchilari yosh avlodga zarur va yetarli darajada ta'lim-tarbiya berish, ularda yuksak ma'naviy axloqiy xislatlarni shakllantirish imkoniga ega bo'lmaydi.

Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", "Baxtga erishish haqida" kabi asarlarida, inson o'zida komillik sifatlarini tarkib toptirish uchun. birinchi navbatda, ilmiy bilimlarni egallamog'i lozim, shuningdek u shaxs aqliy rivojlanishining asosi sifatida idrok qilish va fikrlash qobiliyatlarining ahamiyatini alohida qayd etadi.[5] Bunday islohotlar pirovardida kelajagimiz vorislari bo'lgan yosh avlodning mustahkam bilim olishlari, olgan bilimlarini kundalik faoliyatda qo'llay olishlariga, komil insonlar bo'lib voyaga yetishlariga imkoniyatlar yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, avvalo o'qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadigan ta'lim muhitini yaratishdan iboratdir.

Malaka oshirish tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy potensialini rivojlantirish hamda samarali o'qitishning pedagogik shart-sharoitlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarning malaka oshirishi, uzluksiz ta'lim olishi uchun qator qulayliklar yaratildi. 2022-yildan boshlab xalq ta'limi o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi yo'lga

qo'yildi. Unga ko'ra o'qituvchilarni kasbiy potentsiali rivojlantirishda ta'lim olishning quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish;
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish;
- masofaviy ta'lim;
- dual ta'lim;
- mustaqil ta'lim;
- malaka oshirishning muqobil shakllari.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish o'qituvchilarning o'z mehnat faoliyatidan bo'sh vaqtida (o'quvchilarning ta'tili, o'qituvchilarning darsdan bo'sh kunlari yoki boshqa hollarda) pedagogik markazlarda, shuningdek, o'qituvchilarning bevosita ish joyida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish masofaviy shaklda ham amalga oshirilishi mumkin.

Masofaviy ta'lim o'quv rejaları va dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishni nazarda tutadi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi) – o'qituvchilarning o'z ish joylaridan to'la ajralgan tarzda pedagogik markazlarda o'qishini nazarda tutadi. Ta'lim olishning mazkur shakli ko'chma (o'qituvchilarning yashash hududida) va stajirovka tarzida ham tashkil etilishi mumkin.

Dual ta'lim o'quv kursining nazariy qismini tinglovchi tomonidan ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotida, amaliy qismini esa ish joyida amalga oshirishni nazarda tutadi. Dual ta'lim shaklida amalga oshiriladigan o'quv kursi dasturini to'liq o'zlashtirgan tinglovchilarga belgilangan hajmdagi kredit ballari beriladi.

Mustaqil ta'lim o'qituvchilar tomonidan o'z lavozimi va mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim oluvchi tomonidan tuzilgan uzluksiz kasbiy ta'lim trayektoriyasi asosida mustaqil o'zlashtirishni nazarda tutadi. O'qituvchining kasbiy ehtiyojlariga ko'ra mustaqil malaka oshirishi elektron platforma orqali amalga oshiriladi. Elektron platforma har bir o'quv moduli ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishini nazorat qiladi, baholaydi va o'zlashtirilgan modullar bo'yicha kredit ballarni jamlab boradi.

Hozirgi kunda pedagogika markazlarida o'qituvchilar uchun elektron platforma yaratilgan. Bu platformaning vazifalari o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi faoliyatini tashkil etish, har bir o'qituvchining malaka oshirishi jarayonlarini monitoring qilish va shaxsiy hisobini yuritish imkoniyatini ta'minlovchi yagona ma'lumotlar bazasiga asoslangan.

Ushbuga ko'ra, malaka oshirish uchun unga zarur o'quv modullarini tavsiya etadi. Individual malaka oshirish trayektoriyasi bo'yicha o'qishini tashkil qilib, monitoringini olib boradi, o'zlashtirishni baholaydi. Kurs yakunida bilim ko'nikmalarni o'zlashtirganligini yakuniy baholaydi va sertifikatlar taqdim qiladi. Yakuniy baholashdan o'ta olmagan pedagogga qayta o'qish imkoniyatini beradi.

O'qituvchilar malakasini oshirishning muqobil (ta'lim dasturlarisiz malaka orttirish) shakllari quyidagilardan iborat:

- darslikka mualliflik qilish;
- doktorlik ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyani himoya qilish;
- xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjuman (seminar, konferensiya, simpozium va boshqa)larda ma'ruza bilan ishtirok etish;
- ilmiy-tadqiqot natijalari asosida xalqaro indeksatsiyalangan bazalarda (Scopus, Web of Science) e'tirof etilgan jurnallarda maqola nashr etish;

Ro'yxati Vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan boshqa faoliyatlar.

Muqobil malaka oshirish shakllarida shug'ullanish natijalari (kredit ballari) uzluksiz kasbiy ta'limning natijalarini umumlashtirishda hisobga olinadi.

Yuqoridagi yaratilayotgan sharoitlar, o'qituvchilarning kasbiy potentsiallarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bunda pedagoglardan ham o'z ustida muntazam ishlashi, jarayonga mas'uliyat bilan yondashishi, kasbiy rivojlanishi bilan bog'liq ma'lumotlarni jon dili bilan o'rganib borishlari talab etiladi.

Darhaqiqat, davlatimiz tomonidan ta'lim tizimini takomillashtirishga bo'lgan e'tibor, bu ulug' xalqimiz, kelajagimiz va ertangi kunimizga bo'lgan e'tibordir.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda yuqorida zikr etilgan (omil)larga ustuvor masala tarzida ehtibor berish talab etiladi. Ta'lim tizimining rivojlanishi pedagoglarning faoliyatiga ham uzviy bog'liq ekan, bugungi kun talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, zamonaviy pedagog o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishi va pedagogik mahoratni chuqur egallashi, shu ma'noda, nazariy bilimlarini amaliyotga faol tatbiq etishi ta'lim tizimining taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Pedagogik mahorat shunday malakalar yig'indisiki, uning natijasi o'qituvchi mehnatida va o'quvchilar xulqi, odobi, tarbiyasida, kelajakda yetuk komil inson bo'lib yetishishida o'z aksini topadi. O'qituvchi

mehnatining muvaffaqiyati va samarasi uni ilmiy jihatdan puxta tashkil etishga, mehnatni oqilona uyushtirishga ta'sir etadigan shart-sharoitlarga hamda mehnatni amalga oshirish yo'llarini to'g'ri belgilashga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 2017-yil 6-aprel 187-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 25-son Qarori.
3. Osnovi pedagogicheskogo masterstva / Pod red. A. Zyuzina. – Moskva: Prosveshchenie, 1989. – 302 s.
4. 6. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: 1993. 164-
5. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar / Ma'ruzalar matni. Tuzuvchilar: A.X. Qosimov, F.A. Holikova. – Toshkent: TATU, 2004. – 132 bet.
6. Karimova M.O PEDAGOGICAL BASES OF TRAINING OF FUTURE TEACHERS, "O'zbekiston Milliy universitetining ilm-fan rivoji va jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2023 yil, 12 may
7. Rakhmonova M.Kh. Pedagogical bases of preparation of primary school teachers for innovative activity // Academia: An International Multidisciplinary Research. Journal- India 2021. B. 461-464.
8. Raxmonova M.X. Yangi taraqqiyot davrida boshlang'ich ta'limning innovatsion rivojlanish echimlari // "Pedagogik faoliyatning samarali innovatsion amaliyoti, tajriba va yechimlari" / Xalqaro va onlayn ilmiy-amaliy konferensiya 2021 Namangan. B.68-71
9. Inoyatov U. Zamonaviy darsliklar, o'quv-metodik majmualar, elektron didaktik vositalarni yaratishga innovatsion yondashuv // Xalq ta'limi. – T., 2018. - № 3. – 9-11-b
10. Bayto'raeva N.I. Mustaqil ta'lim faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy kompetentligini rivojlantirish. ...diss..2022

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI HARAKAT TURLARIGA O'RGATISHDA HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI.

Rustamov A.A.

BDPI "Jismoniy tarbiya va sport" kafedrasida o'qituvchisi

Saparmurodova S.

Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarning salomatligini mustahkamlash, ularning tana a'zolarini chiniqtirish, asosiy harakat turlariga o'rgatishda harakatli o'yinlardan foydalanish, bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda jismoniy yuklamalar berish va toliqishlarining oldini oluvchi harakatlarni rivojlantirish kabi bir qator masalalar yoritib berilgan. Bundan tashqari jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi harakatli o'yinlardan namunalar keltirilgan bo'lib, bolalarda ushbu o'yinlarni qo'llash natijasida ro'y bergan o'zgarishlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Harakat turlari, jismoniy sifatlari, rezerv, texnika, shaxs, qobiliyatlar, harakatli o'yinlar, ta'lim tizimi, jismoniy tarbiya, chiniqish, ko'nikma.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПОДВИЖНЫХ ИГР ПРИ ОБУЧЕНИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКОВ ВИДАМ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.

Рустамов А.А.

Преподаватель кафедры «Физическое воспитание и спорт» БГПИ

Сапармуродова С.

Студентка факультета физической культуры

Аннотация: В данной статье рассматривается ряд вопросов, таких как укрепление здоровья детей, тренировка частей их тела, использование подвижных игр для обучения основным видам движений, предоставление детям физических нагрузок с учетом их возрастных особенностей, а также разработка видов деятельности, предотвращающих их утомление. Кроме того, представлены примеры активных игр, развивающих физические качества, и показаны изменения, происходящие у детей в результате использования этих игр.

Ключевые слова: Виды движений, физические качества, резерв, техника, личность, способности, двигательные игры, система воспитания, физическое воспитание, тренировка, мастерство.

METHODOLOGY OF USING ACTIVITY GAMES IN TEACHING PRE-SCHOOL CHILDREN TO ACTIVITY TYPES.

Rustamov A.A.

BPI «Physical education and sports» teacher of the department

Saparmurodova S.

Student of the Faculty of Physical Culture

Abstract: This article covers a number of issues such as strengthening children's health, training their body parts, using action games to teach basic movement types, giving children physical loads taking into account their age characteristics, and developing activities that prevent them from getting tired. In addition, examples of active games that develop physical qualities are presented, and the changes that occur in children as a result of using these games are shown.

Key words: Movement types, physical qualities, reserve, technique, personality, abilities, movement games, educational system, physical education, training, skill.

Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, jamoatchilik, mehnatsevarlik va jamoat oldida o'z burchini his qilishi, nafaqat jismonan balki aqlan rivojlantirish hozirgi davr talabi hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish bolada yuqoridagi sifatlarning rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Insoniyat hayoti davomida quyidagi asosiy uchta faoliyat bilan shug'ullanadi:

- O'yin ;
- O'qish;
- Mehnat;

Ma'lumki, inson hayotining eng birinchi davrlarida o'yin asosiy faoliyat turi hisoblanadi, keyinchalik bu o'qish bilan bog'lanib ketadi, undan so'ng asta-sekinlik bilan o'yin kamayib, uning o'rnini o'qish va mehnat egallaydi.

O'yinlar yordamida insoniyat o'sgan, ulg'aygan, chiniqqan, jisman baquvvat bo'lgan, aqlan, ruhan rivojlangan, ma'naviy kamol topgan va shu orqali o'yin insoniyat taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etgan. Harakatli o'yinlar bolalarni halollikka va saxovatli bo'lishiga, ularning kuchli, chaqqon, serharakat, ziyrak, topqir, o'zaro hamkor bo'lishlariga yordam beradi.

Harakatli o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda quyidagi harakat ko'nikmalarini shakllantirish mumkin:

- Yurish;
- Yugurish;
- Sakrash;
- Uloqtirish;
- Emaklash;
- Otish va ilib olish;
- saflanish va qayta saflanish;

Umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida harakatli o'yinlarni o'tkazishda bolalarning yoshi, jismoniy va fiziologik rivojlanishi va qiziqishlarini hisobga olgan holda tanlanishi kerak. Kichik guruhlarda harakatli o'yinlar har kuni o'tkaziladi. Mashg'ulot davomiyligi 10-15 minut atrofida davom etishi kerak. Harakatli o'yinlar kunning turli paytlarida o'tkaziladi. Ertalabki nonushtaga qadar tarbiyachi barcha bolalarda yaxshi kayfiyat yaratish uchun individual yoki kichik guruh bilan o'tkaziladigan harakatlardagi o'yinlarni o'tkazadi. Sayrlar, jismoniy tarbiya, musiqa mashg'ulotlaridan keyin tarbiyachi xilma-xil harakat faoliyatini uyg'otuvchi mazmunli harakatli o'yinlarni ularning qonun-qoidalari bilan tanishtirib, keyin tashkil etadi. Katta va tayyorlov guruhlarida mashg'ulot davomiyligi 20 minutgacha davom etishi kerak. O'yin faoliyatida diqqatni, idrokni rivojlantirish, ilgari hosil qilingan tasavvur, tushunchalar, mo'ljal olish singari xususiyatlarni yana ham aniqlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Harakatli o'yinlar bolaning aqliy rivojlanishiga xizmat qiladi. Quyidagi harakatli o'yinlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin: "Ikki qorbobo", "Sehrli tayoqcha", "Botir bolalar", "Maymunlar va ovchilar" va hokazo. Tarbiyachi vaziyatni hisobga olib harakat usulini tanlash va qo'yilgan vazifani bajarishga asta-sekin o'rgatib borish kerak. Masalan, bitta o'yinni o'rganish vaqtida bolaga ikki xil sharoit taklif qilinishi mumkin. Birida katta va cheklangan fazo taklif qilinsa, boshqa bir safar quvlab kelayotgan boladan tez va uzoqqa qochib ketish yoki yaqin masofada uni chalg'itib chaqqonlik ko'rsatib qochish talab qilinadi, "Quvlashmachoq", "Ayyor tulki" singari o'yinlar. Atrofdagi sharoitda mo'ljal ola bilish mahorati "Bo'ri qopqonda", "Jasur bolalar" va boshqa o'yinlarda qo'yilgan vazifalardagi to'siqlarni yengib o'tishga yordam beradi. Bunda bolalar o'zlari orttirgan qobiliyat asosida masofani mo'ljalga oladilar hamda muayyan sharoitda harakat qilish yo'lini o'zlari belgilaydilar. Har tomonga tarqalib ketayotgan bolalar orasida mo'ljal olish, ayniqsa muhimdir. O'yin vaziyati muttasil o'zgarib turadigan va birdan reaksiya talab qiladigan bunday sharoitdagi harakat bolaga g'oyat murakkab tuyuladi. Biroq ko'p marta takrorlash jarayonida katta guruh bolalari bunday mahoratni egallab oladilar. Harakatli o'yinlarda bolalar predmetlardan muayyan yaqinlikda yoki uzoqlikda bo'lalilar. Shu tufayli ularda ko'z bilan ko'rib mo'ljal olish, shuningdek, fazoda tovushni tinglash mo'ljal olish qobiliyati rivojlanadi. "Uzoqda-yaqinda", "Gox bu yerda, gox u yerda", "Qo'ng'iroqchalar bilan berkinish" va hokazo. Harakatli o'yinlar bolalarni vaqtga qarab mo'ljal olishining eng oddiy usuliga o'rgatadi. Ular o'yin vaqtida aytilgan, navbatma-navbat bajariladigan dastlab, so'ngra, bundan keyin, bundan oldin, hamma baravar degan so'zlarga oid harakatlarni to'g'ri bajaradilar. Bolalarga ko'rsatib berilgan muddat ichida signal bo'yicha o'yin topshirig'ini bajarishga o'rganadilar. Masalan: "Men beshgacha sanayman, sizlar shu vaqt ichida qo'lingizdagi bayroqchalardan gul yasaysiz", "Qani, men chirmandaga uch marta urgunimcha kim oldin safga turib olarkin" -degan so'zlarga bolalar tez harakat bilan javob beradilar. Bunday o'yinlarda kichkintoylar mo'ljal olishni, izchil harakat qilishni va muayyan vaqt davomida ish bajarishni o'rganadilar.

Bundan tashqari harakatli o'yinlar yurish, yugurish, sakrash, biror narsani irg'itish yoki uloqtirish, biror narsaga tirmashib chiqish kabi mashqlarni o'z ichiga oladi va bolaning xarakterlarini takomillashtiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida jismoniy tarbiya bo'yicha bajariladigan ishni to'g'ri rejalashtirish va o'tkazish uni samarali hal etishda nihoyatda muhimdir. Kun davomida turli xil mashg'ulotlarni jismoniy mashq va harakatli o'yinlar bilan qo'shib olib borilishi, bolaning to'g'ri harakatini ta'minlashga yordam beradi. Mashg'ulotlar to'g'ri tashkil etilsa, qiziqarli, ibratli jihatlari oshirilsa, bolalar o'z vaqtida dam olishlariga e'tibor berilsa, shundagina mashg'ulot samaradorligi ortadi. Mashg'ulotda eng muhimi mashq va o'yinlarning to'g'ri taqsimlanishidir. Bunda mashg'ulotning asosiy vazifasini ajrata olish lozim, uning mazmuni ko'zda tutgan maqsadni hisobga olib, bola tanasining ma'lum qismlariga har tomonlama ta'sir

o'tkazishi zarur. Shu jumladan, mashg'ulotlar unumdorligini oshirish maqsadida turli mashqlarni bir-biri bilan bog'lash ham muhimdir. Mashg'ulotlarni rejalashtirishda guruhning sharoiti, mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan jihozlarning mavjudligi hisobga olinadi. Ochiq havodagi mashg'ulotlar mazmuni yil fasllariga, ob-havoga muvofiq ravishda tanlanadi. Mashg'ulotni rejalashtirish va o'tkazish usullari turlicha bo'lib, ular asosiy harakat va o'yin mashqlari, bir xildagi mashg'ulotlardan tortib turli xildagi, ya'ni harakatli o'yinlar, xalq o'yinlari, estafetalar, ochiq havoda o'tkaziladigan mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Kunning turli paytida bolalarning harakat faolligini hisobga olish, shunga ko'ra, harakat ko'nikma va malakalarini takomillashtirish uchun harakat sifatlarini o'stiradigan mashqlarning turli usullari tavsiya etiladi. Bolalarning mustaqil faoliyati tarbiyachining bevosita rahbarligida o'tadi. U har bir bolaning o'yin va mashqlarni erkin tanlashiga harakat qiladi.

Asosiy harakatlarga doir mashqlar:

Yurish mashqlari: tarbiyachi ketidan belgilangan yo'nalishda to'p-to'p bo'lib yurish, yo'nalishni o'zgartirib yurish, predmetlar orasidan o'tish, doira bo'ylab juft-juft bo'lib, qo'l ushlab yurish. Yurishdan yugurishga, yugurishdan yurishga o'tish. Oldinga va yonga qadam tashlab yurish va shunga o'xshash mashqlar.

Yugurish mashqlari: tarbiyachi orqasidan yugurib o'tish, undan qochish, har tomonga bir-birlarini itarmasdan yugurish, dumalab borayotgan predmetni quvib yetish, ikki chiziq oralig'ida ularni bosmasdan yugurish, 30-40 soniya davomida to'xtamasdan yugurish, 80 metrgacha bo'lgan masofani sekin yugurib o'tish.

Sakrash uchun mashqlar: ikki oyoqlab turgan joyida sakrash, sekin-asta oldinga surilish, bola qo'lidan yuqoriroq qilib osilgan predmetga tegishga harakat qilish, chiziqdan yoki polga parallel holda ikki qator qilib tashlab qo'yilgan arqonchadan (20-25sm. kengligida) hatlash, turgan joyida ikki oyoqda, iloji boricha uzoqqa sakrash, 20-30 sm balandlikdagi predmetdan sakrab o'tish.

Dumalash, irg'itish va ilib olish mashqlari: jihozlarni yig'ish, ma'lum joyga qo'yish va dumalab borayotgan predmet orqasidan surilgan holda to'pni bir qo'llab va ikkala qo'l bilan tarbiyachiga qaratib, qiyalatib va bir-biriga qaratib dumalash. To'pni ikki qo'llab oldinga pastdan, ko'krak oldidan, boshdan oshirib otish. Bola ko'kragi barobar qilib tortilgan lentadan to'pni otib tushurish. Muvozanat saqlash uchun mashqlar: to'g'ri yurish, ilon izi yo'lakchadan, to'g'ri, ilon izi, doira bo'ylab tashlab qo'yilgan arqonchadan, bir tomoni poldan ko'tarib qo'yilgan taxtachadan, gimnastika o'rindig'i ustida yurish. O'rindiq ustiga chiqish, qo'llarni ikki yonga uzatgan holda turish, oyoq uchida ko'tarilish va yana dastlabki holatga qaytish.

Umumrivojlantiruvchi mashqlar: qo'l va yelka o'mrov muskullari uchun mashqlar, qo'llarni yuqoriga ko'tarish, yuqoriga va yonga bukish va cho'zish, ko'krak oldida chalishtirish va yonga uzatish, qo'llarni orqaga yashirish, chapak chalish, bosh ustida chapak chalish, qo'llarni oldinga va orqaga siltash (qo'llar pastda), pastga-yuqoriga (qo'llar yon holatda), qo'llarni bosh ustida va oldinga silkitish. Shuningdek, mashqlarni turli xil predmetlar (shaqildoqlar, kubiklar, lentachalar, ro'molchalar) bilan turlicha holatlarda bajarish.

Oyoqlar uchun mashqlar: turgan joyida yurish, oldinga, yonga, orqaga qadam tashlash, oyoq uchida ko'tarilish, oyoqni oldinga qo'yib, tovon bilan turish, oyoq barmoqlarini qimirlatish.

Gavdani rivojlantiruvchi mashqlar: o'ng va chapga o'girilish, qo'llarni yengil silkitgan holda predmet yonida turgan bolaga uzatish. Oldinga va turli tomonga engashish, polda o'tirgan holda oyoqlarni bukish va yozish chalqancha yotgan holda oyoqlarni yuqoriga ko'tarish va tushirish, qo'llar va oyoqlarni bir vaqtda birgalikda qimirlatish, tovonda o'tirish va turish. Qorin bilan yotgan holda qo'llarni va oyoqlarni ko'tarish, yonboshdan-yonboshga ag'darilish.

Saflanish va qayta saflanish. Tarbiyachi yordamida guruhlar va butun guruh bilan aylana bo'ylab saflanish, juft-juft bo'lib saflanish, bir-birining ketidan turish.

Asosiy harakatlarga o'rgatishga doir o'yinlar:

Yurish va yugurishga oid o'yinlar: "Qo'g'irchoqlarnikiga mehmonga", "Yo'lakchadan", "Kim sekin", "Tayoqchadan hatlab o't", "Meni quvib yeting", "Chumchuqchalar va avtomobil", "Poezd", "Samolyotlar", "Pufak", "Quyosh va yomg'ir", "Buyumni olib kel", "Qushlar uchmoqda". Bu harakatli o'yinlar ichidan "Poezd" o'yinini tahlil qiladigan bo'lsak:

O'yinda ishtirok etadigan bolalar qatorlarga bo'linib, ular oldida to'g'ri chiziq chiziladi. Ulardan 10 metr uzoqlikda bulava qo'yiladi. O'qituvchining signalidan so'ng birinchi qatorda turgan bolalar yugurib borib bulavani aylanib kelib chiziqda turgan ikkinchi ishtirokchini o'zi bilan olib yana bulavani aylanib keladi. Ishtirokchilar o'zidan oldingi sherigining belidan ushlab yuguradi. Shu tariqa oxirgi bola qo'shilguncha davom etadi va birinchi bo'lib bajargan guruh g'olib hisoblanadi. Ushbu o'yin orqali bolalarda yurish va yugurish harakat ko'nikmalari shakllanadi.

Emaklab o'ynaladigan o'yinlar: "Shaqildoqqacha emaklab bor", "Darvozaga tushir", "Chiziqni

bosma”, “Ehtiyot bo‘l”, “Maymunchalar”.

To‘pni o‘tish va ilib olish o‘yinlari: “To‘pni o‘rtaga tashla”, “To‘pni ilib ol”, “Darvozachaga tushir”, “To‘g‘ri mo‘ljal ol”.

Sakrab o‘ynaydigan o‘yinlar: “Mening quvnoq ko‘ptogim”, “Oq quyoncha o‘tiribdi”, “Qushchalar uchmoqdalar”, “Ariqhadan hatlab o‘t”.

Chiniqtirish. Bunda havo, quyosh, suvdan foydalangan holda chiniqtirish tadbirlari amalga oshiriladi. Quyoshda chiniqtirish asosan ertalabki sayr vaqtida bolalarning turli faoliyatlari jarayonida amalga oshiriladi. Quyoshda dastlab kun davomida 5 daqiqadan to 10 daqiqagacha bo‘lishlari, so‘ng, asta sekin 40-50 daqiqagacha ko‘paytirishlari mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatli o‘yinlar orqali harakat ko‘nikmalarini shakllantirish va tarbiyalash juda yaxshi natija beradi. Chunki, bola bir xil mashqlarni bajarish davomida birinchi navbatda charchoq, zerikish, sportdan bezish kabi salbiy xislatlar paydo bo‘ladi. Harakatli o‘yinlar esa bolada o‘zgacha zavq va shavq bag‘ ishlaydi. Boladagi jismoniy sifatlarning rivojlanishiga va kamol topishiga muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa biz uchun eng muhim bo‘lgan vosita hisoblanadi. Xalq o‘yinlarining tasnifi tarbiya, ermak, dam olishni yo‘lga qo‘yish vositasi sifatidagina emas balki jismoniy tarbiyaning muhim vositasi tariqasida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarni harakat turlariga o‘rgatishda aniq va tizimli ishlab chiqilgan dastur asosida harakatli o‘yinlardan foydalanish va shu harakatli o‘yinlar orqali belgilangan harakat ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Ushbu metodni amalda qo‘llash o‘z samarasini berdi va yosh tarbiyalanuvchilarda harakat ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

Rustamov A. A. O‘ZBEKISTONDA UCH BOSQICHLI SPORT MUSOBAQALARINING RIVOJLANISHI // ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 18. – №. 5. – С. 96-103.

Rustamov A. A. Development Chronology of Three-Level Sports Competitions in the System of Continuous Education in Uzbekistan // Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 34-39.

Asqarovich R. A. YOSH GANDBOLCHILARDA KUZATISH VA DIQQATNI RIVOJLANTIRISH // INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – Т. 3. – №. 9. – С. 148-153.

Sattorov A. E., Rustamov A. Ways to improve the health of students through the organization of three-stage sports competitions in uzbekistan // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 1121-1127.

“Maktabgacha ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiya” T.S.Usmonxo‘jayev, S.T.Islomova. T.: “Ilm Ziyo” nash. 2006.

Musiqa ta'limida bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatish pedagogik muammo sifatida
Saloxov Nuriddin Muxiddinovich
Turkiston yangi innovatsiyalar universitetining 1 – kurs magistranti

Мақолада умум ўрта таълим мактабларида ўтиладиган musiqa дарсларида халқ кўшиқлари уларни ижро услубларидан фойдаланиш ва бу кўшиқлар орқали болаларни она ватани унинг кўшиқларига бўлган меҳрини ортириш ва тахлили.

Калит сўзлар, Куй, кўшиқ, ижро халқ ижоди, болалар фольклори ижроси, маҳаллий услуб, таълим тарбия, тахлил.

Abstract. The article gives the results of the analysis of the textbooks on music for secondary schools, based on the analysis, the state of teaching of folk songs at school is studied.

Key concepts. General education, folk music, folk songs.

Резюме. В статье даны результаты анализа учебников по музыке для средних общеобразовательных школ, на основе анализа изучено состояние обучения фольклорных песен в школе.

Основные понятия: общее среднее образование, музыкальное образование, национальная музыка, фольклорные песни.

Ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgan O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, demokratik tamoyillarga asoslanuvchi mazkur taraqqiyot yo'li insonparvar, demokratik va huquqiy jamiyatni barpo etish yo'li sifatida e'tirof etilgan. Fuqarolik jamiyatning bunyod etilishi, eng avvalo, ushbu jamiyatda yashayotgan fuqarolarning ma'naviy-ahloqiy jihatdan yetuk, yuksak darajadagi aqliy salohiyatga ega ekanliklariga bog'liq bo'ladi. Zero, fuqarolik jamiyatida amal qiluvchi ijtimoiy me'yorlar aynan mazkur jamiyatda istiqomat qiluvchi shaxslar tomonidan yaratiladi, asoslanadi hamda amal qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 4 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-4947-son Farmonlari, 2018 yil 1 noyabrda "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi PQ-3990-son qarori, 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktyabrdagi "2010-2020 yillarda Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ №222-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi

Mustaqillik yillarida ma'naviy tarbiyaning ilmiy, asoslarini tiklash, bu o'rinda milliy madaniy meros hamda qadriyatlardan samarali foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kuchayib, O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillaridan biri darajasiga ko'tarildi.

Musiqa ta'limining milliy meros, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, milliy madaniyat namunalari saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotining o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmat qilishga yo'naltirilgan yangi tarbiya tizimining amalga oshirilishi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash imkonini berdi.

Barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy buyurtmani muassalarning zimmasiga ham muayyan vazifalarni yuklamoqda. Ana shunday vazifalardan biri – musiqa ta'limida Xalq og'zaki ijodini o'rgatish, o'quvchilarga milliy musiqiy meros, xususan, milliy musiqiy an'analar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ularda ilgari surilgan g'oyalar to'g'risida nazariy ma'lumotlar berish, Xalq og'zaki ijodini ijro etish layoqatini hosil qilish, ijrochilik malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

Musiqa ta'limida Xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarni milliy ma'naviy tarbiyalash beqiyosdir. Xalq og'zaki ijodi mazmunida shaxs kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi ma'naviy-ahloqiy qarashlar mujassamlashgan bo'lib muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Chunonchi, xalq og'zaki ijodi va folklor qo'shiqlar mazmunida ota-onalarning hurmatlarini saqlash, qarindosh-urug' hamda qo'ni-qo'shnilar bilan samimiy munosabatda bo'lish, ularga g'amxo'rlik, mehribonlik, mehr-oqibat ko'rsatish, quvonchu tashvishlariga sherik bo'lish, dillariga ozor yetkazmaslik kabi g'oyalar ilgari suriladi.

Xalq og'zaki ijodi xalqning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi, etnopsixologik xususiyatlari, hayotiy tarixiy tajribasi, ijtimoiy qarash maqsad hamda uni amalga oshirish yo'lida tashkil etiladigan faoliyat yo'nalishlari, shaxsga ta'lim va tarbiya berish an'analari asosida shakllangan bo'lib, asrlar davomida tarixiy vorislik tamoyiliga muvofiq avlodlardan avlodga o'tib kelmoqda.

Xalq og'zaki ijodidagi o'zaro uyg'unlashgan so'z va ohangning ta'sir kuchi, tarbiyaviy imkoniyati

beqiyosdir. Ular yordamida ifoda etilgan o'git, pand–nasihat shaxs tomonidan tez qabul qilinadi. Ushbu holat shaxsning psixologik xususiyatlariga bog'liq holda kechadi. Musiqiy ohangni anglash, musiqiy asarlar mazmunini tushunish shaxs estetik his–tuyg'ularini tarbiyalash, ijtimoiy borliqqa nisbatan mas'uliyatli yondashuv ko'nikmalarini hosil qiladi. Musiqa ta'limida Xalq og'zaki ijodini o'rgatish vositasida o'quvchilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonning samarali amalga oshirilishi bir qator omillarning mavjudligini taqozo etadi. Xususan, musiqa o'qituvchilarining Xalq og'zaki ijodining tub mohiyatini chuqur anglay olishlari, shuningdek, ijro etiluvchi qo'shiqlardan namuna ko'rsatish asosida ijro etib berish, ularning ijro etish usullari xususida ta'lim oluvchilarga uslubiy yo'l–yo'riq ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

Musiqa ta'limida Xalq og'zaki ijodini o'rgatish musiqiy an'analarning mazmunini chuqur o'rganish, ularning imkoniyatlaridan ta'lim–tarbiya, shu jumladan, o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida samarali foydalanish metodikada tadqiq etilishi zarur bo'lgan muammolardan biridir.

Musiqa folklori har bir shaxsning ma'naviy kamolotini shakllantirishda, intellektual salohiyatini rivojlantirishda, qalb va vijdonini barqarorlashtirishda, ezgu orzu niyatlarini amalga oshirishda, barkamol insonni voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga o'zining tili, ohangi, urf–odatlarini, qadriyatlarini tarannum etadi. Musiqa folklori mazmunida ezgulik g'oyalari hurmat–ehtimol, sog'lom turmush tarzi, mehr–oqibat, o'z yeri, tarixi, madaniyati bilan mag'rurlanish, mustahkam imon–e'tiqod, kuchli oriyat, pok vijdon, halol mehnat, yaxshilik, sadoqatli bo'lish kabi insoniy fazilatlarining ma'no–mohiyati ifodalangan. Demak, musiqa folklori o'zbek musiqa ma'naviyatining ajralmas qismi sifatida jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda o'quvchilarni estetik tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Musiqa pedagogikasi sohasida ham tadqiqot muammosiga oid izlanishlar amalga oshirilgan. Ushbu muammoning ayrim jihatlari o'rganilgan.

H.Bobomirzayevning ilmiy tadqiqot ishida o'zbek xalq bolalar qo'shiqlaridan o'quv–tarbiya jarayonida foydalanishning mazmuni, shakl va metodlari, M.Qosimovning tadqiqotida esa o'zbek xalq folklor qo'shiqlari orqali talaba yoshlarni estetik tarbiyalash muammolari ishlab chiqilgan.

Aho` - aho` sulfa dorem

Xalq qo'shig'i
To'xtasin Rajabov notaga olgan

Allegretto ♩ = 90



Λ - ho', a - ho', o' - ho', o' - ho'. Λ ho', a - ho', o' - ho', o' - ho'.
Naqarot.
Λ - ho', a - ho' sul - fa do - rem, Mo go - vi dum kal - ta do - rem.
Mo go - va bur - dem ba o - g'il, O - g'il ba mo nu - ri - ya dod.
Naqarot.
Λ - ho', a - ho' sul - fa do - rem, Mo go - vi dum kal - ta do - rem.

Naqarot:

Aho', aho' sulfa dorem,
Mo govi dum kalta dorem.

Mo gova burdem ba og'il,
Og'il ba mo nuriya dod.

Naqarot.

Nuriya burdem ba zamin,
Zamin ba mo ganduma dod.

Naqarot.

Ganduma burdem ba xaros,
Xaros ba mo ordaka dod.

Naqarot.

Ordaka burdem ba lagan,
Lagan ba mo xamira dod.

Naqarot.

Xamira burdem ba tano'r,
Tano'r ba mo kulchaya dod.

Naqarot.

Kulchaya burdem ba xudo,
Xudo ba mo muroda dod.

Naqarot.

H.Nurmatovning tadqiqot ishida O'zbekiston maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy-estetik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. B.X.Madrimov "Xorazm musiqa folklori vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari" yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib unda Xorazm xalfa va dostonlar ijro xususiyati to'g'risida, T.I.Rajabov esa "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Buxoro bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatishning metodik imkoniyatlari" (1-4-sinflar misolida) ish olib borib unda Buxoro bolalar folklor qo'shiqlarini yoritgan. F.G.Nurullayev esa "Musiqa ta'limida Buxoro folklor qo'shiqlarini o'rgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari" (5-7 sinflar misolida) xususida fikr yuritadi.

Folklor-xalq ijodiyotining barcha sohalarini o'z ichiga oladi va shu qatori xalq musiqasi ham ayrim hollarda «Musiqa ahli» deb ham yuritiladi. Xalq og'zaki ijodi og'izdan-og'izga, avlod-dan-avlodga o'tib to'ldiriladi va sayqal topadi. Xalq og'zaki ijodining asosiy xususiyati shundaki, u ko'pchilik tomonidan yaratiladi va ijro etiladi.

Xalq og'zaki ijodiyoti-xususan folklor qo'shiqlarining o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri ilg'or g'oyaviylikdir. Xalq har bir sohada o'z istaklarini tezroq amalga oshirishni orzu qilib yashaydi va shu orzularni amalga oshirish yo'lida qilayotgan sa'y-harakatlarini turli tarzda ifodalashga intiladi. Shu tufayli u folklorga murojaat qiladi, o'zining butun dardu hasratini to'kib soladi. Shu tariqa xalq og'zaki ijodi vujudga keladi.

Demak, xalq qo'shiqlarini asosan xalq yaratadi. Shuning uchun ham xalq qo'shiqlarining tili-xalqning jonli so'zlashuv tili hisoblanadi va so'zlarning turli shevalarda, turli dialektlarda talaffuz qilinishi, turli ifodalardan foydalanilishi tabiiy bir holdir.

Xalq og'zaki ijodi har doim yuksak badiiylik va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Xalq og'zaki ijodi ramziy obrazlar, sifatlash mahorati, erkalatish, mubolag'a va boshqa an'anaviy formulalarning ko'p ishlatilishi bilan xarakterlanadi.

Xalq og'zaki ijodionim (grekcha noma'lum) kishilar tomonidan yaratilgan bo'lib, u og'izdan-og'izga, avlod-dan-avlodga o'tish jarayonida ommaviy ijrochilik tusini olgan.

Xalq og'zaki ijodiyoti namunasi sifatida xalq og'zaki ijodi manbai qadim-qadimlarga daxldor bo'lganligi uchun, ular nota yozuvlari, hatto adabiy yozuvning namunalari mavjud bo'lmagan bir davrlardan boshlangan va ular ustoz-shogird an'analari asosida bizgacha yetib kelgan. Xalq qo'shiqlarining abadiy saqlanib qolishida xalq xotirasi asosiy ahamiyat kasb etadi.

Har bir narsa xalqning tajribasi, dididan o'tgandan keyingina an'anaga aylanadi. Xalq qo'shiqlarining aksariyat qismi xalq an'analari bilan bevosita bog'liq holda yaratilgan. Har bir davr kishilari o'z badiiy zavqi, ma'naviy estetik didi va tafakkuri bilan bu asriy an'analarni boyitib borgan hamda unga o'z hissasini qo'shgan.

Xalq ijodkorligi namunalari sifatida qadimdan aytib kelingan xalq og'zaki ijodi turli hududlarda turlicha kuylab kelingan. Bu xalq asarlarining xilma-xil nusxalarda takrorlanishiga olib kelgan, bu ko'p variantlilikka xalq og'zaki ijodi rivojining o'ziga xos taraqqiyot manbai deb qarash joizdir. Xalq qo'shiqlarining ommaviylik, an'anaviylik shu bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: O'zbekiston, 2023. – 113 b.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. O'RQ–637–son 23.09.2020–T.: 2020. 75 b. // <https://lex.uz/doss/5013007>

Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Т.: Фан, 1974. 77 б.

Атоев О.Кўхна ва Навқирон Бухоро тароналари.Т.;2011.237б

5.Ражабов Д., РажабовТ. Халқ кўшиғи ва мусиқа ижрочилиги. –Т.: Наврўз нашриёти. 2018. –127 б.

Ражабов, Д. З., & Ражабов, Т. И. (2018). Формирование и развитие узбекской народной лирики. In *Международная образовательная деятельность как фактор развития и сотрудничества высших учебных заведений в современном поликультурном мире* (pp. 207-212).

Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. *Miasto Przyszłości*, 33, 167-176.

Ражабов, Т. И. (2021). Укувчи-ёшларга ўзбек миллий мусиқа фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. *Science and Education*, 2(11), 1094-1103.

Тўхтасин, Р. И. (2022). ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special issue), 64-71.

Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences* ISSN, 2795(546X),

Ражабов, Т. (2023). O'zbek bolalar musiqiy o'yin folklorining mavzuviy tasnifi. *Общество и инновации*, 4(5/S), 340-345.

Ражабов, Т. И. (2022). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Народные Музыки И Песни. *Miasto Przyszłości*, 29, 363-367.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL APPROACH TO THE CREATIVE ABILITIES OF SPECIALISTS IN FUTURE PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATIONS

Saydullayeva Nargis

Teacher of Jizzakh state pedagogical university

Abstract: The field of early childhood education is rapidly evolving, driven by changing societal needs and advancements in pedagogical and psychological research. As we prepare for the future, it is essential to equip specialists in preschool education with the necessary tools to foster creativity in young learners. This article explores the pedagogical-psychological approach to nurturing the creative abilities of specialists in future preschool education organizations. It delves into the theoretical foundations, practical strategies, and potential benefits of this approach, highlighting the role of educators in shaping the creative potential of the next generation.

Key words; Pedagogical-psychological approach, Creative abilities, Specialists, Preschool education, Early childhood education, Creativity, Constructivist pedagogy, Psychological development, Play-based learning

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ТВОРЧЕСКИМ СПОСОБНОСТЯМ СПЕЦИАЛИСТОВ БУДУЩИХ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Сайдуллаева Наргис

Преподаватель Джизакского государственного педагогического университета

Абстракт: Область дошкольного образования быстро развивается под влиянием меняющихся потребностей общества и достижений педагогических и психологических исследований. Готовясь к будущему, крайне важно вооружить специалистов дошкольного образования необходимыми инструментами для развития творческих способностей юных учащихся. В данной статье исследуется педагогико-психологический подход к воспитанию творческих способностей специалистов будущих дошкольных образовательных организаций. В нем углубляются теоретические основы, практические стратегии и потенциальные преимущества этого подхода, подчеркивая роль педагогов в формировании творческого потенциала следующего поколения.

Ключевые слова; Педагогико-психологический подход, Творческие способности, Специалисты, Дошкольное образование, Дошкольное образование, Креативность, Конструктивистская педагогика, Психологическое развитие, Игровое обучение

BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MUTAXASSISLARNING IJODIY QOBILİYATLARIGA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUV

Saydullayeva Nargis

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limi sohasi o’zgaruvchan ijtimoiy ehtiyojlar va pedagogik va psixologik tadqiqotlardagi yutuqlar tufayli jadal rivojlanmoqda. Biz kelajakka tayyorlanar ekanmiz, maktabgacha ta’lim muassasalari mutaxassislarini yosh o’quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish uchun zarur vositalar bilan jihozlash juda muhimdir. Ushbu maqola kelajakdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mutaxassislarining ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalashga pedagogik-psixologik yondashuvni o’rganadi. Unda ushbu yondashuvning nazariy asoslari, amaliy strategiyalari va mumkin bo’lgan foydalari o’rganilib, kelajak avlodning ijodiy salohiyatini shakllantirishda pedagoglarning o’rni yoritilgan.

Kalit so’zlar; Pedagogik-psixologik yondashuv, Ijodiy qobiliyat, Mutaxassislar, Maktabgacha ta’lim, Erta bolalik ta’limi, Ijodkorlik, Konstruktiv pedagogika, Psixologik rivojlanish, O’yinga asoslangan ta’lim.

Kirish: Erta yoshdagi bolalar ta’limining tobora rivojlanib borayotgan manzarasida maktabgacha ta’lim mutaxassislarining roli tobora ortib bormoqda. Biz kelajak sari yo’lni boshlar ekanmiz, bu mutaxassislarni yosh o’quvchilarda ijodkorlikni tarbiyalash uchun zarur bo’lgan bilim va ko’nikmalar bilan qurollantirish zarur. Ushbu maqola kelajakdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ishlaydigan mutaxassislarni kuchaytirishga qaratilgan pedagogik-psixologik yondashuvni o’rganadi. Ushbu yondashuvning nazariy asoslari, amaliy strategiyalari va potentsial afzalliklarini o’rganish orqali biz kelajak avlodning ijodiy salohiyatini shakllantirishda pedagoglarning hal qiluvchi rolini yoritib beramiz. Moslashuvchanlik va innovatsiyalar ustuvor bo’lgan davrda ushbu pedagogik-psixologik yondashuv erta yoshdagi bolalar ta’limida kelajakka tayyor bo’lgan mutaxassislar uchun mustahkam poydevor yaratishga va’da beradi.

Nazariy asoslar: Bo’lajak maktabgacha ta’lim muassasalarida mutaxassislarda ijodkorlikni tarbiyalashning

pedagogik-psixologik yondashuvi ta'lim va psixologik nazariyalarning boy gobeleniga asoslanadi. Ushbu nazariy asoslar innovatsion amaliyotlarni qurish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, yosh o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi.

1. Ijodkorlik hayotiy mahorat sifatida:

Pedagogik-psixologik yondashuv o'z zahirida ijodkorlikni barcha yoshdagi shaxslar uchun zaruriy mahorat sifatida e'tirof etadi. Ijodkorlik badiiy ifoda doirasidan tashqariga chiqib, turlicha fikrlash, muammolarni innovatsion tarzda hal qilish va tez o'zgaruvchan dunyoga moslashish qobiliyatini qamrab oladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, erta bolalik davrida ijodkorlikni rivojlantirish umrbod foyda keltiradi, jumladan, kognitiv rivojlanish, yuqori akademik ko'rsatkichlar va moslashuvchanlikni oshiradi[1].

2. Konstruktivistik pedagogika:

Ushbu yondashuvga konstruktivistik pedagogika tushunchasi kiritilgan. Bu nazariya shuni ko'rsatdiki, bolalar o'z ta'lim jarayonida faol ishtirok etadilar, atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlar orqali bilimlarni quradilar. Maktabgacha ta'lim sohasidagi mutaxassislar tadqiqot, tajriba va tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradigan boyitilgan, ochiq o'quv muhitini yaratish orqali ushbu jarayonni osonlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Konstruktivistik tamoyillar rahbarligida bolalar o'zlarining tug'ma ijodkorligini rivojlantirib, dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantirishga da'vat etiladi[2].

3. Psixologik omillar:

Bolalarning kognitiv va hissiy rivojlanishini tushunish ijodkorlikni samarali rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislar har bir yosh o'quvchining individual ehtiyojlari va imkoniyatlariga o'z yondashuvlarini moslashtirish uchun turli xil psixologik nazariyalardan foydalanishlari kerak. Jan Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari kognitiv qobiliyatlarning ketma-ket rivojlanishi haqida tushuncha beradi, Lev Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi esa ijtimoiy o'zaro ta'sirlar va proksimal rivojlanish zonasining ahamiyatini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, Govard Gardnerning ko'p intellekt nazariyasi bolalar o'rtasidagi iste'dod va qobiliyatlarning xilma-xilligini tan olgan holda, an'anaviy o'lchovlardan tashqari aql doirasini kengaytiradi[3].

Ushbu nazariy iplarni pedagogik-psixologik yondashuv to'qimalariga to'qish orqali maktabgacha ta'lim mutaxassislari yosh o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ochib berish uchun yaxshi jihozlangan. Ushbu nazariy asoslar erta bolalik davrida ijodkorlikni rivojlantirish yo'lini yorituvchi, kelajak avlodni XXI asrning qiyinchiliklari va imkoniyatlariga tayyorlash uchun yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi[4].

Amaliy strategiyalar:

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mutaxassislarda ijodkorlikni tarbiyalashga pedagogik-psixologik yondashuv faqat nazariy jihatdan emas; u o'qituvchilarga dinamik va boyituvchi o'quv muhitini yaratishga imkon beruvchi amaliy strategiyalarga mustahkam asoslanadi. Ushbu strategiyalar nazariy asoslarni yosh o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi aniq tajribaga aylantirishda muhim ahamiyatga ega[5].

1. O'yinga asoslangan ta'lim:

O'yin yosh bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish uchun tabiiy va kuchli vositadir. Mutaxassislar o'yinga asoslangan o'quv faoliyatini o'quv dasturiga kiritishlari kerak, bu esa xayoliy izlanish, muammolarni hal qilish va hamkorlik qilish imkoniyatini beradi. Bu harakatlar bloklar bilan qurish, xayoliy rol o'ynash yoki badiiy materiallar bilan tajriba o'tkazishni o'z ichiga olishi mumkin. O'yin nafaqat ijodkorlikni rag'batlantiradi, balki ijtimoiy va hissiy rivojlanishni yaxshilaydi, tengdoshlarning o'zaro munosabati va hamkorligini rag'batlantiradi[6].

2. Scaffolding:

Vygotskiyning Scaffolding kontseptsiyasi bolalarga tobora murakkab bo'lgan vazifalarni hal qilishda ularga moslashtirilgan yordam ko'rsatishda o'qituvchilarning muhim rolini ta'kidlaydi. Mutaxassislar o'zlarining rahbarlik darajasini har bir bolaning rivojlanish bosqichiga moslashtirishlari kerak. Bu qachon yordam berishni, qachon orqaga chekinish va mustaqil izlanishga ruxsat berishni va qachon tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradigan fikr-mulohazalarni bildirishni o'z ichiga oladi. Iskala bolalarga mos ravishda e'tiroz bildirilishini ta'minlaydi, ularning ijodini rivojlantiradi va umidsizlikni oldini oladi[7].

3. Ijodiy san'at integratsiyasi:

Musiqqa, san'at, drama va raqs ijodkorlikni rivojlantirish uchun kuchli vositadir. Maktabgacha ta'lim muassasalari mutaxassislari ushbu ijodiy san'atni o'quv dasturiga kiritishlari kerak, bu esa bolalarning o'zini turli yo'llar bilan ifodalashiga imkon beradi. Ularni o'z san'atini yaratish, turli cholg'u asboblarni o'rganish, dramatik o'yinlar bilan shug'ullanish, harakat bilan tajriba o'tkazishga rag'batlantirish nafaqat ijodkorlikni oshiradi, balki o'z-o'zini namoyon qilish va ishonchni oshiradi[8].

4. Reflektiv amaliyot:

Doimiy mulohaza yuritish va o'z-o'zini baholash o'z ta'lim usullarini doimiy ravishda takomillashtirishni

maqsad qilgan mutaxassislar uchun juda muhimdir. Yakka tartibda va tengdoshlar bilan hamkorlikda muhokama qilish orqali muntazam ravishda reflektiv amaliyot bilan shug'ullanish o'qituvchilarga qanday strategiyalar samarali ishlayotganini va nimani tuzatish kerakligini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, kasbiy rivojlanish imkoniyatlarida ishtirok etish va eng so'nggi tadqiqotlar va ilg'or tajribalardan xabardor bo'lish mutaxassislarning o'qitishning innovatsion uslublari bo'yicha yetakchi bo'lib qolishini ta'minlaydi[9].

5. Individuallashtirilgan ta'lim rejalarini:

Har bir bolaning kuchli tomonlari va ehtiyojlari bo'yicha noyob ekanligini tan olgan holda, mutaxassislar individual o'quv rejalarini ishlab chiqishlari kerak. Ushbu rejalar bolaning rivojlanish bosqichini, qiziqishlarini va o'rganish uslubini hisobga oladi, bu esa ijodkorlik va umumiy o'sishni maksimal darajada oshiradigan moslashtirilgan yordam va imkoniyatlarga imkon beradi[10].

Pedagogik-psixologik yondashuv doirasida ushbu amaliy strategiyalarni amalga oshirish orqali kelajakdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislari yosh o'quvchilarning ijodiy salohiyatini to'liq o'rganishga imkon beruvchi tarbiyalovchi, sezgir va qiziqarli o'quv muhitini yaratishi mumkin. Ta'lim to'qimalariga to'qilgan ushbu strategiyalar bolalarni moslashish va innovatsiyalar muhim bo'lgan kelajakka tayyorlaydi.

Potentsial imtiyozlar:

Kelajakdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida mutaxassislarda ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik-psixologik yondashuvning qabul qilinishi erta bolalik ta'limi doirasidan tashqarida bo'lgan ko'plab afzalliklarni va'da qiladi. Bu imtiyozlar alohida bolalar uchun ham, butun jamiyat uchun ham keng qamrovli oqibatlariga olib keladi[11].

1. Kengaytirilgan muammoni hal qilish ko'nikmalari:

Erta bolalik davrida ijodkorlikni rivojlantirishning asosiy foydasi muammoni hal qilishda mustahkam qobiliyatlarni rivojlantirishdir. Ijodiy ta'lim muhitiga duchor bo'lgan bolalar muammolarga innovatsion echimlar bilan yondashish ehtimoli ko'proq. Bu mahorat murakkab muammolar yangi yondashuvlarni talab qiladigan dunyoda bebahodir[12].

2. Akademik samaradorlikni oshirish:

Ijodkorlik va o'rganishga bo'lgan muhabbat ko'pincha birga keladi. O'qitish uslublarida ijodiy fikrlashga urg'u bergan mutaxassislarda bilimga chuqur qiziqish va ishtiyoq uyg'otishi mumkin. Natijada, bolalar turli fanlar bo'yicha akademik yutuqlarga erishadilar va umrbod ta'limga ishtahani ko'paytiradilar.

3. Ijtimoiy va hissiy o'sish:

Hamkorlikdagi badiiy loyihalar va dramatik o'yinlar kabi ijodiy faoliyat bolalarni o'zlarini ifoda etishga va tengdoshlari bilan muloqot qilishga undaydi. Ushbu o'zaro ta'sir ijtimoiy rivojlanishga yordam beradi, hamkorlik, muloqot va empatiya kabi qimmatli ko'nikmalarni o'rgatadi. Shuningdek, u bolalarga his-tuyg'ularini tushunish va boshqarishga yordam berish orqali hissiy intellektni rivojlantiradi.

4. Kelajak innovatorlarini rag'batlantirish:

Pedagogik-psixologik yondashuv yoshligidan ijodkorlikni tarbiyalash orqali bo'lajak innovator va fikr yetakchilarini yetishtirishga xizmat qiladi. Bu shaxslar ko'proq status-kvoga qarshi turishadi, ilg'or g'oyalarni taklif qilishadi va turli sohalarida muvaffaqiyatga erishishadi, natijada jamiyatga foyda keltiradilar.

5. Moslashuvchanlik va chidamlilik:

Ijodkorlik moslashuvchanlik va chidamlilik bilan chambarchas bog'liq. Ijodiy fikrlashga da'vat etilgan bolalar zamonaviy dunyoning noaniqliklari va tez o'zgarishlarini boshqarish uchun yaxshi jihozlangan. Ular muvaffaqiyatsizliklarni o'sish imkoniyatlari sifatida ko'rish qobiliyatini rivojlantiradilar va kutilmagan qiyinchiliklarga ko'proq moslashadilar.

6. Turli iste'dodlarni o'stirish:

Pedagogik-psixologik yondashuv Govard Gardnerning ko'p intellekt nazariyasi tomonidan taklif qilinganidek, bolalarning iste'dodlari va aql-zakovatlarining xilma-xilligini tan oladi. Ushbu e'tirof barcha bolalarga o'zlarining noyob kuchli tomonlari asosida ustunlik qilish imkoniyatini beradigan yanada inklyuziv va adolatli ta'lim tizimini rivojlantiradi.

7. Bir umrlik muvaffaqiyat uchun mustahkamlangan asoslar:

Aslini olganda, erta bolalik davrida ijodkorlikni tarbiyalash umrbod muvaffaqiyatga erishish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu bolalarni akademik, ijtimoiy va kasbiy jihatdan rivojlanishi uchun zarur vositalar bilan jihozlaydi. Bu ularga hayot davomida yaxshi xizmat qiladigan o'sish fikrlash, chidamlilik va innovatsiyalarga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kelajakdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida mutaxassislarda ijodkorlikni rivojlantirishga pedagogik-psixologik yondashuv shunchaki ta'lim tushunchasi emas; u shaxsning o'sishi, jamiyat taraqqiyoti va kelajak talablariga javob beradigan avlodni yetishtirishning katalizatoridir.

Yosh o'quvchilarimizda ijodkorlikni tarbiyalash orqali biz hamma uchun yorqinroq, innovatsion kelajakka yo'l ochamiz.

Xulosa:

Kelajakdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida mutaxassislarda ijodkorlikni rivojlantirishga pedagogik-psixologik yondashuv erta yoshdagi bolalar ta'limining traektoriyasini qayta shakllantirish qudratiga ega bo'lgan chuqur va istiqbolli yondashuvdir. Moslashuvchanlik, innovatsiya va muammolarni hal qilish ko'nikmalari yuqori darajada bo'lgan jadal rivojlanayotgan 21-asr ostonasida turibmiz, bu yondashuv umid chirog'i sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu maqola davomida biz ushbu yondashuvni asoslaydigan nazariy asoslarni o'rganib chiqdik, ijodkorlikni badiiy ifodadan ustun turadigan hayotiy mahorat sifatida tushunish va konstruktiv pedagogika va psixologik tamoyillarni o'z ichiga oladi. Biz mutaxassislarga o'yinga asoslangan o'rganish, iskala, ijodiy san'at integratsiyasi va aks ettirish amaliyotini o'z ichiga olgan dinamik va boyituvchi o'quv muhitini yaratishga imkon beradigan amaliy strategiyalarni o'rganib chiqdik. Bundan tashqari, biz muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirish va akademik ko'rsatkichlarni yaxshilashdan ijtimoiy va hissiy o'sishga, kelajakdagi innovatorlarni rag'batlantirishga va umrbod muvaffaqiyat asoslarini mustahkamlashga qadar bo'lgan potentsial imtiyozlarni yoritib berdik.

Pedagogik-psixologik yondashuv nazariy abstrakt emas, balki harakatga chaqirishdir. U maktabgacha ta'lim sohasidagi mutaxassislarni o'zgarishlar me'morlari bo'lishga, yosh o'quvchilarni ilhomlantiradigan, ularga qiyinchilik tug'diradigan va imkoniyatlarni kengaytiradigan o'quv muhitini yaratishga chaqiradi. Bu ularni har bir bolaning o'ziga xos potentsialini tan olishga va ularning ijodini ochish uchun zarur bo'lgan iskala va yordamni taqdim etishga undaydi.

Bundan tashqari, bu yondashuv sinf devorlaridan tashqariga chiqib, jamiyatning o'ziga ham kiradi. U innovatsiyalar urug'ini yetishtiradi, turli iste'dodlarni o'stiradi va bolalarni noaniq dunyoda harakat qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va tafakkur bilan qurollantiradi. U kelajak avlodlarimizni taraqqiyot va qiyinchiliklarga chidamlilik katalizatori sifatida belgilaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, pedagogik-psixologik yondashuv nafaqat erta yoshdagi ta'limdagi paradigma o'zgarishini, balki yorqinroq, yanada ijodiy va moslashuvchan kelajakni shakllantirish potentsialiga ega bo'lgan o'zgartiruvchi kuchdir. Uning tamoyillariga sodiq qolgan holda, biz bo'lajak maktabgacha ta'lim muassasalarida mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kelajak avlodni ijod yuksak, imkoniyatlar cheksiz bo'lgan davrga yetaklash uchun tayyorlash yo'lida yo'lga chiqamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. Basic Books.

Piaget, J. (1952). *The Origins of Intelligence in Children*. International Universities Press.

Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.

Amabile, T. M. (1996). *Creativity in Context: Update to the Social Psychology of Creativity*. Westview Press.

Bodrova, E., & Leong, D. J. (2007). *Tools of the Mind: The Vygotskian Approach to Early Childhood Education*. Pearson.

Pellegrini, A. D. (1995). *School Recess and Playground Behavior: Educational and Developmental Roles*. Albany: State University of New York Press.

Guilford, J. P. (1950). Creativity. *American Psychologist*, 5(9), 444-454.

Sawyer, R. K. (2006). Educating for Innovation. *Thinking Skills and Creativity*, 1(1), 41-48.

Csikszentmihalyi, M. (1996). *Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention*. HarperCollins.

Dewey, J. (1934). *Art as Experience*. Penguin Classics.

National Association for the Education of Young Children (NAEYC). (2019). *Developmentally Appropriate Practice in Early Childhood Programs Serving Children from Birth through Age 8*. NAEYC.

Bronfenbrenner, U. (1979). *The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design*. Harvard University Press.

RAQS SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI VA TARAQIYYOT BOSQICHLARI

Sayfutdinova Dilbar Tojiddin qizi

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti 1-bosqich magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqs san'atining rivojlanish tarixi, uning eng qadimiy shakllari hamda taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritilgan. Raqsning ijodiy qirralari va raqqosalari haqida hikoya qilingan.

Kalit so'zlar: Raqs, san'at, estetika, madaniyat, Avesto, Hind raqslari, milliy meros, folklorshunoslik, qadimgi davr, mumtoz raqs, ijrochilik mahorati.

Annotation: In this article the history of development of dance art, its oldest forms and stages of development are considered. Creative aspects of dance and dancers are told.

Key words: Dance, art, aesthetics, culture, Avesta, Indian dances, national heritage, folklore, antiquity, classical dance, performing skills.

Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi davriga kelib madaniyat va san'at taraqqiyoti oliy ta'lim tizimini jahon andozasiga mos va xos ravishda takomillashtirish masalalarini ilgari surmoqda. Bugungi kunda o'z oldimizda jahon fani taraqqiyoti va madaniyatining eng ilg'or yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan, inson aql-zakovati yaratgan boyluklaridan bahramand bo'lgan yangi avlodni shakllantirish vazifasi turibdi. Faqat shu asosdagina millatning taraqqiyot sari intilishini ta'minlovchi intellektual kuchni vujudga keltirish lozimdir.

Yurtimizda milliy va umumbashariy ahamiyatga molik milliy raqs san'atini yanada yuksak mavqega ko'tarishga xizmat qiladigan, tarixiy ahamiyatga ega islohotlar amalga oshirilmoqda. Milliy raqsimiz millat tarixini, ruhiyati, orzu-umidlari va armonlarini aks ettiradigan san'at namunasi hisoblanadi. Uning tarixini o'rganish xalqning urf-odatlarini, an'analari, buguni va kelajagini o'rganish, tadbiriq qilish demakdir.

O'zbek milliy raqs san'ati bugungi kungacha juda katta davrni boshidan o'tkazdi. Uning qadimiy ildizlari, o'tmish tarixi qadimgi diniy marosimlar, xalq o'yini va tomoshalariga borib taqaladi.

Barcha xalqlarda bo'lgani kabi, o'zbek raqslarini qadim zamonlarda vujudga kelishi haqida arxeologik qazilmalar jarayonida topilgan raqqos va raqqosalarning haykalchalari, qadimiy g'orlar va qoyatoshlarga chizilgan tasvirlar, kitob miniatyuralari dalolat beradi. Jahon sivilizatsiyasi rivojlanishi bilan raqs san'ati ham rivojlanib boraverdi. O'zbek raqs san'atining o'zida turli maktablar, yo'nalishlar vujudga keldi va mahalliy raqs taraqqiyot tufayli milliy raqs maqomigacha o'sib bordi. Raqs san'ati ayniqsa, Sharq Renessansi, ya'ni Amir Temur va temuriylar davrida ravnaq topdi. Unda ayniqsa xotin-qizlarning o'rni katta bo'ldi. Raqslarda rang-baranglik tarixiy qatlamlar yaqqol ko'zga tashlanib turdi. Keyinchalik ham raqs fidoyilari tufayli o'zbek milliy raqsi rivojlanishda davom etdi va hozirgacha saqlanib qolgan holda ajoyib raqs vujudga keldi.

Milliy merosimiz ko'p yillik an'analarni saqlab qolgan holda yangicha badiiy tamoyillar asosida rivojlanish yo'liga o'tdi. Bugungi kunda milliy raqs san'atimiz o'zining ko'p yillik an'analari davom ettirish bilan bir qatorda yangi tajribalar hamda ijodiy tamoyillarni namoyon etib kelmoqda. Qadimdan xalq tomonidan sevib ijro etilib, avlod-ajdodlargacha yetib kelgan raqslarga e'tibor berilmagan. Shu sababdan ham xalqimizning ma'naviy-madaniy merosi oyoq osti qilingan va izchil o'rganilmagan. Oddiy xalq ichidan chiqqan va asosiy faoliyatini xalq ichida olib borgan raqs san'ati ustalariga turli qarshiliklar, tahdidlar qilingan. Chunki ular o'z raqslari bilan jamiyatdagi vayronkor g'oyalarni hamda illatlarni fosh etishgan, oddiy xalqqa yaxshi kayfiyat ulashib, ularni nurlil hayot haqidagi orzulariga yetishishlarga ishonitirishgan. Shuning uchun xalq ularni sevgan va ardoqlagan. Oddiy xalq ichidan chiqqan juda ko'pgina iste'dodli raqqos va raqqosalar o'z ijodlari bilan xalqni yuragidan joy oldilar.

O'zbek raqs daholari yaratgan g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak mumtoz raqs xalqimizni asrlar davomida insonparvarlik, ona Vatanga muhabbat, jasorat, fidokorlik, estetik xulq ruhida tarbiyalashga yaqindan yordam berib kelmoqda. Kelajak avlodni voyaga yetkazish, xalq orasida haqiqiy insoniylik munosabatlarini shakllantirishda o'zbek xalqining merosi bo'lgan bugungi kunda muhim estetik tarbiya vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Inson tarbiyasi estetik, ahloqiy-madaniy tarbiya sohalarini bilan uzviy bog'liqdir.

Raqsning eng qadimiy shakllari - bu xali tom ma'nodagi raqs emas, - balki ibtidoiy shakllari ya'ni ritmik pontamimo faqat xalq ijodiyoti emas, balki masxarabozlar milliy an'anaviy professional teatr artistlari repertuarida ham saqlanib qolgan. Raqs professional raqqosalar va sozandalar maxsuli bo'lib, oliy shakllari professional raqqoslar repertuarida shuningdek professional raqqosalarga taqlid qiluvchi raqs xavaskorlari doirasida saqlanadi va rivojlanadi. Mustaqillik sharofati bilan o'zbek milliy raqsi ham gurkirab, rivoj topmoqda. O'zbek xalqi chinakam boy raqs san'ati merosiga ega. O'zbek raqsining butun boyligi serjilo qirralari, go'zalligini saqlash, olamga taratish uchun imkoniyatlar paydo bo'ldikim bu istiqbol mevasidir, sharofatidir. Bizgacha yetib kelgan raqslarning tur va janrlari rang-barangligi xayratda qolarli darajada.

Avlodlar asrlar osha to'plagan ma'naviy boylikni o'quvchilarga me'ros qilib qoldiradilar

Raqs - insoniyat paydo bo'lgan ilk davrlardayoq tug'ilgan va san'atning eng qadimgi, keng tarqalgan va ommabop turlariga kiradi. Qadimdan inson hayotining muhim jabhalarida raqs alohida o'rin tutgan. Ibtidoiy davrda insonlar tomonidan tabiat hodisalari (quyosh, suv, olov bilan bog'liq) turli afsonaviy ko'rinishlarda tushunilgan. Tabiat mo'jizalari insonlarga yaxshilik yoki yomonlik keltiruvchi kuch sifatida tasavvur qilingan.

«Avesto», afsona hamda bitiklarda tabiat mo'jizalari jonli timsollarda tasvirlangani va ular pantomima-raqs shaklida ijro etilgani haqida aytib o'tilgan. Insonlarning mehnat jarayonlari, hayvonlarning harakatlari, afsonaviy xarakterdagi harbiy-vatanparvarlik ruhidagi raqslarni ijro etishgan. Ular o'z fikrlarini bayon eta olmay omadli ov bo'lishini so'rab yalinishgan, yomg'ir yog'ishini, farzand ato etishini iltijo etganlar. Hozirgi davrgacha dunyoning ba'zi bir joylarida, masalan, Afrikada shunday raqslar saqlanib qolgan. Folklorshunolar, sayohatchilar yozib qoldirganlari o'sha davrdagi xalqning yashash tarzi, urf-odatlari, aqidalari haqida so'zlaydi.



Olov oldida jamoa bo'lib raqs tushishlar, insoniyat tarixining ibtidoiy jamoa davridagi tosh bitiklariga chizilgan rasmlardan ko'rsak bo'ladi.

Qadimgi dunyo va antik davr raqslari hozirgi zamon raqslaridan ancha farqlangan. Bular : harbiy, marosimiy, xalq sayllari, to'ylardir. Raqsga tushayotgan ijrochi musiqa ritmini oyoq va qo'llari bilan jonlantirgan. Keyinroq esa maxsus yog'och sandaletlar, kastanetlar, zarbli urma va torli musiqa asboblardan foydalana boshlashgan.

Sharq raqs san'ati V, VI, VII asrlarda rivojlandi. Hindiston va Hitoyda pantomima tomoshalarining bir qismi blib qoldi. Unda raqs folklorining xarakterli chiziqlari o'z aksini topdi. Hindistonda klassik raqs san'atning boshqa turlari, ya'ni musiqa, qo'shiqchilik, she'riyat va teatr bilan bog'liq holda rivojlangan. Hind klassik raqsi eramizning birinchi asridayoq rivojlangan.

Asrlar davomida yaxshi saqlanib qolingani «Bxarata Natya»- janubiy Hindistonning Madras va Maysor o'lkalari raqsidir. Uni hind donishmandi Bxarat ikki yuz yil oldin «Bxarata Natya shastra» asarida yozib qoldirgan. Ushbu raqs an'analarini XVIII asrdan buyon Pillaylar avlodi saqlab kelgan Ulardan biri Minakshi Sundaram Pillaydir. Bu raqs bir necha qismdan iborat. «Jatxisvaram» qismida sozanda baraban sozida bergan murakkab ritmik usullariga raqqosa oyog'iga taqilgan qo'ng'iroqchalarning ovozi bilan jo'r bo'ladi. «Charanam», «Padam» va «Vama» qismlari sevgi - muhabbat haqidagi qo'shiqlar orqali ijro etilib, uning ma'nosi mimika va imo-ishoralar bilan ochib beriladi. «Tillana» yakuniy qismi bo'lib diniy madhiya hisoblanadi. «Katxakali» esa raqs-afsona bo'lib, raqs-pantomima ko'rinishida Malabarda XV-XVI asrlarda rivojlangan. Bu raqs-pantomima qo'shiqning mazmunini tasvirlab beradi. «Katxak»-Shimoliy Hindiston raqsi bo'lib, u musulmon va hind madaniyatining birlashuvi natijasida vujudga kelgan. «Katxak» Lakxnau, Jaypurva Laxorda keng tarqalgan. «Manipuri» raqsi sho'x, quvnoq raqs bo'lib, Hindistonning shimoliy-sharqidagi Manipurda paydo bo'lgan.



Hind raqslarini dunyoga tanitishda zamonaviy hind raqqoslaridan Ram Gopal, Uday Shankar, Menaka (Leyla Sokxeyjlami aytib o‘tish mumkin. Har bir xalqning qadimdan shakllanib kelayotgan o‘z raqs san’ati va shu raqslarni ifodolovchi kuylari mavjud. O‘zbek xalq raqslari ham keng ommalashgan bo‘lib, nafis harakatlar va ularga yarashgan milliy kiyimlar bilan badiiy obrazlar yaratiladi.

O‘zbek raqs san’atining meros raqslari majmuasiga kirgan «Munojot», «Rohat», «Tanovar», «Pilla», «Qari navo», «Dilxiroj», «Katta o‘yin» va boshqa raqslarni biron-bir joyini o‘zgartirishga hech kimning haqqi yo‘q. Ushbu raqslarni buzmasdan, ortiqcha elementlar qo‘shmasdan butunligicha o‘rgatish kerak. Aks holda uslublar aralashib, o‘zbek milliy raqs san’atining ko‘p qirrali boyligiga katta putur yetkazadi.

O‘zbek raqs me‘rosini o‘zlaridan oldingi avlodlardan qabul qilib, uni o‘nlab yillar va asrlar mobaynida ko‘z qorachig‘idek saqlab kelgan ko‘pgina ijrochilarning nomlari ma‘lum. Raqs san’ati asoschilari Yusufjon qiziq Shakarjonov, Ahmadjon Umurzoqov, Usta Olim Komilov, aka Buxor, Tamaraxonim kabi XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab o‘tgan o‘nlab taniqli raqs ustalarining nomlari mashhur.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: O‘zbekiston, 2023. – 113 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risda”gi qonuni. O‘RQ–637–son 23.09.2020–T.: 2020. 75 b. // <https://lex.uz/doss/5013007>
3. H.Xursandov, SH.Qurbonova. Surxon raqs maktabi. T.,2011.
- 4.O.I.Shirokaya. Tamaraxonim. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1973.
- 5.Avdeyeva L. O‘zbek milliy raqsi tarixidan. T., 2001.
6. Ibodovich, T. R. (2022). PRACTICAL SITUATION OF TEACHING UZBEK MUSICAL FOLKLORE IN THE CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(6).
7. Rajabov, T. I. (2023). Distinctive Features of Folk Songs that Serve in the Spiritual and Moral Formation of Bukhara Pupils. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress, 2(3), 59-68.
8. Ражабов, Т. (2023). О ‘zbek bolalar musiqiy o‘yin folklorining mavzuviy tasnifi. Общество и инновации, 4(5/S), 340-345.
- 9.Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. Miasto Przeszłości, 33, 167-176.
10. Ражабов, Т. (2023). О ‘zbek bolalar musiqiy o‘yin folklorining mavzuviy tasnifi. Общество и инновации, 4(5/S), 340-345.

КВАЛИМЕТРИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАХИРИ ВА УНИНГ ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МЕТОДЛАРИ

Салимова Сарвиноз Фарходовна

Бухоро давлат педагогика институти Табиий фанлар кафедраси доценти

<https://orcid.org/0000-0003-2745-6457>

Аннотация. Мақолада квалиметрия, унинг ривожланиш тарихи, олий таълим тизимидаги ўрни ва илмий-тадқиқот методлари баён этилган. Квалиметриянинг амалий тармоғи бўлган педагогик квалиметрияда кадрларни тайёрлашда малака талаблари эталон сифатида таҳлил қилинган бўлиб, педагогик кадрларнинг касб малакаси ва педагогик маҳорати сифати таққослаш орқали аниқланган. Рақобатбардош педагогик кадрларни тайёрлаш жараёнида мазкур жараённи мақсадга мувофиқ ташкил этиш ва бошқаришни режалаштириш, ўқув жараёнини модернизациялаш, мазкур жараённи методик ва техник жиҳатдан таъминлашни талаблари ўрганилган.

Калит сўзлар: Квалиметрия, назарий квалиметрия, махсус квалиметрия, педагогик квалиметрия, таълим-тарбия жараёни, физикавий, кимёвий ва биологик миқдор кўрсаткичлар, таълим парадигмаси.

ХОД РАЗВИТИЯ КВАЛИМЕТРИИ И ЕЕ МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Салимова Сарвиноз Фархадовна

Бухарский государственный педагогический институт Доцент кафедры естественных наук

Аннотация. В статье описывается квалиметрия, история ее развития, ее место в системе высшего образования и методы исследования. В статье в качестве ориентира были сформулированы квалификационные требования к подготовке кадров по педагогической квалиметрии и путем сравнения определено качество профессиональной квалификации и педагогических умений педагогических кадров. В процессе подготовки конкурентоспособных педагогических кадров изучаются требования к планированию целенаправленной организации и управлению этим процессом, модернизации образовательного процесса, методическому и техническому обеспечению этого процесса.

Ключевые слова: квалиметрия, теоретическая квалиметрия, специальная квалиметрия, педагогическая квалиметрия, образовательный процесс, физические, химические и биологические количественные показатели, образовательная парадигма.

THE COURSE OF DEVELOPMENT OF QUALIMETRY AND ITS RESEARCH METHODS

Salimova Sarvinoz Farkhadovna

Bukhara State Pedagogical Institute. Associate Professor of the Department of Natural Sciences

Annotation. The article describes qualimetry, the history of its development, its place in the system of higher education and research methods. In the article, qualification requirements for the training of personnel in pedagogical qualimetry were formulated as a guideline and the quality of professional qualifications and pedagogical skills of pedagogical personnel was determined by comparison. In the process of training competitive teaching staff, the requirements for planning purposeful organization and management of this process, modernization of the educational process, methodological and technical support of this process are studied.

Keywords: qualimetry, theoretical qualimetry, special qualimetry, pedagogical qualimetry, educational process, physical, chemical and biological quantitative indicators, educational paradigm.

Кириш

Квалиметрия-табиатдаги барча объектларни ва жамиятда содир бўладиган барча жараёнлар, ишлаб чиқариш соҳасида яратилган маҳсулотларнинг сифатини миқдорий баҳолаш муаммолари ва методологиясини ўрганувчи илмий фан.

Квалиметрия-(лотинча quails-сифат, қадимий юнонча metros- ўлчов) деган маънони англатиб, объект, маҳсулот, жараёнлар сифатини миқдорий баҳолаш методларини ўзида мужассамлаштирган, турли метод ва воситалар ёрдамида эришилган натижани белгиловчи фан тармоғи.

Квалиметрия фан сифатида ўрганилиши ва баҳоланиши лозим бўлган объектнинг сифатини белгиловчи ҳажм, бирлик, шкала, талаблар ёрдамида мазкур объектнинг сифат ва миқдор кўрсаткичларини аниқлашни белгиланган ва қабул қилинган ўлчов жараёнини амалга ошириш назарияси асосида ўрганади.

Ҳозирги замон нуқтаи назаридан квалиметриянинг сифат кўрсаткичлари иккита йирик гуруҳ: табиий ва ижтимоий кўрсаткичларга ажратиб ўрганилади.

Табиий кўрсаткичлар ўз навбатида: ўрганилаётган объектнинг физикавий, кимёвий ва биологик миқдор кўрсаткичларига ажратилади.

Ижтимоий кўрсаткичлар жамият тараққиётининг муайян босқичидаги воқеа-ҳодисалар, ишлаб чиқариш ва истеъмол маҳсулотлари, педагогик жараёнлар, шахснинг ижтимоий ва мустақил ҳаётдаги мавқеи ва ўрни, саводхонлиги, тарбияланганлик даражаси, шахс камолотига қўлланилади.

Квалиметрия юқорида қайд этилган ҳар бир гуруҳнинг миқдор ва сифат кўрсаткичларини яхлитликда ўрганади ва баҳолашнинг умумий тартибини ишлаб чиқади.

Адабиётлар таҳлили

Объект ва маҳсулотларнинг сифатини ташхислаш ва миқдорий баҳолаш эрамиздан аввалги XV-асрда йўлган қўйилган бўлиб, дастлаб хунармандлар ўз маҳсулотлари сифатини белгилайдиган кўрсаткичларни аниқлаган ва сифат белгиларини қўя бошлаганлар. Шу тариқа сифат кўрсаткичларига асосланган товаршунослик вужудга келган ва 1549 йили Италиядаги Падуан университетида дастлабки товаршунослик кафедраси ташкил этилган [1].

XIX-XX- асрнинг бошларида АҚШ ва Европа мамлакатларида объект ва маҳсулотларни баллар воситасида баҳолаш ва стандартлаштириш йўлга қўйилди.

Шу тариқа бошқа мамлакатларда ҳам сифат кўрсаткичларини аниқлаш ва амалиётга қўллаш борасида муайян ишлар амалга оширила бошланди. Бу ҳаракатлар квалиметриянинг илмий фан сифатида майдонга чиқишига ва тадқиқот кўлами кенгайишига туртки бўлди.

Квалиметриянинг учта: назарий (умумий), махсус, ва амалий тармоқлари мавжуд.

Назарий квалиметрияда аниқ объект лойиҳаланади (абстракцияланади) ва унинг сифат кўрсаткичларининг умумий қонуниятлари ва математик моделлари ўрганилади. Назарий квалиметриянинг тадқиқот объекти жисм, ишлаб чиқариш маҳсулотлари, объект ва субъектларнинг сифатини миқдорий баҳолашнинг фалсафий ва методологик асосларини ишлаб чиқиш саналади.

Назарий квалиметриянинг амалий соҳаларида турли объект ва жараёнларнинг сифатини баҳолаш методикаси ва назарий асослари умумий хусусиятга эга.

Махсус квалиметрия турли хилдаги ва ҳар хил мақсадда фойдаланиладиган аниқ объектнинг сифатини баҳолашнинг аниқ методикаси ва математик моделини ишлаб чиқади.

Махсус квалиметриянинг эксперт, эҳтимоллик-статистик, индексли, квалиметрик таксономия каби турлари мавжуд. Амалий квалиметрия-техника, ишлаб чиқариш, инсон меҳнати фаолияти, турли лойиҳа ва жараёнларнинг сифатини баҳолашни ишлаб чиқадиغان соҳа саналади.

Амалий квалиметриянинг бошқа фанлар билан ўзаро боғланиб, техник квалиметрия, ижтимоий квалиметрия, педагогик квалиметрия, тиббий квалиметрия, геологик квалиметрия ва ҳақоза тармоқлари мавжуд [2].

Бозор иқтисодиёти даврида маҳсулот (буюм, хизматлар, жараёнлар)нинг рақобатбардошлиги ҳал қилувчи аҳамиятга эга.

У ёки бу буюм, хизматлар, жараёнларга эҳтиёж бўлиши учун муайян хусусиятларни ўзида мужасамлаштириш, мақсадга мувофиқ бўлиш, белгиланган вазифаларни бекаму-қўст бажариш каби қийматга эга бўлиши лозим. Ишлаб чиқариш маҳсулотлари ва жараёнларда мазкур белгиларнинг бўлиши улар сифатининг миқдорий баҳолаш имконини беради.

Халқаро тажрибалар буюм, хизматлар, жараёнларнинг юқори сифатли бўлишига эришиш учун уларнинг сифатини аниқлайдиган илмий, техник ва ташкилий мезонлар ишлаб чиқилиши лозимлигини кўрсатди.

Муайян объект ёки жараён бориши, хизматлар, жараёнлар сифати эталон сифатида қабул қилинган моделнинг мезонлари бўйича ўлчаш ва олинган натижаларни таққослаш орқали баҳолаш амалга оширилади.

Хулоса қилиб айтганда квалиметрия буюм, хизматлар, жараёнларнинг сифатини баҳолаш масалаларини ўрганади.

Бу жараёнда квалиметриянинг асосий методлари: таҳлил, синтез, қиёслаш ва таққослаш саналади.

Эталон сифатида қабул қилинган моделнинг сифат кўрсаткичлари асосида баҳоланаётган объектнинг хусусиятлари ҳисобга олинган ҳолда унинг сифати аниқланади.

Квалиметриянинг амалий тармоғи бўлган педагогик квалиметрияда кадрларни тайёрлашда малака талаблари эталон сифатида қабул қилинган бўлиб, педагогик кадрларнинг касб малакаси ва педагогик маҳорати сифати таққослаш орқали аниқланади.

Рақобатбардош педагогик кадрларни тайёрлаш жараёнида мазкур жараённи мақсадга мувофиқ ташкил этиш ва бошқаришни режалаштириш, ўқув жараёнини модернизациялаш, мазкур жараённи методик ва техник жиҳатдан таъминлашни талаб этади.

Педагогик квалиметрия йиллар давомида тўпланган тажрибалар, далиллар асосида вужудга келган ва шаклланган илмий-назарий фан бўлиб, таълим-тарбия жараёнида қўлланиладиган педагогик инновация ва унга боғлиқ ҳолда ўқитувчининг педагогик фаолиятини яхлит ўрганади.

Педагогик квалиметрия кўп қиррали педагогик жараён ва унга боғлиқ ҳолда ўқитувчининг педагогик фаолиятини ўрганиб, педагогика фанлари соҳалари ичида энг муҳим ўрин тутадиган, лекин кам ўрганилган соҳа саналади.

Шуни қайд этиш керакки, педагогик квалиметрия педагогик жараён ва ўқитувчининг педагогик фаолиятининг сифатини белгилайди.

Педагогик квалиметриянинг методологик муаммолари шу кунга қадар илмий тадқиқотчиларнинг диққатидан четда қолган ва бу соҳадаги муаммолар ўз ечимини кутмоқда.

Адабиётлар таҳлили, педагогик квалиметриянинг методологик асослари жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши, таълим муассасалари олдида қўйиладиган давлат ва ижтимоий буюртмаларга бевосита боғлиқ бўлганлиги сабабли, унинг методологик асослари юзасидан амалга оширилган ишлар жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг мантиқий бирлиги қонуниятини асосида ривожланганлигини кўрсатди.

Педагогик квалиметриянинг тадқиқот объекти давлат ва ижтимоий буюртмалар зиммасига юкланган таълим муассасасининг мазкур буюртмаларни бажариш мақсадида ташкил этиладиган таълим-тарбия жараёнининг сифати, талабаларнинг ўқув-билиш фаолиятини ташкил этилиши ва бошқарилиши, ўқитувчи педагогик фаолиятининг мақсадга мувофиқ ташкил этилиши сифатини назорат қилиш ва баҳолаш саналади.

Тадқиқот методологияси

Педагогик квалиметриянинг фан сифатида шаклланиши ва ривожланиш тарихини шартли равишда уч даврга бўлиб ўрганиш мумкин:

Антик давр ва Ўрта асрларда ривожланиши, яъни ҳали илмий асосланмаган, эмпирик ривожланиш даври.

XVI-аср ва XIX-асрнинг охиригача бўлган давр, таълим-тарбия жараёнининг сифати бўйича дастлабки тасаввурлар пайдо бўлган давр.

Педагогик квалиметриянинг янги ва энг янги ривожланиш даври, яъни илмий асосланган, методологик асослари аниқланган, назарий, ва амалий тармоқларига эга илмий ўлчов параметрларига эга даври. Педагогик квалиметрия ривожланишининг мазкур даврларга ажратилишида жамият, дин ва фан ривожининг таълим-тарбия жараёнига кўрсатган таъсири, шунингдек, диний таълим, диний-дунёвий таълим, дунёвий таълим парадигмалари асосида таълим-тарбиянинг ташкил этилиши назарда тутилган.

Ҳар бир таълим парадигмаси илмий-назарий билиш, таълим-тарбия жараёнининг мақсади ва вазифалари, уларга мос ҳолда талабаларнинг ўқув-билиш фаолиятдан эришиладиган натижаларни баҳолаш меъёрларига эга бўлган.

Антик давр ва Ўрта асрларда ривожланиши, яъни ҳали илмий асосланмаган, эмпирик ривожланиш даври таълим муассасаларининг асосий вазифаси талабаларнинг онгига фалсафий-диний мазмундаги билимларни етказиш саналган. Асосий эътибор жамиятни барқарорлаштириш, жамият аъзоларини диний саводхонликка эга қилишга қаратилган. Ўша даврда олий таълим муассасаларининг шаклланиш жараёни бошланишига тўғри келади ва у таълим муассасаларида ихтиёрий равишда 7 та санъат йўналишини ўрганиш йўлга қўйилган [3].

Мазкур санъат йўналишини ўрганиш жамият аъзоларининг маънавий-ахлоқий, ақлий, жисмоний ривожланиши, эстетик дид, экологик қарашларнинг вужудга келишига замин тайёрлаган.

Ўша даврнинг таълим муассасаларининг таълимий мақсади сифатида талабаларнинг интеллектуал ва жисмоний баркамоллигини таъминлаш, мантиқий фикр юритиш кўникмаларини таркиб топтириш белгиланганлиги боис, таълим-тарбия жараёнида талабалар томонидан билимларни ўзлаштириш баробарида ўқитиш жараёнида вужудга келтириладиган муаммоли вазиятларда муаммоларни аниқлаш, таҳлил, синтез, таққослаш, қиёслаш, умумлаштириш ва хулоса яшаш каби ақлий операцияларни бажариши кўзда тутилган. Талабалар томонидан ўзлаштирилган билимлар оғзаки савол-жавоб ва суҳбат орқали назорат қилинган ва баҳоланган.

Таълим-тарбия жараёнининг якуний натижаси оғзаки савол-жавоб ва суҳбат орқали назорат қилиниши кўзланган натижани бермаганлиги сабабли, назоратнинг кенг қамровли ва мақсадга мувофиқ шакл ва воситаларини ишлаб чиқиш зарурати вужудга келди.

XVI-аср ва XIX-асрнинг охиригача бўлган давр, таълим-тарбия жараёнининг сифати бўйича дастлабки тасаввурлар пайдо бўлган даврда таълим-тарбия жараёнининг якуний натижаси ва ўқитувчи-

ларнинг педагогик фаолиятини баҳолаш юзасидан муайян изланишлар олиб борилган, лекин мазкур изланишлар кўзланган натижани бермаган [4].

Атоқли педагог Я.А.Коменскийнинг “Буюк дидактика” асарида асосий дидактик категориялар, ўқитиш мақсади, таълим мазмуни, билимларни назорат қилиш, таълим-тарбия жараёнининг сифатини белгилаш дидактик жиҳатдан асосланган.

Олим томонидан педагогика фанига янги атама ва тушунчалар “билимларни назорат қилиш ва баҳолаш”, “имтиҳон”, “коллеквиум”, “диктант” кабилар киритилди.

Маълумки, ўқитиш жараёнининг баҳолашда якуний натижа сифатида талабалар томонидан эгалланган билим, кўникма ва малакаларга асосланади.

Таълим муассасасининг юқори малакали ва рақобатбардош кадрларни тайёрлаш сифатини орттириш мақсадида беш балли баҳолаш тизими йўлга қўйилди.

Педагогик квалиметриянинг янги ва энг янги ривожланиш даври. XX-асрнинг бошларида таълим муассасалари прагматик позицияда, яъни талабалар томонидан ўзлаштирган билим, кўникма ва малакаларни ва кейинчалик компетенцияларни назорат қилиш ва баҳолаш йўлга қўйилган.

Уша даврда Россия таълим муассасаларида таълим мазмуни ғоявий- сиёсий йўналишга урғу берилиб, таълим-тарбиянинг узвийлигига асосланган назарий тизим йўлга қўйилган ва назарий репродуктив билим, кўникма ва малакаларни назорат қилиш ва таълим-тарбиянинг якуний натижаси сифатида ҳар томонлама ривожланган шахсни шакллантириш назарда тутилган.

Педагогик квалиметриянинг энг янги ривожланиш даврида талабалар шахсига йўналтирилган таълим парадигмаси майдонга чиқди.

Шахсга йўналтирилган таълим асосида умуминсоний қадриятларга асосланган, педагогик муносабатлар инсонпарварлаштирилган, талаба шахснинг қизиқишлари, эҳтиёжлари, ички ва ташқи ўқув мотивларини эътиборга олинган ҳолда таълим-тарбия жараёнини мақсадга мувофиқ ташкил этиш назарияси туради.

Таҳлил ва натижалар

Ушбу парадигма асосида педагогик квалиметрияда, шунингдек, таълим-тарбия тизимида ижобий ўзгаришларни вужудга келтирди. Улар жумласига:

Таълим тизимида ҳукмронлик қилаётган шахснинг ижтимоийлашуви ва мослашуви асосланган фронтал таълим-тарбия жараёнидан ўқитиш мақсадларини амалга оширишга имкон берадиган шахснинг индивидуал ривожланишига замин тайёрлайдиган жараёнга ўтиш;

Талабаларни илмий билимлар билан қуроллантиришдан воз кечиб, умуммаданий, умуминсоний қадриятлар асосида назарий билимлар, амалий кўникма ва малакаларни таркиб топтиришга эътиборни қаратиш;

Мажбурий ўқитиш шакллари билан биргаликда талабаларни мустақил таълим олиш ва мустақил тайёргарликка йўллаш;

Таълим мазмунидаги билимлар, кўникма ва малакалар, ижодий фаолият тажрибалари ва қадриятларни таркиб топтиришда ўқув курсларининг назарий масалалари асосида эмас, балки интегралланган мазмун, фанлараро боғланиш, модуллар тизимидан фойдаланишга ўтиш;

Ўқитишнинг репродуктив методлари ва анъанавий технологиялари билан бир қаторда талабаларнинг ижодий, танқидий ва мантиқий фикрлаш кўникмаларини ривожлантириш имконини берадиган инновацион ва ахборот технологияларидан фойдаланиш;

Таълим-тарбия жараёнининг якуний натижасини назорат қилиш ва баҳолашда билим, кўникма ва малакалар парадигмасидан воз кечиб таълим тизимини модернизациялашнинг истиқболли йўналиши сифатида қабул қилинган компетенцияларни назорат қилиш орқали шахснинг ривожланганлик ва тарбияланганлик даражасини аниқлашни йўлга қўйиш зарурлиги киритилган

Таълим-тарбия жараёнига киритилиши назарда тутилган ижобий ўзгаришлар ўз навбатида талабаларнинг ўзлаштирган билим, кўникма, малакалари ва компетенциясини баҳолаш жараёнига ўз таъсирини кўрсатади.

Педагогик квалиметриянинг фан сифатида қуйидаги концептуал асослари мавжуд:

Педагогик квалиметрия узлуксиз таълим тизимининг турли босқичларида ташкил этиладиган таълим-тарбия жараёнининг сифати, талабаларнинг ўзлаштириш даражаси ва сифати, педагогик кадрларнинг касбий малака даражасини аниқлаш ва умумлашган хулоса яшаш имконини яратади.

Педагогик квалиметрия тадқиқ этилаётган объектнинг сифат кўрсаткичини динамик категория сифатида қабул қилади ва келгусида замон билан ҳамнафаслик, узлуксиз таълим тизими олдида қўйилаётган давлат ва ижтимоий буюртмалар асосида ушбу сифат кўрсаткичи даражасининг ортишини назарда тутади.

Педагогик квалиметрия ўзаро узвий ва ўзаро боғланган иккита соҳа назарий квалиметрия ва амалий квалиметрия ютуқлари асосида шаклланган ва фан сифатида ривожланиб боради.

Педагогик квалиметрия бўлажак педагогик кадрларнинг педагогик фаолиятга тайёргарлик даражасининг малака талабларига мослиги, узлуксиз таълим тизимида педагогик фаолият юритаётган ўқитувчиларнинг касбий малакаси, мазкур босқичда ташкил этиладиган таълим-тарбия жараёнининг сифати, талабаларнинг ўзлаштирган билим, кўника ва малакалари, касбий компетенцияси (лаёқати) нинг ДТС билан меъёрланган билим, кўника ва малакаларга мослиги, олий таълим муассасалари, шу жумладан мавжуд кафедраларнинг педагогик кадрлар тайёрлаш сифати, ўқув режадан ўрин олган курсларнинг моддий ва дидактик таъминоти сифатини белгиланган тартибга мувофиқ рейтинг асосида назорат қилади ва баҳолайди [5].

Педагогик квалиметрия фан сифатида қуйидаги мақсадларга эришиш йўлини белгилайди:

Таълим хизматларининг истиқбол режаларини шакллантириш босқичида таълим давлатимизнинг ижтимоий соҳадаги устувор йўналиш эканлиги назарда тутилган ҳолда, ахборотлар глобаллашган, дунёда содир бўлаётган ғоявий-сиёсий ўзгаришлар, жаҳоннинг ривожланган мамлакатлари таълим муассасаларида қўлга киритилган ютуқлар, жамият ҳаётидаги маънавий-маърифий янгиланишларни эътиборга олган ҳолда таълим-тарбия жараёнининг замон талабларига мос ташкил этилишини назорат қилиш имконини берадиган меъёрий талабларни ишлаб чиқиш;

Таълим-тарбия жараёнининг ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатларини яратиш босқичида давлат ва ижтимоий буюртмаларга асосланган ДТС, педагог кадрларга қўйиладиган малакавий талаблар асосида намунавий ўқув режалар, узлуксиз таълим тизимида жорий этилган модернизациялаштирилган ва узвийлаштирилган намунавий дастурлар, ўқув курсларининг моддий-техник, ўқув-методик таъминотининг мақсадга мувофиқлигини назорат қилиш ва сифатини баҳолаш йўллари ишлаб чиқиш;

Олий таълим муассасаларида таҳсил олаётган талабаларнинг модернизациялаштирилган ва узвийлаштирилган намунавий дастурлар, ДТС билан меъёрланган билим, кўника, малакалари ва лаёқатини амалга жорий этиш мақсадида ташкил этиладиган таълим-тарбия жараёни, ўқув ва педагогик амалиётнинг сифатини назорат қилиш ва баҳолаш меъёрларини шакллантириш [6];

Олий таълим муассасалари битирувчиларини иш билан таъминлаш, уларни педагогик жараёнга мослаштириш, педагогика фаолиятни талаб даражасида олиб борилиши, устоз-шоғирда йўналишида олиб борилаётган ишларнинг мазмун-моҳиятини таҳлил қилиш ва баҳолаш меъёрларини ишлаб чиқиш;

Педагогик квалиметриянинг фан сифатидаги асосий вазифалари:

Кадрлар тайёрлаш миллий дастури, Давлат дастурлари, Президент Фармони ва фармойишлари, Вазирлар Маҳкамасининг қарорларида белгиланган вазифаларнинг бажарилишини назорат қилиш;

Олий таълим муассасаларини аттестациядан ўтказиш, аккредитациялаш жараёнининг меъёрий ҳужжатлари ва рейтинг тизимини ишлаб чиқиш;

Олий таълим муассасалари таркибидаги кафедраларнинг илмий салоҳияти, илмий-тадқиқот, маънавий-маърифий ишлари, ташкил этиладиган таълим-тарбия жараёнининг сифатини аниқлаш;

Профессор-ўқитувчиларнинг педагогик фаолияти, илмий-тадқиқот, маънавий-маърифий ишлари, ўқитиладиган курсларнинг моддий-техник, ўқув-методик мажмуаларининг сифатини аниқлаш;

Фанлар бўйича талабаларнинг ДТС билан меъёрланган билим, кўника, малакаларни ўзлаштириш, компетенцияларни таркиб топганлик даражаси ва сифатини аниқлаш;

Педагогик квалиметриянинг илмий-тадқиқот методлари жумласига таққослаш, олинган натижаларни математик статистик метод воситасида таҳлил қилиш ва хулоса яшаш, педагогик кадрларни суҳбатдан ўтказиш, ўқитувчиларнинг фикр-мулоҳазаларини аниқлаш мақсадида сўровнома ўтказиш, экспертизадан ўтказиш, ижтимоий методларни киритиш мумкин.

Педагогик квалиметриянинг долзарб муаммолари. Узлуксиз таълим тизимида ташкил этилаётган таълим-тарбия жараёнининг сифатини назорат қилиш ва баҳолашда ташхислаш, экспертиза, мониторинг ва педагогик квалиметриядан фойдаланилади.

Педагогик ўлчов назариясига асосланган квалиметрик йўналиш ўзининг кенг қамровлиги, тест жараёнининг дахлсизлиги, олинган натижаларни математик-статистик таҳлил қилиш, талабаларнинг ривожланиш даражаси ва билимларни ўзлаштириш сифати ҳақида қатъий аниқ ва ранжерли натижаларни олиш имконини беради.

Назарий квалиметрик йўналишда ташкил этиладиган назорат анъанавий назорат турларидан тадқиқ этилаётган объектнинг ўзлаштирган билим, кўника ва малакалари сифатини баҳолашда кўп миқдордаги ахборот ва миқдорий баҳолаш имконияти мавжудлиги билан фарқланади.

Таълим мониторингини илмий асосланган ва ўзаро узвий боғланган назорат турлари ва ахборот технологиялари асосида ташкил этилиши таълим-тарбия жараёнидан кўзланган натижа эришиш ва сифатини аниқлаш имконини беради.

Жаҳоннинг ривожланган мамлакатларнинг таълим мониторингида тест топшириқларидан фойдаланилади ва бу метод ёрдамида кўп сондаги талабаларнинг қисқа муддатда ўзлаштирган билим,

кўникма ва малакалари сифатини аниқлаш, олинган натижаларга мувофиқ талабаларга индивидуал ёндошиш, узлуксиз таълим тизими турларидаги таълим-тарбия жараёнининг сифатини аниқлаш, уларнинг ўртача қийматини аниқлаш ва баҳолаш, олинган натижаларни қайд этиш амалга оширилади.

Ҳозирги пайтда таълим муассасаларида тест топшириқларидан самарали фойдаланиш йўллари ишлаб чиқилган бўлиб, таълим маконида педагогик муносабатларнинг янги парадигмалари талаба-ўқитувчи, талаба-ота-оналар, ўқитувчи-раҳбарият, таълим муассасалари-таълимни бошқарув органлари каби назорат-баҳолаш тизими амалиётга жорий этилмоқда.

Тест топшириқларининг дахлсиз ва мустақил ташкил этилиши таълим-тарбия жараёнининг сифатини назорат қилиш ва баҳолаш тизимининг муҳим таркибий қисмига айланди, шу билан биргаликда тизим ҳосил қилувчи ва фаол таъсир кўрсатувчи омил сифатида майдонга чиқди.

Педагогик квалиметриянинг илмий-тадқиқот методлари. Ҳорижий мамлакатларда чоп этилган адабиётлар таҳлили, квалиметрия методларидан иқтисодиётда, истеъмол буюмларни индекслаш, бунда таҳлил, экспериментел, индексли методлардан фойдаланиш методикаси Г. Агзалов, А. Костин, А. Омистелар томонидан чоп этилган *The ABC of Qualimetry* китобида ўз ифодасини топганлигини кўрсатди.

Республикамизда жорий этилган узлуксиз таълим тизимининг барча бўғинларида таълим-тарбия жараёнининг самарадорлигини назорат қилиш ва баҳолаш, мазкур тизимда педагогик фаолият юритаётган педагогларнинг касбий-педагогик тайёргарлик даражасини аниқлашда педагогик квалиметрия методлари муҳим ўрин тутди.

Шу нуқтаи назардан олиб қараганда узлуксиз таълим тизимининг барча бўғинлари шу жумладан, олий таълим муассасасида педагогик фаолият юритаётган профессор-ўқитувчилар педагогик квалиметрияни фан сифатида объекти, предмети, мақсади, вазифалари, принциплари, квалиметрик шкала, квалиметрик жараёнининг босқичлари, педагогик квалиметрия методлари воситасида таълим-тарбия жараёнини ташхислаш ва баҳолаш, олинган натижага мувофиқ умумий хулосалаш, касбий- педагогик фаолиятда квалиметрия методларини қўллашдаги ёндошувларнинг мазмун-моҳиятини англаши лозим.

Шу билан бир қаторда профессор-ўқитувчилар таълим-тарбия жараёнида талабаларнинг ўзлаштирган билим, кўникма, малакалари ва компетенцияларини назорат қилиш ва баҳолашда квалиметриянинг асосий методларидан бири, тест топшириқларидан фойдаланиш, стандарт ва ностандарт тест топшириқларини туза олиши, тест ўтказиш жараёнининг методикаси, олинган натижаларни экспертизадан ўтказиш, якуний натижаларни умумлаштириш, педагогнинг касбий-педагогик моделини тузиш ва моделнинг ҳар бир таркибий қисмининг эгалланганлик даражасини аниқлаш, талабаларнинг умумий ва касбий лаёқатинини аниқлаш методикаси, талабалар томонидан билимларни эгаллаганлик ва тарбияланганлик даражасини аниқлаш ва педагогик хулоса яшаш малакасини эгаллаган бўлиши зарур.

Педагогик квалиметрия профессор-ўқитувчиларнинг касбий маҳоратини аниқлашда ҳам ўрин тутди. Педагог кадрларнинг ўз касбий- педагогик тайёргарлиги, касбий лаёқатини баҳолаш ва ўз-ўзини баҳолаш учун педагогик квалиметриянинг қуйидаги методларидан фойдаланилади:

Экспертиза методи

Таҳлил методи.

Педагогик жараёни кузатиш ва таҳлил қилиш.

Сўровнома ўтказиш

Тест топшириқлари.

Суҳбат методи.

Математик-статистик таҳлил қилиш.

Умумлаштириш.

Таълим-тарбия жараёнида педагогик квалиметрия ютуқларидан жуда кенг миқёсда фойдаланиш истиқболлари мавжуд. Жумладан, педагогик фаолиятда талабаларнинг таълим муассасаларида фанлар бўйича ДТС билан меъёрланган талабалар асосида билим, кўникма, малакалар ва компетенцияларни ўзлаштириш имкониятлари, уларнинг эҳтиёжлари ва ўзлаштирилганлик даражасини аниқлаш ва олинган натижаларга мувофиқ уларга нисбатан индивидуал ёндошувни амалга ошириш юзасидан тавсиялар тайёрлаш;

Педагогик квалиметрия жараёнини қўллашда қуйидаги мантикий ёндошувлар мавжуд:

Педагогик квалиметрик жараёни дедуктив мантикий йўналишда ташкил этиш;

Педагогик квалиметрик жараёни индуктив мантикий йўналишда ташкил этиш;

Педагогик квалиметрик жараёни дедуктив мантикий йўналишда ташкил этилишига олий таълим муассасаларини аттестациядан ўтказиш, аккредитациялаш, олий таълим муассасаларининг рейтингини аниқлаш жараёнларини мисол қилиб олиш мумкин.

Мазкур жараёнда экспертиза методи воситасида олий таълим муассасасида таълим-тарбия жараёнини ташкил этишнинг ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлари, ўқув курсларининг дидактик ва методик таъминоти, моддий-техник базаси таҳлил қилиниб, экспертизадан ўтказилади. Юқорида қайд этилган ҳужжатлар экспертизадан ўтгандан сўнг, олий таълим муассасасида ташкил этиладиган педагогик жараён кузатилади ва таҳлил қилинади. Таълим-тарбия жараёнининг самарадорлигини аниқлаш мақсадида талабалардан муайян масалаларни қамраб олган сўровнома ўтказилади. Сўровнома натижалари таҳлил қилиниб, йўл қўйилаётган камчиликлар аниқланади ва уларни бартараф этиш юзасидан тавсиялар тайёрланади. Таълим-тарбия жараёнида ўқув курслари бўйича талабаларнинг ўзлаштирган билим, кўникма ва малакаларини аниқлаш мақсадида фанлардан тузилган тест ўтказилади ва олинган натижалар таҳлил этилиб, олий таълим муассасасида ташкил этиладиган педагогик жараённинг самарадорлиги аниқланади [7].

Муайян ўқув фанлари бўйича талабаларнинг ўзлаштирган билим, кўникма ва малакаларини аниқлаш мақсадида суҳбат ўтказилади ва натижалар таҳлил этилади.

Юқорида қайд этилган барча жараёнлардан олинган натижалар математик-статистик метод воситасида таҳлил қилинади ва маълумотлар умумлаштирилиб, олий таълим муассасасида ташкил этиладиган педагогик жараённинг самарадорлиги ҳақида умумий хулоса тайёрланади.

Педагогик квалиметрик жараёни индуктив мантиқий йўналишда ташкил этилиши сирасига педагог кадрларнинг касбий-педагогик тайёргарлиги, касбий лаёқатини баҳолаш ва ўз-ўзини баҳолаш жараёни киради.

Бу жараёнда профессор-ўқитувчиларни аттестациядан ўтказиш мақсадида уларнинг педагогик фаолияти таҳлил этилади. Танловдан танловгача бўлган даврда амалга оширилган ўқув, маънавий-маърифий ишлари, илмий, илмий-методик соҳада олиб борилган изланишлари, чоп этилган илмий ишлари, масъул бўлган ўқув курси бўйича тайёрланган ўқув-методик мажмуанинг мақсадга мувофиқлиги экспертизадан ўтказилади.

Мазкур ўқитувчининг педагогик фаолиятининг самарадорлигини аниқлаш мақсадида намунавий машғулотлар мутахассислар ва экспертлар томонидан таҳлил этилади ва самарадорлиги ҳақида хулоса чиқарилади.

Муайян ўқув курси бўйича талабаларнинг ўзлаштирган билим, кўникма, малакалари ва компетенцияларини назорат қилиш ва баҳолашда квалиметриянинг асосий методларидан бири, тест топшириқларидан фойдаланиш ҳам квалиметрик жараёни индуктив мантиқий йўналишда ташкил этилишига мисол бўлади.

Хулоса. Педагогик квалиметрия методларидан фойдаланиш муаммолари қуйидагилардан иборат. Таълим-тарбия жараёнининг сифатини тадқиқ этишнинг методологик ва дастурий таъминотини яратиш;

Педагогик квалиметрия методлари воситасида талабаларнинг таълим муассасаларида фанлар бўйича ДТС билан меъёрланган талаблар асосида билим, кўникма, малакалар ва компетенцияларни эгаллаганлик даражасини диагностика қилиш соҳасида фундаментал тадқиқотлар ўтказиш;

Узлуксиз таълим тизимининг умумий ўрта таълим, ўрта махсус, касб-хунар таълими, олий таълим тизимида таълим-тарбия жараёнининг сифати мониторингини ўтказиш дастурини ишлаб чиқиш ва амалиётга қўллаш;

Олий таълим муассасаларида ўқитиладиган курслар бўйича назорат-ўлчов материалларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш.

Талабаларнинг ўз-ўзини назорат қилиш жараёнида *Mu test* дастури воситасида фанлар бўйича ностандарт адаптив тест топшириқларини тузиш ва амалиётга жорий этиш.

Хулоса қилиб айтганда, таълим-тарбия жараёнида педагогик квалиметрия методларидан фойдаланиш таълим самарадорлигини аниқлаш, мавжуд камчиликларга барҳам беришга замин тайёрлайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

Федюкин, В. К. Квалитология : Учебное пособие. Часть 1. – СПб. : Изд-во СПбГИЭУ, 2016. – 211 с.

Федюкин, В. К. Основы квалиметрии. – М. : Изд-во «ФИЛИНЪ», 2017. – 316 с.

Фомин, В. Н. Квалиметрия. Управление качеством. Сертификация. М. : Ассоциация авторов и издателей «ТАНДЕМ». Изд-во «ЭКМОС», 2017. – 196 с.

Пивень, Г. Г., Падиарова, И. П. Обеспечение конкурентоспособности продукции на основе внедрения систем менеджмента качества по МС ИСО 9001:2000 // Наука и техника Казахстана. – 2001. – № 2. – С. 66–72.

Юраков, Н. С., Левицкая, К. М., Юракова, Т. Г. Квалиметрическая оценка как основа показателя качества продукции // В сборнике : Фундаментальные и прикладные научные исследования : инноватика в современном мире Сборник статей по материалам международной научно-практической конференции. 2019. – С. 161–166.

Аскаров, Е. С. Новая версия стандарта СТ РК ISO/IEC 17025:2018 – проблемы перехода // Наука и техника Казахстана. 2019. – № 2. – С. 28–35.

Толипова Ж.О. Биология ўқитувчисининг илмий-методик тайёргарлиги даражасини орттиришнинг назарияси ва амалиёти. Монография. -Т.: Фан. 2005. -114 б.

TA'LIM JARAYONIDA ELEKTRON RESURLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Siddiqova Sadoqat G'afforovna,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ РЕСУРСОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Сиддикова Садокат Гаффоровна
ректор Бухарского инженерно-технологического института, доктор философии по педагогическим наукам

POSSIBILITIES OF USING ELECTRONIC RESOURCES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Siddikova Sadokat Gafforovna - Rector of the Bukhara Engineering and Technology Institute, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences

Аннотация. В данной статье рассматриваются требования и потребности работодателей, рациональное внедрение компьютерных технологий в образовательный процесс, развитие этих электронных образовательных ресурсов на практике, функциональные характеристики компьютерных и коммуникационных технологий, а также возможности их использования в образовательном процессе. Объяснено.

Ключевые слова: образовательный процесс, легкая промышленность, компьютерные технологии, электронные образовательные ресурсы, коммуникационные технологии, функциональные особенности, возможности применения

Abstract. In this article, the level of training of graduates is in accordance with the requirements and needs of employers, the rational introduction of computer technologies in the educational process, the development of these electronic educational resources in practice, the functional characteristics of computer and communication technologies, and the possibilities of using them in the educational process. explained.

Keywords. educational process, light industry, computer technologies, electronic educational resources, communication technologies, functional features, application possibilities

Введение. В нашей республике инвестиционная среда нуждается в совершенствовании, что требует от нас внедрения новых технологий. В настоящее время актуальными являются вопросы совершенствования образовательного процесса, внедрения компьютерных технологий, развития электронных образовательных ресурсов на практике, функциональных характеристик компьютерных и коммуникационных технологий, а также возможностей их использования в образовательном процессе. Объяснено.

Ключевые слова: образовательный процесс, легкая промышленность, компьютерные технологии, электронные образовательные ресурсы, коммуникационные технологии, функциональные особенности, возможности применения

Materials and Methods.

В настоящее время актуальными являются вопросы совершенствования образовательного процесса, внедрения компьютерных технологий, развития электронных образовательных ресурсов на практике, функциональных характеристик компьютерных и коммуникационных технологий, а также возможностей их использования в образовательном процессе. Объяснено.

Ключевые слова: образовательный процесс, легкая промышленность, компьютерные технологии, электронные образовательные ресурсы, коммуникационные технологии, функциональные особенности, возможности применения

В настоящее время актуальными являются вопросы совершенствования образовательного процесса, внедрения компьютерных технологий, развития электронных образовательных ресурсов на практике, функциональных характеристик компьютерных и коммуникационных технологий, а также возможностей их использования в образовательном процессе. Объяснено.

Ключевые слова: образовательный процесс, легкая промышленность, компьютерные технологии, электронные образовательные ресурсы, коммуникационные технологии, функциональные особенности, возможности применения

o'qitish imkoniyatlarini dolzarblashtirish;

- faol-faoliyatli o'qitish formalarini rivojlantirish;
 - shaxsiy-rivojlantiruvchi o'qitish modelini amalga oshirish;
 - talabning tizimli fikrlashini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;
 - o'quv jarayonini individuallashtirish prinsipini, uning yaxlitligini saqlagan holda amalga oshirish;
- o'qituvchining faoliyatida ijodiy komponentning o'sishi uchun sharoitlarni yaratish [5, 8].

Amaliyotda bu elektron ta'lim resurslarini (ETR) ishlab chiqish va ularni ta'lim jarayonida joriy etish zaruriyatini anglatadi. Bunday ta'lim resurslaridan foydalanish, ta'limda samarali yondoshuvlarni rivojlantirishning zaruriy shartlari va o'qitish hamda o'rgatish metodikalarini takomillashtirish sifatida namoyon bo'ladi.

Elektron ta'lim resurslari tushunchasiga turli ta'riflarning berilishiga qaramasdan, ularning quyidagi umumiy tomonlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) elektron ta'lim resurslari – bu o'quv-metodik materiallardir;
- 2) elektron o'quv materiallari – bu AKTdan foydalanib yaratiladigan elektron ko'rinishidagi ma'lumotlar jamlanmasidir;
- 3) elektron o'quv materiallari – bu didaktik vositadir;
- 4) elektron o'quv materiallari zamonaviy ta'limning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Olib borilgan tahlillarimiz asosida, biz elektron ta'lim resurslari deganda, o'qish uchun belgilangan, aniq predmet sohaning tizimlashtirilgan materiallaridan iborat bo'lgan va ushbu soha bo'yicha talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini egallashlarini ta'minlovchi dasturiy vositalarni tushunamiz.

Zamonaviy kompyuterli va kommunikasion texnologiyalarning funksional xususiyatlari ta'lim jarayoniga quyidagi imkoniyatlarni amalga oshirishni taqdim etadi:

- tabiatan turli-tuman bo'lgan axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash, tahlil etish va qo'llashning cheklanmagan imkoniyatlari;
- ta'lim olish formalarining kengayishi bilan ta'lim olishga ruxsatning oshishi;
- ta'lim olish uzluksizligini ta'minlash va butun faol hayot mobaynida malakaning oshirilishi;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, qo'shimcha va rivojlantiruvchi (operajayushego) ta'limni rivojlantirish;
- ta'lim jarayoni (virtual ta'lim muassasalari, laboratoriyalar, universitetlar va boshq.) tashkiliy-metodik ta'minotini yanada kengaytirish va takomillashtirish;
- ta'lim jarayonini tashkil etishda sub'yektlar faolliligini oshirish;
- ta'lim jarayoni metodik va dasturiy ta'minotini sezilarni darajada kengaytirish;
- individual ta'lim trayektoriyasini amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlash;
- o'qish jarayonida mustaqil ijodiy qidiruv faoliyatini rivojlantirish;
- o'qitishning motivasion tomonlarini oshirish;
- o'qitish joyi va vaqtdan ta'lim jarayonining bog'liq emasligi;
- o'qitishning yagona axborot-ta'lim muhitini yaratish jahon hamjamiyati ma'lumotlari va bilimlari bazasidan foydalanish [5].

Results. Demak, elektron ta'lim resurslari asosida kompyuterli o'qitish texnologiyasini oliy ta'lim muassasalarida ixtisoslik fanlarni o'qitishda qo'llash ta'lim jarayonida keng imkoniyatlari ochib beradi va o'qitishni tashkil etishning texnologik asoslarini kengaytirish hisobidan qo'shimcha imkoniyatlarni taqdim etadi. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan jamoa bo'lib foydalanish o'quv samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanishiga ham imkoniyat yaratadi; talabalarni fikrlash faoliyatini faollashtirishga hamda ijodkorlik faoliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Shuni ta'kidlash joizki, mavjud o'ly ta'lim muassasalarida ixtisoslik fanlarni o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan yetarli darajada foydalanilmayapti. Shuningdek, bunday resurslarni ishlab chiqish uchun malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi sezilib turadi. Ayrim mavjud bo'lgan elektron ta'lim resurslari mazmuni, ularni AKT bazasida amalga oshirishning zamonaviy talablariga javob bermaydi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun bir qator tashkiliy, o'quv-uslubiy ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Hozirga kunda oliy ta'lim tizimida o'quv mashg'ulotlarining sifatini oshirishda asosiy faktorlardan biri hisoblangan yagona axborot ta'lim muhiti yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday axborot ta'lim muhitining asosini elektron ta'lim resurslari tashkil etishi kerak.

O'quv mashg'ulotlarida axborot texnologiyalarini, jumladan elektron ta'lim resurslarini qo'llash orqali ixtisoslik fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishga

Ma'lumki, kasbiy faoliyat bu ijtimoiy ahamiyatli, maqsadli yo'naltirilgan faoliyat turi bo'lib, u ixtisoslik tayyorgarlik va zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni talab etadi. Bu o'rinda mutaxassisning ixtisoslik nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalari, shuningdek, ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirish asosida

shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi muhim omillardan sanaladi. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda.

Kompetentli yondoshuvning dolzarbligi, bizni o‘rab turgan muhitdagi noaniqlik darajasining oshishi va turli jarayonlarning dinamik o‘zgarishi bilan xarakterlanadi. Ta‘lim tizimiga ta‘sir etuvchi muhim faktorlardan biri – bu bo‘lajak mutaxassisning ishlab chiqarishdagi rolining o‘zgarishi bilan belgilanadi. Hozirgi kunda malakali mutaxassis nafaqat ishlab chiqarishning ma‘lum resursi sifatida, balki ishlab chiqarish korxonasi asosiy bebaho sub‘yekti sifatida qaraladi. Bunday o‘zgarishlar yangi professional shaxsni shakllantirish zaruriyatini belgilaydi. Bunday shaxs yuqori darajadagi kasbiy faoliyatga ega bo‘lishi bilan birga, noaniqlik sharoitida ham “yashab” bilishi va o‘zining induvidualligini ijodiy namoyon etish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi kerak. Bunday sifatlar majmuasi kasbiy faoliyatda kompetentlik deb talqin qilinadi [2].

Kompetentlik tushunchasi kasbiy shakllanish va kasbiy yetuklikni baholovchi me‘yor bo‘lib, mazkur tushunchaga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat sub‘yektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan sub‘yektning aniq faoliyatining o‘ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo‘llaniladi.

Zamonaviy sharoitda tayyor bilimlarni o‘qituvchidan talabaga yetkazish tizimi, bunday vazifalarning yechimini ta‘minlab bermaydi. Talaba passiv bilimlar iste‘molchisidan bilimlarni mustaqil ravishda axborot manbalaridan egallay oladigan shaxsga aylanishi lozim. Bu borada oliy ta‘lim muassasalarida ixtisoslik fanlardan talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta‘lim tizimida olib borilayotgan tub islohatlar o‘quv paradigmasidan ta‘lim paradigmasiga o‘tish bilan bevosita bog‘liqdir. Shu ma‘noda tan olish joizki, talabalarning fanlar bo‘yicha mustaqil ishlari ta‘lim jarayonining muhim formasi emas, balki uning asosiy formalaridan biri bo‘lishi kerak. Chunki, mustaqil ish talabada ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablarida belgilangan umummadaniy va kasbiy kompetentlikni shakllantirishga va professional faoliyatini muvoffaqiyatli olib borishi uchun chuqur bilim va malakalarni egallashga xizmat qiladi. Shu bilan birga mustaqil ishlarni kompetentli yondoshuv asosida tashkil etish orqali bilimlarni egallashning faol metodlariga o‘tish, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning imkoniyatlarini hamda bo‘lajak kasbiy faoliyatidan kelib chiqqan holda jamoaviy o‘qitishdan individual o‘qitishga o‘tish imkoniyatlarini beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarning o‘quv faoliyatini faollashtirish va mustaqil ishlarini tashkil etishning samarali innovasion formalaridan biri – axborot-kommunikasiya texnologiyalari (AKT) bo‘lib, ular har bir ta‘lim oluvchiga shaxsiy potensialidan maksimal foydalanish imkonini beradi.

Mustaqil ishlarni tashkil etishda AKTning imkoniyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi [2, 4, 8]:

1. AKT prinsipial jihatdan zamonaviy ta‘lim muhitini yaratish imkonini beradi. Bunday muhit o‘quv jarayonini optimallashtirish va bilim hamda malakalarni egallash vaqtini qisqartirish hisobidan talabalarning mustaqil ishlarini faollashtiradi.

2. Talabalar tomonidan o‘quv materiallarni nafaqat auditoriya mashg‘ulotlarida, balki ularga qulay bo‘lgan vaqtda o‘zlashtirishlarini ta‘minlaydi.

3. AKT dan foydalanish natijasida auditoriya mashg‘ulotlarining sonini kamaytirish va mustaqil o‘quv faoliyatiga ajratilgan soatlar vaqtini oshirishga erishiladi.

4. Talabalarning mustaqil ishi sharoitida o‘qitishni tashkil etish vositasi – bu nafaqat an‘anaviy o‘quv adabiyotlari, balki elektron ta‘lim resurslarining turli ko‘rinishlari tashkil etadi.

5. Mustaqil ish nafaqat ma‘lumotlar va bilimlarning axborot bazalaridan foydalanish bilan dolzarb bo‘ladi, balki audiovizual axborotlar, virtual laboratoriyalar, imitasion kompyuterli modellar, o‘rgatuvchi dasturlar va test vositalari bilan ishlash bilan xarakterlanadi.

6. Talabalarning mustaqil ishlarini o‘qituvchi elektron pochta yoki veb-sayt orqali nazorat qilish va ular orasida qayta aloqani tashkil etish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

7. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda AKTni maqsadli qo‘llash natijasida foydalanuvchi va axborot tizimi orasida multimedia texnologiyalari asosida interfaol muloqotni o‘rnatish sharoitlari mavjud bo‘ladi.

Faqatgina elektron ta‘lim resurslari ishlab chiqish oliy ta‘lim muassasalari talabalarning ixtisoslik fanlardan kasbiy rivojlanish darajasini kafolatlay olmaydi. Bu jarayonda talabalarning yangi axborotlarga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlashga qaratilgan elektron axborot-ta‘lim muhitini shakllantirish zaruriy shart-sharoitlardan sanaladi.

Elektron axborot-ta‘lim muhiti tushunchasini aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini ta‘minlovchi dasturiy, axborot texnik, o‘quv-metodik tizimlar majmuasi deb ta‘riflash mumkin [3].

Bizning fikrimizcha, oliy ta‘lim muassasalarini o‘qitishning texnik vositalari bilan jihozlash bilan bir qatorda o‘qitishning mazmuni, metodlari va formalarini yangilamasdan turib yuqori ta‘lim samaradorligiga

erishib bo'lmaydi. Shuning uchun, bugungi kunda zamonaviy kompyuterli o'qitish vositalari asosida ta'lim jarayoni sifatini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Ta'lim muassasasi axborot-ta'lim muhitining asosiy komponentasi sifatida baholanadigan elektron ta'lim resurslariga quyidagi didaktik talablar quyiladi [6]:

O'qitishning ilmiyligi, erkinligi, muammoliligi, ko'rgazmaliligi, o'qitish jarayonida talabalarnig faolligi va ongliligi, o'qitishning tizimliligi va ketma-ketligi, bilimlarni o'zlashtirishning mustahkamligi.

O'qitishning ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funksiyalarining yaxlitligi kabi an'anaviy talablarni amalga oshirishning yanada yuqoriroq darajasini ta'minlay olishi.

O'qitishning individualligi, interfaolligi va moslashuvchanligi talablarining bajarishi.

O'quv materialini taqdim etishning tizimliligi va tuzilmaviy-funksional bog'liqligining mavjudligi.

O'qitishning didaktik siklining to'liqligi va uzluksizligini ta'minlanishi.

Discussion. Didaktik talablar ta'lim berishning ixtisoslik qonuniyatlariga va o'qitishni didaktik tamoyillariga mos kelishi kerak. Shuningdek, ta'lim vazifasidagi an'anaviy nashrlarga qo'yiladigan didaktik talablardan tashqari, elektron darslikka uni yaratish va joriy qilishda zamonaviy axborot va telekommunikasion texnologiyalarning ustunliklaridan foydalanish kabi quyidagi o'ziga xos didaktik talablar qo'yiladi:

1. Moslashuvchanlik talablari.
2. O'qitishning interfaollik talablari.
3. Elektron darslikning o'quv axborotini taqdim qilishda kompyuter vizuallashtirish imkoniyatlarini joriy qilish talablari.

4. Elektron darslik bilan ishlashda ta'lim oluvchining intellektual qobiliyatini rivojlantirish talablari.

5. Elektron darslik-ta'lim berishning to'liqligi va uzluksizligini ta'minlash talablari [7].

Demak, zamonaviy ta'lim paradigmasida bo'lajak kasb egasi umr mobaynida bilim olishi lozimligi belgilab berilgan. Shu o'rinda, ta'kidlash joizki, respublikamizda ishlab chiqarish korxonalarining modernizasiyalanishi va zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi yangi kasblarni paydo bo'lishiga olib keldi va kasb hamda kasb egasi tushunchalari ham yangicha talqinda ifodalanadigan bo'ldi.

Elektron axborot-ta'lim muhitida har bir talabaning uzluksiz o'z ustida ishlashi borasidagi mustaqil ta'limi hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, bunda ularning o'quv va ilmiy-tadqiqotchilik yo'nalishlardagi faoliyat ko'rsatkichlarining dinamikasini o'qituvchi tomonidan kompleks baholash imkoniyati paydo bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, oliy ta'lim muassasalarida malakali kadrlarni tayyorlashning samaradorligini oshirish uchun ixtisoslik fanlardan auditoriyada va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda elektron ta'lim resurslari yangi axborot muhitini yaratish va ulardan keng foydalanishga e'tiborni qaratish asosiy vazifalardan biri etib belgilandi.

1-jadval

Elektron o'quv materiallarining interfaollik darajasi bo'yicha taqsimlanishi

No	Modulning interfaollik darajasi	Tavsifi
I	Shartli-passiv	Matnni o'qish, grafikani va videoni ko'rish, tovushni eshitish
II	Faol	Gipermurojaatlar bo'yicha navigasiya, uch o'lchovli obyektlarni ko'rish, variant javobini tashlash bo'yicha topshiriqlar va boshqa oddiy formalar.
III	Faoliyatli	Sonli javobni kiritish bo'yicha topshiriq, obyektlarni siljitish va birlashtirish, interfaol modellar bilan ishlash.
IV	Tadqiqotli	Virtual laboratoriyalar bilan ishlash

I daraja. Shartli-passiv forma.

Mazmun bilan o'zaro harakat chegaralangan: talaba o'zlashtirish uchun o'quv material elementini faqat tanlaydi, lekin uning elementlari bilan operatsiyalarni amalga oshira olmaydi. Talaba o'qiydi, ko'radi, eshitadi, o'quv materialni qabul qiladi, lekin ularga hech qanday ta'sir o'tkazib bilmaydi.

O'zaro harakatning shartli-passiv formasiga quyidagilar tegishli: mediaelement yoki mediakombinasiyani eksport/import qilish, obyektни masshtablash, obyektни siljitish, grafik yoki tovushli axborotlarni chiqarish, simvolli ketma-ketlikni ko'rish, audioaxborotli kompozitsiyalarni idrok etish (tovush+matn, tovush+statik tasvir), kontent elementlari bo'yicha navigasiya, on-line foydalanuvchilar (hamkor guruhdoshlar) bilan taklif, ko'rmatlarni olish yoki shakllantirish.

Demak, o'zaro harakatning ushbu formasi foydalanuvchining kontent bilan o'zaro harakatining yo'qligi bilan xarakterlanadi. Lekin, ushbu formalar foydalanuvchidan u yoki bu mazmunli fragmentni chaqirish uchun boshqaruv ta'sirini talab etadi.

II daraja. Faol forma.

Faol forma talabning mazmun bilan oddiy operatsiyalar darajasidagi o'zaro harakati bilan xarakterlanadi: navigatsiya, nusxalash, ko'plab tanlov, masshtablash. Talaba taqdim etilgan fragmentlarning ketma-ketligini, o'qish uchun giper murojaatlarni. Fragmentlarni ko'rishni tanlashi mumkin va h.k.

Faol formaga quyidagilar tegishli: ikki o'lchovli tasvirlarning skrollingi, ko'plab tanlov, hajmli obyektlarning aylanishi, 3D-navigatsiya, interfal multimedia kompozitsiyalar elementlarini faollashtirish, interfal multimedia kompozitsiyalarni o'zgartirish, on-line foydalanuvchi (guruhdosh) kontent obyektlari bilash harakatlarini akslantirish.

Interfaollikning II darajasining tavsifiga talabalarning quyidagi faoliyatini misol keltirish mumkin: giper murojaatlar bo'yicha navigatsiya, vizual obyektlar bo'yicha o'qishlar; kontent elementlarini buferga nusxalash (shaxsiy original kompozitsiyalarni yaratish, simvulli qatorlarni yoki tasvirlarni nusxalash), uch o'lchovli obyektlarni ko'rish, javob variantini tanlashga topshiriq va boshqa oddiy formalar.

III daraja. Faoliyatli forma.

Faoliyatli forma foydalanuvchining mazmun elementlari bilan konstruktiv o'zaro harakati bilan xarakterlanadi. Faoliyatli formalar faol formalardan ko'p sonli erkinlik darajasi bilan farq qiladi. Shuningdek, o'quv maqsadlariga olib boruvchi harakatlar ketma-ketligini tanlash va har bir qadamda tahlil o'tkazish zarurati hamda berilgan parametrlar diapazonida qaror qabul qilish imkoniyatlarining mavjudligi bilan farq qiladi.

Faol formaga quyidagilar tegishli: mediaelementning importini nazorat qilinishi, obyektlarni siljitish, obyektlarni birlashtirish, aloqalar orqali obyektlarni birlashtirish, obyektlarni faollashtirish, ko'p faktorli multimedia kompozitsiyalar elementlarini faollashtirish, jarayonlar parametrlarini yoki xarakteristikalarini o'zgartirish, obyektning dekompozitsiyalash, simvulli konstruksiyalarni hamkorlikda ishlab chiqish, berilgan grafik kontentni hamkorlikda yaratish, hamkorlikda ta'lim faoliyatini olib borishda foydalanuvchilarning kontent obyektlari bilan detemirlangan harakatlarini on-line sinxronizatsiyalash.

Interfaollikning III darajasining tavsifiga talabalarning quyidagi faoliyatini misol keltirish mumkin: sonli javobni kiritishga topshiriq, obyektlarni siljitish va birlashtirish, interfaol modellar bilan ishlash,

obyektlarning belgilangan kompozitsiyalarini tuzish – dekompozitsiya yoki obyekt bo'yicha harakatlanish.

IV daraja. Tadqiqotli forma.

Bunday formada tadqiqotlar tavsiya etilgan hodisalarga yo'naltirilmasdan, balki shaxsiy hodisalarni ishlab chiqishga qaratiladi. Hodisa mohiyatni, tashqi ko'rinishni, parametrlarni, taqdim etilgan obyekt xarakteristikalarini, jarayon va hodisalarni o'zgarishini chaqiradi. Tadqiqotlar tavsiya etilgan hodisalarga yo'naltirilmaydi, balki shaxsiy hodisalarni ishlab chiqishga qaratiladi. Foydalanuvchiga odindan beriladigan ko'p harakatlarni bajarish taklif etilmay, ETR obyektlari yoki jarayonlari bilan o'zaro harakatlarni manipulyatsiya qilish ishlari ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. O'quv maqsadlari kontentda joriy etilmagan, ya'ni berilgan natijaga olib keluvchi metodik ketma-ketlik tavsiya oldindan berilmaydi. Obyekt yoki jarayonlarni tadqiqot qilish mustaqil ravishda ta'lim oluvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Umumiy holda hodisa manbai bo'lib quyidagilar bo'lishi mumkin: kontent bilan o'zaro harakatda bo'lgan foydalanuvchining o'zi, imitasion modellashtirishning belgilangan algoritmlari bo'yicha qandaydir hodisani generatsiya etuvchi modeler, hamkorlikdagi ta'lim faoliyatida qatnashuvchi boshqa foydalanuvchi.

Demak, interfaollikning ushbu darajasida o'quv maqsadlari kontentga joriy etilmagan, ya'ni berilgan natijaga olib keladigan metodik ketma-ketlik tavsiya etilmaydi [8]. Interfaollikning IV darajasining tavsifiga talabalarning quyidagi faoliyatini misol keltirish mumkin: virtual laboratoriyalarda o'quv mashg'ulotlarini bajarish, bulutli texnologiyalar bilan ishlash va h.k.

O'quvchilarning elektron o'quv materiallari bilan o'zaro harakatini tashkil etish darajasida o'qituvchi va talaba quyidagi operatsiyalarni bajarishlari mumkin (2-jadval):

2-jadval

O'qituvchi va talabaning elektron o'quv materiallari mazmuni bilan o'zaro harakatining xarakteri

O'qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
<p>1. Har bir talaba (juftliklar, guruhlar) uchun mazmunni (elektron o'quv materiallari fragmentlari) tanlaydi;</p> <p>2. Har bir talaba uchun (juftliklar, guruhlar) individual topshiriqlarni shakllantiradi va quyidagilarni tavsiya etadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - o'qituvchidan olingan axborotlar asosida, amaliy tipdagi modullar materiallariga kiritilgan reproduktiv xarakterdagi amaliy topshiriqlarni bajarish; - talabalarning masalani yechish usullari, metodlari bilan mustaqil tanishishi yoki bunday tanishuv asosida muammoli vaziyatni anglash; - o'qituvchi tavsiya etgan elektron o'quv materiallari matyeriallari bilan mustaqil tanishish va bu tanishish asosida tao'qiqot faoliyatining alog'ida bosqichlarini amalga oshirish. <p>3. Talabalarning hisobot usullarini aniqlaydi.</p> <p>4. Topshiriq va muammoning fragmentlarini hamda ularning yechimlarini namoyish yetadi.</p> <p>5. Jarayonni, shuningdek muammoni va masalani yechish metodlarini, usullarini o'zlashtirganlik natijalarini nazorat qiladi.</p> <p>6. Talabalarni topshiriqni bajarishga motivasiyalaydi.</p> <p>7. Darsdan tashqari mustaqil bajarish uchun o'y topshiriqlarini shakllantiradi.</p>	<p>1. Mustaqil ravishda tayyor metodlarni va yechim natijalarini, vaziyatlar modelini qabul qiladi.</p> <p>2. O'qituvchi tavsiya etgan elektron o'quv materiallari asosida masalaning yechilishi yoki tajribaning borishini mustaqil kuzatadi. Natijalarni yozib boradi, xulosalar qiladi.</p> <p>3. Axborotlarni eslab qoladi.</p> <p>4. Mustaqil ravishda tayyor faoliyat usullarini, amaliy va nazorat tipidagi modullar bilan o'zaro o'zaro harakat jarayonida masalani yechish metodlarini <i>vosproizvodit</i>.</p> <p>5. Muammoli vaziyatni mustaqil anglab yetadi, elektron o'quv materiallarida taqdim etilgan axborotlar asosida muammoni shakllantiradi.</p> <p>6. Muammoning yoki masala-ning yechimini qidirish, uning bosqichlarini aniqlash jarayonlarini mustaqil anglab yetadi.</p> <p>7. Tadqiqot bosqichlari mohiyatini mustaqil anglab yetadi.</p>

Conclusion. Demak, ta'lim oluvchining elektron ta'lim resurslari bilan o'zaro harakatining turli formalaridan foydalanish spesifikasini elektron o'quv materiallarining tipi aniqlaydi. Ixtisoslik fanlarni o'qitish jarayonida elektron o'quv materiallarini qo'llash natijasida talabalarning faol bilish faoliyati, o'qitishda kompetentli yondoshuvni amalga oshirishga olib keladi.

Bunday darsda elektron o'quv materiallari motivasion, informasion, shuningdek, mustahkamlash, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish funksiyalarini bajaradi.

Ushbu darajada, taqdim etiladigan axborotning turli-tumanligi, individual topshiriqlardan foydalanish, mustaqil faoliyatni tashkil etilganligi hisobidan talabalar tomonidan topshiriqni bajarish bo'yicha motivasiya kuchayadi. Variativ elektron o'quv materiallarini qo'llash hisobidan talabalarning individual qobiliyatlarini inobatga olgan holda, mustaqil ish ko'lamini oshirish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Ta'lim oluvchilar uchun elektron o'quv materiallarini tanlashda o'qituvchining roli muhim bo'lsada, o'qitishda asosiy rol o'qituvchidan talabaga o'tadi va bunday vaziyatda o'qituvchi maslahatchi, tyutor vazifisini bajaradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. "Xalq so'zi", 2020 yil 25 yanvar
2. Abidov K.Z. Ta'limda kompetentli yondoshuvni joriy etish asosida talabalarning mustaqil ishi tizimini

yangilash bo'yicha kafedra oldida turgan asosiy vazifalar. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti. –Buxoro, 2017. №1. B. 123-127.

3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Avtoref. dis. ped. fan. dok.-T.: 2007. -37 b.

4. Gadjiyeva P.D. Возможности информационно-коммуникативных электронных технологий обучения в организации самостоятельной работы студентов // Дистанционное и виртуальное обучение. – 2013. – № 6. – С. 75–81.

5. Zavyalova O.A. Formirovaniye elementov informasionnoy kompetentnosti uchaщixsya na uroках s ispolzovaniyem Internet–resursov. Internet–jurnal «Eydos». – 2010. –S. 21-28.

6. Муллина Э.Р. Электронные образовательные ресурсы как средство формирования профессиональных компетенция студентов// Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2016. – № 11-5. – С. 975-978.

7. Olimov Q.T. Ixtisoslik fanlardan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy va uslubiy asoslari. Ped. fan. dokt. diss. – T. 2005. – 286 b.

8. Пащенко О.И. Информационные технологии в образовании // Учебно-методическое пособие, 2013. –228 s.

9. Штофф В.А. Роль модели познания. – С-Пб.: Изд-во ЛГУ, 1963. – 128 стр.

O'quvchilar jismoniy barkamolligi texnik ko'nikmalarni samarali o'zlashtirish poydevori.
Suyarov Xurshid Baxriddinovich
Navoiy davlat pedagogik instituti Jismoniy madaniyat Katta o'qituvchisi

Inson tug'ilishidan boshlab, avval instinktiv tarzda-mustaqil, so'ng shartli refleks asosida o'zi yoki «o'rgatuvchilar» ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi yordamida turli hayotiy zarur harakat ko'nikmalarini shakllantirib boradi.

O'z navbatida hayot, turmush, mehnat, sport, mudofaa va hokazo omillar shu ko'nikmalarni tezkorlik, kuchlilik, chaqqonlik, chidamkorlik va ma'lum darajada egiluvchanlik bilan ijro etish ehtiyoji tug'iladi. Ana shu jismoniy qobiliyatlar qanchalik shakllangan bo'lsa, barcha turdagi harakat ko'nikmalari yurish, yugurish, sakrash, to'xtash, osilib chiqish va hokozalar shu jumladan, sportga xos texnik-taktik malakalar, shunchalik uzoq muddat davomida tezkorlik, chaqqonlik yuksak kuch, chidamkorlik bilan ijro etilishi mumkin. Har bir jismoniy sifat o'z navbatida bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bir jismoniy sifatni shakllanishi, ikkinchi bir jismoniy sifatga ko'chishi kuzatiladi.

So'nggi yillarda ushbu masalalarga oid ko'plab tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Lekin har bir sport turiga xos texnik-taktik ko'nikmalar o'ziga xos biomexanik, koordinatsion va kinematik xususiyatlarga ega bo'lib, ularni ijro etishda bir guruhga xos jismoniy sifatlarni ikkinchi bir jismoniy sifatlarga nisbatan ustuvorlik bilan farq qiladi.

Masalan, uzoq masofaga yugurishda aerob chidamkorlik, og'ir atletikada kuch, sport o'yinlarida o'zgaruvchan tezkorlik yoki chaqqonlik sifatlari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, harakat ko'nikmalari yurish, yugurish, o'tirish-turish, to'xtash, sakrash va xokozalar, jismoniy sifatlarni kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik va tanlangan sport turiga xos texnik malakalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ko'plab etakchi mutaxassis olimlar tomonidan isbot qilib berilgan (V.N.Platonov, 2004; M.A.Godik, 2006).

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarda ko'pincha «harakat tayyorgarligi», «harakat sifatlari», «jismoniy tayyorgarlik», «jismoniy sifatlarni» degan atamalar yoki tushunchalar uchraydi. Ushbu atamalarning barchasi o'ziga xos mohiyat va o'ziga xos tushunchalarga egadir.

Ba'zida ularni bir xil yoki bir-biriga yaqin tushunchalar bilan aralashtirish xollari ham kuzatiladi.

«Harakat tayyorgarligi» - bu barcha harakat ko'nikmalari yurish, yugurish, to'xtash, o'tirish, yotish, turish, sakrash, xatlash, sirpanish va hokozalarni shakllantirish va ma'lum darajada harakatlar «boyliqi», harakatlar zahirasini yaratish ma'nosini anglatadi.

«Harakat sifatlari» qaysidir ma'noda «jismoniy sifatlarni»ni anglatadi yoki sinonim sifatida qo'llanilishi mumkin.

«Jismoniy tayyorgarlik» - umumiy va har bir sport turiga xos jismoniy sifatlarni rivojlantirish jarayonini anglatadi. Lekin «harakat tayyorgarligi» nisbatan kengroq ma'noda tushuniladi.

«Harakat tayyorgarligi» qanchalik erta yoshdan boshlab, shakllantirib borilsa, nasliy harakat qobiliyatlari ham shunchalik sayqal topib boradi, yangi harakat usullari vujudga kelishi mumkin, harakat zahiralari doirasi kengayadi, binobarin, bunday bolalar sport ko'nikmalari va malakalarini nisbatan samarali o'zlashtira boshlaydi.

Bugungi voleybol amaliyotida sport to'garaklari va BO'SMlar qoshida 6 yoshdan boshlab sog'lomlashtirish guruhlarini tashkil qilish hamda o'lar bilan maxsus dastur asosida yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish muhimligi belgilab qo'yilgan (YU.D.Jeleznyak, 2005). Mashg'ulotlar davomida bolalarning jismoniy rivojlanishi, harakat ko'nikmalarining shakllanish dinamikasi va albatta, ularning sog'ligi muntazam nazorat qilinib borilishi ta'kidlanadi.

9-10 yosh bosqichiga etganda bolalar quyidagi me'yoriy talablarga mos jismoniy imkoniyatlarga erishishi qabul qilingan.

Sport o'yinlari turlari (voleybol, basketbol, gandbol, futbol va h.) bo'yicha turli yillarda nashrdan chiqarilgan BO'SM dasturlariga muvofiq dastlabki tayyorgarlik guruhlariga qabul qilishda bolalarning yoshi, shug'ullanuvchilar soni, guruhlar soni turlicha berilgan.

Jismoniy tarbiya bo'yicha qabul qilingan davlat ta'lim standartlarida mashg'ulotlar sifatiga va uning mazmuniga doir talablarni o'quvchilar tayyorgarligining zarur etarli darajasi, ta'lim muassasalaridagi faoliyati va jismoniy ta'lim hamda tarbiya sifatiga baho berish tartibi va mexanizmlarini belgilab beradi.

«Jismoniy tarbiya va ta'lim» kursi umumiy o'rta ta'limda quyidagilardan tarkib topadi:

1. Jismoniy tarbiya darslari.
2. Harakat faoliyatining darsdan tashqari shakllari: darsdan oldin o'tkaziladigan gimnastika, jismoniy daqiqalar, uzaytirilgan tanaffuslardagi dinamik daqiqalar, o'yinlar.
3. Jismoniy mashg'ulotlarining sinfdan tashqari shakllari: sport seksiyalari, fakultativlar, sport turlari bo'yicha musobaqalar va boshqalar.

Jismoniy tarbiya o'quv dasturiga sport o'yinlari materiallari kiritilgan (voleybol, basketbol, qo'l to'pi va

alohida futbol).

Voleybol bo'yicha dastur materiallarini o'rgatish uchun zarur bo'lgan mashqlar, texnik va taktik usullar hamda o'yinning nazariy va amaliy qoidalari kiritiladi. Mashg'ulotlarning samaradorligi o'qituvchining darsni to'g'ri rejalashtirishi va tashkil etishiga, ko'proq foydali harakatlarini o'rgatishning koeffitsientiga bog'liq bo'ladi. Jixoz va asbob - anjomlardan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Voleybol bo'yicha mashg'ulotni muvaffaqiyatli o'rgatish uchun bir necha to'p va maydoncha bo'lishi etarli emas. Albatta, to'ldirma to'p, osib qo'yilgan to'plar, amortizatorli to'p va boshqa shu kabi jihozlar bo'lishi zarur. Dasturda voleybol uchun ajratilgan soat (yiliga 20 soat) harakat texnikasi va taktikasini zarur va etarli darajada o'zlashtirib olishga etmaydi. Shuning uchun umumta'lim maktablarida voleybol sporti bo'yicha seksiya mashg'ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Voleybol sport seksiyasini tashkil etish yosh voleybolchilarni tayyorlashdan boshlanadi. O'quv guruhlarida shug'ullanuvchilarning tarkibiy uyg'unligi hamda yosh jihatdan bir hilligi o'quv-mashg'ulotlari shakliga mos tushadi. Umumiy faoliyatda muntazam ravishda ishtirok etish shug'ullanuvchilarni yagona jamoa qilib jipslashtiradi, bu ham jismoniy tarbiyaning o'quv hamda tarbiya vazifalarini samarali hal etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Voleybol seksiya mashg'ulotlarini o'tkazishda ham qabul qilingan qator umumiy talablarni bajarish kerak bo'ladi.

Birinchidan, shug'ullanuvchilarni o'qitish va tarbiyalash butun mashg'ulot davomida amalga oshirib borilishi kerak.

Ikkinchidan, mashg'ulot o'tkazishda har qanday yo'llar bilan bo'lsa ham bir xillikdan qochish kerak.

Mashg'ulot mazmuni va uslubi xilma-xil qilish kerakligini vazifalarining doimiy ravishda murakkablashib borishi, shug'ullanuvchilarning organizmi va psixikasida sodir bo'ladigan siljishlar dinamikasi, tashqi sharoitning o'tkazuvchanligi taqozo etadi.

Uchinchidan, shug'ullanuvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni bir tekisda o'quv faoliyatiga jalb etishi kerak. Faqat shu yo'l bilan shug'ullanuvchilar uchun uzoq vaqt davomida bir butun o'quv - tarbiya jarayoniga erishish mumkin va shug'ullanuvchilarning mashg'ulotni tashlab ketishlari yoxud qoloqlar paydo bo'lishining oldi olinadi.

To'rtinchidan, har bir mashg'ulotdagi o'quv faoliyatini usuliy tamoyillarga qat'iy rioya qilgan holda olib borish kerak. Mashg'ulotning ta'siri har tomonlama sog'lomlashtiruvchi, bilim va tarbiya beruvchi bo'lishi kerak.

Beshinchidan, mashg'ulot oldiga mazkur darsda hal etish mumkin bo'lgan mutloq aniq vazifalar qo'yish kerak. O'quv - tarbiya jarayonining umumiy masalalari kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik hal etilishiga alohida aniq vazifalar tizimini bajarish orqali erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

A.A.Pulatov Yosh voleybolchilar tezkorlik-kuch sifatlarini shakllantirish uslubi. // Uslubiy qo'llanma. T.: 2008. - 38 b.

Шнайдер В.Ю. Методика обучения игре в волейбол. // Пособие для ст-в фак-в физ-ры. М.: Олимпия. Человек. 2008. - 55 с.

Ю.Д.Железняк, А.В.Чачин, Ю.П.Сыромятников Волейбол., 2009. - 130 с.

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИНИНГ JISMONIY RIVOJLANISHIDA HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI

Temirov Shoirbek Raimjonovich

Andijon davlat universiteti jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasida o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Аннотация: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanayotgan katta yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida va harakat tayyorgarligini oshirishda harakatli o'yinlardan foydalanishning samaradorligi yoritib o'tilgan.

Калит so'zlar: harakatli o'yinlar, jismoniy rivojlanishida, harakat tayyorgarligi, tezkorlik, kuch, chaqqonlik.

ЗНАЧЕНИЕ ПОДВИЖНЫХ ИГР В ФИЗИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Темиров Шоирбек Раимжонович

Доктора философии (PhD) по педагогическим наукам, преподаватель кафедры теории и методики физической культуры Андижанского государственного университета

Аннотация: В данной статье освещается эффективность использования подвижных игр в физическом развитии и повышении двигательной подготовленности детей старшего возраста, воспитывающихся в дошкольном образовательном учреждении.

Ключевые слова: подвижных игр, физическом развития, двигательной подготовка, быстрота, сила, ловкость.

THE IMPORTANCE OF ACTIVITY GAMES IN THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Temirov Shoirbek Raimjonovich

Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), teacher of the department of theory and methodology of physical culture Andijan State University

Абстракт: This article highlights the effectiveness of the use of mobile games in the physical development of older children educated in a preschool educational organization and increasing their readiness for movement.

Key words: action games, physical development, movement readiness, quickness, strength, agility.

Kirish. Jahonda maktabgacha ta'lim bo'g'inidan maktabga o'qishga o'tish bosqichida jismoniy tarbiya tizimining dasturiy - me'yoriy asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirishga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar mavjud, ammo ushbu muammolarga majmuaviy yondashilgan tadqiqotlar o'tkazilmagan. Bolalarning pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda bazaviy jismoniy sifatlarni tizimli yondashuvlar asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar o'tkazish bilan bir qatorda, maktabgacha ta'limni tobora murakkablashib borayotgan texnologiya tizimi hamda jismoniy tarbiya jarayoni tomonidan qo'yilayotgan zamonaviy talablarni ham e'tiborga olish dolzarbligicha qolmoqda [1].

Mamlakatimiz rivojlanishining yangi bosqichida aholi, ayniqsa, bolalar va o'quvchi yoshlarning sport bilan ommaviy shug'ullanishlarini, faol dam olish shakllaridan foydalanishlarini ta'minlovchi amaliy choratadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bolalarni o'qitish va o'qish davrida ularda to'planib borayotgan toliqishni yo'qotishning samarali vositasi sifatida jismoniy faollikka bo'lgan mustahkam ehtiyojni tarbiyalash jarayonini tadqiq qilishni talab qiladi. Shu tufayli ushbu yosh guruhlaridagi bolalarning jismoniy rivojlanishi va harakat tayyorgarligini aniqlash hamda ularning jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalashning samarali vositalari, shakllari va uslublarini tajriba yo'li bilan asoslash juda muhim hisoblanadi.

O'yin va harakatli o'yinlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yinlar bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi [2].

O'yinlar qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, sanatsunos olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan. O'yin yosh avlodni mehnatga tayyorlaydi. Bolalar o'yinini bunday tushunish birinchi marta K.D.Ushinskiy tomonidan ta'riflab berilgan edi. U o'z asarlarida bolalar o'yinining mazmuni ularning hayotdan olgan taassurotlari bilan belgilanib, ular shaxsining shakllanishiga ta'sir etadi, deb yozadi. Bu fikrni P.F.Lesgaft ham tasdiqlab, bolalar o'z oyinlarida tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolalarning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir [3].

Tarbiyachilar bolalar o'yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishlari lozim: 1) o'yin bilan mehnat o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish; 2) o'yinda bolalarning bo'lajak mehnat ahliga xos bo'lgan

jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash.

Bolalar o'yinining tarixi, tabiati, uning rivojlanish qonuniyatlari L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin, A.V.Zaporojest kabi psixologlar va ularning davomchilari ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

A.V.Zaporojest bolalar o'yinini ilk yoshdan boshlab kuzatib borishi natijasida uni harakatga keltiruvchi sabablar, rivojlanish qonuniyatlari, har xil yosh bosqichlarida bolalar o'yinining o'ziga xos tomonlari, mazmuni va tuzilishini o'rganish zarurligini G.A. Berdaliyeva o'zining ilmiy maqolasida ta'kidlaydi [4].

Metodlar. Harakatli o'yinlar bolalarning jismoniy jihatdan unib-o'sishlariga, salomatliklarining yaxshilanishiga, chiniqishlariga, organizm va umumiy ish qobiliyatlarining yanada mustahkamlanishiga yordam beradi.

Bolalarga harakat faoliyatining turli xil sharoitlarida erkin harakat qila olish imkonini beradigan zarur bilimlarni berish va ularda kerakli harakat malakalarini hosil qilish lozim. Bundan tashqari, bolalarda turli o'yinlarga, jismoniy mashqlarga, shuningdek, kun tartibiga rioya qilishga qiziqish uyg'otish, harakatli o'yinlarni mustaqil ravishda tashkil qilish va o'tkazish uchun zarur bilim va malakalar hosil qilish shart. Ularni o'tkazishda tarbiyachilar va boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya o'qituvchisining roli juda mas'uliyatlidir [5].

O'yinlarni bolalar organizmiga mos tushishiga qarab to'g'ri tanlash va to'g'ri o'tkazish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishning tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi juda muhim. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarining jismoniy holatini yaxshi bilgan, har bir o'tkaziladigan o'yinning mazmun-mohiyati va qonun-qoidalari bilan mufassal tanishgan, o'qitish jarayonida esa yuksak pedagogik mahoratini namoyish qila olgan taqdiridagina har bir o'yinni ta'lim-tarbiya nuqtai nazaridan to'g'ri yo'lga qo'ya oladi [6].

O'qituvchi o'rgatadigan o'yinlar va bolalar tushunib bajaradigan harakatlar ularda tashkilotchilik ko'nikmalarini tarbiyalashga yordam berishi kerak. O'qituvchi bolalar irodasini mustahkamlash uchun o'yinlarni qiyinchiliklarni yengish bilan bog'lagan holda asta-sekin murakkablashtirib borishi kerak bo'ladi.

O'yinni tashkil qilish va o'tkazishda imkoni boricha bolalarning tashabbuskor bo'lishiga erishish va o'yinda faol ishtirok etishlari uchun ularni rag'batlantirib turishi ham yaxshi samara beradi.

O'yinlar davomida bolalarning bir qancha tarbiya turlari tashkil qilinadi va amalga oshiriladi. Bolalarda o'yinlar orqali jismoniy, pedagogik va psixologik tarbiya turlari yuqori darajada shakllanib boradi.

Professor Usmonxodjayeov va boshqalar, milliy harakatli o'yinlarni tashkil qilish va bolalarga o'rgatib borishda quyidagilarga alohida e'tibor berib borish kerakligini aytib o'tganlar:

jismoniy harakatlar: yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, irg'itish, ushlab olish, muvozanat saqlash va shu kabilarni tartib-qoidali bajarish;

sabrlilik, chidamli bo'lishga o'rgatish;

ruhiy-psixologik jihatdan o'yinga tayyorlash;

o'z-o'zini boshqarish va o'ziga ishonchni tarbiyalash;

qat'iyatlilik ko'nikmasini tarbiyalash;

bolalarni fikrlashga o'rgatish;

topqirlik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;

hozirjavob bo'lishga tayyorlash;

o'yinlarni bolalar bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilishga yo'naltirish;

o'yinlar jarayonida bolalar jismoniy tayyorgarligi va yosh xususiyatlariga e'tibor berish;

har bir o'yinning pedagogik va tarbiyaviy tomonlarini nazardan qochirmaslik;

o'yinlarni ijtimoiy-foydali mehnat bilan bog'lash usullarini izlab topish va hayotga tatbiq etish;

o'yin davomida birdamlik va hamjihatlikka o'rgatish;

jamoaga bo'lib harakat qilish va jamoaga manfaatiga hurmat ruhida tarbiyalash va shu kabilar [6].

Biz yuqoridagilardan kelib chiqib maktabgacha ta'lim tashkilotining katta guruh tarbiyalanuvchilarining jismoniy faolligidarajasini oshirish maqsadida quyidagi o'yinlarni saralab oldik.

1-O'YIN. "KOPTOKNI QUVIB YET"

Bu o'yinda bolalar chaqqonlikka va tezkorlikka o'rgatiladi. Bolalar maydonchada o'ynab yurganda tarbiyachi bir nechta bolani chaqirib, koptokni yumalatishni va uni tutib kelishni taklif qiladi. Keyin birin-ketin koptokni turli tomonga yumalatadi. Bola koptok ketidan yugurib, uni tutib oladi va tarbiyachiga keltirib beradi. Tarbiyachi koptokni bir gal boshqa tomonga otadi, lekin uni endi boshqa bola olib keladi.

Bolalar tarbiyachi otgan koptokning orqasidan yuguradilar. Shundan keyin o'yinga bolalarning boshqa guruhlari jalb qilinadi. O'yinda bir yo'la 8-10 nafar bola ishtirok etishi mumkin. Bolalarning baravar yugurishi uchun hamma koptoklarni birdan otish kerak. Koptok o'rni rezina halqacha, qum solingan xaltachadan ham foydalanish mumkin.

2-O'YIN. "TAYOQCHADAN HATLAB O'T"

O'yindan maqsad bolalarni chaqqon harakat qilishga o'rgatish, ularda sakrash, yugurish kabi harakatlarni

mustahkamlash va o'rgatishdan iborat.

Xonaning o'rtasida ikkita tayoqcha orasi bir metr qilib yonma-yon qo'yiladi. Xonaning bir tomonida bolalar turishadi, ikkinchi tomonida stul o'rindig'ida bayroqcha bo'ladi. Tarbiyachining ko'rsatmasiga binoan tayoqchadan 2-3 qadam narida bayroqchaga qarab turgan birinchi ishtirokchi tayoqcha tomon yurib boradi va undan xatlab o'tadi. So'ngra ikkinchi tayoqchadan ham xuddi shunday hatlaydi. Stulga yaqinlashib boradi, bayroqchani qo'lga oladi, uni boshidan yuqoriga ko'tarib hilpiratadi, keyin bayroqchani yana stulga qo'yadi, yon tomonga chetroqqa chiqib ketadi va qaytib kelib o'z joyiga turadi. Shundan so'ng topshiriqni keyingi bola bajaradi.

Agar bu mashq bir necha marotaba takrorlangandan keyin bolalarga juda oson bo'lib tuyulsa va ular bu topshiriqni tez xamda ishonch bilan bajara boshlasalar, mashqni biroz murakkablashtirish kerak bo'ladi. Masalan, polga 4-6 tayoqchani bir-biriga yonma-yon qilib qo'yib chiqib yoki bir necha chambarakni polga tashlab qo'yib, bolalarga ana shularning ustidan hatlab o'tish taklif qilinadi.

3-O'YIN. "MERGAN BOLA"

Bir-biridan 10-15 metr masofa oralig'ida ikkita parallel chiziq tortiladi. Ular o'rtasida diametri 2 metr bo'lgan aylana chiziladi. Unda bir bola (mergan) turadi. Uning qo'lida to'p bo'ladi. Boshqa o'yinchilar bir chiziqdan ikkinchisiga yugurib o'tib harakatlanishadi. Mergan ularga qarab to'p otib, tekkizishga harakat qiladi. To'p kimga tegsa, o'sha bola mergan vazifasini bajaradi.

O'yin qoidalari: O'yin boshida mergan qilib bir bolani tayinlashadi. Ya'ni tarbiyachining "O'tiring" degan buyrug'idan keyin oxirgi o'tirgan bola mergan bo'ladi. Agar mergan otgan to'pni yugurayotgan o'yinchi ilib olsa, unda hisobga kirmaydi.

4-O'YIN. "ARIQCHA ORQALI"

Bu o'yinda bolalarning sakrovchanlik xususiyati rivojlantiriladi. Maydonchaga biri ikkinchisidan 1.5-2 metr masofada ikkita chiziq chiziladi – u ariqcha vazifasini bajaradi. Bolalar (6-8 ta bola) ariqchani chetida – chiziq oldida turadilar, ular toshlarning ustidan (doiracha chizilgan) oyoqlarini ho'l qilmasdan o'tishlari shart. Doiracha orasidagi masofa shunday bo'lishi kerakki (taxminan 25-30 sm), bolalar birinchisidan ikkinchisi ustiga yengil sakrab o'ta olsin. Ariqchani ustidan bir vaqtning o'zida bir necha bola o'tishi mumkin, qolganlari esa tarbiyachi bilan ular orqasidan kuzatib turadilar. Kimda kim doirani bosib yoki oyog'ini ho'l qilsa, u o'rindiqqa borib o'tirib, oftobda oyog'ini quritadi. O'yin qaytadan davom ettirilganda u o'yinga kiritiladi. Tarbiyachi ishtirokchilarning ayrimlariga qirg'oqqa o'tishga yordam beradi va bolalarni rag'batlantiradi.

5-O'YIN. "KIM KUCHLIROQ"

Bu o'yinda bolalarning kuch sifati rivojlantiriladi. Raqiblar bir-biriga ro'parama-ro'para o'tirib, kattaroq tayoqchani ushlab turishadi. Ikkovlari oyoq tovonlarini bir-birlarinikiga tirab tayanishadi. Buyruqqa binoan, ishtirokchilar tayoqni ikki tomonidan ushlab, o'z tomonlariga torta boshlaydilar. Tabiiyki, kim raqibini yerdan biroz ko'tara olsa yoki o'zi tomoniga og'dirolsa, o'sha g'olib bo'ladi.

O'yin qoidasi. Ishtirokchilar buyruq berilganidan so'ng harakatlanishlari kerak. Tayoqni tortayotganda oyoqni uzib yuborish mumkin emas. Ushbu o'yinlar bolalarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarliklarini yaxshilashlariga muayyan darajada xizmat qildi.

Natija. 6 yoshdagi tajriba guruhi tarbiyalanuvchilar yillik davr ichida 4,2 smga, nazorat guruhi bolalarida bo'y ko'rsatkichlari 3,9 sm atrofida aniqlandi. Ko'pgina mutaxassislar fikricha, ular fiziologik me'yorlarga mos keladi.

Tana og'irligi tajriba guruhining 6 yoshli o'g'il bolalarida o'quv yili ichida 1,8 kg ga (8,6 foiz) ishonchli farqqa ega bo'ldi, nazorat guruhi vakillarida 1,1kg (5,3 foiz) atrofida ishonchli bo'lmagan o'sish kuzatildi.

30 metrga yugurish testi ma'lumotlari bo'yicha ushbu yosh guruhidagi bolalarning tezlik imkoniyatlarini baholashda xuddi shunday farq kuzatildi va u 6 yoshli tajriba guruhi bolalarida $7,4 \pm 0,5$ sekund nazorat guruhida $7,9 \pm 0,4$ sekund. Tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida statistik ishonchli farq mavjud ($t=3,7$; $p<0,001$).

6 yoshdagi tajriba guruhi bolalarning tezkor-kuch qobiliyatlari pedagogik tajriba o'tkazish davomida $91 \pm 9,6$ smgacha, nazorat guruhida esa $84,1 \pm 9$ sm natijani ko'rish mumkin. Ular orasidagi statistik ishonchli farq ($t=2,56$; $p<0,01$) 7,6 foizni tashkil qildi.

Uloqtirish harakat sifati barcha dasturiy-me'yoriy hujjatlarda keng qo'llaniladi, pedagogik tajribada qatnashayotgan bolalar tomonidan ijobiy qabul qilinadi. Maktab ta'lim tizimida o'qishga tayyorlanayotgan bolalar bilan o'tkazilgan pedagogik tajribaning yakuniy natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, 6 yoshdagi bolalar o'zlarining dastlabki natijalarini $10,4 \pm 1,4$ mga statistik ishonchli bo'lgan 14,4 foizga oshirishdi ($t=3,6$; $p<0,001$) (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

6 yoshdagi tarbiyalanuvchilarning jismoniy rivojlanishi va harakat tayyorgarligi ko'rsatkichlari ($x \pm \delta$)

Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi (n=24)				farqi (%)	Nazorat guruhi (n=22)				farqi (%)
	Tajriba boshida		Tajriba ohirida			Tajriba boshida		Tajriba ohirida		
	X	δ	X	δ		X	δ	X	δ	
Tana uzunligi, (sm)	115,6	3,2	120,7	2,8	4,2	115,4	2,8	120,1	3,1	3,9
Tana og'irligi, (kg)	19,2	0,9	21,0	0,8	8,6	19,5	0,8	20,6	0,7	5,3
30 m ga yugurish, (sek)	8,6	0,4	7,4	0,5	13,9	8,7	0,3	7,9	0,3	9,2
Turgan joyidan uzunlikka sakrash, (sm)	81,8	10,6	91,0	9,6	10,1	80,0	8,4	84,1	9,0	4,9
Tennis to'pini uzoqqa uloqtirish, (m)	8,1	1,4	10,4	1,4	22,1	8,2	1,2	8,9	1,3	7,8
Yotib tayanib, qo'llarni bukib-yozish, (marta)	3,7	1,2	4,8	1,5	22,9	3,5	1,0	3,9	1,5	10,2

Yotib tayanib, qo'llarni bukib-yozish testi natijalari bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalaridagi katta guruh tarbiyalanuvchilarining kuch imkoniyatlari ko'rsatkichlarini tahlil qila turib, tajriba guruhidagi 6 yoshdagi bolalar o'z ko'rsatkichlarini 18,7 foizga yaxshilashgan bo'lsa, nazorat guruhi bilan solishtirilganda statistik farq ($t=2,1$; $p<0,05$) ga teng. E'tirof etish joizki, ushbu test sinovida nazorat guruhlari vakillarida natijalarning o'sishi o'rtacha 10,2 foiz atrofida bo'ldi.

Xulosa. Harakatli o'yinlar bolalarning jismoniy jihatdan unib-o'sishlariga, salomatliklarini yaxshilanishiga, chinqishlariga, organizm va umumiy ish qobiliyatlarining yanada mustahkamlashlariga yordam beradi. Saralangan milliy harakatli o'yinlarni turli yondashuvlar asosida qo'llash tarbiyalanuvchilarning kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik va egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarini, jismoniy harakatchanlik faolligini oshirib borishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

Temirov Sh.R. (2023) Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishida uzviylikni ta'minlash metodikasi. Farg'ona. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiya ishi –113 s.

Маткаримов Р.М., Усманходжаев Т.С., Кипчаков Б.Б. (2011). Физическое и психическое развитие детей средствами подвижных игр. Научно-педагогические и медико-биологические проблемы обеспечения спорта высших достижений // Республиканская научно-практическая конференция. – Т.: С. 34-35.

Yusupova P. (1993). Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Toshkent – O'qituvchi, – 264 s.

Berdaliyeva G.A. (2019). Maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishda ularning yoshiga xos bo'lgan psixologik va pedagogik xususiyatlar. Zamonaviy ta'lim/ Современное образование. 4(77) 64-68 s.

Temirov Sh.R. (2023). Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishida uzviylikni ta'minlash metodikasi. Ped.fan.bo'y.fal.dok. diss. avtoreferati. Farg'ona. 56 s.

Hasanboyeva O., Tajiyeva M., Toshpo'latova Sh. va boshq. (2012). Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm-ziyo, 220 s.

Usmonxodjayev T.S. va boshqalar. (2010). 500 harakatli o'yinlar. – T.: Bekinmashoq – Plyus, 203 s.

O'SMIRLARDA "OMMAVIY MADANIYAT"GA QARSHI MADANIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA GENDER STRATEGIYALARDAN FOYDALANISH

Tojiboyeva Xilolaxon Maxmutovna,

O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti direktor o'rinbosari, pedagogika fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

Rezume. Ushbu maqolada o'smirlarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi madaniy immunitetni shakllantirishda gender strategiyalardan foydalanish haqida fikr yuritilgan bo'lib, dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida "ommaviy madaniyat"ni madaniy hodisa sifatida talqin qilishga urinishlar mavjudligi e'tirof etilgan. Shuningdek, gender strategiyalarning tarkibida milliy qadriyatlar muhim o'rin egallashi ta'kidlangan.

Tayanch so'zlar: madaniy immunitet, o'smir o'quvchi, gender strategiya, gender madaniyat, jaxon ta'limi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, pedagogik strategiya, ommaviy madaniyat, manipulyatsiya, mexanizm, qadriyatlar, milliy madaniyat.

Резюме. В статье рассматривается использование гендерных стратегий в формировании культурного иммунитета против «популярной культуры» у подростков, а также признается, что в ведущих высших учебных заведениях мира предпринимаются попытки интерпретации «популярной культуры» как культурного феномена. Также было отмечено, что национальные ценности играют важную роль в гендерных стратегиях.

Ключевые слова: культурный иммунитет, студент-подросток, гендерная стратегия, гендерная культура, глобальное образование, личностно-ориентированное образование, педагогическая стратегия, массовая культура, манипуляция, механизм, ценности, национальная культура.

Resume. This article discusses the use of gender strategies in the formation of cultural immunity against «popular culture» in adolescents, and it is recognized that there are attempts to interpret «popular culture» as a cultural phenomenon in the world's leading higher education institutions. It was also noted that national values play an important role in gender strategies.

Key words: cultural immunity, adolescent student, gender strategy, gender culture, global education, person-oriented education, pedagogical strategy, mass culture, manipulation, mechanism, values, national culture.

Jahonda gender yondashuv asosida o'smirlarda madaniy immunitetni shakllantirish, ular o'rtasida jinoyatchilik, o'z joniga qasd qilish va ijtimoiy me'yorlardan og'ishning oldini olish, milliy va ma'naviy qadriyatlarni egallash hamda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvni ta'minlashning kreativ modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Janubiy Koreyaning Incheon shahrida o'tkazilgan Butunjahon forumida qabul qilingan 2030-yilga qadar rivojlanish deklaratsiyasida "o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'zlarining gender rollarini farqlash va gender rollarni o'zlashtirish ko'nikmasini jadal rivojlantirish, madaniy immunitetni tarkib toptirish"[1] qayd etilgan bo'lib, o'smir yoshdagi o'quvchilarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni shakllantirish, o'quvchilarning madaniy immunitetini shakllantirishda hayotiy vaziyatlarni imitatsiyalash, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, gender ijtimoiylashuvni ta'minlashga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni shakllantirish, psixologlar va ota-onalar hamkorlikda o'smirlarda madaniy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni tizimli tarzda tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish, o'smirlarning ijobiy harakat traektoriyalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga o'smir yoshdagi o'quvchilarga shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, individual va differensial yondashuvlar asosida ularning madaniy immunitetlarini shakllantirish, sinf va sinfdan tashqari tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni isloh qilish, bu borada pedagoglarning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Gender yondashuv asosida o'smirlarda madaniy immunitetni tarkib toptirishga oid tadqiqotlar jahonning etakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Princeton university (AQSh), Association for Educational Communications and Technology – AECT (AQSh), Rheinische Friedrich-Wilhelms-Universität Bonn (Germaniya), CENTRES OF GENDER EXCELLENCE (Shvesariya); Seoul National University, Puchong University, Yonsei University, Sungkyunkwan University, Pohang University of Science and Technology, Pusan National University, Chonbuk National University (Janubiy Koreya), Miyagi pedagogika universiteti (Yaponiya), Ta'lim akademiyasi (Rossiya), O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot

instituti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

“Ommaviy madaniyat” va uning ta’sirchan mexanizmlarini aniqlashga oid quyidagi ilmiy natijalar olingan: o‘quvchi-yoshlarda ijtimoiy-hissiy madaniyatni tarkib toptirishning pedagogik tizimi ishlab chiqilgan (Pohang University of Science and Technology – Janubiy Koreya); shaxsda “ommaviy madaniyat”ga nisbatan ob’ektiv nuqtai nazarni tarkib toptirishning didaktik asoslari yaratilgan (Belfield pedagogical university); ma’naviy-axloqiy bilimlarni turli tarbiyaviy vaziyatlarda qo‘llashni optimallashtiradigan pedagogik-psixologik treninglar tizimi yaratilgan (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university); “Ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishning loyihaviy-konstruktiv texnologiyalari ishlab chiqilgan (Chonbuk National University – Janubiy Koreya); “ommaviy madaniyat”ning shaxs ma’naviyatini shakllanishidagi ta’siri neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyasi asosida aniqlangan (Miyagi pedagogika universiteti); “ommaviy madaniyat”ning mafkura va iqtisodiyotdagi ta’sir mexanizmlari ishlab chiqilgan (Rossiya ta’lim akademiyasi); ta’lim tizimida “ommaviy madaniyat”ning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari, ta’sirchanligini aniqlashning pedagogik tizimi ishlab chiqilgan (O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti)[2; 5-b.].

Dunyoning etakchi oliy ta’lim muassasalarida “ommaviy madaniyat”ning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, uni madaniy hodisa sifatida talqin qilishga urinishlar natijasida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ta’lim tizimida “ommaviy madaniyat”ning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, pedagogik mexanizmlarini tashxislash va korreksiyalash asosida takomillashtirish; “ommaviy madaniyat”ning salbiy oqibatlariga qarshi kurashish; “ommaviy madaniyat”ni madaniyatning umumdunyoviy darajada iste’mol qilinadigan elementlari yig‘indisi sifatida tizimlashtirish; “ommaviy madaniyat”ning mafkura va iqtisodiyotdagi ta’sir mexanizmlarini ishlab chiqish; “ommaviy madaniyat”ni shaxsni ijtimoiylashtirishning yangi mexanizmlari, shaxs ongini boshqarish, uning qiziqishlari va manfaatlarini manipulyatsiya qilishning yangi tizimi sifatida talqin qilish hamda bu jarayonni modellashtirish.

Bugungi kunda fanda gender va jins tushunchalari ham o‘zaro farqlanmoqda. Jins tushunchasi shaxsning anatomik-fiziologik xususiyatlarini farqlash maqsadida qo‘llaniladi. Shu nuqtai nazardan yondoshganda barcha insonlar ayol va erkak sifatida o‘zaro alohida-alohida jinslarni ifodalaydi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, biologik nuqtai nazardan jinslar o‘zaro farqli jihatdan ko‘ra ko‘proq umumiylikka ega. Baland bo‘ylilik, barvasta qaddi-qomat, gavdaning og‘irligi ko‘proq erkaklarga xos belgilardir.

Erkak va ayollar orasidagi asosiy farq ishlab chiqarishda bajaradigan rollarida namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda psixologiya, sotsiologiya kabi pedagogikada ham gender asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Gender tushunchasi fanga ingliz tilidan kirib kelgan bo‘lib, grammatik tuqtai nazaridan jins, tur kategoriyasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu atama ijtimoiy, biologik jins tushunchasini farqlash maqsadida qo‘llanilgan. Biologik farqlar bilan bir qatorda erkaklar va xotin-qizlarning ijtimoiy rollari ham mavjud. Mazkur farqlar xulq-tvor va xis-tuyg‘ularda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy munosabatlarning ifodalanishi uchun gender tushunchasi qo‘llanilmoqda.

Erkaklar va ayollar faqat anatomik xususiyatlari bilan farqlanib qolmaydilar, balki ular gender xususiyatlariga mos keladigan ijtimoiy rollarni ham bajaradilar. Xotin-qizlar va erkaklar orasidagi biologik farqlar muhim emas, bu farqlarga jamiyat tomonidan taqdim etiladigan madaniy hamda ijtimoiy munosabatlar muhim ahamiyatga ega. Uch guruhdagi xususiyatlar genderning tavsifini oydinlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega: biologik mansublik, jinsga xos rolli stereotiplar, jamiyat talablari asosida erkaklar va ayollar amal qiladigan xulq-atvor hamda o‘zaro munosabat me’yorlari.

Mustaqil fikrlovchi shaxsni rivojlantirish uchun jinsga ko‘ra farqlarni hisobga olgan holda hamda umumiy xarakterdagi o‘quv materiallarini taqdim qilishdan iborat. O‘quvchilarda gender madaniyatini shakllantirishda ta’lim katta ahamiyatga ega ekanligini kuzatishlarimiz yaqqol ko‘rsatdi. Ta’lim o‘g‘il va qiz bolalarning o‘ziga xos tarzda ijtimoiylashuvini ta’minlashda haraklantiruvchi kuch hisoblanadi. O‘quvchilarda gender madaniyatni shakllantirish jarayoni o‘zida umuminsoniy, madaniy qadriyatlar, tafakkurning nostandart stereotiplari, borliqni tahliliy idrok etish imkoniyatlarini mujassamlashtirishi kerak. Buning uchun ta’lim mazmunida milliy madaniyatga xos qadriyatlar hamda universal madaniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish talab etiladi.

Chunki ommaviy madaniyat va xos madaniyatni o‘zaro farqlagan holda bilimlarni ta’lim mazmuniga singdirish tobora dolzarblik kasb etmoqda. Madaniy hodisalarni tabaqalashtirgan holda farqlash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ommaviy hamda xos madaniyatni mazmuniga ko‘ra farqlash uchun har bir o‘quvchida reflektiv faoliyat tajribasi shakllangan bo‘lishi lozim.

Gender madaniyatining tarkibida qadriyatlar muhim o‘rin egallaydi. Jinsga qarab qadriyatlarga amal qilish ko‘nikmasini aniqlash ko‘p jihatdan shaxs madaniyatining qay darajada rivojlanganligiga bog‘liq[3]. Gender madaniyati shaxsning yoshi va egallagan kasbi bilan bog‘liq holda rivojlanib boradi. Uning dastlabki ko‘rinishlari esa umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarkib topadi. Gender konsepsiyasi doirasida shaxsning

madaniy darajasini ifodalovchi qadriyatlar muhim o'rin egallaydi.

Ommaviy madaniyat tahdidlari kuchayotgan bugungi kunda qizlarda o'g'il bolalarga xos, o'g'il bolalarda qizlarga xos qadriyatlar etakchilik qilmoqda. Bugungi kunda gender madaniyati shaxsning ijtimoiy mavqeini belgilamoqda. Bunday munosabatlar ikki tomonlama xarakter kasb etmoqda. Ijtimoiy mavqedagi o'zgarishlar qadriyatlar tizimiga xam ta'sir ko'rsatmoqda.

O'smir yoshdagi o'quvchilarda ommaviy madaniyatga qarshi immunitetni shakllantirishda ularning o'z-o'zlari va sinfdoshlarining xulq-atvorlarini tahlil qilish metodidan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Chunki atrofdagilar bilan ularning o'zlariga berilgan baholari orasida farqlar va mutanosibliklar mavjud bo'ladi. Bu farqlarning o'smirlar tomonidan to'g'ri idrok etilishida o'z-o'zini va sinfdoshlarining faoliyatlarini tahlil qilish zarur hisoblanadi[4; 59-b.].

“Ideal” strategiyasi. Bu ommaviy madaniyatning ikki yoqlama xarakterini o'smirlarga tushuntirish maqsadida qo'llaniladigan strategiya. Mazkur strategiya o'quvchilarda madaniyatga oid bilimlarni shakllantirishga ko'maklashadi. Ularda madaniy hodisalar bilan bog'liq muammolarni aniqlash, o'z oldiga qo'yilgan muammolarni echish, murakkab tanlovni amalga oshirish jarayonida munosib echimni topish layoqatini shakllantirishga ko'maklashadi.

“Yaxshi – yomon” strategiyasi. Bu o'smir yoshdagi o'quvchilarda ommaviy madaniyatning ijobiy va salbiy tomonlarini farqlash va baholash ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarda voqea-hodisalarni o'zaro qiyoslash, ularga nisbatan o'z munosabatini bayon qilish, ziddiyatli vaziyatlarda qanday yo'l tanlash lozimligini aniq tasavvur qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

“Tushunchalar assotsiatsiyasi” strategiyasi. Ushbu strategiya yordamida o'smir yoshdagi o'quvchilar turli madaniyatlarga xos hodisalarni ifodalovchi tushunchalarni o'zaro farqlash, ularning mazmun mohiyatini tushunish, o'zaro aloqadorligini anglash, o'zaro taqqoslash, muhim va muhim bo'lmagan o'zaro bir-birini inkor qiladigan va taqozo etadigan jihatlarini ajratishga ko'maklashadi. Ushbu strategiya yordamida o'smir yoshdagi o'quvchilarning kognitiv qobiliyatini rivojlantirish imkoniyati kengayadi.

“Pozitsiya – asos – misol – natija” strategiyasi. Bu strategiya doirasida o'smir yoshdagi o'quvchilar o'zlarining ommaviy madaniyatga oid fikrlarini ongli va ishonchli tarzda ifodalash ko'nikmasini egallaydilar. Ushbu strategiya o'quvchilarda ommaviy madaniyat uning o'ziga xos jihatlari haqidagi ob'ektiv nuqtai nazarni shakllantirishga xizmat qilib, yangi ma'lumotlarni o'rganish bosqichida qo'llaniladi. U o'quvchilarda ommaviy madaniyat haqidagi aniq nuqtai nazarning shakllanishiga ko'maklashadi. Mazkur strategiya 4 ta muhim qismni o'z ichiga oladi.

Pozitsiya (nuqtai nazar). Ommaviy madaniyat haqida o'z fikringizni bayon qiling. O'z fikringizni ifodalash uchun quyidagi so'zlardan foydalanishingiz mumkin: shou-biznes, pop-musiqqa, moda, reklama, ijtimoiy tarmoq. Bu o'rinda pedagog o'quvchilardan o'z fikrini asoslashni talab qiladi.

Asos. O'quvchilar oldiga nima uchun shunday deb o'ylaysiz? degan savol qo'yiladi. Ular o'z fikrlarini “Chunki ...” so'zlari bilan tushuntirishni boshlashi kerak.

Misollar. O'quvchi o'z nuqtai nazarini bayon qilishi uchun kamida uchta dalildarn foydalanishi kerak. Bu orqali o'quvchilar o'z nuqtai nazarlarini asoslashga harakt qiladilar. “Masalan ...”, “buni quyidagi ... dalillar yordamida asoslay olaman” so'zlari qo'llaniladi.

Natija. Mazkur yakuniy qismda nuqtai-nazarni tasdiqlovchi yakuniy xulosalar bayon qilinishi talab etiladi. “Shunday qilib ...”, “Xulosa qilib aytganda ...”, “Shuning uchun ...”, “Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagi xulosaga keldim ...” iboralardan foydalaniladi.

Gender yondashuvga asoslangan ma'naviy-axloqiy tarbiya bolalarda umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi. Bunday kompetensiyalar doirasiga: insonlar orasidagi do'stona munosabatlar; burch va o'z xulq-atvori uchun mas'uliyat hissiga ega bo'lish; mehnat qilishga ehtiyoj va mehnatsevarlik; tabiatga ehtiyotkorona munosabat; uyg'un tarzda shakllangan oilaviy hayotga intilish; o'zligini anglash va o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmasiga ega bo'lish.

Oilada farzand tarbiyalashda o'smir yoshdagi o'g'il va qiz bolalarning fikrlash faoliyati jinsiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda bir qator farqli jihatlar bilan ajralib turadi. Masalan, o'g'il bolalarning fikrlash faolligi quyidagi tafakkur tarzi bilan bog'liq holda shakllanadi: ko'proq chap yarim shar rivojlangan bo'ladi; yakka tartibda yaxshiroq ishlaydi; diqqatni bir joyga to'plashlari uchun uzoq vaqt talab qilinadi; axborotni sekin, biroq izchil o'zlashtiradi; voqea-hodisalarni dastlab mohiyatini ko'radi, tezkorlik bilan harakatga o'tadi.

O'smir yoshdagi bolalar uchun ko'pincha inkor etish, jamiyat tomonidan belgilangan qoidalarni rad etish ruhi xos bo'ladi. O'smirlar ajralib turishga, biror-bir o'zlariniki bo'lgan, takrorlanmaslikni va ko'pincha mavjud me'yorlarga qarama-qarshi bo'lganni yaratishga intiladilar. Bu ayniqsa “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni tarkib toptirishda yaqqol ifodalanadi.

O'smir yoshdagi bolalarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni shakllantirishda madaniy

dunyoqarashning tarkibiy qismi sifatida atrofdagilarga do'stona, o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirish ham ota-onalarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi:

- jamiyat va inson hayotida bilim olish, o'qish, mehnatsevarlik va ijodning katta ahamiyatga ega ekanligini bilish;

- ijodiy faoliyatning muhim turi sifatida ta'limga nisbatan qadriyatli munosabatda bo'lish;

- inson va jamiyat hayotida ilm-fan, ishlab chiqarishning tutgan o'rni haqida ma'lumotga ega bo'lish;

- o'zi va boshqalarning mehnati, jamoa mulkiga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish.

O'zbek xalqining milliy madaniyati, qadriyatlari ezgulikni targ'ib qilishga yo'naltirilgan bo'lib, u yoshlarda milliy g'urur, o'zlikni anglash, jamiyat a'zolari orasida hamjihatlik, hamkorlik, inoqlik, nekbinlikni tarbiyalashda alohida ahamiyatga ega. Agar ta'lim muassasalarida yoshlar ongiga milliy madaniyat singdirilmasa, ular turli yovuz kuchlar ta'siriga tez beriladilar[5].

Xulosa qilib aytganda, o'smirlarda madaniy immunitetni shakllantirish uchun ularni tarixiy madaniy bilimlar bilan qurollantirish, madaniy boyliklarni o'zlashtirish asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarning madaniyatni o'zlashtirishlari uchun qulay sharoit yaratish, o'zbek xalqining milliy madaniyati uchun xavfli bo'lgan gibrid madaniy qarashlarning asl mohiyati va maqsadini o'smirlarga tizimli tarzda tushuntirish lozim. Madaniy jihatdan yuksak darajada rivojlangan shaxslarni tarbiyalash uchun o'smirlik yoshidan boshlab ularga xalqning madaniy an'analari va yangicha madaniy yondashuvlarni taqdim etadigan vositalarni singdirish lozim.

Foydalanilgan manbalar

Инчхонская декларация - Образование-2030: обеспечение всеобщего инклюзивного и справедливого качественного образования и обучения на протяжении всей жизни// <https://unesdoc.unesco.org/>

Tojiboyeva X.M. "Gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari" // Monografiya. – Toshkent: "Tafakkur qanoti" nashriyoti, 2021. – 208 bet.

Берн Ш. Гендерная психология. – СПб: Прайм-Еврознак Нева, 2002. – 318с.

Djurayev R.X. va b. O'quvchi-yoshlarni ommaviy madaniyat xurujlaridan himoya qilishning nazariy-metodologik asoslari // Monografiya. – T.: "Tafakkur qanoti" nashriyoti, 2017 yil, 164 bet.

Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ...diss. – T.: 1993. – 364 b.

TALABALARNI IJODIY QOBILIYATLQRINI RIVOJLANTIRISHDA ART-PEDAGOGIKADAN FOYDALANISH

Tilavova Matlab Muxamedovna
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada art-pedagogikadan foydalanishda talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mavzusining mazmuni, uni modellashtirish va o'zgartirish usullari haqidagi tushunchasi ochib berilgan qarashlar, hukmlar, g'oyalar tizimining izchil ilmiy taqdimoti sifatida ko'rsatilgan. Talabalarning art-pedagogika vositasida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning terminologik asoslari mohiyati yoritilgan. «Art-pedagogik kuzatib borish», «art-pedagogik faoliyat», «art-pedagogik vositalar», «art-pedagogik o'zaro ta'sir», «art-pedagogik jarayon», «art-pedagogik muhit» kabi tushunchalarning pedagogik jihatlari asoslangan. Art-pedagogik kuzatib borish - bu art-pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida pedagogika universitetining o'quv jarayoniga qo'shilishi uchun moslashuvchan harakatlar tizimi ekanligi ko'rsatilgan. Biz «Art-pedagogik faoliyat» ni kasbiy g'oyalar va maqsadlarni san'at vositasida amalga oshirish uchun buyurtma qilingan pedagogik harakatlar majmui bo'lgan kasbiy pedagogik faoliyatning mustaqil turi sifatida ko'rib chiqamiz. Art-pedagogik faoliyatning asosiy sohalari sifatida ta'lim makonida san'at, pedagogika, psixologiya va inson bilimlarining boshqa sohalari imkoniyatlarini birlashtirishga asoslangan axloqiy va estetik o'zaro ta'sir tizimini yaratish ajratib ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: art-pedagogik, modellashtirish, konsepsiya, terminologik, art-pedagogik kuzatib borish, art-pedagogik faoliyat, art-pedagogik vositalar, art-pedagogik o'zaro ta'sir, art-pedagogik jarayon, art-pedagogik muhit.

Аннотация. В данной статье содержание темы развития творческих способностей учащихся в использовании художественной педагогики, понимания методов ее моделирования и изменения показано как последовательное научное изложение системы взглядов, суждений, идей. педагогический мониторинг», «художественно-педагогическая деятельность», «художественно-педагогический инструментарий», «художественно-педагогическое взаимодействие», «художественно-педагогический процесс», «художественно-педагогическая среда». Показано, что художественно-педагогический мониторинг представляет собой гибкую систему. действий, которые необходимо включить в учебный процесс педагогического вуза в целях успешного осуществления художественно-педагогической деятельности и создания благоприятных условий для профессиональной подготовки будущего педагога. Мы рассматриваем «Художественно-педагогическую деятельность» как самостоятельный вид профессиональной педагогической деятельности. деятельность, представляющая собой совокупность педагогических действий, направленных на реализацию профессиональных идей и целей посредством искусства. В качестве основных направлений художественно-педагогической деятельности выделено создание системы этико-эстетического взаимодействия, основанной на объединении возможностей искусства, педагогики, психологии и других областей человеческого знания в образовательном пространстве.

Ключевые слова: арт-педагогическое, моделирование, концепция, терминологический, арт-педагогический мониторинг, арт-педагогическая деятельность, арт-педагогические средства, арт-педагогическое взаимодействие, арт-педагогический процесс, арт-педагогическая среда.

Abstract. In this article, the content of the topic of developing students' creative abilities in the use of artistic pedagogy, understanding the methods of its modeling and modification is shown as a consistent scientific presentation of a system of views, judgments, and ideas. pedagogical monitoring», «artistic and pedagogical activity», «artistic and pedagogical tools», «artistic and pedagogical interaction», «artistic and pedagogical process», «artistic and pedagogical environment». It is shown that artistic and pedagogical monitoring is a flexible system. actions that need to be included in the educational process of a pedagogical university in order to successfully carry out artistic and pedagogical activities and create favorable conditions for the professional training of a future teacher. We consider «Artistic and pedagogical activity» as an independent type of professional pedagogical activity. an activity that is a set of pedagogical actions aimed at the realization of professional ideas and goals through art. The main directions of artistic and pedagogical activity are the creation of a system of ethical and aesthetic interaction based on combining the possibilities of art, pedagogy, psychology and other areas of human knowledge in the educational space. Key words: art-pedagogical, modeling, concept, terminological, art-pedagogical monitoring, art-pedagogical activity, art-pedagogical means, art-pedagogical interaction, art-pedagogical process, art-pedagogical environment.

Kirish. Art-pedagogik jarayon doirasidagi badiiy asar pedagogik mazmun va kasbiy pedagogik xarakterdagi vazifalar kontekstida idrok etish, talqin qilish, baholash ob'ektiga aylanadi. Art-pedagogik o'zaro ta'sirning asosi nafaqat badiiy asar, balki darsning o'quv materialini muhokama qilish uchun boshlang'ich sanoq nuqta bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan alohida badiiy obraz ham bo'lishi mumkin. Badiiy obraz-bu badiiy ijodning voqilikning eng umumiy hodisalaprini ifodalovchi ilmiy tushuncha (kategoriyasi) va olimlar (ustalar) asarlarida ham, o'quv jarayoni ishtirokchilarining asarlarida ham har qanday san'at turining badiiy matosining ((Zardo'zlik buyumlari)) asosiy birligi hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, badiiy obrazlarni yetakchi art-pedagogik vosita deb atash mumkin. Alohida mikroimaj, shuningdek, makroqiyofa art-pedagogik g'oyaning asosini tashkil qilishi mumkinligi ahamiyatga ega. O'quv jarayoni ishtirokchilarining badiiy faoliyati art-pedagogik o'zaro ta'sir vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Bu holda badiiy ijod jarayonining o'zi alohida pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, uning davomida o'rganilayotgan mavzuni tushunish, savollarga javob topish, muammoning shaxsiy ahamiyatini aniqlash va boshqalar mavjud. Badiiy va ijodiy vazifani bajarishda ishtirokchilar turli texnika va materiallardan foydalanishlari mumkin. Bu o'quv jarayonining barcha darajalar va tarkibiy qismlarini qamrab oluvchi tizim-maqсадga muvofiq yondashuvdir. Ko'p pedagogik nuqtai nazarining kelib chiqishi va strategik ravishda oliy ta'limi jarayonida pedagogik nutqni ishlab chiqish uchun pedagogik nutqni dizayn uchun kontseptual asosni aniqlashga imkon beradi. Tizimni o'pish yondashuvi uslubiy, didaktik va texnologik darajadagi barcha tarkibiy va qo'llab-quvvatlovchi elementlarning funktsional aloqasini ta'minlaydi.

Tadqiqot metodi. Pedagogika universitetining o'quv jarayonida talabalarning ijdoy qobiliyatini rivojlantirishda art-pedagogik qo'llab-quvvatlash.

Tadqiqot bir nechta qoidalarni o'z ichiga olgan gipotezaga asoslanadi:

1. San'atning turli turlari va vositalarining pedagogik salohiyatidan kompleks foydalanish asosida sharoitlarni ijobiy o'zgartirish uchun innovatsion resursga ega bo'lgan universitet o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini art-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi qurilishi mumkin. ta'lim muhitini insonparvarlashtirish, pedagogik o'zaro munosabatlarni optimallashtirish, kasb-hunar ta'limi sub'ektlarining ijodiy o'zini-o'zi amalga oshirishga qaratilgan ushbu trening. Ushbu tizim pedagogik ta'limning kasbiy va qadriyat yo'nalishini, individual va shaxsiy yo'nalishini va taqdimotning o'zgaruvchanligini kuchaytirish orqali uning asl mazmunini boyitishga yordam beradi.

2. Pedagogik kadrlar tayyorlashni art-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish o'quv jarayoniga gumanitar kontseptual asosda art-pedagogik vositalar va ish shakllarini bashorat qiluvchi, o'rnatish xarakteriga ega bo'lgan nazariy model doirasida kiritishni taqozo etadi. Pedagogning art-pedagogik faoliyatining umumiy mantig'i va art-pedagogik o'zaro ta'sirning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Ushbu model o'qituvchilar tayyorlashning universitet voqeliklari va o'quv amaliyotining o'zgaruvchan shartlarini hisobga olgan holda vaqt va makonda konkretlashtiriladi.

3. San'atning shaxsga ta'sir mohiyatini fanlararo har tomonlama tahlil qilish, pedagogikaning inson yaratuvchi salohiyatini integratsiyalash mexanizmlarini tushunish va art-pedagogik ta'minotning uslubiy, uslubiy va texnologik vositalarini ishlab chiqish mumkin. Pedagogik ta'lim mazmuni darajasidagi san'at, davlat standartlari asosida art-pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini, uning samaradorligi mezonlari va ko'rsatkichlarini belgilab beradi.

4. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini art-pedagogik qo'llab-quvvatlashni tashkil etish imkoniyati quyidagi shartlar bilan belgilanadi:

- o'qituvchining art-pedagogik yordam ko'rsatishga tayyorligi, bu insonparvarlik kasbiy-pedagogik pozitsiyasi va kasbiy faoliyatda san'at imkoniyatlaridan foydalanishga barqaror motivatsiya, ta'lim jarayonida san'atning qonunlari va mexanizmlari haqidagi nazariy bilimlari mavjudligida namoyon bo'ladi;

- davlat ta'lim standartlari talablari va o'quvchilarning aniq auditoriyasi bo'yicha diagnostika ma'lumotlarini tahlil qilish jarayonida aniqlangan san'at vositalarini o'quv jarayoniga jalb etishning pedagogik maqsadga muvofiqligi;

- universitetning ta'lim maydonida art-pedagogik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash; talabalarning art-pedagogik o'zaro ta'sir holatiga qo'shilishi uchun yengib bo'lmaydigan ichki to'siqlarning yo'qligi (san'at va ijodiy o'zini namoyon qilishga psixologik-fiziologik va ijtimoiy-psixologik tayyorlik);

Tadqiqotning natija va muhokamasi. 1. San'at universal pedagogik vosita bo'lib, ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlashning yangi turi sifatida art-pedagogik yordamni yaratishga imkon beradi, ta'lim va tarbiya mazmunini individual-shaxsiy idrok etish va qadriyatlarni tushunishga, optimallashtirish va insonparvarlashtirishga qaratilgan. Ushbu turdagi yordamni rivojlantirishning nazariy, uslubiy va uslubiy asoslari tabiatni, umumiy qonuniyatlarni, tamoyillarni, turli xil pedagogik muammolarni hal qilish uchun san'atni jalb qilish mexanizmlarini o'rganadigan yangi amaliyotga yo'naltirilgan fan sohasi sifatida art-pedagogika tekisligida yotadi.

2. Ta'lim jarayonini art-pedagogik ta'minlashning mohiyati badiiy pedagogikaning asosiy tushunchalari tizimi orqali ochib beriladi:

-art-pedagogik faoliyat kasbiy pedagogik faoliyatning mustaqil turi hisoblanadi, u kasbiy g'oyalari va maqsadlarni san'at vositalari yordamida amalga oshirish bo'yicha tartiblangan pedagogik harakatlar majmui hisoblanadi;

-badiiy pedagogik vositalar pedagogik vazifalar (san'at asarlari, o'quvchilarning badiiy ijodiyoti mahsulotlari, badiiy obrazlar) bilan integratsiyalashgan holda insonning dunyoni va o'zini idrok etishining maxsus usuli sifatida san'at sohasi bilan bog'liq barcha xilma-xil hodisa va jarayonlardir;

-art-pedagogik o'zaro ta'sir "o'qituvchi (o'qituvchi)- ta'lim mazmuni-san'at vositalari-talaba (talaba)" maqsadli rivojlanayotgan tizimda vujudga keladigan o'ziga xos munosabatlar va aloqalar majmui hisoblanadi;

-art-pedagogik jarayon - pedagogik muammolarni hal qilish va pedagogik g'oyalarni amalga oshirish uchun san'atdan foydalanishning tarkibiy qismi bo'lgan pedagogik jarayon;

-art-pedagogik muhit badiiy-pedagogik faoliyatning maqsadlari, vazifalari, tamoyillariga muvofiq tartibga solingan ta'lim makonining bir qismi;

-art-pedagogik yordam art-pedagogik faoliyatni ta'lim jarayoniga integratsiyalash bo'yicha harakatlarning moslashuvchan tizimi.

3. Muallif kontseptsiyasiga muvofiq, art-pedagogik yordam deganda o'qituvchilar malakasini oshirish uchun sharoitlarni yaxshilash uchun san'atning turli xil turlarini tizimli qo'llashning innovatsion yo'lini ochadigan tarbiyaviy hodisa tushuniladi.

San'atni pedagogik qo'llab-quvvatlashning funktsional maqsadli kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish va optimallashtirish, individual shaxsiy rivojlanish va o'quv jarayoni ishtirokchilarining ijodiy o'zini o'zi anglashini ta'minlash bilan bog'liq.

Art-pedagogik qo'llab-quvvatlash o'qituvchilar tayyorlashning an'anaviy shakllarini to'ldiruvchi bo'lib, ayni paytda universitet o'qituvchisi faoliyatida mustaqil yo'nalish hisoblanadi.

Yaratish va qo'llab-quvvatlash art-pedagogik yordamga qaratilgan o'qituvchilar tayyorlashning mazmun-semantik dominantlari quyidagilardir:

- shaxsga yo'naltirilgan, insonparvarlik kasbiy munosabatlarini shakllantirish;
- dunyoning ko'pligi va pedagogik voqelikni yaxlit idrok etish zarurligini anglash;
- talabalarning kasbiy va shaxsiy taqdirini o'zi belgilash;
- hodisalarning mohiyatini anglash orqali pedagogik nazariya va amaliyotni tushunish;
- kasbiy ahamiyatga ega umumiy pedagogik mahoratni rivojlantirish;
- insonparvar pedagogik o'zaro munosabatlar tajribasini o'zlashtirish;
- art-pedagogik faoliyat asoslarini egallash.

Maqsad va ilgari surilgan gipoteza tadqiqot mantig'iga mos keladigan to'rtta vazifa guruhini ajratishga imkon berdi.

Birinchi gurux vazifasi ta'limda san'atning pedagogik imkoniyatidan keng foydalanishning uslubiy asoslarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, quyidagilarni nazarda tutadi:

-san'atning pedagogik salohiyatini aniqlash;

-turli xil san'at turlarining insonga ta'sirini kompleks tahlil qilishga, fanlararo yondashuv asosida san'at vositalari yordamida hal qilinadigan pedagogik vazifalar spektrini aniqlash;

-san'at pedagogikasi fanning yangi amaliyotga yo'naltirilgan yo'nalishi sifatida shakllantirishning tarixiy shartlarini tahlil qilish.

Ikkinchi gurux vazifasi art-pedagogik qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslarini, shu jumladan bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini art-pedagogik qo'llab-quvvatlash konsepsiyasini ishlab chiqish zarurati bilan bog'liq bo'lib, buning uchun zarur bo'lgan:

-art-pedagogik hamkorlik-tushunchasining mohiyati va mazmunini aniqlash;

-o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi tizimida art-pedagogik qo'llab-quvvatlashning o'rni va funktsiyalarini asoslash;

-bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini art-pedagogik qo'llab-quvvatlash konsepsiyasini yaratish;

-oliy pedagogik ta'lim tizimida o'qituvchi tayyorlashni art-pedagogik qo'llab-quvvatlash modelini ishlab chiqish.

Uchinchi gurux vazifalari pedagogik sikl fanlari doirasida art-pedagogik qo'llab-quvvatlashning nazariy modelini sinovdan o'tkazish bilan bog'liq bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-bo'lajak o'qituvchini tayyorlashning haqiqiy amaliyotini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini art-pedagogik qo'llab-quvvatlash mazmunini konkretlashtirish;

-pedagogik tsikl fanlari misolida art-pedagogik qo'llab-quvvatlash modelini amalga oshirish bo'yicha

eksperimental ishlarni tashkil etish;

-art-pedagogik qo'llab-quvvatlash samaradorligini baholash tizimini eksperimental tekshirish.

To'rtinchi guruh vazifalari, kelajakdagi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini art-pedagogik qo'llab-quvvatlash va uslubiy qo'llab-quvvatlashni ishlab chiqish bilan bog'liq:

-o'quv jarayonini art-pedagogik qo'llab-quvvatlashning texnologik vositalari;

-art-pedagogik darsni loyihalash metodologiyasini ishlab chiqish;

-pedagogika universitetning o'quv jarayonida art-pedagogik hamkorlikni tashkil etish shartlarini aniqlash va asoslash.

Xulosa. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar ilgari surilgan gipotezaning to'g'riligini uning bir qator qoidalariga aniqlik kiritish orqali tasdiqlash imkonini beradi. San'atning tabiati va funktsiyalarini fanlararo tahlil qilish san'atning turli turlari va vositalarining pedagogik imkoniyatlaridan kompleks foydalanish asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish imkoniyatlarini asoslash imkonini berdi. San'at va pedagogika, art-pedagogik faoliyat o'rtasidagi aniqlangan chuqur qarindoshlik, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'quv jarayonini rivojlantirish, tarbiyalash, kommunikativ va boshqa san'at resurslarini yangilash maqsadga muvofiqligini asoslaydi. Shaxsning kognitiv, hissiy, xulq-atvor sohasiga, inson psixikasining ratsional va intuitiv, ongli va ongsiz tomonlariga har tomonlama ta'sir ko'rsatadigan san'at sizga ko'plab pedagogik vazifalarni parallel ravishda hal qilish imkonini beradi, ishtirokchilarning ta'lim jarayoniga yaxlit qo'shilishini ta'minlaydi. Pedagogik va badiiy salohiyatni birlashtirishning tarixiy va zamonaviy tajribasini tahlil qilish badiiy pedagogikaning tabiatini, umumiy qonuniyatlarini, tamoyillarini, jalb qilish mexanizmlarini o'rganadigan pedagogika fanining mustaqil sohasi sifatida shakllanishi uchun ob'ektiv tarixiy va madaniy shart-sharoitlar mavjudligini aniqladi. Kasbiy-pedagogik faoliyatning mustaqil turi art-pedagogik faoliyat bo'lib, u kasbiy g'oya va maqsadlarni san'at vositasida amalga oshirishga qaratilgan pedagogik harakatlar majmui hisoblanadi. Art-pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlari sifatida o'qituvchi tomonidan o'quv jarayoni ishtirokchilarining badiiy ijodini rag'batlantirish va tashkil etish, shuningdek, integratsiyalashgan holda ta'lim jarayonida axloqiy va estetik o'zaro ta'sir tizimini yaratishni ko'rib chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Александрова, Е. А. Педагогическое сопровождение старшеклассников в процессе разработки и реализации индивидуальных образовательных траекторий : дис.... д-ра пед. наук / Е. А. Александрова. — Тюмень, 2006. - 375 с.

2.Алексеева, М. Ю. Развитие творческого мышления младших школьников средствами арт-терапии : на материале обучения иностранному языку : дис. ... канд. пед. наук / М. Ю. Алексеева. - Курск, 2007. - 240 с.

3.Аметова-Давыдовская, Л. А. Эмоциональный Ренессанс. Психолого-. педагогическая технология использования арт-терапии в системе художественного образования / Л. А. Аметова-Давыдовская. - Ярославль : Ремдер, 2005.-192 с.

4. Mirzaeva, D. (2023). TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ARTPEDAGOGIKANING ANAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 38(38). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10286

5.Мирзаева, Дилфуза. «Арт педагогикаси воситасида мактабгача таълим ташкилоти болалари ижодкорлигини ривожлантириш.» Общество и инновации 3.1/S (2022): 141-148.

6 Mirzaeva D. КОНЦЕПЦИЯ АРТ-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАБЛЮДЕНИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.

Har qanday jamiyatda bo'lganidek, respublikamizning bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh malakali mutaxassislarni tayyorlash asosiy muammo hisoblanadi. Mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida ham so'nggi yillarda keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi kabi xislatlarni tarkib toptirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masofaviy ta'limda berilgan vazifalarni qanday bajarishni har bir talabani o'zi ixtiyoriy va albatta talab qilingan qoidalarga binoan amalga oshiradi. Muvafaqqiyatga erishish uchun talabani o'zi sabr-toqat bilan, mashaqqatlardan qo'rqmay o'z ustida ishlashi kerak. Buni esa talabani shaxsan o'zi rejalashtiradi va amalga oshiradi [12-13].

Jamiyatning barcha jabhalaridagi muammolar, o'zgarishlar oliy ta'lim muassalarida masofaviy talim shakli talabalarini tayyorlash jarayoniga ham ta'sir qilib va yangidan yangi talablarni qo'yadi. Hozirgi paytda nazariy bilim bilan birga amaliy ko'nikmaga ega, o'zgarishlarga moslanuvchan, erkin fikrlaydigan, kasbiy hamda hayotiy muammolarini mustaqil hal qila oladigan mutaxassis kadrlarga ehtiyoj katta [13].

Masofaviy ta'lim shakli talabalarining o'zlashtirilgan bilimlarini, egallangan ko'nikmalarini va malakalarini mazmunan tizimli va mantiqan tugallangan tarzda shakllantirilib, ishlab chiqarishdagi turli vaziyatlarda qo'llay olishlari kerak. Shu bilan birga ta'lim oluvchilarni faollashtirish ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida onlayn muhit, ya'ni aloqa paydo bo'ladi. Mazmunli va qiziqarli dars so'ngida talabalarimiz o'zlari uchun qiziq va o'zlashtira olmagan mavzulari bo'yicha savollarini berish imkoniyati mavjud bo'ladi. Talabalar tomonidan har bir fanini o'zlashtirish ko'rsatkichi yuqori bo'lsa, bu professor-o'qituvchi tomonidan darslar sifatli o'tilganligi, o'quv ma'lumotlar tushunarli va oson qilib tuzulganligini bildiradi [6]. Bunday vaziyatda talaba berilgan vazifalarni mustaqil fikrlab ijobiy bajarishga harakat qiladi. Eng katta urg'u ham talabalarining mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Talabalarining mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy masalardan hisoblanadi. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar negizida masofaviy ta'lim shakli talabalarining ongliligi va faolligini oshirishda talaba ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini o'quv faoliyatida mustaqil fikr, tafakkur, nutq texnikasini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'minlashga e'tibor qaratish lozim. Masofaviy ta'lim shakli talabalarining mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini yo'lga qo'yish kerak. Yuqorida aytib o'tilgan fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, oliy ta'lim muassalarida mustaqil ta'lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, talabalarini mustaqil ishlashga o'rgatish ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda o'z o'rnini topa olish malakasiga ega bo'lgan, istiqbolli vazifalarni qo'yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 3 oktyabridagi «Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 559-son Qarori. <https://lex.uz/>
3. 2018 yil 19 fevraldagi «Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5349-sonli farmonlari. <https://lex.uz/>
4. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun. O'RQ-637-son. 2020-yil 23-sentyabr. <https://lex.uz/>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni. <https://lex.uz/>
6. Xalilov S.S. Suyarov K.T. Masofaviy ta'lim sharoitida fizika fanidan talabalar bilimlarini Freyim modeli orqali mustahkamlash. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 7 uif-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. Toshkent -2022. №7. –B. 1570-1573
7. Xalilov S.S. Organization of virtual laboratory learning with using the frame model. Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3 march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 toshkent -2023. №2. –b. 567-573
8. Xalilov S.S. Evaluation of students using frame model in teaching physics in distance education. Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj)issn (e): 2347-6915vol. 11, issue 04, april(2023)
9. Musaxanova G.M. «Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarining tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida» «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-

dekabr, 2020 yil <http://iqtisodiyot.tsue.uz6/2020> (№ 00050)

10. Э.З.Имамов Х.Н.Каримов, С.С.Халилов, А.Э.Имамов. // Будущее за обучением с активным процессом самообразования студентов. // “Science and innovation” international scientific journal. (ISSN: 2181-3337) 2022. № 5. -С. 479-482. (https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=i5SoNTcAAAAJ&citation_for_view=i5SoNTcAAAAJ:YOwf2qJgpHMC)

12. Kh.N.Karimov. // Methods of self-education in teaching students physics using ict-information and computer technologies. // “Galaxy international Interdisciplinary Research Journal”, 11(2), -С. 471–475. (<https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/4889>).

13. X.N.Karimov, M.M.Asfandiyorov, M.A.Axmadov. // Zamonaviy yondashuvlar asosida fizika o'qitishni rivojlantirish.// “Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi” materiallar to'plami. 2023. –P. 113-115.

BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGIDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li

Pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent Guliston davlat pedagogika instituti

Anotatsiya: maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini axborot kommunikatsion texnologiyalari vositasida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari mazmun mohiyati ochib berilgan. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining o'z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishda kompyuter texnologiyalari dastur va ilovalari yoritilgan. Shuningdek, talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligi jarayonida pedagogik amaliyot davrida umumiy o'rta ta'lim maktablari tasviriy san'at darslarini axborot kommunikativ texnologiyalardan foydalanib kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy-metodik tayyorgarlik, axborot kommunikativ texnologiyalar, dasturlar, grafik redaktorlar, learning management system, ijtimoiy tarmoqlar, bulutli texnologiyalar, masofaviy ta'lim, ommaviy ochiq onlayn kurslar, videodars lavhalar, multimediali prezentatsiyalar, pedagogik amaliyot davri, bilish, ko'nikmalar va malakalar.

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Хайров Расим Золимхон углы

Доктор философии педагогических наук, доцент Гулистанский государственный педагогический институт

Аннотация: в статье раскрывается сущность содержания педагогических условий развития профессионально-методической подготовки будущих учителей изобразительного искусства с использованием информационно-коммуникационных технологий. Рассматриваются компьютерные технологические программы и приложения будущего учителя изобразительного искусства в эффективном осуществлении своей профессиональной деятельности. Также в процессе профессионально-методической подготовки студентов, в период педагогической практики, освещаются вопросы формирования профессиональных навыков на уроках изобразительного искусства общеобразовательных средних школ с использованием информационно-коммуникативных технологий.

Ключевые слова: профессионально-методическая подготовка, информационно-коммуникационные технологии, программы, графические редакторы, система управления обучением, социальные сети, облачные технологии, дистанционное образование, публичные открытые онлайн-курсы, видеоматериалы, мультимедийные презентации, период педагогической практики, знания, умения и квалификация.

THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS

Khayrov Rasim Zalimkhan ugli

Doctor of Philosophy of Pedagogical Sciences, Associate Professor Gulistan State Pedagogical Institute

Abstract: the article reveals the essence of the content of pedagogical conditions for the development of professional and methodological training of future teachers of fine arts using information and communication technologies. Computer technological programs and applications of the future teacher of fine arts in the effective implementation of their professional activities are considered. Also, in the process of professional and methodological training of students, during the period of pedagogical practice, the issues of the formation of professional skills in the lessons of fine arts of secondary schools with the use of information and communication technologies are highlighted.

Keywords: professional and methodological training, information and communication technologies, programs, graphic editors, learning management system, social networks, cloud technologies, distance education, public open online courses, video materials, multimedia presentations, period of pedagogical practice, knowledge, skills and qualifications.

Zamonaviy jamiyatni axborotlashtirish, unga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish asosida kasbiy-metodik tayyorgarlik tabiatini o'zgarishiga olib keldi. Shu munosabat bilan kasbiy-metodik tayyorgarlikning turli yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis tayyorlashga yondashuv o'zgardi.

O'quv jarayonida axborot kommunikativ texnologiyalaridan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash zarurati va muammolari V. P. Bepalko, S.I. Makrousov, D.Yu. Altimentova, K.A. Rojko, R.X. Alimov, O.X. Azamatov va boshqalar asarlarida o'z ifodasini topgan.

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasita'lim yo'nalishi "Majburiy fanlar" blokida majburiy minimal ta'lim mazmuni axborot bilan ishlash, to'plash, yig'ish va to'plash jarayonlarining umumiy xususiyatlari, dasturiy ta'minot va dasturlash texnologiyalari haqidagi bilimlarni shakllantirishga qaratilgan "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" va tanlov fanlar blokida "Avtomatlashtirilgan grafik dasturlarda loyihalash", "Matematika" kursini o'rganishni nazarda tutadi. Bu va boshqa mutaxassislik kurslari bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash bo'yicha barcha keyingi ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlaydigan asosiy mezon hisoblanadi. Ushbu kursning asosiy maqsadi talabalarning maktabda olgan axborot texnologiyalari bo'yicha bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish hamda shu asosda kasbiy-metodik tayyorgarlikda informatikaning metod va vositalaridan amaliy foydalanish ko'nikmalarini propedevtik jihatdan takomillashtirishdan iborat.

R.X. Alimov, O.X. Azamatov, U.T. Xayitmatovlar [2] o'zlarining "Ta'limda axborot texnologiyalari" o'quv qo'llanmasida tasviriy san'atni kompyuter orqali o'rganish jarayonida talabalar ham rassom, ham tomoshabin sifatida ishtirok etishadilar, deb ta'kidlagan.

Ma'lumki, o'qitishning eng samarali usuli bu materialni ko'rgazmali qurollar orqali ko'rsatish va bir vaqtning o'zida tushuntirishdir [13]. Minnesota shtat universiteti Uorton maktabi (Wharton School) amaliy tadqiqotlar markaziga fiziolog olimlarning fikriga ko'ra [9; 20-b.] odam bir vaqtning o'zida eshitgan narsasining 20 foizini, ko'rgan narsasining 30 foizini va ko'rgan va eshitgan narsasining 50 foizdan ortig'ini eslab qoladi. Axborot kommunikatsion texnologiyalari va multimedia dasturlari orqali katta hajmdagi illyustrativ va didaktik materiallarni jalb qilish imkonini beradi va o'quv jarayonini samaraliroq qiladi. Muayyan materialni o'rganish uchun zarur bo'lgan vaqtni tejash o'rtacha 30% ni tashkil qiladi va olingan bilimlar xotirada ancha uzoqroq saqlanadi. [6; 35-b.]

Axborot kommunikativ texnologiyalari kasbiy-metodik tayyorgarlik jarayonida tadbiq etish, talabalarda tasviriy san'at fanlaridan badiiy - estetik didni o'stirish, ko'nikma va malakalarini, badiiy bilimlarini shakllantiradi. (1-jadval)

1-jadval

№	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari:
1.	Kompyuter - universal axborotni qayta ishlash qurilmasi.
2.	Printer - bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi tomonidan yaratilgan ma'lumotlarni qog'ozga yozib olish imkonini beruvchi qurilma. Tasviriy san'at darslari uchun rangli printer zarur va maqbuldir.
3.	Proektor - mashg'ulot jarayonida bo'lajak o'qituvchining ko'rgazmali tasvirlarini auditoriyaga taqdim etish moslamasi.
4.	Interfaol doska - kompyuterga ulangan sensorli ekran, undan tasvirlar proektor yordamida oq doskaga uzatiladi. Interfaol doskalar uchun maxsus dasturiy ta'minot matnlar va ob'ektlar, audio va video materiallar, Internet resurslari bilan ishlash, ochiq hujjatlarning tepasida to'g'ridan-to'g'ri qo'lda yozilgan yozuvlar qilish va ma'lumotlarni saqlash imkonini beradi.
5.	Vizual va ovozli ma'lumotlarni yozib olish (kiritish) qurilmalari (skaner, kamera, videokamera) - o'quv jarayoniga atrofdagi axborot tasvirlarini bevosita kiritish imkonini beradi.
6.	Oliy ta'lim muassasi va auditoriya ichidagi tarmoqlar - mavjud ma'lumotlardan, texnik va vaqtinchalik resurslardan samaraliroq foydalanish imkonini beradi, global axborot tarmog'iga umumiy kirishni ta'minlaydi.

N.A. Borodina, S.V. Podgorskaya, O.S. Anisimovalar [52] o'zlarining tadqiqot ishlarida axborot kommunikativ texnologiyalari orqali ta'lim jarayonini to'liq nazorat qilish, undagi ma'lumotlarni yangilab borish imkoniyati tug'iladi. Axborot kommunikativ texnologiyalarining darslarda qo'llanilishi pedagogik texnologiyalar, tahliliy materiallar kabi ma'lumotlar to'planadi. Shuning bilan bir katorada, videokonferentsiya o'tkazish, har xil ko'rinishdagi taqdimotlarni namoyish etish, ilmiy tadqiqot ishlari xaqida ma'lumot berish, seminarlar va turli mashg'ulotlarning o'tkazishda uning ahamiyati kattadir.

Kompyuterdan foydalanish bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligi hozirgi rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'lgan zarurat bo'lib, ularda bilish faoliyati faollashadi. Bunda bizga Windows dasturiy ta'minotida Paint, Adobe Photoshop, 3D max, Power Poit, Movie Maker, Photo Story grafik dasturlari qo'l keladi. Umumiy va o'quv maqsadlaridagi Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, Microsoft Publisher, MyTest, TestEdu, CorelDRAW, Windows Live kinostudiyasi kabi dasturlar pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatli foydalanilishi mumkin [4; 14-16-b.]

Kasbiy-metodik tayyorlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ko'plab didaktik imkoniyatlari mavjud [5; 37-40-b.].

ta'lim oluvchilarning monitorlari va multimediya proektorlari ekranlariga me'yorida matnli yoki grafik axborotlarni etkaza olishi;

grafik redaktorlari yordamida tasvirlar yaratishi;

ta'lim oluvchilar bilan individual va differentsial ishlash imkonini beradi;

jahon rangtasvir durdonalarini raqamli to'plamlarini yaratishi;

bilimlarni nazorat qiladi (testlash);

multimediali namoyishlar (prezentatsiyalar) yaratadi.


o'quv jarayonini yanada zamonaviy va jozibadorligini oshiradi;

yirik jahon va vatanimizning virtual muzeylariga tashrif buyurishi;

tasvirlarni namoyish qilish orqali o'quv ma'lumotlarni idrokini oshirish;

darsni ko'rgazmalilik va dinamikasini oshiradi.

A.A.Abduqodirov [23] ning "SMART texnologiyasi va undan ta'limda foydalanish imkoniyatlari" nomli ilmiy tadqiqot ishida axborot texnologiyalarining uchta asosiy komponentlarini ko'rsatib bera olgan:



2-rasm. AKTning komponentlari.

Shu bilan birga, axborot texnologiyalari ikki turga bo'linadi:

- analog, ular ma'lumotni uzluksiz jismoniy miqdor shaklida aks ettirishga asoslangan, masalan, kuchlanish yoki elektr tokining kuchi;

- raqamli, ular ma'lumotni raqamlar shaklida (odatda ikkilik yozuvda) ifodalashning diskret usuliga asoslangan bo'lib, ularning qiymatlari ma'lumot mazmunini aks ettiradi.

Analog bilan taqqoslaganda, ma'lumotlarning raqamli namoyishi shovqinlardan, shu jumladan aloqa kanallari orqali uzatishda sezilarli darajada ko'proq himoya qiladi.

Ta'lim tizimidagi axborot texnologiyalarining pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat: bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-metodik tayyorlash, shu jumladan: ijodiy, konstruktiv va izlanuvchan fikrlashni rivojlantirish, muammoli vaziyatlarda favqulodda qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish;


kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish; tadqiqot ko'nikmalarini takomillashtirish [10; 67-69-b.]

Natijalar: tadqiqotlar natijasida biz AKTni kasbiy-metodik tayyorgarlik jarayoniga joriy etish maqsadlarini o'rgandik va aniqladik, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy metodik tayyorgarligida tegishli vositalardan foydalanish bo'yicha guruhlar ishlab chiqildi:


Learning management system - uchta eng mashhur LMS tizimlari (Blackboard, Moodle va Sakai) o'quv materiallari va kurslarning kontsentratsiyasini ta'minlaydi, shuningdek kurslarni boshqarish, ro'yxatdan o'tish, kurslarni rejalashtirish, munozarali forumlar, blog saytlari, baholashlarni qamrab oladi. LMS ning asosiy funksiyalariga tanlangan kurslarni o'z ichiga oladi. Kursni ishlab chiquvchi materiallar yoki aksincha, erkin mavjud bo'lgan ochiq ta'lim resurslarini taqdim etishi mumkin. Materiallar turli formatlarda taqdim etiladi - oddiy matndan interaktiv multimediyagacha [11; 152-156-b.].

Ijtimoiy tarmoqlar – bo'lajak o'qituvchilarga AKT yordamida muloqot qilish imkoniyatini beradi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy o'zaro ta'sir vositasidir. Mamlakatimizda ta'lim sohasida ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati ortib bormoqda [10].

Bulutli texnologiyalar – bugungi kunga keliba ta'lim muassasalari AKTsiz samarali ishlay olmaydi. Internet orqali talabalar va o'qituvchilarga tobora ko'proq ta'lim xizmatlari ko'rsatilmoqda. Bulut texnologiyasi-bu foydalanuvchilarning internet serverlarida saqlanadigan axborotlaridan iborat virtual xotira bo'lib, jahonda yirik axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar tomonidan taklif etilayotgan xizmat turlaridan biri hisoblanadi.



3-rasm. Google xizmatlari



4-rasm. Nazorat turlari

Bulut texnologiyasini birinchilardan bo'lib tatbiq etgan Google ning classroom xizmati (<http://G'G'classroom.google.com>) foydalanuvchiga darslarni tashkil etish uchun elektron kundalik, jurnal, bilimni baholash kabi xizmatlarni taklif etadi [7; 162-169-b.]. Google foydalanuvchisiga shaxsiy kabinetida hujjatlar, rasmlar, bloggerlik, xarita, pochta, tarjima va ta'lim tizimi uchun sinfxona (classroom) kabi xizmatlarni taklif etadi (3-rasm).

Mustaqil ta'lim. Internet tizimidagi katta miqdordagi ochiq ma'lumotlar tufayli bhlajak tasviriy san'at ho'ituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligidagi nazariy bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish mumkin. Bundan tashqari, buning uchun kutubxonalarga borish shart emas, faqat Internetga ulangan shaxsiy kompyuteringiz bo'lishi darkor [11; 152-156-b.].

Masofaviy ta'lim. Kasbiy-metodik tayyorgarlikda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladi. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi.

Mobil ta'lim - mobil telefonlar, smartfonlar, planshetlar yordamida ta'lim olish. Ta'limning o'ziga xos xususiyati shundaki, ish va o'qishni birlashtira olish, bir vaqtning o'zida bir nechta kurslarda va hatto bir nechta maktab yoki universitetlarda ta'lim jarayoni olib borilishi mumkin. Shu bilan birga, portativ qurilmalar – ular to'liq o'quv vositalaridir, chunki m-learning o'quv jarayonining moslashuvchanligiga asoslanadi. Ta'limga zamonaviy yondashuvlar telefonning moslashuvchan va uzluksiz ta'limda yordamchiga aylanishiga olib keldi [8].


Ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC - massive open Online course) – doim ochiq va ommaviy xarakter xususiyatiga ega bo'lgan Internetda bepul o'quv kurslari. Ochiq kirish shuni anglatadiki, kurs bepul,

ommaviy dunyodan ko‘plab ishtirokchilar ommaviy ishtirok etadilar. MOOC internetda mahalliyashtirilgan masofaviy ta‘lim shaklidir. Bu kurslarga cheklanmagan miqdorda bo‘lajak mutahassislar ro‘yxatdan o‘tishi mumkin. Tashkil etilgan kurslarda puxta o‘ylangan dastur, oraliq vazifalar, testlar va yakuniy attestatsiya (sertifikatlash) xarakteriga ega. Kurslar odatda vaqt bilan cheklangan, ya‘ni ular dedlainlar tizimidan foydalanadilar [106].

Yu. V. Maslova, A.P. Koxanenkolar [6] tadqiqot ishlarida bugungi kundagi ta‘lim tizimida elektron shaklda tashkil etiladigan ta‘lim jarayonining nazariy mashg‘ulotlari odatda elektoron ta‘limga tayanishini ko‘rsatib berishgan. Elektoron ma‘ruzalar matnli ma‘ruza matnlarining salmoqli qismini egallab, o‘quv dasturiga kiruvchi barcha materiallar PDF matnli shaklda yaratilgan, keyin esa qo‘shimcha ravishda audio hamda video materiallar ishlab chiqilmoqda. O‘quv materialining bu taxlitda taqdim etilishi an‘anaviy ma‘ruzalar ega bo‘lgan kamchiliklar, xususan, zarur o‘rinlarni ko‘chirib olish, qayd qilish, ma‘ruzachi tomonidan uni qayta-qayta takrorlashga ortiqcha vaqt sarflanishi kabilarning bartaraf etilishini ta‘minlaydi.

Videodars lavhalar - darslik yoki o‘quv dastur asosida talabalarga berilishi zarur bo‘lgan ma‘lumotlarini va amaliy topshiriqlarni bajarib ko‘rsatuvchi video lavhalar ketma-ketligi. Ba‘zi video dars lavhalar o‘rgatuvchi tomonidan tildan amaliy darslarni video tasvirga olish orqali ham ishlab chiqiladi.

Video darslarni yaratuvchi va eng ko‘p qo‘llaniluvchi dasturiy ta‘minot Camtasia studio dasturi. Bu dasturning qulayligi shundaki tasvirni kichik hajmda va yuqori tiniqlik darajasida saqlay oladi, olingan tasvirlarni o‘quvchi e‘tibor qara‘tishi zarur bo‘lgan qismlarini belgilab olish, qo‘shimcha izohlar kiritish kabi imkoniyatlari mavjud (5-rasm).




5-рasm. Camtasia studio dasturida elektron ma‘ruzalar tayyorlash.

Ma‘ruza matnlari sirasiga kiradigan audio materiallar odatda ikki:

On-line rejimida (AKTdan foydalangan holda); Off-line rejimida (audiokassetalar, audiodisklar, fayllarga yozilga holda tarmoq texnologiyalari orqali) tarqatiladi. Video materiallar ham On-line va Off-line rejimlari orqali tarqatilishi mumkin. Bu turdagi materiallarning On-line rejimida to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatilishi uning an‘anaviy ma‘ruzadan deyarli farq qilmasligini ifodalaydi.

Off-line rejimida video materiallar tarkibiga ma‘ruza, mavzuga taalluqli ilmiy-ommabop videomateriallar, sohaning etakchi mutaxassisleri bilan uchrashuvni yoritadigan videolavhalar kiritiladi. Bunday video materiallardan ixtiyoriy ravishda, istalgan joyda, vaqtda hamda takroran foydalanish imkoniyati mavjud.

Animatsion ma‘ruzalar talabalarga interfaol xarakterga ega o‘rgatuvchi kompyuter dasturlari orqali etkaziladi. Animatsion ma‘ruzalar multimedia texnologiyasidan foydalangan holda shakllantiriladi. Unda har bir ta‘lim oluvchi o‘zining psixologik-fiziologik xususiyatidan kelib chiqqan holda mazkur turdagi ma‘ruzada o‘z traektoriyasi, o‘zlashtirish sur‘ati, o‘rganish usulini tanlaydi.



6-rasm. BANDICAM dasturining interfeysi.

BANDICAM- dasturi o'zining interfeysi, ko'plab formatlari, video fayllarga turli xil belgilar va izohlar qo'yilishi, darslarga menyular hosil qilinishi bilan ajralib turadi, shuningdek, bu dastur yordamida audio fayllarni ham yaratish mumkin. Dars yozish davomida ekranning kerakli joyini alohida ajratib ko'rsatish imkoni ham mavjud.

BANDICAM dasturi - kompyuter monitori ekranidagi tasvirlarni yozib olish imkonini beruvchi juda ham qulay kuchli dastur hisoblanadi. Ushbu dastur yordamida ekrandagi jarayonlarni tasvirga olish, veb-kameralar orqali videoga olish, Power Point taqdimotlarini, hamda audioni yozib olish mumkin (6-rasm).

Dasturning asosiy imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

1. Monitor ekranidagi va web kameralar orqali video tasvirlarni, mikrofondagi ovozni sifatli yozib olish.
2. Video lavhalarga turli xil vizual effektlar berish.
3. Video yo'laklarni kesib olish, birlashtirish, o'chirish va qo'shish.
4. Audio yozuvlar qo'yish va tahrirlash .
5. Videoni quyidagi formatlarda saqlash: SWF, FLV, AVI, MOV, WMV, PPT, GIF, RM, CAMV.

Umuman, BandiKam dasturi boshqa dasturlardan video tasvirni sifatli ushlab olish imkoniyatiga ega.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini kompyuter grafikasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uning o'rganish predmeti sifatida kompyuterga grafik ob'ektlarni kiritish, taqdim etish, qayta ishlash va olingan grafik ma'lumotlarni kompyuterdan displey qurilmalariga chiqarishni avtomatlashtirish vosita va metodlarini e'tirof etish joiz [3; 22-27-b.].

Bo'lajak o'qituvchini kasbiy-metodik tayyorgarligida Microsoft Power Point elektron taqdimotlari katta yordam beradi [23]. Taqdimot bir vaqtning o'zida bir nechta xotira turlariga ta'sir qilish imkonini beradi: ko'rish, emotsional. Estetik jihatdan yaratilgan turli xil tasviriy materiallar, chizmalar, kompozitsiyalar, topshiriqlar, testlar, krossvordlar - darsga bo'lgan qiziqishni oshiradi (7-rasm). [8; 20-21-b.].

Multimediali prezentatsiyalarni yangi mavzularni o'rganishning turli xil bosqichlarida, kompyuter yoki proektsion ekran yordamida yangi materialni tushuntirishda, mustahkamlashda, umumlashtirishda, nazorat o'tkazishda, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda, to'garak ishlarida foydalaniladi. Shu bilan birga, tasviriy san'atdan lektsiya, viktorinalar, bellashuvlar, kechalar, mustaqil ishlar, testlash, so'rovnomalar, rassomlarning hayoti va ijodi bilan tanishtirish, yoki san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarida foydalanish uchun imkoniyatlari keng [23].



7-rasm. Tasviriy san'atdan krossvord.




8-rasm. Darslarda prezentatsiyadan foydalanish.

Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi fanidan bo'lajak o'qituvchilar amaliy mashg'ulotlarda Microsoft Power Point dasturidan turli xil mavzularni, masalan; 2-sinflar uchun "Rang va tuslar", "Oltin kuz", "Kish ziyati", "O'zbekiston xalk amaliy bezak san'ati", 5-sinflar uchun "Tasviriy san'at ifoda vositalari xakida" (Reproduktsiyalarni tahlil etish asosida), "Tasviriy san'atda animalistik janr", Tasviriy portret", 7-sinflar uchun "O'zbekiston amaliy bezak san'ati", "O'zbekiston me'moriy yodgorliklari" mavzulariga prezentatsiyalarni yaratish mumkin (8-rasm).


Shu bilan birga bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy-metodik tayyorgarligida, ayniqsa axborot kommunikativ texnologiyalarni o'rganishda pedagogik amaliyot alohida o'rin tutadi. Pedagogik amaliyot - bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarni tayyorlashda o'quv-pedagogik jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Pedagogik amaliyot - bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-metodik tayyorlash, olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish, pedagogik faoliyat mas'uliyatini his etish va o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantiradi, shuningdek, tajribali o'qituvchilarning ish faoliyatini o'rganishdan iboratdir.

Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik amaliyot davrida yuqorida keltirilgan dars mavzulari bo'yicha prezentatsiyalarni murakabligini o'quvchilarning qobiliyat va layoqatlariga qarab, har bir sinfga moslab ham yaratish mumkin.

Masalan, 6-sinfda "Tasviriy san'atda janrlar" mavzusini o'rganishda yangi materialni tushuntirishda ekranda ta'rif va tasnifni ko'rsatish hamda tushuntirishni illyustrativ material bilan birga olib borish maqsadga muvofiqdir. Ushbu formatda nazariy materialning asosiy konspekti bo'lgan bunday taqdimotni ko'rsatish avtomatik dasturlashtirilgan rejimda emas, balki sichqonchani bosish orqali bir slayddan, ikkinchisiga o'tish orqali amalga oshiriladi. O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab, ma'lum bir slaydani namoyish etish vaqti turlicha bo'lishi mumkin. (9-10-rasmlar)



9-rasm. Ranglarni aniqlash
(Microsoft Power Point dasturida)



10-rasm. Bo'lajak o'qituvchi uchun
metodik qo'llanma.

7-sinfda "Kitob grafikasi" mavzusini o'rganayotganda nazariy va illyustrativ materialni to'liq idrok etish uchun darsda turli ish shakllaridan foydalanishni kompyuter taqdimoti amalga oshirishga yordam berishi maqsadga muvofiq. O'quvchilarning bilim olishida kognitivlikni oshiruvchi motivatsiya bosqichini mashg'ulot muvaffaqiyatining zaruriy shartidir.

Bundan tashqari maktab tasviriy san'at darslarda mavzu yuzasidan o'rganilayotgan materiallardan masallar, rivoyatlar, maqollar, topishmoqlarni ham taqdimot formatida tayyorlash mumkin. Taqdimotlarni tayyorlashda ko'p vaqt talab qilmaydi, balki ular ma'lum mavzuni o'rganish mazmunini tushunishga yordam beradi. (103-104-rasm)

Yangi materialni tushuntirish bosqichida yangi so'z, lug'at, atamalar va ta'riflar bilan ishlashda taqdimotlarning ahamiyati katta. Dars davomida o'rta o'zlashtiruvchi o'quvchilar har doim ham murakkab, tasviriy san'atga oid atamalarni bir martada idrok etishga qiynaladi. Ekranda ta'riflar, tushunchalar, chizmalar, fotosuratlar namoyish etilishi, bu muammoni hal qila oladi. Bu metod "Eshitdim Q o'qidim Q ko'rdim q eslab qoldim" formulasi bo'yicha qurilgan [23]. Bunda o'quvchining eshitish va vizual analizatorlari ham ishtirok etadi.

Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi kursining amaliy mashg'ulotdan na'munaviy darslarni tashkil etishda axborot kommunikativ texnologiyasidan unumli foydalaniladi [181]. Masalan, 5 - 6 - sinf tasviriy san'at darslarining mustahkamlash qismida - sinf o'quvchilariga to'g'ri javoblar qabul qilinganda to'ldiriladigan krossvordni echishni taklif qilish mumkin.



11-rasm. Veb-saytda logotip yaratish musobaqasi.

12-rasm. Ranglarning inson hayotidagi o'rni.

7-sinfda “Tasvirning tarixiy janri” mavzusini o’rganayotganda o’quvchilarni Kamoliddin Behzod “Masjidning qurilishi”, “Impressionizm uslubida manzara ishlash”, “Kubizm uslubida natyurmort ishlash” mavzularning mazmunini ochishga kompyuter taqdimoti va katta ekrandagi slayd-shou namoyish etiladi. O’quvchilar kartinaning tasvirini katta formatda ko’rishadi, ishning barcha tafsilotlari bilan tanishib chiqishlari mumkin. Taqdimotda har bir parcha batafsil tushuntirish bilan birga keladi. O.Renuarning “J.Samari portreti” kartinasi bilan tanishib, ettinchi sinf o’quvchilari o’sha davrining insonlari tasvirini tushunadilar, buyuk ustaning ijodi va iste’dodini qadrlashadi.



13-rasm. Tasviriy san’at festivali sayti.

Bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilari AKT yordamida bugungi kunda bilimlarni nazorat qilishning nostandart shakllaridan foydalanish mumkin bo’ladi. Kompyuterdan foydalanib iSpring Suite dasturi orqali sinov testlarini yaratish mumkin [10]. Bo’lajak o’qituvchining o’zi yaratishi mumkin bo’lgan test yordamida bilimlarni nazorat qilish imkonini beradi. Nazorat shakli sifatida testdan foydalanish bo’lajak o’qituvchining vaqtini tejaydi va o’quvchilarga o’z bilimi va imkoniyatlarini mustaqil baholash imkonini beradi. Yuqori sinf o’quvchilarning katta guruhini bir vaqtning o’zida qamrab olish uchun test sinovlarini kompyuter sinfida o’tkazish afzaldir. Istisno sifatida tasviriy san’at xonasida bitta kompyuterda o’quvchilarni birma - bir sinovdan o’tkazish mumkin. Test-sinov chorak oxirida, ko’p miqdordagi o’rganilgan materiallar asosida tayyorlanadi. Shu bilan birga test o’quvchilarning bilimini nazorat qilish, tekshirish va ularni bilim darajasini tezda tashxislash imkonini beradi. Testlar matnli yoki tasvirli shaklda bo’lib, berilgan savoldagi bir necha javoblardan bitta to’g’risini tanlab olinadi.

Integratsiyalashgan darslarni o'tkazishda "Tasviriy san'at - axborot texnologiyalari" kompyuter ko'nikmalarini egallash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni "Grafik muharriri" (Paint) maxsus dasturi tomonidan taqdim etiladi [11]. Ushbu dasturning interfeysi barcha o'quvchilar




14-rasm. 7-sinfda "Kitobat san'ati"

mazusiga interaktiv doskadan foydalanish.

U chizmalarni chizish va loyihalash, olingan tasvirlarni diskda saqlash imkonini beradi. Masalan, "Shakl tushunchasi. Atrofdagi dunyo shakllarining xilma-xilligi" oltinchi sinf o'quvchilariga kompyuter ekranida geometrik jismlar tasvirini bajarish, geometrik shakllar nisbati sifatida ikki yoki uchta ko'za tasvirini yaratish taklif etiladi.

Grafik muharriri qalam, mo'yqalam, marker tanlash, ularning qalingligi, rangini o'zgartirishi hamda palitra tanlash, fon rangini o'zgartirish va boshqa funksiyalarni o'z ichiga oladi. Xuddi shunday, bolalar darsda chiziq va rang bilan "Natyurmort", "Akvarium", "Shahar ko'chasi", "Tog' manzarasi" mavzulari bo'yicha topshiriqlarni bajarishi mumkin. Dastur ettinchi sinf o'quvchilariga kompyuter grafikasidan foydalangan holda 1991 yil "Mustaqillik kuni" mavzusida plakat yoki otkritka yaratishni taklif qilish mumkin [12].



15-rasm. Colorfy ilovasi yordamida yaratilgan tasvirlarga misollar

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari AKTlari darsni ertak yoki qiziqarli sayohatga aylantirish, muzey va ko'rgazmalarga virtual tashrif buyurish, ekskursiya o'tkazish imkonini beradi, masalan Google Arts&Culture saitida buni ko'rishimiz mumkin. [9]. Platformada yuqori aniqlikdagi san'at asarlarining 200 000 dan ortiq raqamli nusxalari, muzey kolleksiyalaridan 7 000 000 dan oshiq artefakt, ko'rgazma zallarining 1800 dan ortiq panoramali tasvirlari va mutaxassislar tomonidan boshqariladigan kamida 3000 ta onlayn ko'rgazmalar mavjud. Bularning barchasi rasmiy veb-sayt: artsandculture.google.com. da joylashtirilgan. O'quv filmlari sizga rassomning studiyasini ko'rish, Tretyakov galereyasi, Ermitaj, Luvr, O'zbekiston tasviriy san'at muzeyi, Temuriylar muzeyiga tashrif buyurish va san'at sohasida yangi bilimlarga ega bo'lish, umumiy dunyoqarashingizni kengaytirish imkonini beradi.

Torrent trekrlarida bo'lajak o'qituvchilar rassomlar haqidagi filmlarni topishi va darslarda foydalanishlari

mumkin, masalan, “O‘zbek rassomlari”, “Malik Nabiev”, “Samarqand”, “Impressionist rassomlar”, “Van Gog” va boshqa filmlarni Internetga ulangan holda katta ekranda butun sinf jamoasi bilan ko‘rish mumkin. Bunda albatta bo‘lajak o‘qituvchi tomonidan har bir film izohlanib tushuntirilib boriladi.

AKTdan foydalanish bilan birga tasviriy san‘at dars va darsdan tashqari vaqtlarida o‘quvchilarning turli xil gadjetlarga qiziqishiga ham alohida e‘tibor berish kerak. Hech kimga sir emaski, o‘quvchilarimizning deyarli barchasida smartfon, planshetlar bor, o‘quvchilar ulardan deyarli bo‘sh vaqtlarida unumli foydalanishadi. O‘quvchilarni bo‘sh vaqtlarida android platformasi uchun tasviriy san‘at bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan qiziqarli ilovalarni yuklab olish mumkin. Shunday ilovalardan biri - Colorfy ilovasi. Ilovan Pley Marketdan to‘g‘ridan to‘g‘ri yuklanadi [12; 246-b.].

Shunday qilib, bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorlashda mutaxassislik fanlarni o‘qitish doirasida axbarot kommunikativ texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha kengaytirilgan imkoniyatlarni taqdim etadi va umuman o‘quv jarayoni sifatiga, talabalar tomonidan olingan bilim, ko‘nikma va malakalarning sifatiga, mehnat bozorida bo‘lajak mutaxassislarning raqobatbardoshligi va talabiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini. Lex.uz. 2020.

Alimov R.X., Azamatov O.X., Xayitmatov U.T. “Informatsionno‘e texnologii v obrazovani” - Ministerstvo vo‘sshego i srednego spetsialnogo obrazovaniya respubliki Uzbekistan. - T.: Iqtisodiyot, 2019. - 158 str.

Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta‘lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish, boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Dis. ... ped. fan. dok. - T., 2007. - 198 b.

Грицай А. А. Роль информационных технологий в современном образовании // Материалы 5-й международной научной конференции «PROBLEMS OF MODERN EDUCATION», Прага, 2014. - С. 14-16.

Герасимова А.Г. Основные направления подготовки будущих учителей изобразительного искусства в области информационных и коммуникационных технологий // Ж. Вестник ЧГПУ им. И. Я. Яковлева. 2012. № 3 (75) -37-40 с.

Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения: учеб. пособие для студ.высш. учеб. заведений / Е.А.Климов. -4-е изд., стер. -М.: Академия. 2010.- 304 с.

Жабборова Д.Ф. Бўлажак ўқитувчиларни касбий тайёрлашда “касбий фаолият портфолиоси” технологиясидан фойдаланиш // Education and innovative research. №6.2. 2022. -Б. -162-169.

Хайров Р.З. Совершенствование подготовки будущих педагогов изобразительного искусства к обучению живописи на основе индивидуального подхода // Вестник ГулГУ ОАК. -Гулистан. -№3 (95) -2022. -С. 20-24.

Хайров Р.З. Педагогические условия информационно-коммуникационных технологий в совершенствовании профессионально-методической подготовки будущих учителей. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Vol. 11 No. 4 (2023): p. 870-879.

Khayrov R.Z., Tojiboyeva D.B. Pedagogical conditions of information and communication technologies in improving professional and methodological training of future teachers. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 11, Issue 05, May (2023)

Хайров Р.З., Азамкулов Г.О., Умиров Б.Т. Мультимедийное обучение в совершенствовании профессионально-методической подготовки будущих учителей. Символ науки. Международный научный журнал. Российская федерация. г.Уфа. №5-1/2023. - 152-156 с.

Хайров R.Z. Tasviriy san‘at fanini o‘qitish metodikasi. Darslik. -T.: Ilm Ziyozakovat. 2023. -283 bet.

BOSHQARISH ILMINING EVOLUTSIYASINI O'RGANISH BO'YICHA AYRIM METODIK TAVSIYALAR

Xodjiev Azamat Bahodirovich

Buxoro davlat tibbiyot instituti akademik litsey o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

НЕКОТОРЫЕ МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ИЗУЧЕНИЮ ЭВОЛЮЦИИ НАУКИ УПРАВЛЕНИЯ

Ходжиев Азамат Бахадирович

академический лицей Бухарского государственного медицинского института заместитель директора по учебной части

SOME METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS FOR STUDYING THE EVOLUTION OF MANAGEMENT SCIENCE

Khodzhiev Azamat Bakhadirovich

academic Lyceum of Bukhara state medical institute deputy director for academic affairs

Annotatsiya: Maqolada “Xodimlarni boshqarish” va “Inson resurslarini boshqarish” tushunchalarining kelib chiqish tarixi, evolyutsiyasi, mohiyati va o'zaro bog'liqligi muhokama qilinadi. “Xodimlar va inson resurslarini boshqarish” bir paradigma nazariyasiga asoslangan yagona, ajralmas jarayon ekanligi, inson resurslarini boshqarish esa xodimlarni boshqarish fanining yangi bosqichi ekanligi isbotlangan. Ikkita mutlaqo uzoq «yondashuvlar» ni farqlash uslubiy jihatdan noto'g'ri: an'anaviy (xodimlarni boshqarish) va yangi (inson resurslarini boshqarish). Ikkinchi “yondashuv” birinchisidan kelib chiqdi, uning natijalariga asoslanadi, uni davom ettiradi, birinchisini takomillashtiradi va to'ldiradi, uning bir qismidir, asoslarini inkor etmasdan, bitta paradigmaga asoslanadi. Bu sodir bo'layotgan narsa inqilob emas, balki xodimlarni boshqarishning rivojlanish bosqichlarida muqarrar evolyutsion o'zgarishlar - mehnatkash shaxs fanidir.

Аннотация: В статье рассматривается история, эволюция, сущность и взаимосвязь понятий «Управление персоналом» и «Управление человеческими ресурсами». Доказано, что «Управление персоналом и человеческими ресурсами» представляет собой единый, неразрывный процесс, основанный на теории одной парадигмы, а управление человеческими ресурсами является новым этапом в науке управления персоналом. Методологически неверно различать два совершенно далеких «подхода»: традиционный (управление персоналом) и новый (управление человеческими ресурсами). Второй «подход» возник из первого, базируется на его результатах, продолжает его, совершенствует и дополняет первый, является его частью, не отрицая при этом его основ, базируется на одной парадигме. Происходящее – это не революция, а неизбежное эволюционное изменение этапов развития управления персоналом – науки о трудовом человеке.

Abstract: The article discusses the history, evolution, essence and relationship of the concepts of “Personnel Management” and “Human Resource Management”. It has been proven that “Personnel and Human Resources Management” is a single, inextricable process based on the theory of one paradigm, and human resource management is a new stage in the science of personnel management. It is methodologically incorrect to distinguish between two completely distant “approaches”: traditional (personnel management) and new (human resource management). The second “approach” arose from the first, is based on its results, continues it, improves and complements the first, is part of it, without denying its foundations, and is based on the same paradigm. What is happening is not a revolution, but an inevitable evolutionary change in the stages of development of personnel management - the science of the working person.

Kalit so'zlar: xodimlarni boshqarish, inson resurslarini boshqarish, xodimlar va inson resurslarini boshqarish, yagona jarayon, evolyutsiya, paradigma.

«Xodimlarni boshqarish» va «inson resurslarini boshqarish» atamalari ko'pincha bir-birining o'rnida ishlatiladi. Biroq, ushbu bayonot tarafdorlari, turli kontekstlarda ular nozikliklarda farq qilishi mumkin, deb hisoblashadi yoki bu atamalar tashkilotda insonni boshqarishga yondashuvni rivojlantirishning turli bosqichlarini ko'rib chiqadi.

Xodimlarni boshqarish va inson resurslarini boshqarish xodimlarni boshqarishning turli modellari ekanligi haqida fikrlar mavjud.

Yuqorida tilga olingan “Inson resurslarini boshqarish” ensiklopediyasining ilmiy muharriri V.A. Spivak shunday deb yozadi: «Ushbu fanlar o'rtasida darajaga qarab «suv havzasini» chizish ko'proq mos keladi: kompaniya ichidagi xodimlarni boshqarish, «kompaniyadan yuqori» (mahalliy, mintaqaviy, milliy, xalqaro) darajadagi inson resurslarini boshqarish. Aytgancha, «resurslar» tushunchasi ma'lum bir shaxs nazarda tutilmagan holatlarga ko'proq mos keladi.»

Boshqa mualliflarning ta'kidlashicha, biz xodimlarni boshqarishning ikkita tushunchasi haqida

gapiramiz: xodimlarni boshqarish tushunchasi va inson resurslarini boshqarish kontseptsiyasi. Birinchi kontseptsiyaga ko'ra, xodimlarni boshqarish ommaviy ishlab chiqarish sharoitida va tovarlarni ommaviy bozorda sotish strategiyasining bir qismi sifatida rivojlanib, kadrlar siyosati strategiyasini belgilab berdi. Ikkinchi kontseptsiya (keyinroq paydo bo'lgan) mijozlarga yo'naltirilgan bozor uchun moslashuvchan ishlab chiqarish kontekstida shakllangan. Bu xodimlarni boshqarishda e'tiborni o'zgartirishni va xodimlarning resurs tomoniga e'tibor berishni talab qildi. Tashkilotlarning ishlab chiqarish strategiyalaridagi o'zgarishlari, o'z navbatida, ularning HR strategiyalarini qayta ko'rib chiqishga olib keldi.

Amaliyotda ham, ilmiy hamjamiyatda ikkala atama ham mavjud, ammo bu atama xodimlarni boshqarishdir. Ushbu atamalar ishlatilganda, ular ko'pincha bir-birini almashtiruvchi hisoblanadi va bu tasodifiy emas. Xodimlarni boshqarish menejment fanining bir tarmog'i sifatida va korxonalar xodimlari bilan ishlash funksiyasining nomi sifatida, shuningdek, ta'lim sohasidagi intizom sifatida 1980-yillarning oxiri - 1990-yillarning boshlarida paydo bo'lgan.

O'sha paytda dunyoning ba'zi rivojlangan mamlakatlaridagi etakchi tashkilotlarda hozirda «Inson resurslarini boshqarish» deb nomlanadigan yondashuv qisman joriy qilingan edi. 1970-yillarning oxiri - 1980-yillarning boshlarigacha. Faqat «xodimlarni boshqarish» tushunchasi mavjud edi, keyin global raqobat va global ishchi kuchi paydo bo'lishi bilan xorijiy jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar va kitoblar ta'siri ostida xodimlarni boshqarish «xodimlar va inson resurslarini boshqarish» deb nomlandi. Ushbu sarlavha xodimlarni boshqarish jarayonlarining resurs tomonini ta'kidladi. Bizning fikrimizcha, ushbu ibora xodimlarni boshqarish jarayonlari va uning resurslarini eng aniq belgilab berdi va tashkilotlarning kadrlar boshqaruvidagi haqiqiy o'zgarishlarga mos keldi. Shu nuqtai nazardan, «inson resurslari» iborasi resursga tenglashtirilgan shaxsni boshqarish sifatida emas, balki u tashuvchisi va egasi bo'lgan resurslarni boshqarish sifatida qabul qilinadi (masalan, intellektual kapital. xodimlar). Axir, odam resurs emas, chunki resurs vosita, odam esa vosita emas. U vositalarni o'zi yaratadi yoki tovarlar yaratish uchun tayyor vositalardan foydalanadi.

Biroq, biroz vaqt o'tgach, «kadrlar va» so'zlari bu nomdan chiqarib tashlandi va ular butunlay «inson resurslarini boshqarish» nomiga o'tdilar, bu bizning fikrimizcha, nafaqat noaniq, balki juda bir tomonlama ko'rinadi, bu yagona jarayonning faqat ikkinchi qismining mazmuni. Nom bu jarayonning asosiy asosini - xodimlarni boshqarishni yo'qotdi. Tushunchalarda o'zgarishlar yuz berdi. Inson resurslarini boshqarishga qiziqish sohasi tobora milliy muammolardan ko'p millatli va globalroq muammolarga o'tayotganiga qaramay, milliy tashkilotlarda an'anaviy xodimlarni boshqarish kengroq tushuncha, shu jumladan inson resurslarini boshqarish jarayonlari odamlar bilan ishlashda asosiy bo'lib qolmoqda. , va aytib o'tilgan jarayonlarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, ularsiz global muammolarni hal qilish mumkin emas. O'z navbatida, dunyo iqtisodiyotining globallasuvi an'anaviy xodimlarni boshqarish jarayonlarining rivojlanishiga yordam beradi va tashkilotlarning xodimlarni boshqarish funksiyalari tizimi ushbu jarayonlarni hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, xodimlarni boshqarish muammolari keyinchalik G'arb mamlakatlarida hal etila boshlandi - bu mamlakatlarda xodimlarni boshqarish jarayonlarining mazmuni allaqachon inson resurslarini boshqarish jarayonlarini o'z ichiga olgan bo'lsa, keyin xodimlarni boshqarish sohasida tadqiqotlar olib borildi va tashkilotlarda kadrlar xizmatlarini shakllantirdi. , chet el tajribasidan foydalangan holda, olimlar, Ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari va iqtisodiyotning real sektori tashkilotlari amaliyoti «xodimlarni boshqarish» atamasi mazmuniga barcha jihatlarni, masalan, Stori, taniqli inson resurslarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari sifatida ko'rib chiqilgan o'sha davrning inson resurslarini boshqarish sohasidagi mutaxassisi.

Storey xodimlarni boshqarish va inson resurslarini boshqarish o'rtasidagi 27 ta farqni sanab o'tadi. Hikoya global tashqi va strategik muammolarni hal qilishda ishtirok etganda HR mutaxassislarining funksiyalari qanday o'zgarishini ko'rsatadi. Storining fikricha, umuman olganda, inson resurslarini boshqarishga qiziqish sohasi milliy muammolardan ko'p millatli va globalroq masalalarga o'tdi. Masalan: ekologik muammolar, aholi salomatligi; tashkilotning o'z biznes manfaatlari bilan bog'liq strategik masalalar, kadrlar muammolarini hal qilish nuqtai nazaridan asosiy etkazib beruvchilar va iste'molchilar faoliyatining muammolari. HR xizmatlari global tashqi (jumladan, xalqaro) va strategik masalalarni hal qilishda ishtirok etishi bilan ularning maqsadlari va funksiyalari o'zgaradi. Agar xodimlarni boshqarish xodimlarni jalb qilish, ushlab turish va rag'batlantirish masalalarini hal qilsa, unda inson resurslarini boshqarishning vazifalari yakuniy ko'rsatkichlarga erishishga qaratilgan: raqobatbardoshlik, rentabellik, omon qolish, ishchi kuchining moslashuvchanligi. Xodimlarni jalb qilish, ushlab turish va rag'batlantirish vazifalari muhimligicha qolsa-da, ular yakuniy ko'rsatkichlarga erishish va takomillashtirish vositasi sifatida ishlaydi. Inson resurslarini boshqarish bo'yicha mutaxassislar mutaxassis mutaxassislardan inson resurslarini boshqarish bo'yicha umumiy mutaxassisga aylandi.

Bo'limlar va mutaxassislar konfliktga e'tibor qaratishdan inson resurslarini boshqarishda uyg'unlik va

tenglikka e'tibor qaratishga o'tdi. Xodimlarni boshqarish qobiliyatlarini, qobiliyatlarini, xarakter xususiyatlarini hisobga oladi va shaxsga e'tibor beradi, inson resurslarini boshqarish esa jamoalarga e'tibor beradi.

Mahalliy maxsus adabiyotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, xodimlarni boshqarish va inson resurslarini boshqarish o'rtasidagi farqni tavsiflovchi ko'plab talqinlar mavjud. Ulardan eng keng tarqalganini quyidagicha shakllantirish mumkin: inson resurslarini boshqarish tashkilotni boshqarishga strategik yondashuvni shakllantirish bilan birga paydo bo'lgan va shuning uchun strategik yondoshuvga ega va passiv an'anaviydan farqli o'laroq faolroq kadrlar siyosatini o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv tarafdorlarining fikricha, xodimlarni boshqarish va inson resurslarini boshqarish o'rtasidagi farq quyidagicha:

1. Inson resurslarini boshqarish xodimlarga tashkilotning muhim resursi sifatida qaraydi.
2. Inson resurslarini boshqarish strategik yondashuvni, xodimlarni boshqarish taktikani nazarda tutadi.
3. Inson resurslarini boshqarishda, xodimlarni boshqarishdan farqli o'laroq, kadrlar bo'limi funktsiyalarining muhim qismi chiziqli menejerlarga o'tkaziladi.
4. Xodimlarni boshqarish - kollektivistik yondashuv, inson resurslarini boshqarish - individual yondashuv.
5. Xodimlarni boshqarish oddiy xodimlarga, inson resurslarini boshqarish - menejerlarga qaratilgan.
6. Xodimlarni boshqarishning vazifasi xodimlarni tejashdir. Inson resurslarini boshqarishning maqsadi xodimlarning rivojlanishiga sarmoya kiritishdir.

7. Xodimlarni boshqarish kadrlar bo'limida jamlangan bo'lib, uni chiziqli menejer boshqaradi. Inson resurslarini boshqarish kompaniya boshqaruvida o'tirgan va katta ta'sirga ega va strategik istiqbollarni aniqlash qobiliyatiga ega bo'lgan yuqori lavozimli rahbar tomonidan nazorat qilinadi.

8. Inson resurslarini boshqarish xodimlarning bir-biriga va kompaniya oldidagi o'zaro javobgarligini, muammolarni ochiq muhokama qilishni va barcha tashkiliy darajalarda tashabbuskorlikni nazarda tutadi.

9. Inson resurslarini boshqarish ko'pincha haddan tashqari idealistik deb tanqid qilinadi.

Ushbu tafovutlar qatorini tahlil qilar ekansiz, ularning bir qismi qarama-qarshi va uzoqqa cho'zilganiga amin bo'lasiz.

Maqolada muallif ushbu farqlarning har birini batafsil tavsiflab berdi va o'quvchini boshqa farqlarni sanab o'tish mumkin degan xulosaga keldi, ammo buning biron bir ma'nosi bormi: axir, biz bir xil ajralmas jarayon «kadrlar» haqida gapiramiz. va inson resurslarini boshqarish», bu formulani soddalashtirish uchun biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu resurslarning tashuvchisi - xodimlarni unutib, «inson resurslarini boshqarish» deb nomlana boshladi. Juda g'alati metodologiya: bitta butunni ikki qismga bo'lish va ularni bir-biriga solishtirish - endi samarasiz mashq yo'q.

Hozirgi bosqichda xodimlarni boshqarish nazariyasi, metodologiyasi va amaliyotini rivojlantirishda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning mohiyatini tushunish uchun «paradigma» tushunchasining xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz.

Paradigma - (yunoncha paradeigma - misol, namuna) fan taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida ilmiy hamjamiyat tomonidan qabul qilingan va ilmiy tadqiqot, sharhlash, baholash va baholash uchun namuna, standart sifatida foydalaniladigan nazariy va uslubiy qoidalar majmui. ilmiy ma'lumotlarni tizimlashtirish, gipotezalarini tushunish va ilmiy bilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun. U yoki bu olimlar jamoasi ilmiy bilish jarayonida muqarrar bo'lgan qiyinchiliklarni o'zi qabul qilgan paradigma doirasida hal qilishga intiladi. Shunday qilib, bir vaqtning o'zida olimlar fanning yangi empirik ma'lumotlarini ma'lum bir paradigmani ifodalovchi klassik mexanika g'oyalarini mutlaqlashtirgan mexanik dunyoqarash doirasida izohlashga harakat qilishdi. Fanning rivojlanishidagi inqilobiy o'zgarishlar paradigmaning o'zgarishi bilan bog'liq.

“Paradigma” atamasini T.Kun kiritgan. Tomas Kun fanni ijtimoiy guruhlar va tashkilotlar faoliyat yuritadigan ijtimoiy institut deb hisoblagan. Olimlar jamiyatini birlashtiruvchi asosiy tamoyil - yagona fikrlash uslubi, bu jamiyat tomonidan ma'lum fundamental nazariyalar va usullarni tan olishdir. Kun olimlar jamoasini birlashtiruvchi bu qoidalarni paradigma deb atadi.

Ilmiy inqilob bir guruh olimlarning eski paradigmadan voz kechib, bir qator boshqa nazariyalar, farazlar va standartlarni asos qilib olishi bilan boshlanadi. Ilmiy hamjamiyat bir nechta guruhlarga bo'linmoqda, ularning ba'zilari paradigмага ishonishda davom etmoqda, boshqalari yangi paradigma deb da'vo qiladigan farazni ilgari surmoqda. Ma'lum bir fanning boshqa barcha vakillari oxirgi guruhga qo'shilganda, ilmiy inqilob sodir bo'ldi, ilmiy jamoatchilik ongida inqilob sodir bo'ldi va shu paytdan boshlab yangi ilmiy an'anani hisoblash boshlanadi, bu ko'pincha bir-biriga mos kelmaydi. oldingi an'ana bilan. Yangi paradigma paydo bo'ladi va ilmiy hamjamiyat birdamlikni tiklaydi.

Inqiroz davrida olimlar yangi paradigмага mos keladiganlardan tashqari barcha qoidalarni bekor qiladilar. Ushbu jarayonni tavsiflash uchun Kuhn «retseptlarni qayta qurish» atamasidan foydalanadi - bu nafaqat qoidalarni inkor etish, balki yangi paradigмага mos keladigan ijobiy tajribani saqlashni anglatadi.

Yangi paradigma o'tish faqat mantiqiy dalillarga asoslanishi mumkin emas, garchi bu element muhim

bo'lsa. Bu erda ixtiyoriy omillar kerak - ishonch va ishonch. Fundamental nazariyalarning o'zgarishi olim uchun butunlay boshqa ob'yektlar, kontseptual tizimlar mavjud bo'lgan, yangi muammolar va vazifalar ochiladigan yangi dunyoga kirishga o'xshaydi.

Ilmiy paradigmalarning o'zgarishiga misol: birinchi ilmiy inqilob Ptolemeyning geosentrik tizimini yo'q qildi va Kopernik g'oyalarni tasdiqladi; ikkinchi ilmiy inqilob - Darvin nazariyasi, molekulalarni o'rganish bilan bog'liq; uchinchi inqilob nisbiylik nazariyasi kashfiyotining natijasi edi.

Bizning tadqiqot mavzuimizga o'tadigan bo'lsak, shuni aytish kerakki, sanoat inqilobi davrida (bir asrdan ortiq) tashkilotdagi shaxsning roli sezilarli darajada o'zgardi, shuning uchun xodimlarni boshqarish nazariyalari ham rivojlandi va takomillashtirildi. Hozirgi vaqtda nazariyalarning uchta guruhi mavjud: klassik nazariyalar, inson munosabatlari nazariyalari va inson resurslari nazariyalari (bizning fikrimizcha, ikkinchisini aniqroq inson resurslari nazariyalari deb atash kerak).

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: inson resurslarini boshqarish - bu xodimlarni boshqarish evolyutsiyasining yangi bosqichi bo'lib, uning mohiyati kadrlar xizmatlari faoliyatiga e'tiborning o'zgarishi, yangi va o'zgarishlarning paydo bo'lishidir. eski funksiyalarning mazmuni, tashkilotni boshqarish darajalari o'rtasida funktsiyalarni qayta taqsimlash va xizmatning o'zi maqomini oshirish. Buning sababi shundaki, bilimlar davrida inson resurslari, xodimlarning intellektual kapitali va tashkilot birinchi o'rinda turadi. Xodimlar, intellektual resurslarni tashuvchisi sifatida, 8/14 tashkilotning strategik maqsadlariga erishish uchun motivatsiya va rag'batlantirish orqali rivojlanishi kerak bo'lgan raqobatbardosh aktiv sifatida ko'rib chiqilmoqda. Bu to'g'ri, lekin xodimni resurs deb hisoblash to'g'ri emas, resurs uning ega bo'lgan narsasi - intellektual kapital.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ivin A.A., Nikiforov A.L. Mantiq lug'ati. - M.: Tumanit, tahrir. VLADOS markazi. 1997 yil.
2. 2 jilddan iborat yirik ensiklopedik lug'at. Ch. muharriri A.M. Proxorov. M.: Sovet Entsiklopediyasi, 1991. 970-bet.
3. Juravlev P.V., Kulapov M.N., Suxarev S.A. Xodimlarni boshqarish bo'yicha jahon tajribasi. Xorijiy manbalarni ko'rib chiqish. - M.: REA nashriyoti; Ekaterinburg: Biznes kitobi, 1998 yil.
4. Kibanov A.Ya. Tashkilotda xodimlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish (tarixiy ko'rinish) // Rossiyada kadrlar va intellektual resurslarni boshqarish, M., 2013 yil, № 3(6).
5. Kibanov A.Ya. «Xodimlarni boshqarish» va «Inson resurslarini boshqarish»: tushunchalarning mohiyati, o'xshashligi va farqlari // Kadrovik, M., 2013 yil, № 8.
6. Odegov Yu.G., Rudenko G.G. Xodimlar iqtisodiyoti. I qism. Nazariy: Darslik. - M.: Alfa-Press nashriyoti, 2009. - 1056 p.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING HAYOTINI MUHOFAZA QILISH VA SOG'LIGINI MUSTAHKAMLASH

OMILLARI

Xolmirzayev Sh.

University of Business and Science NOTM Pedagogika va psixologiya kafedrası erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada hamkorlik pedagogikasi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, tarbiyalanuvchilarni hayotini muhofaza qilish, sog'ligini mustahkamlash, sog'lom ovqatlanishini ta'minlash.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va tarbiyasi – bir butun va uzluksiz jarayon bo'lib, u doimo pedagog va ota-onalarning diqqat-e'tiborida bo'lishi zarurli, Bola qanchalik muvaffaqiyatli rivojlanayotganligi, ijtimoiy taraqqiyot yo'lini egallash jarayonida qanday to'siqlar uchrashi mumkinligini oldindan tushunish malakaviy yondashuvlari talab etilgan, bolalar xavfsizligini ta'minlash omillari xususida so'z yuritilgan.

Tayanch tushunchalar. Maktabgacha ta'lim tashkiloti, xavfsizlik, salomatlik, ta'lim-tarbiya, maktabgacha yosh.

ФАКТОРЫ ОХРАНЫ ЖИЗНИ ДЕТЕЙ И УКРЕПЛЕНИЕ ЗДОРОВЬЯ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Исследователь Ш. Холмирзаев

Университет бизнеса и науки НОТМ Кафедра педагогики и психологии

Аннотация: В данной статье рассматривается организация воспитательного процесса в дошкольных образовательных организациях на основе сотrudнической педагогики, охрана жизни воспитанников, укрепление здоровья, обеспечение здорового питания. Речь идет о развитии и воспитании детей дошкольного возраста – как целостный и непрерывный процесс, который всегда должен находиться во внимании педагогов и родителей, необходимые квалифицированные подходы, чтобы заранее понять возможность, обсудить факторы обеспечения безопасности детей.

Ключевые слова: Организация дошкольного образования, безопасность, здоровье, образование, дошкольный возраст, охрана жизни.

PROTECTING CHILDREN'S LIFE AND STRENGTHENING HEALTH IN PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS FACTORS

Sh. Kholmirzayev

University of Business and Science NOTM Department of pedagogy and psychology is free researcher

Abstract. In this article, on the basis of cooperative pedagogy, organization of educational processes in preschool educational organizations, protection of the life of children, strengthening of their health, ensuring healthy nutrition.

The development and upbringing of children of preschool age is a whole and continuous process, which should always be in the attention of pedagogues and parents. Qualified approaches are required to understand the possibility in advance, the factors of ensuring children's safety are discussed.

Basic concepts. Organization of preschool education, safety, health, education, preschool age.

Kirish. Inson sog'ligini muhofaza qilish va mehnat qobiliyatini ko'tarish haqida g'amxo'rlik qilish muhim davlat vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifalarni hal etishda, jumladan kasalliklarning oldini olish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda tibbiyot xodimlari bilan bir qatorda pedagoglar ham katta kuch bo'lib xizmat qiladilar.

Zamonaviy bilim berish uchun avvalo murabbiy o'sib, rivojlanib kelayotgan avlodning turli davrlardagi o'zgarishlarini, tashqi muhit sharoitining bola organizmiga ta'sirining gigiyenik ahamiyatini bilib olgandagina o'quv tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil eta oladi.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya borasida olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham har tomonlama sog'lom va barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir. Ayniqsa, davlatimiz va hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan muhim islohotlarning ijrosini ta'minlash maktabgacha yosh davri uchun ahamiyatlidir. Chunki maktabgacha davr – bolaning o'sish, rivojlanish, o'zini namoyon etishga intilish, o'rganish, bilishga ishtiyoqi kuchli bo'lgan davrdir. Aynan shu davrda bola barkamol shaxs sifatida rivojlanishi uchun po'ydevor qo'yiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va tarbiyasi – bir butun va uzluksiz jarayon bo'lib, u doimo pedagog va ota-onalarning diqqat-e'tiborida bo'lishi zarur. Bola qanchalik muvaffaqiyatli rivojlanayotganligi,

ijtimoiy taraqqiyot yo'lini egallash jarayonida qanday to'siqlar uchrashi mumkinligini oldindan tushunish malakaviy yondashishni talab etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishida maktabgacha ta'lim tashkilotida yaratilgan havfsiz muhitning ahamiyati kattadir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartida ham bu masalaga alohida yondashilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etish maqsadi sifatida quyidagi;

maktabgacha ta'limning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'laqonli va xavfsiz ovqatlanirishni tashkil etishga bo'lgan sanitariya-gigiyenik talablarni belgilash.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'yinlar, o'yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, reabilitasion vositalar bilan jihozlash masalalari davlat standartining vazifalari sifatida ko'rsatilgan .

O'zbekiston respublikasi Adliya vazirligi tomonidan nashr etilgan "Bolalar uchun xavfsizlik qoidalari" nomli amaliy qo'llanmada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar hayotini muhofaza qilish, xavfsiz muhitni yaratish, salomatligini mustahkamlash yuzasidan pedagog va ota-onalar uchun bir qator tavsiyalar berib o'tilgan. Qo'llanmadan ko'chada, yo'lda va jamoatchilik transportida, metroda, ta'lim tashkilotlarida bolalar havsifligini ta'minlash, atrofdagilar bilan munosabatga kirishish, yong'in xavfsizligi, internet xavfsizligi kabi muhim masalalar o'rin olgan .

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi va qoidalari quyidagilardan iborat:

- barcha telefon apparatlari oldida hamda maktabgacha ta'lim muassasasining markazida yong'in xavfsizligi, favqulodda vaziyatlar, tez yordam xizmatlari, ichki ishlar idoralarining telefon raqamlari va ularga bog'lanish tartibi ko'rsatilgan peshlavhalar mavjud bo'lishi;

- maktabgacha ta'lim tashkilotining barcha xodimlarida tashkilot direktori hamda o'z guruhidagi tarbiyalanuvchilarning yashash manzili, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning telefon raqamlari mavjud bo'lishi shart.

- maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari bola to'satdan kasal bo'lib qolsa yoki noxush holat yuzaga kelgan taqdirda, birinchi tibbiy yordam ko'rsatishga tayyor turishi lozim. Har bir guruhda bolalar tomonidan olishning imkoniyati bo'lmagan joyda kerakli dori-darmonlari bo'lgan aptechka bo'lishi shart.

- maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik kengashlar, kasaba uyushmasi yig'ilishlari va boshqa tadbirlarni bolalarning uyqu soatlarida tashkil etish lozim. Bunda albatta guruhda tarbiyachi yordamchisi qolishi shart.

- maktabgacha ta'lim tashkilotida to'g'ri ovqatlanishni tashkil etish, oziq-ovqat mahsulotlarining saqlanishi va taomlarni tayyorlanishi O'zbekiston Respublikasida tasdiqlangan sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

- bolalar sayr va ekskursiyaga olib chiqilganda, tarbiyachi tomonidan ularning hech qanday meva va o'simliklarni iste'mol qilmasliklari nazorat qilinishi lozim.

- maktabgacha ta'lim tashkiloti hududidan uzoqroqqa sayr yoki ekskursiyaga chiqayotgan guruh kamida ikki nafar xodim bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Bunda xodimlarning biri safning oldida, ikkinchisi safning orqasida harakatlanib borishi lozim.

- bolalarni tartibli ravishda sayr yoki ekskursiyaga olib chiqilishi ichki ishlar idoralari bilan kelishilgan holda o'rnatilgan tartibda yo'l-patrul xizmati xodimlari kuzatuvda amalga oshirilishi kerak.

- yayov holda sayr yoki ekskursiyaga chiqishdan oldin tarbiyachi:

o'tkaziladigan tadbir haqida maktabgacha ta'lim tashkiloti ma'muriyatini oldindan ogohlantirishi;

o'zi bilan olib ketadigan bolalarning sonini bilishi;

bolalar olib boriladigan joyni avvaldan rejalashtirib olishi va harakatlanish yo'nalishiga aniqlik kiritishi lozim.

- kunning issiq paytlarida bolalarga issiqlab ketmasligi uchun yengil bosh kiyimlari kiydirilishi lozim. Bolalarning quyosh vannalarini qabul qilishi hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti hududidagi suv havzalarida cho'milishlari tibbiyot xodimlari va tarbiyachining nazorati ostida olib borilishi zarur.

- maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyachilari va boshqa mutaxassislari tomonidan ish vaqti davomida bolalarni qarovsiz qoldirish taqiqlanadi. Tarbiyachi yoki boshqa mutaxassislar bo'lmaganda tegishli guruhga direktor tomonidan boshqa javobgar shaxs tayinlanishi lozim.

- maktabgacha ta'lim tashkiloti hududiga shaxsini tasdiqlovchi hujjati bo'lmagan kishilarning kiritilishi taqiqlanadi.

Ma'lumki maktabgacha yoshdagi bolalar xavfsizligi va salomatligini saqlashda ularning ovqatlanish

jarayonlari ham gigiyenik talablarga javob berishi lozim. Bu borada O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.06.2021 yildagi 407-son "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori qabul qilinib, mazkur Qarorga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha tajriba-sinov ishlari olib borilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotda outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- tarbiyalanuvchilarni to'laqonli sog'lom ovqatlantirish, sog'lig'ini mustahkamlash va ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni ta'minlash;

- sifatli taomlar tayyorlash orqali tarbiyalanuvchilarning sog'lom va barkamol o'sishini ta'minlash;

- taomlarni iste'mol qilish uchun gigiyenik talablarga muvofiq sharoitlar yaratish;

- tarbiyalanuvchilarni sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga muvofiq sog'lom ovqatlantirish;

- tashkilotlar direktorlarini ta'limga oid bo'lmagan vazifalardan ozod qilish va ta'lim samaradorligini oshirish.

Autsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- tarbiyalanuvchilarning fiziologik yoshiga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talablarini inobatga olgan holda, ularning rasional ovqatlanishini ta'minlash;

- oziq-ovqat mahsulotlari va taomlarni tarbiyalanuvchilarning sog'lom o'sishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan zarur moddalar bilan ta'minlash;

- oziq-ovqat mahsulotlari va taomlarning xavfsizligi hamda sifatini kafolatlash;

- tarbiyalanuvchilarda ovqatlanish bilan bog'liq yuqumli kasalliklarning tarqalishiga yo'l qo'yimaslik;

- tarbiyalanuvchilar o'rtasida to'g'ri ovqatlanish ko'nikmalarini shakllantirish;

- oziq-ovqat mahsulotlari va taomlarni tayyorlashda hamda oziq-ovqat xom ashyosini saqlashda, tashishda sanitariya normalari va qoidalarga qat'i rioya qilish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog-tarbiyachilari bolalarning xavfsizligi va salomatligini mustahkamlash yuzasidan ota-onalar va ota-onalar o'rnini bosuvchi shaxslar bilan muntazam tushintirish ishlari olib boradilar. Jumladan, ta'lim tashkilotiga bolalarni olib kelish va olib ketish borasida quyidagi qoidalarga amal qilishlarini ota-onalarga tushuntirib boradilar.

- ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z bolalarini maktabgacha ta'lim muassasasiga olib kelganda tarbiyachining shaxsan o'ziga topshirishi, shuningdek bolani maktabgacha ta'lim tashkilotidan olib ketish vaqtida tarbiyachilar bolani shaxsan ota-onalarga yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga topshirishi shart.

- bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotidan yaqin qarindoshlari tomonidan olib ketilishga yo'l qo'yiladi. Bunda bolalarni olib ketuvchi shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari ko'rsatilishi lozim.

- maktabgacha ta'lim tashkilotidan bolalarni boshlang'ich maktab yoshidagi (1-4-sinflar) hamda mast holatdagi shaxslar tomonidan olib ketilishi man etiladi.

- ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z bolasini maktabgacha ta'lim tashkilotidan olib ketishga kelmay qolganda, tarbiyachi ish vaqtdan so'ng bolani uyiga kuzatib qo'yishi lozim. Bunday vaqtda tarbiyachi tomonidan bolani bir o'zini guruhda yolg'iz qoldirish yoki boshqa xodimlarga tashlab ketishi qat'iyan taqiqlanadi.

- tarbiyachi tomonidan bolani uyiga kuzatib borish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar bolaning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan qoplanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, mahalliy va milliy darajadagi siyosatni ishlab chiqishda bolalarni va yoshlarni o'z manfaatlariga ta'sir qiladigan qarorlarni qabul qilishda ularning fikrini inobatga olgan holda jalb qilish amaliyoti va mexanizmlarini kuchaytirish zarur, bu bolalar va yoshlarning jamiyatdagi ishtiroki uchun huquqiy bazani kengaytiradi. Bu, o'z navbatida, tinglanish va jamoatchilik fikrini shakllantirishda ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Ona va bolaning sifatli sog'lig'i hamda tug'ilganidan keyin sifatli ovqatlanishi, sifatli maktabgacha ta'lim olish uchun imkoniyatlarning kengayishi, umumiy o'rta ta'lim sifatining yaxshilanishi, kelgusida hayotlariga ta'sir qiluvchi qarorlar qabul qilinishida bolalar ishtiroki uchun imkoniyatlarning ko'payishi, bolalarga nisbatan zo'rvonlikka qarshi kurashish O'zbekistonning yosh avlodi gullab-yashnashiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ 802-sonli qarori. 2020 yil 22 dekabr.

2.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. "Bolalar uchun xavfsizlik qoidalari". Amaliy qo'llanma. T.: 2020 y. 44- b.

3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.06.2021 yildagi 407-son "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori

4. Ortiqov A.X. Yosh fiziologiyasi va gigiyena. O'quv qo'llanma. Samarqand. 2010 yil. 228 b.

TALABA YOSHLARNI JISMONIY TAYYORGARLIGINI SHAKLLANGANLIK DARAJASI

Xudaykulov Zafar Beknazarovich

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Jismoniy tarbiya kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy o'quv yurti talaba yoshlari – tajriba va nazorat guruhi sinaluvchilari bilan o'tkazilgan pedagogik tajriba boshida qayd etilgan jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari, ularning statistik xarakteristikalarini hamda guruhlarda olingan natijalarini o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut farqlarini statistik ishonchliligi ko'rsatkichlari tahlili va muhokamasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: talaba-yoshlar, jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari, statistik xarakteristikalar, absolyut farq, statistik ishonchlilik.

УРОВЕНЬ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВНОСТИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ

Худайкулов Зафар Бекназарович

преподаватель Тошкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова, Узбекистан, г. Ташкент

Аннотация: В статье представлены данные анализа и обсуждения показателей физической подготовленности, зафиксированных в начале педагогического эксперимента, проведенного с молодыми студентами вуза - испытуемыми экспериментальной и контрольной групп, их статистические характеристики, а также показатели статистической достоверности. абсолютные различия средних арифметических значений результатов, полученных в группах.

Ключевые слова: студенческая молодежь, показатели физической подготовленности, статистические характеристики, абсолютная разница, статистическая достоверность.

LEVEL OF PHYSICAL FITNESS OF STUDENTS

Khudaykulov Zafar Beknazarovich

is a teacher at Toshkent State Technical University named after Islam Karimov, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: The article presents data from the analysis and discussion of physical fitness indicators recorded at the beginning of a pedagogical experiment conducted with young university students - testers of the experimental and control groups, their statistical characteristics, as well as indicators of statistical reliability. absolute differences in the arithmetic mean values of the results obtained in the groups.

Key words: student youth, indicators of physical fitness, statistical characteristics, absolute difference, statistical reliability.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda Prezidentimiz sportni rivojlantirish va uni ommaviyligini oshirish tug'risida katta g'amxurlik qilib kelmokda. Bu borada sport taraqqiyotining bugungi bosqichida biz shunday xususiyatlarni ko'ramizki, ular sportchini tayyorlash jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatadilar va trener bilan sportchi oldiga yangidan-yangi murakkab vazifalarni qo'yimoqda. Bu vazifalar esa, o'z navbatida, mashg'ulotlar jarayonini tashkil qilishning eng munosib shakl va usullarini izlab topish zaruratini yuzaga chiqarmasdi. Biz bilamizki, sportning porloq kelajagi sport zahiralari doirasining kengligi va sifatiga bevosita bog'liqdir. Binobarin, yurtimiz sportini jahon maydoniga olib chiqish, talaba yoshlar sportini ilmiy asosda tashkil qilish va bu borada samarali vosita va usullarni ishlab chiqib, mashg'ulot jarayoniga joriy etish muhim vazifalardan hisoblanadi. Sport turlarida ham barcha sport turlari kabi umumiy jismoniy tayyorgarlik shug'ullanuvchilarning bazaviy tayyorgarligi negizi hisoblanadi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik zamirida texnik, taktik, funksional va psixologik, intellektual va boshqa tayyorgarlikning puxta egallanganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Jismoniy tayyorgarlik umumiy va maxsus tayyorgarlikni o'z ichiga oladi ular sportchilarni ham xar tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ixtisoslashtirilgan sifatning namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Sportchi shakllanishining ilk bosqichidagi umumiy jismoniy tayyorgarlik shunday poydevor hisoblanadi. Bu sportchiga o'z maxoratini takomillashtirishda zarur bo'lgan xarakteristikalar va jismoniy sifatning har xil turlarini hosil qilishga imkon yaratadi. Ammo, shunday bo'lsada bugungi talaba-yoshlarni jismoniy tayyorgarlik darajasi ularning kunlik turmush tarzi o'rganilganda bandlik darajasi ko'prok kompyuter o'yinlari bilan mashg'ul bo'lib harakatlarni bajarishga kam vaqt sarflashlari kuzatilmoqda. Bu esa ularni salomatlik darajasini pasayishga olib kelish ehtimolini ko'payishga sabab bo'ladi. Natijada ularda turli kasalliklar kelib chiqish ehtimoli ko'payib bormoqda. Albatta bunday holatni oldini olishda jismoniy tarbiya va sportni o'rni beqiyos bo'lib ular bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarni ilmiy asosda tahlil etish sohada dolzarb vazifalardan sanaladi.

Tadqiqodning maqsadi: Oliy o'quv yurtlari talaba-yoshlarni jismoniy tayyorgarligini aniqlash. Tadqiqod vazifalari: Oliy o'quv yurtlari talaba-yoshlarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga oid ilmiy uslubiy adabiyotlarni o'rganish. - Oliy o'quv yurtlari talaba-yoshlarni jismoniy tayyorgarligini aniqlashdan iborat. Yuqori natijalarga erishish uchun jismoniy

tarbiya va sportdagi barcha vositalar, jismoniy mashqlar shuningdek mashg'ulotlar davomida vositalarning keng ishlab chiqilgan arsenalidan foydalanib kelinayotganligi yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimini samaradorligini oshirishga imkon berishi taqsinga sazavor ammo, bugungi kunda kompyutor texnologiyalarini har bir soxaga kirib kelishi malakali sportchilarni tayyorlash tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Biz yuqoridagilarni inobatga olib oliy o'quv yurti talabalarini jismoniy tayyorgarligini aniqlash va uni takomillashtirish bo'yicha metodikani ishlab chiqish yuzasidan pedagogik tajriba o'tkazishga e'tibor qaratdik. Pedagogik tajribaga tajriba va nazorat guruhi sinaluvchilaridan 50 nafarini jalb etdik. Unga ko'ra, talaba-yoshlarni jismoniy tayyorgarligini aniqlashda maxsus testlar arsenalidan 7 tasidan foydalanildi. Yani tezkor kuchini 100m masofaga yugurish, joydan turib uzunlikka sakrash, 4x10 masofaga mokisimon yugurish, maxsus chidamlilik darajasini 3000m yugurish, qo'l kuchini aniqlashda qo'llarni bukib yozish hamda arqonda sakrash va kuch tayyorgarligini turnikda tortilish test sinovlari talaba-yoshlardan olindi. Olingan natijalar 1-2 jadvallarda

1-jadval

Tajriba boshida tajriba guruhi sinaluvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasi
(n=25)

№	Ф.И.Ш	100м Yugurish(soniya)	4x10м (mokisimon yugurish)	3000м (daqiqqa soniya)	T,J,U,S (sm.ga)	Qo'llarni bukib yozishlar (marta)	Arqonda sakrash (1 daqiqa)	Turnikda tortinish (marta)
1	Abdurasulov Islombek	13,8	10,2	828	245	60	145	12
2	Abdurashidov Elyor	14,7	10,7	840	230	45	85	7
3	Abdullayev Javlonbek	14,3	9,8	858	230	42	108	10
4	Axmedov Ma'ruf	13,9	10,4	774	240	50	128	13
5	Bozorov Sherzod	13,3	10,2	810	200	35	116	10
6	Gadoyev Azizjon	13,1	9,8	738	250	55	142	15
7	Jumayev Doniyor	12,9	9,7	750	230	56	145	14
8	Malikov Jaxongir	12,8	10,3	816	240	54	136	13
9	Mardonov Laziz	14,1	10,9	888	210	32	108	8
10	Nazarov Shoxruxjon	14,6	11,3	942	200	52	112	6
11	Nosirov Axrorbek	13,1	9,6	750	230	44	120	7
12	Panjiyev Doston	13,4	10,2	744	230	48	134	9
13	Qo'ldoshev Abrorxon	15,1	11,4	780	215	36	123	6
14	Rahmatov Abdulaziz	13,6	9,7	792	230	50	130	10
15	Rixsixo'jayev Ismoilxo'ja	12,9	9,6	876	255	45	123	11
16	Ravshanov Davron	13,8	10,2	810	225	25	110	8
17	Soliyev Sardor	13,1	9,8	786	240	51	150	12
18	Tillaboyev Abdulaziz	14,5	11,2	978	215	26	96	7
19	Toshpo'latov Muhammadqodir	12,8	9,7	852	235	65	146	12
20	Toshmamatov Sayfiddin	14,2	10,3	912	230	48	124	12
21	Valiyev Amrullo	12,9	10,1	828	215	52	118	10
22	Yavkashev Shahzod	14,8	10,7	894	200	34	103	7
23	O'roqov Elnur	14,1	11,1	930	220	46	126	11
24	Abdumanapov Boxodir	13,4	9,6	888	230	45	114	8
25	Yuldashev Muslim	14,8	10,7	876	210	33	90	6
	\bar{X}	13,76	10,2 9	837,6 0	226,20	45,16	121,2 8	9,76
	σ	1,51	1,03	100,4 3	29,35	6,31	15,74	1,17
	V, %	10,97	9,98	11,99	12,98	13,97	12,98	11,99

Tajriba boshida nazorat guruhi sinaluvchilarini jismoniy tayyorgarlik darajasi (n=25)

№	F,I,SH	100m Yugurish(soniya)	4x10m (mokisimon yugurish)	3000m (daqiqqa soniya)	T,J,U,S (sm.ga)	Qo' llarni bukib yozishlar (marta)	Arqonda sakrash (1 daqiqa) (marta)	Turnikda tortinish (marta)
1	Abduvoxidov Behzod	12,7	9,5	750	240	53	132	8
2	Asatullayev Aziz	13,5	10,3	762	245	63	146	16
3	Eliboyev Elbek	15,4	10,9	912	230	57	96	10
4	Eshmatov Maxmud	13,8	10,6	888	230	49	123	9
5	Eshmanov Samandar	14,7	11,2	870	240	59	135	12
6	Fayziyev Sherbek	13,8	10,1	876	235	43	125	11
7	Ibroximov Akbarshox	13,7	10,4	816	220	47	143	9
8	Ismoilov Mirzabotir	14,6	10,1	942	215	46	124	10
9	Juraqulov Azamat	15,2	11,1	894	235	39	87	7
10	Kenjayev Allayor	13,1	9,5	816	250	36	152	10
11	Komiljonov Ollayor	14,5	10,1	792	225	32	74	7
12	Mamadiyorov Asqar	13,5	9,8	858	245	36	143	11
13	Mamayusupov Xumoyun	13,8	10	810	215	45	134	8
14	Mamidov Farrux	14,4	10,7	888	230	31	86	7
15	Narzullayev Nazarbek	13,9	9,8	828	250	48	138	14
16	Nuraliyev Behruz	13,8	11,2	810	215	34	119	7
17	Obidov Ravshan	14,8	11,3	930	210	44	108	8
18	Otamurodov Samandar	13,3	10,3	876	235	49	129	12
19	Rahmatov Komiljon	13,8	10,8	918	230	33	87	6
20	Temirov Elbek	14,2	9,9	756	245	42	84	9
21	Tulayev Safarbek	14,7	11,2	924	210	37	107	14
22	Halilov Jumabek	13,8	10,9	852	215	46	130	9
23	Xolbuwayev Farxod	13,9	10,3	750	230	39	133	10
24	Zokirov Qamariddin	14,4	10,4	870	245	35	94	7
25	Abduhakimov Salohiddin	13,3	9,8	786	250	56	138	7
	\bar{X}	14,02	10,41	846,96	231,60	43,96	118,68	9,52
	σ	1,48	1,00	98,07	29,15	5,97	14,94	1,10
	V, %	10,55	9,57	11,58	12,59	13,58	12,59	11,59

Olingan natijalar har ikkala guruhdagi talaba-yoshlarni jismoniy tayyorgarlik darajasini bir xilda shakllanganligidan darak beradi. Bu esa tajribaga jalb etilgan talaba yoshlar barcha ko'rsatkichlar bo'yicha jismoniy tayyorgarligini bir xilda shakllanganligini ko'rsatadi.

3-jadval

Pedagogik tajriba boshida Tajriba va nazorat guruhlari sinaluvchilarini jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari statistik qiymatlarini solishtirish.

	Tajriba guruhi			Nazorat guruh			Абс	нис, %	Т	Р
	\bar{X}	σ	V, %	\bar{X}	σ	V, %				
1	13,76	1,51	10,97	14,02	1,48	10,55	0,26	1,92	0,62	>0,5
2	10,29	1,03	9,98	10,41	1,00	9,57	0,12	1,17	0,42	>0,6
3	837,60	100,43	11,99	846,96	98,07	11,58	9,36	1,12	0,33	>0,7
4	226,20	29,35	12,98	231,60	29,15	12,59	5,40	2,39	0,65	>0,5
5	45,16	6,31	13,97	43,96	5,97	13,58	1,20	2,66	0,69	>0,4
6	121,28	15,74	12,98	118,68	14,94	12,59	2,60	2,14	0,60	>0,5
7	9,76	1,17	11,99	9,52	1,10	11,59	0,24	2,46	0,75	>0,4
								1,98	%	

Olingan natijalarni yetakchi olimlar tomonidan berilgan ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil etilganda ular o'rtasida sezilarli farqlar 100m masofaga yugurish, joydan turib uzunlikka sakrash, 3000m masofaga yugurish sinovlarida farq borligi kuzatildi. Demak bu shundan dalolat beradiki talaba-yoshlarni jismoniy tayyorgarligini shakllanishida yetarlicha xato va kamchiliklar borligi aniqlandi.

Xulosalar

Olib borilgan pedagogik tajriba natijalari oliy o'quv yurtlari talaba-yoshlarini jismoniy tarbiya darslari va mashg'ulotlarini tashkil etishda ilmiy yondoshilmaganligini ko'rsatadi. Ikkinchidan talaba-yoshlarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan pedagogik tajriba yuzasidan ilmiy uslubiy adabiyotlar respublikamizda yetishmasligi va olib borilgan tadqiqodlar etarlicha o'rganilmaganligi tajriba davomida aniqlandi. Oliy ta'lim talaba-yoshlarini jismoniy tayyorgarligi darajasi 1990-2010 yillardagi talaba-yoshlarni jismoniy tayyorgarligi darajasi nisbatan bugungi kunda past darajada shakllanganligini ko'rsatmoqda. Shu bois talaba-yoshlarni jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan tayyorgarlik dasturini izlab topish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa soxadagi dolzarb muammolardan biri bo'lib uni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Olimov, M.S. "Yugurish turlarida yengil atletikachi talabalarni tayyorlashning ilmiy pedagogik asoslari" mavzusidagi pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi 2023 yil 2. Soliyev, I. R. Qisqa masofaga yuguruvchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini rejalashtirish. (2020). 3. M.S. Olimov. O'rta masofaga yuguruvchilarning musobaqa oldi tayyorgarlik mashg'ulotlarini rejalashtirish. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 1-son (2021-yil, fevral). Issn 2181-6883. Buxoro – 20214. M.S. Olimov. Yengil atletikachilarning ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida mashg'ulot yuklamalarini taqsimlanishi va boshqarish texnologiyasi Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 3-son (2021-yil, iyun). Issn 2181-6883.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarni mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishning ba'zi pedagogik muammolari

Xudonazarov Egambergan Madraximovich

Ma'mun universiteti "Psixologiya va ijtimoiy fanlar" fakulteti dekan o'rinbosari, (PhD), dots. v.b.

Некоторые педагогические проблемы развития логического мышления будущих учителей начальных классов.

Худойназаров Эгамберган Мадрахимович

Заместитель декана факультета «Психология и социальные науки» Университета Мамуна, (PhD), доц.

Some pedagogical problems of developing logical thinking of future primary education teachers

Khudoinazarov Egambergan Madrakhimovich

Deputy Dean of the Faculty of «Psychology and Social Sciences» of Mamun University, (PhD),

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishning ba'zi pedagogik muammolari bayon qilingan. Kelajakda boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini oshirish uchun amalga oshirilishi zarur zanzirli bog'lanish taklif qilingan. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishlarida samarali bo'lishi mumkin bo'lgan talablar ishlab chilgan va bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarni mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish uchun bir nechta yechimini topish zarur bo'lgan pedagogik muammolar tizimi keltirilgan.

Аннотация: В данной статье описаны некоторые педагогические проблемы развития логического мышления будущих учителей начальных классов. В дальнейшем предлагается внедрить начальное образование с целью повышения логического мышления учащихся. Разработаны требования к будущим учителям начальных классов, способным эффективно развивать логическое мышление своих учеников, а также найти ряд решений для развития логического мышления будущих учителей начальных классов, представлена система необходимых педагогических задач.

Annotation: This article describes some pedagogical problems of developing the logical thinking of future teachers of primary education. In the future, elementary education is proposed to be implemented in order to increase the logical thinking of students. The requirements for future elementary education teachers that can be effective in developing the logical thinking of their students are developed and to find several solutions for the development of logical thinking of future elementary education teachers. a system of necessary pedagogical problems is presented.

Kalit so'zlar: fikrlash, mantiqiy fikrlash, qobiliyatlar, ichki motivatsiya, qadriyatlar.

Ключевые слова: мышление, логическое мышление, способности, внутренняя мотивация, ценности.

Key words: thinking, logical thinking, abilities, internal motivation, values.

Respublikamizda bajarilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlap, pivojlangan davlat bappo etish maqsadlapiga mos ravishda o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi sifatini oshirish, hamda ta'limning zamonaviy shakllari va usullarini joriy etish vazifasini qo'yadi. Ushbu vazifani amalga oshirish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim strategiyasi talablari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlashi barvaqt rivojlantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da "Umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish"[O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. /Rasmiy nashr/ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: Adolat, 2017. – B.22.] vazifasi belgilandi. Demak boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlashini tarkib toptirish va rivojlantirishning metodik tizimini ishlab chiqish alohida zarurat kasb etdi.

Fikrlash – muayyan voqea-hodisa haqida ma'lum bir xulosaga kelish uchun mulohaza yuritish, o'ylashni ifodalovchi tushuncha [1].

Fikrlash ham faoliyatga mos bo'lgan harakatga ega bo'lishni talab qiladi. Boshlang'ich ta'limda o'rganiladigan ta'lim elementlarini o'zlashtirishga, ular ustida amallar bajarishga qaratilgan faoliyatdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda o'qitiladigan darslar, tashkil qilinadigan sinfdan tashqari ishlar, ayniqsa bu jarayonda taqdim etiladigan maqsadga yo'naltirilgan savol va og'zaki mashqlar ham muhim o'rin egallaydi.

Endi o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ustida ishlagan ko'plab olimlar va izlanuvchilar g'oyalari to'xtalamiz:

Jan Piaget shveysariyalik psixolog bo'lib, u o'quv jarayonida mantiqiy fikrlashning rolini ta'kidlaydigan kognitiv rivojlanish nazariyasini ishlab chiqdi. Uning fikricha, bolalar kognitiv rivojlanish bosqichlarida rivojlanadi va mantiqiy fikrlash bolalar atrof-muhit bilan o'zaro aloqada bo'lib, muammolarni hal qilishni metodlarini o'rgananda rivojlanadi [2].

Lev Vigotskiy rus psixologi bo'lib, u «proksimal rivojlanish zonasi» kontsepsiyasini ishlab chiqdi, bu bolaning kattalar yoki tajribali tengdoshi yordamida rivojlanishi mumkin bo'lgan ko'nikmalar doirasini anglatadi. Vigotskiy o'quv jarayonida ijtimoiy o'zaro ta'sirning muhimligini ta'kidladi va mantiqiy fikrlash o'zaro suxbatlar va hamkorlik orqali rivojlanadi, deb hisobladi [3].

Mariya Montessori italiyalik o'qituvchi bo'lib, u o'z-o'zini boshqarish va amaliy tajribalarning muhimligini ta'kidlaydigan ta'limga bolalarga yo'naltirilgan yondashuvni ishlab chiqdi. Montessori bolalar izlanish va kashfiyot orqali eng yaxshi o'rganishlarini isbotladi, mantiqiy fikrlash amaliy muammolarni hal qilish va ko'plab tajribalar orqali rivojlanadi degan fikrga keladi [4].

Seymur Papert Janubiy afrikalik matematik va kompyuter olimi bo'lib, o'quv jarayonida qurilish va ijodning rolini ta'kidlaydigan «konstruktivizm» tushunchasini ishlab chiqqan. Papert, bolalar yaratish va qurish bilan faol shug'ullanganda eng yaxshi o'rganishadi va mantiqiy fikrlash muammolarni hal qilish va amalga oshirish jarayonida rivojlanadi degan fikrga keladi [5].

Xovard Gardner-ko'plab intellekt nazariyasini ishlab chiqqan amerikalik psixolog, bu aqlning bir necha xil turlari, shu jumladan mantiqiy-matematik intellekt mavjudligini ko'rsatadi. Gardner mantiqiy fikrlashni mantiqiy qiziqarli jumboqlar, o'yinlar, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlashni targ'ib qiluvchi boshqa mashg'ulotlar yordamida rivojlantirish mumkin degan fikrga keladi [6].

Umuman olganda, yuqoridagi va boshqa olimlar o'quvchilarda mantiqiy fikrlash qanday rivojlanib borishi va uni samarali o'qitish strategiyalari orqali qanday rivojlantirish mumkinligi haqidagi tushunchamizga hissa qo'shdilar. Mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ayniqsa, yosh o'quvchilar uchun o'quv jarayonining muhim qismidir. Biroq, o'quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida bir nechta muammolar paydo bo'lishi mumkin:

Boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qiziqmasligi mumkin. Bu o'qituvchilarga o'quvchilarni mantiqiy fikrlashini talab qiladigan mashg'ulotlar va mashqlar tizimi bilan shug'ullanishni qiyinlashtirishi mumkin.

yosh o'quvchilarning diqqat doirasi qisqaroq bo'lib, bu ularga uzoq vaqt davomida murakkab mantiqiy fikrlash vazifalariga e'tibor berishni qiyinlashtirishi mumkin.

boshqa tilda gaplashadigan yoki boshqa madaniy kelib chiqishi bo'lgan o'quvchilar boshqa tilda yoki madaniy sharoitda taqdim etilgan murakkab mantiqiy tushunchalarni tushinishda qiyinalishi mumkin.

o'qituvchilar o'z o'quvchilariga mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini samarali o'rgatish uchun zarur bo'lgan resurslar yoki vositalardan foydalana olmasligi mumkin.

o'qituvchilar mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini o'rgatish bo'yicha zarur tayyorgarlik yoki tajribaga ega bo'lmasligi mumkin, bu esa ushbu ko'nikmalarni o'quv dasturiga samarali kiritishni qiyinlashtirishi mumkin.

ta'lim tizimi mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishdan ko'ra ko'proq yodlash va o'rganishga e'tibor qaratishi mumkin.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun o'qituvchilar turli xil strategiyalardan foydalanishlari mumkin, masalan, ko'proq interaktiv va qiziqarli tadbirlarni o'z ichiga olish, texnologiya va resurslardan foydalanishni ta'minlash, o'qituvchilarni o'qitish va malakasini oshirish imkoniyatlarini ta'minlash, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishga urg'u beradigan o'quv dasturini yaratish.. Bundan tashqari, bu jarayonga o'ta-onalar va tarbiyachilarni jalb qilish ham sinfdan tashqarida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Kelajakda boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur.

O'quv dasturiga mantiqqa asoslangan tadbirlarni kiritish zarur: o'qituvchilar o'z darslariga jumboqlar, o'yinlar va shu kabi mantiqiy fikrlashni rag'batlantiradigan tadbirlarni kiritishlari zarur. Ushbu tadbirlar talabalarga muammolarni hal qilish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

texnologiya o'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun foydali vosita bo'lishi mumkin. Mantiqiy fikrlashni talab qiladigan o'quv dasturlari va ilovalari sinf mashg'ulotlarini to'ldirish uchun ishlatilishi kerak.

o'qituvchilar talabalarni «to'g'ri» javobni topishga emas, balki muammolarning turli xil yechimlari bilan

tajriba o'tkazishga undashlari zarur. Bu talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi va ularni zaruriy talabdan tashqarida fikrlashga undaydi.

o'qituvchilar talabalarga fikrlash jarayonlari haqida fikr yuritishga undash orqali metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Bu talabalarga o'z fikrlash tarzidan xabardor bo'lishga va fikrlashdagi xatolarni yaxshiroq aniqlashga va tuzatishga yordam beradi.

guruhlarda ishlash mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning ajoyib usuli bo'lishi mumkin. Talabalarni muammolarni hal qilishda birgalikda ishlashga undash ularning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi va ularni turli nuqtai nazarlarni ko'rib chiqishga undaydi.

Umuman olganda, kelajakdagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish o'qituvchilar va talabalarni qamrab oladigan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Mantiqqa asoslangan faoliyatni o'quv dasturiga kiritish, texnologiyadan foydalanish, metakognitsiyani ta'kidlash, mantiqiy xatolarni o'rgatish va hamkorlikni rag'batlantirish orqali o'qituvchilar o'z o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bizningcha boshlang'ich maktab o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini qanday oshirish mumkin:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishga yordam beradigan o'qitish usullari va faoliyatining kombinatsiyasini talab qiladi. Boshlang'ich maktab o'qituvchilariga o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishlarida samarali bo'lishi mumkin bo'lgan ba'zi talablar:

talabalarni savollar berishga va taxminlarni rad etishga undash. Bu ularning muammolarni tahlil qilish va turli nuqtai nazarlarni ko'rib chiqish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

o'quvchilarga kundalik vaziyatlarda mantiqiy fikrlashni qanday qo'llash mumkinligini tushunishga yordam berish uchun hayotiy vaziyatlardan foydalaning.

mantiqiy o'yinlar va jumboqlar talabalarga fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini ishonchli va qiziqarli tarzda rivojlantirishga yordam beradi.

deduktiv fikrlash xulosa chiqarish uchun aniq ma'lumotlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. O'quvchilarga maslahatlar berish va shu ma'lumotlar asosida mantiqiy xulosalar chiqarishni so'rash orqali deduktiv fikrlashni mashq qildirish zarur [7].

Talabalarga umumiy mantiqiy xatolar va ulardan qanday qochish kerakligini o'rgatish kerak. Bu talabalarga dalillarni yaxshiroq baholashga va tanqidiy fikrlashga yordam beradi [8].

Talabalarni guruhlarda ishlashga va loyihalarda hamkorlik qilishga undash. Bu ularning g'oyalarini etkazish va turli nuqtai nazarlarni ko'rib chiqish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi [9].

mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun texnologiyadan foydalanish zarur, masalan, muammolarni hal qilish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini talab qiladigan o'quv dasturlari va ilovalaridan foydalanish.

Talabalarni o'z fikrlash yoki metakognitsiya haqida o'ylashga o'rgatish juda dolzarbdir. Bu talabalarga o'zlarining fikrlash jarayonlaridan xabardor bo'lishga va fikrlashdagi xatolarni yaxshiroq aniqlashga va tuzatishga yordam beradi [10].

Bizningcha bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarni mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish uchun quyidagi muammolarni pedagogik yechimini topish zarur:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mantiqiy fikrlashini rivojlantirish tizimining pedagogik jarayonga aloqador kategorial apparatini takomillashtirish hamda nazariy-metodologik jihatlarini o'rganish;

bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilari mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari hamda didaktik, metodik omillarini aniqlash;

bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilari mantiqiy fikrlashini rivojlantirish maqsadida O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim elektron platformasini yaratish va amaliyotga qo'llashning pedagogik xususiyatlari hamda didaktik, metodik omillarini aniqlash;

sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish qonuniyatlari asosida o'qitish metodikasini mazmunan takomillashtirish;

maqsadga yo'naltirilgan savollar va mashqlardan foydalanish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning tizimli modelini takomillashtirish;

o'qituvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodikaning samaradorlik darajasini aniqlash va amaliyotga tatbiq etishga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

60110500-"Boshlang'ich ta'lim" ta'lim yonalishi o'quv rejasidagi tanlov fanlarni tarkibiga mental arifmetikasi, kreativ pedagogika, qiziqarli matematika, sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodikasi, mantiqiy masalalarni yechishga o'rgatish metodikasi, boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va tanqidiy fikrlashga o'rgatish, boshlang'ich ta'limda mediasavodxonlik kabi fanlarni kiritib, o'qitish metodikasini takomillashtirish lozim.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish, ularga fikrlash, muammolarni hal qilish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini mashq qilish uchun bir qator tadbirlar

va imkoniyatlarni taqdim etishni o'z ichiga oladi. Ushbu strategiyalarni sinfga kiritish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga maktabda va hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Педагогика. Энциклопедия. III жилд. жамоа // Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017. – 400 б.

Piaget, J. (1982). Reflections on Baldwin [interview with J. J. Vonèche]. In J. M. Broughton & D. J. Freeman-Moir (Eds.), *The cognitive developmental psychology of James Mark Baldwin* (pp. 80-86). Norwood, NJ: Ablex.

Выготский Л.С. Проблема культурного развития ребенка // Вестник Московского мактаба. Серия 14: Психология. – 1991. – № 4. – С.5–19.

Montessori 2013 — Montessori M. A New World and Education (1946/1947) // AMI Journal. 2013. № 1-2. P. 69-76.

Пейперт С. Переворот в сознании: Дети, компьютеры и плодотворные идеи. Москва, Педагогика, 1989.

Gardner H. «A Blessing of Influences» in *Howard Gardner Under Fire* (англ.) / Schaler, Jeffrey A.. — Illinois: Open Court, 2006. — ISBN 978-0-8126-9604-2.

Xudoynazarov E.M., Xudayberganov G'.Q. Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. Darslik. // – T: «Bookmany print» nashryoti, 2023. 215 b.

Xudoynazarov E.M. Theoretical foundations of growing logical thinking of elementary school students.// *Internashional bulletin of enjeenieng and technology. An american internashional jurnal.* 2023. ISSN:2770-9124. UIF = 8.1 | SJIF = 5.71. -P. 33-37

Xudoynazarov E.M., Avezova D.G. Didactic Principles of Developing Logical Thinking in Students // *International Scientific Conference on «New Scientific Trends and Challenges» 20th February 2023, Rome, Italy.* P. 97-100.

Xudoynazarov E.M., Saparboeva S.O. //Didactic Foundations of the Development of Human Thinking. *International Scientific Conference on «New Scientific Trends and Challenges» 20th February 2023, Rome, Italy.* P. 94-96.

O‘ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT MENEJMENTI ASOSIY YO‘NALISHLARI VA RIVOJLANISH STRATEGIYALARI

Xidoyatov Shuxrat Sharipovich

Buxoro davlat pedagogika instituti Jismoniy tarbiya va sport kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Maqolada jismoniy tarbiya va sport menejmenti fanining maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi aytilib o‘tilgan. Bundan tashqari jismoniy tarbiya va sport sohasidagi qonun hamda qarorlar - boshqarishning asosiy manbalari to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Maqolada O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport taraqqiyoti va Davlatni idora qilishda Prezidentlik instituti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi hamda vazirliklar va jamoat tashkilotlarining o‘rni haqida so‘z yuritilgan. Boshqarish tamoyillari. “Jismoniy tarbiya harakati”, “Boshqarish”, “Boshqarish tizimlari”, “Ilmiy boshqarish”, “Boshqarish usullari” “Aqlli boshqarish” tushunchalarining umumiy ta’rifi haqida aytilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Qonun, qonuniyat, qarorlar, jismoniy tarbiya va sport, boshqarish, boshqarish tamoyillari, boshqarish usullari, boshqarish funksiyasi, tizim, boshqarish tizimi, tashkilot, jamoat tashkilotlari.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТИВНОГО МЕНЕДЖМЕНТА В УЗБЕКИСТАНЕ СТРАТЕГИИ

Аннотация: В статье обозначены цель и задачи науки о физическом воспитании и спортивном менеджменте, а также ее взаимосвязь с другими дисциплинами. Кроме того, обсуждаются законы и решения в области физического воспитания и спорта – основных источников управления. В статье говорится о развитии физического воспитания и спорта в Узбекистане и роли Института Президента, Олий Мажлиса, Кабинета Министров, министерств и общественных организаций в управлении государством. Принципы управления. Было упомянуто общее определение понятий «Физкультурное движение», «Менеджмент», «Системы управления», «Научный менеджмент», «Методы управления» и «Умное управление».

Ключевые слова: Право, законность, решения, физическое воспитание и спорт, менеджмент, принципы управления, методы управления, функция управления, система, система управления, организация, общественные организации.

MAIN DIRECTIONS AND DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN STRATEGIES

Abstract: The purpose and tasks of the science of physical education and sports management, as well as its relationship with other disciplines, are mentioned in the article. In addition, the law and decisions in the field of physical education and sports are discussed - the main sources of management. The article talks about the development of physical education and sports in Uzbekistan and the role of the Presidential Institute, the Oliy Majlis, the Cabinet of Ministers, ministries and public organizations in the administration of the State. Management principles. The general definition of the concepts of «Physical training movement», «Management», «Management systems», «Scientific management», «Management methods» and «Smart management» were mentioned.

Key words: Law, legality, decisions, physical education and sports, management, management principles, management methods, management function, system, management system, organization, public organizations.

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida belgilab berilgan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”da bevosita “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” masalalari belgilab berilgan. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar qatoriga faqatgina iqtisodiy omillarning o‘zi bilan qo‘shilib bo‘lmasligi barchaga ayon. Bu borada boshqa jihatlarining ahamiyati ham behad kattadir. Jamiyatda yangi qadriyatlar tizimini shakllantirishda kishilarning ruhiyatini o‘zgartirish, ularda

islohotlarning talabiga mos keladigan tafakkur tarzini shakllantirish nihoyatda muhim. Agar odamlarning ongida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatiga ishonch ruhi paydo bo'lsa yangicha tafakkurni shakllantirishning iloji yo'q. Zotan Vataniga sodiq, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, axborot-innovatsion texnologiyalardan boxabar bo'lgan ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash hamma davrlarda ham davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilovchi dolzarb omillardan biri bo'lib kelgan. Insonning shaxs sifatida shakllanib borishida ta'lim-tarbiya hamda innovatsion ilmiy-tadqiqotlar negizida vujudga keladigan ko'nikmalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. O'zbekistonda ushbu tizim doirasida bugungi kunga qadar bir qancha islohotlar amalga oshirildi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, kadrlarda ilmiy layoqat yo'qligining boisi, zarur malakaning talab doirasida shakllanmayotganligidir. Bu borada yoshlardagi itilish va qiziqish layoqatlarini inobatga olish bilan birga, ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etishlarini ta'minlash, loyihalarni to'g'ri rasmiylashtirishni o'rganish, ma'lumotlarni elektron tarmoqlarda to'g'ri joylashtirish ko'nikmalarini shakllantirib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jismoniy tarbiya va sport sohasini kuchaytirishga ehtiyojni tizimda vujudga kelayotgan innovatsion ilmiy tadqiqotlarga bo'layotgan talablar doirasidagi tendensiyalar bilan izohlash mumkin. Bugungi taraqqiyotning sur'atlari tobora tezlashmoqda, bu esa jismoniy tarbiya va sport tizimining turli sohalar bilan hamkorlikda rivojlanishini belgilab bermoqda. Xususan, jismoniy tarbiya va sportdagi ijtimoiy-madaniy muammolar ahamiyatining ortib borishi hamda kirib kelayotgan texnika va texnologiyalarning turli darajadagi ta'sirlari sportchilarning ijtimoiy (sotsial) qiyofasini o'rganish, ma'naviy qadriyatlar, din, madaniyat prizmasi ostida olib qarash orqali muammolarning xususiyatlarini tasniflash asosida tadqiq etish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. O'zbekiston ilm-fani bugun bozorning o'zgarib borayotgan ehtiyojlariga tez moslasha oladigan, mamlakatimiz va butun dunyoda xaridorgir bo'lgan ilmtalab, yuqori texnologik mahsulot (xizmat) lar ko'rsatishga yo'naltirilgan tom ma'nodagi innovatsion iqtisodiyotning texnologik bazasini yaratishga qaratilgan. Ilm-fan va zamonaviy texnologiyalarni modernizatsiyalash, O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish borasida hal etilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalardan biri sanaladi. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish, mamlakat vakillarining xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash va o'ziga mos o'rinni egallashi uchun ilm-fanning innovatsion yutuqlaridan keng ko'lamda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mas'uliyatli vazifani mukammal darajada bajarish uchun esa, milliy ilm-fanni hamda kadrlar tayyorlash tizimini jadal tarzda rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Eng ilg'or axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, jismoniy tarbiya va sport sohasini modernizatsiya qilish va buning uchun ilm-fan hamda ishlab chiqarish o'rtasidagi xalqaro integratsiya aloqalarini kengaytirish, belgilangan vazifalarga erishishning eng yaqin va qulay yo'li hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishda qator tizimli muammolar va kamchiliklarning mavjudligi, ya'ni birinchidan, ushbu sohada davlat siyosatini samarali olib borish va mamlakatning mavjud sport salohiyatidan to'liq foydalanishda to'sqinliklar borligi, ikkinchidan, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilmaganligi, uchinchidan, sportchilarni tayyorlash va ular tibbiy ta'minotining innovatsion tadqiqotlari va uslubiy ishlanmalari, zamonaviy talablarga javob beradigan standartlarining mavjud emasligi, sifatli o'quv-mashq jarayonining yo'lga qo'yilishini ta'minlamayotganligi ta'kidlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

"Jismoniy tarbiya va sport menejmenti" fani o'zining tarixiga ega. Bu haqda quyidagi ma'lumotlarni keltirish mumkin. Bu fan ilgari jismoniy tarbiya va sport tarixi fanining tarkibida bo'lib, 1948-yildan boshlab mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi va taraqqiy qila boshladi. 1954-1958-yillarda "Organizatsiya fizicheskoy kulturi" degan nom bilan birinchi o'quv qo'llanma nashr etilgan. 1961-yilda professorlar I.M.Nikiforov va V.S.Polishanskiy tahririda "Organizatsiya fizicheskoy kulturi" nomli rus tilidagi qo'llanma jismoniy tarbiya o'quv yurtlari talabalari uchun nashr qilindi. 1965-yilda yana shu olimlar tahririda "Organizatsiya fizicheskoy kulturi" o'quv qo'llanmasi to'ldirilgan holda qayta nashr etildi. 1977-yilda "Upravlenie fizkulturnim dvijeniem" nomi bilan birinchi marotaba darslik tayyorlandi. Darslikni tayyorlashda pedagogika fanlari doktori, professor Kulunkovich K.A. (Belorussiya davlat jismoniy tarbiya instituti) rahbarligidagi Belorussiya, Moskva, Kiyev va boshqa bir qator institutlarning

olimlari hamda mutaxassislari ishtirok etdi. Keyingi yillardagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, davlatni idora qilish, sport va jamoat tashkilotlarining tashkiliy tuzilishi hamda taraqqiyot jarayonlari bu darslikning yangilanishi va takomillashishini taqozo qildi. 1987-yilda professor Pereverzin I.I. (Moskva jismoniy tarbiya instituti) boshchiligida "Upravlenie fizicheskoy kulturoy i sportom" degan yangi darslik nashr etildi. Bu darslik o'zining mazmuni, tuzilishi jihatidan avvalgi darslik va o'quv qo'llanmalardan tubdan farq qilgan, jismoniy tarbiya harakatining barcha sohalarida erishilgan ilmiy-uslubiy xulosalarga tayangan bo'lsa-da, sobiq Ittifoq miqyosidagi ko'pgina jismoniy tarbiya va sport sohasi olimlari, professor-o'qituvchilari tomonidan yaxshi baholanmadi. Buning sababi shundaki, darslikda boshqarish tizimlari, vazifalari (funktsiyalar) va turli tarmoqlardagi jismoniy tarbiya va sport ishlarini rejalashtirish, ish yuritish, musobaqalar o'tkazish kabi muhim faoliyatlarga e'tibor berilmagan yoki alohida hududlargina nazarda tutilgan edi. Jismoniy tarbiya institutlari hamda oliy o'quv yurtlaridagi jismoniy tarbiya fakultetlarining talabalari uchun eng qulay, tushunish oson bo'lgan o'quv qo'llanmalari 1965-yilda nashrdan chiqqan "Организация физической культуры" va 1972-yilda Bunchuk M.B. (Ukraina) tomonidan tayyorlangan "Организация физической культуры" o'quv qo'llanmasi hisoblanadi. Keyingi yillarda jismoniy tarbiya texnikumlari, pedagogika bilim yurtlari talabalari uchun "История и организация физической культуры и спорта" (V.V.Stolbov, Moskva, 1984) darsligi, ommabop xususiyatga ega bo'lgan "Fizkultura harakatini kengaytirish yo'llari" (R.Abdumalikov, T.T. Yunusov, A.K. Akramov, Toshkent, 1988) o'quv qo'llanmasi tayyorlandi. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti tomonidan "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni boshqarishni tashkil etish yo'llari" (T.T.Yunusov, R.Abdumalikov) o'quv qo'llanmasi nashr etildi. Bular orasida R.Abdumalikovning "Jismoniy madaniyat va sport ixtisosligidagi talabalarni boshqaruvchilik faoliyatlariga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari" monografiyasi (1994), "Jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning nazariy asoslari" o'quv qo'llanmasi (1995) muhim ahamiyat kasb etdi. Bular talabalarning boshqaruvchilikdagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. E'tirof etish kerakki, boshqarish jarayonlarida avvalgi ish tajribalari, erishilgan yutuqlar hamda ilmiy-nazariy tadqiqot natijalari fanning asosiy omili sifatida xizmat qiladi. Bularni o'rganish va tanqidiy yondoshish zarur hisoblanadi.

MUHOKAMA

Menejment – bu inglizcha so'z bo'lib, u insonlarning har qanday faoliyatidagi, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport faoliyatidagi boshqaruv hokimiyati va san'ati va har qanday korxonalar, tashkilotlarda, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida resurslarni boshqarish bo'yicha alohida mohirlik va ma'muriy ko'nikmalar tushuniladi. Boshqaruv tushunchasi turli manbalarda turlicha talqin etiladi, lekin ularning umumiy ma'nosi tabiatda, jamiyatda, xalq xo'jaligida, korxonalarda, tashkilotlarda, iqtisodiy-texnikaviy sistemalarda, qo'yingki hayotimizda uchraydigan barcha taraddudlarni amalga oshirishda "tashkilot faoliyatida, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport faoliyatida natijaga samarali erishish uchun undagi barcha jarayonlarga maqsadli ta'sir ko'rsatib borishni bildiradi". Boshqacha so'z bilan aytganda, menejment - bu boshqaruv, ya'ni resurslarni, personal (odam)larni boshqarish, samarali faoliyat olib borish va foyda olishni bilish, uni ko'paytirish jarayonidir, shu nuqtai nazardan boshqaruv bu o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir. Menejment ham yuqorida keltirilgan jarayonlarni amalga oshirishda maqsadli ta'sir ko'rsatib boradi, lekin uning boshqaruvdan tubdan farqi shundaki: "Menejment jamoadagi har bir personal (shaxs)ning jismonan va aqlan sog'lomligi, bilim, madaniyat, tajriba darajalarini, tashkiliy xulqining qay darajada rivojlanganini, qaysi shijoat (temperament)ga mansub ekanligini, insonga taalluqli barcha individual, psixologik, tashkilotchilik, jamoada o'zini tuta olish, o'z-o'zini topa olish va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda, unga nisbatan faoliyat turlarini belgilaydi, rasmiy va norasmiy ishchi guruhlarini shakllantirishda uning bo'lajak a'zolarining barcha yutuq va kamchiliklaridan samarali foydalanish masalalarini hal etadi. Jismoniy tarbiya va sport menejmentini jamiyatning iqtisodiy negizi bilan bog'lab, shu bilan birga boshqaruvning ikki: tashkiliy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy tomonlarini hisobga olgan holda o'rganish lozim. Tashkiliy-texnikaviy boshqaruv aniq iste'mol qiymatini olish uchun mahsulot (sport tovarlari yoki xizmati) tayyorlashda mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruv mavjud jismoniy tarbiya va sportda ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog'liq bo'lib, menejment maqsadlarini belgilaydi. Jismoniy tarbiya va sportda ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruvning maqsadi personal samarali mehnat qilishi uchun sharoit yaratish, ularni ijtimoiy himoya qilishning ishonchli umumdavlat tizimini shakllantirish uchun, bandlikni ta'minlash va aholini kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

NATIJALAR

Bugungi kunda menejment va boshqaruv masalalarida asrlar davomida shakllanib va rivojlanib kelgan, ilmiy tomondan sinov va tajribalardan o'tgan, mutaxassislar tomonidan qabul qilingan va hozirgi kunda ikki fan, ya'ni menejment va boshqaruv fanlari orasidagi umumiylikni ifodalaydigan hamda jismoniy tarbiya va sport sohasiga bevosita aloqador hisoblangan quyidagi fikrlarni uchratish mumkin:

Jismoniy tarbiya va sport menejmenti tahlil usullari

T/r	Tahlil usullari	Mazmuni
1	Jismoniy tarbiya va sportga sistemali yondashuv	Jismoniy tarbiya va sportda boshqariluvchi obyekt yaxlit tizim olib qaraladi. Bu yondashuv turlicha bo'lishi mumkin: Jismoniy tarbiya va sportga sistemali-kompleks yondashuv. Jismoniy tarbiya va sportga sistemali-funksional yondashuv. Jismoniy tarbiya va sportga sistemali-tarkibiy yondashuv. Jismoniy tarbiya va sportga sistemali-kommunikatsion yondashuv.
2	Jismoniy tarbiya va sportga kompleks yondashuv	Jismoniy tarbiya va sportga boshqariluvchi obyekt boshqa obyektlar bilan o'zaro bog'lanishda va aloqadorlikda qaraladi.
3	Jismoniy tarbiya va sportga tarkibiy yondashuv	Jismoniy tarbiya va sportga boshqariluvchi obyekt tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganiladi.
4	Jismoniy tarbiya va sportga vaziyat (situatsiya)li yondashuv	Jismoniy tarbiya va sportga boshqariluvchi obyektning konkret sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab boshqarishning ma'qul uslubi qo'laniladi.
5	Jismoniy tarbiya va sportda integratsion yondashuv	Jismoniy tarbiya va sportga boshqariluvchi obyekt yuqoridagi uslublar (vaziyatli, kompleks, tarkibiy yondashuvlar)ni birgalikda qo'llash yordamida boshqariladi
6	Jismoniy tarbiya va sportda modellashtirish usuli	Jismoniy tarbiya va sportda boshqariluvchi obyektning boshqarish bo'yicha turli sxema, grafik va chizmalar, iqtisodiy-matematik modellar, eskizlar (xomaki materiallar) tayyorlanadi.
7	Jismoniy tarbiya va sportda kuzatish usuli	Jismoniy tarbiya va sportda boshqariluvchi obyekt to'g'risidagi ma'lumotlarni rejali, ilmiy, uyush-tirilgan asosda to'plash va nazorat qilish usuli
8	Jismoniy tarbiya va sportda eksperiment (tajriba) usul	Jismoniy tarbiya va sportga boshqarish jarayonida boshqariluvchi obyektga nisbatan namunaviy tajribadan o'tgan usullarni qo'llash.
9	Jismoniy tarbiya va sportda ijtimoiy-kuzatuv usuli	Jismoniy tarbiya va sportda boshqarish maqsadida turli anketali so'rovlar, suhbatlar, testlar, infratuzilmaviy tahlillarni o'tkazish.

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini foydali mehnat asosida tashkil etishda menejment juda katta imkoniyatlarga egadir. Insonlarni moddiy rag'batlantirish orqali muvaffaqiyatlarga erishtirish mumkin degan an'anaviy to'g'ri tushunchalarni tan olgan holda, menejment xarajat talab qilmaydigan, quyida batafsil o'rganiladigan ijtimoiy-psixologik, vakolat va mas'uliyatni uzatish, huquqiy usullar va ko'pgina motivatsion modellarni tavsiya eta oladi. Jismoniy tarbiya va sport sohalarida katta yutuqlarga faqatgina moddiy rag'batlantirish orqali erishish mumkin bo'ladi degan tushunchalarni inkor etmagan holda, menejmentning yangi, zamonaviy usullaridan foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Haqiqatdan ham,

insonlarni, shu jumladan, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarni intensiv harakatga, foydali mehnatga jalb etishda, yuksak natijalarga undashda faqatgina moddiy rag'batlantirish asosiy omil bo'la oladi degan tushunchaning to'g'ri bo'lishiga qaramay, undan boshqa nomoddiy-ma'naviy omillar juda ko'pligini allaqachon mutaxassis va olimlar tomonidan tan olingan. Biron-bir faoliyatni boshlashda inson ongida zamonaviy dunyoqarash asoslari shakllangan bo'lishi, ya'ni uni intensiv mehnatga jalb etishda motivatsiya asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, insonning o'z ichidan intilishga uyg'otish, unda kelajakka umid tuyg'ularini shakllantirish va ishonch hosil qildirish kabi omillardan keng foydalanish asosiy yo'nalishlardan ekanligini inobatga olgan holda, menejmentning jismoniy tarbiya va sport rivojiga katta hissa qo'sha olishi hech kimda shubha tug'dirmasa kerak. Fanni o'qitishdan maqsad talabalarda jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida uchraydigan boshqarish muammolariga nisbatan qiziqish, amaliy tashkilotchilik faoliyatiga ishtiyoq uyg'otishdan iborat. Chunki hozir boshqarish asoslarini o'rganayotgan talabalar kelgusida jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida boshqarish tizimining xodimlari, kichik, o'rta va katta jamoalarning rahbarlari, korxonalar va firmalar iqtisodiy, sotsial, tashkiliy-texnik faoliyatining turli tomonlarini boshqarish bo'yicha loyihalar, tadbirlar ishlab chiqarishga jalb etilgan mutaxassislar bo'lib yetishadilar.

XULOSA

Mamlakatimizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bunda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida belgilab olingan va izchil ravishda amalga oshirilayotgan ulkan vazifalar mustahkam zamin yaratmoqda. Iqtisodiyotning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlashda keigusi davr uchun puxta va har tomonlama asoslangan chora-tadbirlar, muhim vazifa va yo'nalishlar, turli darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlarining ishlab chiqilishi va aniq belgilab olinishi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Ayni paytda, bosib o'tilgan yo'l - oldingi davrdagi erishilgan yutuq va natijalarni tanqidiy baholash orqali tegishli xulosalar chiqarish, ular asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini yanada takomillashtirib borish ham muhim prinsipial ahamiyat kasb etadi. "Jismoniy tarbiya va sport menejmenti" fani o'zining rivojida falsafa, boshqaruv nazariyasi va amaliyoti, kibernetika, psixologiya, shifokorlik, politologiya, marketing, iqtisodiyot, iqtisodiyot nazariyasi, iqtisodiyot ta'limi tarixi, ekonometriya, iqtisodiy-matematik modellar va usullar, matematika, operatsiyalar tahlili va boshqa fanlarga asoslanadi. Jismoniy tarbiya va sport sohasiga menejerlar tayyorlashda eng avval bitiruvchilar qanday sifat belgilarini o'zlarida mujassamlashtirgan bo'lishlari lozim degan savolni hal etishga to'g'ri keladi. Shundan kelib chiqqan holda menejment mutaxassisligini bitiruvchilar birinchi navbatda jismonan va aqlan sog'lom bo'lishlari, menejment va uning yaqinidagi boshqa fanlarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari hamda mustaqil fikrlay oladigan va o'z fikrlarini erkin holda, har xil ko'rinish (yozma, og'zaki va boshqa)larda ifodalay oladigan bo'lishlari shart. Ayniqsa, mustaqillik, ijodiy va mantiqiy fikrlash, oqillik, sezgirlikni rivojlangan bo'lishi kabi sifatlar menejer xususiyatlarining ajralmas qismi bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Salomov R.S, Kerimov F.A. Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar. 2002 y. Toshkent.
2. Achilov A.M. Akramov J.A. Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash. 2004 y. Toshkent.
3. Sharipov T.Yu., Usmonxodjaev T.S. Jismoniy tarbiya. Dars ishlanmalari va xarakterli o'yinlar. 2005 y.
4. Internet materiallari (Rambler: ru., <http://www.mail.ru>, Google.)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, vazirlar mahkamasi hamda jismoniy tarbiya va sport ishlari boshqarmalari tomonidan chiqarilgan qaror, qonun, farmonlar. Toshkent 1991-2008. 68
6. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O.V.Goncharova. Toshkent. 2005.
7. Sport mashg'ulot nazariy asoslari R.S.Salomov. Toshkent. 2005.
8. Усмонходжаев Т. С. ва бошқа. Болалар ва ўсмирлар спорти машғулотлари назарияси ва услуби-ятлари. 2005 й. Тошкент.
9. Ю.М.Юнусова. Спорт фаолиятнинг назарий асослари. Тошкент. 1994.
10. Вишняков Т. А. Массовая физическая культура в ВУЗе Қўлланма. Москва. 1991
11. А.Н.Нормуродов, Т.С. Усмонхужаев «210 та харакатли ўйинлар» Тошкент 2001 йил. ТошДПИ.
12. Саломов Р.С. Спорт машғулотларини назарий асослари. дарслик. 2000 йил. Тошкент.
13. Гончарова О.В. Ёш спортчиларнинг жисмоний қобилиятларини ривожлантириш. 2004. Тошкент.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ СКОРОСТНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У ПРЫГУНОВ УЧЕБНО -ТРЕНИРОВОЧНОЙ ГРУППЫ

Хайдаров Улугбек Рустамович

Преподаватель Бухарского государственного педагогического института кафедры «Физической культуры и спорта»

Аннотация: Данная работа затрагивает вопросы спортивной тренировки прыгунов на этапе подготовительной специализации, в основе которой должно внимание уделяется развитию скоростных способностей. В статье проанализирован уровень физической подготовленности у легкоатлетов студентов Бухарского государственного педагогического института (кружок легкой атлетики группа начального этапа подготовки), в рамках общих положений, характер изучающих рациональные формы построения тренировочного процесса, может быть отражена индивидуальность спортсмена. Актуальной является выработка основных методических правил, показывающих сущность и оправданные рамки индивидуализации тренировок юных спортсменов. Рассматривается применения специальных упражнений в тренировочном процессе, улучшающие техническую подготовленность, влияющую на скоростные качества. Отражены результаты исследования и изучена динамика изменений результатов по основным показателям.

Ключевые слова: Физическая подготовленность, специальная физическая подготовленность, техническая подготовленность, скоростные качества, ский, А-skip, В-skip, достоверность различия.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING SPEED ABILITIES IN JUMPERS OF THE EDUCATIONAL AND TRAINING GROUP

Khaidarov Ulugbek Rustamovich

Lecturer at the Bukhara State Pedagogical Institute, Department of Physical Culture and Sports

Annotation: This work addresses the issues of sports training of jumpers at the stage of preparatory specialization, which is based on the development of speed abilities. The article analyzes the level of physical fitness among student athletes at the Bukhara State Pedagogical Institute (athletics club, group of the initial stage of training), within the framework of general provisions, the nature of those studying rational forms of constructing the training process, the individuality of the athlete can be reflected. It is relevant to develop basic methodological rules that show the essence and justified framework for individualizing training for young athletes. The use of special exercises in the training process that improve technical readiness, affecting speed qualities, is considered. The results of the study are reflected and the dynamics of changes in the results for the main indicators are studied.

Key words: Physical fitness, special physical fitness, technical preparedness, speed qualities, skip, A-skip, B-skip, reliability of the difference.

O'QUV-MASHG'ULOT GURUXIDA SAKROVCHILARNING TEZLIK SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI.

Haydarov Ulugbek Rustamovich

Buxoro davlat pedagogika instituti "Jismoniy tarbiya va sport" kafedrasida o'qituvchisi

Аннотация: Bu ish tezlik qobiliyatini rivojlantirishga asoslangan tayyorgarlik ixtisosligi bosqichida sakrashchilarni sportga tayyorlash masalalarini ko'rib chiqadi. Maqolada Buxoro davlat pedagogika institutida (yengil atletika to'garagi, mashg'ulotning boshlang'ich bosqichi guruhi) talaba sportchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasi umumiy qoidalar doirasida, mashg'ulot jarayonini tashkil etishning oqilona shakllarini o'rganayotganlarning tabiati tahlil qilinadi. sportchining individualligi aks ettirilishi mumkin. Yosh sportchilar uchun mashg'ulotlarni individuallashtirishning mohiyati va asosli asoslarini ko'rsatadigan asosiy uslubiy qoidalarni ishlab chiqish dolzarbdir. O'quv jarayonida texnik tayyorgarlikni yaxshilaydigan, tezlik sifatiga ta'sir qiluvchi maxsus mashqlardan foydalanish ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari aks ettiriladi va asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha natijalarning o'zgarish dinamikasi o'rganiladi.

Калит со'злар: Jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, tezlik sifatlari, skip, A-skip, B-skip, farqning ishonchligi.

Актуальность. В республике в последние годы осуществляются последовательные меры по популяризации физической культуры и спорта, пропаганде здорового образа жизни среди населения, созданию необходимых условий для физической реабилитации лиц с ограниченными физическими возможностями и обеспечению достойного выступления страны на международной спортивной арене.

не. Вместе с тем существует необходимость внедрения в практику конкретных программ, научно обоснованных методик и технологий в сфере спортивной подготовки молодёжи, а также внедрения инновационных форм и методов в процесс отбора (селекции) талантливых спортсменов.

Для дальнейшего развития лёгкой атлетики все большее значение придаётся поиску новых, более эффективных, средств и методов подготовки спортивного резерва, обосновывается необходимость широкого использования на различных этапах становления спортивного мастерства теоретико-методических положений, индивидуализация тренировочного процесса. Особое внимание надо уделять специальной физической подготовки легкоатлетов в спринтерском беге, с учётом их технических особенностей. Поэтому проблема легкоатлетов, специализирующихся в прыгунов является актуальной.

Изученность проблемы. В научной статье Е. Л. Григорьевой (2020) рассматривается оптимизация специальной физической подготовленности. В настоящее время на смену индивидуального подхода, который полностью оправдал себя при работе со спортсменами высокого уровня, формируется типовой конституционный подход для работы с детскими командами. Вырисовывается новая концепция однотипности ответных реакций на физические нагрузки у детей, объединённые габариты и компонентным варьированием их соматических показателей.

Эффективность передачи силы действия на опору по замкнутой кинематической цепи в статическом режиме определяется максимальными силовыми возможностями «слабого» звена в последовательной замкнутой кинематической цепи. Лимитирующими факторами передачи силы действия являются мышцы, обслуживающие голеностопный сустав и угол в коленном суставе.

Анализ и обобщение современной спортивно-педагогической литературы показывает, что увеличение или уменьшение скорости бега на короткой дистанции в большей степени касается периода переноса маховой ноги в фазе полёта и в меньшей периода опоры (Т.П. Юшкевич 1998, А.С. Сидоренко, 2004 и др.) Наибольшее положительное тренирующее влияние на организацию переноса маховой ноги в прыгунов оказывают специальные упражнения с установкой на быстрое сведение-разведение бёдер, направленные на увеличение интенсивности работы мышц антагонистов. Таким образом, в беге на короткую дистанцию главная двигательная задача – бежать быстро, но не скованно, испытывая ощущения тяги, как в беге под уклон-это центральная «опорная» точка контроля самоощущений в спринтерском беге.

Проанализированные литературные данные по вопросам биомеханической вертикальной составляющей опорных реакций беговых шагов спринтеров разной квалификации отличаются по характеру переднего фронта кривой. Нарушение ритма связано с растягиванием времени амортизационной фазы и неравномерностью нарастания усилий при опорных реакциях до максимума.

Эти динамические процессы, в свою очередь, детерминируются факторами кинематического порядка. К их числу относятся: выбор оптимальной стартовой позы, низкая траектория движения стопы маховой ноги в первом шаге, оптимизация углов в тазобедренном, коленном и голеностопном суставах в каждом из последовательных шагов в стартовом разгоне, при согласованности с уровнем скоростно-силовой подготовленности спринтера.

Целью исследования явились, изучение эффективности упражнений улучшающие технику бега влияющих на результативность скоростных качеств спринтеров, в соревновательных дисциплинах.

Методы исследования:

-анализировались и обобщались данные научно-методической литературы ряда учёных и специалистов многие годы занимающихся научной деятельностью;

-методы тестирования;

-метод математическо - статистического вычисления.

Для решения задач исследования нами был организован и проведён педагогический эксперимент в течении сентябрь 2022 г.- февраль 2023 года на базе Бухарского государственного педагогического института г. Бухара. В исследовании приняли участие 30 спортсменов (юноши) учебно-тренировочной группы третьего года обучения 18-20 лет. Проводилась оценка физического развития юношей 18-20 лет. В ходе эксперимента были получены данные по следующим показателям: бег на 60, 100 метров, прыжки в длину с места, тройной прыжок с места, прыжки вверх.

В начале эксперимента основные средства были направлены на развитие специальной физической подготовленности. Объём и содержание учебно-тренировочных занятий определялись типовой программой КОР в соответствии с этапом подготовки. Для третьего года обучения объём учебно-тренировочных занятий составил 10 учебно-тренировочных занятий с общей нагрузкой 20 часов в неделю [12,13] (см. таблица 1).

Таблица 1

**Комплекс упражнений скоростного характера для спринтеров на этапе
подготовительной специализации**

№	Упражнение	Дозировка	День недели
1	«А- skip»	3× 50 м	Понедельник, Среда, Пятница
2	«Б- skip»	3× 50 м	Понедельник, Среда, Пятница
3	Бег 30 м с низкого старта	7 раз	Среда
4	Раскатка 20,30,40,60,100 м и обратно	1 серия	Вторник
5	Рывок штанги на груд	5×7 раз	Пятница

В основу тренировочного процесса включены инновационные беговые упражнения такие как: «А- skip», «Б- skip», «С- skip», «Д- skip» и «Е- skip». Которые направлены на развитие и совершенствование техники бега, а именно спринтерского. Стоит заметить, что по сравнению с ранней техникой и поздней техникой есть некоторые различия. В поздней технике постановка стопы является ключевым элементом в работе ног.

Скип (Скип) – подскок. Основное движение выполняется в ритме «и-раз», или «раз-два».

1. Методика упражнения «А- skip». Первое движение выполняется небольшим шагом (прыжком), при этом тяжесть тела передается на одну ногу, затем следует опуститься на всю стопу и слегка согнуть колено, а другую ногу согнуть назад (колено вперед, пятка под себя):

1. Встать, расставив ноги на расстоянии бедер, смотреть прямо перед собой и держать верхнюю часть тела прямо.

2. Поднять левую ногу на высоту бедра, пропуская подушечку правой стопы.

3. Ударить подушечкой левой ноги о землю ниже центра массы тела и встать на обе ноги.

4. Продолжит чередовать стороны и двигаться вперед.

5. Руки следуют за движениями ног, как при беге и во время выполнения А-скипа ступня должна быть согнута к голени (тыльное сгибание).

2. Методика выполнения упражнения «В-skip». Второе движение включает следующие действия: выполнит подскок на опорной ноге и, разгибая колено, сделать небольшой мах другой ногой вперед-вниз (носок приподнят над полом). При приземлении обязательно ногу ставит под себя:

1. Встать, расставив ноги на расстоянии бедер, смотреть прямо перед собой и держать верхнюю часть тела прямо.

2. Поднять левую ногу на высоту бедра, пропуская подушечку правой стопы.

3. Взрывным движением взяться левой ногой за землю так, чтобы подушечка стопы упала на землю ниже центра массы тела, стоя на обеих ногах.

4. Продолжит чередовать стороны и двигаться вперед.

5. Руки должны следовать за движениями ног, как при беге. Во время выполнения Б-скипа ступня должна быть согнута к голени (тыльное сгибание).

Тренировочный процесс проведен согласно составленного плана тренировки, в котором включены инновационные беговые упражнения, направленные на развитие и совершенствование техники бега, а именно спринтерского (смотрите таблицу 2).

Результаты исследования. Содержание тренировочного процесса легкоатлетов в спринтерском беге способствовала существенному развитию таких показателей как в скорости, так и в силе; оказала повышение на физическую подготовленность: бег на 60, 100, метров, прыжки в длину с места, прыжки тройным с места, прыжки вверх (см., таблица 2).

Таблица 2

**Сравнительная таблица показателей физической подготовленности
легкоатлетов**

№	Принятые контрольные тесты	В начале эксперимента n=11		В конце эксперимента n=11		Разница	%	Достоверность различия
		$\bar{X} \pm \Omega$	В%	$\bar{X} \pm \Omega$	В%			
1	Бег на 60 метров	8,218±0,715	8,7	7,836±0,727	9,3	0,1	1,2	t=2,2 p< 0.05
2	Бег на 100 м	14,0 ±1,28	9,1	13,1±0,9	6,9	0,9	6,9	t=3,7 p< 0.01
3	Прыжки в длину с места	207,5±19,96	9,6	218,7±19,56	8,9	11,2	-5	t=2,4 p< 0.05
4	Тройной прыжок с места	613,8±63,69	10,3	636±65,33	10,3	17,8	-3,5	t=1,4 p> 0.05
5	Прыжок вверх	47,5±5,84	12,2	52,5±6,07	11,6	5	-9	t=3,5 p< 0.01

Сравнивая, показатели группы, до и после эксперимента, тренирующихся по общей методике, по окончании эксперимента, можно заметить значительное улучшение нижеследующих результатов, как эффект учебно-тренировочный процесса в которой был включён комплекс упражнений скоростного характера.

К выводу можно отнести то что, для совершенствования скоростных способностей спринтеров на этапе подготовительной специализации следует использовать в учебно-тренировочном процессе следующие средства: «А-скип», «Б-скип», Бег 30 м с низкого старта, бег с максимальной скоростью, бег с минимальным напряжением мышц, (бег с расслаблением плечевым поясом, бег с закрытыми глазами и т.д.). Прыжки в длину, в высоту с максимально быстрым отталкиванием, силовые упражнения с весом 30-40 % от веса спортсмена. Исходя из проведённых исследований можно констатировать тот факт, что хороший спринтерский бег в целом характеризуется свободной, кажущейся лёгкостью движений по причине отсутствия излишнего мышечного напряжения. Хорошим считается бег того спортсмена, который, достигнув максимальной скорости в стартовом разбеге, в меньшей теряет её в беге по дистанции. Борясь с прогрессирующим утомлением. В ходе эксперимента нам удалось экспериментально обосновать комплекс упражнений скоростного характера. Сравнительный анализ изменения технической подготовленности в эксперименте позволил установить, что в течении всего времени наблюдался достоверный прирост на уровне значимости 0,05 силовых и скоростных показателей у испытуемых. В связи с этим можно сделать заключение что предложенный набор упражнений подобран верно, и действительно правильная постановка стопы благоприятно влияет на увеличение скорости спринтера.

Список использованной литературы

1. Khaydarov U. R. Features of the Training Process Aimed to Perfection Speed Qualities //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 207-211.
2. Хайдаров У. Р. 7. УР Хайдаров Обоснование влияния правильной постановки стопы на увеличение скорости бега: УР Хайдаров, АУ Эргашев, РХ Кадиров //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 1. – С. 65-74. (Дата обращения 21.10.2023)

3. Кадиров Р. Х., Хайдаров У. Р. ОСОБЕННОСТИ ТРЕНИРОВОЧНОГО ПРОЦЕССА НАПРАВЛЕННАЯ НА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СКОРОСТНЫХ КАЧЕСТВ СПРИНТЕРОВ: 10.53885/edinres. 2022.43. 80.022 РХ Кадиров Доцент кафедры Теории и методики физической культуры, к. п. н. УР Хайдаров Магистрант БГУ //Научно-практическая конференция. – 2022. – С. 493-496.

4. Мещеряков А.В Педагогическая интерпритация информации о биомеханических характеристиках спринтерского бега спортсменов. (Ульяновский государственный педагогический университет имени И.Н.Ульянова г. Ульяновск, Россия ОРСИД: 0000-0003-4371-8920, aleksey236632@yandex.ru)

5. Реутова О.В. Григорьева Е.Л. Оптимизация специальной физической подготовки легкоатлетов в учреждении дополнительного образования / Азимут научных исследований: педагогика и психология. 2018 г. стр. 199-201 Т. 7. № 1(22). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/optimizatsiya-spetsialnoy-fizicheskoy-podgotovki-legkoatletov-v-uchrezhdenii-dopolnitelnogo-obrazovaniya>

(Дата обращения 18.10.2023)

6. Khaidarov U. R. Technique of Movement of Sprinters' Legs Affecting the Increase in Sprint Speed // Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 49-54.

7. Семенова О.Ю., Попов А.П. Совершенствование системы спортивной подготовки легкоатлетов высших учебных заведений, Наука-2020, № 1 (37) 2020 г стр.100/184-104/184 URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/sovershenstvovanie-sistemy-sportivnoy-podgotovki-legkoatletov-v-vysshih-uchebnyh-zavedeniyah/veawer>.

8. Шикарова Л.И., Алексюк А.А., Анципович В.И. Формирование техники бега на спринтерской дистанции. УДК 796.012 2016 г. стр. 249-253

URL: <http://elib.institutemvd.by>.

<https://www.suunto.com/sports/News-Articles-container-page/8-essential-running-form-drills/>.

KIMYOVIY TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL VA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARNING AXAMIYATI

Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich

Farg'ona davlat universiteti kimyo kafedrasida o'qituvchisi

<https://orcid.org/0000-0002-7802-3777>

Annotatsiya: Kimyoviy texnologiya fanini o'qitishda interfaol pedagogik metodlar va innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanib o'qitishning bir necha turlari berilgan. Ta'lim samaradorligini oshirish uchun elektron ta'lim platformalari, virtual simulyatsiyalar, animatsiyalar va interaktiv multimedia, muammoli vaziyat, klaster, case-study, o'yinli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'qitish tajribasi, ularning afzalliklari va ta'lim texnologiyalarining samaradorligini o'rganish, taxlillar va natijalar muhokama qilindi.

Kalit so'zlar: Ta'lim-texnologiyalar, virtual-simulyatsiya, 3D-model, multimedialar, klaster, case-study, rolli-o'yin

ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ И ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ХИМИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ

Юнусов Мирзохид Мирзакаримович

преподаватель кафедры химии, Ферганский государственный университет

Аннотация: В преподавании химической технологии существует несколько типов обучения с использованием интерактивных педагогических методов и инновационных образовательных технологий. Обсуждается педагогический опыт использования электронных образовательных платформ, виртуальных симуляций, анимации и интерактивных мультимедиа, проблемных ситуаций, кластеров, кейсов, игровых образовательных технологий для повышения эффективности обучения, их преимуществ и эффективности изучения образовательных технологий, анализа и результатов.

Ключевые слова: Образовательные технологии, виртуальное моделирование, 3D-модель, мультимедиа, кластер, кейс-стади, ролевая игра

IMPORTANCE OF INTERACTIVE AND INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE EFFICIENCY OF CHEMICAL TECHNOLOGY TEACHING.

Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich

Lecturer, Department of Chemistry, Fergana State University.

Abstract: There are several types of teaching using interactive pedagogical methods and innovative educational technologies in the teaching of chemical technology. Teaching experience of using electronic educational platforms, virtual simulations, animations and interactive multimedia, problem situation, cluster, case-study, gaming educational technologies to improve educational efficiency, their advantages and effectiveness of educational technologies study, analyzes and results are discussed.

Key words: Educational technologies, virtual simulation, 3D model, multimedia, cluster, case study, role-playing game

Kirish

Kimyoviy texnologiya fani bilan bog'liq murakkab jarayonlarni har tomonlama tushunish uchun ma'ruzalar va darsliklar kabi an'anaviy o'qitish usullari etarli bo'lmasligi mumkin. Ushbu maqola kimyoviy texnologiya fanini o'qitishga pedagogik texnologiyani qo'llash mumkin bo'lgan afzalliklarini o'rganishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili

Respublikamiz va xorijiy davlatlarning olimlari tomonidan bo'lajak kimyo mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash sohasida bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lib, kimyogarlarni tayyorlashning o'ziga xos jihatlari: A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, B.Z.To'raev; kasbiy-metodik tayyorgarlikni orttirish: R.X.Djuraev, U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, O'.Q.Tolipov, J.O.Tolipova, O.Qo'ysinov, M.Usmonova; xususiy-metodik darajada kimyo o'qitish metodikasini takomillashtirish, kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish: Sh.Mirkomilov, H.Omonov, S.Nizomova, M.Nishonov, M.Umarov, A.Mamajonov, J.Fayozov, T.Gulboev, A.Azimov, Sh.Begmatov, E.Eshchanov, F. Alimova, L. Zaylobov, O.Steshina, M.Ajjeva, N.I.Kamolova, S.Nizomova, X.Rajabov, I.Shernazarov va Sh. Shomurotova, Sh.Mamajonov, A.Jumanov, O.O'rinovalarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlarida bo'lajak kimyo mutaxassislarni tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlariga oid izlanishlar: O.A.Abdullina, V.L.Blinova, L.F.Blinov, N.L.Buylova O.S.Zaysev, M.I.Dyachenko, L.A.Kandibovich, V.I.Levashov, N.Ye. Kuznesova, G.V.Lisichkina, L.P.Ochirova, V.A.Slastenin,

D.N.Uznadze, N.S.Leytes, A.I.Savenkov, A.B.Xutorskiy, A.M. Matyushkina, V.I. Panov, V.P. Lebedeva, A.I. Dorovskiylar tomonidan olib borilgan;

Xorijda bo'ljak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalari tarkibiy tuzilishi, mazmuni, shakllanganlik darajasini baholash masalalari M. Van Boekel va boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan.[5]

Biroq ushbu olimlarning tadqiqot ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida kimyoviy texnologiya fanini o'qitish metodikasi maxsus o'rganilmaganligi, fanning mavzularini mazmun va moxiyatiga qarab, pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish mazkur maqolaning ahamiyatini oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Pedagogik texnologiyalar talabalarning kimyo faniga qiziqishini, tajribasini, amaliy ko'nikmalarini, analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishda qo'llaniladi. Kimyoviy texnologiya fani mashg'ulotini o'qitishda bir nechta pedagogik texnologiyalar foydalaniladi. Amaliy mashg'ulotlar laboratoriyada talabalarga kimyoviy ishlab chiqarishning amaliyot qismiga yo'naltirishni o'rganishga yordam beradi. Texnik tasavvurlash usuli 3D model, multimedialar, animatsiyalar va boshqa vizual vositalardan foydalaniladi. Guruh ish birliklari talabalarning hamkorlik, kommunikatsiya va jismoniy ish bilan bog'liq ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Muammolar va savollar talabalarning kimyo bilimlarini rivojlantirishga yordam beradi. Pedagogik texnologiyalar talabalarning ilmiy-tajribaviy faoliyatini rivojlantirish va kimyoviy texnologiya fanini nazariy va amaliy o'rganishda yordam beradi.

Kimyoviy texnologiya fanini o'qitishni samaradorligini oshirish uchun pedagogik texnologiyalarning qo'llaniladi. Bu texnologiyalar elektron o'quv platformalari, virtual reallik simulyatsiyalari, interaktiv multimedia kontenti va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalarning ta'limga integratsiyalashuvi ta'lim natijalarini yaxshilash, talabalar faolligini oshirish va murakkab tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam berishini ko'rsatdi.

Kimyoviy texnologiya fani mavzularini o'zlashtirishda pedagogik texnologiyadan foydalanishning bir qancha afzalliklari bor. Asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u talabalarga tezlik bilan o'rganish imkonini beradi. Pedagogik texnologiyaning yana bir afzalligi shundaki, u talabalarga yanada qiziqarli va interaktiv mashg'ulotni taqdim etadi. Bu motivatsiyani oshirish va ma'lumotlarni eslab qolishga yordam beradi. Interaktiv simulyatsiyalar, masalan, talabalarga ishlab chiqarish jarayonini xavfsiz va boshqariladigan muhitda mashq qilish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar

Kimyoviy texnologiya fanini o'rgatish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan bir nechta ta'lim texnologiyarni ko'rib chiqamiz.

Virtual simulyatsiya texnologiyasidan foydalanish: Talabalar 3D model, multimedialar, animatsiyalar va boshqa vizual vositalar foydalaniladi. Bunda talabalar kimyoviy ishlab chiqarish jarayonlarida xom ash'yoni qanday tayyorlash, materiallarni yig'ish, reaksiyalarni bajarish va natijalarni baholash kabilarni ko'rib chiqish va tasavvurlash orqali tushuntiriladi. Virtual simulyatsiyalari kimyoviy texnologiya fanini o'rganayotgan talabalar uchun haqiqiy ishlab chiqarish muhitini xis qilish orqali virtual simulyatsiya talabalarga tegishli jarayonlarni chuqurroq tushunishga va xavfsiz va boshqariladigan muhitda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu amaliy yondashuv bilimlarni saqlashni yaxshilashga va real hayotdagi ilovalarga yaxshiroq tayyorgarlik ko'rishga olib keladi. Meneral o'gitlar, sulfat, nitrat va xlorid kislotalar ishlab chiqarish va boshqa murakkab tuzilishishga ega bo'lgan texnologik jarayonlarni virtual simulyatsiya orqali talabalarga namoyish qilish o'qitish samadorligini oshishiga xizmat qiladi.

Interaktiv multimedialardan foydalanish: Animatsiyalar va simulyatsiyalar kabi interaktiv multimedia kontenti talabalarga kimyoviy texnologiya fani bilan bog'liq murakkab jarayonlar va tushunchalarni tasavvur qilishda yordam beradi. Ushbu turdagi kontent, ayniqsa, an'anaviy o'qitish usullarida ta'lim olayotgan talabalar uchun foydali bo'ladi, chunki bu ularga material bilan yanada dinamik va interaktiv tarzda shug'ullanish imkonini beradi.

